O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

GIYOHVANDLIK VA NARKOJINOYATLARGA QARSHI KURASHISH SOHASIGA OID MILLIY QONUNCHILIK BAZASINI TAKOMILLASHTIRISH

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI

2026-yil 31-mart

TOSHKENT

Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasiga oid milliy qonunchilik bazasini takomillashtirish// mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti. – 2026 y. – 375 b.

Mazkur to‘plamda O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professor o‘qituvchilari, doktorant, mustaqil izlanuvchilari, magistratura tinglovchilari va kursantlarning, sohaviy xizmatlar, respublikamizning yetakchi oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari va izlanuvchilarining ilmiy maqolalari o‘rin olgan.

Mas’ul muharrir: Nurmatov M.M., y.f.d., professor

Tahrir hay’ati: Beksariyev X.Q., dotsent;
Pulatov Y.S., y.f.d., professor;
Yuldasheva G., y.f.d., professor;
Umarxanova D.Sh., y.f.d., professor;
Maxsadov M.I., y.f.d., dotsent;
Ikramov A.A., y.f.b.f.d, dotsent;
Payziyev A.M., y.f.b.f.d, dotsent;
Maxamatov M.M., y.f.b.f.d, dotsent;
Jo‘rayev J.R., y.f.b.f.d;
Rizoyev F.F. y.f.b.f.d;
Ravshanov U.M.;
Ishmuratov E.I.

Mualliflarning nuqtayi-nazarlariga putur yetkazmaslik maqsadida ilmiy to‘plamga kiritilgan ilmiy maqola va tezislar texnik jihatdan tahrir qilingan, tahrir hay’ati matnlarda uchraydigan ba’zi bir noaniqliklar uchun javobgarlikni o‘zidan soqit qiladi. Shuningdek, ilmiy to‘plamga kiritilgan maqolalarning mazmuni, mazkur maqolalarda keltirib o‘tilgan statistik va boshqa ma’lumotlarning aniqligi uchun mualliflar mas’ulligi belgilanadi.

© O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2026

KIRISH SO‘ZI

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev rahbarligida bugungi kunda Respublikamizda giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasiga oid milliy qonunchilik bazasini zamonaviy xavf-xatarlar asosida tubdan takomillashtirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, giyohvandlik vositalarining internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalishi, kriptovalyutalar yordamida moliyaviy hisob-kitoblarni amalga oshirish, sintetik va yangi psixoaktiv yoki kuchli ta’sir qiluvchi moddalar aylanmasining ortishi, transmilliy jinoiy guruhlar faolligining kuchayishi kabi tahdidlar huquqiy normalarni zamon talablari asosida qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida normativ-huquqiy hujjatlar axborot texnologiyalari sharoitida sodir etilayotgan jinoyatlarni qamrab olish, jinoiy javobgarlik mexanizmlarini aniq belgilash, profilaktika va reabilitatsiya choralarini huquqiy jihatdan mustahkamlashga qaratilmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatimizda giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini raqamli davr talablariga mos ravishda modernizatsiya qilish jarayoni izchil davom etmoqda.

Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasida milliy qonunchilikni takomillashtirish nuqtai nazaridan bugungi kunda qator dolzarb muammolar mavjud.

Xususan, so‘nggi yillarda giyohvandlik vositalarini sotishda internet va ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanilayotgani huquqiy tartibga solish mexanizmlarini yanada takomillashtirishni talab etmoqda. Giyohvandlik vositalarini reklama qilish, mijozlarni jalb etish, sotish va yetkazib berish jarayonlarining onlayn platformalar orqali amalga oshirilishi mazkur faoliyatni tashkil etuvchi shaxslarni aniqlash va jinoiy javobgarlikka tortishni murakkablashtirmoqda.

Oxirgi yillarda axborot texnologiyalari orqali sodir etilgan giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi oshib borayotgani amaldagi jinoyat-huquqiy normalarni raqamli muhit sharoitiga moslashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Xususan, internet tarmoqlari, messenjerlar, anonim akkauntlar va raqamli to‘lov vositalari orqali sodir etilayotgan jinoyatlar uchun alohida kvalifikatsiya belgilari va javobgarlik choralarini aniq belgilash talab etiladi.

Shuningdek, mazkur jinoyat sxemalariga voyaga yetmaganlarning jalb etilayotgani qonunchilikda ularni alohida himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirishni taqozo etmoqda. Voyaga yetmaganlarni giyohvandlik jinoyatlariga jalb qilganlik uchun javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat sifatida belgilash, shuningdek profilaktik choralarni huquqiy jihatdan mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning quyi bo‘g‘inlarida internet orqali sodir etilayotgan giyohvandlik jinoyatlarini fosh etish bo‘yicha texnik imkoniyatlar va ixtisoslashgan kadrlar salohiyati yetarli darajada emasligi ham qonunchilik va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, tezkor-qidiruv faoliyatini raqamli makonda amalga oshirish tartibini aniq belgilash, elektron dalillarni to‘plash va mustahkamlashning protsessual asoslarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasida milliy qonunchilik bazasini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sharoitiga mos ravishda takomillashtirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan anonim va soxta akkauntlar orqali sodir etilayotgan jinoyatlarni fosh etishdagi mavjud to‘siqlar kibermakonda jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanayotgan shaxslarning javobgarlikdan chetda qolishiga sharoit yaratmoqda. Bu esa amaldagi jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligida raqamli muhitda shaxsni identifikatsiya qilish, elektron dalillarni to‘plash va mustahkamlash mexanizmlarini yanada aniqlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, internet orqali sodir etilgan giyohvandlik jinoyatlari uchun alohida kvalifikatsiya belgilari va protsessual tartiblarni belgilash maqsadga muvofiqdir.

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida sintetik giyohvandlik vositalari ulushining oshib borayotgani ham milliy qonunchilikni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Giyohvand moddalar savdosi tashkilotchilari ayrim hollarda davlat hududining o‘zida laboratoriyalar tashkil etib, sintetik moddalarni ishlab chiqarish va muomalaga kiritishni yo‘lga qo‘ymoqda. Bunday sharoitda yangi psixoaktiv moddalar va ularning analoglarini tezkor ravishda taqiqlangan moddalar ro‘yxatiga kiritishning soddalashtirilgan huquqiy mexanizmlarini joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, Shanxay hamkorlik tashkiloti (keyingi o‘rinlarda ShHT) va Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ular prekursorlarining qonunga xilof ravishda muomalada bo‘lishiga qarshi kurashish bo‘yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot muvofiqlashtirish markazi doirasida mazkur sohada tezkor ma’lumotlar almashinuvini jadallashtirish va ushbu tashkilotlarning imkoniyatlaridan kengroq foydalanish zaruriyatini ko‘rsatmoqda.

Bundan tashqari, mintaqa davlatlarida giyohvandlik va narkojinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikni belgilashdagi farqlar transmilliy jinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, birgina geroin (diasetilmorfin) moddasining noqonuniy muomalasi uchun jinoiy javobgarlik turlicha belgilangan. Bu esa jinoyatchilar tomonidan qonunchilikdagi farqlardan foydalanish ehtimolini yuzaga keltiradi.

Shu nuqtai nazardan, mintaqa doirasida jinoiy javobgarlik me’yorlarini muayyan darajada uyg‘unlashtirish, ayniqsa giyohvandlik vositalari miqdoriga oid mezonlarni yaqinlashtirish milliy qonunchilikni takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i,
yuridik fanlar doktori, professor,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist

GLOBAL TAHDIDLAR SHAROITIDA MILLAT GENOFONDINI ASRASH: GIYOHVANDLIK VA NARKOJINOYATLARGA QARSHI KURASHISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA SAMARALI YECHIMLARI

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i,
yuridik fanlar doktori, professor.
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist

Bugungi globallashuv va raqamlashuv jadal kechayotgan sharoitda giyohvandlik va narkojinoyatlar insoniyat oldida turgan eng dolzarb va ko‘p qirrali ijtimoiy muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur illat an’anaviy shakllardan chiqib, transmilliy uyushgan jinoyatchilik, “onlayn” tarmoqlar orqali tarqatilayotgan sintetik narkotiklar hamda yashirin savdo mexanizmlari orqali yanada xavfli tus olmoqda. Natijada, giyohvandlik nafaqat alohida shaxs salomatligiga, balki jamiyat barqarorligi, yoshlar tarbiyasi va kelajagi, shuningdek, millat genofondiga jiddiy tahdid soluvchi omilga aylanmoqda.

Ayniqsa, yoshlar orasida giyohvand moddalar iste’molining ortib borayotgani, ularni internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali jalb qilish holatlarining kuchayishi, narkotik vositalarning noqonuniy aylanmasi va u bilan bog‘liq jinoyatlarning murakkablashib borayotgani har bir davlat oldida yangi chaqiriq va tahdidlarni yuzaga keltirmoqda. Shu jihatdan, giyohvandlikka qarshi kurashish masalasi nafaqat huquqiy yoki tibbiy muammo, balki milliy xavfsizlik, ijtimoiy barqarorlik va barqaror rivojlanishni taminlashning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Millat genofondi — bu xalqning biologik, ma’naviy va intellektual salohiyatini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Uni turli zararli illatlardan, jumladan giyohvandlik va narkojinoyatlardan himoya qilish jamiyat taraqqiyoti va kelajak avlod farovonligini ta’minlashning muhim shartidir. Shu bois giyohvandlikka qarshi kurashish faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi bo‘lib qolmay, balki butun jamiyat, davlat institutlari, ta’lim muassasalari hamda jamoatchilikning hamkorlikdagi faoliyatini talab etadi. Bu borada davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev o‘zlarining 2025-yil 26-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi “Endi narkojinoyatlarga qarshi kurashishni umummilliy harakatga aylantirib, jamiyatda bu illatga murosasiz muhit yaratamiz. Yurimizdagi har bir bola, har bir yosh – bizning farzandimiz, ularni giyohvandlik changaliga tashab qo‘yishga aslo yo‘l qo‘ymaymiz!

Giyohvandlikni tag-tomiri bilan butkul yoqotish, yoshlarimizda kuchli ma’naviy-ruhiy immunitutni shakllantirish bo‘yicha barcha kuch va

imkoniyatlarimizni safarbar qilamiz” [1] degan edilar.

Darhaqiqat, jamiyat rivojiga to‘sqinlik qiluvchi omillardan biri bu - giyohvandlik vositalari hisoblanadi, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning qonunga xilof ravishda aylanishiga qarshi kurashish muammosi bir davlat chegarasidan chiqib, jahon hamjamiyatiga jiddiy tahdidlarni keltirib chiqarmoqda.

Mazkur tahdidlarga qarshi kurashish yo‘nalishida olib borilayotgan choralarga qaramasdan, mamlakatimizda giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning qonunga xilof ravishda aylanishining kengayib borayotganligi, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalarni notibbiy iste’mol qilinishining o‘sayotganligi kuzatilmoqda.

Jumladan, 2025 yilda respublikada huquq-tartibot idoralarining sa’y-harakatlari natijasida giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasi bilan bog‘liq 15 412 ta jinoyat va 1 956 ta ma’muriy huquqbuzarlik aniqlandi.

Eng ko‘p jinoyatlarni giyohvandlik vositalarini o‘z iste’moli uchun saqlash *(JK 276-modda – 41 foizi yoki 6 387 tasi)*, qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish *(JK 273-modda – 36 foizi yoki 5 577 tasi)* va taqiqlangan ekinlarni yetishtirish *(JK 270-modda – 13 foizi yoki 1 968 tasi)* holatlari tashkil etadi.

Narkojinoyatlarning 53 foizi Toshkent shahri (3 986 ta), Farg‘ona (2 178 ta) va Toshkent (1 954 ta) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Tezkor tadbirlar natijasida 3 tn 413 kg narkotik, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasiga chek qo‘yilib, iste’molga chiqib ketishining oldi olingan.

Giyohvandlik vositalarining eng ko‘pini “gashish” (48 foiz yoki 1 tn 470 kg) va “opiy” (27 foiz yoki 819 kg) moddalari tashkil etgan.

14 ta yashirin narkolaboratoriyalar aniqlanib, ularda saqlangan jami 75 kg giyohvandlik vositalari va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar musodara qilingan.

Narkojinoyat sodir etgan 11 049 nafar shaxslar javobgarlikka tortilgan. Achinarlisi, jinoyatchilarning 59 nafarini maktab o‘quvchilari, 124 nafarini talabalar tashkil etgan [2].

Yuqorida ko‘rsatilgan statistik ma’lumotlarning o‘zi ham bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirish lozimligini ko‘rsatmoqda. Albatta bu kabi jinoyatlarning ko‘payib borishi jamiyatda salbiy muhitni yuzaga keltirishi bilan bir qatorda millitning genofondiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Mamlakatimizda bu illatga qarshi kurashish allaqachon davlat siyosatining muhim qismiga aylanib ulgurgan, so‘ngi yillarda prezidentimiz boshchiligida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish borasida ko‘plab ijobiy ishlar amalga oshirildi, jumladan:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi narkotik moddalarni

nazorat qilish Milliy axborot-tahlil markazi dastlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Narkotiklarni nazorat qilish milliy markazi qilib qayta tashkil etilgan bo‘lsa, joriy yilda ushbu davlat organi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Narkotiklar va o‘qotar qurollarni nazorat qilish agentligiga aylantirildi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 6-may kunidagi “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta’sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-sonli Farmoni [3] bilan “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha 2024 — 2028-yillarga mo‘ljallangan Milliy strategiya”si qabul qilindi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-noyabrdagi “Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-207-son Farmoni qabul qilindi [4].

Bir so‘z bilan aytganda prezidentimiz boshchiligida giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish bo‘yicha yangi davr boshlandi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shu bilan birga giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashishning bugungi kundagi ayrim dolzarb muammolar ham mavjud, jumladan:

Birinchidan, ushbu jinoyatlarni sodir etishda Internetdan keng foydalanilmoqda va mazkur faoliyat tashkilotchilarini aniqlash murakkabligicha qolmoqda;

Ikkinchidan, mazkur jinoyat sxemalarida voyaga etmaganlar “giyohvandlik biznesi”ning faol ishtirokchilari sifatida shakllantirilmoqda;

Uchinchidan, Internetda giyohvandlik vositalari savdosini aniqlashning texnik imkoniyatlari cheklanganligi kuzatilmoqda;

To‘rtinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat olib borayotgan anonim va soxta akkauntlarni aniqlashda to‘siqlar mavjud;

Beshinchidan, giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomilasi va iste’molida sintetik giyohvandlik vositalari aylanmasi oshmoqda;

Oltinchidan, ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish mintaqaviy yondashuvni kuchaytirishni va xalqaro tashkilotlar imkoniyatlaridan kengroq foydalanish zaruriyatini ko‘rsatmoqda.

Yettinchidan, mintaqa davlatlarida giyohvandlik va narkojinoyatlarga jazo tayinlashda talablar bir-biridan farqlanadi.

Masalan, ayrim davlatlar qonunchiligi tahlil qilinganda, geroin (diasetilmorfin) moddasini noqonuniy muomilasi uchun jinoiy javobgarlikni belgilash O‘zbekistonda

0,001 grammdan, Xitoy va Qirg‘izistonda 1 grammdan, Qozog‘istonda esa 0,1 grammdan boshlanishi belgilangan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, Internetda giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashishning dasturiy ta’minotini rivojlantirish:

– yashirin virtual guruhlarni aniqlashga mo‘ljallangan maxsus dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish;

– dasturchi va organlar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish orqali innovatsion ishlanmalarini yaratish.

Ikkinchidan, aholining ogohligini kuchaytirish va huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish:

– aholi, ayniqsa ota-onalar va ta’lim muassasalari xodimlarini giyohvandlik vositalari, ular ta’siriga tushgan shaxs belgilari va profilaktik choralar haqida xabardorligini oshirish;

– xabar bergan fuqarolarni moddiy rag‘batlantirish mexanizmini ishlab chiqish.

Uchinchidan, qarshi kurashuvchi organlar salohiyatini oshirish. Bunda,

– tajriba tariqasida eng ko‘p jinoyat qayd etilgan viloyatlar (Toshkent shahri, Farg‘ona va Toshkent viloyatlari) IIB tezkor bo‘linmalarida Internet tarmog‘ida tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish xizmatini tashkil etish;

– organlar ta’lim muassasalarida tor doiradagi “narko-kiber-yurist” va “narko-kiber-tezkor vakil” ta’lim yo‘nalishlarini ochish;

– tezkor xodimlarni Internet tarmog‘ida tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish bo‘yicha uzluksiz qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yo‘lga qo‘yish.

To‘rtinchidan, giyohvandlikni oldini olish, qarshi kurashish, barvaqt tashxislash, davolash va reabilitatsiya qilish kabi dolzarb masalalar yuzasidan HMQOlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan har yili amaliy tadqiqotlar tanlovini tashkil qilish va o‘tkazish.

Beshinchidan, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va tegishli tashkilotlar imkoniyatlaridan keng foydalanish, hamda narkojinoyatchilikning zamanaviy ko‘rinishlariga qarshi kurashi bo‘yicha BMT doirasida yangi konvensiya qabul qilish:

– ShHT doirasida giyohvandik vositalarining noqonuniy muomalasida jinoiy javobgarlikni belgilashda ularning miqdorlariga oid davlatlar qonunchiligini unifikatsiyalash;

– ShHTning tegishli organlarining giyohvandlik vositalariga qarshi kurashish vakolatlarini kengaytirish;

– Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot muvofiqlashtirish markazining onlayn platformasida giyohvandlik va narkojinoyatlariga oid ma’lumotlarni o‘z vaqtida kiritish mexanizmlarini ishlab chiqish;

Oltinchidan, barcha davlat organlarida faoliyat yurituvchi xodimlarni giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni aniqlash bo‘yicha majburiy tibbiy (ushbu amaliyot Yaponiya, AQSh, Singapur, Rossiya kabi davlatlarda mavjud) qo‘rikdan o‘tkazish amaliyotini joriy etish.

Ta’kidlab o‘tish lozimki yuqorida ko‘rsatilgan ma’lumotlarni hisobga olgan holda amaldagi normativ huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, ushbu sohaga yangi texnologiyalarni joriy etish huquqni muhofaza qiluvchi organlarning sa’y-harakatlarni yanada samaraliroq bo‘lishiga xizmat qilish bilan birga jamiyatning barqaror rivojlanishi, oilalarning tinchligi va osoyishtaligi ta’minlanishiga erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, giyohvandlik va narkojinoyatlar jamiyat taraqqiyoti, yoshlar kelajagi hamda millat genofondiga jiddiy xavf tug‘diruvchi global muammolardan biridir. Ushbu illatning oldini olish va unga qarshi samarali kurashish faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati bilan cheklanib qolmasdan, balki davlat, jamiyat, ta’lim muassasalari va keng jamoatchilikning hamkorligini talab etadi. Ayniqsa, yosh avlodni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish, giyohvandlikning salbiy oqibatlari haqida keng targ‘ibot ishlarini olib borish va profilaktik choralarni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishda qonunchilikni takomillashtirish, zamonaviy nazorat mexanizmlarini joriy etish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish muhim omil hisoblanadi. Faqatgina kompleks va tizimli yondashuv orqali giyohvandlikning oldini olish, narkojinoyatlarni kamaytirish va millat genofondini ishonchli himoya qilish mumkin. Demak, sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, jamiyatni giyohvandlik illatidan asrash hamda millat genofondini himoya qilish har birimizning muhim fuqarolik burchimizdir. Ana shundagina kelajak avlod uchun sog‘lom, barqaror va farovon jamiyatni barpo etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining qarori, 30.12.2025 yildagi 1598-V-son “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasidan kelib chiqadigan vazifalar to‘g‘risida” https://lex.uz/uz/docs/-8006623

2. . Narkotiklar va o‘qotar qurollarni nazorat qilish agentligi. https://ncdc.uz/.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.05.2024 yildagi PF-73-son “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta’sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/docs/6912475

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-noyabrdagi “Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-207-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-2655293.

НОДАВЛАТ НОТИЖОРАТ ТАШКИЛОТЛАРИ ТЎҒРИСИДАГИ ҚОНУНЧИЛИКНИ БУЗГАНЛИК УЧУН ЮРИДИК ЖАВОБГАРЛИК АСОСЛАРИ

Ширинов Джахонгир Джаббарович
Олий Мажлис Қонунчилик палатаси қўмита раиси

Давлат одамларнинг яшаш тарзини конституция ва қонунлар асосида амалга оширилишини, барчанинг қонун олдида тенглигини ва қонундан ҳеч ким устун эмаслигини таъминлашга ҳамда буларни барчасини инсонлар онгига сингдиришга масъул. Буни амалга ошириш учун эса давлат бошқарувида бир қатор воситалардан, шу жумладан маъмурий мажбурлов чораларидан ҳам фойдаланилади.

Маъмурий мажбурлов, уни қўллаш асосларидан келиб чиқиб турли кўринишларда, хусусан: давлат ва жамият эҳтиёжларидан келиб чиқиб қўлланиладиган чоралар; профилактик-назорат тартибида қўлланиладиган чоралар; маъмурий тартибда ҳуқуқни тиклаш чоралари; маъмурий тўхтатиш чоралари; процессуал таъминлаш чоралари; маъмурий жазо чоралари тарзида бўлиши мумкинлигини ҳамда уларнинг барчаси у ёки бу ҳаракатларни содир этишга, ёхуд улардан сақланишга, ёки белгиланган чекловларга риоя этишга мажбурлаш мақсадида қўлланилади.

Нодавлат нотижорат ташкилотларига нисбатан қўлланиладиган маъмурий мажбурлов чораларини икки гуруҳга, яъни ҳуқуқбузарлик билан боғлиқ бўлмаган асосларда қўлланиладиган ҳамда ҳуқуқбузарлик сабабли қўлланиладиган маъмурий мажбурлов чораларига бўлиш мумкин.

Бунда, **ҳуқуқбузарлик билан боғлиқ бўлмаган** асосларда қўлланиладиган маъмурий мажбурлов чоралари давлат ва жамият эҳтиёжларидан келиб чиқиб (масалан, йирик ҳалокатлар, табиий офатлар, реал ташқи хавф, оммавий тартибсизликлар ва бошқ) ҳамда профилактик-назорат тартибида (масалан, қонунбузарликлар эҳтимолини олдини олиш мақсадида огоҳлантириш тарзида) қўлланилиши мумкин.

Ҳуқуқбузарлик сабабли қўлланиладиган маъмурий мажбурлов чоралари маъмурий тартибда ҳуқуқни тиклаш, маъмурий тўхтатиш, процессуал таъминлаш ҳамда маъмурий жазо чоралари ҳисобланади.

Шунга мувофиқ, нодавлат нотижорат ташкилотларига нисбатан маъмурий мажбурлов чораларини – «қонунчилик ҳужжатлари, техник жиҳатдан тартибга солувчи норматив ҳужжатлар ва таъсис ҳужжатлари талаби бузилганлиги муносабати билан ёки ҳуқуқбузарлик аломатлари йўқлигидан қатъий назар давлат функцияларини амалга ошириш заруратидан келиб чиқиб, у ёки бу ҳаракатларни содир этишга, ёхуд улардан сақланишга, белгиланган

чекловларга риоя этишга, фаолиятини тўхтатиш ёки тугатишга, белгиланган жазо чорасини ижро этишга мажбурловчи қонунчиликда назарда тутилган таъсир воситаларидир", десак бўлади.

Маъмурий мажбурлов чораларидан бири сифатида нодавлат нотижорат ташкилотлари вакилларига нисбатан маъмурий жазо чораларини қўллаш институтининг ўзига хос жиҳатларини таҳлил этадиган бўлсак, айтиш лозимки кўпгина жавобгарлик чоралари нодавлат нотижорат ташкилоти томонидан ўз мажбуриятларини бажармаслик оқибатида келиб чиқади.

Маълумки мажбурият икки хил, яъни ваколатли субъект фойдасига муайян фаол ҳаракатларни амалга ошириш ҳамда ҳуқуқ нормалари билан тақиқланган хатти-ҳаракатлардан ўзини тийиш мазмунида ифодаланади.

Таъкидлаш жоизки, нодавлат нотижорат ташкилотларининг мажбуриятлари, худди уларнинг ҳуқуқлари каби қуйидаги 2 турга бўлинади:

биринчиси, нодавлат нотижорат ташкилотларининг умумий мажбуриятлари;

иккинчиси, нодавлат нотижорат ташкилотларининг махсус мажбуриятлари.

Нодавлат нотижорат ташкилотларининг умумий мажбуриятлари барча нодавлат нотижорат ташкилотларига тааллуқли бўлади. Жумладан, "Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 8-моддасида мажбуриятлар санаб ўтилган[1].

Ўзбекистон Республикасининг **Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг 239-моддаси** олтинчи қисмига мувофиқ нодавлат нотижорат ташкилотларининг **ўз фаолияти тўғрисидаги ҳисоботларни** рўйхатдан ўтказувчи органга тақдим этмаслиги, ўз вақтида тақдим этмаслиги ёки белгиланмаган шаклда тақдим этиши, ўз фаолияти тўғрисида била туриб нотўғри маълумотлар тақдим этиши, худди шунингдек **нодавлат нотижорат ташкилотларининг ахборотни,** шу жумладан улар томонидан мол-мулк ва пул маблағларидан фойдаланилиши тўғрисидаги тасдиқловчи ҳужжатларни тақдим этмаслиги мансабдор шахсларга базавий ҳисоблаш миқдорининг ўн бараваридан йигирма беш бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади[2].

Таъкидлаш жиозки, нотижорат ташкилотининг рўйхатдан ўтказувчи органга, давлат солиқ хизмати ва давлат статистикаси органларига **ўз фаолияти тўғрисида белгиланган тартибда ҳисоботлар тақдим этиши –** бу уларнинг мажбурияти сифатида қонунда кўрсатилган.

---

[1] "Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни/ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 йил, № 5, 115-модда.

[2] Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси//Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1995 й., 3-сон; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1995 й., 9-сон, 193-модда, 12-сон, 269-модда.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 10 мартдаги 57-сон қарори билан тасдиқланган Нодавлат нотижорат ташкилотларини давлат рўйхатидан ўтказиш тартиби тўғрисидаги Низомга мувофиқ нодавлат нотижорат ташкилотлари, шунингдек алоҳида бўлинмалар тегишли адлия органига ҳар йили 1 февралгача – ўтган йилдаги ўз фаолияти тўғрисидаги ҳисоботни, шу жумладан фаолиятни молиялаштириш манбалари ва маблағларнинг сарфланиши тўғрисидаги декларацияни, мавжуд аъзолар сони тўғрисидаги маълумотларни Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан тасдиқланадиган шакл бўйича тақдим этишлари назарда тутилган[1].

Юқоридаги Низом талабларидан кўринадики, нодавлат нотижорат ташкилотлари ўз фаолияти ҳақида рўйхатдан ўтказувчи органга бир йилда бир маротаба белгиланган тартибда тасдиқланган шакл асосида ҳисобот тақдим этишади. Мазкур ҳисоботнинг шакли Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2018 йил 27 июндаги 336-мҳ-сон буйруғи билан тасдиқланган (АВ рўйхат рақами №3027, 2018 йил 27 июнь) [2].

Худди шундай, давлат статистика органларига тақдим этиладиган нодавлат нотижорат ташкилотининг фаолияти тўғрисида ҳисобот шакли Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг 2022 йил 16 ноябрдаги 23-мб-сон қарори билан тасдиқланган (АВ рўйхат рақами №3401, 2022 йил 12 декабрь)[3]. Мазкур Қўмитанинг 2021 йил 16 июндаги 9-мб-сон қарори билан статистика ҳисоботини электрон шаклда тақдим этиш тартиби тасдиқланган[4].

Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитасининг 2020 йил 28 январдаги 2020-03-сон қарори билан солиқ ҳисоботи шакллари тасдиқланган (АВ рўйхат рақами №3221, 2020 йил 24 февраль). Мазкур ҳужжат билан ҳар бир солиқ турлари бўйича ҳисобот шакллари тасдиқланган бўлиб, нодавлат нотижорат ташкилотлари томонидан тақдим этиладиган алоҳида

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 10 мартдаги “Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Фуқаролик жамияти институтларини ривожлантиришга кўмаклашиш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» 2013 йил 12 декабрдаги ПҚ-2085-сон қарорини амалга ошириш чора-тадбирлари ҳақида”ги 57-сон қарори// Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 11-сон, 126-модда.

[2] Нодавлат нотижорат ташкилоти томонидан адлия органига тақдим этиладиган ҳисобот шаклини тасдиқлаш ҳақида // Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2018 йил 27 июндаги 336-мҳ-сон буйруғи // [Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2018 йил 27 июнда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3027]// Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 30.09.2022 й., 10/22/3027-1/0882-сон.

[3] Статистика ҳисоботи шаклларини тасдиқлаш тўғрисида // Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг 2022 йил 16 ноябрдаги 23-мб-сон қарори// [Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2022 йил 12 декабрдаги рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3401]// Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 13.12.2022 й., 10/22/3401/1088-сон.

[4] Статистика ҳисоботини электрон шаклда тақдим этиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида//Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг 2021 йил 16 июндаги 9-мб-сон қарори //[Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2021 йил 16 июлда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3312]// Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 16.07.2021 й., 10/21/3312/0684-сон.

ҳисобот шакли назарда тутилмаган[1]. Бинобарин, Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодексига мувофиқ, нодавлат нотижорат ташкилотлари бир қатор солиқ ва бошқа мажбурий тўлов турларидан озод этилган.

Масалан, Солиқ кодексининг 318-моддасига мувофиқ нотижорат ташкилотининг устав фаолиятини амалга ошириши учун мақсадли тушумларга солиқ солинмайди. Худди шундай, Солиқ кодексининг 411-моддасига асосан нотижорат ташкилотлари томонидан нотижорат фаолиятини амалга ошириш доирасида фойдаланиладиган объектлар юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ объекти ҳисобланмайди. Солиқ кодексининг 461-моддасига мувофиқ эса нотижорат ташкилотларига нисбатан айланмадан олинадиган солиқ татбиқ этилмайди. Бундан кўринадики, нодавлат нотижорат ташкилотлари озод этилган солиқ турлари бўйича ҳисобот шаклларини тўлдирмасдан, фақат ўзлари тўлайдиган айрим солиқ ва мажбурий тўловларга тааллуқли бўлган ҳисобот шаклларини тўлдиришлари ва уни тегишли давлат солиқ органига топширишлари лозим бўлади[2].

Бироқ, айтиш жоизки нодавлат нотижорат ташкилотлари ушбу мажбуриятлари бажармаганликлари учун қўлланиладиган жазо санкцияси мутаносиблик принципига мос келмайди. Масалан, юқорида айтганимиздек нодавлат нотижорат ташкилотлари ўз фаолияти тўғрисидаги ҳисоботни рўйхатдан ўтказувчи органга ўз вақтида тақдим этмаса, Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 239-моддаси олтинчи қисмига мувофиқ базавий ҳисоблаш миқдорининг ўн бараваридан йигирма беш бараваригача миқдорда жаримага тортилиши мумкин.

Ваҳоланки, агар тадбиркорлик субъектлари солиқ ҳисоботини ўз вақтида тақдим этмаса Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 175-моддаси иккинчи қисмига мувофиқ фуқаролар базавий ҳисоблаш миқдорининг уч баравари миқдорида, мансабдор шахслар эса – ўн баравари миқдорида жаримага тортилиши мумкин. Яъни бунда нодавлат нотижорат ташкилотлари учун жазо санкциялари тадбиркорлик субъектларига нисбатан икки ярим карра оғирроқ. Баъзи қўшни мамлакатларда ҳам бундай ҳуқуқбузарлик учун кескин жазо бериш назарда тутилмаган. Масалан, Қозоғистон Республикаси Маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги кодексининг 489/1-моддасида нотижорат ташкилотлари томонидан ўз фаолияти тўғрисида ваколатли органга ўз вақтида

[1] Солиқ ҳисоботининг шаклларини тасдиқлаш тўғрисида//Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитасининг 2020 йил 28 январдаги 2020-03-сон қарори//[Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2020 йил 24 февралда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3221]// Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.02.2020 й., 10/20/3221/0203-сон.

[2] Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси// Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz), 2019 йил 31 декабрь

ҳисобот тақдим этилмаганлиги учун жарима эмас, балки огоҳлантириш бериш назарда тутилган.

Шу боис, назаримизда нодавлат нотижорат ташкилотлари томонидан рўйхатдан ўтказувчи органга ўз вақтида ҳисобот тақдим этмаганлик учун жазо санкциясини тадбиркорлик субъектлари учун белгиланган жазо миқдоридан оширмаслик мақсадга мувофиқ.

Айтиш жоизки, баъзи нодавлат нотижорат ташкилотларининг ҳисобот тақдим этиши лозим бўлган **органлар турли қонунларда турлича** кўрсатилган. Жумладан, "Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 33-моддасига мувофиқ нодавлат нотижорат ташкилоти ўз фаолиятининг натижалари ҳисобини юритади ҳамда рўйхатдан ўтказувчи органга, давлат солиқ хизмати органларига ва давлат статистикаси органларига белгиланган тартибда ҳисоботлар тақдим этади[1]. Бунда, нодавлат нотижорат ташкилотлари 3 та давлат органига ҳисобот топшириши кераклиги аниқ кўриниб турибди.

Бироқ, "Жамоат фондлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 19- ва 25-моддаларида жамоат фонди 2 та давлат органига, яъни давлат солиқ хизмати органлари ва давлат статистика органларига ҳисобот тақдим этиши белгиланган[2].

Аслида "Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг талаблари "таянч қонун" сифатида барча шаклдаги нодавлат нотижорат ташкилотларига тааллуқли, яъни жамоат фондлари ҳам рўйхатдан ўтказувчи органга ҳисобот тақдим этади. Шу боис, Ўзбекистон Республикаси адлия вазирлиги томонидан 2018 йил 27 июнда тасдиқланган Нодавлат нотижорат ташкилотининг фаолияти тўғрисида ҳисобот шаклини жамоат фондлари томонидан ҳам тўлдирилиши назарда тутилган[3].

Шундай бўлсада, соҳани тартибга солувчи қонунлар бир-бирига мувофиқ бўлиши лозим, акс ҳолда ҳуқуқни қўлловчилар ўртасида турли баҳсларни вужудга келтириши мумкин.

Шу боис, "Жамоат фондлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 19-моддаси биринчи қисми ҳамда 25-моддаси биринчи қисмини "давлат солиқ хизмати" деган сўзлардан олдин "рўйхатдан ўтказувчи органга" деган сўзлар билан тўлдириш лозим.

---

[1] "Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни/ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 йил, № 5, 115-модда.

[2] "Жамоат фондлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни / Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2003 й., 9-10-сон, 141-модда.

[3] Нодавлат нотижорат ташкилоти томонидан адлия органига тақдим этиладиган ҳисобот шаклини тасдиқлаш ҳақида // Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2018 йил 27 июндаги 336-мҳ-сон буйруғи // [Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2018 йил 27 июнда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3027]// Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 30.09.2022 й., 10/22/3027-1/0882-сон.

Худди шундай, нодавлат нотижорат ташкилотининг мажбуриятларидан яна бири бу ўз мол-мулки ва пул маблағларидан фойдаланиш, шу жумладан молиялаштириш манбалари тўғрисидаги **ахборот билан танишиш эркинлигини таъминлашдир**.

Бугунги кунда нодавлат нотижорат ташкилотларининг ушбу мажбурияти асосан рўйхатдан ўтказувчи органга даврий ҳисоботларни тақдим этиш, назорат тадбирлари давомида назорат қилувчи органларнинг талабига биноан тегишли маълумот ва ҳужжатларни тақдим этиш, шунингдек айрим нодавлат нотижорат ташкилотларининг юқори раҳбар органи йиғилишларида ҳисобот бериш тарзида бажарилмоқда. Бироқ, бундай амалиёт нодавлат нотижорат ташкилотларининг фақатгина тегишли давлат органлари олдидаги ҳамда ўзининг таклиф этилган аъзолари олдидаги ҳисобдорлигини таъминлайди.

Аслида, нодавлат нотижорат ташкилотларига бундай мажбуриятни юклашдан асосий мақсад улар фаолиятининг жамоатчилик олдидаги очиқлигини таъминлашдир. Хўш, нодавлат нотижорат ташкилотлари ўз фаолиятининг очиқлигини таъминлашга мажбурми?

Айтиш жоизки, “Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 8-моддасига мувофиқ нафақат давлат ҳокимияти ва бошқарув органлари, балки нодавлат нотижорат ташкилотлари ҳам ҳар кимга ўзининг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларига дахлдор бўлган ахборот билан танишиб чиқиш имкониятини таъминлаб беришга, мақбул ахборот ресурслари яратишга, фойдаланувчиларни фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва мажбуриятларига, уларнинг хавфсизлигига доир ҳамда жамият манфаатларига тааллуқли бошқа масалалар юзасидан ахборот билан оммавий тарзда таъминлашга мажбурдирлар[1].

Маълумки, давлат органлари пул маблағларидан фойдаланиш тўғрисидаги ахборотларини эркин таништириш имконига эгалар ва бунинг ҳуқуқий механизмлари мавжуд. Мисол учун, “Давлат харидлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонунига мувофиқ давлат буюртмачиси давлат харидларини амалга ошириш усули, талаблари ва шартлари, таклифларни тақдим этиш муддатлари ҳамда тартиби кўрсатилган ахборотни махсус ахборот портали орқали эълон қилиб боради.

Аммо, нодавлат нотижорат ташкилотлари ҳақида гапирар эканмиз, қонунчиликда фақат айрим шаклдаги нодавлат нотижорат ташкилотлари учун пул маблағларидан фойдаланиш тўғрисидаги ахборот билан таништириш механизми очиб берилган, холос. Масалан, “Жамоат фондлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонунининг 25-моддасида фонд ҳар йили

[1] “Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни/ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2003 й., 1-сон, 2-модда.

олдинги йилдаги ўз фаолияти тўғрисида қуйидагиларни ўз ичига олган ҳисобот эълон қилади:

фонднинг ҳисобот давридаги фаолияти шарҳини, бу фаолият фонднинг уставида белгиланган мақсад ва вазифаларга мувофиқлиги даражасини кўрсатган ҳолда;

фонднинг йиллик молиявий ҳисоботини, аудиторлик ташкилотининг хулосасини кўрсатган ҳолда;

фонд олган ихтиёрий хайриялар тўғрисидаги маълумотларни;

фонднинг тадбиркорлик фаолиятидан олинган даромадлари (фойдаси) тўғрисидаги маълумотларни, бу даромадларнинг (фойданинг) келиб чиқиш манбаларини алоҳида-алоҳида кўрсатган ҳолда;

харажатлар умумий суммасини, фонд фаолиятининг айрим турлари бўйича ва маъмурий харажатлар бўйича алоҳида-алоҳида кўрсатган ҳолда;

фонд устави ва фонд органларидаги ўзгаришлар тўғрисидаги маълумотларни;

фонднинг уставида ёки фонднинг васийлик кенгаши томонидан белгиланган бошқа маълумотларни[1].

Айтиш жоизки, жамоат фонди томонидан йиллик ҳисоботни эълон қилмаслик **Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 239/1-моддаси иккинчи қисмига мувофиқ** мансабдор шахсларга базавий ҳисоблаш миқдорининг ўн бараваридан йигирма беш бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади.

Юқорида таъкидлаб ўтганимиздек, жамоат фондларининг ўз фаолияти ҳақидаги ҳисоботни эълон қилиш даврийлиги ва ҳисоботда акс этиши лозим бўлган маълумотлар аниқ кўрсатиб ўтилган. Бироқ, ҳисобот қаерда, яъни қайси манбааларда эълон қилиниши масаласи қонунда очиқ қолган.

“Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 26-моддасида акциядорлик жамиятлари, шунингдек суғурта ташкилотлари, банклар, жамоат фондлари ва қонунчиликка мувофиқ бошқа ташкилотлар ҳар йилги молиявий ҳисоботни акциядорларнинг ёки бухгалтерия ҳисоби субъекти бошқа юқори бошқарув органининг йиллик умумий йиғилиши ўтказиладиган санадан камида икки ҳафта олдин аудиторлик хулосаси билан бирга эълон қилиши шарт[2]. Ушбу Қонунда ҳисоботни тақдим этиш муддати аниқлаштирилган, бироқ бу ҳолатда ҳам ҳисобот қайси манбааларда эълон қилиниши кўрсатилмаган.

---

[1] “Жамоат фондлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни / Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2003 й., 9-10-сон, 141-модда.

[2] “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни /Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 15-сон, 142-модда.

Бизнингча, жамоат фондларига қулайлик яратиш, уларнинг фаолиятида ортиқча талаб ва сарф-харажатларга йўл қўймаслик мақсадида ҳисоботни жамоат фонди веб-сайтида эълон қилишнинг ўзи етарли деб белгилаш лозим. Бироқ, веб-сайт ҳамма жамоат фондларида ҳам мавжуд бўлмаслиги мумкин. Шу боис, муқобил манбаа сифатида ҳисоботни босма нашрларда эълон қилинишига имкон яратиш лозим.

Шунга мувофиқ, "Жамоат фондлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 25-моддаси иккинчи қисми биринчи хатбошидаги "фонд ҳар йили" деган сўзлардан кейин "ўзининг веб-сайтида ва (ёки) матбуотда" деган сўзлар билан тўлдириш мақсадга мувофиқ.

Бундан ташқари, агар жамоат фондининг ҳар йилги маъмурий харажатлари қонунда белгиланган миқдордан ошиб кетса, бунинг учун Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 239/1-моддаси билан мансабдор шахсларга харажатларнинг энг юқори суммасидан ошиб кетган миқдордаги пул маблағларини мусодара қилган ҳолда базавий ҳисоблаш миқдорининг йигирма бараваридан қирқ бараваригача миқдорда жарима солиш назарда тутилган.

Бундан кўринадики, жамоат фондининг маъмурий харажатлари қонунда белгиланган миқдордан ошиб кетса, маъмурий ҳуқуқбузарлик иши доирасида нафақат унинг мансабдор шахслари, балки юридик шахс бўлмиш жамоат фондининг ўзи ҳам жавобгарликка тортилиб, жамоат фондининг маблағлари давлат фойдасига мусодара қилинади.

Ваҳоланки, қонунда жамоат фондининг маъмурий харажатларига нисбатан чеклов ўрнатилишидан мақсад – жамоат фонди маблағларини бошқа йўналишда эмас, балки унинг асосий мақсадлари (хайрия, ижтимоий, маданий, маърифий ёки бошқа ижтимоий фойдали мақсадлар) йўлида сарфланишини таъминлашдир.

Қолаверса, Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексга мувофиқ, Ўзбекистонда фақат жисмоний шахсларгина маъмурий жавобгарлик субъекти бўла олади. Шунингдек, Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 27-моддасига кўра "ҳуқуқбузарнинг шахсий мулки бўлмаган ашё мусодара қилиниши мумкин эмас, муомаладан чиқарилган ашёлар бундан мустасно".

Маъмурий харажатлар ошириб юборилган тақдирда суд томонидан мусодара этиладиган маблағ аслида юридик шахс ҳисобланмиш жамоат фондининг мулкидир, жамоат фонди эса маъмурий жавобгарлик субъекти бўла олмайди.

Шу боис, агар мақсад ҳақиқатан ҳам жамоат фондининг маблағларини унинг асосий мақсадлари йўлида сарфланишини таъминлашдан иборат бўлса, бундай ҳолларда ошириб юборилган харажатлар суммасини давлат фойдасига

эмас, балки фонднинг ўзига қайтариш чораларини кўриш лозим бўлади. Масалан, Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 38-моддасига мувофиқ суд ҳуқуқбузарга корхона, муассаса, ташкилотга етказилган зарарни қоплаш мажбуриятини юклаши мумкин. Мана шундай ҳолдагина қўлланилган ҳуқуқий таъсир чораси қонунларда назарда тутилган мақсадларга эришиш учун етарли бўлар эди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Тошкент: “O`ZBEKISTON” нашриёти, 2023. – 80 б.

2. “Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни/ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 йил, № 5, 115-модда.

3. Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси//Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1995 й., 3-сон; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1995 й., 9-сон, 193-модда, 12-сон, 269-модда.

4. “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни /Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 15-сон, 142-модда.

5. “Жамоат фондлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни / Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2003 й., 9-10-сон, 141-модда.

6. “Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни/ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2003 й., 1-сон, 2-модда.

7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 10 мартдаги “Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Фуқаролик жамияти институтларини ривожлантиришга кўмаклашиш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» 2013 йил 12 декабрдаги ПҚ-2085-сон қарорини амалга ошириш чора-тадбирлари ҳақида”ги 57-сон қарори// Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 11-сон, 126-модда.

8. Нодавлат нотижорат ташкилоти томонидан адлия органига тақдим этиладиган ҳисобот шаклини тасдиқлаш ҳақида // Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2018 йил 27 июндаги 336-мҳ-сон буйруғи // [Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2018 йил 27 июнда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3027]// Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 30.09.2022 й., 10/22/3027-1/0882-сон.

9. Статистика ҳисоботи шаклларини тасдиқлаш тўғрисида // Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг 2022 йил 16 ноябрдаги 23-мб-сон қарори// [Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2022 йил 12 декабрдаги рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3401]// Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 13.12.2022 й., 10/22/3401/1088-сон.

10. Статистика ҳисоботини электрон шаклда тақдим этиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида//Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг 2021 йил 16 июндаги 9-мб-сон қарори //[Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2021 йил 16 июлда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3312]// Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 16.07.2021 й., 10/21/3312/0684-сон.

11. Солиқ ҳисоботининг шаклларини тасдиқлаш тўғрисида//Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитасининг 2020 йил 28 январдаги 2020-03-сон қарори//[Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2020 йил 24 февралда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3221]// Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.02.2020 й., 10/20/3221/0203-сон.

12. Зокиров Ш.З. Юридик жавобгарликлар// юридик жавобгарлик турлари, уларнинг манбалари ва қўлланилиши бўйича мақола//ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference //https://zenodo.org/records/6410161.

13. Коркин А. В. Институт административно-правового принуждения: меры, применяемые сотрудниками милиции. С. 49.

14. Соколов А. Ю. Большая Российская энциклопедия// https://bigenc.ru/c/administrativnoe-prinuzhdenie-d1b991.

15. Макарейко Н.В. Пределы административного принуждения при осуществлении государственного контроля // Актуальные вопросы контроля и надзора в социально значимых сферах деятельности общества и государства: материалы II Всероссийской научно-практ. конференции (Россия, г. Нижний Новгород, 9–10 июня 2016 г.) / отв. ред. А.В. Мартынов. Нижний Новгород, 2016. С. 318.

16. Соболева Ю.В. Административно-правовой статус негосударственных организаций/дисс. док. юр. наук. /Саратов – 2018. С.306.

17. Синякин И.Н. Понятие и признаки юридической ответственности // Теория государства и права / Под ред. Н.И. Матузова, А.В. Малько. М.: Юристъ, 1997. С. 543.

18. Мелехин А.В. Административное право Российской Федерации: курс лекций. Подготовлен для системы Консультант Плюс, 2009.

19. Липатов Е.Г, Филатова А.Г и др. Административная ответственность: Учебно¬-практическое пособие. Волтере Клувер. 2010. СПС Консультант Плюс.

20. Икрамов Ш.Т., Хамедов И.А.: Маъмурий ҳуқуқ// Тошкент -2016. 209 б.
21. Холиков Ф.У, “Жиноий жавобгарлик ва маъмурий преюдиция: тушунча, мазмун ва ўзига хос жиҳатлар”/ Eurasian journal of law, finance and applied sciences// https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article

АҲОЛИ САЛОМАТЛИГИ ВА МИЛЛАТ ГЕНОФОНДИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШ ЙЎЛИДА

Камалова Дилдора,
Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси Коррупцияга қарши курашиш ва суд-ҳуқуқ масалалари қўмитаси раисининг ўринбосари, ю.ф.д., профессор

Гиёҳвандлик — аср вабоси. У нафақат инсоннинг соғлиғи ва ҳаётига, балки бутун миллатнинг генофондига жиддий таҳдид солади. Бу иллатга қарши **қатъий ва тизимли курашиш**, жамиятда гиёҳвандликка нисбатан муросасиз муносабатни шакллантириш, шунингдек, наркожиноят содир этган шахслар учун жавобгарликнинг муқаррарлигини таъминлаш энг **долзарб масалалардан бири саналади.**

Дарҳақиқат, бугун гиёҳванд моддалар савдоси **трансчегаравий ва виртуал характерга** эга бўлиб бормоқда. Бу эса жиноятларни аниқлашда янги усулларни қўллаш, замонавий билим ва кўникмаларни пухта эгаллаш ҳамда бундай ҳуқуқбузарликлар учун жавобгарликни такомиллаштириш заруратини юзага келтирмоқда.

2025 йилда республикада гиёҳвандлик воситалари, психотроп ва кучли таъсир қилувчи моддаларнинг ноқонуний муомаласи билан боғлиқ **15 412 та жиноят** ва **1 956 та маъмурий ҳуқуқбузарлик** аниқланган.

Сўнгги йилда республикада аниқланган **наркожиноятлар 2,5 бараварга,** ноқонуний муомаладан олинган олинган **гиёҳвандлик воситалари 2 бараварга,** ғайриқонуний **нарколабораториялар эса 3,5 бараварга** кўпайди.

Президентимиз **Олий Мажлис ва халқимизга Мурожаатномасида** наркожиноятларга қарши курашишни **умуммиллий ҳаракатга айлантириб**, жамиятда бу иллатга муросасиз муҳит яратиш вазифасини қўйган эди. Шунингдек, Тошкент шаҳрида хавфсиз муҳитни шакллантириш ҳамда жамоат хавфсизлигини самарали таъминлаш бўйича намунавий амалиётни яратиш чора-тадбирлари юзасидан ўтказилган видеоселектор йиғилишида ҳам уюшган жиноятчилик, наркожиноятлар, кибержиноятчилик ва яширин иқтисодиёт йўналиши бўйича **мутлақо янги тизим яратиш** зарурлиги белгилаб берилганди.

Яқинда Қонунчилик палатаси томонидан қабул қилинган **“Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига гиёҳвандлик воситалари,**

психотроп моддалар ёки уларнинг аналогларининг ва кучли таъсир қилувчи моддаларнинг қонунга хилоф муомаласи учун жавобгарликни такомиллаштиришга қаратилган қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш тўғрисида”ги Қонунга мувофиқ гиёҳванд моддалар ноқонуний савдоси билан боғлиқ жиноятлар учун жавобгарлик кучайтирилмоқда.

Мазкур ҳужжат билан **Жиноят, Жиноят-процессуал кодекслари ва Маъмурий жавобгарлик** тўғрисидаги кодексга ҳамда айрим қонун ҳужжатларига тегишли қўшимча ва ўзгартиришлар киритиляпти.

Жумладан, Жиноят кодексида гиёҳвандлик воситаларининг ноқонуний муомаласига ҳокимият (мансаб) ваколатларини суиистеъмол қилиш йўли билан **ҳомийлик (раҳнамолик) қилганлик** ёки бундай фаолият фош бўлишининг олдини олиш мақсадида хизмат фаолияти юзасидан ўзига маълум бўлган маълумотлар ҳақида **хабар берганлик учун алоҳида жавобгарлик белгиланди.** Бошқача айтганда, мазкур норма мансабдор шахслар гиёҳванд моддалар савдосида тўғридан-тўғри иштирок этмаса ҳам, жиноий фаолиятни пинҳона қўллаб-қувватлаш имконини берувчи ҳуқуқий бўшлиқни бартараф этади. Ўз навбатида, бу чора профилактик таъсирни ҳам кучайтиради. Чунки алоҳида жавобгарликнинг муқаррарлиги ҳақида хабардорлик мансабдор шахслар ва гиёҳвандлик савдоси билан шуғулланувчи гуруҳлар ўртасида тил бириктириш хавфини камайтиришга хизмат қилади.

Шу билан бирга, **ғайриқонуний нарколаборатория ташкил этиш ва унинг фаолият юритишини таъминлаганлик** учун жиноий жавобгарлик назарда тутилди. Афсуски, сўнгги йилларда наркотик моддаларни қўлбола усулларда ёки махсус ташкил этилган ноқонуний жойларда ишлаб чиқариш, тайёрлаш ҳамда “закладка” усулида тарқатиш ҳолатлари тобора кўпайиб бормоқда. Эндиликда бундай қилмишларни содир этган шахслар ғайриқонуний нарколаборатория ташкил этганлик учун **20 йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланиши мумкин.**

Қонун билан **нарколаборатория** деганда, гиёҳвандлик воситаларини, психотроп моддаларни ёки уларнинг аналогларини, кучли таъсир қилучи моддаларни қонунга хилоф равишда ишлаб чиқариш ёки қайта ишлаш учун махсус ташкил этилган, бунинг учун зарур бўлган кимёвий моддалар, асбоб-ускуналар ва техник воситалар билан жиҳозланган ҳар қандай кўчар ёки кўчмас мулк объекти тушунилиши белгиланди. Ушбу норманинг киритилиши гиёҳванд моддаларни **ишлаб чиқариш манбаларини барвақт аниқлаш ва бартараф этиш** орқали уларнинг жамиятга тарқалишининг олдини олишга қаратилган.

Бу турдаги жиноятлар қайта содир этилишининг олдини олиш мақсадида жиноий жавобгарлик чоралари оғирлаштирилмоқда. Хусусан, ўта оғир турдаги

айрим наркожиноятлар учун **жазони ўташдан муддатидан илгари шартли озод қилиш** тартиби қўлланилмаслиги белгиланмоқда.

Бундан ташқари, айрим жиноятлар учун жазо чоралари кучайтирилмоқда.

Қайд этиш жоиз, жиноятларнинг қатъий жазоланиши қонунбузарликларни содир этишдан огоҳлантирувчи таъсир кўрсатади, жамиятдаги гиёҳвандлик ва наркотик билан боғлиқ ноқонуний фаолиятни камайтиришга, аҳолининг, айниқса, ёшлар ва заиф қатламлар саломатлигини муҳофаза этишга хизмат қилади. Шу билан бирга, қонунчиликда жазо чораларининг кучайтирилиши ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга **ноқонуний муомалага қарши самарали курашиш** имконини яратади.

Сир эмаски, мамлакат куч-қудрати ва тараққиётини белгиловчи асосий омиллардан бири — бу аҳоли саломатлиги, айниқса, ёш авлодни соғлом ва баркамол қилиб тарбиялаш саналади.

Шу боис қонунда вояга етмаганлар ва ёшларни гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалардан ҳар томонлама асраш, ёшлар орасида гиёҳвандликнинг олдини олиш чораларини кучайтириш мақсадида ҳам жазо чоралари оғирлаштирилмоқда. Жумладан, **вояга етмаган шахсни кучли таъсир қилувчи моддани истеъмол этишга жалб қилганлик учун тўғридан-тўғри жиноий жавобгарлик,** шунингдек, уларни ушбу моддаларни айнан **таълим ташкилотлари, талабалар ётоқхоналари, болалар оромгоҳларида ёки уларга туташ ҳудудларда истеъмол қилишга жалб этиш** учун 5 йилдан 10 йилгача озодликдан маҳрум қилиш жазоси кўзда тутилмоқда.

Бундай қатъий чоралар кўрилишининг зарурати шундаки, сўнгги йилларда жиноятчилар орасида мактаб ўқувчилари ва талабалар борлиги қайд этилаётганидадир. Наркожиноят содир этган **11 049 нафар шахслар жавобгарликка тортилган.** Ачинарлиси, жиноятчиларнинг **59 нафари мактаб ўқувчилари, 124 нафари талабалар** ҳисобланади. Қонунга киритилаётган ўзгартиришдан асосий мақсад эса вояга етмаганлар ва таълим муассасалари фаолиятига боғлиқ ҳудудлардаги ёшларни гиёҳвандлик билан боғлиқ жиноятлардан **ҳимоялаш ва уларни мазкур турдаги ҳуқуқбузарликлардан огоҳ қилиш** орқали профилактик самарани ошириш ҳисобланади.

Шу билан бирга, Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексда **жамоат жойларида гиёҳвандлик воситалари, психотроп ёки кучли таъсир этувчи моддаларни истеъмол қилганлик** учун ҳам жавобгарлик белгиланмоқда.

Демак, мазкур қонун жамоат хавфсизлиги ва тартибини таъминлаш, **аҳоли саломатлиги ва миллат генофондини ҳимоялаш**, қонун устуворлигини таъминлашга хизмат қилади.

GIYOHVANDLIK: MOHIYATI, TURLARI VA NAMOYON BO‘LISH XUSUSIYATLARI HAMDA UNI ANIQLASHNING TASHXIS BELGILARI

Zulfiqarov Sherzod Xurramovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
boshlig‘ining o‘rinbosari, professor

Bugungi kunda jamiyat uchun jiddiy xavf solayotgan muammolardan biri — bu giyohvandlikdir. Giyohvand moddalardan foydalanish faqatgina shaxsiy sog‘liqqa zarar yetkazish bilan cheklanib qolmasdan, oila, jamiyat va butun mamlakat kelajagiga ham tahdid soladi. Bu illat har qanday yoshdagi insonlarni o‘z domiga torta olishi, uning turli shakl va ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi, ayniqsa, yoshlar orasida tarqalishi holatning yanada xavfliligini ko‘rsatadi. Giyohvandlik faqat biologik emas, balki ruhiy va ijtimoiy kasallik sifatida ham qaraladi. Uning mohiyatini tushunish, turlarini farqlash va qanday belgilar orqali erta aniqlash mumkinligini bilish nafaqat tibbiy, balki profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ushbu maqolada giyohvandlikning mohiyati, turlari, uning inson xulq-atvorida namoyon bo‘lish xususiyatlari hamda tashxis belgilarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratiladi.

Giyohvandlik - bu o‘simlik yoki sintetik kelib chiqishi bo‘lgan har qanday modda bo‘lib, u organizmga kiritilganda uning bir yoki bir nechta funksiyalarini o‘zgartirishi mumkin va takroriy ta’sir qilish natijasida aqliy yoki jismoniy bog‘liqliklar vujudga keladi.

Giyohvand moddalar deb, insonning ongini o‘zgartiruvchi, his-tuyg‘ularini sun’iy ravishda yangilaydigan va shu orqali vaqtinchalik “roxat” beruvchi kimyoviy moddalarga aytiladi. Ularga geroin, kokain, opiy, gashish, metamfetamin, ekstazi, LSD kabi moddalar kiradi.

Giyohvandlik inson organizmiga juda tez va chuqur ta’sir qilib, avval ruhiy qaramlik, so‘ng jismoniy qaramlikni keltirib chiqaradi. Bu holatda inson moddasiz yashay olmaydigan darajaga yetadi, uni doimiy ravishda iste’mol qilishga muhtoj bo‘ladi. Bir marta iste’mol qilinadigan giyohvand modda ham miyada qaytarib bo‘lmas o‘zgarishlarni boshlab yuborishi mumkin.

Giyohvandlikning kelib chiqishiga turli omillar sabab bo‘ladi: oilaviy muammolar, ruhiy tushkunlik, atrof-muhit ta’siri, do‘stlar bosimi, qiziquvchanlik, yoshlikdagi noo‘rin eksperimentlar va hokazo. Shuningdek, insonda ichki bo‘shliqni to‘ldirish ehtiyoji, o‘zini tasdiqlashga bo‘lgan urinish ham bunda muhim rol o‘ynaydi.

Giyohvandlik, bu faqat bir shaxsning emas, balki jamiyatning umumiy muammosidir. U nafaqat sog‘liqni, balki oilaviy munosabatlar, mehnat qobiliyati, ta’lim jarayoni va iqtisodiy barqarorlikka ham zarar yetkazadi. Shu bois, uning

mohiyatini to‘liq anglash va uning oldini olish bo‘yicha aniq choralar ko‘rish jamiyatning har bir a’zosi uchun muhim vazifa hisoblanadi.

Giyohvandlik muammosi juda ko‘p qirrali bo‘lib, inson salomatligi bilan bir qatorda ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, axloqiy va madaniy sohalarni ham qamrab oladi. Zamonaviy ma’lumotlarga asoslanib, giyohvandlik yagona kasallik emas, balki so‘zning keng ma’nosida umumiy birlashtirilgan turli diagnostik holatlar to‘plamidir. Bu holatlar bir-biridan dori turi, etimologik omilning roli bilan ham, klinik ko‘rinishi, giyohvandlik turi va yakuniy natijasi bo‘yicha ham farqlanadi. JSST ekspertlar guruhi giyohvandlikni “preparatni takroran qo‘llash natijasida yuzaga keladigan epizodik yoki surunkali zaharlanish holati” deb ta’riflagan. JSST ekspert qo‘mitasi kasallik sifatida giyohvandlikning ikki turini ajratadi: qaramlik va o‘rganib qolish. JSST ekspert qo‘mitasi kasallik sifatida giyohvandlikning ikki turini ajratadi: qaramlik va o‘rganib qolish.

Qaramlik quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- preparatni qabul qilishni davom ettirishga kuchli istak yoki chidab bo‘lmas ehtiyoj (og‘riqli holat), shuningdek uni har qanday narxda olishga urinish;
- qaramlik rivojlanishi bilan dozani oshirish tendentsiyasi;
- giyohvand moddalar ta’siriga aqliy (psixologik yoki hissiy) qaramlik;
- shaxs va jamiyat uchun halokatli oqibatlar.

O‘rganib qolish quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- kayfiyatni yaxshilash uchun preparatni qabul qilishni davom ettirish istagi (lekin chidab bo‘lmas og‘riqli holat emas);
- dozani oshirish tendensiyasi kam yoki umuman yo‘q;
- dori ta’siriga ma’lum darajada psixologik bog‘liqlik, lekin jismoniy qaramlik yo‘q, qutilib krtish belgilarining yo‘qligini bildiradi;
- salbiy oqibatlar, agar ular yuzaga kelsa, faqat giyohvandning shaxsiyatiga ta’sir qiladi.

Ko‘rib turganimizdek, giyohvandlik hamma uchun qo‘llaniladigan umumiy atamadir. Biroq, professional tibbiy terminologiyada aniq farq bo‘lishi kerak; bu yerda qaramlikning bir necha turlari ajratiladi:

1. Spirtli ichimliklar turi: barcha spirtli ichimliklar;
2. Amfetamin turi: amfetamin, deksamfetamin, metamfetamin metilfenidan va fenmetrazin;
3. Barbituratlar turi: barbituratlar, asosan, qisqa ta’sirli va ba’zi sedativlar, masalan, xloralgidrat, diazepam, meprobamat, metakalon;
4. Kannabinol turi: hind kanopi preparatlari, marixuana (bhang, dagga, kif, makonga) va gashish (ganja, charas);
5. Kokain turi: kokain va koka barglari;
6. Gallyutsinogen tip-. LSD, DMT, meskalin, psilotsibin, STP;

7. Katu turi: o‘simlik preparatlari;

8. Afyun turi: afyun, morfin, geroin, kodein; morfinga o‘xshash xususiyatlarga ega sintetik preparatlar, masalan, metadon (geptadon) va pethidine;

9. Erituvchilarning turi: aseton, benzin, uglerod tetraklorid va ba’zi anestetiklar, masalan, efir, xloroform va azot oksidi (kulgan gaz).

Giyohvandlik diagnostikasi - giyohvandlikka tibbiy yondashuvda diagnostika juda muhim rol o‘ynaydi. Ko‘pincha davolanishning yakuniy natijasi va bemorning taqdiri uning to‘g‘riligiga bog‘liq. Keling, giyohvandlikning diagnostik mezonlariga to‘xtalib o‘tamiz. Giyohvandlik tashxisi quyidagilarga bog‘liq ko‘p omillar va uni qo‘yish har doim ham oson emas.

Asosiy mezonlar:

1. Xulq-atvorning buzilishi;
2. Giyohvandlikning ma’lum turlarining klinik ko‘rinishi;
3. Jismoniy holat;
4. O‘rnatishga qaratilgan klinik tadqiqotlar bog‘liqliklar;
5. Laboratoriya tekshiruvlari.

Giyohvandlik vositalariga ruju qo‘ygan o‘quvchilar darslarga uzrli sabablarsiz qatnashmaydi. Oxir-oqibat u maktabdan haydaladi yoki o‘zi maktabni tashlab ketishgacha boradi. Ota-onalarini tinchlantirish uchun maktabdagi ta’lim sifati va boshqa muammolarni vaj keltirib ularni aldab maktabga borishdan bosh tartishi mumkin.

Ota-onalar bilan nizolar. Ota-onalar bilan nizolar tez-tez sodir bo‘ladi. Avvaliga ular bir necha soat davom etadigan munozaralar ko‘rinishida bo‘lib, ularning asosiy mavzusi keksalar tomonidan yoshlarni va ularning ehtiyojlarini tushunmasliklari va boshqa shu kabi muammolar yuzaga keladi. O‘zining giyohvandligini yashirish uchun turli xil yolg‘onlarni ishlatadi.

Yolg‘on gapirish giyohvandning o‘ziga xos hayot tarziga aylanadi. U har qanday imkoniyatda yolg‘on gapiradi. Ota-onalarni, o‘qituvchilarni, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini, shifokorlarni aldaydi. Keyinchalik yolg‘on gapirishga bo‘lgan ehtiyoj funksional mustaqil motivga aylanadi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, giyohvandlar so‘zsiz ishonadigan, ezgu niyatlariga avval bir necha bor ishonch hosil qilgan insonlar oldidagina samimiy bo‘la oladi. Agar bu odam shifokor bo‘lsa, unda, shubhasiz, bu davolanish jarayonida juda yaxshi qo‘l keladi. Ba’zi ota-onalar farzandlarining xulq-atvoridagi o‘zgarishlarni “o‘tish davri” deb tushuntirishga harakat qilishadi va passiv ravishda uning o‘tishini kutishadi. Afsuski, bunday o‘z-o‘zini aldash ko‘pincha qimmatga tushadi.

Maktab o‘quvchilari orasida istemol. Maktab o‘quvchilarining istemolining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularning o‘quv faoliyati birdaniga pasayib ketadi. Yaqin vaqtgacha yaxshi bo‘lgan o‘quvchi to‘satdan qoniqarsiz baho ola boshlaydi,

darslarni teztez tashlab ketadi, darsda o‘zini g‘ayritabiiytuta boshlaydi, hech narsaga qiziqish bildirmaydi. Yomon baholar uni unchalik bezovta qilmaydi. Ba’zida o‘z sinfdoshlariga nisbatan ham salbiy munosabat shakllanishi, bunday vaziyatlar o‘z vaqtida aniqlash choralari ko‘rilmasa, sinfdagi boshqa boyroq o‘quvchilarni ham jalb qilishi mumkin.

Giyohvand moddalarga va boshqa turmush tarziga qaramlik jarayoni haftalar, oylar va hatto yillar davomida asta-sekin rivojlanadi, shuning uchun odamning giyohvandlikka chalinganligini aniqlash qiyin. Ammo giyohvandlik paydo bo‘lishi uchun vaqt kerak bo‘lishiga qaramay, giyohvandning hayoti bu sodir bo‘lganda keskin o‘zgaradi.

Giyohvand moddalar psixopatologiyasining turlari: Marixuana chekish: yoshlar orasida keng tarqalayotgani va mashhurligi tufayli, giyohvandlik mavzusini aynan shu moddadan boshlash maqsadga muvofiq. Marixuana iste’mol qiluvchilar orasida muayyan tipologik farqlar kuzatiladi.

1. Surunkali eyforiya izlovchi chekiuvchi: Bu turdagi marixuana chekiuvchi - yakka holda iste’mol qiladigan shaxs bo‘lib, u asosan shaxsiy tajriba va hissiy o‘zgarishlarni izlaydi. U marixuana orqali eyforiya (kayfiyatni yuqori darajada his qilish) holatiga erishishga intiladi va bu ehtiyoj uning shaxsiy ichki istaklari bilan bog‘liq bo‘ladi. U moddaning noxush ta’sirlarini inkor etmaydi, lekin bu holatlarni o‘z shaxsiy xususiyatlarining bir qismi sifatida qabul qiladi. Shu sababli, u yomon ta’sirlarni kamaytirish uchun modda qabul qilish usulini yoki doza orasidagi xulqini o‘zgartirishga harakat qiladi. Agar bundan foyda bo‘lmasa, marixuanani boshqacha usulda qabul qilishga o‘tadi. Shu bilan birga, u modda bilan uzviy bog‘lanib qolmagan - ya’ni, to‘liq qaramlikka tushmagan. Unga turli ijtimoiy yoki kasbiy sabablar, shaxsiy hayotdagi o‘zgarishlar ta’sir qilishi mumkin, natijada u yomon odatdan voz kechish haqida qaror qabul qilishi mumkin.

2. Yosh chekiuvchilar turi - bu turdagi marixuana iste’mol qiluvchilar - asosan yoshlar, va ularning psixologiyasiga xos bo‘lgan jihatlar bor. Ularda hali shaxsiylik to‘liq shakllanmagan bo‘ladi, shu sababli guruhga mansublik, yaqin do‘stona munosabatlar va birodarlik hissi ular uchun juda muhim. Yoshlikdagi emotsional beqarorlik, yolg‘izlik hissi, va ba’zan ichki tushkunlik ularni marixuana chekishadigan tengdoshlari bilan muloqot qilishga undaydi. Bunday guruhlardagi uchrashuvlar ularga muayyan emotsional yengillik olib keladi. Marixuananing eyforiya ta’siri, “guruhdan biri bo‘lish” istagi va muammolarni unutish xohishi - marixuana chekishni boshlashdagi asosiy omillardan biriga aylanadi. Ko‘p hollarda, ayniqsa yangi boshlagan yoshlar orasida psixopatik moyilliklar kam kuzatiladi. Ammo asosiy xavf shundaki, vaqt o‘tishi bilan ularda giyohvandlikka qaramlik yoki yaxshiraq, kuchliroq ta’sir qiluvchi moddalarga o‘tish istagi paydo bo‘lishi mumkin. Bunday yoshlar

guruhlari jinoiy muhit va shaxslar ta’siriga tushib qolishlari uchun juda mos muhit yaratib beradi.

3. Marixuana chekuvchilarning uchinchi turi “qozon boshi” deb nomlanadi. Ushbu turga mansub odamlar doimiy ravishda giyohvand moddalarni iste’mol qiladilar, ularda sezilarli hissiy qaramlik paydo bo‘ladi. Bundan tashqari, ular intellektual buzilish belgilarini ko‘rsatishi mumkin.

Bu turdagi shaxslardagi psixopatologik o‘zgarishlar va ularning moddaga bo‘lgan qat’iy moyilligi tufayli, ularni birinchi yoki ikkinchi guruhga mansub marixuana chekiuvchilar singari oddiy klinik yo‘l bilan baholash mumkin emas. Ularga nisbatan maxsus, chuqur tibbiy va psixiatriyaviy yondashuv talab etiladi.

Giyohvandlik bugungi jamiyatimiz uchun eng xavfli, chuqur ildiz otgan va ko‘p qirrali muammolardan biridir. Bu faqat sog‘liqni saqlash tizimining emas, balki ta’lim, huquq, iqtisodiyot, axloq va madaniyat sohalarining ham dolzarb masalasidir. Mazkur maqolada giyohvandlikning mohiyati, turlari, namoyon bo‘lish xususiyatlari, tashxis mezonlari va yoshlar orasidagi tarqalish sabablari atroflicha tahlil qilindi.

Giyohvandlikning biologik, psixologik va ijtimoiy omillari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Inson modda ta’siriga bir necha marta duchor bo‘lishi bilan uning ruhiy holatida o‘zgarishlar yuz beradi, bu esa asta-sekin jismoniy qaramlikni shakllantiradi. Ayniqsa, yoshlar orasida bu illatning keng tarqalishi o‘ziga xos ijtimoiy xavfni keltirib chiqarmoqda. Ma’lum bo‘lishicha, o‘smirlar ko‘pincha qiziqish, bosim, yolg‘izlik yoki oilaviy muammolar sababli giyohvand moddalarga murojaat qilishadi.

Giyohvandlikka qarshi kurashish faqat jazolash yoki tibbiy davolanish bilangina cheklanmasligi kerak. Bu muammoni hal qilish uchun tizimli, izchil va ko‘p bosqichli yondashuv talab qilinadi.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Ta’lim muassasalarida profilaktika ishlarini kuchaytirish, jumladan, maktab, kollej va oliy o‘quv yurtlarida muntazam ravishda giyohvandlikka qarshi targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borishni tizimli olib borish.

2. Oila institutining rolini kuchaytirish, jumladan, oilada farzandlar bilan do‘stona, ochiq muloqot muhiti yaratilishi, ular bilan muntazam suhbat olib borilishi zarur. Ota-onalar uchun maxsus seminar-treninglar o‘tkazilib, giyohvandlikning dastlabki belgilarini tanib olish, muammoni inkor etmaslik va vaqtida chora ko‘rish bo‘yicha bilim berilishi kerak.

3. Davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligini kuchaytirish, jumladan, huquqni muhofaza qilish organlari, sog‘liqni saqlash muassasalari, jamoatchilik, NNTlar o‘rtasida doimiy axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yilishi lozim. Giyohvandlikka qarshi kurashda mahalla fuqarolar yig‘inlarining faol ishtiroki ta’minlanishi zarur.

4. Psixologik va tibbiy yordam tizimini takomillashtirish.

5. Ommaviy axborot vositalari va internet imkoniyatlaridan samarali foydalanish.

6. Qonunchilik va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, jumladan, ta’qiqlangan moddalarni noqonuniy tarqatganlik, reklama qilganlik yoki yoshlarni jalb qilganlik uchun javobgarlik mexanizmlari yanada kuchaytirilishi lozim.

Yakunda shuni ta’kidlash lozimki, giyohvandlikka qarshi kurash — bu faqat muayyan soha yoki shaxsning vazifasi emas, balki har bir fuqaroning fuqarolik burchi va axloqiy mas’uliyatidir. Har bir oila, har bir ustoz, har bir mutasaddi va ayniqsa, yoshlar bu illatning asl tahdidini to‘g‘ri anglab, unga qarshi o‘z pozitsiyasini bildirsa, sog‘lom avlod va barqaror jamiyat barpo etilishi muqarrardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 6-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta’sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha 2024 — 2028-yillarga mo‘ljallangan MILLIY STRATEGIYA.

2. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) hisobotlari. — *World Health Organization. International Classification of Diseases, 11th Revision (ICD-11). Geneva: WHO, 2019.*

3. G‘ofurov S.S. va boshqalar. **Psixiatriya va narkologiya asoslari**. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi nashriyoti, 2020.

4. Karimov A.A. **Yoshlar orasida giyohvandlikka qarshi kurashda psixologik yondashuvlar** // “Pedagogik mahorat” jurnali. — 2022, №3. — B. 41–45.

5. Tashpulatova M.T. **Giyohvandlikning psixologik va ijtimoiy omillari** // O‘zR Fanlar akademiyasi jurnali, 2021, №2. — B. 22–26.

6. Rasulov I.M. **Narkologiya: O‘quv qo‘llanma**. — Toshkent: "Ilm Ziyo", 2019.

7. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. **“Giyohvandlik va jinoyatchilik” statistik axboroti**, 2023.

8. Ergashev Sh., Axmedov D**. Giyohvandlik va uning yoshlar ruhiyatiga ta’siri** // “Yoshlar siyosati va ijtimoiy psixologiya” jurnali. — 2023, №4. — B. 15–19.

9. Назаров Б.Ж. **Психоактив моддалар ва ёшлар** // “Ижтимоий фанлар” журнали. — 2022, №1. — Б. 38–42.

10. Mamatov A. **O‘zbekistonda giyohvandlik muammosi va uning oldini olish yo‘llari**. — Toshkent: “Adolat” nashriyoti, 2020.

GIYOHVANDLIK VA NARKOJINOYATLARGA QARSHI PROFILAKTIKANING AHAMIYATI

Azimov Jobir Odilovich,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Narkotiklar va o‘qotar qurollarni nazorat qilish agentligi direktor o‘rinbosari

Bugungi kunda xalqaro hamjamiyat, giyohvandlikka qarshi kurashishdagi barcha chora-tadbirlar orasida profilaktika (oldini olish) eng muhim o‘rinni egallashi lozimligini ta’kidlab, muammo yuzaga kelgach, uni bartaraf etishdan ko‘ra, uning oldini olish ancha samarali va ustuvor hisoblanadi.

1961-yilda qabul qilingan Giyohvandlik vositalari to‘g‘risidagi Yagona konventsiyaning 1972-yildagi Protokolining 38-moddasi va 1971 yildagi Psixotrop moddalar to‘g‘risidagi konventsiyaning 20-moddasiga muvofiq, a’zo davlatlar giyohvandlik vositalarini suiiste’mol qilishni oldini olish bo‘yicha profilaktika ishlarini olib borish, giyohvandlik vositalarini davolash bo‘yicha barcha zarur choralarni ko‘rishlari shartligi belgilangan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1988 yildagi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish” konvensiyasining 14-moddasida “Har bir Tomon o‘z hududida noqonuniy ravishda yetishtiriladigan ko‘knori va nasha o‘simliklari kabi tarkibida giyohvandlik yoki psixotrop moddalar bo‘lgan o‘simliklarni noqonuniy yetishtirishning oldini olish va ularni yo‘q qilish bo‘yicha tegishli choralarni ko‘radi” deb belgilangan.

Giyohvand moddalarga moyillik va ularning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurash bo‘yicha ko‘p yillik tajriba umumlashtirilishi natijasida BMT hujjatlarida ikki asosiy strategik yo‘nalish belgilab qo‘yilgan:

1. Giyohvand va psixoaktiv moddalarga noqonuniy talabni kamaytirish;

2. Giyohvand va psixoaktiv moddalarning noqonuniy taklifini va yetkazib berishni kamaytirish.

Bu ikkala yo‘nalish bir-biriga bog‘langan bo‘lib xalqaro va milliy darajada o‘zaro bog‘liq harakatlar tizimini ifodalaydi.

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti o‘z rezolyutsiyasida “Giyohvandlik moddalarni nazorat qilishning xalqaro strategiyasi”ni qabul qildi. Ushbu rezolyutsiyalar giyohvandlikka qarshi kurash strategiyasiga xalqaro milliy harakatlarni kiritishni nazarda tutadi, undan qator hukumatlar va xalqaro tashkilotlar foydalanadi. Ular orasida quyidagilarga alohida e’tibor qarati lozim:

- giyohvandlik vositalari ustidan nazorat tizimini takomillashtirish;

- qonuniy maqsadlarda giyohvandlik vositalariga bo‘lgan talab va ularni yetkazib berish o‘rtasidagi muvozanatga erishish;

- giyohvandlik vositalarini noqonuniy manbalardan yo‘q qilish;

- giyohvandlik vositalariga noqonuniy talabni kamaytirish;

- noqonuniy giyohvand moddalarga bo‘lgan talabni kamaytirish va qonuniy giyohvand moddalarni noto‘g‘ri ishlatish yoki noqonuniy ishlatishning oldini olish;

- narkomanni davolash, reabilitatsiya qilish va ijtimoiy reintegratsiya qilish.

Bugungi kunda xalqaro ҳamjamiyat tomonidan olib borilayotgan yuori darajadagi qarshi kurash va profilaktik ishlarga qaramay, giyoҳvandlik vositalari va psixotrob moddalarning noqonuniy tarqalishi soҳasida saqlanib qolayotgan mavjud muammolarga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqyu Jumladan:

yangi turdagi giyoҳvandlik moddalarning paydo bo‘lishi – hozirda har oy deyarli yangi sintetik (sun’iy) giyoҳvandlik modda chiqmoqda. Ular “energiya beruvchi vosita”, “tabiiy dori” yoki “vape aralashmasi” sifatida yashirin tarzda sotilmoqda. Bu moddalarning tarkibi tez-tez o‘zgarib turadi, shuning uchun ularni aniqlash va nazorat qilish qiyin bo‘lib qolmoqda;

chegaralarda nazorat sustligi – giyohvand moddalar asosan qo‘shni mamlakatlar orqali o‘tadi. Ba’zi chegaralarda texnik vositalar eski yoki yetarli emas, shu sababli narkotiklar yashirin yo‘llar bilan olib kirilmoqda;

yoshlar orasida giyohvandlikka qiziqish ortib bormoqda – o‘smirlar va talabalar orasida “vape”, “spays”, “mix” kabi moddalardan foydalanish holatlari ko‘paygan. Ko‘pchilik ularni zararli emas deb o‘ylaydi, ammo bu moddalar ham kuchli qaramlik keltirib chiqaradi;

davolanishdan keyin qayta giyohvandlikka berilish – reabilitatsiya (davolanish va tiklanish) markazlari yetarli emas, mavjudlari esa ko‘p hollarda faqat qisqa muddatli yordam beradi. Natijada ko‘pchilik bemorlar yana eski odatiga qaytib qoladi;

aholi orasida ma’lumot yetishmasligi – ko‘pchilik, ayniqsa yoshlar, narkotik moddalarning sog‘liqqa, oilaga va kelajakka qanday zarar yetkazishini to‘liq bilmaydi. Maktablarda, oliygohlarda va ommaviy axborot vositalarida bu haqda tushuntirish ishlari kam olib borilmoqda;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasida hamkorlik yetarli emasligi – narkotiklar bilan bog‘liq jinoyatlar ko‘pincha xalqaro xarakterga ega. Ammo turli davlatlar va idoralar o‘rtasida tezkor axborot almashinuvi sust. Shu sababli jinoyatchilarni vaqtida aniqlash va to‘xtatish qiyinlashmoqda.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurash muammolari bo‘yicha xalqaro hujjatlarning tahlili shundan dalolat beradiki, giyohvand moddalarga qarshi kurash bo‘yicha chora-tadbirlarni muvofiqlashtirishdagi asosiy yo‘nalishlar quyidagi vazifalarni hal etish bilan bog‘liq:

1. Eng muhim vazifalardan biri — davlatlar o‘rtasida samarali hamkorlik munosabatlarini o‘rnatish va keyinchalik ularni mintaqaviy darajada integratsiya qilishni nazarda tutuvchi siyosatni ishlab chiqishdir. Bu siyosatning asosiy maqsadi,

Giyohvandlik vositalarni iste’mol qilishni kamaytirishga qaratilgan choralar bilan ularning tarqalishini cheklashga qaratilgan choralar o‘rtasida muvozanatni ta’minlashdir.

2. Ma’muriy nuqtai nazardan eng muhim vazifalardan biri — turli davlatlar vazirliklari va idoralari faoliyatini muvofiqlashtirish uchun maxsus tuzilmalarni yaratishdan iborat. Bu jarayon “gorizontal muvofiqlashtirish” deb ataladi. Shu bilan birga, davlat muassasalarining yuqori darajali boshqaruv organlari bilan hamkorlikda ish olib borishi, ya’ni “vertikal muvofiqlashtirish” esa alohida murakkablik va tashkiliy yondashuvni talab etadi.

3. Giyohvandlik moddalarga qarshi kurash strategiyalarini amalga oshiradigan davlat muassasalari uchun yana bir muhim vazifa — jamoatchilikni davlat siyosati ishlab chiqilishi va uni hayotga tatbiq etish jarayonlariga jalb etishdir. Bu borada aholi o‘z ixtiyori va jamoaviy tuzilmalar orqali faol ishtirok etishi zarur. Jamoatchilikning bevosita ishtirokini ta’minlash, qabul qilinadigan qarorlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

BMTga a’zo davlatlarning aksariyatining giyohvandlik vositalariga qarshi kurashish strategiyalarida o‘zaro uyg‘unlik mavjud. O‘zbekiston ham mazkur yo‘nalishdagi BMTning tamoyillarni to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi. Mamlakat BMTning ushbu sohadagi uchta asosiy konvensiyalariga qo‘shilgan:

1961 yildagi Yagona konvensiya, 1971 yildagi Psixotrop moddalar to‘g‘risidagi konvensiya, 1988 yildagi Narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish to‘g‘risidagi konvensiya[1].

Bu borada O‘zbekiston xalqaro tashabbuslardagi ishtirokini faollashtib, sohada muammoga ancha ilgariroq duch kelgan davlatlarning tajribasidan foydalanib kelmoqda.

Shuningdek, MDH doirasidagi davlatlar bilan ham giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurash bo‘yicha hamkorlik yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Hozirgi vaqtda a’zo davlatlarning barchasi giyohvandlik moddalar iste’molini kamaytirishga asosiy e’tiborni qatargan, shu bilan birga, narkotik moddalarga mukkasidan ketgan shaxslarni davolash va reabilitatsiya qilishga qaratilayotgan chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda.

Bundan tashqari, yana bir xalqaro hujjat, “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konventsiya”ning 33-moddasida bolalarni giyohvandlik va giyohvandlikdan himoya qilish zarurligi ta’kidlangan. Xuddi shunday holat Yoshlar uchun Butunjahon Harakat

[1] Международные Конвенции по защите прав человека и борьбе с преступностью: (Сб. междунар. документов)/Сост. Ю.С. Пулатов. – Т.: Шарк, 1995. - С. 302-338. – 448 с. – (Сравнительное правоведение. Вып. 1). https://lex.uz/docs/2676167.

Dasturining[1] bandlarida ham o‘z aksini topgan bo‘lib, unda yoshlar tashkilotlari va yoshlarni giyohvand moddalarga bo‘lgan talabni cheklashga qaratilgan tadbirlarga jalb etish takliflari ilgari surilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi qonuni normalaridan ko‘rinib turibdiki, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarning muomalasi va ularning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi giyohvandlik vositalariga qarshi kurashishga qaratilgan faoliyatni qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Giyohvandlik va giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishining oldini olish nima ekanligini ko‘rib chiqaylik?

Kompleks yondashuvga asoslangan faol profilaktika va reabilitatsiya konsepsiyasi mualliflari antinarkotik profilaktikani muayyan mazmun, bosqichma-bosqich rivojlanish va aniq yakuniy natijaga ega bo‘lgan, yagona davlat dasturi doirasida tashkil etiladigan, davlat va jamoat tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tizimi sifatida talqin qilinad.

Profilaktikani aynan bunday faoliyat tizimi sifatida tushunish, giyohvand moddalarni iste’mol qilish va ularning noqonuniy aylanishining oldini olishga qaratilgan umumdavlat profilaktika tizimi doirasida ta’lim muhitida olib boriladigan profilaktika faoliyatini alohida kichik tizim sifatida ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Mazkur kichik tizim esa o‘ziga xos maqsad va vazifalarga ega bo‘lib, u umumiy strategiyaning tarkibiy qismi sifatida xizmat qiladi.Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni suiiste’mol qilishning oldini olish bu ushbu moddalarning tarqalishi, ularni qo‘llashga olib keluvchi sabab va shart-sharoitlarni barvaqt aniqlash, ularni bartaraf etish va insonlarni, ayniqsa, yoshlarni giyohvandlikka moyillikdan himoya qilishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar majmuasidir.

Bunday profilaktika:

ijtimoiy (oila, mahalla, ommaviy axborot vositalari orqali ta’sir o‘tkazish);

ma’rifiy (maktab va oliygohlarda ta’lim-tarbiya ishlari orqali tushuntirish);

tibbiy-psixologik (salomatlikni mustahkamlash, stressni yengish, qo‘llab-quvvatlash);

Uning maqsadi odamlarning, ayniqsa yoshlar va voyaga yetmaganlarning giyohvand moddalarga bo‘lgan qiziqishini bartaraf etish, ularni sog‘lom hayot tarziga yo‘naltirish va suiiste’mol oqibatlarini oldini olishdan iborat.

Huquqshunos olimlar jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish hamda profilaktikasi haqida so‘z yuritar ekan, bu tushunchalarni jinoyat va huquqbuzarliklarni keltirib chiqaradigan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish yoki ularning ta’sirini kamaytirishga qaratilgan davlat va jamoatchilik hamkorligida amalga oshiriladigan

[1]BMT Bosh Assambleyasining 1995 yil 14 dekabrdagi 91-yalpi majlisi //https://documents.un.org/doc/resolution/gen/n96/771/45/img/n9677145.pdf.

umumiy ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy, madaniy-tarbiyaviy va huquqiy chora-tadbirlar majmuasi sifatida talqin qiladilar.

Bu chora-tadbirlar jamiyatdagi jinoyatchilik darajasini kamaytirish, aholi o‘rtasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, sog‘lom ijtimoiy muhit yaratishga qaratilgan tizimli va barqaror faoliyatni o‘z ichiga oladi.

Jinoyatlarning profilaktikasi tushunchasi mazmunini aniqlashda ko‘plab huquqshunos olimlar uning mohiyatini ham keng, ham tor ma’nolarda talqin qiladilar.

Keng ma’noda profilaktika - bu jinoyatlarning sodir etilishining oldini olish, jamiyat a’zolarini huquqqa zid, jazoga tortiladigan qilmishlarni sodir etishdan saqlashdir. Bu ma’noda profilaktikaga huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati ham kiradi.

Tor ma’noda profilaktika - bu jinoyatlarni keltirib chiqaradigan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, o‘zining jamiyatga qarshi yo‘nalgan xulq-atvori bilan kelgusida huquqbuzarlik sodir etishi mumkin bo‘lgan shaxslarni aniqlab, ular bilan maqsadli profilaktik ishlar olib borish faoliyatini anglatadi[1].

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasi profilaktikasi - bu ushbu illatlarni keltirib chiqaradigan ijtimoiy, huquqiy va kriminogen omillarni bartaraf etishga, ularga moyillik belgilari mavjud bo‘lgan shaxslar bilan maqsadli ishlashga va jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan, davlat va jamoatchilik hamkorligida amalga oshiriladigan tizimli chora-tadbirlar majmuasidir.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasi butun dunyo hamjamiyati oldida turgan eng jiddiy tahdidlardan biridir. Ushbu muammo nafaqat alohida shaxslar sog‘lig‘iga, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishiga, ijtimoiy xavfsizlikka va davlatlarning milliy xavfsizligiga ham katta zarar yetkazmoqda. Shu bois xalqaro tashkilotlar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, MDH va boshqa mintaqaviy tuzilmalar hamda alohida davlatlarning siyosiy va huquqiy tizimlari giyohvandlikka qarshi kurashda alohida e’tibor qaratmoqda. Xususan, profilaktika choralari barcha sohalarda ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Chunki muammo paydo bo‘lgach, uni bartaraf etish nihoyatda murakkab va katta xarajatlarni talab qiladi. Ammo uning oldini olish imkoniyatlari samarali qo‘llansa, ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Umumiy xulosa qilib aytganda, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashda profilaktika eng muhim va ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Profilaktika choralari faqat davlat siyosati darajasida emas, balki butun jamiyat miqyosida olib borilishi kerak. Xalqaro hamkorlik, milliy qonunchilikning takomillashuvi, jamoatchilik ishtiroki, ta’lim va tarbiya tizimidagi

[1] UNODC rasmiy sayti: www.unodc.org

chora-tadbirlar, shuningdek, reabilitatsiya va ijtimoiy reintegratsiya dasturlari uyg‘un holda qo‘llanilgandagina samarali natijalarga erishish mumkin. Giyohvandlikka qarshi kurashning muvaffaqiyati, avvalo, uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning qanchalik samarali va tizimli tashkil etilishiga bog‘liqdir. Shu bois profilaktika masalasiga ustuvorlik berish nafaqat milliy xavfsizlikni ta’minlash, balki yosh avlodni sog‘lom va barkamol insonlar qilib tarbiyalash, jamiyat barqarorligini mustahkamlashning ham eng to‘g‘ri yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. – 1999-yil 19-avgust.
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5099-son Farmoni – “Narkotik moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 28-dekabrdagi 1067-son qarori – “Giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatchilikning oldini olish va nazoratni kuchaytirish to‘g‘risida”.
6. BMTning 1988-yil 20-dekabrdagi “Narkotik vositalar va psixotrop moddalar noqonuniy aylanishiga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Konvensiyasi.
7. BMTning 1961-yilgi “Narkotik moddalar to‘g‘risida yagona konvensiyasi” va unga 1972-yilgi tuzatishlar.
8. Karimov, A. “Giyohvandlikka qarshi kurashda profilaktika choralari va ularning samaradorligi.” – *Ijtimoiy fanlar jurnali*, 2022, №3, 45–52-betlar.
9. Abdurahmonova, N. “O‘smirlar o‘rtasida giyohvandlikning oldini olishda oilaning roli.” – *Huquq va jamiyat*, 2021, №5.
10. Hasanov, B. “Narkotik moddalarga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o‘rni.” – *Ichki ishlar akademiyasi axborotnomasi*, 2020, №2.
11. UNODC. *World Drug Report 2024*. – Vienna: United Nations Office on Drugs and Crime, 2024.
12. To‘rayev, S. “Profilaktika tizimini kuchaytirish orqali giyohvandlikka qarshi kurashni takomillashtirish yo‘llari.” – *Huquqiy tadqiqotlar jurnali*, 2024, №4.

ПРЕКУРСОРЛАРНИНГ НОҚОНУНИЙ МУОМАЛАСИГА ҚАРШИ КУРАШИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ ЧОРАЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Хайдаров Мирсаид Мирджаббарович,
Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Наркотиклар ва ўқотар қуролларни назорат қилиш агентлиги гуруҳ раҳбари
Калбаева Бахыт Хожамберген кызы,
Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси Жиноят ҳуқуқи кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: мақолада мамлакатимиз қонунчилигида прекурсорлар билан боғлиқ бўшлиқлар ёритилган, хорижий давлатлар тажрибаси ўрганилган, прекурсорларнинг ноқонуний муомаласига қарши курашишнинг ҳуқуқий чораларини такомиллаштириш бўйича таклифлар илгари сурилган.

Калит сўзлар: прекурсор, гиёҳвандлик воситаси, психотроп модда, кучли таъсир қилувчи модда, калий перманганат, ацетон, хлорид кислотаси, жавобгарлик, хорижий тажриба, қонунчиликни такомиллаштириш.

Инсониятга хавф солиб турган уюшган трансмиллий жиноятчиликнинг энг хавфли турларидан бири бу – **гиёҳвандлик воситаларининг ноқонуний айланмасидир**. Гиёҳвандлик эса **аҳоли саломатлиги** ва **миллат генофондига жиддий таҳдид солаётган иллат** бўлиб, унга қарши курашиш ҳамда уюшган наркожиноятчиликка чек қўйиш дунё мамлакатлари сиёсатининг устувор вазифаларидан бири ҳисобланади.

Маълумки, гиёҳвандлик воситаларининг ноқонуний муомаласида **прекурсорлар** алоҳида ўрин тутади. Зеро, прекурсор гиёҳвандлик воситаларининг синтези учун бошланғич таркибий қисм сифатида ишлатилиши мумкин бўлган **махсус кимёвий элемент** *(аралашма)* ҳисобланади.

Шу сабабли ҳам прекурсорлар айланмасини назорат қилиш гиёҳвандлик воситаларининг ноқонуний ишлаб чиқарилишига қарши курашнинг **асосий йўналишларидан бири** бўлиб, кўпгина давлатлар томонидан прекурсорлар муомаласи алоҳида назоратга олинган.

Мамлакатимиз қонунчилигида ҳам прекурсорлар муомаласини тартибга солишга қаратилган чора-тадбирлар белгиланган.

Хусусан, Ўзбекистон Республикасининг 1999 йил 19 августдаги “Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида” 813-I-сон Қонунининг 3-моддасида ҳамда Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг сакказинчи бўлимида **прекурсорлар** деганда, прекурсорлар рўйхатига киритилган ва Ўзбекистон Республикасида назоратга олинадиган, гиёҳвандлик воситаларини, уларнинг аналогларини ва психотроп моддаларни тайёрлаш учун фойдаланиладиган моддалар тушунилиши кўрсатиб ўтилган.

Шунингдек, Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 12 ноябрдаги “Гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалар ва прекурсорларни Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб кириш, ундан олиб чиқиш ва транзит тарзида ўтказиш тартибини, шунингдек уларнинг муомалада бўлиши юзасидан назоратни такомиллаштириш тўғрисида”ги **330-сон қарори**[1] билан мамлакатимизда муомаласи чекланган прекурсорлар рўйхати *(IV)* тасдиқланган *(7-илова)* ва унга **29 номдаги прекурсорлар** киритилган.

Бироқ, бугунги кунда миллий қонунчилигимизда прекурсорлар билан боғлиқ айрим бўшлиқлар сақланиб қолмоқда. Хусусан:

– синтетик гиёҳвандлик воситаларини *(мефедрон, метамфетамин, альфа-ПВП ва ҳ.к.)* тайёрлашда фойдаланиладиган 2-бром-4-хлоропропиофенон, 2-бром-4-метоксипропиофенон, 2-бром-4-метилпропиофенон, алфа-бромвалерофенон каби бир қанча прекурсорлар мамлакатимизда **муомаласи чекланган прекурсорлар рўйхатига киритилмаган**;

– прекурсорлар билан муомалада бўлиш **тартиби белгиланмаган**;

– прекурсорларнинг қонуний муомаласини **назорат қилиш бўйича қатъий механизмлар мавжуд эмас**;

– прекурсорларнинг ноқонуний муомаласи учун **жавобгарлик назарда тутилмаган**.

Юқоридаги бўшлиқлар прекурсорларнинг қонуний муомаласини назорат қилиш имконини бермайди ва ноқонуний муомалага чиқиб кетиш эҳтимолини оширади. Ачинарлиси, прекурсорларнинг ноқонуний муомаласи билан боғлиқ ҳолатлар аниқланган тақдирда, мазкур қилмишни содир этган шахсларнинг жавобгарликка тортилмай қолишларига ва ўз ҳаракатларини давом эттиришларига сабаб бўлади.

Бу борадаги хорижий тажриба таҳлили бир қатор давлатларда прекурсорларнинг қонунга хилоф муомаласи, шунингдек, уларнинг қонуний муомаласи тартибини бузганлик учун жавобгарлик белгиланганлиги кўрсатмоқда. Хусусан:

– прекурсорларни қонунга хилоф равишда муомалага киритганлик учун **Россия** (ЖК 228.4-модда)[2], **Беларусь** (ЖК 328-модда)[3], **Украина** (ЖК

[1] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 12 ноябрдаги “Гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалар ва прекурсорларни Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб кириш, ундан олиб чиқиш ва транзит тарзида ўтказиш тартибини, шунингдек уларнинг муомалада бўлиши юзасидан назоратни такомиллаштириш тўғрисида”ги 330-сон қарори. Электрон манба. Кириш йўли: https://lex.uz/ru/docs/2815342#2815435 (мурожаат санаси: 30.03.2026)

2 Уголовный кодекс Российской Федерации. Электронный ресурс. Режим доступа: https://base.garant.ru/10108000/ (дата обращения: 30.03.2026)

3 Уголовный Кодекс Республики Беларусь. Электронный ресурс. Режим доступа: https://continent-online.com/Document/?doc_id=30414984 (дата обращения: 30.03.2026)

311-модда)[1], **Молдова** (ЖК 217-2-модда)[2], **Озарбайжон** (ЖК 234-модда)[3], **Тожикистон** (ЖК 202 (1)-модда)[4], **Туркманистон** (ЖК 327-модда)[5] ва **Қирғизистон** (ЖК 284-модда)[6]да;

– прекурсорларни ўтказиш мақсадисиз олиш, сақлаш, ташиш ва бошқа ҳаракатлар учун **Россия** (ЖК 228.3-модда), **Беларусь** (ЖК 328-модда), **Украина** (ЖК 311-модда) ва **Туркманистон** (ЖК 328-модда)да;

– прекурсорларнинг қонуний муомаласи тартибини бузганлик учун **Россия** (ЖК 228.2-модда), **Беларусь** (ЖК 330-модда), **Украина** (ЖК 320-модда), **Озарбайжон** (ЖК 234-модда), **Тожикистон** (ЖК 206 (1)-модда), **Туркманистон** (ЖК 333-модда) ва **Қирғизистон** (ЖК 289-модда)да;

– прекурсорларни контрабанда қилганлик учун **Россия** (ЖК 229.1-модда), **Беларусь** (ЖК 328[1]-модда), **Украина** (ЖК 305-модда), **Озарбайжон** (ЖК 206-модда), **Тожикистон** (ЖК 289-модда), **Туркманистон** (ЖК 276-модда) ва **Қирғизистон** (ЖК 285-модда)да жиноий жавобгарлик назарда тутилган.

Юқоридагилардан келиб чиқиб:

1. Ўзбекистонда муомаласи чекланган **прекурсорлар рўйхатини** халқаро тажрибадан келиб чиққан ҳолда **кенгайтириш чораларини кўриш** ҳамда уни соддалаштирилган тартибда **тезкорлик билан янгилаб бориш** (тўлдириш) механизмларини жорий этиш;

2. Прекурсорларнинг қонуний муомаласини тартибга солиш ҳамда улар ишлаб чиқарилишидан (хориждан келтирилишидан) бошлаб реализация қилинишигача (транзит ўтиши, маҳсулот ишлаб чиқаришда фойдаланиш, сотиш, сақлаш, бериш ва бошқа) бўлган барча жараёнларни **электрон назорат қилиш** тизимини йўлга қўйишни назарда тутувчи **қатъий давлат назоратини** ўрнатиш;

3. Прекурсорларнинг ноқонуний муомаласи ҳамда улардан фойдаланиш тартибини бузганлик учун **маъмурий** ва **жиноий жавобгарликни** киритиш мақсадга мувофиқ.

---

[1] Уголовный кодекс Украины. Электронный ресурс. Режим доступа: https://continent-online.com/Document/?doc_id=30418109 (дата обращения: 30.03.2026)

[2] Уголовный кодекс Республики Молдова. Электронный ресурс. Режим доступа: https://continent-online.com/Document/?doc_id=30394923 (дата обращения: 30.03.2026)

[3] Уголовный кодекс Азербайджанской Республики. Электронный ресурс. Режим доступа: https://continent-online.com/Document/?doc_id=30420353 (дата обращения: 30.03.2026)

[4] Уголовный кодекс Республики Таджикистан. Электронный ресурс. Режим доступа: https://continent-online.com/Document/?doc_id=30397325 (дата обращения: 30.03.2026)

[5] Уголовный кодекс Туркменистана. Электронный ресурс. Режим доступа: https://ombudsman.gov.tm/doc/%D0%A3%D0%B3%D0%BE%D0%BB%D0%BE%D0%B2%D0%BD%D1%8B%D0%B9%20%D0%BA%D0%BE%D0%B4%D0%B5%D0%BA%D1%81.pdf (дата обращения: 30.03.2026)

[6] Уголовный кодекс Кыргызской Республики. Электронный ресурс. Режим доступа: https://cbd.minjust.gov.kg/3-38/edition/2087/ru (дата обращения: 30.03.2026)

Фикримизча, мазкур таклифларнинг жорий этилиши мамлакатимизда прекурсорларнинг қонунга хилоф муомаласини олдини олиш ва уларга қарши курашиш фаолияти самарадорлиги ошишига хизмат қилади.

ВОЯГА ЕТМАГАНЛАРНИ ГИЁҲВАНДЛИК БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ СОДИР ЭТИШГА ЖАЛБ ҚИЛГАНЛИК УЧУН ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Ниёзова Саломат Сапаровна,
Тошкент давлат юридик университети “Жиноят ҳуқуқи, криминология ва коррупцияга қарши курашиш” шўбаси профессори, юридик фанлари доктори

Аннотация: Мазкур мақолада вояга етмаганларни гиёҳвандлик билан боғлиқ жиноятларни содир этишга жалб қилганлик учун жавобгарлик масалалари таҳлил этилган.

Шунингдек, мазкур мақолада гиёҳванд моддаларни суиистеъмол қилишнинг энг оғир оқибати ва унинг салбий ҳолатлари ҳақида ҳам фикирлар юритилиб тегишли таклиф ва тавсиялар берилган.

Калит сўзлари: Вояга етмаганлар, воситалар, гиёҳвандлик, ёшлар, инсон саломатлиги, кучли таъсир қилувчи, писихатроп, суиистеъмол, қилиш, моддалар.

Мамлакатимизда аҳоли орасида соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш, уларнинг гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларга нисбатан қарши иммунитетни шакллантириш, шунингдек, инсон саломатлигини таъминлашга қаратилган муайян ишлар амалга оширилмоқда.

Аммо сўнгги йилларда янги турдаги синтетик гиёҳвандлик воситалари ва кучли таъсир қилувчи моддалар пайдо бўлаётгани, улари нсон омилисиз интернетнинг ижтимоий тармоқларидан фойдаланган ҳолда аҳоли, айниқса, ёшлар орасида осон тарқатилаётгани ачинарли ҳолдир.

Республикамизда ёшлар орасида наркотикларнинг ноқонуний айланмасига жиноий-ҳуқуқий механизмлар орқали қатъий барҳам бериш ҳамда ёшларга нисбатан содир этиладиган наркожиноятлар учун жавобгарликни оғирлаштириш, наркотикларни интернет орқали тарқатиш, уюшган гуруҳлар ва нарколабораториялар, уларга раҳнамолик қилаётган мансабдор шахсларни аниқлаш ва чек қўйишга қаратилган кенг қамровли тезкор-қидирув ҳамда тергов фаолиятини йўлга қўйиш юзасидан салмоқли ишлар амалга оширилмоқда.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022 – 2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармонида наркотрафикка қарши курашиш[1], Ўзбекистон

Республикаси Президентининг 2025 йил 3 ноябрдаги “Аҳоли саломатлиги ва миллат генофондини гиёҳвандлик ва наркожиноятлардан самарали ҳимоя қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ–207-сон Фармонида гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалар ноқонуний айланмасига қатъий жиноят-ҳуқуқий механизмлар орқали барҳам бериш, бу борадаги жазо чораларини кескин кучайтириш ҳамда ёшларга нисбатан содир этиладиган наркожиноятлар учун жавобгарликни оғирлаштириш, уюшган наркожиноятчиликка чек қўйиш[2] масалалари жиноят қонунини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари ва вазифалари этиб белгиланган. Ушбу вазифалар гиёҳвандлик воситалари (аналоглари) ёки психотроп моддаларни ноқонуний ўтказишнинг жиноят-ҳуқуқий ва криминологик жиҳатларини комплекс тадқиқ этишни тақозо қилади.

БМТ Бош Ассамблеясининг 1987 йил 7 декабрда қабул қилган резолюциясига биноан ҳар йили 26 июнда Халқаро гиёҳвандлик ва бангифурушликка қарши кураш куни (International Day against Drug Abuse and Illicit Trafficking) нишонланади.

Таҳлилчиларнинг фикрича, гиёҳванд моддаларнинг кенг тарқалиши бир қатор ижтимоий муаммоларга сабаб бўлади. Жумладан, демографик фожеаларни келтириб чиқаради, ижтимоий-иқтисодий ҳаётда жиноятчилик кўзга ташланади. БМТ Бош Ассамблеясининг тан олишича, кўрилаётган чора-тадбирларга қарамай, жаҳонда гиёҳванд моддалар ноқонуний савдоси муаммолигича қолмоқда. Бу муаммо ҳамон жиддий таҳдид сифатида кўрилади.

Статистик маълумотларга кўра дунёда 500 миллиондан ортиқ одам гиёҳвандлик дардига йўлиққан. Унинг аксарият қисмини 30 ёшгача бўлганлар ташкил этмоқда. Бунинг оқибатида ҳар йили 200 мингдан ортиқ киши ҳаётдан кўз юмади. Шу билан бирга, жаҳонда содир этилаётган жиноятларнинг 57 фоизи гиёҳвандлар ҳиссасига тўғри келади. Шу боисдан, гиёҳвандликка қарши курашни кучайтириш мақсадида, БМТ томонидан “Наркотик моддалар тўғрисида”ги, “Психотроп моддалар” ҳамда “Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланишига қарши кураш тўғрисида”ги конвенциялар қабул қилинган. Маълумотларга кўра, 15 ёшдан 64 ёшгача бўлганлар орасида қайд этиладиган ўлимларнинг 1,3 фоизи гиёҳвандлик оқибатида юз берар экан. Бир йилда 211 мингта ўлим айнан гиёҳвандлик оқибатида келиб чиқади.

Гиёҳванд моддаларни суиистеъмол қилишнинг энг оғир оқибати ҳисобланиб, бу — инсонни оиласи ва жамиятидан узиб қўйиши[3]. Бора-бора шахснинг ижтимоий роли ва қадр-қиммати емирилади, ахлоқий чеклар сусаяди ва турли ҳуқуқбузарликларга мойиллик кучаяди. Бунинг устига, бундай моддалар ҳаёт учун хавф туғдиради: мия фаолиятини издан чиқаради, иммун

тизимини заифлаштиради, бутун организмда чуқур патологик ўзгаришлар келтириб чиқаради[4].

Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларни узоқ муддат истеъмол қилиш натижасида касаллик кўринишидаги қарамлик шаклланади ва у гиёҳвандликнинг уч асосий босқичидан ўтади.

Биринчи босқичда ўта таъсирчанлик (толерантлик), эйфориянинг жадал юз бериши, гиёҳвандлик воситаларига руҳий қарамлик кузатилади. Бунда организмнинг сурункали заҳарланиши ва у билан боғлиқ асоратлар ҳали мавжуд бўлмайди. Биринчи босқич қисқа муддатлидир, у бир неча ҳафта ёки бир неча ой давом этади. Иккинчи босқичда барқарор толерантликка эришилади. Гиёҳвандлик воситаларига руҳий ва жисмоний қарамлик сезилади, организмнинг сурункали заҳарланиши аломатлари – озиш, умумий лоҳаслик ва заифлик, меҳнат қобилиятининг кескин пасайиши кузатилади. Илгари кузатилган касалликлар ривожланади.

Мазкур босқич балоғат ёшидан ўтган одамда ўрта ҳисобда 5 йилдан 10 йилгача давом этади. Учинчи босқич толерантликнинг аста-секин пасайиши, эйфория, гиёҳвандлик воситаларининг тетиклантирувчи таъсири сусайиши ёки бутунлай йўқолиши билан тавсифланади. Гиёҳвандлик воситаларини истеъмол қилиш тўхтатилганида истеъмол қилувчининг аҳволи оғирлашади, меҳнат қобилиятини бутунлай йўқотади. Касалликнинг мазкур босқичи олдинги босқичдан тезроқ ривожланади[5].

Гиёҳвандлик воситалари, уларнинг аналоглари ёки психотроп моддаларни ўтказиш мақсадида қонунга хилоф тарзда тайёрлаш, олиш, сақлаш ва бошқа ҳаракатларни амалга ошириш, шунингдек уларни ноқонуний тарзда ўтказиш билан боғлиқ жараёнларга тортилаётган вояга етмаганлар жиноятчилигини шартли равишда беш тоифага ажратиш мумкин.

– бевосита алоқадор жиноятлар. Бу гуруҳга гиёҳвандлик воситалари билан ноқонуний тарзда муомала қилиш, уларни тўвламачилик йўли билан ноқонуний равишда қўлга киритиш, шунингдек гиёҳвандлик воситаларини истеъмол қилиш учун жой (бангихона) сақлаш каби қилмишлар киради;

– маблағ топиш мақсадида содир этилган қилмишлар. Гиёҳванд моддаларни сотиб олиш учун пул етишмаслиги натижасида вояга етмаганлар томонидан ўғрилик, талончилик, босқинчилик ва товламачилик каби мулкка қарши жиноятлар содир этилади;

– мастлик ҳолатида содир этилган жиноятлар. Гиёҳванд моддалар, уларнинг аналоглари ёки психотроп моддалар истеъмолидан юзага келган мастлик шароитида қасддан одам ўлдириш, баданга шикаст етказиш (турли даражаларда), номусга тегиш, безорилик, шунингдек тарих ёки маданият

ёдгорликларини нобуд қилиш, бузиш ёки уларга шикаст етказиш ҳолатлари учрайди;

– наркобизнесдаги ички тўқнашувлардан келиб чиқадиган жиноятлар. Гиёҳвандлик воситалари айланмаси билан шуғулланувчи шахслар ўртасидаги келишмовчиликлар, “ҳудуд” ёки “ҳисоб-китоб” масалалари туфайли одам ўлдириш ёки баданга шикаст етказиш каби оғир жиноятлар содир этилиши мумкин;

– наркотик мастлик ҳолатидаги шахсларга нисбатан қаратилган жиноятлар. Маст ҳолатдан фойдаланиб, бундай шахсларга нисбатан баданга шикаст етказиш, талончилик, босқинчилик ва безорилик каби тажовузлар амалга оширилади.

Болаларни гиёҳвандлик воситаларини ўтказишга жалб қилишнинг муайян руҳий асослари мавжуддир: биринчидан, болалар гапга тез кўниши, катталарга қулоқ солиши, уларнинг талабларини сўзсиз бажариши билан ажралиб туради. Иккинчидан, вояга етмаганлар гиёҳвандлик воситаларини сотувчи сифатида кўп ҳам ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ходимларининг эътиборини жалб қилмайди. Учинчидан, болалар жуда киришимли, уларнинг ўз тенгдошлари ва катта ёшдагилар билан мулоҳатга киришишлари осонроқдир.

Ишбилармонлик фаолиятининг бир кўриниши сифатида наркобизнес билан шуғулланувчи гуруҳлар ўз тузилиши ва вазифаларни гуруҳнинг қайси аъзоси бажаришини аниклаб олишга ҳаракат қилади. Гиёҳвандлик воситаларини ўтказишда иштирок этувчи шахсларнинг роллари тақсимланган бўлади, [6] яъни вояга етмаганларга наркобизнес корчалонларининг жиноий жавобгарликка тортилишини камайтирувчи вазифаларни бажариш топширилади.

Гиёҳвандлик воситалари уларни тарқатувчиларига кўпинча талон-тарож натижасида келиб тушади. Бундай ҳол. айниқса наркотик таъсир кўрсатувчи дори-дармонларга нисбатан кўпроқ содир этилади. Гиёҳвандлик воситаларини талон-тарож қилиш давлат муассасалари (хизмат вазифасига кўра наркотиклар ишониб топширилган шахслар томонидан), шунингдек, бундай воситаларга қонуний ёки ноқонуний тарзда эгалик қилаётган фуқароларга нисбатан ҳам содир этилади[7].

Кўпинча гиёҳвандлик воситаларини талон-тарож қилиш бундай воситалари олинаётган шахснинг ҳаёти ва соғлиги учун хавфли бўлмаган зўрлик ишлатиш билан содир этилади. Гиёҳвандлик воситаларини боскинчилик йўли билан талон-тарож қилиш камроқ учрасада, гиёҳвандлар ўзининг шафқатсизлиги, агрессивлиги билан ажралиб туради.

Гиёҳвандлик воситаларини зўрлик ишлатиб талон-тарож қилишнинг сабаби наркотик “очликни” қондиришга бўлган интилиш ҳисобланади. Гиёҳвандлик воститаларини талончилик ёки босқинчилик йўли билан талон-

тарож қилишнинг бойлик орттириш, яъни кейинчалик уни сотиш мақсадида эгаллаш жуда ҳам кам учрайди.

Гиёҳвандликни умумбашарий муаммо даражасига олиб келувчи омиллардан бири – унинг халқаро терроризм билан узвий алоқадорлигидир.

Ўзбекистон Республикасининг иқтисодий ва маданий негизига салбий таъсир кўрсатиб, оммалашиб бораётган бу жиноят тури инсон соғлиғига таъсир кўрсатиб келмоқда. Бу статистика албатта фақат фойдаланиш қоидаларини бузиш жинояти эмас балки барча республикадаги гиёҳвандлик жиноятлари статистикаси.

Буни олдини олиш муҳим аҳамиятга эга бўлиб, миллий қонунчилигимизга мана шундай хавф-хатарларнинг олдини олиш, уларга қарши аёвсиз курашиш, бундай иллатни таг-томири билан йўқотишга қаратилган нормаларни киритиш вақти келди, деди давлат раҳбари.

Айтиш керакки, Президентимизнинг 2025 йил 6 майдаги “Ўзбекистон Республикасида гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланмасига чек қўйиш орқали уларнинг аҳоли саломатлиги ва мамлакатимиз генофондига салбий таъсирини бартараф этиш стратегик чора-тадбирлари тўғрисида”[8]ги ПФ-73 сонли ҳамда 2025 йил 3 ноябрдаги “Аҳоли саломатлиги ва миллат генофондини гиёҳвандлик ва наркожиноятлардан самарали ҳимоя қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида” [9]ги ПФ-207-сонли Фармонлари бу борада муҳим ҳуқуқий асос бўлди.

Илғор хорижий тажриба, халқаро, шу жумладан БМТ экспертларининг хулоса ва тавсиялари асосида ишлаб чиқилган Ўзбекистон Республикасида гиёҳвандлик ва наркожиноятларга қарши курашиш бўйича 2024 — 2028-йилларга мўлжалланган миллий стратегия тасдиқланди.

Миллий стратегия доирасида аҳоли, айниқса, хотин-қизлар ва ёшларда “гиёҳвандликка қарши иммунитет”ни, ўқувчи ва талабалар орасида кучли таъсир қилувчи дориларни истеъмол қилишга муросасиз муносабатни шакллантириш, таълим муассасаларида психофаол моддалар тарқалишининг олдини олишга қаратилган янги таъсирчан тарғибот-ташвиқот ва тарбиявий-профилактик механизмларни жорий этиш мақсадларга эришиш барча давлат органлари ва ташкилотларнинг устувор вазифаси сифатида белгиланди.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, Ўзбекистон Республикаси Президентнинг 2025 йил 3 ноябрдаги “Аҳоли саломатлиги ва миллат генофондини гиёҳвандлик ва наркожиноятлардан самарали ҳимоя қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармонинг мақсади:

а) таълим муассасаларида, ўқувчи ва талабалар орасида психофаол моддаларнинг тарқалишига батамом чек қўйиш, ёшларда гиёҳвандлик иллатига

муросасиз муносабатни шакллантириш бўйича таъсирчан чора-тадбирларни комплекс равишда амалга ошириш;

б) гиёҳвандлик воситалари, психотроп ва кучли таъсир қилувчи моддалар ноқонуний айланмасига қатъий жиноий-ҳуқуқий механизмлар орқали барҳам бериш, бу борадаги жазо чораларини кескин кучайтириш ҳамда ёшларга нисбатан содир этиладиган наркожиноятлар учун жавобгарликни оғирлаштириш;

в) гиёҳвандлик воситаларини республика чегарасидан олиб кириш йўналишларини, интернет тармоқлари орқали тарқатиш ҳаракатларини, ноқонуний нарколабораторияларни ва наркожиноий уюшмаларни, шу жумладан, уларга ҳомийлик қилаётган мансабдор шахсларни аниқлаш, улар фаолиятига чек қўйиш ҳамда жазо муқаррарлигини таъминлашга қаратилган кенг қамровли тезкор-қидирув ва тергов фаолиятини йўлга қўйиш;

г) гиёҳвандлик воситаларини тайёрлаш учун фойдаланиш мумкин бўлган кимёвий моддалар (прекурсорлар) айланмаси устидан қатъий давлат назоратини ўрнатиш, гиёҳвандлик воситаларидан тиббиётда фойдаланувчи тиббиёт муассасалари, фармацевтика корхоналари ва дорихоналарнинг фаолиятини назорат қилиш амалиётига рақамли ечимларни жорий этиш;

д) аҳоли, айниқса, вояга етмаганлар ва ёшлар орасида гиёҳвандлик ҳамда заҳарвандликни ташхислаш, даволаш ва тиббий-ижтимоий реабилитация қилиш тизимини тубдан такомиллаштиришга қаратилган манзилли чора-тадбирларни белгилашдан иборатдир.

Бундан ташқари, Фармон билан Гиёҳвандлик ва наркожиноятларнинг барвақт олдини олиш ҳамда уларга қарши курашиш бўйича 2025-2026 йилларга мўлжалланган комплекс амалий ҳаракатлар миллий дастури тасдиқланди. Миллий дастур ижросини тизимли равишда назорат қилиб бориш мақсадида Президент Администрацияси ҳузурида фаолият кўрсатувчи Республика идоралараро мувофиқлаштирувчи ишчи гуруҳ тузилди.

Ҳужжатда 2026 йил 1 июлга қадар Интернет тармоғидаги наркодўконларни ҳамда гиёҳвандлик воситаларини тарқатиш ҳолатларини сунъий интеллект технологиялари ёрдамида аниқлаш ва блоклашга мўлжалланган дастурларни ишлаб чиқиш бўйича ёшлар ўртасида хакатон ўтказиш ҳамда энг мақбул таклифларни танлаб олиб, амалиётга жорий қилиш ҳам назарда тутилган.

Шулардан келиб чиқиб, Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг “Гиёвандлик воситалари ёки психотроп моддалар билан қонунга хилоф равишда муомала қилишдан иборат жиноятлар”, деб номланган XIX бобида алоҳида “*Вояга етмаган шахсни спиртли ичимликлар истеъмол қилишга, гиёвандлик*

воситалари ва уларнинг аналоглари ёки психотроп ҳисобланмаган, лекин кишининг ақл-идрокига таъсир қиладиган восита ва ҳамда гиёҳвандлик воситаларини, уларнинг аналогларини ёки психотроп моддаларни истеъмол қилишга жалб қилиш" учун жиноий жавобгарлик киритилиб, ЖКдаги 127-моддани эса, "*Жиноят содир этишга жалб қилганлик учун жиноий жавобгарлик*", деб беришни таклиф этамиз.

Жумладан, **276[1]-модда. Вояга етмаган шахсни спиртли ичимликлар истеъмол қилишга, гиёвандлик воситалари ва уларнинг аналоглари ёки психотроп ҳисобланмаган, лекин кишининг ақл-идрокига таъсир қиладиган восита ва ҳамда гиёҳвандлик воситаларини, уларнинг аналогларини ёки психотроп моддаларни истеъмол қилишга жалб қилиш**

Вояга етмаган шахсни спиртли ичимликлар истеъмол қилишга, гиёвандлик воситалари ва уларнинг аналоглари ёки психотроп ҳисобланмаган, лекин кишининг ақл-идрокига таъсир қиладиган восита ва моддаларни истеъмол этишга жалб қилиш, шундай ҳаракатлар учун маъмурий жазо қўлланилганидан кейин содир этилган бўлса, —

базавий ҳисоблаш миқдорининг юз бараваридан икки юз бараваригача миқдорда жарима ёки уч юз олтмиш соатгача мажбурий жамоат ишлари ёхуд икки йилгача ахлоқ тузатиш ишлари ёки бир йилдан уч йилгача озодликни чеклаш ёки уч йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

Вояга етмаган шахсни гиёвандлик воситалари, уларнинг аналоглари ёки психотроп моддалар истеъмол этишга жалб қилиш

уч юз олтмиш соатдан тўрт юз саксон соатгача мажбурий жамоат ишлари ёки уч йилдан беш йилгача озодликни чеклаш ёки уч йилдан беш йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

Ушбу модданинг иккинчи қисмида назарда тутилган ҳаракатлар:

а) такроран, хавфли рецидивист ёки илгари гиёҳвандлик воситаларининг, психотроп моддаларнинг ёхуд уларнинг аналогларининг ёки кучли таъсир қилувчи моддаларнинг қонунга хилоф равишда муомаласи билан боғлиқ жиноятни содир этган шахс томонидан;

б) икки ёки ундан ортиқ вояга етмаган шахсга нисбатан;

в) таълим ташкилотларида, уларнинг ҳудудида ёки талабаларнинг (ўқувчиларнинг) ётоқхоналарида, болалар соғломлаштириш оромгоҳларида ёхуд талабалар (ўқувчилар) томонидан ўқув, спорт ёки жамоат тадбирларини ўтказиш учун фойдаланиладиган бошқа жойларда, шунингдек уларга туташ ҳудудларда содир этилган бўлса –

беш йилдан ўн йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

Бундан ташқари, "*Ўқув юртлари*" деганда қайси жойлар тушунилиши лозимлиги борасида ЖКда ҳам Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23

сентябрдаги “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-637-сон Қонунида ҳам аниқ тушунча берилмаган. Бизнингча, шу нуқтаи назардан, ҳуқуқий аниқликни таъминлаш ва қилмиш квалификацияси билан боғлиқ хатоликларни олдини олиш учун “Таълим тўғрисида”ги қонуннинг 3-моддасида берилган, яъни “давлат таълим муассасаси”, “нодавлат таълим ташкилоти” тушунчалардан фойдаланган ҳолда мазкур бандга ўзгартириш киритилиши мақсадга мувофиқ.

Хулоса қиладиган бўлсак, ёшларимиз гиёҳвандлик касалига мубтало бўлиб қолмасликлари учун катталар уларнинг бўш вақтлари тўғри ўтишига кўмаклашишлари, маданий ҳордиқ чиқариш, спорт билан шуғулланиш, фойдали меҳнат билан банд бўлишларига жиддий эътибор қаратишлари лозим.

Бундан ташқари, аҳолида, айниқса, ёш авлодда соғлом эътиқодни шакллантириш, улар орасида миллий ва умуминсоний қадриятларни уйғун равишда тарғиб этиш ҳам муҳим аҳамиятга эга. Умуман, ёшларнинг билими ва тафаккурини янада ошириш, ҳуқуқий маданиятни юксалтириш ишларини изчил амалга оширишимиз лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022 – 2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги 2022-йил 28-январдаги ПФ–60-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022-й., 06/22/60/0082-сон, 18.03.2022-й., 06/22/89/0227-сон, 21.04.2022-й., 06/22/113/0330-сон. https://lex.uz/docs/5841063

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Аҳоли саломатлиги ва миллат генофондини гиёҳвандлик ва наркожиноятлардан самарали ҳимоя қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2025-йил 8-ноябрдаги ПФ–207-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 8.11.2025-й., 06/25/207/1023-сон; 29.12.2023 й. https://lex.uz/docs/7818774

3. Ахмедов Б.М., Зокиров Б.Ғ. Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар билан қонунга хилоф равишда муомала қилувчи уюшган гуруҳлар томонидан содир этилган жиноятларни тергов қилишдаги айрим муаммолар / Экстремизм, терроризм, гуруҳий ва уюшган жиноятчиликка қарши кураш муаммолари: Илмий-амалий анжуман материаллари. Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси. 2001. – Б. 121.

4. Н.Б.Шоимов. Гиёҳвандликнинг оқибатлари ва олдини олиш. ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE International scientific-online conferen. Б. 173-181.

5. М. Қ. Ўразалиев. “Жиноятчилик билан алоқадор бўлган ижтимоий салбий ходисаларнинг сабаблари ва уларнинг олдини олиш” Монография. // - Т.: ТДЮУ нашриёти, 2023 йил - 34 бет.

6. Михайлова Ю.В. Международно-правовое регулирование оборота наркотических средств и психотропных веществ: Социальные аспекты здоровья населения, Москва, 2013. - С.39-46.

7. Фесенко Е.В. Правовые основы противодействия незаконному обороту наркотических средств: монография / Отв. ред. д.ю.н., проф. А.И.Рарог. –М.: Норма, 2023. –С. 178-179.

8. Ўзбекистон Республикаси Президентнинг 2025 йил 6 майдаги “Ўзбекистон Республикасида гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланмасига чек қўйиш орқали уларнинг аҳоли саломатлиги ва мамлакатимиз генофондига салбий таъсирини бартараф этиш стратегик чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-73 сонли Фармони. https://lex.uz/ru/docs/6912475

9. Ўзбекистон Республикаси Президентнинг 2025 йил 3 ноябрдаги “Аҳоли саломатлиги ва миллат генофондини гиёҳвандлик ва наркожиноятлардан самарали ҳимоя қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони. https://lex.uz/docs/7818774

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ “ГИЁҲВАНДЛИК ВОСИТАЛАРИ ВА ПСИХОТРОП МОДДАЛАР ТЎҒРИСИДА” ГИ ҚОНУННИНГ ЯНГИ ТАҲРИРИ

Азизов И.
Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг
«Фармацевтика маҳсулотлари хавфсизлиги маркази» давлат муассасаси
Наркотикларни назорат қилиш қўмитаси раиси, ф.ф.д, профессор,
Темурова Ш.
қўмита раисининг ўринбосари ф.ф.н.

Гиёҳвандлик воситалари тўғрисида 1961 йилдаги Ягона Конвенция (мазкур Конвенцияга тузатишлар тўғрисида 1972 йилдаги Баённома асосида кучайтирилган), 1971 йилдаги Психотроп моддалар тўғрисидаги конвенция ва Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг 1988 йилда қабул қилинган Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний муомаласига қарши кураш тўғрисидаги Конвенциялари Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1995 йил 24 февралдаги 30-И, 31-И ва 32-И сонли Қарорларига асосан Ўзбекистон Республикасида ратификация қилинди.

Конвенция талабларини амалга оширилиб, Ўзбекистон Республикасининг «Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида» ги Қонуни 1999 йил 19 августда қабул қилинди ва 2000 йил 1 январдан амалиётга жорий этилди.

Ушбу Қонунда юқорида қайд этилган Конвенциялар талаблари тўлиқ қамраб олинган. Қонун ижросини амалга ошира бориб 16 та қонуности ҳужжатлар қабул қилинди ва ҳозирги кунда амалиётда қўлланилиб келинмоқда.

Қонун 1999 йилда қабул қилинган ва ўтган йиллар давомида унга 15 мартта ўзгартириш ва қўшимчалар киритилган.

Мазкур лойиҳа жамиятда гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалар ёки уларнинг аналоглари билан боғлиқ хавф-хатарларнинг ортиб бораётгани, шунингдек, ноқонуний муомаласи, тарқалиши ва суиистеъмол қилинишининг олдини олиш заруратидан келиб чиқиб ишлаб чиқилган.

Бундан ташқари, амалдаги ҳуқуқий базадаги бўшлиқлар ва халқаро тажриба асосида ушбу соҳадаги ҳуқуқий муносабатларни янада аниқлаштириш ва тартибга солиш мақсадида тайёрланган.

Бугунги кунда, республикада гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалар ёки уларнинг аналоглари ва прекурсорларнинг муомаласини тартибга солувчи бир қатор меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар мавжуд бўлиб, айни пайтда янги тенденцияларни инобатга олган ҳолда ҳамда Миллий дастур ижроси доирасида уларни янада такомиллаштириш ёки янги таҳрирда ишлаб чиқиш борасида амалий чоралар кўрилмоқда.

Лойиҳани ишлаб чиқиш жараёнида Россия Федерацияси, Грузия, Украина, Беларусь, Молдова, Болгария, Озарбайжон, Латвия, Литва, Қозоғистон, Қирғизистон, Тожикистон ва Туркманистон каби давлатларнинг соҳага оид қонунчилиги пухта ўрганилиб чиқилди ҳамда мақбуллари инобатга олинди.

Гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалар устидан назорат қилиш бўйича Давлат комиссияси сўровига кўра “Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида”ги қонунининг янги тахririни ишлаб чиқиш бўйича таклифлар берилди.

Қонуннинг янги таҳрирдаги лойиҳаси **3-моддаси** билан асосий тушунчалар киритилмоқда.

Шунда қонуний муомала бўйича қуйидаги **янги тушунчалар**:

наркотиклар;

кучли таъсир қилувчи моддалар, шу жумладан, алоҳида тоифадаги кучли таъсир қилувчи моддалар;

таркибида наркотиклар ёки алоҳида тоифадаги кучли таъсир қилувчи моддалар ёхуд прекурсорлар мавжуд дори воситалари;

наркотиклар, кучли таъсир қилувчи моддалар ва прекурсорларнинг муомаласи;

наркотиклар, кучли таъсир қилувчи моддалар ва прекурсорларнинг ноқонуний муомаласи;

наркотиклар учун давлат квотаси;

мурувват юки ёки ёрдами тариқасидаги наркотиклар;

наркотиклар муомаласини назорат қилиш ахборот тизими ва амалдаги тушунчаларга керакли ўзгартиришлар киритилди.

Қонуннинг **4-моддаси** билан Ўзбекистон Республикасида назоратга олинадиган гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалар ва прекурсорлар рўйхатлари тасдиқланиши белгиланган.

Амалдаги қонун тахририда тўртта рўйхат мавжуд, янги тахрирда И-ИИИ руйхатлари, шунингдек Ўзбекистон Республикасида муомаласи назоратга олинадиган кучли таъсир қилувчи моддалар рўйхати Қонун билан мустаҳкамланиб, назорати кучайтирилмоқда.

Лойиҳанинг **5-моддаси** билан Ўзбекистон Республикасида муомаласи назоратга олинадиган прекурсорлар рўйхати тасдиқланмоқда ва унда прекурсорлар иккита руйхатга ажратилганини, яъни:

- биринчи кичик рўйхат – муомаласи қатъий назоратга олинадиган прекурсорлар рўйхати бўлиб, унга наркотиклар ва кучли таъсир қилувчи моддаларни ишлаб чиқаришда кенг қўлланиладиган кимёвий моддалар кириши;

- иккинчи кичик рўйхат – умумий назоратдаги прекурсорлар рўйхати бўлиб, унга наркотиклар ва кучли таъсир қилувчи моддаларни тайёрлашда ишлатилиши мумкин бўлган, шунингдек, саноат, фармацевтика ва бошқа соҳаларда қўлланиладиган кимёвий моддалар кириши ва Прекурсорлар рўйхати Ўзбекистон Республикаси Наркотиклар устидан назорат қилиш бўйича Давлат комиссияси томонидан тасдиқланиши белгиланган

Қонун **янги** “**2-боб**. Наркотиклар, кучли таъсир қилувчи моддалар ва прекурсорлар муомаласини, шунингдек, гиёҳвандлик ва наркожиноятларга қарши курашиш фаолиятини бевосита амалга оширувчи ва унда иштирок этувчи органлар ва муассасалар, уларнинг ваколатлари” билан тўлдирилган ва унда Соғлиқни сақлаш вазирлиги ва тиббиёт муассасаларининг наркотиклар, кучли таъсир қилувчи моддалар ва прекурсорлар муомаласи, шунингдек, гиёҳвандлик ва наркожиноятларга қарши курашиш соҳасидаги ваколатлари белгиланди.

Халқаро давлатлардан Арманистон, Қирғизистон ва Қозоғистон Республикалари, Россия ва Молдованинг халқаро тажрибасини ҳисобга олиб **янги моддалар** киритилди:

Наркотиклар учун давлат квоталари;

Наркотикларни мурувват юки ёки ёрдами тариқасида Ўзбекистон Республикасига олиб кириш, олиб чиқиш бўйича янги моддалари киритилди.

Қонуннинг **38-моддаси** билан Янги наркотиклар, кучли таъсир қилувчи моддалар ва таркибида прекурсор сақловчи дори воситаларини ишлаб чиқиш ҳамда давлат рўйхатидан ўтказиш, бунда Тиббий ва илмий мақсадларда фойдаланиш учун янги ишлаб чиқилган наркотиклар, кучли таъсир қилувчи

моддалар ва таркибида прекурсор сақловчи дори воситаларининг клиник олди ва клиник синовлари қонунчиликка мувофиқ ихтисослаштирилган даволаш-профилактика муассасаларида (ташкилотлар) ва илмий-тадқиқот институтларида ўтказилиши, **40-моддаси** билан Наркотиклар, алоҳида тоифадаги кучли таъсир қилувчи моддалар ва прекурсорларни ишлаб чиқариш ва тайёрлашда Назоратга олинадиган кучли таъсир қилувчи моддалар рўйхатига киритилган алоҳида тоифадаги кучли таъсир қилувчи моддаларни ушбу Қонунда белгиланган мақсадларда ишлаб чиқариш ва тайёрлаш Ўзбекистон Республикасининг эҳтиёжлари доирасида юридик шахслар томонидан психотроп моддаларни ишлаб чиқариш ва тайёрлаш учун лицензиялари бўлган тақдирда амалга оширилиши белгиланган.

Амалиётда қонун ижроси бўйича муаммо деярли мавжуд эмас.

Лекин “Ўзбекистон Республикаси ҳудудида гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалар ва прекурсорларни ташиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида” ги 16.04.2008 й. да қабул қилинган 1791-сонли ҳамда “Фуқароларни гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалар ва прекурсорлар билан боғлиқ бўлган ишларга жалб этиш тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 16.11.2009 й. да қабул қилинган 2040-сонли ССВ ва ИИВ қўшма қарорлари билан тасдиқланган тартиблар Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 11 апрелдаги ПФ-5409-сон “Тадбиркорлик фаолияти соҳасидаги лицензиялаш ва рухсат бериш тартиб-таомилларини янада қисқартириш ва соддалаштириш, шунингдек, бизнес юритиш шарт-шароитларини яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида.” ги Фармонига мувофиқ ва Адлия вазирлиги ташаббуси билан соддалаштириш мақсадида бекор қилинган ва шу қонундаги модда ҳаволаки қонуности ҳужжатлари билан тартибга солинмасдан қолмоқда.

Ташиш рухсатномаси бекор қилинганлиги сабабли ташилаётган гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалар ва прекурсорларни хавфсизлиги етарли даражада таъминланмаган. Шу жумладан, прекурсорларни ташиш жараёнида фавқулодда вазиятлар кузатилган.

Фуқароларни гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалар ва прекурсорлар муомаласи билан боғлиқ фаолият билан шуғулланишга рухсатнома бекор бўлиши ушбу фаолият билан шуғулланишда малакали мутахассисларни етишмаслиги, муассасаларда малакасиз ходимлар ушбу фаолият билан шуғулланиши оқибатида белгиланган талаблар бузилиб бажарилиши кузатилмоқда. Жумладан, бу фаолиятни амалга ошираётган ташкилотларда малакали мутахассислар фаолиятини юритиш белгилаб қўйилганлигига қарамасдан рухсатнома бекор қилинганлиги сабабли гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар омборхонадан хусусий

клиникаларгача мутахассис бўлмаган ходимлар (ҳамшираларр) томонидан ташилмоқда. Шунингдек, пойтахтдан вилоятларга гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларни ташилиши амалиётдаги меъёрий ҳужжатларда кўзда тутилмаган. Бу эса жиддий холатларга сабаб бўлиши мумкин ва ўз навбатида гиёҳвандлик воситаларини назорат қилиш бўйича амал қилаётган асосий халқаро шартномаларга, 1961 йилдаги Гиёҳвандлик воситалари тўғрисида Ягона Конвенция (мазкур Конвенцияга тузатишлар тўғрисида 1972 йилдаги Баённома асосида кучайтирилган), 1971 йилдаги Психотроп моддалар тўғрисидаги конвенция ва Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг 1988 йилда қабул қилинган Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний муомаласига қарши кураш тўғрисидаги Конвенциялар талабини тўлиқ даражада бажармасликга сабаб бўлмоқда.

Юқоридагиларни инобатга олиб, 42-модда. Наркотиклар, алоҳида тоифадаги кучли таъсир қилувчи моддалар ва прекурсорларни ташиш моддасига керакли ўзгартиришлар киритилди.

Қонуннинг 44-моддада Наркотиклар, алоҳида тоифадаги кучли таъсир қилувчи моддалар ва прекурсорларни жисмоний шахсларга бериш.

Таркибида наркотиклар ёки алоҳида тоифадаги кучли таъсир қилувчи моддалар ёхуд ва прекурсорларни сақловчи дори воситалари жисмоний шахсларга фақат шифокор рецепти билан кўрсатилган шакл ва миқдорда тиббий мақсадларда фойдаланиш учун берилиши белгиланди.

Лойиҳанинг 46-моддаси билан Наркотиклар, алоҳида тоифадаги кучли таъсир қилувчи моддалар ва прекурсорларни белгилаган тартибда йўқ қилиниши учун ҳолатлари кўрсатилган бўлиб, уларга даволаш-профилактика муассасаларида наркотиклар тўлиқ ишлатилмаган қолдиқлари қолган ҳолати қўшилди Мусодара қилинган наркотиклар, алоҳида тоифадаги кучли таъсир қилувчи моддалар ва прекурсорларнинг тиббий мақсадларда ишлатилишига йўл қўйилмайди.

Лойиҳанинг 51-моддаси билан Прекурсорларнинг муомаласи билан боғлиқ фаолият хусусиятларида олинган ёки буюртма берилган прекурсорлар миқдори йиллик ишлаб чиқариш эҳтиёжларидан ошиб кетган ҳар бир ҳолат тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги хабардор қилиниши шартлиги белганмоқда.

“Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритиш юзасидан Ўзбекистон Республикаси Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар устидан назорат қилиш бўйича Давлат комиссияси ходими билан ишчи тартибда қонун лойиҳаси тайёрланди, бунда ҳалқаро тажрибалар ўрганилиб, қўмита томонидан таклифлар берилди. Қонун лойиҳаси матни шакллантирилди.

Ҳозирда лойиҳа дастлабки келишув учун тегишли вазирлик ва идоралар билан келишилиб, Президент Администрациясига киритилди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. БМТнинг 1961-йилдаги “Наркотик воситалар тўғрисида ягона конвенсия”си.

2. БМТнинг 1971-йилдаги “Психотроп моддалар тўғрисида конвенсия”си.

3. БМТнинг 1988-йилдаги “Наркотик воситалар ва психотроп моддалар ноқонуний айланишига қарши кураш тўғрисида конвенсия”си.

4. Ўзбекистон Республикасининг “Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент, 1999 (ўзгартириш ва қўшимчалар билан). ҳттпс://www.лех.уз/астс/86044

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 06.05.2024 йилдаги ПФ-73-сон “Ўзбекистон Республикасида гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланмасига чек қўйиш орқали уларнинг аҳоли саломатлиги ва мамлакатимиз генофондига салбий таъсирини бартараф этиш стратегик чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. ҳттпс://лех.уз/досс/6912475

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025-йил 3-ноябрдаги “Аҳоли саломатлиги ва миллат генофондини гиёҳвандлик ва наркожиноятлардан самарали ҳимоя қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-207-сон Фармони. ҳттпс://лех.уз/ру/досс/-2655293.

БОРЬБА С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ НАРКОТИКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Юрий Пулатов,
профессор кафедры Университета общественной безопасности Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

Каждый имеет право на охрану здоровья и квалифицированное медицинское обслуживание [1]. Государство создает условия для формирования... здорового образа жизни среди населения [2].

Актуальность проблемы наркопреступности

Незаконный оборот наркотических средств относится к числу наиболее опасных проявлений современной организованной преступности. Его общественная опасность обусловлена тем, что наркобизнес формирует устойчивые криминальные структуры, способствует развитию теневой экономики и оказывает разрушительное воздействие на здоровье населения [3].

Для государств Центральной Азии, включая Узбекистан, проблема незаконного оборота наркотиков имеет особую значимость. Географическое положение региона, близость к основным маршрутам международного наркотрафика и активизация транснациональных преступных групп создают объективные предпосылки для распространения наркотических веществ.

Современные исследования показывают, что наркопреступность характеризуется высокой латентностью и устойчивой динамикой. Определенная часть преступлений остается вне официальной статистики, что осложняет формирование эффективных мер противодействия.

Криминологическая характеристика наркопреступности

Криминологический анализ показывает, что структура наркопреступности включает несколько основных категорий преступлений [4]:

- незаконное производство наркотических средств (с. 270, 273, 276 УК РУ);
- хранение и перевозку наркотиков (ст. 273 и 276 УК РУ);
- сбыт наркотических веществ (ст. 273 УК РУ);
- организацию каналов наркотрафика (ст. 246 УК РУ).

Уголовная статистика наркопреступности в стране показывает не утешительную статистику. Так, в 2025 году зарегистрировано 15412 преступлений, связанных с наркотическими средствами, психотропными и другими сильнодействующими веществами на здоровье человека, а также 1956 административных правонарушений в этой сфере.

Большая часть этих преступлений - 41,0% связана с незаконным изготовлением, приобретением, хранением и другими действиями с наркотическими средствами, их аналогами или психотропными веществами без цели сбыта (ст. 276 УК РУ), далее - 36,0% совершено за незаконное изготовление, приобретение, хранение и другие действия с наркотическими средствами, их аналогами или психотропными веществами с целью сбыта, а равно их сбыт (ст. 273 УК) и на незаконный посев или выращивание опийного или масличного мака, растения каннабис либо других растений, содержащих наркотические средства или психотропные вещества, приходится – 13,0%.

В указанный период только 52,7% от общей численности всех зарегистрированных наркопреступлений совершались в трех регионах республики, из них: в г. Ташкенте -(49,1%), Ферганской (26,8%) и столичной областях - (24,1%).

За эти преступления к уголовной ответственности было привлечено 11049 лиц. Огорчительным фактором является то, что , из которых 59 или 0,5% это – учащийся школы, 124 (1,1%) – студенты.

В течении 2025 г. в результате проведенных правоохранительными органами Узбекистан оперативно-розыскных мероприятий было изъято из незаконного оборота 3 т. 413 кг. наркотических и психотропных веществ;

выявлено 14 подпольных нарколабораторий, в которых было изъято 75 кг. наркотических и психотропных веществ [5].

В последние годы наблюдается изменение характера наркопреступности.

Распространяются синтетические наркотики, которые отличаются высокой концентрацией психоактивных веществ и быстрым распространением через цифровые коммуникационные каналы.

Особую тревогу вызывает вовлечение молодежи в незаконный оборот наркотиков. В ряде случаев несовершеннолетние используются преступными группами в качестве посредников, курьеров и распространителей. Причинами этого являются социальная уязвимость молодежи, недостаточный уровень правовой культуры и влияние криминальной среды.

Государственная политика противодействия наркотикам

В Республике Узбекистан сформирована система правовых и организационных мер противодействия незаконному обороту наркотиков. Основу данной системы составляют нормы уголовного законодательства, регулирующие ответственность за совершение наркопреступлений.

Уголовный кодекс Республики Узбекистан предусматривает

ответственность за незаконное производство, приобретение, хранение, перевозку и сбыт наркотических средств. Законодательство устанавливает строгие санкции за подобные преступления, особенно в случаях их совершения организованными преступными группами [6].

Государственная политика также включает профилактические программы, направленные на предупреждение наркомании среди несовершеннолетних и молодежи [7]. Значительная роль в этой работе отводится образовательным учреждениям, органам внутренних дел и общественным организациям [8].

Совершенствование мер противодействия наркопреступности

В современных условиях борьба с распространением наркотиков требует комплексного подхода.

Во-первых, необходимо совершенствование уголовного законодательства с учетом новых форм наркопреступности, связанных с использованием цифровых технологий.

Во-вторых, требуется развитие системы профилактики наркомании среди молодежи. Формирование правовой культуры и пропаганда здорового образа жизни являются важными элементами предупреждения преступности.

В-третьих, следует расширять применение современных технологий в деятельности правоохранительных органов, включая аналитические системы мониторинга преступности.

В-четвертых, необходимо укреплять международное сотрудничество, направленное на пресечение транснациональных каналов наркотрафика.

Заключение

Наркопреступность представляет серьезную угрозу общественной безопасности и социальному развитию общества. В Узбекистане проводится последовательная государственная политика по противодействию незаконному обороту наркотиков, направленная на совершенствование законодательства, укрепление профилактической работы и развитие международного сотрудничества.

Комплексная реализация указанных мер позволит существенно повысить эффективность борьбы с наркопреступностью и обеспечить устойчивое развитие системы общественной безопасности.

Список использованной литературы:

1. См.: Часть 1 ст. 48 Конституции Республики Узбекистан // https:// www. lex. uz.

2. Там же ч. 3 ст. 48.

3. Вопросы обеспечения здоровья граждан закреплены в 8 нормах (Приамбуле, ст.ст. 21, 33, 44, 48, 52, 71, 77 и 79) Основного закона Узбекистана.

4. См. Уголовный кодекс Республики Узбекистан // https:// www. lex. uz.

5. См.: Данные Центра правовой статистики МВД Республики Узбекистан за 2025 год.

6. См.: Пункт 4 главы II Совершенствование нормативно-правовых механизмов: Указа Президента Республики Узбекистан от 3 ноября 2025 года, № УП-207 «О комплексных мерах по эффективной защите здоровья населения и генофонда населения от наркомании и наркопреступлений» //https:// www.prezident. uz

7. См.: например: Закон Республики Узбекистан от 14 мая 2014 года,

№ 371 «О профилактике правонарушений» (с изменениями и дополнениями) // https:// www. lex. uz; Указ Президента Республики Узбекистан от 6 мая 2024 года, № УП-73 «О стратегических мерах по устранению негативного влияния на здоровье и генофонд нации наркотических средств и психотропных веществ посредством пресечения их незаконного оборота в Республике Узбекистан» //https:// www.prezident. uz

8. См. об этом: Закон Республики Узбекистан от 19 августа 1999 года,

№ 813-I «О наркотических средствах и психотропных веществах» (с изменениями и дополнениями) // https:// www. lex. uz; Указ Президента Республики Узбекистан от 26 марта 2021 года, № УП-6196 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности органов внутренних дел в сфере обеспечения общественной безопасности и борьбе с преступностью» //https:// www.prezident. uz; Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года, № УП-158 «О стратегии «УЗБЕКИСТАН - 2030» //https:// www.prezident. uz.

HARBIY XIZMATCHILAR O‘RTASIDA GIYOHVANDLIK VOSITALARI VA PSIXOTROP MODDALAR TARQALISHINI TAQIQLASHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AHAMIYATI

Ashrapov B.B.,
Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘ining o‘rinbosari-shtab boshlig‘i podpolkovnik
Nizametdinxodjayev U.R.
Universitet Ilmiy kotibi podpolkovnik, y.f.b.f.d. (PhD), dotsent

Bugungi globallashuv sharoitida xavfsizlikka tahdidlar an’anaviy shakllardan tashqari, yangi va murakkab ko’rinishlarda namoyon bo‘lmoqda. Jumladan, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasi transmilliy uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va kiberjinoyatchilik bilan chambarchas bog’lanib, davlatlar milliy xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda. Ayniqsa, sintetik narkotiklarning keng tarqalishi, ularning arzonligi va yashirin aylanish mexanizmlarining takomillashib borayotgani mazkur muammoni yanada dolzarblashtirmoqda.

Harbiy xizmatchilar jamiyatning alohida toifasi bo‘lib, ularning jismoniy va ruhiy holati, intizomi hamda jangovor tayyorgarligi davlat mudofaa qobiliyatining asosiy ustuni hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, harbiy xizmatchilar o‘rtasida giyohvandlik vositalarini iste’mol qilish nafaqat shaxsning o‘ziga, balki butun harbiy tizim samaradorligiga, boshqaruv barqarorligiga va milliy xavfsizlikka bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Giyohvandlikka moyillik harbiy intizomning susayishi, xizmat vazifalarini lozim darajada bajarmaslik, favqulodda holatlarda noto‘g‘ri qarorlar qabul qilish xavfini oshiradi.

Zamonaviy tahdidlar sharoitida giyohvandlik vositalarining harbiy muhitga kirib kelish ehtimoli yangi shakllar kasb etmoqda. Xususan, internet tarmoqlari va messenjerlar orqali narkotik moddalarning tarqatilishi, “yashirin savdo” (dead drop) usullarining qo‘llanilishi, shuningdek, axborot-psixologik ta’sir orqali yosh harbiy xizmatchilarni jalb etish holatlari kuzatilmoqda. Bu esa mazkur sohada faqat jazo choralari bilan cheklanib qolmasdan, kompleks huquqiy va profilaktik mexanizmlarni takomillashtirishni taqozo etadi.

Harbiy xizmatchilarning jismoniy va ruhiy tayyorgarligi davlat mudofaa qobiliyatining asosiy omili hisoblanadi. Shu bois, giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishni qat'iy taqiqlash strategik ahamiyatga ega.

Shu munosabat bilan, harbiy xizmatchilar o‘rtasida giyohvandlik vositalarini qat'iy taqiqlashning huquqiy asoslarini chuqur tahlil qilish, amaldagi mexanizmlarning samaradorligini baholash va ularni zamonaviy tahdidlarga mos ravishda takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada ushbu masalalar har tomonlama o‘rganilib, tegishli xulosa va takliflar ilgari suriladi.

Giyohvandlik vositalari inson organizmiga kuchli psixofiziologik ta'sir ko‘rsatib, markaziy asab tizimi faoliyatini izdan chiqaradi. Bu esa harbiy xizmatchilar uchun ayniqsa xavfli bo‘lib, ularning tezkor qaror qabul qilish qobiliyati, diqqat-e'tibori va reaksiya tezligini sezilarli darajada pasaytiradi. Natijada jangovor vazifalarni bajarish samaradorligi keskin tushib ketadi.

Bundan tashqari, giyohvandlik harbiy intizomga ham salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Giyohvand moddalar ta'sirida bo‘lgan shaxslarda buyruqlarga bo‘ysunmaslik, mas'uliyatsizlik, hatto huquqbuzarlik holatlari ko'proq kuzatiladi. Bu esa harbiy bo‘linmalarda ichki tartib va boshqaruv tizimining izdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

Zamonaviy sharoitda ushbu xavf yanada kuchaymoqda. Chunki sintetik narkotiklar inson psixikasiga tez va kuchli ta'sir ko‘rsatib, qisqa vaqt ichida qaramlikni shakllantiradi. Bu esa harbiy xizmatchilarni jinoiy guruhlar ta'siriga tushib qolish xavfini ham oshiradi.

Harbiy xizmatchilar o‘rtasida giyohvandlik vositalarini taqiqlash, eng avvalo, milliy qonunchilik normalarida mustahkamlangan. O‘zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligida giyohvandlik vositalarini noqonuniy tayyorlash, saqlash, tashish va sotish uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, harbiy xizmatchilarga nisbatan bunday huquqbuzarliklar og‘irlashtiruvchi holat sifatida baholanishi mumkin.

Mamlakatimizda bu borada qonunchilikni takomillashtirish masalasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida "XIX bob. Giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar" to‘g'risida moddalar keltirilgan, bularga:

270-modda. Taqiqlangan ekinlarni yetishtirish;

271-modda. Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash;

273-modda. Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko'zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek ularni qonunga xilof ravishda o‘tkazish;

274-modda. Giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish yoki bunday moddalarni iste’mol qilishga jalb etish;

275-modda. Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar ishlab chiqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish;

276-modda. Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar kabi moddalarni misol qilish mumkin.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 2025-yil 23-yanvar kunidagi PQ-21-sonli qarori bilan quyidagi narmativ huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi:

“O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi PQ-4447-sonli qororning:

1-ilovasi O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida ofitserlar tarkibiga mansub lavozimlarda harbiy xizmatni o‘tash to‘g‘risida kontraktga m) giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste’mol qilmaslik;

2-ilovasi O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida oddiy askarlar va serjantlar tarkibiga mansub lavozimlarda harbiy xizmatni o‘tash to‘g‘risida kontraktga n) giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste’mol qilmaslik;

3-ilovasi Oliy harbiy ta’lim muassasasida kursant sifatida harbiy xizmatni o‘tash to‘g‘risida kontraktga i) giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste’mol qilmaslik;

4-ilovasi Uzoq muddatli kurslar va dasturlar doirasida harbiy xizmatchilarni xorijda tayyorlash to‘g‘risida maxsus kontraktga o) giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste’mol qilmaslik to‘g‘risida bindlar kiritildi.

Shuningdek, harbiy xizmatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, harbiy ustavlar va ichki intizom qoidalarida giyohvandlik vositalarini iste’mol qilish qat’iy taqiqlangan. Mazkur taqiq harbiy xizmatchilarning xizmatga layoqatliligini saqlash va intizomni ta’minlash maqsadida joriy etilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, harbiy xizmatchilar o‘rtasida giyohvandlik vositalarini qat’iy taqiqlash nafaqat huquqiy talab, balki davlatning mudofaa qobiliyati va milliy xavfsizligini ta’minlashning strategik zarurati hisoblanadi. Giyohvandlik vositalari harbiy xizmatchilarning psixofiziologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ularning jangovor tayyorgarligi, intizomi va xizmat vazifalarini samarali bajarish qobiliyatini izdan chiqaradi.

Amalga oshirilgan tahlillar giyohvandlikka qarshi kurashishning mavjud huquqiy asoslari yetarlicha shakllanganligini ko‘rsatsa-da, zamonaviy tahdidlar — xususan, sintetik narkotiklarning keng tarqalishi, raqamli texnologiyalar orqali

noqonuniy aylanmaning kuchayishi va yoshlar ongiga axborot-psixologik ta’sirlarning ortishi — mazkur sohada yondashuvlarni yanada takomillashtirishni talab etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, harbiy xizmatchilar o‘rtasida giyohvandlikka qarshi kurashish faqat jazo choralari bilan cheklanib qolmasligi, balki kompleks profilaktika, erta aniqlash va reabilitatsiya mexanizmlari bilan uyg‘unlashgan holda amalga oshirilishi lozim. Ayniqsa, raqamli monitoring tizimlarini joriy etish, tibbiy va psixologik nazoratni kuchaytirish, shuningdek, harbiy xizmatchilarning huquqiy ongi va ma’naviy barqarorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, tizimli va integratsiyalashgan yondashuv — ya’ni nazorat, profilaktika va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining uyg‘unligi — eng samarali natijalarni ta’minlaydi. Mazkur yondashuvni milliy amaliyotga moslashtirish orqali harbiy tizimda giyohvandlik holatlarini sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

Umuman olganda, harbiy xizmatchilar o‘rtasida giyohvandlik vositalarini taqiqlashning huquqiy va institutsional mexanizmlarini takomillashtirish, ularni zamonaviy tahdidlarga mos ravishda rivojlantirish orqali harbiy intizomni mustahkamlash, jangovor qobiliyatni oshirish va milliy xavfsizlikni ishonchli ta’minlashga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

7. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023. https://lex.uz/docs/6445145

8. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent, 2024. https://www.lex.uz/acts/111453

9. O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 1999 (o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan). https://www.lex.uz/acts/86044

10. O‘zbekiston Respublikasining “Harbiy xizmat va harbiy majburiyat to’g’risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2002.

11. “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 12.09.2019 yildagi PQ-4447-son.

SHAYXONTOHUR TUMANIDA SODIR ETILGAN GIYOHVANDLIK BILAN BOG‘LIQ JINOYATLAR TAHLILI VA ULARNI OLDINI OLISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

Nurmatov Mirg‘olib Mirzayevich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra boshlig‘i yuridik fanlari doktori, professor,
Rizoyev Feruz Furqat o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti katta o‘qituvchisi, yu.f.b.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shayxontohur tumanida sodir etilgan giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlar kriminologik jihatdan tahlil qilingan hamda ularning dinamikasi, tuzilishi va sabab-omillari ochib berilgan. Tadqiqot davomida hududdagi jinoyatchilik holati statistik ma’lumotlar asosida o‘rganilib, giyohvandlik jinoyatlarining ulushi va ularni sodir etishga imkon beruvchi ijtimoiy, tashkiliy hamda infratuzilmaviy muammolar aniqlangan.

Kalit so‘zlar: giyohvandlik jinoyatlari, psixotrop moddalar, noqonuniy aylanma, kriminologik tahlil, jinoyatchilik dinamikasi, profilaktika, aloqasiz tarqatish, kiber-patrul, videokuzatuv tizimi, jamoat xavfsizligi, mahalla nazorati, fuqarolarni rag‘batlantirish, anonim xabar berish, jinoyatlarning oldini olish mexanizmlari.

Insoniyat sivilizatsiyasining hozirgi bosqichida transmilliy xarakterga ega bo‘lgan tahdidlar orasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasi alohida xavf tug‘dirmoqda. Giyohvandlik shunchaki tibbiy patologiya yoki ijtimoiy illat emas, balki millatning genofondiga bevosita zarba beruvchi, uning intellektual va jismoniy salohiyatini yemiruvchi strategik xatardir. Giyohvandlik moddalarining iste’moli inson organizmida qaytmas patologik o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi bilan birga, kelajak avlodning irsiy salomatligiga (mutagen ta’sir) salbiy ta’sir ko‘rsatib, jamiyatning biologik barqarorligiga rahna soladi.

Fikrimiz isboti sifatida Shayxontohur tumanida 2025-yil 12 oyi davomida qayd etilgan jinoyatlar tahlil qilinganda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan jinoyatlar 7 %ga kamayib, 1051 ta (2024 y. – 1 128) ni tashkil qilgan. Jami jinoyatlarning 53% (552 ta) oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar va 44 % (465 ta)ni aniqlanadigan jinoyatlar tashkil qilgan. Ushbu davrda aniqlanadigan jinoyatlar 17%ga oshgan bo‘lsa, oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar 23%ga kamaygan.

Lekin, tumanda aniqlanadigan jinoyatlarning asosiy qismini giyohvandlik moddalari va fohishaxona saqlash jinoyatlarini tashkil qilayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Jumladan, aniqlangan 465 ta jinoyatlar tahlil qilinganda, ularning 55% (255 tasi) giyohvandlik moddalari bilan bog‘liq jinoyatlar, 7% (32 ta) qo‘shmachilik qilish yoki fohishaxona saqlash, 5% (26 ta) poraxo‘rlik, 6% (29 ta) hujjatlarni qalbakilashtirish, 5% (25 ta) ekstremizm bilan bog‘liq jinoyatlar, 4% (17 ta) o‘zlashtirish, 2% (7 ta) ma’muriy nazorat qoidalarini buzish, 0,2% (1 ta) noqonuniy valyuta, 0,2% (1 ta) noqonuniy qurol saqlash, 0,2% (1 ta) odam savdosini tashkil qiladi.

Tumanda qayd etilgan umumiy jinoyatlarning 24% (255 ta) giyohvandlik moddalari bilan bog‘liq jinoyatlar tashkil qilib, shundan 52% (134 ta) giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek ularni qonunga xilof ravishda o‘tkazish, 35% (89 ta) giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar, 35% (10 ta) giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar hisoblanmaydigan kuchli ta’sir qiluvchi moddalarni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish yoki bunday moddalarni yoxud zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish, 2% (5 ta) taqiqlangan ekinlarni yetishtirish, 0,3% (1 ta) kontrabanda jinoyatlari tashkil qiladi.

Tumanda 2026 yil fevral oyida sodir etilgan jinoyatlar tahlil qilingan jami 143 ta jinoyat ishi qo‘zg‘atilib, ularning 60% firibgarlik (36 ta), o‘g‘irlik (26 ta) va giyohvandlik (23 ta) jinoyatlari hissasiga to‘g‘ri kelishi aniqlangan.

Giyohvandlik jinoyatlari sodir qilinishiga sabab bo‘luvchi shart-sharoit va omillar birgina Beltepa mahallasi misolida tahlil qilinganda mahalladagi bekatlar atrofida yetarli darajada yoritish tizimi mavjud emasligi, jamoat joyining videokuzatuv kameralari bilan to‘liq qamrab olinmaganligi, jamoat transporti bekatlari atrofida patrul-profilaktika tadbirlarining tizimli emasligi, yosh va mehnatga layoqatli shaxslar o‘rtasida tez daromad orttirishga qaratilgan noqonuniy motivatsiyaning mavjudligi, sintetik giyohvand moddalar (jumladan, alfa-pirrolidinovalerofenon)ning kichik hajmda oson yashirilishi va tarqatilishi imkoniyati, yoshlar o‘rtasida giyohvand moddalar savdosi bilan shug‘ullanuvchi norasmiy aloqalar tarmog‘ining mavjudligi, profilaktika inspektorlari, mahalla faollari va jamoatchilik nazoratining yetarlicha samarali ishlamayotgani giyohvandlik jinoyatining sodir qilinishiga imkon berib kelayotganligi kuzatilgan.

Zamonaviy kriminogen vaziyatni tahlil qilish shuni ko‘rsatmoqdaki, giyohvandlik vositalarini tarqatishning “kontaksiz” (masofaviy) usullari, xususan, “zakladka” amaliyoti tobora avj olmoqda. Huquqbuzarlar o‘z jinoiy harakatlarini amalga oshirishda asosan urbanizatsiyalashgan hududlarning vizual nazoratdan chetda qolgan qismlarini, xususan, tungi vaqtda yoritish tizimi yetarli bo‘lmagan joylarni

maqsadli ravishda tanlamoqdalar. Ayniqsa, ta’lim muassasalari (maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlari) atrofi hamda mahallalardagi kuzatuv kameralari qamrovidan tashqarida joylashgan bolalar maydonchalarining jinoiy obyekt sifatida tanlanishi jamoat xavfsizligi va voyaga yetmaganlar tarbiyasi uchun jiddiy xavf tug‘dirmoqda.

Shu sababdan ham giyohvand moddalarni “aloqasiz usulda” tarqatishni (“zakladka”) cheklash maqsadida Telegram va Instagramdagi reklama botlarini avtomatik bloklovchi “Kiber-patrul” tizimini yaratish va shahardagi kuzatuv kameralarini “shubhali xatti-harakat” *(masalan, bir joyda uzoq vaqt maqsadsiz qolish yoki hududni rasmga olish)*ni aniqlaydigan algoritm bilan boyitish lozim.

Huquqni qo‘llash amaliyotining tahlili shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda fuqarolarning huquqbuzarliklar, xususan, giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasi haqida xabar berishini rag‘batlantiruvchi aniq va shaffof mexanizmlar to‘liq shakllanmagan. Tergov va sud muhokamasi jarayonlaridagi protsessual murakkabliklar hamda ortiqcha rasmiyatchilik (byurokratiya) holatlari aholi orasida “ijtimoiy loqaydlik” (befarqlik kayfiyati) shakllanishiga sharoit yaratmoqda. Bunday vaziyat fuqarolarning huquq-tartibot organlariga bo‘lgan ishonch darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, latent (yashirin) jinoyatchilikning ortishiga bilvosita xizmat qilmoqda.

Masalan: “Eski Jarariq” mahallasi hududi 2025-yilning 30-yanvar kuni Ko‘ksaroy ko‘chasi “Abdulloh ibn Huzofa” masjidi atrofida 2001-yil tug‘ilgan fuqaro N.T. va 2002-yilda tug‘ilgan fuqaro J.T.lar tomonidan umumiy og‘irligi 9,7 grammlik 10 dona sariq politelin paketga o‘ralgan “a-PVP” moddasi hamda ushbu hududga 6 ta sariq politelin paketga o‘ralib “zakladka” usulida tarqatilgan 5,9 grammlik “a-PVP” moddasi topilgan holat bo‘yicha xabar profilaktika inspektoriga mahallada yashovchi yoshlar Sh.M. va H.A.lar tomonidan yetkazilgan bo‘lsa-da ularni rag‘batlantirish bo‘yicha aniq mexanizmlarning begilanmaganligi oqibatida profilaktika inspektori tomonidan faqatgina “Tashakkurnoma” bilan taqdirlanishgan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda giyohvandlik va psixotrop moddalar bilan bog‘liq jinoyatlarni aniqlashda ko‘maklashgan fuqarolarni rag‘batlantirishning aniq mexanizmlarini belgilashga xizmat qiluvchi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ko‘maklashgan fuqarolarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida” gi Nizomni qabul qilish va bunda rag‘batlantirish miqdorini aniq belgilash *(masalan, musodara qilingan moddalarning hajmi yoki jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasidan kelib chiqib, BHMning muayyan baravari miqdorida)* maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga jinoyat haqida xabar bergan shaxslarning anonimligini ta’minlash va ularni sudga bevosita chaqirmasdan, “Audio-video so‘roq” (shaxsini vizual yashirgan holda) tizimi

orqali ko‘rsatma berish huquqini beruvchi normalarni kiritish. Bu orqali fuqarolarni jinoiy guruhlarning ehtimoliy tazyiqidan himoya qilish va sud-tergov jarayonlaridagi “byurokratik yuk”ni kamaytirish mumkin.

Qonunchilikda “zakladka” usulida giyohvandlik vositalarini tarqatish hududi sifatida ta’lim muassasalari (maktab, bog‘cha) va bolalar maydonchalarining tanlanishini javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat sifatida belgilash maqsadida Jinoyat kodeksiga quyidagi o‘zgartirishni kiritish lozim:

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 273-moddasining 3-qismini quyidagi mazmundagi “j” bandi bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq:

“j) ta’lim muassasalari, bolalar dam olish hamda sport-sog‘lomlashtirish maskanlari, shuningdek voyaga yetmaganlar to‘planadigan boshqa obyektlar hududida yoki ularga bevosita tutash bo‘lgan maydonlarda sodir etilgan bo‘lsa”

Bundan tashqari “Mening inspektorim” mobil ilovasida “Xavfsiz hudud xaritasi” interaktiv modulini ishga tushirish. Bunda fuqarolar o‘z mahallalaridagi shubhali shaxslar yoki “zakladka” joylari haqida foto, video ma’lumotlarni anonim tarzda yuklash imkoniyatini yaratish hamda ma’lumotlarni tahlil qilib, eng xavfli nuqtalarni aniqlagan holda ushbu hududda giyohvandlik va psixotrop moddalarning tarqalishiga imkon berayotgan omillarni zudlik bilan bartaraf qilish choralarini ko‘rish.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Shayxontohur tumanida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasi bilan bog‘liq jinoyatlar jamoat xavfsizligiga jiddiy tahdid soluvchi asosiy kriminogen omillardan biri hisoblanadi. Statistik ma’lumotlar ushbu turdagi jinoyatlarning aniqlanadigan jinoyatlar tarkibida ustun ulushni egallayotganini ko‘rsatib, ularning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqoriligini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, giyohvandlik jinoyatlarining sodir etilishiga infratuzilmaviy kamchiliklar (yoritish va videokuzatuv tizimlarining yetarli emasligi), profilaktika faoliyatining tizimli emasligi, yoshlar orasida noqonuniy daromadga moyillik, shuningdek zamonaviy “kontaksiz” jinoiy usullar (“zakladka”)ning keng tarqalishi bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shu bilan birga, amaldagi profilaktika va huquqni qo‘llash mexanizmlarining yetarli darajada samarali emasligi, xususan fuqarolarni jinoyatlar haqida xabar berishga rag‘batlantirish tizimining sustligi hamda ularning xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kafolatlarning to‘liq shakllanmaganligi latent jinoyatchilikning ortishiga sabab bo‘lmoqda. Bu holat jinoyatchilikka qarshi kurashda faqat an’anaviy yondashuvlar yetarli emasligini, balki kompleks, innovatsion va raqamli yechimlarni joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida hududiy kriminogen vaziyatni “aqlli” monitoring qilish tizimlarini, fuqarolarning anonim xabar berish mexanizmlarini huquqiy jihatdan mustahkamlash, ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishning aniq tartiblarini joriy etish, shuningdek “zakladka” usulida jinoyat

sodir etishni og‘irlashtiruvchi holat sifatida normativ mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, giyohvandlik jinoyatlariga qarshi kurashish samaradorligini oshirish faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini kuchaytirish bilan cheklanmay, balki jamiyat, davlat va raqamli texnologiyalar integratsiyasiga asoslangan tizimli yondashuvni talab etadi. Mazkur maqolada ilgari surilgan ilmiy-amaliy takliflar ushbu yo‘nalishda kompleks profilaktika tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (Matn) Rasmiy nashr. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – 120 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi”, // www.lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risidagi” Qonuni, “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi” // www.lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yildagi 6-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta’sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-son Farmoni, “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi” // www.lex.uz.

5. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni g‘ayriqonuniy ravishda muomalaga kiritishga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Konvensiyasi, “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi” // www.lex.uz.

6. “Psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Konvensiya, “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi” // www.lex.uz.

7. “Giyohvandlik vositalari to‘g‘risida”gi Konvensiya, “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi” // www.lex.uz.

NARKOTIKLARNING NOQONUNIY MUOMALASIGA QARSHI KURASHISHNI HUQUQIY VA TAKTIK JIHATDAN TA’MINLASH: MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR

Payziyev Abbos Muxammadovich,
Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra donsenti yu.f.b.f.d. (PhD), dotsent

Bugungi globallashuv sharoitida giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi tobora murakkab va transmilliy xarakter kasb etib bormoqda. Narkotik moddalar ishlab chiqarish, tashish va realizatsiya qilish jarayonlari xalqaro uyushgan jinoyatchilik tarmoqlari bilan chambarchas bog‘lanib, davlatlar chegaralaridan osonlik bilan o‘tmoqda. Xususan, zamonaviy transport-logistika tizimlari, raqamli texnologiyalar hamda yashirin moliyaviy operatsiyalar (jumladan, kriptovalyutalar orqali hisob-kitoblar) ushbu jinoyat turining yanada yashirin va murakkab shakllarda rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Natijada narkotrafik nafaqat alohida davlat, balki butun mintaqa va global xavfsizlikka tahdid soluvchi omilga aylanmoqda.

Giyohvandlikning ijtimoiy xavfliligi, avvalo, uning jamiyat salomatligi va genofondiga salbiy ta’siri bilan belgilanadi. Ushbu illat yoshlar orasida keng tarqalib borayotgani esa masalani yanada dolzarb tusga kiritmoqda. Chunki yoshlar — har qanday davlatning strategik resursi hisoblanadi. Giyohvandlik vositalariga ruju qo‘ygan shaxs nafaqat o‘z salomatligini yo‘qotadi, balki ijtimoiy munosabatlar tizimidan chiqib ketib, ko‘pincha jinoyatchilikka moyil subyektga aylanadi. Bu esa o‘z navbatida jamiyat xavfsizligi, ijtimoiy barqarorlik va huquq-tartibot tizimiga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi va Markaziy Osiyo mintaqasida ham narkojinoyatlar bilan bog‘liq holatlar muayyan dinamikaga ega. So‘nggi yillarda narkotik vositalarning yangi turlari, ayniqsa sintetik va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar tarqalishining ortib borayotgani, shuningdek, ularni realizatsiya qilishda internet tarmoqlari va messenjerlardan foydalanish kengaygani kuzatilmoqda. Bu esa an’anaviy kurash usullarining samaradorligini pasaytirib, yangi yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishning nazariy-huquqiy asoslarini qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Amaldagi qonunchilik bazasi muayyan darajada shakllangan bo‘lsa-da, uning amaliyot bilan uyg‘unligi har doim ham yetarli darajada emas. Ayniqsa, tezkor-qidiruv faoliyati, raqamli nazorat, profilaktika va xalqaro hamkorlik sohalarida taktik mexanizmlarni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish zarurati sezilmoqda.

Mazkur ilmiy tadqiqotning asosiy maqsadi giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishning samarali nazariy-huquqiy asoslarini

kompleks tahlil qilish hamda zamonaviy sharoitlarga mos taktik mexanizmlarni ishlab chiqishdan iboratdir. Ushbu maqsad, o‘z navbatida, nafaqat mavjud huquqiy tartibga solish tizimini chuqur o‘rganishni, balki uni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, zamonaviy tahdid va chaqiriqlarga mos ravishda takomillashtirish zaruratini ham nazarda tutadi.

Shu bilan birga, milliy va xalqaro huquqiy bazani o‘rganish tadqiqotning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda xalqaro huquq normalarining o‘zaro uyg‘unligi, ularning samaradorligi va qo‘llanish amaliyoti qiyosiy-huquqiy tahlil asosida ko‘rib chiqiladi. Bu esa mavjud normativ-huquqiy asoslarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Keyingi vazifa sifatida giyohvandlikka qarshi kurashishning amaldagi tizimida mavjud kamchilik va muammolarni aniqlash belgilangan. Bu jarayonda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati, profilaktik chora-tadbirlar samaradorligi hamda jinoyatlarni aniqlash va fosh etish mexanizmlarining holati tahlil qilinadi. Ayniqsa, amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash orqali ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari, zamonaviy taktik usullarni chuqur tahlil qilish tadqiqotning ajralmas qismi hisoblanadi. Jumladan, operativ-qidiruv faoliyati imkoniyatlari, profilaktika mexanizmlari, shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida olib borilayotgan monitoring tizimlari o‘rganiladi. Bu esa giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashishda innovatsion yondashuvlarni aniqlash imkonini beradi.

Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish tizimi so‘nggi yillarda muayyan darajada takomillashgan bo‘lishiga qaramay, mazkur sohada bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Ushbu muammolar, avvalo, huquqiy tartibga solish, amaliy faoliyatni tashkil etish, texnologik ta’minot va profilaktik yondashuvlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan izohlanadi.

Birinchidan, amaldagi qonunchilikda ayrim normativ-huquqiy bo‘shliqlar va kolliziyalar mavjudligi kuzatiladi. Xususan, “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi[1] qonunning ma’nan eskirganligi va bugungi raqamli muhitda sodir etilayotgan narkojinoyatlar, kriptovalyutalar orqali amalga oshirilayotgan noqonuniy tranzaksiyalar hamda darknet platformalaridagi savdo operatsiyalarini tartibga soluvchi normalar yetarli darajada aniqlashtirilmaganligi. Bu esa huquqni qo‘llash amaliyotida turlicha yondashuvlarga sabab bo‘lib, jinoyatlarni aniqlash va isbotlash jarayonini murakkablashtiradi.

[1] O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonuni, 19.08.1999 yildagi 813-I-son. https://lex.uz/ru/docs/-86044

Ikkinchidan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida zamonaviy texnologik imkoniyatlardan foydalanish darajasi cheklangan. Sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar tahlili (big data), kripto-forensika kabi ilg‘or vositalarning yetarli darajada joriy etilmaganligi narkojinoyatchilikning yangi shakllariga tezkor va samarali javob qaytarishni qiyinlashtiradi. Natijada kurash ko‘proq reaktiv xarakter kasb etib, jinoyat sodir etilgandan keyingi choralar ustuvor bo‘lib qolmoqda.

Uchinchidan, idoralararo hamkorlik tizimida axborot almashinuvi va koordinatsiya yetarli darajada tizimlashmagan. Turli davlat organlari o‘rtasida ma’lumotlar ko‘pincha tarqoq holda saqlanadi, yagona integratsiyalashgan platformaning yo‘qligi esa tezkor qaror qabul qilish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa ayniqsa transmilliy narkotrafik bilan bog‘liq holatlarda sezilarli muammolarni yuzaga keltiradi.

To‘rtinchidan, profilaktik faoliyatda innovatsion yondashuvlarning yetishmasligi kuzatiladi. Aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida giyohvandlikka qarshi kurashish ko‘proq an’anaviy targ‘ibot usullari bilan cheklanib qolmoqda. Raqamli muhitda olib boriladigan profilaktik ishlarning sustligi esa yoshlarning internet orqali narkotik vositalarga duch kelish ehtimolini oshirmoqda.

Beshinchidan, narkotik moddalarga qaram shaxslarni reabilitatsiya va ijtimoiy reintegratsiya qilish tizimi yetarli darajada samarali emas. Bu esa qayta jinoyatchilik (retsidiv) holatlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Yuqoridagi muammolarni inobadga olgan holda quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilikni raqamli jinoyatchilik xususiyatlarini inobatga olgan holda takomillashtirish zarur. Xususan, kriptovalyutalar, darknet savdosi va elektron platformalar orqali sodir etilayotgan jinoyatlarni aniq tartibga soluvchi normalarni joriy etish lozim.

Ikkinchidan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga sun’iy intellekt, SOCMINT[1] (ijtimoiy tarmoqlar razvedkasi) va big data asosidagi analitik tizimlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali narkojinoyatlarni oldindan prognoz qilish, xavfli hudud va shaxslarni aniqlash hamda tezkor choralar ko‘rish imkoniyati kengayadi.

Uchinchidan, idoralararo hamkorlikni kuchaytirish maqsadida yagona integratsiyalashgan axborot platformasini yaratish zarur. Mazkur platforma orqali ichki ishlar organlari, bojxona, sog‘liqni saqlash va boshqa tegishli tuzilmalar o‘rtasida real vaqt rejimida ma’lumot almashinuvi yo‘lga qo‘yilishi lozim.

[1] https://www.osint.industries/post/social-media-intelligence-socmint-in-modern-investigations

To‘rtinchidan, profilaktik faoliyatni takomillashtirish uchun raqamli profilaktika modelini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bunda ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar va interaktiv platformalar orqali yoshlar ongiga ta’sir ko‘rsatish, ularning “raqamli immunitet”ini shakllantirish alohida e’tibor talab etadi.

Beshinchidan, narkotik moddalarga qaram shaxslar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, xususan, reabilitatsiya va ijtimoiy moslashuv dasturlarini kuchaytirish zarur. Bu orqali nafaqat giyohvandlik darajasini kamaytirish, balki qayta jinoyatchilikning oldini olish mumkin.

Oltinchidan, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish doirasida Interpol va boshqa mintaqaviy tuzilmalar bilan axborot almashinuvi hamda qo‘shma operatsiyalarni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2026-yil 27-yanvardagi videoselektor yig‘ilishida “Sintetik narkotiklarning 95 foizi internet orqali tarqatilib, to‘lov kriptovalyutada bo‘layotgani, narkolaboratoriyalar mamlakat ichida ochilayotgani”[1] qayd etdilar.

Hozirgi zamonaviy vaziyatda narkotiklar savdosi ko‘pincha Telegram va boshqa messenjerlar orqali amalga oshiriladi. Shu bois profilaktika inspektori sifatida hududda narkotiklarning tarqalishi va ularning yashirin savdosini nazorat qilishda qator amali va samarali choralarni qo‘llashni taqozo etmoqda. Shunday ekan mahallalarda mahalla yettiligi va ayniqsa profilaktika inspektorlari tomonidan narkosavdoni aniqlashda quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

mahallalardagi Telegram kanal, guruh va botlardagi shubhali akkauntlarni va kalit so‘zlarini (masalan, “klad”, “skorost”, “sol”) kuzatish hamda bularni https://t.me/stopnarko_bot.ga taqdim qilish va bloklatish;

hududdagi shubhali devor yozuvlari, QR-kodlar va elektron xabarlar orqali narkosavdo hududini aniqlash;

topilgan ma’lumotlarni tizimli ravishda bazaga jamlash va tahlil qilish orqali mahalliy “narkoset” xaritasini yaratish va bu haqida tezkor qidiruv (kiberxavfsizlik) xodimlariga xabar berish.

Mazkur yondashuv orqali profilaktika inspektori hududdagi narkotik vositalar savdosining tendensiyalarini ilmiy asosda tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi hamda jamoatchilik bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan holda profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirishga erishadi.

Shuningdek, mahalladagi yoshlar orasida giyohvandlikka moyillikning oldini olishda profilaktika ishlarini tashkil etishda quyidagi usullar alohida samaradorlik kasb etadi:

[1] https://president.uz/uz/lists/view/8882

ta’lim muassasalarida (maktab va kollejlarda) real hayotiy keyslar asosida targ‘ibot ishlarini olib borish *(giyohvandlikka ruju qo‘yib davolanayotgan, ushbu jinoyatga qo‘l urib jazo o‘tayotgan yoshlar misolida)*, jumladan, “kladchik” *(“zakladka” qo‘yuvchi)* faoliyatiga jalb etilish mexanizmlarini aniq misollar orqali tushuntirish;

Telegram va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda interaktiv hamda anonim platformalar orqali yoshlarga mo‘ljallangan profilaktik axborotlarni tizimli tarqatish;

xavf guruhiga mansub yoshlarni aniqlash, ularni individual monitoring qilish va psixologik-pedagogik maslahatlar bilan qo‘llab-quvvatlash.

Ushbu chora-tadbirlar yoshlarning huquqiy va ijtimoiy ogohligini oshirishga xizmat qilib, ularni turli jinoiy faoliyatlarga, xususan, narkotik vositalar bilan bog‘liq huquqbuzarliklarga jalb etilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Hududda narkotik savdosini cheklashda uning infratuzilmaviy elementlariga ta’sir ko‘rsatish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan quyidagi choralar tavsiya etiladi:

jamoat joylari va binolar devorlaridagi narkotik savdosiga oid reklama va graffiti yozuvlarini zudlik bilan o‘chirish, shuningdek, https://t.me/stopnarko_bot.ga taqdim qilish orqali bloklatish;

shubhali mahalliy savdo nuqtalari va noqonuniy faoliyat belgilari mavjud obyektlarni aniqlab, tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga axborot taqdim etish.

Mazkur choralar mahalladagi narkotik savdosining rekruting va tarqatish mexanizmlariga bevosita ta’sir ko‘rsatib, uning rivojlanishini cheklashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishni samarali tashkil etish kompleks, tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi. Mazkur jarayonda nazariy-huquqiy asoslarni takomillashtirish hamda amaliyotga yo‘naltirilgan taktik mexanizmlarni joriy etish o‘zaro uyg‘unlikda amalga oshirilishi lozim.

Nazariy-huquqiy jihatdan, sohadagi milliy qonunchilikni xalqaro standartlar asosida doimiy ravishda takomillashtirib borish, huquqni qo‘llash amaliyotini birxillashtirish va huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan sharoitda narkotik vositalar savdosining yangi, ayniqsa, internet va messenjerlar orqali amalga oshirilayotgan shakllariga nisbatan huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish zarur.

Taktik jihatdan esa profilaktika inspektorlari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini zamonaviy usullar asosida tashkil etish, jumladan, axborot-tahlil ishlarini kuchaytirish, “tarqalish nuqtalari”ni aniqlash, raqamli monitoring va tezkor chora-tadbirlarni samarali qo‘llash ustuvor vazifa hisoblanadi.

Ayniqsa, Telegram kabi platformalar orqali amalga oshirilayotgan noqonuniy faoliyatga qarshi kurashda innovatsion yondashuvlar, anonim axborot manbalari va jamoatchilik bilan hamkorlik muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, yoshlar orasida giyohvandlikka moyillikning oldini olishga qaratilgan manzilli profilaktika, huquqiy ong va “raqamli immunitet”ni shakllantirish, ta’lim muassasalari va mahalla instituti bilan uzviy hamkorlikni kuchaytirish orqali jinoyatlarning ildizini bartaraf etish imkoniyati yuzaga keladi.

Umuman olganda, nazariy-huquqiy va taktik choralarning o‘zaro integratsiyasi, davlat organlari va jamoatchilik o‘rtasidagi samarali hamkorlik, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanish giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish samaradorligini oshirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonuni, 19.08.1999 yildagi 813-I-son. https://lex.uz/ru/docs/-86044

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022 – 2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги 2022-йил 28-январдаги ПФ–60-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022-й., 06/22/60/0082-сон, 18.03.2022-й., 06/22/89/0227-сон, 21.04.2022-й., 06/22/113/0330-сон. https://lex.uz/docs/5841063

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Аҳоли саломатлиги ва миллат генофондини гиёҳвандлик ва наркожиноятлардан самарали ҳимоя қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2025-йил 8-ноябрдаги ПФ–207-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 8.11.2025-й., 06/25/207/1023-сон; 29.12.2023 й. https://lex.uz/docs/7818774

ГИЁҲВАНДЛИК ВА НАРКОЖИНОЯТЛАРГА ҚАРШИ КУРАШИШДА ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ ЎРНИ

Тўраев Илхомжон Эсанович
Ўзбекистон Республикаси Криминология тадқиқот институти етакчи илмий ходими, т.ф.б.ф.д. (PhD)

Ҳозирги глобаллашув шароитида инсоният хавфсизлигига жиддий таҳдид солаётган омиллардан бири сифатида гиёҳвандлик ва у билан боғлиқ трансмиллий жиноятчилик алоҳида долзарблик касб этмоқда. Машҳур социолог **Мануэль Кастельс** таъкидлаганидек, “Глобал жиноий тармоқлар давлат чегараларини менсимайди ва энг замонавий технологиялардан фойдаланиб, анъанавий назорат тизимларидан устун келишга интилади” [1].

Шу боис, гиёҳвандлик муаммосини комплекс жараён сифатида тадқиқ этиш зарурати юзага келмоқда. Бунда тиббиёт, психология ва юриспруденция фанларининг интердисциплинар интеграцияси муҳим. Хусусан, Америкалик психиатр, нейробиолог, АҚШ Миллий соғлиқни сақлаш институтлари таркибидаги Наркотикларни суиистеъмол қилиш бўйича миллий институт (инг. National Institute on Drug Abuse — NIDA) директори, тиббиёт фанлари доктори **Нора Долорес Волкова** (Nora Volkow) илмий изланишларида исботлаганидек, “Қарамлик — бу иродасизлик эмас, балки миянинг мукофот тизимидаги чуқур кимёвий ўзгаришлар натижасида келиб чиқадиган сурункали касалликдир” [2]. Бу қараш бизга даволаш ва профилактикага янгича — биопсихосоциал модель асосида ёндашиш имконини беради. Илмий тадқиқотларнинг муҳим вазифаси “айсберг эффекти” доирасида қолиб кетаётган латент ҳолатларни аниқлашдир. Криминолог олим **Эдвин Сатерленд** ўз назарияларида жиноятчиликнинг ижтимоий ўрганилиш механизмига эътибор қаратиб, профилактикада “муҳит омили” биринчи даражали эканлигини асослаб берган [3].

Замонавий ахборот-коммуникация технологияларининг жадал суръатларда ривожланиши, транспорт-логистика тармоқларининг кенгайиши ва халқаро алоқаларнинг чуқурлашуви натижасида наркобизнес фаолияти янги, институционал жиҳатдан мураккаб ва юқори даражада мослашувчан шаклларга эга бўлмоқда.

Мазкур ҳолат гиёҳвандлик муаммосини анъанавий ҳуқуқни муҳофаза қилиш чора-тадбирлари доирасида ҳал этиш имкониятларини чеклаб, уни кўпқиррали, тизимли ва илмий ёндашувни талаб қилувчи комплекс жараён сифатида тадқиқ этиш заруратини юзага келтирмоқда. Хусусан, ушбу соҳада самарали стратегияларни ишлаб чиқиш тиббиёт *(аддиктология ва нейробиология)*, психология *(хулқ-атвор омиллар ва қарамлик механизмлари),* социология *(ижтимоий муҳит ва хавф омиллари),* ҳамда юриспруденция

(ҳуқуқий тартибга солиш ва жиноятчиликка қарши кураш механизмлари) каби фанлар ўртасидаги ***интердисциплинар интеграцияни*** тақозо этади.

Шу нуқтаи назардан, гиёҳвандлик ва наркожиноятчиликка қарши курашишда илмий-тадқиқот ишларини чуқурлаштириш, эмпирик маълумотларга асосланган таҳлилларни кенгайтириш, профилактика ва реабилитация механизмларини илмий асосда такомиллаштириш, шунингдек, халқаро ҳамкорликни кучайтириш устувор вазифалардан бири ҳисобланади.

Шунинг учун мазкур иллатга қарши курашиш фақат ***реактив чора-тадбирлар*** билан чекланиб қолмасдан, балки тизимли, илмий асосланган ва кўп тармоқли *(интердисциплинар)* ёндашувни тақозо этади. Замонавий ёндашувларда мазкур муаммога мураккаб ижтимоий-психологик ва биотиббиёт феномени сифатида қаралиб, унинг сабаб ва оқибатлари чуқур илмий таҳлилни талаб қилади.

Илмий тадқиқотларнинг биринчи устувор вазифаси мавжуд вазиятни холис баҳолаш, унинг ривожланиш динамикасини аниқлаш ҳамда илмий асосланган прогнозлар ишлаб чиқишдан иборат. Амалиёт шуни кўрсатадики, расмий статистик маълумотлар кўп ҳолларда **“айсберг эффекти”** доирасида фақат рўйхатга олинган жиноятларни акс эттиради, холос. Шу боис, латент *(яширин)* гиёҳвандлик ҳолатларини аниқлаш мақсадида аноним сўровномалар, эмпирик кузатувлар, тиббий-биологик таҳлиллар ва социологик мониторинг усулларидан комплекс фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади. Мазкур усуллар орқали аҳоли, айниқса ёшлар орасида гиёҳвандлик истеъмоли кўлами, унинг ижтимоий-демографик хусусиятлари, янги психоактив моддалар тарқалиш тенденциялари илмий жиҳатдан асослаб берилади.

Айниқса, сўнгги йилларда **“дизайнер гиёҳвандлик воситалари”** сифатида таърифланувчи синтетик кимёвий моддаларнинг кенг тарқалиши мазкур соҳадаги илмий-тадқиқот фаолиятининг аҳамиятини янада оширмоқда. Ушбу моддаларнинг кимёвий таркибини идентификация қилиш, уларнинг инсон организмига таъсир механизмини *(фармакодинамика ва фармакокинетика нуқтаи назаридан)* ўрганиш, ҳамда уларни тезкор равишда назорат қилинадиган моддалар рўйхатига киритиш жараёнлари юқори илмий салоҳият ва лаборатор инфратузилмани талаб қилади.

Иккинчидан, психологик ва педагогик тадқиқотлар профилактика чора-тадбирларининг самарадорлигини оширишда муҳим ўрин тутади. Илмий далиллар шуни кўрсатадики, анъанавий огоҳлантириш ёки қўрқитишга асосланган ёндашувлар ҳар доим ҳам барқарор натижа бермайди. Аксинча, ёшлар аудиторияси билан ишлашда интерактив таълим технологиялари, тенгдошлар орқали таъсир ўтказиш *(peer-to-peer approach)*, ижтимоий роликлар, кейс-стади усулидаги тренинглар ва реал ҳаётий мисолларга асосланган

профилактик дастурлар анча самарали ҳисобланади. Бу эса профилактика тизимини илмий-педагогик асосда қайта кўриб чиқиш заруратини кўрсатади.

Шу билан бирга, мазкур иллатга қарши самарали курашиш комплекс ва кўп даражали ёндашувни талаб этади. У фақат гиёҳванд моддалар ноқонуний айланмасига қарши курашиш ва ҳуқуқбузарларни жазолаш билан чекланиб қолмаслиги лозим. Балки профилактика, эрта аниқлаш, тиббий-психологик реабилитация, ижтимоий мослаштириш ва қайта интеграция қилиш механизмларини қамраб олган яхлит тизимни шакллантириш зарур. Фақат шу тарзда илмий асосланган, барқарор ва узоқ муддатли натижаларга эришиш мумкин.

Профилактика чора-тадбирлари гиёҳвандликка қарши курашиш тизимининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланиб, уларни илмий-методик асосда ташкил этиш алоҳида аҳамият касб этади. Хусусан, гиёҳванд моддаларнинг инсон саломатлигига, руҳий ҳолатига ва ижтимоий ҳаётига етказадиган салбий таъсири ҳақида аҳоли ўртасида, айниқса ёшлар қатлами орасида кенг қамровли ва тизимли ахборот-таълим ишларини олиб бориш зарур. Илмий тадқиқотлар шуни кўрсатадики, барқарор салбий муносабатни шакллантириш фақат маълумот бериш билан чекланмасдан, балки шахснинг қадриятлар тизими, ҳаётий кўникмалари ва ижтимоий масъулиятини ривожлантириш билан уйғун ҳолда амалга оширилганда юқори самара беради.

Шу билан бирга, гиёҳвандликка чалинган шахсларни жамиятга қайта интеграция қилиш масаласи ҳам долзарб аҳамиятга эга. Бу жараён тиббий ёрдам, психотерапевтик қўллаб-қувватлаш ва ижтимоий реабилитация чораларини ўзаро уйғунлаштирган ҳолда амалга оширилиши лозим. Замонавий ёндашувларда гиёҳвандлик сурункали, рецидивга мойил касаллик сифатида баҳоланиб, уни даволашда биопсихосоциал модель асосида комплекс терапевтик стратегиялар ишлаб чиқилмоқда.

Мазкур йўналишда давлат сиёсати доирасида қабул қилинаётган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ҳам муҳим аҳамият касб этади. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йилнинг 3 ноябридаги “Аҳоли саломатлиги ва миллат генофондини гиёҳвандлик ва наркожиноятлардан самарали ҳимоя қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармонининг қабул қилиниши соҳадаги ишларни тизимли равишда ташкил этиш ва мувофиқлаштиришда муҳим қадам бўлди. Ушбу ҳужжат асосида **“Гиёҳвандлик ва наркожиноятларнинг барвақт олдини олиш ҳамда уларга қарши курашиш бўйича 2025–2026 йилларга мўлжалланган комплекс амалий ҳаракатлар миллий дастури”**нинг ишлаб чиқилиши профилактика, даволаш ва реабилитация жараёнларини интеграциялашган ҳолда амалга ошириш имконини бермоқда [4].

Тиббиёт соҳасидаги илмий тадқиқотлар гиёҳвандликни нейробиологик механизмлар билан боғлиқ бўлган сурункали касаллик сифатида талқин этади. Замонавий невробиология доирасида гиёҳванд моддаларнинг инсон миясидаги мукофот тизимига таъсири, нейромедиаторлар фаолиятидаги ўзгаришлар ва қарамлик шаклланишининг биологик асослари чуқур ўрганилмоқда. Бу эса дори воситалари билан даволаш, когнитив-хулқ-атвор психотерапия ва ижтимоий реабилитацияни қамраб олган комплекс даволаш моделларини ишлаб чиқиш имконини бермоқда.

Илмий асосланган реабилитация марказлари фаолияти фақат организмни детоксикация қилиш билан чекланмасдан, балки шахснинг ижтимоий функцияларини тиклаш, меҳнат фаолиятига жалб этиш ва жамиятга мослашувини таъминлашга қаратилган бўлиши лозим. Чунки амалиёт шуни кўрсатадики, даволаш жараёнининг энг муҳим босқичи — қайта истеъмол (рецидив) ва қайта жиноятчилик ҳолатларининг олдини олишдир.

Криминологик тадқиқотлар эса наркожиноятчиликнинг тузилмаси, географияси ва ривожланиш динамикасини таҳлил қилиш орқали унинг олдини олиш механизмларини такомиллаштиришга хизмат қилади. Замонавий статистик моделлаштириш, риск-таҳлил ва прогнозлаш усуллари орқали жиноятчиликнинг эҳтимолий ўсиш нуқталари аниқланиб, мақсадли профилактик ва тезкор ҳуқуқий чоралар ишлаб чиқилади. Шу билан бирга, рақамли технологияларнинг ривожланиши натижасида наркотик воситалар савдосининг интернет тармоқлари ва “яширин сегментлар” (darknet) орқали амалга оширилаётгани киберкриминология доирасида алоҳида тадқиқ этишни талаб қилмоқда.

Халқаро миқёсда ҳам гиёҳвандликка қарши курашишда илмий тадқиқотлар стратегик аҳамиятга эга бўлган асосий таянч омиллардан бири сифатида намоён бўлади. Жумладан, **United Nations Office on Drugs and Crime** томонидан ҳар йили эълон қилинадиган Жаҳон гиёҳвандлик ҳисоботлари глобал миқёсдаги тенденцияларни илмий-статистик таҳлил қилишга хизмат қилади. Мазкур ҳисоботлар гиёҳванд моддалар ишлаб чиқарилиши, тарқалиши, истеъмоли ва улар билан боғлиқ жиноятчилик ҳолатларининг динамикасини комплекс ўрганиш имконини беради [5]. Шу асосда давлатлар ўз миллий стратегияларини илмий далилларга таянган ҳолда такомиллаштиради, шунингдек, трансмиллий таҳдидларга қарши курашишда халқаро ҳамкорлик механизмларини мустаҳкамлайди. Зеро, наркотрафик ҳудудий чегаралар билан чекланмайдиган, юқори даражада уюшган ва глобал характерга эга жиноий фаолият тури ҳисобланади.

Иқтисодий тадқиқотлар ҳам мазкур муаммонинг моҳиятини чуқур англашда муҳим ўрин тутади. Наркобизнес катта ҳажмдаги ноқонуний молиявий

ресурсларни шакллантириб, улар орқали коррупция, “пул ювиш” (money laundering) ва бошқа оғир турдаги жиноятларни рағбатлантиради. Илмий-иқтисодий таҳлиллар ноқонуний молиявий оқимларни аниқлаш, уларнинг ҳаракатланиш механизмларини ўрганиш ва самарали молиявий назорат инструментларини ишлаб чиқиш имконини беради. Бу эса, ўз навбатида, миллий ва халқаро даражада иқтисодий хавфсизликни таъминлашга хизмат қилади.

Шунингдек, гиёҳвандликнинг жамиятга етказаётган иқтисодий зарарини баҳолаш ҳам илмий тадқиқотларнинг муҳим йўналишларидан бири ҳисобланади. Хусусан, соғлиқни сақлаш тизимига тушаётган қўшимча юклама (даволаш ва реабилитация харажатлари), меҳнат унумдорлигининг пасайиши, ишсизликнинг ортиши, шунингдек, жиноятчилик билан боғлиқ иқтисодий йўқотишлар комплекс ҳисоб-китоблар асосида аниқланади. Бундай илмий асосланган ҳисоб-китоблар муаммонинг ҳақиқий кўлами ва унинг ижтимоий-иқтисодий оқибатларини аниқ рақамлар орқали ифодалаш имконини беради ҳамда давлат сиёсатида устувор йўналишларни белгилашда муҳим ахборот манбаи бўлиб хизмат қилади.

Ҳуқуқий тадқиқотлар гиёҳвандлик ва наркожиноятларга қарши курашиш тизимида алоҳида ўрин тутиб, мазкур соҳадаги давлат сиёсатини илмий асосда шакллантиришга хизмат қилади. Хусусан, қонунчиликни такомиллаштириш, жазо чораларини индивидуаллаштириш, шунингдек, жазолашдан кўра реабилитацияга йўналтирилган альтернатив ҳуқуқий механизмларни жорий этиш илмий-ҳуқуқий таҳлилларни талаб этади. Замонавий криминологик ёндашувлар шуни кўрсатадики, айрим ҳолатларда жазолаш чораларини камайтириш ва даволашга йўналтириш ижтимоий самарадорлик нуқтаи назаридан юқори натижа беради.

Масалан, Германия қонунларига кўра, гиёҳванд моддалар таъсирида бўлган ҳолда ижтимоий хавфи катта бўлмаган жиноят содир этган шахслар, агар ихтиёрий равишда гиёҳвандликдан даволанишга рози бўлсалар, жиноий жавобгарликдан озод этилишлари мумкин (*Betäubungsmittelgesetz (BtMG), §§ 35, 37;*).

Хитой жиноят қонунчилигида гиёҳванд моддалар билан боғлиқ жиноятлар учун жуда қатъий жазо чоралари белгиланган. Хусусан, йирик миқдордаги наркотик моддалар контрабандаси учун узоқ муддатли озодликдан маҳрум қилиш, умрбод қамоқ ёки ҳатто ўлим жазоси қўлланилиши мумкин. Бу эса мазкур давлатда профилактиканинг репрессив (қаттиқ жазога асосланган) модели устувор эканлигини кўрсатади (*Criminal Law of the People's Republic of China, Art. 347; UNODC World Drug Report.*).

Исландия модели (“Planet Youth”)га назар ташласак. 1998 йилларда Исландияда 15-16 ёшли ўсмирлар орасида спиртли ичимликлар ва гиёҳвандлик

даражаси Европа бўйича энг юқори (42%) кўрсаткичда эди. Исландия ҳукумати фақат тақиқлаш ва қамаш сиёсатидан воз кечиб, маҳаллий ҳамжамият, мактаб ва ота-оналар ҳамкорлигига асосланган профилактика моделини жорий этди. Ўсмирларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш учун спорт ва санъат инфратузилмаси давлат томонидан кенг молиялаштирилди, ота-оналар билан қатъий келишувлар (масалан, болаларнинг кечки пайт кўчада юрмаслик қоидаси) ўрнатилди. Натижада, 20 йил ичида бу кўрсаткич 42 %дан 5 %гача туширилди[6].

Маълумот учун: Лойиҳа доирасида Криминология тадқиқот институтида ўтказилган сўровномада ҳам 1 080 нафар бола айнан “спорт ва тўгаракларга жалб қилиш”ни гиёҳвандликнинг олдини олишдаги энг самарали йўл деб кўрсатгани ушбу моделнинг юртимиз учун ҳам релевантлигини тасдиқлайди.

Португалия модели (Декриминализация сиёсати). 2001 йилда Португалия давлати дунёда биринчилардан бўлиб гиёҳванд моддаларни шахсий истеъмол учун сақлаганликни жиноий эмас, балки маъмурий ҳуқуқбузарлик ва соғлиқни сақлаш тизимига оид тиббий муаммо сифатида баҳолаш сиёсатига ўтди. Мазкур давлатнинг асосий эътибори ва молиявий ресурслари жазолашга эмас, балки даволашга, ижтимоий реабилитацияга ва зарарни камайтиришга қаратилди. Натижада, мамлакатда гиёҳвандлик моддасидан ўлим ҳолатлари 80% га камайди, ОИВ (ВИЧ) юқиши кескин пасайди, полиция ва суд тизими эса ўзларининг асосий кучларини майда истеъмолчиларни қамашга эмас, балки йирик наркокартеллар ва уюшган жиноятчиликка қарши курашга қарата олди. Бу тажриба шуни ўргатадики, касалликка чалинган “истеъмолчи-жиноятчи” билан ғаразли ниятдаги “тарқатувчи-жиноятчи”ни бир хил жазолаш тизими самарасиздир. Балки, истеъмолчига жазодан кўра кўпроқ тиббий-ижтимоий ёрдам зарур.

АҚШ ва Нидерландия каби давлатларнинг тажрибасига назар ташласак. Хусусан, АҚШда мактабларга асосланган “Life Skills Training” (Ҳаётий кўникмаларни шакллантириш) дастурлари орқали ўқувчиларда стрессни бошқариш ва салбий таклифларга онгли равишда рад жавобини бериш кўникмалари ўргатилмоқда, бу эса наркотик истеъмолини 30-50 %га камайтирди. Нидерландияда эса ёшларга гиёҳванд моддаларнинг таркиби ва хавфи ҳақида очиқ, илмий ва объектив ахборот бериш орқали уларда хавфли моддаларга нисбатан онгли иммунитет шакллантирилмоқда.

Бу тажрибаларни қиёсий-ҳуқуқий таҳлил қилиш орқали энг мақбул механизмларни ишлаб чиқиш мумкин.

Шу билан бирга, ахборот-коммуникация технологияларининг жадал ривожланиши мазкур соҳада илмий мониторинг ва таҳлилнинг янги усулларини жорий этиш имконини бермоқда. Катта маълумотлар (big data) таҳлили, сунъий

интеллект алгоритмлари ва геоахборот тизимлари (GIS) орқали наркожиноятларнинг ҳудудий тарқалиш хариталарини шакллантириш, хавфли нуқталарни аниқлаш ва тезкор профилактик чоралар кўриш мумкин. Бу эса анъанавий усулларга нисбатан аниқлик, тезкорлик ва самарадорликни сезиларли даражада оширади.

Хулоса қилиб айтганда, гиёҳвандлик ва наркожиноятларга қарши курашишда илмий тадқиқотлар стратегик аҳамиятга эга бўлиб, улар муаммонинг моҳиятини чуқур англаш, унинг сабаб ва оқибатларини аниқлаш ҳамда самарали профилактика, даволаш ва ҳуқуқий механизмларни ишлаб чиқиш имконини беради.

Гиёҳвандликка қарши кураш бу фақатгина маъмурий ёки жисмоний таъсир чоралари эмас, балки кенг қамровли илмий ёндашувга асосланган мураккаб жараёндир. Илм-фан орқали биз ушбу иллатнинг илдиз омилларини аниқлаб, унга мақсадли ва самарали таъсир кўрсатиш имкониятига эга бўламиз.

Фақатгина давлат органлари, илмий муассасалар ва фуқаролик жамияти институтларининг ўзаро ҳамкорлиги, ресурслар ва билимларнинг интеграцияси орқали соғлом ва хавфсиз жамиятни шакллантириш мумкин. Илмий асосланмаган, фрагментар ёндашувлар қисқа муддатли натижалар бериши мумкин, бироқ барқарор ва узоқ муддатли ижобий ўзгаришларга эришиш фақат илмий асосланган, тизимли сиёсат ва амалиёт орқали таъминланади.

Гиёҳвандлик ва наркожиноятларга қарши курашиш самарадорлигини ошириш бўйича илмий-амалий таклифлар

Юқорида баён этилган таҳлиллардан келиб чиқиб, соҳадаги илмий тадқиқотлар натижаларини амалиётга татбиқ этиш бўйича қуйидаги таклифларни илгари суриш мақсадга мувофиқдир.

Биринчидан, гиёҳвандликнинг яширин кўламини холис баҳолаш мақсадида нафақат расмий статистикага, балки оқова сувларни кимёвий таҳлил қилиш (wastewater analysis) ва мунтазам аноним сўровномалар каби замонавий илмий методларга асосланган Миллий мониторинг тизимини яратиш зарур. Бу жараёнда сунъий интеллект имкониятларидан фойдаланиб, наркожиноятлар энг кўп содир этилиши мумкин бўлган ҳудудларнинг (hotspots) электрон харитасини шакллантириш ва ресурсларни мақсадли йўналтириш лозим.

Иккинчидан, янги турдаги “дизайнерлик наркотиклари” ва синтетик моддаларнинг пайдо бўлиш тезлигини инобатга олиб, уларни тезкор аниқлаш ва 24 соат ичида таъқиқланган моддалар рўйхатига киритиш имконини берувчи соддалаштирилган ҳуқуқий механизм ҳамда экспресс-лабораториялар тармоғини кенгайтириш зарур. Шу билан бирга, кибермакондаги наркосавдога қарши курашиш учун киберкриминология йўналишида алоҳида илмий бўлинма ташкил этиш, улар ёрдамида DarkNet ва криптовалюта транзакцияларини

кузатишнинг миллий дастурий таъминотларини ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этади.

Учинчидан, профилактика ишларида эскирган “қўрқитиш” усулларидан воз кечиб, нейропсихология ва нейромаркетинг ютуқларига асосланган, ёшларнинг қизиқишлари ва ижтимоий тармоқлардаги хулқ-атворига мослаштирилган интерактив медиа-маҳсулотларни яратиш лозим. Тиббий реабилитация соҳасида эса гиёҳвандликни фақат детоксикация қилиш эмас, балки шахсни жамиятга қайтариш (ресоциализация) занжирини илмий асосланган стандартлар даражасига кўтариш, айрим ҳолларда оғир бўлмаган жиноят содир этган шахслар учун “жазо ўрнига мажбурий даволаш” моделини тажриба тариқасида жорий этиш мақсадга мувофиқдир.

Тўртинчидан, ушбу йўналишдаги барча илмий изланишларни мувофиқлаштириш учун Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳамда ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ўртасида доимий платформа яратиш, соҳага оид диссертация ва тадқиқот мавзуларини айнан наркобизнеснинг янги шаклларига қарши курашишнинг амалий ечимларига йўналтириш зарур. Фақатгина мана шундай комплекс ва илмий асосланган ёндашув орқали жамиятни наркотаҳдидлардан самарали ҳимоя қилиш мумкин.

Фойдаланилаган адабиётлар:

1. Castells, M. (2010). The End of Millennium. The Information Age: Economy, Society, and Culture. Oxford: Wiley-Blackwell.

2. Volkow, N. D., & Morales, M. (2015). The Brain on Drugs: From Reward to Addiction. Cell, 162(4), 712-725.

3. Sutherland, E. H. (1947). Principles of Criminology. Philadelphia: Lippincott.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 3 ноябрдаги ПФ-207-сон “Аҳоли саломатлиги ва миллат генофондини гиёҳвандлик ва наркожиноятлардан самарали ҳимоя қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони.

5. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). World Drug Report 2025. – Vienna: UNODC Research, 2025.

6. Kristjánsson Á. L., et al. Adolescent substance use prevention: school-based and community-based approaches in Iceland. *Child and Adolescent Psychiatric Clinics of North America*, 25(3), 437-452.

БОЖХОНА ЧЕГАРАСИ ОРҚАЛИ НОҚОНУНИЙ ОЛИБ ЎТИЛАЁТГАН КУЧЛИ ТАЪСИР ЭТУВЧИ МОДДАЛАРНИ АНИҚЛАШ МУАММОЛАРИ

Гайиров Фазлиддин Саттарович,
Божхона қўмитасининг Божхона институти
Халқаро ҳамкорлик бўлими бошлиғи,
Рахмонов Бекзод Исроилович,
Божхона қўмитасининг Божхона институти Махсус-ҳуқуқий
фанлар кафедраси бошлиғи

Сўнгги йилларда гиёҳванд моддаларни тайёрлашда ишлатиладиган прекурсорлар, ноқонуний фармацевтика воситалари ва уларнинг аналогларини ўз ичига олган юқори даражали кучли таъсир этувчи моддалар (КТЭМ) ноқонуний айланиши иқтисодий хавфсизлик ва аҳоли саломатлигига жиддий таҳдид солмоқда. Таъминот занжирларининг глобаллашуви ва кенгайиши трансмиллий жиноий фаолият учун қулай шароитлар яратиб бермоқда. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Гиёҳванд моддалар ва жиноятчилик бўйича бошқармаси (UNODC) маълумотига кўра, фақат қалбаки дори воситаларининг йиллик айланмаси 75-200 млрд АҚШ долларини ташкил этади, бу глобал фармацевтика бозорининг 10% қисмини ташкил қилади [1].

Шу сабабли, божхона маъмуриятлари мисли кўрилмаган қийинчиликларга дуч келмоқда: ҳар йили юз миллионлаб юк жўнатмалари чегараларни кесиб ўтади, бу эса ҳар томонлама жисмоний текширувларни ҳам техник, ҳам иқтисодий жиҳатдан самарадорлигини туширмоқда. Олдинги таҳдидлар учун яратилган хавф профилларига асосланган анъанавий танлов усуллари хозирда тақдим этилган сохта декларациялар, мураккаб яшириш схемаларидан фойдаланадиган ва ташилаётган моддалар рўйхатини доимий равишда янгилаб турадиган контрабандачиларнинг тез ривожланаётган тактикаларига мослаша олмаяпти.

Ушбу мақолада замонавий технологик ечимларнинг кенг қамровли тизимини жорий этиш орқали КТЭМларни ташиш бўйича божхона назорати схемасини модернизация қилиш бўйича амалий таклифлар кўриб чиқилади. Ушбу мақсадга эришиш учун қуйидаги тадқиқот вазифалари қўйилди: мавжуд статистик ва асосий бўшлиқ, заифликларни таҳлил қилиш, профиллаш ва узлуксиз бошқарув технологиялари салоҳиятини баҳолаш ва уларни қўллаш учун интеграциялашган моделни ишлаб чиқиш.

Тадқиқот очиқ кўринишидаги халқаро ва миллий манбалардан, жумладан, БМТ Наркотиклар ва жиноятчиликка қарши кураш бошқармаси (UNODC), Жаҳон божхона ташкилоти (WCO), Европол ва миллий божхона хизматлари

(Россия Федерал божхона хизмати ва АҚШ Чегара ва божхона хизмати) ҳисоботларидан олинган маълумотларни таҳлил қилишга асосланган. Статистик таҳлиллар, аниқлаш тенденциялари, мусодара қилиш ҳажмлари ва аниқланмаган КТЭМ жўнатмаларининг улушини баҳолашни ўз ичига олган.

Юзага келган вазият ва қийинчиликларни таҳлил қилганда, мавжуд муаммонинг тизимли хусусиятини намойиш этаётганини кўриш мумкин. Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Наркотиклар ва ўқотар қуролларни назорат қилиш агентлиги томонидан тақдим этилган статистикага мувофиқ, психофаол моддаларни ноқонуний истеъмол қилгани учун жавобгарликка тортилган ёшлар сони 74 фоизга, жумладан, талабалар 21 фоизга ва мактаб ўқувчилари олти бараварга ошган. 2023-йилда гиёҳванд моддалар билан боғлиқ жиноятлар учун ҳибсга олинган 30 ёшгача бўлганларнинг 97 нафари университет талабалари бўлган [2].

Шу билан бирга, гиёҳванд моддалар билан боғлиқ жиноятлар сони муттасил ўсиб бормоқда ва 2019 йилда 5,026, 2020 йилда 6,032, 2021 йилда 7,142, 2022 йилда 8,681 ва 2023 йилда 10,011 ташкил этди. Баъзи рақамлар шуни кўрсатадики, сўнгги йилларда республикага психотроп моддалар ва кучли дори-дармонларни ноқонуний олиб кириш ҳолатлари тез-тез учрайди. 2022-йилда республика ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари томонидан 313.000 дона кучли ва психотроп моддалар аниқланган бўлса, 2023-йилда бу кўрсаткич 663.000 донага етди ва икки баравар кўпайди.

Таъкидлаш жоизки, 1994 йилдан буён мамлакатда ноқонуний савдодан олиб қўйилган гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларни йўқ қилиш бўйича ҳар йили алоҳида кампания ўтказиб келинади. 2025 йилда ушбу акция халқаро гиёҳвандликка қарши кураш кунида ўтказилиб, унинг доирасида 2,1 тоннадан ортиқ гиёҳванд моддалар йўқ қилинди. Ёқиб юборилган моддалар таркиби: 99,88 кг героин, 202,55 кг опий, 415,12 кг гашиш, 395,73 кг марихуана, 153 кг кўкнор сомони ва 613 кг наша. Бундан ташқари, таблетка ва эритма кўринишида синтетик дорилар, прекурсорлар – 57,8 кг мефедрон, 29,6 кг алфа-ПВП, 5,75 кг спайслар, 5,5 кг катинон ва бошқаларни ташкил этди [3].

Наркожиноятлар орасида синтетик гиёҳванд моддалар, хусусан, мефедрон, алфа-ПВП ва МДМА каби моддаларнинг ноқонуний савдоси кўпаймоқда, улар ваколатли идоралар хабарига кўра республикага асосан Россия ва Қозоғистондан олиб келинади. Препаратлар учун зарур бўлган прекурсорлар Қирғизистон ва Қозоғистон орқали Ўзбекистонга олиб келинади ва улардан хуфиёна лабораторияларда кучли таъсир этувчи воситалар ишлаб чиқарилади.

Халқаро жиноий гуруҳларнинг юртимизда яширин лабораторияларни ташкил этишга уринишлари сони кўпаймоқда. Сўнгги бир ярим йил ичида 8 та хуфиёна лаборатория аниқланди. Шунингдек, хорижий жиноий гуруҳлар

логистик занжир ва савдони ташкил этиш учун ёлланган курерларни республикага юбориш ҳолатлари ҳам учраб турибти. 2024 йилда бундай тармоқларнинг 6 нафар хорижий иштирокчилари хавфсизлик кучлари томонидан ҳибсга олинган. Улар ёшларни осон ва тез даромад олиш ваъдалари билан жиноий фаолиятга фаол жалб қилишга уринишлари алоҳида ташвиш уйғотади [4].

Ушбу масаланинг криминологик таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, назорат қилувчи органлар томонидан гиёҳвандлик жиноятларини олдини олиш бўйича мунтазам равишда олиб борилаётган комплекс чора-тадбирларга қарамай, юқоридаги рақамлардан наркотаҳдиднинг хавфлилик даражаси кўринади.

Кучли таъсир этувчи моддаларнинг катта қисми ташқаридан олиб келинаётгани ва уларни мусодара қилиш кўрсаткичлари ортиб бораётганини ҳисобга олсак, чегара ҳудудида чегара ва божхона назоратига эътибор қаратиш лозим бўлган ҳолатлар кўп. Бу ерда асосий муаммолар қуйидагиларда бўлиши мумкин: танлов асосидаги селектив назоратнинг паст самарадорлиги: юкларнинг атиги 10-15% жисмоний кўрикдан ўтказилиши. Шунингдек, идоралараро мувофиқлаштириш жараёни етарли эмаслиги: ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ўртасида маълумот алмашинувининг етишмаслиги, ҲМҚО ва бошқа давлат идоралари (*соғлиқни сақлаш, маҳаллий ҳокимият органлари ва бошқа тузилмалар*) ўртасида ахборот алмашуви рақамлаштирилмагани ва етарли даражада сифатли ташкил этилмаганлиги.

Маълумки, жисмоний шахслар томонидан шахсий фойдаланиш учун дори воситалари ва тиббий буюмларни олиб кириш ва олиб чиқиш тартиби амалдаги Божхона кодекси ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 06.08.2016й.даги “*Дори воситалари ва тиббий буюмларни жисмоний шахслар томонидан шахсий фойдаланиш учун олиб кириш ҳамда олиб чиқиш тартиби тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида*”ги 191-сонли қарори билан тартибга солинади.

Хусусан, жисмоний шахслар томонидан шахсий фойдаланиш учун гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар мавжуд дори воситаларини олиб кириш ва олиб чиқиш Вазирлар Маҳкамасининг 12.11.2015й.даги 330-сонли қарори билан тасдиқланган рўйхатларга мувофиқ амалга оширилади.

Жисмоний шахсларга шахсий фойдаланиш учун психотроп моддаларни олиб кириш ва олиб чиқишига рухсат этилади, агар улар 7 кунлик талабдан ошмаса, тиббий муассаса томонидан берилган ва даволаш курси учун тавсия этилган миқдорни тасдиқловчи ҳужжатларга эга бўлса. Божхона остидан олиб ўтишда жисмоний шахслар гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларни албатта декларация қилишлари шарт. Гиёҳвандлик воситасини олиб ўтиш учун улар божхона ходимига тиббий муассаса томонидан берилган препаратнинг

номи, унинг дозаси, даволаш курси учун тавсия этилган миқдори кўрсатилган ҳужжатни тақдим этишлари мажбурийдир.

Шу билан бирга, кучли таъсир этувчи дори-дармонлар, гиёҳванд воситалар ва психотроп моддаларни ташиш кўпинча божхона органларидан яширинган ҳолда амалга оширилади, чунки уларда зарур рухсатномалар йўқ. Бу, айниқса, қўшни мамлакатлардан ноқонуний равишда товарларни ташийдиган юридик шахслар ва транзит юклар орасида кўпроқ учрайди.

Масалан, 2024-йилда 1,7 тонна гиёҳванд моддалар мусодара қилинган бўлса, бу кўрсаткич 2025-йилда 3,6 тоннага кўтарилди. Қўлга олинган жиноятчилар сони 2600 дан 4500 гача, йўқ қилинган ноқонуний гиёҳванд моддаларнинг лабораториялари сони эса 8 тадан 15 тагача ошди. 2025-йилда 180кг синтетик моддалар ва 1млн доза психотроп дорилар мусодара қилинди.

Бунга мисол сифатида Афғонистон билан чегарадош Айритом божхона постида тўхтатилган юк машинасидаги ҳолатни келтириш мумкин. Юк ташиш ҳужжатларига кўра, юк машинасида 9000 пластик бутилкаларга қадоқланган 18 тонна анор шарбати бўлган. Мусодара қилинган қутилардан шарбат намуналари экспресс-гиёҳвандлик тести ёрдамида текширилганда, уларда синтетик метамфетамин препарати борлиги аниқланган.

Бундай идишлар сони 48 тани ташкил этди ва идишлар билан бирга умумий оғирлиги 103 килограммни ташкил этди. Бир грамм метамфетамин қора бозорда тахминан 700 доллар туришини ҳисобга олсак, препаратнинг умумий қиймати ўн миллионлаб АҚШ долларини ташкил қилиши мумкин. Жиноятчилар режасида анор шарбатидан соф кукунни лабораторияда ёки уйда буғлантириш орқали ажратиб олиш бўлган [5].

Бизнинг фикримизча, чегарада ноқонуний гиёҳванд моддалар ташувини аниқлашдаги асосий муаммолар қуйидагилар.

1-муаммо: чегарадан ўтишнинг юқори тезлик талаблари ва логистика ҳажмлари: дунё бўйлаб божхона органлари ҳар куни катта ҳажмдаги юк, почта ва йўловчи ташувларини қайта ишлайди, бу эса ҳар бир юкни жисмоний текширишни имконсиз қилиб қўяди. Россия Федерал божхона хизмати маълумотига кўра, фақат 2023-йилда Россия чегарасидан 116 миллиондан ортиқ шахс ҳаркатланган, 4,7 миллиондан ортиқ темир йўл контейнерлари расмийлаштирилган ва миллион тонналаб почта ва экспресс жўнатмалари қайта ишланган.

Дубай ёки Лондон Хитроу каби халқаро аэропортларда кунлик йўловчилар оқими 200.000 кишидан ошиши мумкин. Ҳар бир кишининг юкини реал вақт режимида сканерлаш ва текшириш имконсиз вазифадир. Натижада, божхона хизмати хавфларни бошқариш тизими асосида ишлашга мажбур бўлади,

шубҳали посилкалар ва йўловчиларни танлаб текширади, бу эса муқаррар равишда баъзи гиёҳванд моддаларнинг яширини олиб ўтишга замин яратади.

2-муаммо: яшириб ўтишнинг мураккаб усуллари (контрабанда). Жиноятчилар гиёҳванд моддаларни яширишнинг янги усулларини доимий равишда ихтиро қиладилар, бу эса божхонадан ўз ходимларини доимий ўқитиш ва техник жиҳозларини янгилашни талаб қилади. Масалан, ички ташиш ("танада ташиш") орқали гиёҳванд моддали капсулаларни ютиш ёки уларни тана бўшлиқларига жойлаштиришни ўз ичига олади. Аниқлаш учун рентген ёки компьютер томографияси талаб қилинади, бу эса оммавий тинтув пайтида имконсиз ва қатъий махфийлик қонунлари билан тартибга солинади. Кимёвий ниқоблаш: гиёҳванд моддалар тўқимачилик, ёғоч, китобларга сингдирилиши ёки қонуний маҳсулотлар (кофе, шарбат, асал, вино) билан аралаштирилиб, сўнгра кимёвий реакциялар ёрдамида олинади. 2021-йилда Германияда вино шишаларида суюқ кокаин партияси мусодара қилинган.

Товарларни яшириш: гиёҳванд моддалар пластик буюмлар, батареялар, гипс ҳайкаллар, автомобиль эҳтиёт қисмлари ва диний буюмларга жойланади. 2022-йилда Гамбург портида Эквадордан келган банан жўнатмасида бир неча юз килограмм кокаин топилган. Курьер ва почта хизматларидан минглаб кичик посилкаларни аноним равишда юбориш учун фойдаланилади, бу эса жиноятчиларга барча жўнатмани йўқотиш хавфини камайтиради. Бу текширув тизимни кичик посилкалар билан чалғитиш йўлидир.

3-муаммо: божхона постларида техник жиҳозларнинг етишмаслиги. Ривожланган давлатлардаги божхона хизматлари яхши жиҳозланган бўлсада, бу муаммо, айниқса, узоқ, чўзилган чегараларга ва чекланган ресурсларга эга мамлакатлар учун ўта долзарбдир. Ҳатто замонавий технологияларнинг ҳам ўз чеклови бор. Ион спектрометрлари ва рентген люминецент анализаторлари самарали бўлсада, улар таҳлил қилиш ва операторнинг тўғри кўрсатмаларини олиш учун вақт талаб этади. Бундан ташқари, рентген тизимлари ҳар доим ҳам ўхшаш зичликка эга органик моддаларни ишончли тарзда аниқлай олмайди (масалан, дорилар, шоколад ёки пластилин).

4-муаммо: ҳуқуқий ва ахлоқий чекловлар. Божхона органларининг ҳаракатлари қонун билан қатъий тартибга солинади. Бу контрабандачилар фаолият юритадиган ва улар фойдаланадиган ҳуқуқий маконда ишлаш зарурати. Дахлсизлик: шахсий (интим) кўриклар ёки посилкаларни очиб кўриш кўпинча ишончли асослар ёки суд қарорини талаб қилади, яъни тасодифий, "профилли" тинтув судда қонуний эътирозга сабаб бўла олади.

5-муаммо: янги психофаол моддаларнинг (дизайнерлик дорилари) пайдо бўлишидир. Уларнинг кимёвий тузилиши доимий равишда ўзгариб туради. Тақиқланган рўйхатларга янги модда қўшилгунга қадар, уни импорт қилишга

расман рухсат берилади. Бундан ташқари, лабораторияларда ҳар доим ҳам уларни аниқлаш учун стандартлар мавжуд эмас. БМТнинг Наркотиклар ва жиноятчилик бўйича бошқармаси маълумотига кўра, глобал бозорда 1.100 дан зиёд янги психофаол моддаларнинг турлари айланиб юради, бу эса қонун чиқарувчилар ва назорат органлари учун доимий қийинчилик туғдиради.

Синтетик опиоидлар гиёҳванд моддалар таҳдидида янги парадигма сифатида пайдо бўлмоқда.

2025 йил июнь ойида Лиссабонда бўлиб ўтган халқаро форумда Европа гиёҳванд моддаларни назорат қилиш агентлигининг (EMCDDA) таҳлилчиси М.Пардалнинг ҳисоботида таъкидланганидек, синтетик опиоидлар (фентанил, нитазен ва карфентанил) Европада энг тез тарқалаётган соғлиқни сақлаш таҳдидини ифодалайди. Уларнинг ҳаддан ташқари кучлилиги ва микроскопик хажмда бўлса ҳам ҳалокатли дозани ошириб юбориш қобилияти гиёҳванд моддалар тушунчасига анъанавий ёндашувларни тубдан ўзгартирмоқда.

2023-йилда Европада 860.000 синтетик опиоид истеъмолчилари бўйича қайд этилган рақамлар ва уларнинг дозани ошириб юборишдан топган ўлим ҳолатларининг 69% ни ташкил этиши алоҳида эътибор талаб қилади. 2024-йилги Европа гиёҳванд моддалар бўйича ҳисоботига кўра, Европа Иттифоқида дозани ошириб юборишдан ўлим ҳолатларининг умумий сони йилига 6.000 дан ортиқни ташкил қилади. Синтетик опиоидлар ҳар йили тахминан 4.140 ўлимга сабаб бўлади. Таққослаш учун, мақолада таъкидланганидек, АҚШдаги фентанил эпидемияси йилига 100.000 дан ортиқ одамнинг ҳаётига зомин бўлмоқда, бу эса Европадага кўрсатгич бироз кичикроқ, аммо тез ўсиб бораётган муаммо эканлигини кўрсатади.

АҚШ Божхона ва чегара хизмати статистикасига кўра, 2023 йилда АҚШ чегарасида 12 тоннадан ортиқ фентанил мусодара қилинган. АҚШ иқтисодига салбий таъсир (DEA and White House Report) йилига 1-1,5 триллион долларни ташкил этади. Европа Иттифоқи мамлакатлари учун бу кўрсаткич 100-130 миллиард еврони ташкил қилади (EMCDDA маълумотлари).

Гиёҳванд моддалар савдоси каналини бутунлай ёпиб қўядиган ягона ечим йўқ, ҳар қандай амалий чора-тадбирлар албатта молиялаштириш билан боғлиқ қийинчиликларга дуч келади. Чегара ҳудудидаги божхона инфратузилмасини модернизация қилишда дастлабки харажатлар катта бўлсада, уларни гиёҳванд моддалар савдосидан келиб чиқадиган улкан иқтисодий зарар, жумладан, соғлиқни сақлаш, ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларига тўғридан-тўғри бўладиган харажат ва самарадорликнинг йўқолиши билан таққослаш лозим.

Қуйида турли технологияларни жорий этишнинг харажатини кўрсатувчи иқтисодий самарадорлик таҳлили жадвали келтирилган:

Технология	Капитал харажатлар	Бир йиллик молиявий таъминоти	Аниқлаш самарадорлиги	Изоҳ
Стандарт рентген ускунаси	$100-300 минг	$20-50 минг	10-15%	Органик моддаларнинг паст дифференциацияси
ИИ-анализ рентгенограмма	$150-200 минг (софт)	$30 минг	40-60%	Нейрон тармоқни шакл ва текстураларни аниқлашга ўргатиш зарурати
Ионнли спектрометрия (IMS)	$50-100 минг	$15-30 минг	30-50%	Тезкор скрининг, аммо зарур моддалар чекланган маълумотлар базаси
Газли хромато-масс-спектрометрия (ГХ-МС)	$200-500 минг	$70-100 минг	95-99%	"Олтин стандарт", аммо вақт ва операторни талаб қилади
Электрон бурун (E-Nose)	$100-250 минг	$40-60 минг	50-70%	Юк бўлимларидаги хавони тезда скрининг қила олади
Башоратли таҳлил (хавфга асосланган танлов)	$1-3 млн (жорий жтиш)	$200-500 минг	30-80%	Катта маълумотларни таҳлил қилиш: жўнатувчи, қабул қилувчи, маршрут, тарих ва х.к.
Синовдан ўтган умумий сондан мақсадли моддаларни аниқлашнинг тахминий фоизи сифатида самарадорлик жадвали				

Юқоридагилардан кўриниб турибдики, божхонадаги гиёҳванд моддаларни аниқлаш муаммоси ҳуқуқни муҳофаза қилиш идоралари ва жиноятчилар ўртасидаги доимий "қуролланиш пойгаси" кўринишда эканлиги аён бўлади. Самарали назорат тизими қуйида келтирилган замонавий технологияларни жорий этиш бўйича комплекс чоралар кўришни талаб қилади:

1. Сунъий интеллект ва машинани ўрганишга асосланган башоратли таҳлил тизимини жорий этиш

Олдинги хавфларни бошқариш тизимини онлайн Big Data маълумотларни таҳлил қилувчи ақлли (Smart) платформалар билан алмаштириш. Машинани ўргатиш алгоритми структуравий (декларациялар, қабул қилувчи/жўнатувчи маълумотлари, ҳаракатлар тарихи) ва тузилмаган (янгиликлар ленталари, хуфиёна Интернет маълумотлари) маълумотларнинг кенг массивларини қайта ишлайди. Модель мураккаб ёндошув ва сунъий интеллект ёрдамида ноаниқ корреляцияларни аниқлайди ва ҳар бир жўнатманинг башорат хавфни баҳолаш имконини беради. АҚШ Божхона ва чегара хизмати тажрибасига асосланиб, бундай тизимларнинг жорий этилиши хавфларни нишонга олиш аниқлигини

40% га оширади, шу билан бирга қонуний юкларни текшириш сонини 25% га камайтиради. Бу эса, ресурсларни зарур юкларни текширишга йўналтириш имконини беради [6].

2. Таъминот занжирини кузатиб борувчи блокчейн-платформаси технологиясини яратиш

Қонуний фармацевтика таъминоти занжири учун тақсимланган кузатув тизими (блокчейн) таклиф қилинмоқда. Механизм: фаол фармацевтик моддаларни ишлаб чиқаришдан тортиб, импорт қилувчи томонидан тайёр маҳсулотни қабул қилишгача бўлган ҳар бир операция ўзгармас дафтарда қайд этилади. Божхона органлари, ишлаб чиқарувчилар, логистлар ва регуляторлар товарнинг келиб чиқиши, ҳаракати, ҳақиқийлиги тўғрисидаги маълумотларга ваколатли кириш ҳуқуқига эга бўладилар. Кутилаётган натижа: таъминот занжири шаффофлиги ҳужжатларни қалбакилаштириш ва "йўқолган" юк хавфини нолга камайтиради. Европа Иттифоқида синовдан ўтган бу лойиҳа маъмурий харажатларнинг 15%га камайганини ва кузатиладиган таъминот занжирда қалбакилаштиришнинг деярли тўлиқ йўқ қилинганини кўрсатди [7].

3. Портатив ва стационар сканерлаш қурилмаларини жорий этиш

Инвазив бўлмаган ва тез фурсатда текширувни таъминлаш учун божхона назорати постлари замонавий асбоблар билан жиҳозланган бўлиши керак. ИК спектроскопияси, рентген флоресанси (ХРФ) ва Раман спектроскопиясига асосланган технологиялар модданинг молекуляр таркибини устки қадоқни очмасдан 15-30 сония ичида аниқлаш имконини беради. Кутилаётган натижа: назорат пунктларида ўтказувчанликни ошириш. Дубай аэропортида спектрометрдан фойдаланиш натижасида битта юкни текшириш вақти 1 дақиқагача қисқартирилади ва идентификация аниқлиги 95% дан ошади [8].

4. Юкнинг рақамли профилини тузувб берувчи тизимни ишлаб чиқиш

Таклиф этилаётган барча технологияларни ягона ахборот экотизимига интеграция қилиш. Механизм: ҳар бир юк жўнатмаси ноёб рақамли идентификаторга эга. Унинг профили автоматик равишда маълумотларни, жумладан, сунъий интеллект тизимидан хавфни баҳолаш, блокчейн ҳаракати ёзувлари ва спектрометрик сканерлаш натижаларини олади. Бу жараённинг барча иштирокчилари учун очиқ бўлган рақамли юк ташуви тарихини яратади. Кутилаётган натижа: ягона манзарани шакллантириш, асосланган қарорлар қабул қилиш ва паст хавфли юклар учун "яшил йўлак"ни автоматлаштириш амалиётини жорий этиш (жўнатмаларнинг 90% гача).

Юқоридаги маълумотлар кучли таъсир этувчи моддаларни божхона назоратидаги эски анъанавий тизим ўз салоҳиятини тугатганини ва тубдан технологик модернизация қилишни талаб қилаётганини кўрсатади. Сунъий интеллектга асосланган башоратли таҳлил, кузатув учун блокчейн ва замонавий

назорат усулларини бирлаштирган чора-тадбирлар комплекси амалий таклиф бўлса-да, кейинги режалаштиришни талаб этади.

Таклиф этилаётган таклифларнинг муваффақияти шунчаки янги ускуналар сотиб олиш эмас, балки технологияларни ягона рақамли божхона назорати экотизимига бирлаштириш, ходимларни ўқитиш ва идоралараро ҳамкорликни мустаҳкамлаш, маълумотлар алмашувини тезлаштиришда ҳам деб саналади.

Адабиётлар / ресурслар

[1] Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Гиёҳванд моддалар ва жиноятчилик бўйича бошқармаси (UNODC) томонидан тайёрланган “Наркотиклар тўғрисидаги глобал хисобот” https://www.unodc.org/documents/data-and-analysis/WDR_2024/2411140R.pdf

[2] “Таълим муассасаларида ёшлар орасида психофаол моддаларнинг ноқонуний айланмасига қарши курашиш ишларини ташкил этиш механизмлари” мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Президенти администрацияси ҳузуридаги наркотикларни назорат қилиш миллий маркази ўқув қўлланмаси. https://ncdc.uz/uploads/image/04022025-214048_511-1- %BA.pdf

[3] “ДХХ томонидан 2 тоннадан зиёд наркотиклар йўқ қилинди” номли мақола. Эл-адрес: https://everyday.uz/incidents/13805-post.html

[4] ОАВда чоп этилган “Анъанавий ёқиш маросими” номли ахборот мақоласи https://uzmetronom.agency/2025/06/27/sozhzhenie-po-tradicii.html

[5] “Анор шарбати ниқоби остида Афғонистондан Ўзбекистонга метамфетамин олиб киришга ҳаракат қилинди” номли мақола. https://www.gazeta.uz/ru/2023/05/05/drugs/

[6] АҚШ Чегара ва божхона хизматининг хисоботи. Annual Report. P.18. https://www.cbp.gov/document/reports/office-field-operations-annual-report

[7] Европа Комиссияси-2020. Европа тизимининг мақсадга мувофиқлигини ўрганиш 78. https://ec.europa.eu/health/sites/health/files/files/medicines/2019_medicines_study_falsified_medicines_final_report.pdf

[8] Дубай Божхонаси (2023). Ақлли Божхона: Дубай Модели. Cace Study: спектроскопик сканерлар тарқатиш. Эл-адрес: https://www.dubaicustoms.gov.ae/

ГИЁҲВАНДЛИККА ҚАРШИ КУРАШИШ ТИЗИМИДА ХОРИЖИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА УЛАРНИ ЎЗБЕКИСТОН АМАЛИЁТИГА ТАТБИҚ ЭТИШ ИМКОНИЯТЛАРИ

Махсадов Махсатулло Исматович,
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети
профессори, ю.ф.д., доцент;
Кузиев Дилшод Ахрорович,
Ўзбекистон Республикаси Криминология тадқиқод институти
мустақил изланувчиси.

Ҳеч кимга сир эмаски, янги Ўзбекистон Президентининг 2025 йил 3 ноябрдаги «Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланмасига қарши курашиш ҳамда уларнинг тарқалишини олдини олишнинг комплекс чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-207-сонли Фармони[1] билан тасдиқланган стратегия доирасида хорижий давлатларнинг илғор тажрибасини миллий қонунчилик ва амалиётга имплементация қилиш илмий ва амалий жиҳатдан долзарб ҳисобланади.

Португалия Республикасининг 2000 йилдаги 30/2000-сонли «Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларни истеъмол қилишнинг ҳуқуқий режими тўғрисида»ги Қонуни[2] дунёдаги энг инновацион «декриминализация» моделига асос солди. Ушбу тизимнинг марказий бўғини «Гиёҳвандликни жиловлаш комиссиялари» (Comissão para a Dissuasão da Toxicodependência - CDT) бўлиб, уларнинг таркибига юристлар, психологлар ва ижтимоий ходимлар киритилган. Мақсад — шахсни жазолаш эмас, балки унинг қарамлик даражасини аниқлаб, ихтиёрий даволанишга йўналтиришдир. Натижада Португалияда гиёҳвандлик билан боғлиқ ОИТС юқиш ҳолатлари 2000 йилдаги 907 тадан 2012 йилга келиб 79 тагача қисқарди.

Сингапур модели. Сингапур тажрибаси «қатъий назорат ва тизимли ижтимоий қўллаб-қувватлаш» мувозанатини ифодалайди. «Сариқ лента» лойиҳаси (Yellow Ribbon Project) орқали собиқ маҳкумларни жамиятга қайтариш бўйича CARE Network (Community Action for the Rehabilitation of Ex-Offenders) тармоғи фаолият юритади. Ушбу ҳамкорлик механизми 170 дан ортиқ ижтимоий

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 3 ноябрдаги «Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланмасига қарши курашиш ҳамда уларнинг тарқалишини олдини олишнинг комплекс чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-207-сонли Фармони // https://lex.uz/docs/7818774.

[2] Lei n.º 30/2000, de 29 de Novembro (Define o regime jurídico aplicável ao consumo de estupefacientes e substâncias psicotrópicas, bem como a protecção sanitária e social das pessoas que consomem tais substâncias sem prescrição médic 1 a). // https://diariodarepublica.pt/dr/detalhe/lei/30-2000-599720.

ташкилотларни бирлаштириб, собиқ гиёҳвандларнинг 94 фоизини озодликка чиққунга қадар иш билан таъминлашга эришган. Натижада Сингапурда икки йиллик рецидив (такрорий жиноят) даражаси 21,3–21,9 фоиз оралиғида сақланиб, дунёдаги энг паст кўрсаткичлардан бири ҳисобланади.

АҚШда «Strengthening Families Program» (Оилаларни мустаҳкамлаш дастури) каби илмий асосланган профилактика моделлари мактаб ёшидаги болаларда аддиктив хулқни эрта аниқлашда самарали ҳисобланади. Европа Иттифоқининг «CADAP» (Central Asia Drug Action Programme) лойиҳаси доирасида эса «илмий хулоса – тавсия – натижа» тамойили асосида Европанинг энг яхши превентив амалиётлари Марказий Осиё давлатларига мослаштирилмоқда.

Россия Федерацияси Президентининг 2020 йил 23 ноябрдаги 733-сонли Фармони билан тасдиқланган «Россия Федерациясининг 2030 йилгача бўлган даврга мўлжалланган давлат антинаркотик сиёсати Стратегияси»[1] ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланган ҳолда содир этилаётган наркожиноятларга қарши курашни устувор вазифа қилиб белгилайди. Россия тажрибасида Интернетдаги нарко-рекламаларни автоматик блоклаш ва «нарковазият мониторинги»нинг ягона тизими орқали ҳудудларнинг криминоген даражасини баҳолаш йўлга қўйилган. Бу Ўзбекистондаги «қизил» маҳаллалар тажрибаси билан мантиқан яқиндир.

Қозоғистон Республикаси Ҳукуматининг 2025 йил 19 декабрдаги 1117-сонли қарори билан тасдиқланган «Қозоғистон Республикасида 2026–2028 йилларда гиёҳвандлик ва наркобизнесга қарши курашиш бўйича комплекс режа»[2] рақамли ечимларга таянади. Ушбу режага мувофиқ, нарколабораторияларни аниқлаш учун спектрал камерали дронлардан (БПЛА) фойдаланиш ва оператив фаолиятга сунъий интеллектни (СИ) татбиқ этиш кўзда тутилган. Шунингдек, суд экспертизаси муддатларини 10 кундан 3 кунгача қисқартириш бўйича тизимли чоралар кўрилган.

Туркия Республикасининг «Гиёҳвандликка қарши курашиш бўйича 2024–2028 йилларга мўлжалланган Миллий стратегия ҳужжати ва ҳаракатлар режаси»[3] мажмуавий ёндашувни ифодалайди. Туркия Ички ишлар вазирлиги томонидан амалга оширилаётган «NARKO-REHBER» (Нарко-қўлланма) лойиҳаси

---

[1] Указ Президента Российской Федерации от 23 ноября 2020 г. № 733 «Об утверждении Стратегии государственной антинаркотической политики Российской Федерации на период до 2030 года». // http://static.kremlin.ru/media/events/files/

[2] Постановление Правительства Республики Казахстан от 19 декабря 2025 года № 1117 «Об утверждении Комплексного плана по борьбе с наркоманией и наркобизнесом в Республике Казахстан на 2026–2028 годы». // https://adilet.zan.kz/rus/docs/P2500001117

[3] 2024–2028 Uyuşturucu ile Mücadele Ulusal Strateji Belgesi ve Eylem Planı (Türkiye Cumhuriyeti Sağlık Bakanlığı). // https://dosyamerkez.saglik.gov.tr/Eklenti/49633/0/2024-2028-uyusturucu-ile-mucadele-ulusal-strateji-belgesi-ve-eylem-planipdf.pdf

доирасида аҳолига нарко-хавфларни аниқлаш бўйича таълим берилади. Айниқса, «En İyi Narkotik Polisi Anne» (Энг яхши нарко-полициячи — бу она) лойиҳаси диққатга сазовор бўлиб, унда оналарнинг оилавий муҳитда фарзандларини ҳимоя қилиш кўникмалари оширилади. Шунингдек, Туркияда «BAHAR» реабилитация моделлари орқали шахсларни ижтимоий ҳаётга қайтариш йўлга қўйилган.

Ўзбекистонда гиёҳвандлик жиноятчилигининг бугунги ҳолати рақамлашиш ва синтетик моддаларнинг ёйилиши билан тавсифланади. Таҳлил қилинган хорижий моделларни миллий амалиётга татбиқ этишда қуйидаги йўналишлар истиқболли ҳисобланади:

биринчидан, Россия ва Қозоғистоннинг ахборот технологияларини кузатиш тажрибаси Ўзбекистондаги Telegram-ботлар орқали содир этилаётган жиноятларни фош этишда муҳим. Жумладан, 2024 йил 1 февралда Учтепа туманида ушланган **М.М. Каримов** вазни 0,067 грамм бўлган «мефедрон» моддасини Telegram иловасидаги **«Chupa-chups»** номли бот орқали сотиб олганлигини ва **«Раймонд»** номли аккаунтга пул ўтказганлигини билдирган. Бу каби рақамли «изи» яширилган жиноятларни аниқлашда СИ асосидаги автоматик скрининг тизимларини жорий этиш зарур.

иккинчидан, Қозоғистон ва Туркиянинг техник назорат тизимларини трансчегаравий жиноятларга нисбатан қўллаш истиқболли. Масалан, 2025 йил 4 январь куни Тошкент шаҳар божхонаси ва ДХХ томонидан ўтказилган тадбирда **У. Абдурохмонов** бошқарувидаги **«Cobalt»** (40 B 842 JB) русумли автомашина кузови тагига хуфия тарзда яширилган гиёҳванд моддалар аниқланган. Хорижий тажрибадаги замонавий сканерлаш технологиялари ва СИ-риск баҳолаш тизимлари бундай «хуфия» жойларни аниқлаш самарадорлигини оширади.

учинчидан, Ўзбекистонда Сергели туманида ЮНИСЕФ билан ҳамкорликда йўлга қўйилган **CHAMPS (Children Accelerated Management and Prevention System)** ташаббуси Европа ва АҚШнинг превентив моделларига асосланган бўлиб, у болалар ва ўсмирлар орасида чидамлиликни оширишга қаратилган. Сингапурнинг реинтеграция моделини эса маҳаллалардаги пробация назоратида бўлган шахсларни ижтимоий мослаштиришда қўллаш мумкин.

Шунингдек, кўчалардаги шубҳали ҳаракатларни аниқлашда хорижий «Smart City» тажрибаси муҳим. Масалан, 2025 йил 5 январь куни Учтепа туманида 1996 йилда туғилган **С.А. Мадаминов**нинг ҳаракатлари шубҳали бўлганлиги сабабли тўхтатилиб, ёнидан гашиш топилган. Сингапур ва Туркия тажрибаси асосида маҳаллаларда «ақлли видеокузатув» ва ижтимоий назоратни кучайтириш бундай ҳолатларни эрта аниқлаш имконини беради.

Синтетик наркотиклар билан боғлиқ трендлар, хусусан, 2025 йил 16 январь куни **Ж. Гальмидинов**дан «Альфа-ПВП» билан бирга **«Зардекс»** капсулалари

топилгани, хорижий давлатлардаги каби дорихона наркоманиясига қарши қатъий рақамли назорат («E-retsept») тизимини кенгайтиришни тақозо этади.

Хорижий давлатлар тажрибаси таҳлили шуни кўрсатадики, гиёҳвандликка қарши кураш стратегияси «жазо чоралари», «ижтимоий кўмак» ва «юқори технология»нинг узвий бирлигидан иборат бўлиши керак. Тадқиқот натижалари асосида Ўзбекистон учун қуйидаги таклифлар илгари сурилади:

1. Португалия ва Россия тажрибаси асосида «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги Қонунга **«Ижтимоий реабилитация шартномаси»** институтини киритиш. Бунда нарко-қарам шахс ихтиёрий даволаниш ва маҳалла назоратида бўлиш эвазига маъмурий жавобгарликдан қисман озод этилиши мумкин.

Ушбу таклифни Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 3 ноябрдаги «Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланмасига қарши курашиш ҳамда уларнинг тарқалишини олдини олишнинг комплекс чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-207-сонли Фармони[1] ва «маҳалла еттилиги» ваколатлари доирасида амалиётга татбиқ этишнинг **илмий-асосланган механизми** қуйидагича бўлиши лозим:

Таклиф этилаётган механизмни қонунийлаштириш учун «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги Қонун[2]га ва Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекс[3]га (МЖтК) қуйидагича ўзгартиришлар киритиш зарур:

МЖтКнинг 21-моддасига қўшимча шахс гиёҳвандлик воситаларини истеъмол қилганлик учун биринчи марта ушланганда (МЖтК 56-модда), агар у ихтиёрий равишда реабилитациядан ўтишга рози бўлса, «ижтимоий реабилитация шартномаси» асосида маъмурий жавобгарликдан озод қилиш ёки жазони кечиктириш имкониятини бериш.

Шунингдек, «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги Қонун[4]га **қуйидаги ҳуқуқий таърифни белгилаш:** «Ижтимоий реабилитация шартномаси — ҳуқуқбузар, профилактика органи ва маҳалла ўртасида тузиладиган, шахсни соғлом ҳаётга қайтариш бўйича ўзаро мажбуриятларни белгиловчи ҳуқуқий ҳужжат».

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 3 ноябрдаги «Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланмасига қарши курашиш ҳамда уларнинг тарқалишини олдини олишнинг комплекс чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-207-сонли Фармони // https://lex.uz/docs/7818774.

[2] Ўзбекистон Республикаси «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги Қонуни // https://lex.uz.

[3] Ўзбекистон Республикаси “Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекс” // https://lex.uz.

[4] Ўзбекистон Республикаси «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги Қонуни // https://lex.uz.

Ушбу механизм «республика – вилоят – туман – маҳалла» занжири асосида ишлаши керак:

А) Шахс ушланганда, ҳудудий Наркология диспансери ва «Инсон» ижтимоий хизматлар маркази ходимлари унинг аддикция даражасини (қарамлик даражасини) баҳолайди. Агар шахс «риск гуруҳи»нинг бошланғич босқичида бўлса, унга шартнома таклиф этилади.

Б) Уч томонлама мажбурият (Шартнома тарафлари). Ҳуқуқбузар: Даволаниш курсини тўлиқ ўташ, мунтазам тест топшириш ва маҳалладаги ижтимоий фойдали меҳнатга жалб этилиш мажбуриятини олади. **Маҳалла еттилиги (Профилактика инспектори ва маҳалла раиси):** Шахснинг кундалик юриш-туришини назорат қилади, уни ижтимоий яккаланиб қолишдан ҳимоя қилади (виктимологик профилактика). **Давлат (Туман комиссияси):** Шахсга бепул тиббий ва психологик ёрдам беришни, уни иш билан таъминлашни кафолатлайди.

Механизмнинг шаффофлигини таъминлаш учун «Е-маъмурий иш» тизимида алоҳида **«Реабилитация мониторинги»** блоки яратилиши лозим:

Профилактика инспектори шартнома ижросини рақамли тизим орқали қайд этиб боради.

Агар шахс шартнома шартларини бузса (масалан, даволанишдан бош тортса), тизим автоматик равишда тўхтатилган маъмурий ишни тиклайди ва шахс жавобгарликка тортилади.

Португалия тажрибасидаги CDT комиссияларининг муқобили сифатида маҳаллаларда **«Ижтимоий мослашув гуруҳлари»** тузилади. Унга маҳалладаги обрўли оқсоқоллар ва «маҳалла еттилиги» аъзолари киради.

Шахс ҳар ҳафта мазкур гуруҳ олдида ўз «реабилитация харитаси» бўйича ҳисобот беради. Бу жазолаш эмас, балки ижтимоий қўллаб-қувватлаш терапияси шаклида амалга оширилади.

Механизм ишлаши учун профилактика субъектлари фаолияти қуйидаги индикаторлар билан баҳоланади:

1. Тузилган шартномалар сони ва уларнинг муваффақиятли якунланиши (ремиссия даражаси).

2. Шартнома имзолаган шахслар орасида такрорий ҳуқуқбузарликларнинг камайиши.

Хулоса қилиб айтганда, ушбу механизмнинг миллий хусусияти шундаки, биз шахсни фақат тиббий муассасага топшириб қўймаймиз (Португалиядаги каби), балки уни маҳалланинг ижтимоий экотизими ичида «ижтимоий реабилитация шартномаси» орқали назоратли соғломлаштирамиз. Бу Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 3 ноябрдаги «Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланмасига қарши курашиш

ҳамда уларнинг тарқалишини олдини олишнинг комплекс чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-207-сонли Фармони[1]даги «аҳоли саломатлигини ва миллат генофондини ҳимоя қилиш» мақсадига тўлиқ мос келади.

2. Туркиянинг «En İyi Narkotik Polisi Anne» лойиҳаси моделини Ўзбекистонда маҳаллалардаги хотин-қизлар фаоллари билан ҳамкорликда **«Оила — гиёҳвандликка қарши қалқон»** миллий дастури сифатида жорий этиш.

3. Қозоғистон ва Россия тажрибасидан келиб чиқиб, ИИВ тизимида Интернетдаги нарко-рекламаларни ва Telegram-ботларни (масалан, «Chupa-chups», «Tesla Shop») автоматик аниқловчи ва блоклаш сўровини юборувчи **«AI-Narko-Monitor»** дастурий мажмуасини яратиш.

Сингапур модели асосида «Маҳалла еттилиги» фаолиятини баҳолашда **«ижтимоий реинтеграция индекси»ни** жорий этиш. Бунда ҳудуддаги риск-гуруҳига кирувчи шахсларнинг неча фоизи ижтимоий фойдали меҳнатга жалб этилгани асосий индикатор бўлиши лозим.

ГИЁҲВАНДЛИК ВОСИТАЛАРИ ВА ПСИХОТРОП МОДДАЛАРНИНГ НОҚОНУНИЙ МУОМАЛАСИГА ҚАРШИ КУРАШИШ СОҲАСИДА КОРРУПЦИЯ: КРИМИНОЛОГИК ВА ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ

Нурмуҳаммедова Гўзалхон Баҳодировна
Жиноий-ҳуқуқий фанлар кафедраси доценти, ю.ф.д. (DSc), доцент

Ҳозирги глобаллашув шароитида гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний муомаласи инсоният хавфсизлигига таҳдид солаётган энг жиддий трансмиллий жиноят турларидан бири сифатида намоён бўлмоқда. Мазкур иллат нафақат жамоат саломатлигига, балки давлатларнинг иқтисодий барқарорлигига, ҳуқуқий тизимига ва миллий хавфсизлигига ҳам салбий таъсир кўрсатади. Шу билан бирга, ушбу соҳада коррупция омилларининг мавжудлиги гиёҳвандликка қарши курашиш самарадорлигини сезиларли даражада пасайтиради ва жиноий фаолиятнинг кенгайишига хизмат қилади.

Криминологик тадқиқотлар шуни кўрсатмоқдаки, гиёҳвандлик воситаларининг ноқонуний муомаласи ва коррупция ўртасида мустаҳкам ўзаро боғлиқлик шаклланган бўлиб, у уюшган жиноятчиликнинг ривожланишига замин яратади. Наркобизнесдан олинадиган улкан даромадлар давлат

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 3 ноябрдаги «Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланмасига қарши курашиш ҳамда уларнинг тарқалишини олдини олишнинг комплекс чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-207-сонли Фармони // https://lex.uz/docs/7818774.

хизматчилари ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ходимларини коррупцион муносабатларга жалб қилиш хавфини оширади. Бу эса, ўз навбатида, жиноятчиларнинг жазодан қочиб қолишига, жамоатчиликнинг давлат институтларига бўлган ишончининг пасайишига олиб келади.

Гиёҳванд моддалар савдоси ва коррупция ўртасидаги боғлиқлик кўплаб соҳаларда – сиёсий, одил судлов ва хусусий секторда, шунингдек мулкни ўзлаштириш ва даромадларни легаллаштиришда яққол намоён бўлади. Гиёҳванд моддалар савдоси ва коррупция ўртасидаги муносабатлар халқаро ҳамжамият томонидан ҳам тан олинган. Халқаро наркотиклар назорат Кенгаши “ҳеч нарса гиёҳванд моддалар савдосига қарши курашиш саъй-ҳаракатларига уюшган жиноий гуруҳлар томонидан давлат мансабдор шахсларини пора эвазига оғдириб олишдек тўсқинлик қилмайди”[1], - дея алоҳида таъкидлаб ўтган.

Энгачинарлиси, гиёҳвандлик оғир жиноятларнинг содир этилишига, оилалар ва миллат генофондининг бузилишига сабаб бўлмоқда. Статистик маълумотларга кўра дунёда 500 миллиондан ортиқ одам гиёҳвандлик дардига йўлиққан. Унинг аксарият қисмини 30 ёшгача бўлганлар ташкил этмоқда. Бунинг оқибатида ҳар йили 200 мингдан ортиқ киши ҳаётдан кўз юмади. Шу билан бирга, жаҳонда содир этилаётган жиноятларнинг 57 фоизи гиёҳвандлар ҳиссасига тўғри келади[3].

Ушбу соҳадаги коррупциянинг юқори ижтимоий хавфлилиги гиёҳванд моддаларнинг ноқонуний фаолияти билан шуғулланувчи барча ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг обрўсизланиши билан изоҳланади. Ушбу соҳадаги коррупция нафақат гиёҳванд моддалар савдоси ташкилотчиларининг жазосизлигига, балки жамоатчиликнинг ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларига ишончсизлигини шакллантиришга олиб келади[4].

Халқаро ҳисоботларда "гиёҳвандлик коррупцияси" (наркокоррупция) деб аталадиган бугунги кунда шаклланган гиёҳвандлик ва коррупция ўртасидаги барқарор боғлиқлик уюшган гуруҳларга ноқонуний фаолиятини кучайтиришга, ўз бизнесини ҳокимиятга минимал эътибор билан олиб боришга ва яширин гиёҳванд моддалар бозоридан максимал даромад олишга имкон бермоқда. Шу билан бирга, бу иллат мамлакатимиздаги криминоген вазиятни оғирлаштиради, жиноятчиликни негизларини яратилишига, бунинг натижасида эса жиноятчилик, айниқса уюшган шакллари илдиз отишига олиб келади[5].

Таҳлилнинг дастлабки босқичида юқорида қайд этилган уч атама мазмунига оид назарий ёндашувларни кўриб чиқиш мақсадга мувофиқ. Аввало, жиноий-ҳуқуқий атамаларнинг расмий манбаи сифатида Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси эътироф этилишини инобатга олган ҳолда таъкидлаш жоизки, мазкур кодекснинг “Атамалар” деб номланган саккизинчи

бўлимида “коррупция”, “уюшган жиноятчилик” ҳамда “наркобизнес” тушунчаларига нисбатан расмий таърифлар белгиланмаган.

Шу билан бирга, Ўзбекистон Республикасининг 1999 йил 19 августда қабул қилинган “Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида”ги Қонунида “наркобизнес” атамасига бевосита таъриф берилмаган бўлса-да, ушбу соҳадаги ҳуқуқий муносабатларни ифодаловчи тушунчалар мазмуни очиб берилган. Хусусан, мазкур қонунда гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалар ва прекурсорларнинг муомалада бўлиши деганда уларни олиб кириш ёки олиб чиқиш, транзит тарзида ўтказиш, сақлаш, бериш, реализация қилиш, тақсимлаш, олиш, ташиш, жўнатиш, ишлаб чиқиш, ишлаб чиқариш, тайёрлаш, фойдаланиш, йўқ қилиш, шунингдек таркибида гиёҳвандлик моддаси мавжуд бўлган ўсимликларни етиштириш каби ҳаракатлар мажмуи тушунилади[6].

Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 3 январдаги “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Қонунида эса, “коррупция” атамасига қуйидагича таъриф берилган “**коррупция** — шахснинг ўз мансаб ёки хизмат мавқеидан шахсий манфаатларини ёхуд ўзга шахсларнинг манфаатларини кўзлаб моддий ёки номоддий наф олиш мақсадида қонунга хилоф равишда фойдаланиши, худди шунингдек бундай нафни қонунга хилоф равишда тақдим этиш”[7]. Мазкур Қонунда ва Жиноят кодексида коррупция билан боғлиқ жиноятларнинг аниқ рўйхати берилмаган бўлсада, Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 31 декабрдаги 829-сонли “Коррупцияга оид ҳуқуқбузарлик ҳақида хабар берган ёки коррупцияга қарши курашишга бошқа тарзда кўмаклашган шахсларни рағбатлантириш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги Қарори билан тасдиқланган Низомда коррупцияга оид жиноятлар санаб ўтилган.

БМТнинг 2000 йил 15 ноябрдаги “Трансмиллий уюшган жиноятчиликка қарши” Конвенциясида ҳам айнан “уюшган жиноятчилик”ка таъриф берилмаган бўлса, бироқ “уюшган жиноий гуруҳ” атамасига таъриф берилганлигини кўрамиз, яъни “маълум вақт давомида мавжуд бўлган ва бир ёки бир нечта оғир жиноятларни ёки ушбу Конвенцияга мувофиқ деб топилган ҳуқуқбузарликларни содир этиш, бевосита ёки билвосита, молиявий ёки бошқа моддий манфаат олиш мақсадида биргаликда ҳаракат қиладиган уч ёки ундан ортиқ шахслардан иборат тузилган гуруҳ”[8].

Гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалар ва уларнинг аналоглари савдоси биринчидан ўзининг моддий жиҳатдан юқори даромадлилиги, “пуллар оқими”нинг натижаси бўлганлиги сабабли ғаразгўй “давлат хизматчилари”нинг даромад манбаи бўлишга улгурган.

Ҳеч кимга сир эмаски, уюшган жиноятчилик ва гиёҳванд моддалар савдоси давлат сектори томонидан қўллаб-қувватланмасдан содир этилиши мумкин эмас, бу уларнинг асосий элементи ҳисобланади. Ўтказилган тадқиқотлар шуни

кўрсатдики, Россияда гиёҳвандлик бизнесидан олинган пуллар гиёҳванд моддаларининг ноқонуний савдоси билан шуғулланувчи гуруҳлар томонидан: давлат амалдорларини пора эвазига оғдириб олиш; банк секторига; қурол, ўқ-дорилар сотиб олиш; сиёсий кампанияларни ташкил қилиш – сайлов ва референдумлардаги лоббизм; сохта юридик шахсларни (гиёҳванд моддаларни кейинчалик легаллаштириш мақсадида) ташкил этишга йўналтирилар экан[9].

Уюшган жиноятчилик, коррупция ва гиёҳванд моддалар савдоси муаммолари, уларнинг ўзаро боғлиқлиги – ижтимоий, сиёсий, илмий жиҳатдан мутлақо ноанъанавийдир. Инсоният илгари бундай муаммоларни ҳал қилишга дуч келмаган.

Пора олиш орқали амалдорлар нафақат ўзларини, балки жамиятининг гиёҳвандлик ва корупцияга қарши курашиш учун қилинаётган барча саъй-ҳаракатларни барбод қилишмоқда. Коррупция орқали жиноятчилар жавобгарликдан қутулиб қолишга интилишади. Гиёҳванд воситаларнинг савдосидан ушган фойданинг бир қисми порахўрлик ва керакли маълумотларни олишга сарфланади, ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ва давлат идораларида порахўр амалдорларга сарфланади. Амалдорлар учун эса, коррупиялашганликнинг ортиш омилларидан бири бу гиёҳванд моддалар савдосидан тушган даромаднинг бир қисмини олиш имкониятидир.

Таҳлиллдарга кўра, айнан гиёҳвандликка қарши курашда иштирок этган ҳуқуқ-тартибот идоралари ходимларининг коррупцияга мойиллиги юқорироқ экан.

Масалан, Марказий Американинг айрим мамлакатларида гиёҳванд моддалар билан боғлиқ коррупция юқори мартабали амалдорлар, шу жумладан наркотикларга қарши кураш идоралари раҳбарлари орасида қайд этилган. 2008 йилда Мексика ҳукумати томонидан “Тоза қўллар” операцияси доирасида.

Натижада федерал полициянинг вақтинчалик раҳбари ва гиёҳванд моддаларни назорат қилиш бўйича тезкор бўлим бошлиғи вазифасини бажарувчи ҳибсга олинган ва судланган.

Е.Э.Ганаева таҳлиллар асосида гиёванд моддаларнинг қонунга хилоф муомаласига қарши курашиш соҳадаги коррупция типологияси қуйидагича таснифлаган:

- гиёҳванд моддалар савдоси билан боғлиқ порахўрлик;

- коррупцион гиёҳвандлик жинояти (гиёҳванд моддалар савдосида ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ходимларининг иштироки);

- гиёҳвандлик жиноятларида коррупцион воситачилик[4].

Умуман олганда, гиёҳванд моддалар контрабандасига қарши курашиш соҳасидаги коррупция сабабларининг ўзига хос хусусиятлари ва унинг пайдо бўлиши ва тарқалишига қуйидаги шароит (омиллар) сабаб бўлиши мумкин:

- ижтимоий-иқтисодий омиллар орасида асосийси уюшган гиёҳвандлик бизнеси вакилларининг юқори коррупция босими бўлиб, гиёвандлик савдосидан олинадиган даромад давлатнинг гиёҳвандликка қарши курашиш билан шуғулланадиган ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ходимларини ижтимоий-иқтисодий таъминлаш учун молиявий имкониятларидан анча юқорилиги;

- ташкилий ва бошқарув омиллар – бу, биринчи навбатда, гиёҳванд моддалар савдосига қарши курашиш билан шуғулланадиган ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари учун кадрлар танлашдаги камчиликлар;

- шахсий омиллар - ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ходимлари томонидан гиёҳванд моддаларни осон қўлга киритишини инобатга оладиган бўлсак, улар томонидан гиёҳванд моддаларни истеъмол қилишга жалб қилишнинг осонлиги;

- ҳуқуқий омиллар қаторига - гиёҳванд моддалар контрабандасини тартибга солувчи ва ноқонуний айланишига қарши курашувчи амалдаги қонун ҳужжатларининг ҳамда коррупцияга қарши курашишга қаратилган қонун ҳужжатларидаги айрим камчиликлар.

Хулоса ўрнида, гиёҳвандликка қарши курашда муҳим омиллардан бири бу коррупцион даромадларни легаллаштиришнинг олдини олишдир. Бунинг учун қуйидаги чора-тадбирларни амалга ошириш мақсага муофиқ:

Биринчидан, ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларида коррупциянинг олдини олиш юзасидан чора-тадбирлар:

- кадрларни ишга олиш, касбий тайёрлаш ва хизмат жараёнида рағбатлантириш, лавозим пиллапояларида кўтарилишда очиқ танлов;

- моддий-техник таъминот билан таъминланиш даражасининг етарлилиги;

- ходимларнинг иш ҳақи ва рағбатлантириш масалалари бўйича аниқлаштирилган схема жорий этиш;

- соҳани бошқариш ва ҳисобдорлик механизмларини такомиллаштириш;

- тизимнинг очиқлик ва шаффофлик даражасини ошириш бўйича чоралар кўриш;

- ходимлар онгида коррупцияга нисбатан муросасизликни сингдириш бўйича чора-табирларни ооширш;

- порага “сотилмаслик” ва виждонлиликка доимий текшириш тадбирларини амалга ошиш;

- ички текширув механизмларини ошириш;

- мустақил жамоатчилик назоратини амалга ошириш;

- жавобгарликка тортишнинг самарадорлигига эришиш; обеспечение более надежной защиты информаторов (осведомителей) и свидетелей

- хабар берувчилар ва гувоҳларнинг ҳақиқий ҳимояланганлигини таъминлашга доир чора-тадбирлани кўриш.

Иккинчидан, манфаатлар тўқнашувини, шунингдек, хизмат ваколарлари билан боғлиқ бўлмаган фаолият билан шуғулланиш даражасини текшириш; активларни, моддий манфаатларни ва қабул қилинган совғаларни декларация қилиш ва рўйхатдан ўтказишнинг аниқ тартибини жорий этиш;

Учинчидан, халқаро ва минтақавий ҳамкорликни янада такомиллаштириш; тегишли ҳуқуқни муҳофаза қилиш ва жиноий адлия органларининг бир-бири билан ўзаро ҳамкорлигини, айниқса гиёҳванд моддалар савдоси билан боғлиқ порахўрлик ва қўрқитиш ҳолатларининг олдини олиш ва йўқ қилиш борасида ўзаро ҳамкорлигини янада кучайтириш бўйича аниқ чора-тадбирларни ўз ичига олган йўл харитасини ишлаб чиқиш.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Наркотики и коррупция: первая глава Доклада Международного комитета по контролю над наркотиками (МККН) за 2010год //Наркоконтроль. 2011. № 2. — С. 29.

2. Қаранг: Ахмедов А. 26 июнь –халқаро гиёҳвандликка қарши кураш куни. // Адлия вазирлиги “Адолат” миллиё ҳуқуқий ахборот маркази / info-adolatmarkazi/uz

3. Ганаева Е. Э. Коррупция в сфере противодействия незаконному обороту наркотиков: криминологические и уголовно-правовые аспекты / Е. Э. Ганаева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2015. — № 24 (104). — С. 728-730. — URL: https://moluch.ru/archive/104/24627/

4. Матѐзов Ш. О. Ўзбекистон Республикасининг “Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида”ги қонунининг ёшлар орасида гиёҳвандлик воситаларининг тарқалишига қарши курашдаги ўрни.-Ўзбекистон ички ишлар органлари тизимида амалга оширилаётган маъмурий-хуқуқий ислоҳотлар: Республика илмий-амалий конференция материаллари.-Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2020.

5. Ўзбекистон Республикасининг 1999 йил 19 августаги “Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида”ги Қонуни, 3-моддаси // *Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон*; 02.06.2022 й., 03/22/774/0467-сон

6. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 3 январдаги “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги, 3-моддаси // *Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 19.11.2021 й., 03/21/729/1064-сон; 09.08.2023 й., 03/23/860/0571-сон*

7. Конвенция “Организации объединенных наций против транснациональной организованной преступности” Нью-Йорк, 15 ноября 2000 года. // https://lex.uz/docs/1304112

8. Болотский Б.С., Волеводз А.Г., Воронова Е.В., Калачев Б.Ф. Борьба с отмыванием доходов от индустрии наркобизнеса в странах Содружества. М., 2001. С. 13.
9. Гуров А.И. Красная мафия. М., 1995.

АХБОРОТ МАКОНИДА ГИЁҲВАНД МОДДАЛАР ТАРҒИБОТИ ТУШУНЧАСИ

Х.Қ.Бексариев
Махсус ҳуқуқий фанлар ва ҳарбий дипломатия кафедраси бошлиғининг ўринбосари, доцент

Замонавий глобаллашув шароитида ахборот макони жамият ҳаётининг барча соҳаларига чуқур кириб борди ва инсон онги, дунёқараши ҳамда хулқ-атворига бевосита таъсир кўрсатувчи муҳим омилга айланди. Айниқса, интернет тармоқлари, ижтимоий платформалар ва рақамли медианинг жадал ривожланиши ахборот алмашинувини тезлаштириш билан бирга, турли салбий контентларнинг ҳам кенг тарқалишига замин яратмоқда. Шулар қаторида гийоҳванд моддаларни тарғиб қилиш, уларни оммалаштириш ва истеъмол қилишга қизиқиш уйғотишга қаратилган ахборотлар алоҳида хавф туғдирмоқда. Ахборот маконида гийоҳванд моддалар тарғиботи тушунчаси нафақат тўғридан-тўғри реклама ёки очиқ тарғиб, балки билвосита таъсир кўрсатувчи шаклларни ҳам ўз ичига олади. Масалан, кино, мусиқа, блогерлик фаолияти ёки ижтимоий тармоқлардаги контент орқали гийоҳванд моддаларни “оддий”, “замонавий” ёки “жозибадор” ҳаёт тарзининг бир қисми сифатида кўрсатиш ҳолатлари кенг учрамоқда. Бу эса, айниқса, ёшлар онгига салбий таъсир кўрсатиб, уларда хавфли иллатларга нисбатан нотўғри тасаввур шаклланишига олиб келиши мумкин.

Шу нуқтаи назардан, ахборот маконида гийоҳванд моддалар тарғиботи тушунчасини илмий жиҳатдан таҳлил қилиш, унинг шакллари, усуллари ва тарқалиш механизмларини ўрганиш долзарб аҳамият касб этади. Мазкур мақолада ушбу тушунчанинг мазмуни очиб берилиб, унинг жамият хавфсизлиги, айниқса ёш авлод тарбиясига таъсири илмий-назарий жиҳатдан таҳлил қилинади.

XX аср ахборот инқилоблари даври сифатида соҳасида юз берган икки йирик инқилоб билан характерланган бўлиб, улар бутун дунёдаги ижтимоий ва иқтисодий муносабатларга катта таъсир кўрсатган. Асрнинг ўрталарида телевидения ва электрон ҳисоблаш техникаси яратилди. 1980-йилларда эса глобал компютер тармоқлари пайдо бўлди. Алоқа воситалари ва электрон техника тараққиёти дастлаб телевидениянинг вужудга келишига олиб келди. Бу технология тасвирни масофага узатиш имконини берди. Деярли шу даврда инсон

ўзининг кўп асрлик орзусини рўёбга чиқарди - ҳисоб-китоб ишларини ўрнига машина бажарадиган бўлди.

Ушбу ихтиролар ахборотни яратиш ва қайта ишлаш жараёнларининг тезкорлигини ва самарадорлигини кескин оширди, шу билан бирга ахборот ҳажми ҳам бир неча баробарга кўпайди. Бутунжаҳон компютер тармоқларининг пайдо бўлиши ахборот тарқатишдаги чегараларни йўққа чиқарди, унинг миқдорини оширди ҳамда ҳар бир инсон учун оммабоп ва осон етиб борувчи қилиб қўйди.

Ахборот кундалик ҳаётимизда озиқ-овқат сингари истеъмол қилинадиган оммавий товарга айланди, ҳатто биз бундан хабардор ҳам бўлмай қоламиз.

Бироқ, юз берган ахборот инқилоблари фақат ижобий оқибатларга эга бўлиб қолмади. Электрон техника ва алоқа воситалари орқали оммавий онгга ва ҳатто алоҳида шахсларга таъсир ўтказиш технологиялари пайдо бўлди. Масалан, телевизион реклама ва интернет мамлакатимиз аҳолисининг оммавий онгига таъсир қилиб, гиёҳванд моддаларга оид субмаданиятлар ва “мода”нинг шаклланишига туртки бера бошлади.

Айрим дастурлар инсон онгига кучли таъсир ўтказиб, шахсни “зомби” сингари идора қилинадиган ҳолатга келтириши ва турли салбий одатларни шакллантириши мумкин. Масалан, пивога оид таъқиб қилувчи рекламалар бу ичимлик истеъмолининг кескин ўсишига сабаб бўлган.

Ҳозирги кунда интернет орқали наркоагрессия (яъни наркотиклар тарғиботи ва унинг маданий кўринишлари) янада авж олмоқда.

Бугунги кунда интернет ахборот тарқатишнинг энг оммавий ва таъсирчан воситаларидан бири сифатида, гиёҳванд моддалар билан боғлиқ таҳдидларнинг ҳам асосий манбаига айланмоқда. Интернетдаги бундай сайтлар тарғибот, ахборот тарқатиш ва алоқа воситаси сифатида гиёҳванд моддалар тарқалишига хизмат қилмоқда. Буларни шартли равишда қуйидаги уч гуруҳга ажратиш мумкин:

1. Тўғридан-тўғри гиёҳванд моддаларни тарғиб қилувчи сайтлар - бундай сайтлар гиёҳвандлик воситаларни очиқдан-очиқ реклама қилади. Улар орқали моддаларнинг турлари, таъсири, нархи ва харид қилиш усуллари ҳақида маълумотлар берилади. Ўзбекистон Республикаси Давлат хавфсизлик хизмати ва Ички ишлар вазирлиги томонидан бундай сайтларга қарши кураш тизимли олиб борилади. Суд қароридан сўнг сайт ёпилади, ускуналар мусодара қилинади, жарималар қўлланилади. Бироқ, наркомафиянинг катта молиявий имкониятлари сабабли, бундай сайтлар қисқа вақт ичида бошқа ном ва кўринишда қайта фаолият бошлайди.

2. Билвосита гиёҳвандлик моддаларни тарғиб этувчи сайтлар гиёҳванд моддаларни тўғридан-тўғри реклама қилмаган ҳолда, уларни тайёрлаш, сақлаш,

истеъмол қилиш, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлардан қандай яшириш ҳақида маслаҳатлар беради. Шунингдек, гиёҳвандлик мавзусини мода, эркинлик, ижодийлик тимсоли сифатида тасвирлаш, каннабис сурати туширилган товарларни (футболка, телефон аксессуари, зажигалка ва ҳ.к.) тарғиб қилиш орқали ёшлар онгига салбий таъсир кўрсатилади. Мутахассислар таҳлилларига кўра, бу турдаги сайтлар сони 700 дан ортиқни ташкил этади.

3. Ахборот алмашинуви ва форумлар орқали тарқатиладиган сайтлар кўпинча интернет-форум, чат ёки ижтимоий платформа кўринишида бўлиб, уларда фойдаланувчилар ўзаро ахборот алмашади. Гиёҳвандлик воситаларга оид саволларга жавоблар жуда тез берилади: масалан, “Қаердан гиёҳванд модда сотиб олиш мумкин?” каби сўровларга 5 дақиқа ичида ҳавола (силка) юборилиши мумкин. Бу сайтлар ташқи кўринишда қонунбузарлик аломатларига эга бўлмаслиги туфайли, уларни аниқлаш ва назорат қилиш анча мураккаб.

Интернет тармоғида гиёҳванд моддаларга доир сайтларни шартли равишда уч гуруҳга ажратиш мумкин.

Биринчи гуруҳ – бевосита гиёҳванд моддаларни тарғиб қилувчи сайтлар. кўп эмас ва уларга қарши Ўзбекистон Республикаси Давлат хавфсизлик хизмати (ДХХ) ҳамда Ички ишлар вазирлиги (ИИВ) томонидан фаол кураш олиб борилади. Бундай сайтларни ёпиш, назарий жиҳатдан, осон вазифа саналади. Бироқ бу ерда қийинчилик шундаки: ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар гиёҳванд моддаларнинг реклама қилинганини қайд этади, аммо ушбу ахборот наркотик тарғиботи ҳисобланиш-ҳисобланмаслиги бўйича якуний хулоса бериш лингвист, психолог ва санъатшунос каби мутахассис-экспертлар ваколатига киради. Сайтни ёпиш, у билан боғлиқ маъмурий чоралар кўриш (одатда, ускуналарни мусодара қилиш ва жарима солиш) тўғрисида қарор суд томонидан қабул қилинади.

Бироқ бу жараён маълум вақтни талаб қилади, айрим ҳолларда бир неча ойгача чўзилиши мумкин. Шу вақт ичида сайт ёпилган бўлса ҳам, унинг эгалари кейинги куниёқ сайтни бошқа ном билан, интерфейси ёки мазмунини камроқ ўзгартирган ҳолда, ҳатто баъзан умуман ўзгартирмасдан ҳам қайта очиб юборишади. Бунинг асосий сабаби гиёҳванд моддалар савдосидан тушадиган даромадлар жуда катта бўлиб, жарима ёки ускуналарни йўқотиш наркомафия учун жуда кичик, аҳамиятсиз йўқотиш ҳисобланади. Шунинг учун сайт фаолиятини қайта тиклаш улар учун қийинчилик туғдирмайди.

Иккинчи гуруҳ – гиёҳванд моддаларни очиқ тарғиб этмайдиган, бироқ уларни тайёрлаш усуллари, ноанъанавий тарғиб, фойдаланувчилар ва кичик наркодилерлар учун маслаҳатлар берувчи сайтлар. Гиёҳванд моддалар билан ноқонуний шуғулланган шахслар (наркомафия) доимий равишда ёшларни гиёҳванд моддалар истеъмолчисига айлантириш мақсадида жозибадор, агрессив

рекламага муҳтож. Бундай сайтларда марихуана ёки каннабис сурати туширилган футболкалар, мобил телефонлар ва бошқа атрибутларни реклама қилиш орқали наркотик моддалар “мода”, “қизиқарли”, “замонавий” маҳсулот сифатида кўрсатилади.

Экспертларнинг ҳисоб-китобига кўра, интернетда 700 дан ортиқ сайт мавжуд бўлиб, улар гиёҳванд моддаларни тўғридан-тўғри ёки билвосита тарғиб қилади. Бундай сайтларда наркотик моддаларни қандай яшириш, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар билан тўқнаш келганда қандай хатти-ҳаракат қилиш, гиёҳванд модда қаердан ва қандай харид қилиш мумкинлиги ҳақида тавсиялар берилади.

Учинчи гуруҳ – гиёҳванд моддаларни тарғиб этмайдиган, аммо форумлар, мулоқот майдонлари кўринишидаги сайтлардан иборат. Уларда турли шахслар ўзаро ахборот алмашади. Бундай сайтни интернетни озроқ тушунадиган ҳар қандай инсон бир дақиқада топа олади. Форумда “гиёҳванд моддани қаердан сотиб олиш мумкин?” деган сўров қолдиришнинг ўзи кифоя, 5 дақиқа ичида жавобда манзил кўрсатилган ҳавола (ссилка) билан ёзилади.

Янги наркокултура ва интернет орқали тарқалувчи наркоагрессия муаммоси. У бир томондан - виртуал технологияларга муҳаббатни, иккинчи томондан - наркотик моддаларга асосланган ҳаёт тарзини ўз ичига олади. Бу мақсадда интернетда юзлаб серверлар ташкил этилган бўлиб, уларда наркотик моддалар истеъмолчилари ўзаро “ижобий” тажриба алмашадилар муайян турдаги моддани қандай тўғри истеъмол қилиш ҳақида тавсиялар беришади.

Бундай сайтларда наркотикларни қандай тайёрлаш, қандай усулларда танга киритиш, дозаси, турли психоактив моддаларни ўзаро қўшиб қабул қилиш каби маълумотлар берилади. Эътибор, асосан, “ҳеч қандай кўникма ҳосил қилмайди” деб таърифланадиган енгил наркотикларга қаратилади. Бироқ, бундай “енгил” моддалар орқали инсонни оғир наркотикларга ўтишга тайёрлаш жуда осон кечади.

Кўплаб сайтларда фақат наркотик таъсиридаги ўзгарган онг ҳолатини тавсифловчи адабиёт эмас, балки ана шундай моддаларни тайёрлаш бўйича аниқ, батафсил ва амалий қўлланмалар, “рецептлар” ҳам берилади. Улар техник жиҳатдан мукаммал тайёрланган ва фойдаланиш учун қулай.

Бу ҳолатдан келиб чиқиб, интернет орқали наркоагрессиянинг кенг тарқалишига қарши самарали курашишга тўсқинлик қилаётган қатор муаммоларни кўрсатиб ўтиш зарур:

1. Интернет тармоғида тарқатилаётган маълумотлар оқимини тўлиқ назорат қилиш деярли мумкин эмас. Агар инсон маълум бир вақт ва сай-ҳаракатни ахборот излашга бағишласа, у албатта керакли (ёки ноқонуний)

маълумотни топади. Интернетнинг очиқлиги ва ҳар томонлама фойдаланиш имкони бу борада катта муаммога айланган.

2. Интернетда шахсий маълумотларни яшириш, яъни анонимликни таъминлаш осон. Шу билан бирга, сайтлар физик жиҳатдан Ўзбекистон ҳудудидан ташқарида жойлашган бўлиши мумкин. Айрим давлатларда интернет орқали гиёҳванд моддаларни тарғиб қилиш қонун билан тақиқланмаган, шу боис чет эл ҳукуматлари кўп ҳолларда гиёҳвандлик моддаларини бошқа тил ва турли белгилар орқалирасмийлаштирилган сайтларни кузатмайди.

Почтада гиёҳванд моддалар, терроризм ёки жиноятга оид код сўзлар аниқланса, хатлар тўхтатилиши, блокланиши мумкин. Чет элда жойлашган серверларда эса бундай назорат амалга оширишнинг имкони йўқ, қолаверса, бундай серверларга эгалик қилувчи давлатлар турли тўсиғи сабабли ушбу серверларни таҳлил қилиш имкони мавжуд эмас. Айрим ҳолларда бундай сайтлар жойлашган мамлакатларда улар ҳатто ноқонуний деб ҳисобланмайди.

3. Интернет орқали наркотик моддаларни реализатсия қилиш жараёнида сотувчи ва харидор ўртасида очиқ алоқа юз бермайди, яъни, шахсан учрашиш, телефон орқали мулоқот қилиш, курер юбориш каби анъанавий алоқалар бутунлай йўқ. Буюртма берувчи тўловни виртуал пул тизимлари орқали амалга оширади, моддани эса маълум жойдан олади. Бу каби тўлов тизимлари ҳам чет элларда жойлашгани боис, уларни назорат қилиш, ҳисобларни музлатиш ёки пул ўтказмаларини тўхтатиш амалда имкони бўлмайди.

Интернетдаги наркокултура ва наркоагрессиянинг янги шакллари ахборот технологиялари воситасида жамият ва айниқса ёшлар онгига жуда таъсирчан ва хавфли шаклда таъсир кўрсатмоқда. Бу борада самарали кураш олиб бориш учун ҳуқуқий, ахборот-техник ва экспертлараро ҳамкорлик асосида ҳар томонлама комплекс ёндашув зарур.

Ахборот маконида гийоҳванд моддалар тарғиботи замонавий жамият учун жиддий ижтимоий ва ахлоқий таҳдидлардан бири ҳисобланади. У нафақат очиқ шаклда, балки билвосита усуллар орқали ҳам амалга оширилиб, инсон онгига секин-аста таъсир кўрсатади. Айниқса, ёшлар орасида ахборотни танқидий қабул қилиш кўникмаларининг етарли даражада шаклланмаганлиги бундай тарғиботнинг самарадорлигини оширади ва салбий оқибатларга олиб келиши мумкин.

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, гийоҳванд моддалар тарғиботи ахборот маконида турли кўринишларда намоён бўлиб, унинг олдини олиш фақат ҳуқуқий чоралар билан чекланиб қолмаслиги лозим. Бу жараёнга комплекс ёндашув талаб этилади: ҳуқуқий тартибга солишни кучайтириш, профилактик тадбирларни кенгайтириш, оммавий ахборот воситалари ва ижтимоий тармоқларда ижобий

контент улушини ошириш, шунингдек, аҳолининг, айниқса ёшларнинг ахборот маданияти ва медиасаводхонлигини ривожлантириш муҳим аҳамиятга эга.

Шунингдек, таълим муассасалари, оила ва жамоатчиликнинг ўзаро ҳамкорлиги асосида барқарор профилактика тизимини шакллантириш зарур. Фақат шундагина ахборот маконидаги салбий таъсирларни камайтириш, гийоҳвандликка қарши самарали курашиш ва соғлом жамиятни таъминлаш мумкин бўлади.

Адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент, 2023. https://lex.uz/docs/-6445145

2. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 19.08.1999 йилдаги “Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида”ги 813-II-сон Қонуни. https://lex.uz/ru/docs/-86044

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 29.11.2021 йилдаги ПФ-27-сон “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги консепсиясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. https://lex.uz/docs/5749291

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 06.05.2024 йилдаги ПФ-73-сон “Оъзбекистон Республикасида гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланмасига чек қоъйиш орқали уларнинг аҳоли саломатлиги ва мамлакатимиз генофондига салбий таъсирини бартараф етиш стратегик чора-тадбирлари тоъғрисида”ги Фармони. https://lex.uz/docs/6912475

ЁШЛАР ЎРТАСИДА ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРНИ КЕЛТИРИБ ЧИҚАРУВЧИ ОМИЛЛАР: ДЕТЕРМИНАНТ ВА РИСК ФАКТОРЛАРИНИНГ ЎЗАРО БОҒЛИҚЛИГИ

Хурсандов Алишер Суюнович,
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети
мустақил изланувчиси, с.ф.ф.д., доцент

Глобаллашув ва рақамли трансформация шароитида ёшлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фақат ҳуқуқий эмас, балки миллий хавфсизлик нуқтаи назаридан ҳам стратегик аҳамият касб этмоқда. Президент *Ш.М.Мирзиёев*[1] таъкидлаганидек, ёшларнинг онги ва қалбини ёт ғоялардан ҳимоя қилиш, соғлом турмуш тарзини қарор топтириш давлат учун энг муҳим

[1] *Мирзиёев Ш.М.* “2021 йил мамлакатимизда Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили’ деб эълон қилинди” (Олий Мажлисга ва Ўзбекистон халқига Мурожаатнома доирасида, 29.12.2020) // Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти. — Электрон манба.

вазифалардан биридир. Шу боис ёшлар жиноятчилигига қарши курашиш оқибатни бартараф этиш билан чекланмасдан, уни келтириб чиқарувчи тизимли омиллар (детерминантлар) ва риск факторларини илмий асосда аниқлашни талаб қилади.

Шу ўринда, хорижий олимлардан *У.Бронфенбреннер* фикрига кўра, инсон ривожланишини шахснинг ўзи яшаётган муҳит билан динамик муносабати сифатида белгилаб, тизимлар ўртасидаги ўзаро алоқаларни (мезотизим) ривожланиш учун ҳал қилувчи омил деб ҳисоблайди . Унинг қарашига кўра, ҳар бир бола камида битта унга содиқ бўлган ва унинг ривожланишига масъул катта ёшли шахсга (ҳимоя омили) муҳтождир[1]. Тизимли моделнинг криминологик жиҳатлари *Д.Фаррингтон* томонидан ишлаб чиқилган Интеграциялашган когнитив антисоциал потенциал (ICAP) назариясида ўз аксини топган. Олим жиноят содир этиш сабабларини ўрганишда иккита асосий саволни ўртага ташлайди: *“Нега одамлар ҳуқуқбузар бўлади?”* ва *“Нега улар айнан маълум бир вазиятда жиноят содир этади?”*. Олим узоқ муддатли антисоциал потенциални (моделлаштириш, ижтимоийлашув) ва қисқа муддатли потенциални (вазиятга боғлиқ мотивация) фарқлайди. Унинг тадқиқотларига кўра, паст академик ўзлаштириш ва оилавий низолар узоқ муддатли антисоциал потенциалнинг шаклланишига бевосита ҳисса қўшади[2].

Шунингдек, Ўзбекистонлик ҳуқуқшунос олимлар ёшлар жиноятчилиги детерминантларини миллий менталитет ва ижтимоий институционал назорат (оила, маҳалла) контекстида тадқиқ этганлар. Жумладан, *М.Х.Рустамбаев* ва *С.С.Ниёзова* оилавий муҳитнинг виктимологик таъсирини ўрганиб, оиладаги ижтимоий носоғлом муҳит, бола манфаатларига зид ҳаракатлар ва ота-онанинг эътиборсизлиги (neglect) шахсда ҳуқуққа хилоф хулқ-атворга мойилликни келтириб чиқарувчи бирламчи детерминант эканлигини таъкидлайдилар. Олимларнинг фикрича, оилавий зўравонлик боланинг ижтимоийлашув жараёнини бузиб, уни девиант траекторияга йўналтиради[3]. *Б.А.Миразов* эса ёшлар ҳуқуқбузарликларининг олдини олишда ижтимоий-психологик омиллар ва тарбиявий жараёндаги бўшлиқларни тизимли равишда таҳлил қилади. Унинг қарашига кўра, вояга етмаганларнинг қонуний вакиллари томонидан етарлича назорат қилинмаслиги ва жамоатчиликнинг эътиборсизлиги ҳуқуқбузарлик

[1] *Bronfenbrenner U.* The Ecology of Human Development. – Harvard University Press, 1979. – Б. 3, 9, 164.

[2] *Farrington D.P.* The Integrated Cognitive Antisocial Potential (ICAP) Theory // Integrated developmental and life-course theories of offending. – New Brunswick: Transaction, 2005. – Б. 73, 78.

[3] *Rustambayev M.X., Niyozova S.S.* Viktimologiya: Umumiy qism. Darslik. – Toshkent: JXU, 2021. – Б. 239.

содир этилишининг асосий шарт-шароитларидан биридир[1]. Бундан ташқари, *М.К.Ўразалиев* эса ҳуқуқбузарликларнинг келиб чиқишида вояга етмаганлар шахси шаклланишининг иккита механизмини фарқлайди: ташкилий ва давомли ижтимоий амалиётдир. Шунингдек, олимнинг хулосасига кўра, шахс шаклланишининг ғоят муҳим босқичида тарбия ва муайян ижтимоий муҳит таъсири детерминация жараёнида ҳал қилувчи роль ўйнайди[2].

Профилактиканинг самарали моделларини ишлаб чиқиш учун ҳуқуқбузарликни эрта бошлаганлар (12 ёшгача) ва девиант хулқ-атвори фақат ўсмирлик даврида намоён бўлганларни ажратиш жуда муҳимдир. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, эрта бошлаган (“early-onset”) ҳуқуқбузарларнинг катта ёшда сурункали жиноятчи бўлиш эҳтимоли анча юқори[3]. Шу билан бирга, ёшларнинг салмоқли қисми *(40 фоиздан 60 фоизгача)* катта ёшга етганда ҳуқуқбузарлик содир этишни тўхтатади, бу эса ижтимоий тизимга ўрнатилган дезистенция (жиноий фаолиятни тўхтатиш) омиллари мавжудлигини кўрсатади[4].

Тизимли моделнинг биринчи даражаси ҳуқуқбузарликларнинг ички детерминантлари бўлиб хизмат қилиши мумкин бўлган индивидуал хусусиятларга қаратилган. Бу омилларга генетик мойиллик, ривожланишнинг биологик хусусиятлари ва шахснинг психологик хусусиятлари киради.

Тизимли моделда оила хулқ-атвор асослари қўйиладиган энг муҳим микротизим сифатида қаралади. Оила билан боғлиқ детерминантларни таркибий *(оила таркиби, ҳажми)* ва функционал *(муносабатлар сифати, тарбия усуллари)* га бўлиш мумкин.

Тадқиқотлар оиладаги зиддиятлар ва дисфункцияни ёшлар делинвентлигининг асосий предикторлари сифатида доимий равишда аниқлайди[5]. Болаларга нисбатан шафқатсиз муомала, жисмоний ёки эмоционал зўравонлик, шунингдек, боланинг эҳтиёжларига эътибор бермаслик кейинчалик антисоциал хулқ-атворга айланадиган чуқур психологик жароҳатларни келтириб чиқаради. *Тревис Хиршининг* ижтимоий назорат назариясига кўра, ҳуқуқбузарликлар кўпинча ота-оналар билан кучли ижтимоий алоқаларни ўрната олмаслик натижасидир[6].

Оилавий рискнинг тизимли омилларига қуйидагилар киради:

---

[1] *Mirazov B.A.* Voyaga etmaganlar jinoyatchiligi determinantlari // Journal of Science-Innovative Research. – 2024. – Б. 88.

[2] **Ўразалиев М.К.** Вояга етмаганлар жиноятчилигининг сабаблари нимада? // ЎзА. – 2022. – 29 май.

[3] Gail A. Wasserman, Kate Keenan, Richard E. Tremblay, John D. Coie, Todd I. Herrenkohl, Rolf Loeber, and David Petechu “Risk and Protective Factors of Child Delinquency” // https://www.ojp.gov/pdffiles1/ojjdp/193409.pdf

[4] From Youth Justice Involvement to Young Adult Offending // ўшаа манбаа

[5] Youth Violence, Crime and Juvenile Justice // https://doi.org/10.3390/socsci12090474

[6] Ўша манбаа: https://www.mdpi.com/2076-0760/12/9/474

- *Ноадекват ёки изчил бўлмаган тарбия усуллари (ҳаддан ташқари қаттиққўллик ёки назоратнинг мутлақо йўқлиги).*
- *Ота-оналарда жиноий ўтмишнинг мавжудлиги ёки улар томонидан психоактив моддалар истеъмол қилиниши.*
- *Оилавий можаролар ва уйдаги зўравонликнинг юқори даражаси.*
- *Камбағаллик ва оиланинг паст ижтимоий-иқтисодий ҳолати*[1].

Ота-оналарнинг антисоциал хулқ-атвори ижтимоий ўрганиш механизмлари орқали бола учун намуна бўлиб хизмат қиладиган *"жиноий ворислик"* айниқса хавфли омил ҳисобланади. Бироқ, тизимли модель салбий таъсирни зарарсизлантиришга қодир бўлган муҳим ҳимоя омилларини ҳам ажратиб кўрсатади. Она ёки ота билан яқин эмоционал боғлиқлик, ота-оналар томонидан сифатли мониторинг ва авторитар (лекин адолатли) тарбия услуби жиноий фаолиятга жалб қилиниш эҳтимолини сезиларли даражада камайтиради[2].

Мактаб дефицити — ўқишга иштиёқнинг пастлиги, ўзлаштиришнинг ёмонлиги ва ўқитувчилар билан зиддиятлар — жиддий риск омили сифатида намоён бўлади. Мактаб нафақат таълим маркази, балки просоциал интеграция платформаси вазифасини ҳам бажаради. Мактабнинг ўқувчиларнинг академик ва ижтимоий-эмоционал эҳтиёжларини қондира олмаслиги уларнинг бегоналашишига ва антисоциал доиралардан тан олиниш излашига олиб келиши мумкин[3]. Аксинча, мактаб ҳаётига жалб қилинганлик ва педагоглар билан қўллаб-қувватловчи муносабатларнинг мавжудлиги кучли ҳимоя механизми бўлиб хизмат қилади[4].

Ёшлар жиноятчилигининг тизимли модели макро даражадаги омилларни ҳисобга олмасдан тўлиқ бўлмайди. Буларга ижтимоий-иқтисодий тенгсизлик, маданий қарашлар ва давлат институтлари ишининг сифати киради. Ёшлар муаммолари кўпинча кенг жамият инқирозларининг аксидир.

Иқтисодий беқарорлик, ишсизлик ва жиноятчилик даражаси юқори бўлган ноқулай ҳудудларда яшаш девиант хулқ-атвор қонуний имкониятлар йўқлигига мослашиш усулига айланадиган муҳитни яратади[5]. Жамиятнинг *ижтимоий дезорганизацияси* — ижтимоий институтлар *(маҳалла, клублар, маҳаллий*

[1] Global Health Services and Administration, The School of Business, University of Maryland Global Campus, Adelphi, MD 20774, USA

[2] Conceptualization, H.Z.; methodology, H.Z.; software, R.V.; validation, H.Z.; investigation, A.A., R.V. and A.N.P.; resources, A.A., R.V. and A.N.P.; writing—original draft preparation, A.A., R.V. and A.N.P.; writing—review and editing, A.A., R.V., A.N.P. and H.Z.; supervision, H.Z.; project administration, A.A.; funding acquisition, H.Z. All authors have read and agreed to the published version of the manuscript.

[3] https://www.researchgate.net/publication/228817298_Understanding_Young_Offenders-_Developmental_Criminology

[4] https://youth.gov/youth-topics/juvenile-justice/risk-and-protective-factors

[5] https://www.frontiersin.org/journals/psychology/articles/10.3389/fpsyg.2023.1177568/full

жамоалар) самарали назоратни таъминлай олмаса — ёшлар жиноятчилигининг ўсиши билан бевосита боғлиқ[1].

Маданий омиллар, *масалан,* ОАВда зўравонликни улуғлаш, *"пулга сиғиниш"* ва коррупция қадриятларининг тарқалиши ёшлар учун салбий намойиш эффектини яратади, уларнинг ҳаёт фалсафаси ва дунёқарашини бузади[2]. Бундай шароитда ёшларнинг ҳуқуқий онги цинизм ва қонунга ҳурматсизлик асосида шаклланади.

Ўзбекистон Республикаси контекстида ёшлар жиноятчилиги ва унинг профилактикаси миллий анъаналар, ҳуқуқий тизимни ислоҳ қилиш жараёни ва минтақанинг ижтимоий-демографик хусусиятлари билан боғлиқ ўзига хос детерминантларга эга. Тизимли таҳлил шуни кўрсатадики, сўнгги йилларда вояга етмаганлар ўртасида жиноятчиликнинг ўсиш динамикаси кузатилди, бу эса давлат томонидан шошилинч чоралар кўришни талаб қилди.

Ўзбекистон профилактика моделининг ўзига хос хусусиятларидан бири *"маҳалла"* институтидан тизимли назорат ва қўллаб-қувватлаш элементи сифатида фойдаланишдир. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, оиладаги анъанавий тарбия усуллари маҳалладаги жамоатчилик назорати билан биргаликда жиноятчиликни жиловловчи асосий омиллар ҳисобланади. Бироқ, ота-оналарнинг меҳнат миграцияси ва оила ичидаги алоқаларнинг заифлашиши каби замонавий муаммолар янги рискларни келтириб чиқармоқда[3].

Ёшлар жиноятчилигини олдини олишнинг асосий омилларига қуйидагилар киради:

1. *Барқарор иш билан таъминланиш:* Иш нафақат даромад келтиради, балки вақтни тизимлаштиради ва жиноят содир этиш имкониятларини камайтиради[4].

2. *Никоҳ ва сифатли оилавий муносабатлар:* Оила қуриш ва турмуш ўртоғи билан бирга яшаш ёш эркаклар орасида жиноятчилик даражасини сезиларли даражада камайтиради[5].

3. *Ҳарбий хизмат:* Муайян шароитларда армия интизомни таъминлайдиган ва ўтмишдаги салбий муҳит билан алоқани узадиган институт бўлиб хизмат қилиши мумкин[6].

---

[1] https://youth.gov/youth-topics/juvenile-justice/risk-and-protective-factors

[2] Preventing and Reducing Juvenile Delinquency with the Organizational Advantages of the CYL // https://www.researchgate.net/publication/266645034_Preventing_and_Reducing_-Juvenile_Delinquency_with_the_Organizational_Advantages_of_the_CYL

[3] Prevention and Prophylaxis of Youth Delinquency and Peculiarities of Appointing Punishment to Minors during a Pandemic // January 2021Psychology and Education Journal 58(1):1043-1049

[4] Archived | From Youth Justice Involvement to Young Adult Offending | National Institute of Justice

[5] *Ўша манбаа:* Archived | From Youth Justice Involvement to Young Adult Offending | National Institute of Justice

[6] *Ўша манбаа:* Archived | From Youth Justice Involvement to Young Adult Offending | National Institute of Justice

Шу билан бирга, ҳуқуқни муҳофаза қилиш тизими *(ИИО, Миллий гвардия, прокуратура, судлар ва Жазони ижро этиш муассасалари)* билан алоқанинг ўзи кейинги жиноятчиликнинг детерминантига айланиши мумкин. Стигматизация[1] ва озодликдан маҳрум қилиш жойларида бўлиш кўпинча руҳий саломатликнинг ёмонлашишига, академик ютуқларнинг пасайишига ва просоциал алоқаларнинг узилишига олиб келади, бу эса рецидивни (қайталанишни) келтириб чиқаради[2]. Шу муносабат билан, замонавий тизимли профилактика моделлари кўпроқ озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган муқобил жазо чораларини қўллашга мойил бўлмоқда[3].

Юқоридаги таҳлиллардан келиб чиқиб, бугунги кунда ёшлар жиноятчилигининг самарали профилактикаси кўп даражали бўлиши ва аниқланган барча детерминантларга таъсир қилиши керак. Жазолаш моделидан *"риск омиллари"* моделига (risk factor paradigm) ўтиш девиант хулқ-атворнинг аниқ сабабларига қаратилган аралашувларни ишлаб чиқиш имконини беради[4].

Илмий назарий ёндашувлар ва юқори сифатли эмпирик далиллар шуни кўрсатадики, ёшлар ўртасида ҳуқуқбузарлик (айниқса рецидивизм)ни барқарор пасайтириш учун интервенция бир манзилли эмас, балки *оила–мактаб–тенгдошлар муҳитини* бир вақтнинг ўзида қамраб олувчи *комплекс (мультикомпонент) терапевтик дастурлар* кўринишида ташкил этилганда самарадорлик ортади. Хусусан, *Мульти тизимли терапия* моделида ўсмирнинг муаммоли хулқ-атвори унинг шахсий хусусиятларигина эмас, балки оилавий назорат, таълим муассасасига боғлиқ интизомий-академик омиллар, тенгдошлар таъсири ҳамда маҳалла/жамоа ресурслари билан боғлиқ рисклар кесишувида шаклланади, деган ғоя асос қилиб олинади. Шунинг учун *мульти тизимли терапия* интервенцияси ота-онанинг тарбиявий шарҳини кучайтириш, мактаб билан ҳамкорликни тизимлаштириш, салбий тенгдошлар таъсирини чеклаш ва конфликтларни ҳал этиш кўникмаларини ривожлантириш каби йўналишларни параллел равишда амалга оширади. Узоқ муддатли кузатув натижалари *мульти тизимли терапия* иштирокчиларида жиноий фаолиятнинг кейинги даврда сезиларли камайганини тасдиқлайди: рандомизацияланган клиник синовнинг 13–16 йиллик кузатувида *мульти тизимли терапия* гуруҳида рецидивизм даражаси индивидуал терапия гуруҳига нисбатан паст бўлган, шунингдек ҳибслар сони ва озодликдан маҳрум этиш муассасаларида ўтказилган кунлар

[1] Одамни хатоси, ҳолати ёки ўтмиши учун жамият *"тамғалайди"* ва шу сабабли унга иш, ўқиш, муносабат, хизматлар каби имкониятларда адолатсиз тўсиқ қўяди.

[2] Preventing and Reducing Juvenile Delinquency with the Organizational Advantages of the CYL

[3] Applying ecological systems theory to juvenile legal system interventions outcomes research: a measurement framework

[4] Michael Shader, Ph.D., is a Social Science Program Specialist in the Office of Juvenile Justice and Delinquency Prevention's (OJJDP's) Research and Program Development Division

миқдори ҳам камайгани қайд этилган[1]. Бундан ташқари, 22 йиллик (ўртача) *“midlife”* фоллоу-ап таҳлили *мульти тизимли терапия* таъсири катта ёш давригача сақланиши мумкинлигини кўрсатиб, *мульти тизимли терапия* гуруҳида оғир жиноятлар бўйича рецидивизм пастроқ эканини ва айрим кўрсаткичларда ҳуқуқбузарлик частотаси анча камайганини ёритади[2].

Комплекс ёндашувнинг яна бир самарали кўриниши — *кўп ўлчовли терапевтик васийлик оиласи* бўлиб, у хулқ-атвор муаммолари чуқур бўлган ва “group care”/институционал муҳитга тушиб қолиш хавфи юқори ўсмирлар учун *структураланган васийлик муҳитини* яратади: изчил қоидалар, рағбат–санкция мувозанати, доимий мониторинг ва мутахассислар супервизияси орқали ўсмирнинг кундалик ижтимоий муҳити қайта ташкил қилинади. Камерал далиллар *кўп ўлчовли терапевтик васийлик оиласи* гуруҳли муассасаларга нисбатан қиёсланганда жиноий мурожаатлар (“criminal referrals”) камайиши ва қариндошлар билан яшашга қайта интеграция кўрсаткичлари яхшиланишини тасдиқлайди[3][3]. Амалиёт нуқтаи назаридан, *кўп ўлчовли терапевтик васийлик оиласи* модели “инсон капиталига сармоя” сифатида ҳам баҳоланади: айрим иқтисодий ҳисоб-китобларда *кўп ўлчовли терапевтик васийлик оиласи* бўйича *benefit-to-cost* нисбати ижобий экани кўрсатилган *(масалан, маълум таҳлилда бир иштирокчига тўғри келувчи фойда-харажат нисбати 5,28 атрофида)*[4].

Шу билан бирга, *функционал оилавий терапия* оилавий муносабатлар, мулоқот сифати, тарбиявий назорат ва муаммони ҳал қилиш механизмларини кучайтиришга қаратилган далилга асосланган интервенция сифатида тавсифланади. Функционал оилавий терапиянинг муҳим илмий хусусияти — натижа кўп жиҳатдан *моделга содиқлик (fidelity/adherence)* даражасига боғлиқлиги: йирик амалиёт шароитида ўтказилган тадқиқотларда *функционал оилавий терапия* таъсири терапевтнинг протоколга амал қилиши юқори бўлган ҳолатларда сезиларлироқ намоён бўлиши қайд этилган[5]. Айнан шу “fidelity” омили иқтисодий баҳолашларда ҳам аниқ кўринади: Blueprints маълумотларига кўра, *функционал оилавий терапия* компетент (яъни моделга содиқ) тарзда амалга оширилганда *1 доллар харажатга 10,69 доллар фойда* (жиноят

---

[1] Schaeffer C.M., Borduin C.M. *Long-term follow-up to a randomized clinical trial of multisystemic therapy with serious and violent juvenile offenders. Journal of Consulting and Clinical Psychology.* 2005;73(3):445–453.

[2] Sawyer A.M., Borduin C.M. *Effects of multisystemic therapy through midlife: a 21.9-year follow-up to a randomized clinical trial with serious and violent juvenile offenders. Journal of Consulting and Clinical Psychology.* 2011;79(5):643–652.

[3] Chamberlain P., Reid J.B. *Comparison of two community alternatives to incarceration for chronic juvenile offenders.* **Journal of Consulting and Clinical Psychology.** 1998;66(4):624–633.

[4] Washington State Institute for Public Policy. *Return on Investment: Evidence-Based Options to Improve Statewide Outcomes (July 2011 Update).*

[5] Sexton T., Turner C.W. *The Effectiveness of Functional Family Therapy for Youth with Behavioral Problems in a Community Practice Setting.* **Journal of Family Psychology.** 2010;24(3):339–348.

харажатларининг олдини олиш ҳисобига) тўғри келган. Шунингдек, компетентлик паст бўлганда эса иқтисодий самара аксинча салбий бўлиши мумкин[1]. Демак, юқорида келтириб ўтилган дастурлардан фойдаланишда асосий методологик хулоса шундан иборатки бўладики, бунда интервенция самараси “дастур номи” билан эмас, балки *тизимли қамров* (оила–мактаб–тенгдошлар) ва *амалга ошириш сифати* (fidelity, кадрлар тайёргарлиги, идоралараро ҳамкорлик) билан бевосита белгиланади; шунинг учун миллий амалиётга татбиқ этишда стандартлар, мониторинг ва баҳолаш индикаторларини олдиндан норматив ва ташкилий жиҳатдан мустаҳкамлаш зарур.

Юқоридаги илмий назарий таҳлиллардан келиб чиқиб, янги Ўзбекистонда профилактика тизимини такомиллаштириш учун интеграциялашган ҳуқуқий ва ижтимоий механизмларни жорий этиш зарур. Асосий эътибор қуйидагиларга қаратилиши керак. Хусусан, таълим тизимини ислоҳ қилишда халқаро тажриба (масалан, Германиядаги *“Мактабда қонун”* ташаббуси, жиноятчиликни 28% га камайтирган)га суяниш орқали мактабларда ҳуқуқий таълим ва криминология асослари бўйича дастурларни жорий этиш[2] мақсадга мувофиқдир.

Дарҳақиқат, бугунги кунда янги Ўзбекистонда амалдаши янги таҳрирдаги Конституцияга кўра давлат *бепул умумий ўрта таълимни кафолатлаши ва умумий ўрта таълим мажбурий* эканлиги, шунингдек умумий ўрта таълим давлат назоратида экани белгиланган[3]. Демак, умумий ўрта таълим мазмунини жамият хавфсизлиги ва қонунийликни мустаҳкамлаш эҳтиёжларига мос равишда янгилаш — давлатнинг конституциявий мажбуриятларидан келиб чиқадиган табиий ва қонуний йўналиш ҳисобланади.

Шу маънода, *“Таълим тўғрисида”*ги Қонунда умумий ўрта таълимнинг мазмуни ва босқичлари белгиланиб, умумий ўрта таълимнинг узлуксиз ва мажбурий тарзда амалга оширилиши назарда тутилган[4]. Қонуннинг ўзидан келиб чиқадиган ҳуқуқий хулоса шуки, агар умумий ўрта таълим мажбурий бўлса, у нафақат академик билимлар, балки *ҳуқуқий саводхонлик ва фуқаролик масъулияти* каби ижтимоий барқарорлик учун зарур компетенцияларни ҳам қамраб олиши лозим.

Бундан ташқари, давлат сиёсати даражасида ҳуқуқий маданиятни юксалтиришнинг *“таянч механизми”* сифатида айнан таълим-тарбиянинг тизимли ва узвийлиги, мактабгача таълимдан бошлаб ҳуқуқий онгни чуқур

---

[1] Blueprints Programs (Center for the Study and Prevention of Violence). *Functional Family Therapy (FFT) — Cost-Benefit Analysis*

[2] Normatov D. K. Objective: This study aims to analyze the underlying causes of juvenJUVENILE DELINQUENCY: CAUSES, LEGAL ANALYSIS, AND PREVENTIVE MEASURES

[3] Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси // https://lex.uz/uz/docs/6445145

[4] Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси // https://lex.uz/docs/5013007

сингдириш вазифаси қўйилган[1]. Мазкур сиёсий-ҳуқуқий талабдан келиб чиқиб, мактабларда ҳуқуқий таълимни институционаллаштириш *(яъни алоҳида тарғибот ёки даврий тадбирлар даражасида эмас, балки* ***давлат таълим стандартида мажбурий ўқув натижалари*** *сифатида)* профилактиканинг барқарор *“ядроси”*ни шакллантиради.

Айни пайтда миллий қонунчиликда ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фақат жазолаш ёки назорат эмас, балки *ҳуқуқий, ижтимоий, ташкилий ва бошқа чора-тадбирлар тизими* экани таърифланган[2]. Қонун профилактиканинг асосий вазифалари қаторида **жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш**, қонунийликни мустаҳкамлаш каби йўналишларни ҳам бевосита белгилайди[3]. Демак, таълим тизими орқали ҳуқуқий таълимни кучайтириш — профилактика тўғрисидаги қонуннинг *“мақсад–вазифа”* логикасига тўлиқ мос келади ва унинг ижросини таъминловчи институционал ечим ҳисобланади.

Таклиф этилаётган “Ҳуқуқ асослари ва криминология элементлари” (ёки “Мактабда ҳуқуқ”) модули жорий этилиши, биринчи навбатда, ўқувчиларда **ҳуқуқий иммунитет**ни шакллантиришга хизмат қилади: ҳуқуқий нормаларга ҳурмат, шахсий ва жамоат манфаатлари мувозанати, зўравонликка муросасиз муносабат, низоларни тинч ҳал қилиш (медиация маданияти), интернет муҳитидаги ҳуқуқий масъулият каби компетенциялар эрта ёшдан барқарор хулқ-атвор стандартларини яратади. Бу эса профилактиканинг илмий назариясидаги *“эрта аралашув”* тамойилига мувофиқ равишда риск омилларини илк босқичда нейтраллаштириш имконини беради.

Ниҳоят, 9¹-модда *(“таълим ташкилотларида ҳуқуқий тарбия ва ҳуқуқий таълим”)* киритиш таклифи ҳуқуқий таълимни фақат фан сифатида ўқитиш билан чекламай, унинг профилактик *“инфратузилмаси”*ни ҳам белгилаб беради. Шунингдек, ҳуқуқий тарбия дастурлари, профилактик тренинглар ва медиация кўникмалари — таълим муҳитида ҳуқуқбузарликларни келтириб чиқарувчи низо, буллинг, девиант хулқ-атвор каби омилларни камайтиришга хизмат қилади. Бундай ёндашув профилактикани *“фақат ҳуқуқни муҳофаза қилиш”* функцияси сифатида эмас, балки таълим муассасасига интеграциялашган комплекс ижтимоий-ҳуқуқий механизм сифатида қарор топтиради.

“9¹-модда. Таълим ташкилотларида ҳуқуқий тарбия ва ҳуқуқий таълим

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг *“Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида”*ги ПФ- 5618-сон Фармони

[2] Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси // https://lex.uz/docs/4149765

[3] Ўзбекистон Республикасининг *“Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”*ги ЎРҚ-371-сон Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси // https://lex.uz/docs/2387357

Таълим ташкилотлари ўқувчиларда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни шакллантириш мақсадида ҳуқуқий тарбия дастурларини амалга оширади. Таълим ташкилотларида профилактик тренинглар, ҳуқуқий ахборот-тушунтириш ишлари, низоларни тинч ҳал қилиш (медиация) кўникмаларини ривожлантириш ҳамда хавфли (риск) хулқ-атворни барвақт аниқлаш ва олдини олиш чоралари қўлланилади. Ҳуқуқий тарбия ва ҳуқуқий таълимни ташкил этиш тартиби, модулларнинг мазмуни, ўқув-методик таъминоти ҳамда педагог кадрларни тайёрлаш ва қайта тайёрлаш механизмлари ваколатли давлат органлари томонидан белгиланади.”

Мазкур қонун лойихасини қабул қилиниши келажакда:

Биринчидан, мазкур қонун лойиҳасини қабул қилиш натижасида умумий ўрта таълим давлат таълим стандартларида ҳуқуқий саводхонлик ва фуқаролик масъулияти “мажбурий ўқув натижалари” сифатида мустаҳкамланади ҳамда ҳуқуқий тарбия акциявий-эпизодик тадбирлардан чиқиб, тизимли ва узлуксиз таълим сиёсатига айланади. Натижада ўқувчиларда қонунга ҳурмат, ҳуқуқ ва бурчлар мувозанати, жамоат қоидаларига риоя қилиш, адолат ва жавобгарлик каби барқарор ҳуқуқий қадриятлар эрта ёшдан шаклланиб, ҳуқуқий онгнинг институционал ўсиши таъминланади.

Иккинчидан, 7–11-синфларда *“Ҳуқуқ асослари ва криминология элементлари”* (ёки “Мактабда ҳуқуқ”) модулини босқичма-босқич жорий этиш орқали профилактика реактив (ҳодисадан кейинги) ёндашувдан проактив (эрта аралашув ва эрта огоҳлантириш) моделига яқинлашади. Бу риск омилларини (буллинг, тажовузкор хулқ-атвор, гуруҳ таъсири, интернетдаги ҳуқуқбузарликлар, аддиктив хулқ) илк босқичда аниқлаш ва нейтраллаштириш имкониятларини кенгайтиради, мактаб муҳитида ҳуқуқбузарликларга олиб келувчи сабаблар билан манзилли ишлаш механизмини кучайтиради.

Учинчидан, қонунга киритилаётган 9^1-модда доирасида ҳуқуқий тарбия дастурлари, профилактик тренинглар ҳамда медиация (низоларни тинч ҳал қилиш) кўникмаларини шакллантириш чоралари ҳуқуқий асосга эга бўлиши натижасида мактабда конфликтларни бошқариш маданияти, муроса ва конструктив мулоқот компетенциялари ривожланади. Бу эса ўқувчилар ўртасидаги низоларнинг маъмурий-интизомий жазога айланиб кетиш ҳолатларини қисқартириш, буллинг ва зўравонликка нисбатан профилактик иммунитетни кучайтириш, шу орқали таълим муассасасида хавфсиз ва барқарор ижтимоий муҳитни қарор топтиришга хизмат қилади.

GIYOHVANDLIK VOSITALARINING NOQONUNIY MUOMALASIGA QARSHI KURASHISHNI NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI

Qo‘shayev Nurali Maxmudovich,
Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra boshlig‘ining o‘rinbosari y.f.n., dotsent
Payziyev Abbos Muxammadovich
kafedra dotsenti yu.f.b.f.d. (PhD), dotsent

Giyohvandlik va narkojinoyatchilik nafaqat milliy, balki mintaqaviy hamda global miqyosda xavfsizlik va barqarorlikka jiddiy tahdid solayotgan murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisaga aylandi. Narkotik vositalar noqonuniy muomalasining transmilliy tus olishi, uyushgan jinoiy guruhlar faoliyatining kengayishi, “qora bozor” mexanizmlarining raqamli makonga ko‘chishi ushbu muammoning xavf darajasini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida turli sintetik narkotiklar va psixoaktiv moddalar iste’molining ommalashuvi, ularning internet tarmoqlari orqali tarqatilayotgan noqonuniy savdo zanjirlariga jalb etilishi tarbiyaviy, tushuntiruv va birlamchi profilaktik tadbirlarni tizimli va uzluksiz ravishda amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Zamonaviy tahdidlar orasida darknet platformalari orqali narkotik moddalar savdosi, kriptovalyutalar yordamida hisob-kitoblarning amalga oshirilishi, “kontaktsiz yetkazib berish” usullarining qo‘llanilishi, shuningdek, yangi turdagi sintetik moddalarning tez sur’atlarda paydo bo‘lishi alohida tashvish uyg‘otmoqda. Bu esa narkojinoyatchilikka qarshi kurashishda an’anaviy yondashuvlar yetarli emasligini, nazariy-huquqiy asoslarni qayta ko‘rib chiqish va taktik mexanizmlarni zamon talablari asosida takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu jihatdan, giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishni samarali tashkil etish faqat jinoiy jazo choralarini kuchaytirish bilan cheklanib qolmasdan, balki xalqaro standartlar va ilg‘or tajribalarni inobatga olgan holda kompleks huquqiy, tashkiliy va taktik chora-tadbirlarni ishlab chiqishni talab etadi. Bu borada BMTning Narkotiklar va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi (UNODC) tomonidan ilgari surilayotgan yondashuvlar, xususan, profilaktika, reabilitatsiya va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini modernizatsiya qilishga qaratilgan tavsiyalar alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishni nazariy-huquqiy va taktik jihatdan ta’minlash masalalari zamonaviy tahdidlar kontekstida kompleks tahlil qilinib, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda amaliyot samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

2025 yilda respublika miqyosida huquq-tartibot idoralari tomonidan amalga oshirilgan keng qamrovli tezkor va profilaktik tadbirlar natijasida giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasi bilan bog‘liq jami **15 412 ta jinoyat** hamda **1 956 ta ma'muriy huquqbuzarlik** holatlari aniqlandi. Mazkur raqamlar giyohvandlikka qarshi kurashish sohasida tizimli choralar ko‘rilayotganini ko‘rsatsa-da, ushbu turdagi huquqbuzarliklar hali ham jamiyat xavfsizligiga jiddiy tahdid solayotganini anglatadi.

Jinoyatlarning tarkibiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning asosiy qismini giyohvandlik vositalarini o‘z iste’moli uchun noqonuniy saqlash holatlari tashkil etgan (Jinoyat kodeksining 276-moddasi — **41 foiz yoki 6 387 ta holat**). Shuningdek, narkotik moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish (JK 273-modda — **36 foiz yoki 5 577 ta holat**) hamda taqiqlangan ekinlarni yetishtirish (JK 270-modda — **13 foiz yoki 1 968 ta holat**) keng tarqalgan jinoyat turlari sifatida qayd etildi. Bu holatlar narkotik moddalarning ichki bozori shakllanayotgani va iste’mol talabining saqlanib qolayotganidan dalolat beradi.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, narkojinoyatlarning **53 foizi** Toshkent shahri (3 986 ta), Farg‘ona viloyati (2 178 ta) va Toshkent viloyati (1 954 ta) hissasiga to‘g‘ri kelgan. Bu mazkur hududlarda aholi zichligi, transport kommunikatsiyalari va savdo-iqtisodiy faollik yuqori ekani bilan bog‘liq omillarni ham ko‘rsatadi.

Tezkor tadbirlar natijasida jami **3 tonna 413 kilogramm** narkotik, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasiga chek qo‘yildi. Musodara qilingan moddalar tarkibida “gashish” **48 foiz (1 tonna 470 kg)** va “opiy” **27 foiz (819 kg)** ni tashkil etgani qayd etildi. Bu holat respublika hududi orqali an’anaviy narkotrafik yo‘nalishlari saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, 14 ta yashirin narkolaboratoriya faoliyati fosh etildi va ularda saqlangan jami 75 kg giyohvandlik vositalari hamda kuchli ta’sir qiluvchi moddalar musodara qilindi. Bu holat narkotik moddalarni tayyorlash va qayta ishlashning ichki manbalari ham shakllanayotganini anglatadi va taktik jihatdan profilaktika hamda tezkor-qidiruv faoliyatini yanada kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Jami **11 049 nafar shaxs** narkojinoyat sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilgani ushbu jinoyat turining keng qamrovli ekanini tasdiqlaydi. Ayniqsa, ular orasida **59 nafar maktab o‘quvchisi va 124 nafar talaba** borligi jamiyat uchun jiddiy tashvishli holatdir. Bu yoshlar o‘rtasida huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish, ta’lim muassasalarida profilaktik ishlar samaradorligini oshirish, ota-ona va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi statistik ma’lumotlar giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishni faqat jazo choralari bilan emas, balki nazariy-huquqiy asoslarni takomillashtirish, taktik mexanizmlarni modernizatsiya qilish va kompleks

profilaktik siyosatni amalga oshirish orqali ta’minlash zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Milliy qonunchilikda giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. Jazo choralari moddaning miqdori, maqsadi va og‘irlashtiruvchi holatlarga qarab belgilanadi.

Ammo amaliyotda ayrim muammolar kuzatiladi:

Birinchidan, Internet tarmog‘ida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashishga qaratilgan dasturiy ta’minotni takomillashtirish zarur. Buning uchun ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarda narkotik savdosini aniqlovchi sun’iy intellekt asosidagi monitoring tizimlarini joriy etish, darknet va kriptovalyuta orqali amalga oshirilayotgan noqonuniy operatsiyalarni fosh etish imkoniyatlarini kuchaytirish lozim. Shuningdek, idoralararo yagona elektron ma’lumotlar bazasini yaratish hamda onlayn profilaktik platformalarni rivojlantirish raqamli makonda narkojinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligini oshiradi.

Ikkinchidan, giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashishda aholining ogohligi hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorligini yangi bosqichga olib chiqish maqsadga muvofiq. Buning uchun jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, anonim xabar berish mexanizmlarini takomillashtirish, ta’lim muassasalari va mahalla instituti orqali tizimli profilaktik tadbirlarni yo‘lga qo‘yish zarur. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar orqali giyohvandlikning huquqiy oqibatlari va ijtimoiy xavfi haqida maqsadli axborot kampaniyalarini tashkil etish aholining huquqiy ongi va faol fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashuvchi organlar salohiyatini tizimli ravishda oshirish zarur. Buning uchun xodimlarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish, ularni zamonaviy kriminalistika va raqamli tahlil usullari bo‘yicha muntazam o‘qitish, moddiy-texnika bazasini yangilash hamda ilg‘or axborot texnologiyalari bilan ta’minlash maqsadga muvofiq. Shuningdek, idoralararo hamkorlikni mustahkamlash va xalqaro tajribani amaliyotga joriy etish orqali narkojinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

To‘rtinchidan, giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va xalqaro tashkilotlar imkoniyatlaridan keng foydalanish.

Zamonaviy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, giyohvandlik vositalari va narkojinoyatlar nafaqat milliy, balki mintaqaviy va global miqyosda ham xavf solmoqda. Bu boradagi tahdidlar ko‘pqirrali va kompleks yondashuvni talab etadi.

Birinchidan, raqamli makonda narkotik moddalar savdosi va tarqatilishini tezkor aniqlash va bartaraf etish uchun Internet tarmog‘idagi dasturiy ta’minotni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, sun’iy intellektga asoslangan monitoring tizimlari, darknet va kriptovalyuta orqali noqonuniy operatsiyalarni

aniqlash, hamda profilaktik onlayn platformalar orqali aholini xabardorligini oshirish samarali mexanizmlardan hisoblanadi.

Ikkinchidan, aholining ogohligini oshirish va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bu jamoatchilik nazorati, anonim xabar berish kanallari, ta’lim muassasalari va mahalla instituti orqali profilaktik tadbirlarni samarali amalga oshirish, shuningdek ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalardagi maqsadli axborot kampaniyalari orqali amalga oshirilishi mumkin.

Uchinchidan, giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashuvchi organlar salohiyatini oshirish muhimdir. Buning uchun xodimlarning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlash, zamonaviy kriminalistika va raqamli tahlil usullari bo‘yicha muntazam o‘qitish, moddiy-texnika bazasini takomillashtirish va idoralararo hamkorlikni kuchaytirish zarur.

To‘rtinchidan, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va xalqaro tashkilotlar imkoniyatlaridan foydalanish muhim yo‘nalish hisoblanadi. BMTning Narkotiklar va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi (UNODC) va boshqa xalqaro platformalar bilan ma’lumot almashish, qo‘shma operatsiyalar o‘tkazish va ilg‘or tajribani milliy amaliyotga tatbiq etish narkojinoyatlarga qarshi kurashishda samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

Shu tariqa, yuqoridagi chora-tadbirlarni kompleks ravishda amalga oshirish giyohvandlik vositalari va narkojinoyatlarning zamonaviy tahdidlariga samarali qarshilik ko‘rsatish imkonini beradi.

Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish kompleks yondashuvni talab etadi. Nazariy-huquqiy asoslarni takomillashtirish, xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish va zamonaviy taktik usullarni joriy etish mazkur sohada samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, profilaktika, reabilitatsiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralarini kuchaytirish orqali jinoyatchilikning ildiz sabablarini bartaraf etish mumkin.

Mazkur tadqiqot natijalari milliy qonunchilikni takomillashtirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini rivojlantirish va ilmiy tadqiqotlar olib borishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, narkotik xavflariga qarshi kurashish davlat organlari, fuqarolik jamiyati va raqamli muhit imkoniyatlari uyg‘unligiga asoslangan umummilliy va uzluksiz jarayon sifatida tashkil etilgandagina samara beradi, zero Davlatimiz rahbarining 2025 yil 26 dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ham “narkojinoyatlarga qarshi kurashishni umummilliy harakatga aylantirish, giyohvandlikni tag-tomiri bilan yo‘qotish hamda yoshlarda kuchli ma’naviy-ruhiy immunitetni shakllantirish ustuvor vazifa” sifatida belgilab berilgan bo‘lib, aynan shu zamonaviy yondashuv orqali jamoat xavfsizligi mustahkamlanadi,

yoshlar jinoyatchilikdan himoya qilinadi va jamiyatda qonun ustuvorligiga asoslangan barqaror hamda xavfsiz ijtimoiy muhit shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023. https://lex.uz/docs/-6445145

2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. https://lex.uz/docs/-111453

3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 19.08.1999 yildagi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi 813-I-son Qonuni. https://lex.uz/ru/docs/-86044

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.11.2021 yildagi PF-27-son “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/docs/5749291

5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining qarori, 30.12.2025 yildagi 1598-V-son “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasidan kelib chiqadigan vazifalar to‘g‘risida” https://lex.uz/uz/docs/-8006623

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.05.2024 yildagi PF-73-son “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta’sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/docs/6912475

ТРАНСМИЛЛИЙ НАРКОЖИНОЯТЧИЛИК ВА ЖАҲОН НАРКОБОЗОРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ: КРИМИНОЛОГИК ТАҲЛИЛ

Норбутаев Эркин Хурозович
ИИВ Академияси Маъмурий ҳуқуқ кафедраси профессори в.б.,
ю.ф.б.ф.д. (PhD), доцент
Исаев Сардор Алишерович
Ўзбекистон Республикаси Криминология тадқиқот институти бош илмий ходими, ю.ф.б.ф.д. (PhD)

Аннотация. Мақолада жаҳон наркобозорининг ривожланишидаги замонавий тенденциялар ва наркотик воситаларнинг ноқонуний муомаласида уюшган жиноий гуруҳларнинг роли кўриб чиқилади. Наркотикларни ишлаб чиқариш, истеъмол қилиш ва тарқатиш миқёслари, шунингдек наркожиноятчиликнинг ўсишига таъсир этувчи омиллар, жумладан наркобозорнинг рақамлашуви, криптовалюталардан фойдаланиш ва яширин интернет-платформаларнинг ривожланиши таҳлил қилинади. Трансмиллий наркожиноятчиликнинг хусусиятига, унинг халқаро хавфсизликка давлатлар иқтисодий барқарорлигига ва жамоат саломатлигига таъсирига алоҳида эътибор

қаратилади. Уюшган жиноий гуруҳларнинг фаолият юритиш хусусиятлари, уларнинг тузилмаси ва фаолият усуллари кўриб чиқилади.

Ўзбекистон Республикасидаги наркожиноятчиликнинг ҳозирги ҳолатини таҳлил қилиш асосида давлатнинг антинаркотик сиёсатининг асосий йўналишлари белгиланади ва наркотик воситаларнинг ноқонуний муомаласига қарши кураш самарадорлигини ошириш бўйича чора-тадбирлар таклиф этилади. Булар жумласига халқаро ҳамкорликни ривожлантириш, оператив-қидирув фаолиятини такомиллаштириш, коррупцияга қарши кураш ва профилактик дастурларни амалга ошириш киради.

Калит сўзлар: трансмиллий жиноятчилик, уюшган жиноятчилик, наркотикларнинг ноқонуний муомаласи, наркобизнес, наркобозор, наркожиноятчилик, антинаркотик сиёсати, гиёҳвандлик профилактикаси.

Кириш (Introduction). Жаҳон наркобозори сўнгги йилларда барқарор ўсиш тенденциясини намоён этмоқда. Буни ишлаб чиқариш, мусодара қилиш, истеъмол қилиш ҳажмлари, тиббий ёрдамга мурожаатлар сони, шунингдек ўлим даражаси кўрсаткичлари тасдиқлайди. Халқаро тадқиқотлар маълумотларига кўра, 2023 йилда дунёда фақат кокаиннинг ноқонуний ишлаб чиқарилиши рекорд даражага — тахминан 3 708 тоннага етган бўлиб, бу ўтган йилга нисбатан 34 % га кўпдир [1]. Бунда ўсиш барча қитъаларда кузатилган.

Мусодара қилинган кокаин миқдори 68 % га (2019–2023) ошган, истеъмолчилар сони эса 2023 йилда тахминан 25 млн кишига етган. Асосий контингент — 15–64 ёшдаги шахслардир [2].

Бундан ташқари, сўнгги йилларда жаҳон наркобозорининг ривожланишида қуйидаги янги тенденциялар кузатилмоқда: амфетамин, метамфетамин, фентанил каби синтетик наркотикларни ишлаб чиқариш ҳажмларининг ортиши; наркобозорнинг фаол рақамлашуви; ҳисоб-китобларни амалга оширишда криптовалюталардан фойдаланиш; наркотикларни сотиш бозорларининг янги ҳудудларга кенгайиши; жиноий тармоқларнинг трансмиллий хусусиятининг кучайиши. Ушбу омиллар наркотик воситаларнинг ноқонуний муомаласига қарши курашнинг янги стратегияларини ишлаб чиқишни талаб этади.

Шу билан бирга, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар томонидан мусодара қилинаётган наркотиклар ҳажми ҳам ортиб бормоқда. Жумладан, 2025 йилда Ўзбекистонда ноқонуний муомаладан қарийб 3,5 тонна наркотик воситалар мусодара қилинган, 15,4 мингта наркожиноят қайд этилган, шунингдек наркотиклар билан боғлиқ 1956 та маъмурий ҳуқуқбузарлик аниқланган. 14 та яширин нарколаборатория фош этилган. Наркожиноятлар содир этгани учун 11 мингдан ортиқ шахс жавобгарликка тортилган (улар орасида 124 нафар талаба

ва 59 нафар мактаб ўқувчиси бор). Ёшлар орасида гиёҳвандлик ҳолатларининг энг кўп қайд этилиши Тошкент шаҳрида кузатилмоқда [3].

Ёшлар орасида наркотик воситаларни истеъмол қилишга турли сабаблар таъсир кўрсатиши мумкин, масалан, номаълум ҳиссиётларни синаб кўриш истаги ёки инсоннинг характери, одатлари, ахлоқига таъсир этувчи оилавий ёки махаллий мухит бўлиши мумкин. Айримлар учун эса бу қийинчиликлардан қочиш, руҳий оғриқни енгиш воситаси сифатида қабул қилинади. Бироқ аслида бундай йўл вазиятни янада оғирлаштиради ва наркотикка қарамликни шакллантиради.

Наркотик воситаларнинг ноқонуний муомаласи трансмиллий жиноятчиликнинг энг кенг кўламли шаклларидан бири ҳисобланади. У халқаро хавфсизликка, давлатлар иқтисодий барқарорлигига ва миллат генофондига сезиларли таъсир кўрсатади. Наркотик савдоси уюшган жиноий гуруҳлар учун асосий даромад манбаларидан бири ҳисобланади. Ушбу турдаги жиноий фаолиятнинг юқори даромадлилиги криминал тармоқларнинг кенгайишига ва трансмиллий жиноий тузилмаларнинг ривожланишига хизмат қилади.

Уюшган жиноий гуруҳлар наркотик воситаларнинг ноқонуний муомаласининг турли босқичларини назорат қилади — наркотик моддаларни ишлаб чиқариш ва қайта ишлашдан тортиб, уларни ташиш, сотиш ҳамда жиноий даромадларни легаллаштиришгача. Шу билан бирга, наркотикларнинг ноқонуний муомаласи билан боғлиқ зўравонлик ҳолатлари кучайиши ҳам мумкин.

Глобаллашув шароитида наркобозор тобора интеграциялашган ва мураккаб тус олмоқда, бу эса ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар фаолиятини сезиларли даражада қийинлаштиради.

Мавзу бўйича адабиётлар таҳлили (Literature review). Криминологияда уюшган жиноятчилик салбий ижтимоий-ҳуқуқий ҳодиса сифатида қаралади. У уюшган гуруҳлар, жиноий жамоалар томонидан содир этилган жиноятлар мажмуини, шунингдек ушбу гуруҳ ва жамоалар иштирокчилари йиғиндисини ўз ичига олади А.И. Долгованинг фикрига кўра, уюшган жиноятчилик — бу кенг кўламли жиноий фаолиятни амалга оширадиган ҳамда бундай фаолият учун энг қулай шарт-шароитларни яратадиган уюшган жиноий тузилмаларнинг мураккаб тизимидир. Ушбу тизим ўз фаолиятини таъминлаш учун бошқарув ва бошқа хизмат функцияларини бажарувчи ички тузилмалардан, шунингдек давлат тузилмалари ва фуқаролик жамияти институтларидан ҳам фойдаланиши мумкин. Наркобизнесдан олинадиган юқори даромад уюшган жиноятчилик билан наркотик моддаларнинг ноқонуний айланмаси ўртасидаги боғловчи бўғин ҳисобланади. Бу ҳолат мазкур бозор сегментида жиддий рақобатнинг йўқлиги

билан ҳам изоҳланади. Наркобизнеснинг асосий мақсади — жиноий фаолият орқали ноқонуний равишда фойда олиш ва бойишдир.

Наркотикларни ноқонуний савдо қилиш, даромадларни тақсимлаш ва шу билан боғлиқ ҳаракатлар давлатга катта зарар етказадиган жиноий иқтисодиётнинг бир қисми ҳисобланади.

Тадқиқот методологияси (Research methodology). Жиноятчиликнинг ушбу шаклини тадқиқ этиш ҳозирги вақтда ҳам долзарблигича қолмоқда. И.Н. Селиверстов таъкидлаганидек, уюшган жиноятчилик кўламининг кенгайиши одамларни жиноий муҳит билан ўзаро алоқага киришишга жалб қиладиган объектив омиллар билан боғлиқ бўлиб, бу эса унинг янада ривожланишига қонуний равишда туртки беради.

Ҳозирги вақтда криминологлар уюшган жиноий фаолиятнинг қуйидаги асосий соҳаларини ажратиб кўрсатадилар, жумладан:

– наркотик моддаларнинг ноқонуний айланмаси;

– қурол-яроғнинг ноқонуний айланмаси;

– ноқонуний миграцияни ташкил этиш;

– одам савдоси, инсон аъзолари ва тўқималари савдоси;

– автотранспорт воситаларини ўғирлаш ва контрабанда қилиш;

– тарихий қимматликларни ўғирлаш ва контрабанда қилиш;

– компьютер ахбороти соҳасидаги жиноятлар;

– жиноий йўл билан олинган мол-мулкни легаллаштириш;

– муаллифлик ҳуқуқларини бузиш билан боғлиқ жиноятлар;

– коррупциявий жиноятлар.

Таҳлил ва натижалар (Analysis and results). Уюшган жиноий гуруҳлар жаҳон наркобозорининг фаолият юритишида муҳим ўрин тутади. Улар наркотик моддаларни ишлаб чиқариш, ташиш ва тарқатишни таъминлайдиган мураккаб логистик тармоқларни шакллантиради. Уюшган жиноятчилик юқори даражадаги латентлик (яширинлик) билан ажралиб туради ва бу кўрсаткич 80 % гача етиши мумкин. Бу ҳолат табиий ҳамда сунъий омиллар билан изоҳланади.

Латентликнинг табиий омилларига жиноятчиларнинг юқори даражада тайёргарлиги ва профессионализми киради. Бу эса жиноятларни фош этишни анча қийинлаштиради (айниқса наркотик моддаларнинг ноқонуний айланмаси, фирибгарлик ва иқтисодий фаолият соҳаларида). Шунингдек, жабрланувчилар ва гувоҳларнинг эркинликда юрган жиноий тузилма вакилларидан эҳтимолий қасос олишидан қўрқиши ҳам муҳим омил ҳисобланади.

Бундан ташқари, бутунжаҳон Интернет тармоғи орқали тақиқланган моддаларни етказиб беришга қаратилган наркотрафик шаклланган. Уларнинг тарқатилиши нафақат бир давлат доирасида, балки давлатлараро даражада ҳам амалга оширилмоқда. Бу жараёнда «Даркнет» (ёки «қора интернет», «соявий

интернет») алоҳида аҳамиятга эга. У Интернетнинг фақат махсус браузерлар орқали кириш мумкин бўлган яширин сегменти ҳисобланади. Унинг ёрдамида наркосавдогарлар хавфсиз наркотик моддаларни аноним тарзда сотиш имкониятига эга бўладилар.

Шунингдек, криптовалюталар пайдо бўлиши билан молиявий транзакцияларни кузатиш янада қийинлашмоқда. Бу эса халқаро наркобизнеснинг ривожланишига ва наркотик моддаларнинг ноқонуний айланмаси муаммосининг кескинлашишига сабаб бўлмоқда.

Наркотик воситаларнинг давлатлараро даражадаги ноқонуний айланмаси трансмиллий жиноятчилик турига киритилади.

Баҳолашларга кўра, 2009 йилда унинг айланмаси 870 млрд АҚШ долларини ташкил этган бўлиб, бу жаҳон ялпи ички маҳсулотининг 1,5 %га тенгдир. Бу сумма ўша йилда ривожланиш мақсадлари учун ажратилган расмий ёрдам ҳажмидан олти баравардан ҳам кўп ва жаҳон товар экспортининг қарийб етти фоизига тенг бўлган [7].

Трансмиллий жиноятчиликнинг асосий функцияларига қуйидагилар киради:

1. наркотик моддалар ишлаб чиқарилишини назорат қилиш;
2. халқаро ташиш каналларини ташкил этиш;
3. миллий бозорларда наркотикларни тарқатиш;
4. жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштириш.

Замонавий жиноий тармоқлар юқори даражадаги мослашувчанликка эга. Улар марказлашмаган (децентрализован) тузилмалардан фойдаланади, бу эса ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ҳаракатларига самарали мослашиш имконини беради.

Трансмиллий наркожиноятчилик — бу бир нечта давлат ҳудудида амалга ошириладиган ва наркотикларнинг ноқонуний айланмасидан катта молиявий фойда олишга қаратилган уюшган жиноий фаолият шаклидир. У кўламдорлиги ва мураккаблиги билан ажралиб туради ва шу сабабли энг жиддий глобал муаммолардан бири ҳисобланади [8, 110-б.]. Бундай даражадаги жиноий фаолият мураккаб, кўп босқичли уюшган тузилмаларни яратишни назарда тутади.

Трансмиллий жиноятчилик ривожланишининг салбий тенденцияларини таҳлил қилар экан, Н.Н. Дьяченко ва С.П. Вайле замонавий шароитда у шундай миқёсга етганини таъкидлайдиларки, бу унга тизим яратувчи хусусият бахш этади. Уларнинг фикрича, трансмиллий жиноятчилик амалда жамият ҳаётининг барча муҳим соҳаларига — сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий соҳаларга кириб борган. Тадқиқотчилар энг кўзга ташланадиган тенденциялар сифатида жиноий йўл билан олинган даромадларни легаллаштириш жараёнларининг кучайишини,

тадбиркорлик фаолиятини қонуний амалга оширишга қарши қаратилган тажовузлар сонининг ортишини, уюшган жиноий гуруҳларнинг йириклашуви ва бирлашувини, шунингдек уларнинг ички тузилмасининг мураккаблашуви ҳамда жиноий фаолият профессионаллик даражасининг ўсишини кўрсатадилар [9, 76-б.].

Трансмиллий жиноятчиликни қуйидаги белгилари мавжуд:

1. жиноий бирлашмаларнинг тузилмалашганлиги ва юқори даражада ташкил этилганлиги;

2. моддий базанинг мавжудлиги;

3. қонуний кўринишга эга бўлган фаолият турларининг мавжудлиги;

4. ҳокимият билан коррупцион алоқалар ва бошқалар.

Трансмиллий наркожиноятчилик бир қатор сабабларга кўра жамият учун жиддий хавф туғдиради. Асосий хавфлардан бири — наркотик моддалар тарқалиши натижасида миллат генофондига етказиладиган ҳалокатли таъсиридир. Наркосавдо билан шуғулланувчи ташкилотлар кўпинча зўравонлик билан боғлиқ фаолиятга ҳам жалб этилган бўлиб, бу эса оддий фуқаролар хавфсизлигига таҳдид солади.

Бундан ташқари, жиноятчиликнинг ушбу шакли давлатда коррупциянинг ривожланишига сабаб бўлади, қонунийлик ва ҳуқуқ-тартиботни издан чиқаради, бу эса охир-оқибат жамият барқарорлигининг бузилишига олиб келади.

Л.В. Глазкованинг фикрига кўра, замонавий уюшган жиноятчилик мураккаб тизимли табиатга эга. Уюшган жиноятчиликнинг асосини ташкил этувчи профессионал, иқтисодий ва коррупциявий жиноятчилик кўплаб мутахассислар — бухгалтерлар, молиячилар, ҳуқуқшунослар ва банкирлар иштирокисиз фаолият юритиши ва ривожланиши мумкин эмас. Уларнинг ёрдами фақат айрим жиноятларни содир этишни таъминлаш билангина чекланмайди, балки ноқонуний йўл билан олинган даромадларни легаллаштириш, молиявий операцияларни амалга ошириш ва жиноий келиб чиқишга эга бўлган пул маблағлари ҳамда мол-мулкка эгалик қилиш, улардан фойдаланиш ва тасарруф этишга қонуний тус беришга қаратилган битимларни тузишда ҳам намоён бўлади.

Жиноий ва жиноятга яқин манфаатларнинг чамбарчас боғланиб кетиши натижасида уюшган жиноий гуруҳлар ва жиноий жамоаларга хизмат қилувчи яширин (тенг) тизимлар шаклланади. Бундай тизимлар доирасида наркожиноятчилик жамият билан ўзаро алоқада бўлиб, жамоатчилик онгига таъсир кўрсатади ва жиноий мафкура ҳамда жиноий хулқ-атвор моделларининг тарқалишига сабаб бўлади [10, 84-б.].

Шунингдек, наркотик моддаларнинг ноқонуний савдосидан олинган маблағлар бошқа турдаги жиноий фаолиятни, жумладан терроризмни молиялаштиришга ҳам йўналтирилиши мумкин.

Трансмиллий наркожиноятчилик жаҳон миқёсига эга бўлиб, давлатлар чегараларини кесиб ўтади ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг ушбу ҳодисага қарши курашиш вазифаларини янада мураккаблаштиради.

Наркотик моддалар ва уларнинг прекурсорларининг ноқонуний айланмаси билан боғлиқ трансмиллий жиноий гуруҳлар ва ташкилотлар фаолияти расман Ўзбекистон Республикасининг миллий хавфсизлигига таҳдид сифатида эътироф этилган. Наркобизнес жамоат тартибига, иқтисодий хавфсизликка ҳамда давлат бошқаруви тизимига жиддий зарар етказади.

Шунинг учун давлат ва унинг тегишли органлари олдида турган устувор вазифалардан бири — наркобизнесга ихтисослашган жиноий гуруҳларни аниқлаш ва бартараф этиш, наркотик моддалар ва уларнинг прекурсорларини ишлаб чиқарувчилар ҳамда тарқатувчиларни жавобгарликка тортиш, шунингдек ўз вақтида ва самарали давлат антинаркотик сиёсатини амалга оширишдан иборат.

Баён этилганлардан хулоса қилиш мумкинки, уюшган жиноятчилик феномени келгусида ҳам чуқур криминологик тадқиқотларни талаб қилади.

Бундай тадқиқотларнинг асосий мақсади — уюшган жиноий гуруҳлар ва жиноий жамоалар фаолиятига нисбатан янада самарали профилактик таъсир механизмларини излаб топиш ва ишлаб чиқишдир. Фақат илмий ёндашувларни такомиллаштириш ва профилактика чораларини амалиётга татбиқ этиш орқалигина уюшган жиноятчиликка қарши кураш тизими унинг ҳозирги даражаси ва ривожланиш хусусиятларига мос равишда самарали бўлиши мумкин.

Ўзбекистон Республикасида 2024–2028 йилларга мўлжалланган Наркомания ва наркожиноятчиликка қарши курашиш Миллий стратегиясининг устувор мақсадларига эришиш бўйича комплекс чора-тадбирларни белгилаш, аҳолини, айниқса ёшлар саломатлиги ва миллат генофондини самарали ҳимоя қилиш, шунингдек наркомания ва уюшган наркожиноятчиликка қарши кураш фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш мақсадида 2025 йил 3 ноябрда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Аҳоли саломатлиги ва миллат генофондини наркомания ва наркожиноятлардан самарали ҳимоя қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ–207-сон Фармони қабул қилинди [11].

Ушбу фармон билан 2025–2026 йилларга мўлжалланган наркомания ва наркожиноятчиликни барвақт олдини олиш ва унга қарши курашиш бўйича комплекс амалий чора-тадбирлар Миллий дастури тасдиқланди.

Миллий дастур миллий хавфсизликни таъминлаш соҳасидаги стратегик режалаштириш ҳужжати ҳисобланади ва давлатнинг антинаркотик сиёсати амалга оширилишини таъминлашга қаратилган.

Фармон ва дастурнинг асосий қоидалари қуйидагиларни ўз ичига олади:

— антинаркотик сиёсатни такомиллаштириш ва наркотик воситалар айланмаси устидан давлат назоратини кучайтириш, жумладан қонунчиликни, технологияларни ва мониторинг тизимини ривожлантириш;

— таълим дастурлари, оммавий ахборот воситалари билан ишлаш ва кўнгиллилар иштирокини таъминлаш орқали наркотикларни ноқонуний истеъмол қилишнинг олдини олиш ҳамда уни эрта аниқлаш;

— даволаш, реабилитация ва эрта ташхис қўйиш тизимини ривожлантириш орқали наркотикка қарамлар сонини камайтириш;

— чегараларда назоратни кучайтириш ва уюшган жиноий гуруҳларга қарши курашни фаоллаштириш орқали наркотик моддалар айланмаси соҳасидаги жиноятларни камайтириш;

— наркотикларнинг ноқонуний айланмасига қарши курашда халқаро ҳамкорликни ривожлантириш.

Ўзбекистон наркотик моддалар тарқалишига қарши кураш ва улар устидан назоратни кучайтириш соҳасидаги халқаро мажбуриятларни изчил бажариб келмоқда. Хусусан, 1995 йил февраль ойида республика БМТнинг наркотиклар устидан назорат қилишга оид конвенцияларига қўшилди, 1999 йил август ойида мамлакатда “Наркотик воситалар ва психотроп моддалар тўғрисида”ги Қонун қабул қилинди [12], 2021 йил январь ойида эса “Наркологик касалликларни профилактика қилиш ва даволаш тўғрисида”ги Қонун кучга кирди [13].

Ҳозирги вақтда БМТнинг Наркотиклар ва жиноятчилик бўйича бошқармаси (УНП ООН) билан ҳамкорликда Ўзбекистонда қуйидаги минтақавий лойиҳалар амалга оширилмоқда:

1. Минтақавий лойиҳа «Наркотик воситалар, психотроп моддалар ва уларнинг прекурсорларининг ноқонуний айланмасига қарши курашиш бўйича Марказий Осиё минтақавий ахборот-мувофиқлаштириш марказини (ЦАРИКЦ) ташкил этиш» (умумий бюджети — 15,4 млн АҚШ доллари).

Лойиҳа доирасида ЦАРИКЦни ташкил этиш тўғрисидаги келишув иштирокчи давлатларининг миллий координаторлари Кенгашининг бир нечта йиғилишлари ўтказилди. Уларда келгуси 2 йил учун фаолиятнинг асосий йўналишлари белгиланди ҳамда марказ фаолиятига доир энг долзарб масалалар кўриб чиқилди.

2. Минтақавий лойиҳа «Treatment II — наркологик қарамликни ва унинг соғлиққа салбий оқибатларини даволаш» (1 млн 490 минг АҚШ доллари).

Лойиҳа доирасида соғлиқни сақлаш, меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирликлари мутахассислари минтақавий тренингларда иштирок этмоқда.

3. Минтақавий лойиҳа «Ёшлар ўртасида психоактив моддаларни суиистеъмол қилиш, ОИТС/ВИЧ ва жиноятчиликнинг олдини олиш — оилада ҳаёт кўникмаларини шакллантириш бўйича таълим дастурлари орқали».

Ҳозирги вақтда мазкур лойиҳа доирасида «Оила ва мактаб биргаликда» дастури Тошкент шаҳрида ва республиканинг учта ҳудудида кичик мактаб ёшидаги болалар учун амалга оширилмоқда.

4. Минтақавий лойиҳа «Афғон опиатларининг шимолий йўналиш орқали ноқонуний айланмасига қарши курашиш — асосий чегара пунктлари салоҳиятини кучайтириш ва чегара алоқа бўлинмасини ташкил этиш орқали»

(умумий бюджети — 1,3 млн АҚШ доллари) [14].

Трансмиллий наркожиноятчилик таҳдиди шароитида давлат антинаркотик сиёсатини амалга ошириш Ўзбекистон Республикасининг миллий хавфсизлигини таъминлашда ниҳоятда муҳим аҳамиятга эга. Наркобизнесга қарши самарали курашиш ва трансмиллий жиноий гуруҳларга қарши таъсирчан чоралар кўриш учун, бизнинг фикримизча, қуйидаги амалий чора-тадбирларни амалга ошириш зарур:

1. Наркокартеллар ва наркотик моддаларнинг ноқонуний айланмаси билан шуғулланувчи жиноий ташкилотлар фаолиятини аниқлаш ва бартараф этиш мақсадида оператив-қидирув фаолияти усуллари ва технологияларини такомиллаштириш.

2. Наркобизнесга қарши кураш самарадорлигини пасайтириши мумкин бўлган ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ҳамда давлат тузилмалари ичидаги коррупцион схемаларни аниқлаш ва уларга чек қўйиш, шунингдек назоратни кучайтириш.

3. Трансмиллий наркожиноятчиликка қарши курашиш бўйича ахборот алмашиш, қўшма операциялар ўтказиш ва халқаро стратегияларни ишлаб чиқиш мақсадида бошқа давлатлар билан ҳамкорликни кучайтириш.

4. Наркотик моддалар тарқалишининг олдини олиш ҳамда наркологик қарам шахсларга ёрдам кўрсатиш мақсадида наркомания профилактикаси ва наркологик қарамликдан реабилитация қилишнинг самарали дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш.

Фойдаланилган адабиёт:

1. UNODC. Global cocaine production statistics.

2. БМТнинг 2025 йилги гиёҳванд моддалар тўғрисидаги жаҳон ҳисоботи. UNODC Наркотиклар ва жиноятчиликка қарши кураш бошқармаси. Асосий хулосалар. Б.-14.

3. Более 11 тысяч человек привлекли к ответственности за наркопреступления в 2025 году // https://www.gazeta.uz/ru/2026/02/04/drug-crimes.

4. Михайлов А.Е., Семенов С.А., Тараканов И.А. Организованная преступность: состояние и тенденции // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. 2020. №12-2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/organizovannaya-prestupnost-sostoyanie-i-tendentsii (дата обращения: 06.03.2026).

5. Долгова А.И. Организованная преступность, ее развитие и борьба с ней II Организованная преступность-3. М., 1996. С. 20.

6. Селиверстов И.Н. Социальная опасность организованной преступности: новые тенденции в XXI веке // Юридическая мысль. 2019. № 4-5 (114-115). С. 108-120.

7. Транснациональная организованная преступность: глобализованная нелегальная экономика // URL: https://www.unodc.org/toc/ru/crimes/organized-crime.html.

8. Михайлов Алексей Евгеньевич, Семенов Сергей Александрович, Тараканов Илья Александрович Организованная преступность: состояние и тенденции // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. 2020. №12-2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/organizovannaya-prestupnost-sostoyanie-i-tendentsii (дата обращения: 06.03.2026).

9. Дьяченко Н.Н. Состояние и тенденции современной организованной преступности / Н.Н. Дьяченко, С.П. Вайле // Деятельность правоохранительных органов в современных условиях. Сборник материалов XXV международной научно-практической конференции. Саратов, 2020. С. 7582.

10. Глазкова Л.В. Взаимодействие систем организованной преступности и коррупции // Актуальные проблемы российского права. 2019. № 7(104). С. 77-86.

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 03.11.2025 йилдаги ПФ-207-сон Фармони «Аҳоли саломатлиги ва миллат генофондини гиёҳвандлик ва наркожиноятлардан самарали ҳимоя қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида» // URL: https://lex.uz/ru/docs/7818779.

12. Ўзбекистон Республикасининг 19.08.1999 йилдаги «Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида» 813-I-сон Қонуни // URL: https://lex.uz/docs/86028?ONDATE2=02.06.2022&action=compare.

13. Ўзбекистон Республикасининг 27.10.2020 йилдаги «Наркологик касалликлар профилактикаси ва уларни даволаш тўғрисида» ЎРҚ-644-сон Қонуни // URL: https://lex.uz/uz/docs/5069150.

14. URL: https://www.uzbekistan.org.ua/ru/vneshnyaya-politika/uzbekistan-i-mezhdunarodnye-organizatsii/153-vneshnyaya-politika/uzbekistan-i-voprosy-mezhdunarodnoj-bezopasnosti.html.

ОММАВИЙ ТАДБИРЛАР ЖАРАЁНИДА ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ

Юсупов Мухтар Бекчанович,
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги
университети мустақил изланувчиси

Аннотация: Мазкур мақолада оммавий тадбирлар жараёнида жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг замонавий ривожланиш тенденциялари илмий-назарий ва амалий жиҳатдан таҳлил қилинган. Тадқиқотда оммавий тадбирларни ташкил этиш ва ўтказиш жараёнида хавфсизликни таъминлашнинг ташкилий-ҳуқуқий механизмлари, хавф-хатарларни баҳолаш усуллари ҳамда профилактика чоралари ёритилган. Шунингдек, рақамли технологиялар, интеллектуал кузатув тизимлари, видеомониторинг, ахборот алмашинуви ва идоралараро ҳамкорликнинг аҳамияти таҳлил қилинган. Мақолада халқаро тажриба асосида жамоат хавфсизлигини таъминлаш тизимини такомиллаштиришга қаратилган илмий таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: оммавий тадбир, жамоат хавфсизлиги, хавф-хатар, профилактика, видеокузатув, рақамли технологиялар, идоралараро ҳамкорлик, хавфни баҳолаш, хавфсизлик тизими, тенденциялар.

Аннотация: В данной статье анализируются современные тенденции развития обеспечения общественной безопасности в процессе проведения массовых мероприятий. В исследовании раскрываются организационно-правовые механизмы обеспечения безопасности, методы оценки рисков и профилактические меры при организации и проведении массовых мероприятий. Особое внимание уделяется роли цифровых технологий, интеллектуальных систем наблюдения, видеомониторинга, обмена информацией и межведомственного взаимодействия. На основе международного опыта разработаны научно обоснованные предложения по совершенствованию системы обеспечения общественной безопасности.

Ключевые слова: массовые мероприятия, общественная безопасность, риски, профилактика, видеонаблюдение, цифровые технологии,

межведомственное взаимодействие, оценка рисков, система безопасности, тенденции.

Ҳозирги глобал хавфсизлик муҳитида оммавий тадбирлар давомида жамоат хавфсизлигини таъминлаш тобора долзарб масалага айланиб бормоқда. Терроризм, экстремизм, оммавий тартибсизликлар, ноқонуний миграция, радикаллашув, кибертаҳдидлар каби хатарлар ушбу йўналишдаги чора-тадбирларнинг такомиллашувини тақозо қилмоқда.

Хавфсизликни таъминлашга оид замонавий ёндашувлар ичида Миллий гвардия ва ички ишлар органлари фаолиятини тартибга солиш, интеллектуал технологиялардан фойдаланиш, давлат ва жамоатчилик ҳамкорлигини ривожлантириш каби йўналишлар устувор аҳамият касб этмоқда.

Мамлакатимиз ҳудудида инсон ва фуқаронинг шахсий хавфсизлигини, унинг конституциявий ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш, шахс ва жамият хавфсизлигининг кафолати сифатида давлатнинг ролини кучайтириш, бунинг учун зарур бўлган ҳуқуқий базани яратиш ва уни қўллаш механизми ҳозирги кунда миллий хавфсизликни таъминлаш тенденциясининг асосий вазифалари сифатида қаралмоқда.

Оммавий тадбирларда хавфсизликни таъминлаш бўйича бир қатор халқаро ва миллий олимлар муҳим илмий-назарий қарашлар билдиришган.

В.М. Бутлернинг таъкидлашича, жамоат хавфсизлиги жамиятдаги ижтимоий ҳамжиҳатликни сақлашга қаратилган ва у жамоатчилик муносабатларини тартибга солишда муҳим ўрин тутади[1].

В.Л. Васильев оммавий тадбирлар жамоатчилик фикрини шакллантиришда муҳим роль ўйнашини таъкидлайди ва бундай тадбирларнинг ҳуқуқий асослари давлат қонунчилиги билан мустаҳкамланган бўлиши кераклигини айтади[2].

С.А. Митрофанов оммавий тадбирларни *"жамоатчилик иштирокида ўтказиладиган ижтимоий ҳаракатлар"* сифатида таърифлайди ва уларни ўтказишда хавфсизлик чораларини кучайтириш зарурлигини кўрсатади[3].

И.Қурбоновнинг таъкидлашича, жамоат хавфсизлиги таъминланмаса, ноқонуний оммавий ҳаракатлар экстремизм ва терроризм таҳдидларини кучайтириши мумкин. Шунинг учун, хавфсизликни таъминлаш механизми қонунчилик билан аниқ тартибга солиниши лозим[4].

[1] Бутлер В.М. "Публичная безопасность в условиях урбанизации", 2017. – С.22.
[2] Васильев В.Л. "Юридические аспекты массовых мероприятий", 2015. – С. 47.
[3] Митрофанов С.А. "Обеспечение общественной безопасности", 2019. –С.13.
[4] Қурбонов И. "Правовое регулирование массовых мероприятий", 2021. С.31.

Оммавий тадбирлар жамиятнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётида муҳим ўрин тутади. Уларнинг самарали ташкил этилиши ва хавфсизлиги таъминланиши давлат барқарорлиги, фуқаролик ҳуқуқларини амалга ошириш ва ижтимоий ҳамжиҳатликни сақлашда катта аҳамият касб этади. Лекин оммавий тадбирларнинг ҳуқуқий асослари, уларнинг ижтимоий таъсири ва хавфсизлик чораларига оид илмий қарашлар ўртасида жиддий полемика мавжуд.

В.М. Бутлернинг фикрига кўра, жамоат хавфсизлиги – бу жамиятдаги ижтимоий ҳамжиҳатликни сақлашга қаратилган жараён бўлиб, у жамоатчилик муносабатларини тартибга солишда муҳим аҳамият касб этади. Бу ёндашувдан келиб чиқиб, жамоат хавфсизлиги асосан профилактик тадбирлар, ҳуқуқий тартиб ва жамоат ташкилотлари билан ҳамкорлик асосида таъминланиши лозим. Шу нуқтаи назардан, давлат органлари ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи идоралар нафақат хавфсизлик чораларини кучайтириши, балки ижтимоий барқарорликни сақлашга йўналтирилган дастурларни ишлаб чиқиши зарур.

Бутлернинг ёндашуви амалиётда муҳим аҳамиятга эга, аммо унинг фикрида жамоат хавфсизлигига ташқи таҳдидлар ва оммавий тадбирлар давомида юзага келиши мумкин бўлган фавқулодда ҳолатлар етарлича ёритилмаган. Масалан, терроризм, экстремизм ёки ноқонуний оммавий ҳаракатларнинг пайдо бўлиши хавфсизликни таъминлашда фақат ижтимоий ҳамжиҳатликни сақлаш билан чекланиб қолмаслигини кўрсатади. Демак, хавфсизликни таъминлашда қонуний нормалар ва куч тизимларининг фаол иштироки ҳам жуда муҳимдир.

Бу нуқтайи назарни В.Л. Васильев ҳам қўллаб-қувватлайди. Унинг фикрича, оммавий тадбирлар жамоатчилик фикрини шакллантиришда муҳим роль ўйнайди ва бундай тадбирларнинг ҳуқуқий асослари давлат қонунчилиги билан мустаҳкамланган бўлиши керак. Бу қараш амалда жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг ҳуқуқий жиҳатини алоҳида урғу билан ёритади. В. Васильев фикрига кўра, давлат органлари оммавий тадбирларни тартибга солувчи аниқ қонунлар ва ҳуқуқий механизмлар ишлаб чиқиши керак. Шу нуқтаи назардан, оммавий тадбирларни ўтказиш учун расмий рухсатномалар, хавфсизлик текширувлари ва жамоат тартибини бузган ҳолатлар учун маъмурий ва жиноий жавобгарликни белгилаш муҳим ҳисобланади.

В. Васильевнинг фикри амалда самарали бўлиши мумкин, аммо унинг ёндашуви орқали оммавий тадбирларнинг табиий равишда пайдо бўлиши ва фуқаролик жамиятининг эркин фаолият юритиши чекланиши мумкин. Масалан, жамоатчилик норозилиги ёки сиёсий ҳаракатлар ўз фикрини эркин билдиришига тўсиқ яратилиши мумкин. Шу сабабли, ҳуқуқий механизмлар жамоат хавфсизлигини таъминлаш билан бир қаторда, инсон ҳуқуқлари ва демократик тамойилларга зид бўлмаслиги лозим.

С.А. Митрофанов эса оммавий тадбирларни "жамоатчилик иштирокида ўтказиладиган ижтимоий ҳаракатлар" сифатида таърифлайди ва уларни ўтказишда хавфсизлик чораларини кучайтириш зарурлигини таъкидлайди. Унинг фикрига кўра, ҳар қандай оммавий тадбирни хавфсизлик кафолати билан ўтказиш давлатнинг биринчи даражали вазифаси бўлиши керак. Митрофанов, айниқса, жамоат тартибини бузиш ҳолатларига қарши чоралар, видеокузатув тизимларидан фойдаланиш, полиция ва махсус кучларнинг ваколатларини ошириш зарурлигини таъкидлайди.

Унинг ёндашуви хавфсизлик нуқтаи назаридан долзарб саналади, аммо бу ёндашув ҳаддан ташқари куч ишлатишга ёки ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ўрнига жазо чораларини кучайтиришга сабаб бўлиши мумкин. Масалан, жамоат тартибини бузиш эҳтимоли бор деб ҳисобланган тадбирлар ноқонуний деб белгиланиши ва бундан сиёсий ёки ижтимоий мақсадларда фойдаланилиши мумкин. Шу сабабли, хавфсизлик чоралари инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини бузмаслиги керак.

И.Қурбонов эса хавфсизликни таъминлаш механизмини тартибга солишга алоҳида эътибор қаратади. Унинг фикрича, жамоат хавфсизлиги таъминланмаса, ноқонуний оммавий ҳаракатлар экстремизм ва терроризм таҳдидларини кучайтириши мумкин, шунинг учун хавфсизликни таъминлаш механизми қонунчилик билан аниқ тартибга солиниши лозим. Ушбу ёндашувда хавфсизлик масаласи оммавий тадбирлар орқали юзага келиши мумкин бўлган таҳдидларга нисбатан стратегик ёндашувни назарда тутади. Масалан, ноқонуний оммавий ҳаракатлар орқали тартибсизликлар, давлат тузумига қарши чиқишлар ва экстремистик ҳаракатлар юзага келиши мумкин. И. Қурбоновнинг фикрига кўра, бундай ҳолатларнинг олдини олиш учун хавфсизликни таъминлашда давлат органларининг самарадорлигини ошириш, уларни замонавий технологиялар билан таъминлаш ва ҳуқуқий механизмларни кучайтириш зарур.

И. Қурбоновнинг ёндашуви хавфсизлик нуқтаи назаридан муҳим, лекин у давлатнинг фуқаролик жамияти устидан ортиқча назоратига олиб келиши мумкин. Масалан, хавфсизликни таъминлаш баҳонасида тинч намойишлар ёки сиёсий тадбирлар тақиқланиши мумкин. Шунинг учун хавфсизлик ва демократия ўртасида мувозанат сақланиши керак.

Юқоридаги фикрлардан келиб чиқиб, оммавий тадбирлар ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича турли ёндашувлар мавжуд. Бутлер ижтимоий ҳамжиҳатликни сақлашни устувор мақсад деб ҳисобласа, В.Васильев ҳуқуқий тартибга солишни биринчи ўринга қўяди. С.Митрофанов хавфсизлик чораларини кучайтиришни муҳим деб билса, И.Қурбонов жамоат тартибини таъминлашда давлатнинг стратегик назоратини кучайтиришга эътибор қаратади.

Амалиётда эса бу ёндашувлар мувозанатли тарзда қўлланилиши керак. Давлат органлари хавфсизликни таъминлаши зарур, лекин бу жараёнда инсон ҳуқуқлари, демократик тамойиллар ва жамоатчилик фикри инобатга олиниши лозим. Шу сабабли, хавфсизлик ва фуқаролик жамияти эркинликлари ўртасидаги мувозанатни таъминлаш орқали, ҳар қандай оммавий тадбирнинг хавфсиз ва самарали ўтказилишига эришиш мумкин.

Оммавий тадбирларнинг хавфсизлигини таъминлаш борасида Ўзбекистон Республикаси қонунчилигида бир қатор асосий ҳужжатлар мавжуд:

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 38-моддасига кўра, фуқаролар ўз ижтимоий фаолликларини митинглар, йиғилишлар ва намойишлар шаклида амалга ошириш ҳуқуқига эга. Давлат органлари бундай тадбирларни хавфсизлик нуқтаи назаридан чеклаши ёки тақиқлаш мумкин.

Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси (201-модда) да жамоат тартибини бузиши мумкин бўлган ноқонуний йиғилишлар, митинглар ва намойишларни ташкил этиш ёки уларда иштирок этиш учун маъмурий жавобгарлик белгиланган бўлса, Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси 217-моддасида келишилмаган ёки экстремистик мазмундаги оммавий тадбирларни ташкил қилиш учун жиноий жавобгарлик белгиланган.

Ўзбекистон Республикасининг "Жамоат хавфсизлиги концепцияси" (2021 йил)га кўра, Миллий гвардия ва Ички ишлар органлари оммавий тадбирларда хавфсизликни таъминлаш бўйича махсус ваколатларга эга. Шунингдек, хавфсизлик чора-тадбирларини амалга оширишда жамоат ташкилотлари ва фуқаролик жамияти институтлари ҳам жалб этилиши керак.

Вазирлар Маҳкамасининг 205-сон қарори (2014 йил 29 июль)га кўра "Оммавий тадбирларни ташкил этиш ва ўтказиш тартибини такомиллаштириш" ҳақидаги ушбу қарорда жамоат хавфсизлигини таъминлаш учун махсус қоидалар белгиланган. Масалан, тадбир давомида алкоголли ичимликларни сотишни чеклаш, хавфсизлик тадбирларини амалга ошириш талаб этилади.

Фикримизча, оммавий тадбирларда хавфсизликни таъминлаш бўйича замонавий тенденциялар қуйидагилардан иборат:

1. Интеллектуал хавфсизлик тизимлари:

Дунё тажрибаси шуни кўрсатмоқдаки, видео кузатув, сунъий интеллект орқали мониторинг, биометрик идентификация каби технологиялар хавфсизликни таъминлашнинг самарали усули ҳисобланади.

2. Куч тизимлари ўртасидаги ҳамкорлик:

Ўзбекистонда Миллий гвардия, ИИВ, ДХХ, ФВВ ва Бош прокуратура ўртасидаги ҳамкорликни кучайтириш орқали хавфсизликни таъминлаш механизми такомиллаштирилмоқда.

3. Фуқаролик жамиятининг иштироки:

Жамоат хавфсизлигини таъминлашда волонтёрлар, жамоатчилик назорати ва фуқароларнинг фаол иштироки муҳим ўрин тутади.

4. Халқаро ҳамкорлик:

Ўзбекистон халқаро тажрибани ўрганиб, хавфсизлик чораларини такомиллаштириш борасида ЕХҲТ, ШҲТ ва БМТ билан ҳамкорликни кучайтирмоқда.

Оммавий тадбирлар сони йилдан-йилга ўсиб бормоқда. Таҳлиллар натижалари ҳам шуни кўрсатмоқда. Масалан, 2018 йил 74 811 та оммавий тадбир ўтказилган бўлса, 2021 йили 81 488 тани ташкил қилган, 2022 йилда эса 153 676 та оммавий тадбирлар ўтказилган. 2022 йилда ўтказилган тадбирларнинг 6850 тасини ёки 4,45 фоизини ижтимоий-сиёсий, 14383 тасини ёки 9,35 фоизини маданий, 8885 тасини ёки 5,78 фоизини спорт ҳамда 123558 тасини ёки 80,4 фоизини бошқа тадбирлар ташкил қилмоқда. Оммавий тадбирларда иштирок этган фуқаролар сони ҳам мунтазам равишда ўсиб бормоқда, масалан 2018 йил 40 259 051 нафар, 2021 йил 58 995 615 нафар, 2022 йилда эса 78 768 401 нафар фуқаролар оммавий тадбирларда иштирок этишган (1-расмга қаранг).[1]

1-расм. 2018-2022 йилларда республика бўйича ўтказилган оммавий тадбирлар

Юқоридаги статистик маълумотлардан кўриниб турганидек, оммавий тадбирлар вақтида жамоат хавфсизлигини таъминлаш, тобора қийинлашиб бормоқда, шу билан бирга, оммавий тадбир жараёнида, жамоат тартибини

[1] Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Ҳуқуқий статистика ва тезкор-ҳисоб маълумотлар марказининг 2023 йил 13 январь 7/9-483

бузиш, шунингдек, террористик ҳаракатлар ва жамоат хавфсизлигига бошқа тажовузлар хавфи сезиларли даражада ошмоқда, бу эса қонун устуворлигини таъминлаш учун катта куч ва воситаларни жалб қилинишини талаб қилади.

Ижтимоий-иқтисодий соҳадаги жиддий ўзгаришлар ижтимоий муносабатларнинг ҳолатига сезиларли таъсир кўрсатмоқда, кўплаб ижтимоий можароларнинг кучайишига олиб келди, кўпинча ноқонуний оммавий ҳаракатлар шаклида ўз ифодасини топмоқда. Ҳар йили кўпчилик давлатларда белгиланган тартибни бузган ҳолда ҳеч қандай огоҳлантиришсиз ўтказиладиган оммавий тадбирларнинг катта қисми қайд этилмоқда.

1990 йилларнинг бошларида ижтимоий-сиёсий вазият кўпчилик давлатларининг замонавий ижтимоий-сиёсий ҳаёти воқеликларини таҳлил қилиш, маълум шароитларда оммавий норозилик намойишлари айрим минтақалар аҳолиси хавфсизлигига, иқтисодиётга ва давлат тизимининг барқарорлигига таҳдид соладиган оммавий тартибсизликлар бўлмоқда.

Янги минг йилликнинг бошида терроризм жамоат хавфсизлигини таъминлашдаги энг муҳим таҳдиддир. Шу муносабат билан амалдаги халқаро ҳуқуқни муҳофаза қилиш тизимининг ташкилий тузилиши, унинг вазифалари ўзгариб бормоқда. Шу билан бирга, бу оммавий йиғилиш жойлардаги оммавий тадбирлар террорчилик ҳужумларининг анъанавий объекти бўлиб қолмоқда.

Оммавий тадбирларни ўтказишда жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг зарурий шарти уларни ташкил этиш ва ўтказиш тартибини, шунингдек, давлат ҳокимияти ва маҳаллий ўзини-ўзи бошқариш органларининг ушбу тартиб бузилишининг олдини олиш, содир этилган тақдирда айбдорларни жавобгарликка тортишга қаратилган ҳаракатларини аниқ қонуний тартибга солишдан иборатдир.

Фикримизча, оммавий тадбирлар шароитида жамоат хавфсизлигига мавжуд таҳдидларни ҳисобга олган ҳолда, ушбу ижтимоий муносабатларни ҳимоя қилиш ва таъминлашнинг маъмурий-ҳуқуқий воситаларидан фойдаланишнинг ҳуқуқий асослари такомиллаштирилиши керак.

Оммавий тадбирларни ўтказишда жамоат хавфсизлигини таъминлаш муаммоси етарли даражада ўрганилмаган.

Оммавий тадбирларни ўтказиш жараёнида жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг ривожланиш тенденцияларини такомиллаштиришда аввалambор, оммавий тадбирларни ташкил этишда хавфсизликни таъминлаш ва хавфни олдини олишга қаратилганлигидадир. Бу эса мураккаб ва масъулиятли вазифа. Фақатгина ташкилий кўникмалар етарли бўлмаслиги аниқ. Бу кўп қиррали билим, тажриба, яхши ривожланган сезги ва олдиндан кўра билишни, шунингдек, режанинг сифатига қараб катта миқдордаги маҳоратни талаб қилади.

Ҳар қандай тадбирни ташкил қилишда биринчи ўринда ҳар доим қонуний амалга оширилиши лозимлиги белгиланган. Шундагина барча режа ва ҳаракатлар бекорга сарфланмайди. Режалаштирилган оммавий ҳодисанинг фавқулодда ҳолатга айланишининг олдини олиш учун қонун ҳужжатларига риоя қилиш, қонунда мустаҳкамланган барча жорий талабларга қатъий риоя қилиш, муайян қоидалар ва тавсияларга амал қилишимиз лозимдир.

Одамларнинг йиғилиши сув оқимига ўхшайди - нормал шароитда у канал бўйлаб оқади, лекин элементлар кўпайиб кетганда, у “тошиб кетиши”, йўлидаги ҳамма нарсани суриб ташлаши ва йўқ қилиши мумкин. Одамлар ҳиссиётли, улар ваҳима қўзғашга қодир, бирор нарсадан қўрқиш одамни хотиржам ҳолатда қолдирмайди.

Шунинг учун, оммавий тадбирларни ташкил қилишда, биринчи навбатда, барча иштирокчиларнинг хавфсизлигини таъминлаш учун кўп нарсаларни олдиндан кўра билиш керак ва кейин уларнинг ҳатти-ҳаракатларини қандай қилиб иложи борича қулайроқ қилиш ҳақида ўйлаймиз. Бунда фақат бизнинг тизимда (Миллий гвардия) асосий мақсад тинчлик, тартиб ва хавсизликни таъминлаш ҳисобланади. Бошқа соҳалар яъни тадбиркорларда эса охирги нарса - режалаштирилган фойдани ҳисоблашдир (агар воқеа тижорат характерига эга бўлса) ва оммавий тадбирларни ўтказиш тўғри ташкил этилган ва тайёрланган бўлса, катта фойда келтириши мумкин, аммо тайёргарлик босқичида хатоларга йўл қўйилса, жиддий молиявий зарар келтириши мумкин.

Масалан, COVID-19 пандемияси туфайли Токио Олимпиадаси бир йилга кечиктирилди ва бу қўшимча харажатларни келтирди. Натижада, Олимпиада учун ажратилган маблағлар бир неча миллиард долларга ошди ва кўплаб иншоотлар ва инфратузилмалардан тўлиқ фойдаланилмагани сабабли, тадбирдан кейинги фойда камайди[1]. Бу мисолда оммавий тадбирларни ташкил қилишда хавфсизлик ва тайёргарликнинг нақадар муҳимлигини кўрсатади. Тайёргарликдаги хатолар катта молиявий зарарларга олиб келиши мумкин, шунинг учун тадбирларни пухта режалаштириш ва хавфсизлик чораларини кўриш муҳимдир.

Оммавий тадбирларни ташкил этиш амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар билан тартибга солинади. Тадбирларни ташкил этиш ва ўтказишни тартибга солувчи Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 29 июльдаги “Оммавий тадбирларни ташкил этиш ва ўтказиш тартибини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 205-сон Қарори[2]дир.

---

[1] https://www.investopedia.com/financial-edge/0912/the-best-and-worst-olympic-financial-planning.aspx (мурожаат санаси 23.07.2024 йил)

[2] Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 32-сон, 398-модда; 2015 й., 1-сон, 9-модда.

Оммавий тадбир ушбу мақсадга мос келадиган ҳар қандай ҳудудда ўтказилиши мумкин. Оммавий тадбирлар ўтказиладиган объектларга бинолар, тузилмалар, кўчалар, майдон, спорт майдончалари, парклар, шаҳар атрофидаги ҳудудлар ва бошқалар киради.

Оммавий тадбирда шахс, бир гуруҳ одамлар ёки жамоат ташкилоти, сиёсий партия, диний жамият томонидан ташкил этилган очиқ, эркин ва тинч йиғилиш (ҳаракат) сифатида намоён бўлади. Бундай тадбирнинг мақсадлари ҳар хил бўлиши мумкин. Масалан кафолатланган сўз эркинлиги ва бирор нарсага ўз муносабатини билдириш ҳуқуқини амалга ошириш, талаб қилиш, эълон қилиш, ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий масалаларини муҳокама қилиш ва бошқалар. Оммавий тадбирларни умумий хусусиятига кўра, бешта асосий, яъни йиғилиш, митинг, намойиш, юриш ва пикет қилишга ажратиш мумкин.

Оммавий тадбирлардан маданий тадбирлар ҳам алоҳида ўринни эгаллайди. Бу эса тадбиркорлар (бошқа соҳа вакиллари) учун фойда келтирмайди. Асосий мақсад - жамиятнинг маънавий-аҳлоқий онгини такомиллаштиришдан иборат ҳисобланади. Бундай тадбирлар бир қатор йўналишларга эга:

одамларни кўнгил очишга, кундалик муаммолардан вақтинча чалғитишга, ижобий ҳис-туйғуларга эга бўлишга ва ёрқин ҳиссий эркинлик беришга ёрдам берадиган тадбирлар;

таълим, янги фойдали билимларни ўзлаштиришга ҳисса қўшиш, дунёқарашини кенгайтириш ва аҳолининг ўзини ўзи тарбиялаш;

ривожланаётган, эстетик дидни шакллантиришга, ижодий қобилиятларни такомиллаштиришга қаратилган;

тарбиявий, ўз-ўзини ташкил этишни сингдирувчи, маънавий қадриятлар тизимини шакллантириш;

ижтимоий фаолликни рағбатлантириш;

бадиий, маданий ва ижодий жараён билан таништирувдан иборатдир.

Маданий тадбирлар - бу фестиваллар, шарҳлар, танловлар (минтақавий ва республика даражадаги, шунингдек халқаро), кўнгилочар байрам тадбирлари, мавсумий концертлар, ўқув дастурлари, кўргазмалар, ярмаркалар ва бошқалар.

Спорт тадбирлари ҳам муҳимдир. Бунда - жисмоний тарбия ва оммавий тадбирлар жамиятнинг жисмоний қувватини такомиллаштириш, янги спорт ютуқларига интилиш жараёнига жалб этилганлигидан далолат беради. Ҳозирда мамлакатимиз ҳудудида ўтказиладиган оммавий спорт тадбирлари ранг-баранг ва ўз миқёси билан ҳайратда қолдирмоқда.

Булар деярли барча машҳур спорт турлари бўйича профессионал мусобақалар, турли даражадаги ва барча йўналишлардаги спорт ва дам олиш тадбирларидир. Шу тариқа спорт ва жисмоний тарбия билан шуғулланиш учун имкониятлар ва қулай шароитлар - етарлича.

Миллат саломатлиги – энг олий давлат вазифасидир. Инсон саломатлиги - унинг жисмоний, маънавий ва психологик ҳолатининг кўрсаткичидир. Жисмоний маданият инсоният маданиятининг таркибий қисмларидан биридир.

Мамлакатимизда, маданий тадбирларга байрамлар ва фестиваллар ўтказишни ўз ичига олади. Ҳозирги кунда маданий тадбирларни ўтказишда хавфсизлик асосий масалаларидан объектларнинг сифатли қурилганлиги эътиборда четдан қолмаслиги керак.

Албатта ҳуқуқ нормалари ва мавжуд нуқтаи назарларни таҳлил қилиш, илм-фан ва амалиёт эҳтиёжларини такомиллашувида ижтимоий муносабатлар тизими сифатида кўриб чиқиш, уларни ўрнатиш, ривожлантириш ва ҳимоя қилиш фуқароларнинг ижтимоий ва шахсий тинчлиги ҳолатини сақлашни, уларнинг шаъни, қадр-қиммати ва жамоат ахлоқини ҳурмат қилишни таъминлайди.

Жамоат хавфсизлигини қонун нормалари билан тартибга солинган, номаълум шахслар доираси, уларнинг жамоалари, умуман жамиятнинг ҳаётий манфаатларини ноқонуний хатти-ҳаракатлар, юқори хавф манбаларидан фойдаланиш ва табиатнинг ўз-ўзидан пайдо бўладиган кучлари томонидан яратилган таҳдидлардан ҳимоя қилишни таъминлайдиган ижтимоий муносабатлар мажмуи сифатида кўриб чиқиш мақсадга мувофиқдир.

Йиғилишлар, митинглар, намойишлар, юришлар ва пикетлар шаклида, шунингдек ушбу шаклларнинг турли хил комбинацияларида ўтказиладиган барча акциялар “оммавий тадбирлар” тушунчаси билан бирлаштирилган. Тадбирнинг оммавий табиати унинг “ҳамма учун очиқ” эканлиги билан намоён бўлади. Шунинг учун, қонун фуқароларимиз, жамоат ва диний бирлашмалар ташаббуси билан ўтказиладиган ва эркин ифода этиш ва фикрларни шакллантиришга, шунингдек мамлакатнинг сиёсий, иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳаётининг турли масалалари ва ташқи сиёсат масалалари бўйича талабларни илгари суришга қаратилган оммавий тадбирларга алоҳида эътибор қаратилиш лозимдир (ижтимоий-сиёсий характердаги оммавий тадбирлар).

Тинчлик йиғилишларига бўлган ҳуқуқни амалга ошириш билан боғлиқ чекловларни белгилашнинг мақсадга мувофиқлиги шубҳасиздир, чунки ҳар қандай оммавий тадбирларни ўтказишда бошқа шахсларнинг ҳуқуқлари ва эркинликлари, жамоат ахлоқи ва хавфсизлиги туради. Ушбу ҳуқуқни чеклаш имконияти халқаро ҳуқуқ нормаларида ҳам кўзда тутилганлиги бежиз эмас. “Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро Пакт”нинг 21-моддасида “Тинч йиғинларга ҳуқуқлар тан олинади. Бу ҳуқуқдан фойдаланишда ҳеч бир чеклашга йўл қўйилмайди. Қонунга мувофиқ фўйилган ва демократик жамиятда давлат ва жамият хавфсизлиги, жамоат тартиби, аҳоли саломатлиги ва аҳлоқи ёки бошқа шахслар ҳуқуқлари ва эркинлиги манфаатлари учун зарур бўлган

чекланишлар бундан мустасно” деб кўрсатилган,[1] яъни юқоридаги кўрсатилган ушбу ҳуқуқдан фойдаланиш жамоат хавфсизлиги, жамоат тартиби, аҳолининг саломатлиги ва ахлоқини ҳимоя қилиш ёки бошқа шахсларнинг ҳуқуқлари ва эркинликларини ҳимоя қилиш учун чекланиши мумкин. Инсон ҳуқуқлари ва асосий эркинликларни ҳимоя қилиш тўғрисидаги Европа конвенцияси[2] миллий хавфсизлик ва жамоат тартиби манфаатлари учун йиғилишлар эркинлигини, сўз эркинлигини, диний эркинликни чеклаш имкониятини беради (9, 10, 11-моддалар).

Миллий қонунчиликда спорт, маданий-кўнгилочар, реклама-тижорат ва бошқа оммавий тадбирларни ўтказиш билан қонун боғлиқ қонун даражасида чекловларнинг йўқлиги ҳуқуқий тартибга солишнинг муҳим бўшлиғи деб ҳисобланиши керак. Кўпинча бундай тадбирларни ўтказиш билан боғлиқ муносабатларни, таъсис субъектлари ва норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини тартибга солишга уринишлар қилинади. Бироқ, ушбу меъёрий ҳужжатларда фуқаролар ва ташкилотлар учун ҳар қандай мажбурият ва тақиқларнинг ўрнатилиши Конституцияга зиддир, чунки бу уларнинг ҳуқуқлари ва эркинликларини чеклашдир, бу фақат қонунчилик билан назарда тутилиши мумкин. Буни мавжуд суд амалиёти тасдиқлайди. Шундай қилиб, бундай тадбирларни ташкил этиш ва ўтказиш тартибини мамлакат даражасида белгилаш муҳим аҳамиятга эга, бу тадбир ташкилотчилари томонидан таъсис объектининг давлат ҳокимияти органлари ёки маҳаллий ўзини-ўзи бошқариш органларига хабар бериш зарурлигини (тадбир кўламига қараб), жамоат тартибини ва хавфсизлигини ҳимоя қилиш бўйича бир қатор ташкилий чораларни амалга оширишни назарда тутади. Спорт ва бошқа иншоотларнинг эгалари, одамлар кўп бўлган бошқа объектлар уларнинг оператив ишончлилигини таъминлаши, объектларнинг “терроризмга қарши хавфсизлигини” таъминлашда иштирок этишлари керак. Оммавий маданий-кўнгилочар ва спорт тадбирлари ташкилотчилари учун уларнинг иштирокчилари ва томошабинларини мажбурий суғурталаш бўйича мажбуриятларни қонунда белгилаш мақсадга мувофиқдир.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, оммавий тадбирлар жараёнида жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича илмий хулосалар назарий асосларни ўрганиш ва ушбу соҳадаги эмпирик тадқиқотлар асосида шакллантирилиб, қўйидаги асосий фикрларда тўхталдик:

Хавфсизликка комплекс ёндашув зарур. Оммавий тадбирларда самарали хавфсизлик нафақат ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш чораларини, балки

[1] “Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро Пакт” 1996 йил 19 декабрьда қабул қилинган.

[2] “Инсон ҳуқуқлари ва асосий эркинликларни ҳимоя қилиш тўғрисидаги Европа конвенцияси”. Рим. 1950 йил 4 ноябрьда қабул қилинган.

эҳтимолий таҳдидларга жавоб бериш учун ресурсларни режалаштириш, мувофиқлаштириш, ўқитиш ва сафарбар қилишни ҳам ўз ичига олган комплекс ёндашувни талаб қилади.

Хавфларни таҳлил қилиш ва ҳодисаларни бошқариш мақсадга мувофиқ. Яъни, хавфсизликка илмий ёндашув фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ёки уларнинг оқибатларини минималлаштириш учун потенциал хавфларни таҳлил қилиш ва ҳодисаларни бошқариш орқали оммавий тадбирлар жараёнида жамоат хавфсизлигини таъминлашда самарадорликка эришилади.

Технологиядан фойдаланиш замон талаби. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, дронлардан фойдаланиш, маълумотларни таҳлил қилиш ва алоқа каби илғор технологиялардан фойдаланиш оммавий тадбирларда хавфсизлик амалиётини яхшилашга ёрдам беради.

Хизматлар ўртасидаги ўзаро ҳамкорлик. Муҳим жиҳат – таҳдидларга самарали жавоб бериш ва оммавий тадбир иштирокчилари хавфсизлигини таъминлаш мақсадида турли хизматларнинг (МГ, ИИВ, ФВВ, махсус хизматлар, тиббий хизматлар, тадбир ташкилотчилари ва бошқалар) ўзаро ҳамкорлигидир.

Психологик ва ижтимоий жиҳатлари. Тадқиқотлар оммавий тадбирларда хавфсизликнинг психологик ва ижтимоий жиҳатларига ҳам эътибор қаратди, чунки одамларнинг хатти-ҳаракатлари ва реакцияларини тушуниш хавфсизлик амалиётини яхшилашга ёрдам беради.

Оммавий тадбирлар самарадорлиги. Оммавий тадбирларда қабул қилинган хавфсизлик чораларининг самарадорлигини ҳодисаларни тизимли таҳлил қилиш ва хавфсизлик тизимини доимий такомиллаштириш бўйича натижаларни баҳолаш усулларини ишлаб чиқиш орқали ўрганиш муҳим аҳамиятга эга.

Шундай қилиб, оммавий тадбирларда жамоат хавфсизлиги бўйича илмий хулосалар кенг кўламли оммавий тадбирлар учун самарали хавфсизлик стратегияларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш учун ривожланаётган технологиялар ва эмпирик маълумотларни ўз ичига олган тизимли ва комплекс ёндашув зарурлигини таъкидлайди.

Оммавий тадбирлар жараёнида жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг ривожланиш тенденциялари бўйича қуйидаги таклиф ва тавсияларни келтириб ўтишимиз мумкин:

1. Жамоат хавфсизлигини таъминлашга комплекс ёндашувни қуйидагилар асосида такомиллаштириш:

-Оммавий тадбирларда хавфсизликни таъминлаш учун комплекс ёндашув асосида ҳуқуқ-тартибот органлари, давлат муассасалари, фуқаролик жамияти ва хусусий сектор ҳамкорлигини ривожлантириш зарур;

-Миллий гвардия, ИИВ, ФВВ ва бошқа ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ўртасида фавқулодда вазиятларга жавоб бериш бўйича ягона мувофиқлаштириш маркази ташкил этилиши лозим;

-Жамоат хавфсизлигини таъминлаш масаласини ҳал қилишда профилактика ва фавқулодда ҳолатларга жавоб беришни ўзаро уйғунлаштириш зарур.

2. Қонунчилик ва ҳуқуқий базани қуйидагилар асосида такомиллаштириш:

-“Оммавий тадбирлар тўғрисида”ги қонунни қабул қилиш: Ҳозирда амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда оммавий тадбирларни ўтказиш ва хавфсизлигини таъминлаш бўйича тартиблар аниқ белгиланмаган. Янги қонун орқали:

-Оммавий тадбирларни ўтказиш тартиби ва ташкилотчиларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари аниқлаштирилади;

-Ҳуқуқ-тартибот органларининг тадбирлардаги ваколатлари белгилаб берилади;

-Оммавий тадбирлар вақтида жамоат хавфсизлигини таъминлаш механизми мустаҳкамланади.

-Оммавий тадбирлар вақтида хавфсизлик талабларини бузганлик учун жавобгарликни кучайтириш, хусусан, Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекс ва Жиноят кодексига тегишли ўзгартиришлар киритиш;

-Терроризм ва экстремизм хавфларига қарши чораларни кучайтириш мақсадида халқаро тажриба асосида хавфсизлик талабларини мувофиқлаштириш.

3. Интеллектуал технологиялар ва хавфсизлик тизимларини қуйидагилар асосида жорий этиш:

-Видео кузатув тизимларини кенгайтириш: Йирик тадбирларда сунъий интеллект билан жиҳозланган кузатув камераларини жорий қилиш, улар орқали одам оқимини назорат қилиш ва хавфли шахсларни аниқлаш;

-Биометрик ва юзни таниш тизимларидан фойдаланиш: Ишончли идентификация тизимлари хавфсизликни оширишга ёрдам беради;

-Киберхавфсизликни кучайтириш: Жамоат тадбирлари вақтида кибертаҳдидларга қарши ҳимоя чораларини жорий қилиш, хусусан, Wi-Fi ва алоқа тармоқларини ҳимоялаш, ахборотни шифрлаш;

-Дронлардан фойдаланиш: Йирик тадбирларда ҳаво назоратини ташкил этиш учун дронлардан фойдаланиш зарур. Бу ҳолат тадбир вақтида фавқулодда вазиятларни тезкор аниқлаш имконини беради.

4. Тадбир ташкилотчилари ва жамоатчилик иштирокини қуйидагилар асосида ошириш:

-Оммавий тадбирларни ташкил қилишда хавфсизлик бўйича махсус малака ошириш курсларини жорий этиш: Тадбир ташкилотчилари ва волонтёрлар учун хавфсизлик ва фавқулодда вазиятларга жавоб бериш бўйича ўқув дастурларини амалга ошириш.

Жамоатчиликни хавфсизлик чораларига қуйидагилар асосида жалб этиш:

-Оммавий тадбирларда фуқароларнинг хавфсизлигига оид маърифий кампаниялар ўтказиш;

-Жамоатчилик асосида хавфсизлик патрулларини шакллантириш;

-Тадбирларда "Хотиржамлик жамоаси" каби гуруҳларни ташкил қилиш, улар фуқароларнинг хавфсизлигига оид маслаҳат беришади.

5. Жамоат хавфсизлигини таъминлашда халқаро ҳамкорликни қуйидагилар асосида кучайтириш:

-БМТ, ЕХҲТ, ШҲТ ва бошқа халқаро ташкилотлар билан ҳамкорликда жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича тажриба алмашиш.

Хавфсизлик масалалари бўйича халқаро ҳамкорликни кучайтириш, хусусан:

-Терактларнинг олдини олиш ва фавқулодда вазиятларга жавоб бериш бўйича кўп томонлама шартномаларга қўшилиш;

-Миллий гвардия ва ИИВ ходимларини халқаро тажрибалар асосида тайёрлаш;

-Миллий хавфсизлик хизматлари ва халқаро агентликлар ўртасида маълумот алмашишни такомиллаштириш.

6. Хавфларни баҳолаш ва фавқулодда ҳолатларга жавоб бериш механизмларини қуйидагилар асосида ривожлантириш:

Ҳар бир оммавий тадбир учун хавф таҳлилини ўтказиш:

-Тадбирдан аввал хавф таҳлили ўтказиш ва эҳтимолий хавфли ҳолатларни баҳолаш механизмини жорий қилиш;

-Ҳар бир тадбир учун хавфсизлик паспортларини тайёрлаш.

Фавқулодда ҳолатларда жавоб бериш тизимини ишлаб чиқиш:

-Оммавий тадбирлар вақтида эвакуация йўналишларини аниқ белгилаш;

-Ҳар бир тадбир учун махсус жамоат хавфсизлиги режаларини ишлаб чиқиш;

-Хавфли ҳолатлар юз берганда тезкор жавоб бериш гуруҳларини ташкил этиш.

7. Оммавий тадбирларда иштирок этувчилар хавфсизлигини таъминлаш механизмларини қуйидагилар асосида такомиллаштириш:

Тадбир қатнашчиларини хавфсизлик талабларига риоя қилишга мажбурлаш:

-Тадбир иштирокчиларига хавфсизлик қоидалари ҳақида маълумот бериш;

-Қўлга олиш, текшириш ва хавфсизликка таҳдид туғдирадиган нарсаларни олиб киришни чеклаш.

Алкоголли ичимликлар ва бошқа хавфли моддаларни сотишни чеклаш:

-Оммавий тадбирлар давомида алкоголли ичимликлар савдосини чеклаш бўйича махсус ҳудудлар ажратиш;

Тадбирга киришда наркотик ва психотроп моддаларни олиб киришни олдини олиш учун текширувларни кучайтириш.

8. Ҳуқуқ-тартибот органлари ходимларини тайёрлаш ва малакасини қуйидагилар асосида ошириш:

Оммавий тадбирларда хавфсизликни таъминлаш бўйича махсус ўқув дастурларини амалга ошириш:

-Миллий гвардия, ИИВ ва хавфсизлик кучлари учун оммавий тадбирларда фавқулодда ҳолатлар бўйича тренинглар ташкил қилиш;

-Ёрдамчи хавфсизлик хизматларини тайёрлаш, волонтёрлар ва маҳаллий ҳокимият органларининг оммавий тадбирлар хавфсизлигини таъминлашдаги ролини ошириш.

Юқоридаги таклиф ва тавсиялардан келиб чиқиб, оммавий тадбирларда жамоат хавфсизлигини таъминлашда замонавий ёндашувлардан кенг фойдаланиш, ҳуқуқий базани такомиллаштириш, технологияларни жорий этиш, жамоатчилик иштироки ва халқаро ҳамкорликни ривожлантириш муҳим аҳамият касб этади. Оммавий тадбирларда хавфсизлик чораларини кучайтириш нафақат хавф-хатарларни камайтириш, балки давлат барқарорлигини таъминлаш ва жамиятда тинчлик муҳитини мустаҳкамлашга хизмат қилади.

GIYOHVANDLIK VA NARKOJINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI: “PSIXOTROP” BOTI MISOLIDA

Kenjayev Jasur Omon o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Maxsus-kasbiy fanlar kafedrasi professori, podpolkovnik, Aslov6699@gmail.com

Annotatsiya - Mazkur maqolada giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasidagi dolzarb muammolar, tezkor vaziyat tahlil qilingan, IIV Malaka oshirish instituti tomonidan yaratilgan “Psixotrop” Telegram boti misolida raqamli texnologiyalarning huquqni qo‘llash amaliyotidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, uyushgan jinoiy guruhlar faoliyati, narkolaboratoriyalar va kontrabanda yo‘llari statistik tahlil qilinib, sohani takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: giyohvandlik, narkojinoyat, psixotrop moddalar, sintetik narkotiklar, narkolaboratoriya, “Psixotrop” boti, IIV Malaka oshirish instituti, raqamli profilaktika.

Аннотация: В данной статье анализируются актуальные проблемы в сфере борьбы с наркоманией и наркопреступностью, проводится анализ оперативной обстановки. На примере Telegram-бота «Психотроп», разработанного Институтом повышения квалификации МВД, освещается роль цифровых технологий в правоприменительной практике. Также проводится статистический анализ деятельности организованных преступных групп, нарколабораторий и путей контрабанды, даются научно-практические предложения по совершенствованию данной сферы.

Ключевые слова: наркомания, наркопреступность, психотропные вещества, синтетические наркотики, нарколаборатория, бот «Психотроп», Институт повышения квалификации МВД, цифровая профилактика.

Abstract: This article analyzes current problems in the field of combating drug addiction and drug-related crimes, providing an analysis of the operational situation. Using the example of the "Psychotropic" Telegram bot developed by the Institute for Professional Development of the Ministry of Internal Affairs, the role of digital technologies in law enforcement practice is highlighted. Furthermore, a statistical analysis of the activities of organized crime groups, drug laboratories, and smuggling routes is conducted, and scientific-practical proposals for improving the sector are provided.

Keywords: drug addiction, drug crime, psychotropic substances, synthetic drugs, drug laboratory, "Psychotropic" bot, Institute for Professional Development of the Ministry of Internal Affairs, digital prevention.

Bugungi kunda dunyo hamjamiyati oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri - giyohvandlik va narkojinoyatchilikning tobora globallashib borayotganidir.

Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “Bugun davlat va jamiyat xavfsizligiga to’g’ridan-to’g’ri tahdid qilayotgan to’rtta yo’nalishlar bu – uyushgan jinoyatchilik, giyohvandlik, kiberjinoyatlar va yashirin iqtisodiyot bo’yicha ta’sirchan choralar ko’rilishi shartdir” [1] .

Ayniqsa, an’anaviy o‘simlik dori vositalaridan ko‘ra, sintetik narkotiklar va farmatsevtika vositalarining (kuchli ta’sir qiluvchi moddalar) noqonuniy aylanmasi keskin ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi hududida ham muomalasi taqiqlangan yoki cheklangan dori vositalarining tarqalishi jamiyatning genofondiga, yoshlar sog‘lig‘iga va jamoat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda [2] .

Shu o’rinda, 2026-yilning dastlabki ikki oyi davomida respublika hududida narkojinoyatlarga qarshi kurashish borasida quyidagi natijalarga erishilgan: unga ko’ra, 22 ta uyushgan narkojinoiy guruh faoliyati tugatilib, 5 nafar yetakchi va 84 nafar vositachilar qo‘lga olingan, 8 ta yashirin narkolaboratoriya fosh etilgan (2025-yil davomida jami 14 ta aniqlangan). Ularning 3 tasi psixotrop, 5 tasi sintetik moddalar tayyorlashga ixtisoslashgan. 41 kg an’anaviy narkotiklar, 100 kg dan ortiq sintetik vositalar, 1 million dozaga teng (200 mingga yaqin) psixotrop dori vositalari va 2 tonnaga yaqin prekursorlar musodara qilingan. 41 nafar shaxs sintetik narkotiklarni internet-narkodo‘konlar orqali “zakladka” (yashirib ketish) usulida tarqatish bilan shug‘ullangan. [3]

Narkotrafikning transchegaraviy va virtual xarakteri tahlillari shuni ko'rsatadiki, narkojinoiy guruhlar o‘rtacha 3 oydan 10 yilgacha vaqt davomida faoliyat yuritib kelganligi aniqlangan.[4] Giyohvandlik moddalar asosan Toshkent, Namangan, Andijon, Samarqand va Sirdaryo viloyatlarining 40 ta shahar-tumanlarida faol tarqatilgan. Narkotik moddalar kontrabanda yo‘li bilan Surxondaryo orqali: Afg‘onistondan, Namangan va Andijon orqali: Qirg‘izistondan, Toshkent viloyati orqali: Qozog‘istondan olib kirilgan. [5]

Bugungi kunda amaliyotda, muomalasi taqiqlangan va cheklangan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, prekursorlar hamda kuchli ta’sir qiluvchi moddalar tarqalishi dolzarb muammolardan biri bo‘lib saqlanib qolmoqda. Ularni aniqlash va tezkorlik bilan qarshi kurashish jarayonida bir qator qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda, bu esa samarali profilaktika va nazorat tizimini rivojlantirishni talab etadi.

Amaliyotda quyidagi muammolar mavjud:

Hozirgi vaqtda ichki ishlar organlari, bojxona va milliy gvardiya xodimlari tezkor tadbirlar yoki fuqarolarni tekshirish jarayonidagi tekshiruvlar davomida shubhali dori vositalariga duch kelishadi. Ammo har bir xodim minglab nomdagi preparatlarning qaysi biri taqiqlangan ro‘yxatda ekanligini yoddan bilishi imkonsiz.

Muammolardan yana biri - qo‘lga olingan shubhali dori vositasining taqiqlangan ro‘yxatda bor-yo‘qligini voqea joyining o‘zida aniqlashning qiyinligidir.

Moddaning maqomini aniqlash uchun ekspertiza tayinlash yoki qog‘oz ko‘rinishidagi ro‘yxatlardan qidirish ko‘p vaqt talab etadi, bu esa tezkor qaror qabul qilishga to‘sqinlik qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari [6] bilan tasdiqlangan ro‘yxatlar juda xam keng va doimiy ravishda yangilanib turishi, xodimlar barcha kimyoviy nomlarni yodda tutishi yoki yonida doim qog‘oz shaklidagi ro‘yxatni olib yurishi imkonsiz.

Shubhali modda aniqlanganda, uni tahlil qilish va protsessual rasmiylashtirish uchun ko‘p vaqt sarflanadi, bu esa tezkor qaror qabul qilihga o’zining salbiy ta’sirini o’tkazadi.

Muammolarning yechimi:

Respublikamizda giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha 2024-2028-yillarga mo‘ljallangan milliy strategiya doirasida huquqni muhofaza qiluvchi organlarda narkojinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatiga zamonaviy ishlash usullarini tatbiq etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.[7] Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti professor-o’qituvchilari tomonidan yaratilgan O‘zbekiston aholisining aksariyat qismi foydalanadigan telegram messenjerida shartli nomi “Psixotrop_MOI_BOT” deb nomlangan bot amaliyotdagi mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirishga xizmat qiladi. [8]

Botning texnik imkoniyatlari - tezkorlik, foydalanuvchi dori vositasi nomini botga kiritganda, tizim uning muomalasi taqiqlangan yoki cheklangan ro‘yxatlarga kirishi haqida aniq va tezkor ma’lumot taqdim etadi. [9] Bu esa tezkor qaror qabul qilish imkoniyatini yaratadi. Huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari uchun dori vositalarining huquqiy maqomini voqea joyining o’zida aniqlashda samarali yordamchi bo‘lib xizmat qiladi.

Botdan foydalanish jarayoni juda sodda va qulay qilib ishlangan bo’lib, telegram messenjerida bot qidiruv orqali topiladi va "Start" tugmasi bosiladi. Dori vositasi yoki moddaning nomi (masalan: “Tramadol” yoki “Zardeks”) yoziladi va tizimga yuboriladi. Tizim dori vositasini 4 ta asosiy guruhga mavjudligini tezkor ajratib beradi:

- Muomalasi taqiqlangan giyohvandlik vositalari;
- Muomalasi cheklangan psixotrop moddalar;
- Muomalasi cheklangan prekursorlar;
- Kuchli ta’sir qiluvchi moddalar ro‘yxati. [10]

Asosiy e’tiborli jihati: har bir javob tagida ushbu modda qaysi normativ-huquqiy hujjat asosida taqiqlangani ko‘rsatiladi.

✓ Hodisa joyini ko‘zdan kechirish vaqtida topilgan vositalarning maqomi haqida dastlabki xulosaga kelish imkonini beradi. Bu asosli ravishda gumonlanuvchini ushlab turish yoki qo‘yib yuborish masalasini hal qiladi;

✓ Mahalla hududidagi “Giyohvandlikka va psixotrop moddalarga qarshi kurashish” yo’nalishidagi profilaktik tadbirlarini o‘tkazishda qo‘l keladi;

✓ Jamoat tartibini saqlashda bevosita to’g’ridan-to’g’ri aholi bilan ishlaydigan xizmatlar PPX, YPX, XPB va Milliy gvardiya xodimlari uchun ko‘cha-ko‘yda shubhali shaxslardan topilgan dori vositalarini joyida tekshirish imkonini yaratadi.

Olingan tahlillar asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

❖ Narkotik va psixotrop moddalarning huquqiy maqomini aniqlashda O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti professor-o’qituvchilari tomonidan yaratilgan telegram messenjeridagi “Psixotrop_MOI_BOT”ning rasmiy maqomini qonun bilan mustahkamlash;

❖ Giyohvandlikka moyil shaxslar bilan ishlashda va reabilitatsiya mexanizmlarini takomillashtirishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish;

❖ Transchegaraviy narkotrafikka qarshi kurashda xalqaro huquq normalari va xorijiy davlatlar tajribasini tatbiq etish.

Xulosa qilib aytganda, “Psixotrop” boti shunchaki texnik ishlanma emas, balki giyohvandlikka qarshi kurashning **“raqamli qalqonidir”**. U huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining vaqtini tejaydi, xatoliklar ehtimolini kamaytiradi va eng muhimi - jamiyatimizni zaharli moddalar tarqalishidan samaraliroq himoya qilishga yordam beradi. Bunday innovatsion yondashuvlar harbiy xizmatchilar va IIO xodimlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi O’RQ813-I son Qonuni; [10]

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta’sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-sonli Farmoni; [2,7]

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-207-sonli Farmoni; [2,7]

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2015-yil 12-noyabrdagi 330-sonli “O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni olib kirish, olib chiqish hamda tranzit qilish tartibini takomillashtirish, shuningdek ularning muomalasi ustidan nazoratni

kuchaytirish to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasi qaroriga o‘zgartishlar kiritish haqida”gi VMQ 878-son Qarori; [6, 10]

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida kuchli ta’sir qiluvchi moddalar muomalasini tartibga solish to‘g‘risida”gi VMQ818-son qarori; [6, 10]

6. O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti “Psixotrop_MOI_BOT” bo‘yicha o’quv qo‘llanmasi; [8, 9]

7. O‘zbekiston Respublikasida narkojinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha 2026-yil yanvar-fevral oylari statistik hisoboti; [3, 4, 5]

8. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.01.2026 yildagi “*Ichki ishlar organlari va boshqa HMQO bilan o’tkazgan yig’ilishdagi nutqi”. [1]

GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHISH – UMUMMILLIY BURCH

R.T.Mavlyanov
“O‘q otish tayyorgarligi” kafedrasi katta o‘qituvchisi,
M.A.Kamilov
“Axborot texnologiyalari” kafedrasi katta o‘qituvchisi dotsent

Giyohvandlik va narkojinoyatlar bugungi kunda butun insoniyat uchun eng og‘riqli va xavfli muammolardan biriga aylandi. XXI asr axborot, fan va texnologiyalar asri bo‘lishiga qaramasdan, inson hayoti va jamiyat tinchligiga tahdid solayotgan bu illat butun dunyoda jiddiy tashvish uyg‘otmoqda. Shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga bo‘lgan tahdid bugun nafaqat statistik raqamlarda, balki turli voqealarda ham namoyon bo‘lmoqda. Shu bois xalqaro hamjamiyat bu muammoga qarshi kurashishga alohida e’tibor qaratadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi qaroriga asosan, har yili 26 iyun sanasi “Narkotik moddalarini suiiste’mol qilish va ularning noqonuniy aylanishiga qarshi xalqaro kurash kuni” sifatida keng nishonlanadi. Bu sana butun dunyoda giyohvandlik illatiga qarshi keng qamrovli profilaktik, ma’rifiy va madaniy-ma’naviy tadbirlarni o‘tkazish, jamiyatda ongli munosabatni shakllantirish, ayniqsa, yoshlarni xatardan ogohlantirish maqsadida tashkil etiladi.

Dunyodagi giyohvand moddalarini suiiste’mol qiluvchilar soni 300 million kishiga yaqinlashib qoldi. Ular orasida minglab insonlar har yili narkotik moddalar ta’sirida hayotdan ko‘z yumayotir. Ma’lumotlarga ko‘ra, har yili 600 mingdan ortiq inson narkotiklar tufayli halok bo‘ladi. Bu faqatgina shaxsiy fojialar emas, balki butun jamiyat, davlat va kelajak avlod uchun ulkan tahdid demakdir.

O‘zbekiston Respublikasida ham ushbu sana munosabati bilan har yili turli tadbirlar o‘tkazilib kelinmoqda. Joriy 2025 yilda ham bu an’ana davom ettirilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Narkotiklarni

nazorat qilish milliy markazi tashabbusi bilan keng qamrovli aksiya va loyihalar amalga oshirildi. Jumladan, “Biz hayotni tanlaymiz!”, “San’at giyohvandlikka qarshi!” va boshqa shiori ostida tadbirlar o‘tkazilib kelinmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Prezident Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Ichki ishlar vazirligi matbuot xizmati bilan birgalikda @stopnarko_bot Telegram-botini ishga tushirdi. U orqali giyohvand moddalar reklamasi haqida xabar berish mumkin.

Endi fuqarolar reklama joylashgan manzil haqidagi ma’lumot yoki uning lokatsiyasini botga yo‘llashi mumkin. Bu orqali ichki ishlar organlari xabardor qilinadi va reklama o‘chiriladi. So‘nggi yillarda giyohvand moddalar to‘g‘risida reklama vaqti-vaqti bilan respublikamizning turli tumanlarida paydo bo‘lmoqda.

Yuqoridagi sohaga oid ijobiy ishlar ga qaramay, oxirgi besh yilda O‘zbekistonda narkojinoyatlar soni qariyb **2** barobarga ko‘paygan bo‘lsa, noqonuniy muomaladan olingan narkotik vositalar miqdori **8,5** baravarga oshgan. Eng xavflisi shundaki, sintetik giyohvandlik vositalarining musodara qilinishi **80** baravarga oshgani qayd etilmoqda. Bu esa giyohvandlik muammosi nafaqat kengayib borayotgani, balki uning yangi va xavfli turlari jamiyatga kirib kelayotganini ko‘rsatadi[1].

Mamlakatimiz huquq tartibod organlari tomonidan amalga oshirilgan tezkor-profilaktik tadbirlar natijasida noqonuniy muamiladan olib qolingan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, kuchli ta’sir qiluvchi dori vositalari va prekursorlardan 2 tonna 135 kg 188 gramm giyohvandlik vositalari yo‘q qilingan. Yo‘q qilingan moddalar orasida kannabis, gashish, marixuana, geroin, opiy, mefedron, MDMA, amfetamin, metamfetamin kabi xavfli moddalar bor. Shundan: 613 kg 94 gr kannabis o‘simligi, 415 kg 124 gr gashish, 395 kg 739 gr marixuana, 202 kg 555 gr opiy, 153 kg 15 gr ko‘knor boshog‘i va somoni, 99 kg 882 gr geroin, 18 kg 957 gr opiyli ko‘knor o‘simligi, 295,5 gr tetrogidrokannabinol, 3,8 gr kannabis moyi, 1,36 gr tramadol, 0,56 gr morfin; sintetik narkotiklar: 57 kg 847 gr mefedron, 29 kg 603 gr a-PVP, 5 kg 750 gr spays, 5 kg 544 gr katinon, 345,4 gr metamfetamin, 212,7 gr MDMA, 51,6 gr kodein, 9,79 gr amfetamin, 1,47 gr metadon, 0,47 gr N-metil-3,4 metilendiokimfetamin, 0,13 gr 6-monoasetilomorfin, 0,39 gr kuchli ta’sir qiluvchi modda – pregabalin, 0,15 gr psixotrop modda – diazepam, 137 kg 150 gr prekursor – xlorid kislotasi, 31 462 tup opiyli ko‘knori o‘simligi, 12 547 tup kannabis o‘simligi, 236 dona ko‘knori boshog‘i va ko‘saklari, 80 dona kannabis o‘simligi shox bo‘laklari, shuningdek, tarkibida giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi narkotik moddalarni nazorat qilish Milliy axborot-tahlil markazining Informatsion byulleteni. https://www.unodc.org/centralasia.

moddalar mavjud bo‘lgan 10 310 dona tabletkalar, 476 dona kapsulalar, 166 dona ampulalar, 30 526 ml suyuqlik va aralashmalar yo‘q qilingan[1].

Bu raqamlar nafaqat muammo ko‘lamini, balki davlatning qat’iy kurash olib borayotganini ham namoyon etadi.

Jumladan, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning qonunga xilof muomalasiga qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha huquqiy, uslubiy, ilmiy, tashkiliy choralarni ishlab chiqish va samarali amalga oshirishdan iborat “Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar to‘g‘risida” qonunini yangi tahrirda ishlab chiqish maqsadga muvofiq;

“Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar to‘g‘risida”gi qonunida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini takomillashtirish hamda xalqaro normalarga moslashtirish maqsadga muvofiq;

qonun normalarida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lishiga oid ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib, giyohvandlikka qarshi kurash faoliyatini to‘la qamrab olish maqsadga muvofiq;

qonunida giyohvandlik vositalarini tarqalishining oldini olish, aniqlash, qarshi kurashish, giyohvandlik vositalarini tayyorlash, ishlab chiqarish, savdo qilish hamda iste’mol qilish yoki ineksiya qilishni taqiqlash kabi tamoyillarini belgilash;

qonunning umumiy qoidalarida giyohvandlik vositalariga qarshi kurashish bo‘yicha davlat organlari, jamoat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar va boshqa tashkilotlar hamda fuqarolarning huquq va majburiyatlari belgilash;

qonunda giyohvandlikka qarshi kurashish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, ilg‘or texnologiyalar va uskunalardan foydalanish, giyohvandlikni davolashning zamonaviy usullarini rag‘batlantirish;

qonunda jamoat joylarida giyohvandlik vositalari noqonuniy aylanishini oldini olish, jamiyat hushyorligini oshirish, targ‘ib qilish va tarbiyalash uchun vazifalar belgilash;

qonunda giyohvandlikka chalingan shaxsni davolash bilan bog‘liq protsessual huquqlarini cheklashga oid normalarni kiritish;

ashyoviy dalil sifatida e’tirof etilib, olib qo‘yilgan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning analoglari, kuchli ta’sir qiluvchi vositalarni hamda prekursorlarning saqlanishi va yo‘q qilinishi bo‘yicha mas’ul davlat idorasini qonun darajasida belgilash;

qonunda giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashishni targ‘ib qilish, giyohvand moddalarga qaram shaxslarni davolash, giyohvand moddalarga qarshi

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi narkotik moddalarni nazorat qilish Milliy axborot-tahlil markazining Informatsion byulleteni. https://www.unodc.org/centralasia.

kurashda xalqaro hamkorlik, narkojinoyatlar uchun huquqiy javobgarlik masalalari belgilash;

javobgarlikdan va jazodan ozod qilish institutlarini qo‘llash imkoniyatini cheklash orqali giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning qonunga xilof muomalasi uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish hamda javobgarlikning mulkka qaratilishi bilan bog‘lik jazo choralarini kiritish.

Shu bilan bir qatorda giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning qonunga xilof muomalasiga qarshi kurashishning uslubiy asoslarini rivojlantirish:

ta’lim tashkilotlari o‘quv rejalariga “Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning qonunga xilof muomalasiga qarshi kurashish asoslari” fanini kiritish;

yoshlarning, ayniqsa voyaga yetmaganlarning sog‘lig‘iga zararli ta’sir ko‘rsatuvchi kompyuter o‘yinlarini aniqlash, ularning ro‘yxatini shakllantirish va taqiqlash, shuningdek, bunday o‘yinlarni o‘ynash holatlariga barham berish bo‘yicha ta’sirchan nazorat mexanizmlarini belgilash;

giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarining qonunga xilof muomalasi sohasidagi xuquqbuzarliklarda qatnashgan barcha ishtirokchilariga jazo tayinlashda yengillashtiruvchi holatlar va jazoni o‘tash muddatidan oldin ozod qilish taqiqlash;

giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof muomalasi bilan javobgarlikka tortilgan, dispanser hisobida turgan shaxslar egallashi mumkin bo‘lmagan kasb va lavozimlar ro‘yxati qonunchilik bilan belgilash maqsadga muvofiq.

Giyohvandlikka qarshi kurash – umumjamiyat ishi sifatida faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar emas, balki barcha jamoatchilik – oila, maktab, oliygohlar, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari birgalikda harakat qilishi lozim. Sababi, giyohvandlikka qarshi kurash nafaqat jazolash, balki ongni o‘stirish, ma’rifatni kuchaytirish, targ‘ibotni kengaytirish, ta’lim tizimida profilaktik yondashuvlarni kuchaytirishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston [Matn] / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent “O‘zbekiston” nashriyoti , 2024. - 560 b.

2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Giyohvandlik vositalari to‘g‘risida”gi konvensiyasi. 2000-yil 15-noyabr, Nyu-York. https://lex.uz/docs/-1304566.

3. O‘zbekiston Respublikasining 813-I-son.19.08.1999 y. “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lexuz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 6-may kunidagi “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta’sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-sonli farmoni. Qonuni. https://lexuz.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi narkotik moddalarni nazorat qilish Milliy axborot-tahlil markazining Informatsion byulleteni. https://www.unodc.org/centralasia.

6. “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi”, https://lex.uz/ru/docs/-2655293.

“TRANSMILLIY NARKOJINOYATLAR VA ULARGA QARSHI KURASHISH MEXANIZMLARI”

Ishmuratov Ergash Imamovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi o‘qituvchisi,
Jumayev Akmal G‘ulom o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada transmilliy narkojinoyatlar va ularga qarshi kurashish mexanizmlari, transmilliy narkojinoyatlarning asosiy belgilar, turlari va shakllari, kontrabanda va noqonuniy aylanma, shuningdek transmilliy narkojinoyatlarning sabablari va omillari aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan qonunchilikni takomillashtirish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: transmilliy jinoyat, narkotik vositalar, transmilliy narkojinoyatlar, “qora logistika”, kontrabanda.

“Transmilliy jinoyat” tushunchasi zamonaviy xalqaro huquqda global xavfsizlikka tahdid soluvchi jinoyatlar qatoriga kiradi. Ushbu tushuncha eng aniq va huquqiy jihatdan mustahkam tarzda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi (2000-yil, Palermo Konvensiyasi)da ifodalangan. Mazkur Konvensiyaga ko‘ra, jinoyat quyidagi holatlarda transmilliy deb e’tirof etiladi:

- ✓ jinoyat bir nechta davlat hududida sodir etilgan bo‘lsa;
- ✓ jinoyat bir davlat hududida sodir etilgan bo‘lsa-da, uning muhim qismi boshqa davlat hududida rejalashtirilgan yoki boshqarilgan bo‘lsa;
- ✓ jinoyat uyushgan jinoiy guruh tomonidan sodir etilib, bu guruh bir nechta davlatlarda faoliyat yuritsa;

✓ jinoyat oqibatlari boshqa davlat hududiga ta’sir ko‘rsatsa.

Shundan kelib chiqib, transmilliy jinoyatlar — bu faqat milliy chegaralar bilan cheklanmaydigan, balki xalqaro elementga ega bo‘lgan, bir nechta davlatlarning yurisdiksiyasini qamrab oluvchi jinoyatlardir. Xalqaro huquqda transmilliy jinoyatlar alohida toifa sifatida ajratilib, ularga qarshi kurashish davlatlararo hamkorlikni talab etadi. Bu esa ekstraditsiya, huquqiy yordam, qo‘shma tergov kabi institutlarning rivojlanishiga olib kelgan. Narkotik vositalar va psixotrop moddalar bilan bog‘liq jinoyatlar — bu inson salomatligi, jamoat xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlikka jiddiy zarar yetkazuvchi huquqbuzarliklar turidir. Ushbu jinoyatlar xalqaro darajada tartibga solingan bo‘lib, xalqaro jinoyatlar toifasiga kiradi. Xalqaro hujjatlarda narkotik vositalar va psixotrop moddalar bilan bog‘liq jinoyatlar quyidagicha tasniflanadi: noqonuniy ishlab chiqarish, saqlash va tashish, realizatsiya (sotish, tarqatish), kontrabanda, moliyaviy operatsiyalar orqali daromadlarni legallashtirish. Shuningdek, milliy qonunchiliklarda ham ushbu jinoyatlar aniq tartibga solingan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida narkotik vositalar bilan bog‘liq jinoyatlar alohida bobda nazarda tutilgan bo‘lib, ularning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori deb baholanadi. Narkojinoyatlar o‘zining yuqori darajadagi zararli oqibatlari bilan ajralib turadi, chunki ular: inson sog‘lig‘iga zarar yetkazadi, jinoyatchilikning boshqa turlarini (terrorizm, odam savdosi) moliyalashtiradi, jamiyatda ijtimoiy beqarorlikni kuchaytiradi.

Transmilliy narkojinoyatlarning asosiy belgilar. Transmilliy narkojinoyatlar oddiy jinoyatlardan o‘zining murakkabligi, ko‘lamdorligi va xalqaro xarakteri bilan ajralib turadi. Ularning asosiy belgilarini quyidagicha tizimlashtirish mumkin:

1. Chegaradan o‘tish (transchegaraviylik), ya'ni transmilliy narkojinoyatlarning eng muhim belgisi — ularning davlat chegaralaridan o‘tishi hisoblanadi. Narkotik moddalar odatda bir davlatda ishlab chiqarilib, boshqa davlatlar orqali tranzit qilinadi va uchinchi davlatda sotiladi. Bu esa jinoyatning bir vaqtning o‘zida bir nechta yurisdiksiyani qamrab olishini anglatadi.

2. Uyushganlik (tashkiliy tuzilma mavjudligi). Bunda transmilliy narkojinoyatlar ko‘pincha uyushgan jinoiy guruhlar tomonidan sodir etiladi. Bunday guruhlar aniq iyerarxiyaga ega bo‘lib vazifalar taqsimoti asosida ishlaydi va yashirin faoliyat yuritadi. Bu jihat ham Palermo Conventionda alohida ta’kidlangan bo‘lib, uyushgan jinoyatchilik transmilliy jinoyatlarning asosiy elementi sifatida e’tirof etiladi.

3. Yuqori daromadlilik, ya'ni narkojinoyatlar dunyodagi eng daromadli noqonuniy faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Ular katta miqdorda noqonuniy daromad keltiradi va bu daromadlar ko‘pincha moliyaviy tizimlar orqali legallashtiriladi yoki boshqa jinoyat turlarini moliyalashtirishga yo‘naltiriladi. Yuqori daromadlilik jinoyatchilarni ushbu faoliyatga jalb etuvchi asosiy omillardan biridir.

4. Yashirinlik va konspiratsiya. Transmilliy narkojinoyatlar yuqori darajadagi maxfiylik asosida amalga oshiriladi. Zamonaviy texnologiyalar, shifrlangan aloqa vositalari va noqonuniy moliyaviy sxemalar jinoyatchilarga aniqlanishdan qochish imkonini beradi.

5. Xalqaro xavfsizlikka tahdid soluvchi transmilliy narkojinoyatlar nafaqat alohida davlatlar, balki butun xalqaro hamjamiyat uchun xavf tug‘diradi. Ular davlatlarning iqtisodiy barqarorligiga putur yetkazishi, korrupsiya darajasini oshirishi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini murakkablashtiradi. Transmilliy narkojinoyatlar — bu xalqaro huquqiy tartibga solinadigan, bir nechta davlat hududini qamrab oluvchi, uyushgan va yuqori daromadli jinoyatlar turidir. Ularning huquqiy tabiati xalqaro konvensiyalar, xususan Palermo Konvensiyasi hamda 1961 va 1988-yillardagi narkotik vositalarga oid konvensiyalar orqali belgilangan. Mazkur jinoyatlar o‘zining transchegaraviyligi, uyushganligi va yuqori ijtimoiy xavfliligi bilan ajralib turadi. Shu sababli ularga qarshi kurashish faqat milliy darajada emas, balki xalqaro hamkorlik asosida amalga oshirilishi zarur.

Transmilliy narkojinoyatlarning turlari va shakllari. Transmilliy narkojinoyatlar o‘zining murakkab tuzilishi, xalqaro xarakteri va ko‘p bosqichli amalga oshirilish mexanizmlari bilan ajralib turadi. Ular xalqaro huquq normalari, xususan 1988-yilgi Vena Konvensiyasi hamda Palermo Konvensiyasi asosida tasniflanadi. Narkotik vositalarni ishlab chiqarish, tashish va tarqatish transmilliy narkojinoyatlarning eng asosiy shakli bo‘lib, narkotik vositalarning noqonuniy aylanishi uch asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi:

a) Ishlab chiqarish (yetishtirish va tayyorlash). Bu bosqichda narkotik vositalar (masalan, opiy, geroin, kokain) yoki psixotrop moddalar ishlab chiqariladi. Ushbu faoliyat noqonuniy plantatsiyalar (ko‘knori, kokain butasi) orqali va yashirin laboratoriyalar yordamida amalga oshiriladi. Mazkur faoliyat 1961-yilgi Yagona narkotik vositalar to‘g‘risidagi Konvensiya bilan qat’iy taqiqlangan.

b) Tashish (tranzit va logistika). Narkotik moddalar ishlab chiqarilgan hududdan iste’mol bozorlariga yetkaziladi. Bu jarayon xalqaro transport yo‘llari (avtomobil, temir yo‘l, havo va dengiz) orqali va ko‘p bosqichli tranzit tizimi orqali amalga oshiriladi. Bu bosqich transmilliy jinoyatning eng muhim elementlaridan biri bo‘lib, bir nechta davlat hududini qamrab oladi.

c) Tarqatish (realizatsiya). Narkotik vositalar iste’molchilarga yetkaziladi. Bu jarayon ulgurji savdo (katta partiyalar bilan) va chakana savdo (ko‘cha savdosi, yashirin tarmoqlar orqali) shaklida amalga oshiriladi.

Kontrabanda va noqonuniy aylanma. Narkotik vositalarning kontrabandasi — ularni bojxona nazoratidan yashirin ravishda olib o‘tish bilan bog‘liq jinoyatdir. Bu faoliyat yashirin konteynerlar, soxta hujjatlar va “qora logistika” sxemalari orqali amalga oshiriladi. Kontrabanda 1988-yilgi Vena Konvensiyasiga ko‘ra xalqaro jinoyat

sifatida baholanadi va davlatlar tomonidan jinoyat deb e’tirof etilishi shart. Noqonuniy aylanma esa narkotik vositalarning ishlab chiqarishdan tortib iste’molchiga yetkazilgungacha bo‘lgan barcha noqonuniy harakatlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Bu tushuncha keng bo‘lib, u ishlab chiqarish, tashish, saqlash, sotish va moliyaviy operatsiyalarni qamrab oladi. Uyushgan jinoiy guruhlar faoliyati, ya'ni transmilliy narkojinoyatlar asosan uyushgan jinoiy guruhlar tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu guruhlar Palermo Konvensiyasiga muvofiq quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi: kamida uch kishidan iborat bo‘lishi, ma’lum vaqt davomida faoliyat yuritishi va moddiy manfaat olish maqsadida jinoyat sodir etishi. Uyushgan guruhlarning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagicha bo‘lishi mumkin: qat’iy iyerarxik tuzilma, rollar taqsimoti (rahbar, logist, moliyachi, ijrochi) va yuqori darajadagi konspiratsiya. Bunday guruhlar xalqaro darajada tarmoqlashgan bo‘lib, turli davlatlarda o‘z bo‘g‘inlariga ega bo‘ladi. Ular narkotik savdodan tushgan daromadlarni legallashtirish, korrupsiya va boshqa jinoyatlar bilan uzviy bog‘liq holda faoliyat yuritadi.

So‘nggi yillarda transmilliy narkojinoyatlar yangi shakl — raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirilayotgan jinoyatlar bilan boyimoqda. Xususan, “internet” tarmoqlari orqali narkotik savdosi keng tarqalmoqda. Internetning maxsus dasturlar orqali kiriladigan, anonimlikni ta’minlovchi segmenti bo‘lib, u yerda narkotik moddalar savdosi. noqonuniy xizmatlar va kriptovalyutalar orqali to‘lovlar amalga oshiriladi. Bu shaklning asosiy xususiyatlari anonimlik (foydalanuvchini aniqlash qiyin) markazlashmagan tizim va kriptovalyutalar orqali to‘lov hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar orqali narkosavdo jinoyatni aniqlash va tergov qilishni murakkablashtiradi, chunki u transmilliy va virtual muhitda amalga oshiriladi. Transmilliy narkojinoyatlar turli shakllarda namoyon bo‘lib, ular ishlab chiqarishdan tortib raqamli savdogacha bo‘lgan murakkab zanjirni tashkil etadi. Ushbu jinoyatlar uyushgan guruhlar, kontrabanda mexanizmlari va zamonaviy texnologiyalar orqali amalga oshiriladi hamda xalqaro xavfsizlikka jiddiy tahdid soladi.

Transmilliy narkojinoyatlarning sabablari va omillari. Transmilliy narkojinoyatlar murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa bo‘lib, ularning yuzaga kelishi turli omillar bilan bog‘liq. Ushbu omillar kriminologik jihatdan quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Iqtisodiy omillar transmilliy narkojinoyatlarning eng asosiy sabablaridan biridir. Narkotik savdosi juda yuqori daromad keltirib, noqonuniy bo‘lsa-da, tez foyda olish imkonini beradi. Noqonuniy daromad manbalari sifatida narkobiznes iqtisodiy tengsizlik mavjud hududlarda keng rivojlanadi va kambag‘allik sharoitida aholi uchun “alternativ daromad manbai” sifatida qaraladi. Shuningdek, global iqtisodiy tizimdagi moliyaviy bo‘shliqlar noqonuniy daromadlarni yashirish imkonini yaratadi.

2. Ijtimoiy omillar ham narkojinoyatlarning rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi: ishsizlik — aholini noqonuniy

faoliyatga jalb etadi, migratsiya — transmilliy tarmoqlarni shakllantiradi, ijtimoiy tengsizlik — jinoyatchilikka moyillikni oshiradi. Migratsiya jarayonlari ayniqsa muhim bo‘lib, ular orqali narkotik moddalar tashish va tarqatish uchun yangi yo‘nalishlar paydo bo‘ladi.

3. Siyosiy omillar ham transmilliy narkojinoyatlar rivojida muhim rol o‘ynaydi. Ular quyidagilardan iborat: davlat boshqaruvidagi zaiflik, korrupsiya va chegaralar nazoratining sustligida namoyon bo‘ladi. Agar davlat organlari samarali ishlamasa yoki korrupsiya yuqori bo‘lsa, narkojinoyatlar uchun qulay muhit yuzaga keladi. Ayniqsa, chegaraviy hududlarda nazoratning zaifligi kontrabanda uchun imkoniyat yaratadi.

4. Texnologik omillar, zamonaviy texnologiyalar transmilliy narkojinoyatlarning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Bular internet, kriptovalyutalar, shifrlangan aloqa vositalaridir. Texnologik omillar jinoyatchilarga anonimlikni ta’minlash, tezkor aloqa o‘rnatish va moliyaviy operatsiyalarni yashirish imkonini beradi. Bu esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun yangi chaqiriqlarni yuzaga keltiradi.

Qonunchilikni takomillashtirish transmilliy narkojinoyatlarga qarshi kurashning asosiy huquqiy poydevorini mustahkamlaydi. Xalqaro standartlarga moslashuv va javobgarlik choralarining kuchaytirilishi jinoyatchilikni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Profilaktika va kriminologik yondashuv, ya'ni transmilliy narkojinoyatlarga qarshi kurashda profilaktika choralarining o‘rni alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy kriminologiya jinoyatchilikni faqat jazolash orqali emas, balki uning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish orqali kamaytirishni nazarda tutadi. Aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida profilaktika. Bunda narkojinoyatlar ko‘pincha yoshlar orasida keng tarqalganligi sababli profilaktika ishlari aynan shu qatlamga qaratilishi lozim. Asosiy yo‘nalishlar: huquqiy ong va madaniyatni oshirish, giyohvandlikning zararli oqibatlari haqida targ‘ibot ishlari, ta’lim muassasalarida maxsus dasturlarni joriy etish. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, erta profilaktika jinoyatchilikning oldini olishda eng samarali vositalardan biridir. Kriminologik yondashuvga ko‘ra, narkojinoyatlarning ildizi ko‘pincha ijtimoiy muammolar bilan bog‘liq. Shu sababli quyidagi ijtimoiy dasturlarni rivojlantirish zarur: bandlikni ta’minlash va yangi ish o‘rinlari yaratish. ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish, reabilitatsiya va reintegratsiya dasturlarini joriy etish. Bunday dasturlar jinoyatchilikka olib keluvchi omillarni kamaytirib, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi. Profilaktika va kriminologik yondashuv transmilliy narkojinoyatlarga qarshi kurashning eng samarali va uzoq muddatli strategiyasi hisoblanadi. U jinoyatchilik sabablarini bartaraf etishga qaratilgan kompleks choralarni o‘z ichiga oladi.

Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish. Global raqamlashtirish sharoitida transmilliy narkojinoyatlarga qarshi kurashda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash

muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda raqamli monitoring tizimlari muhim ahamiyatga ega. Raqamli monitoring - narkotik vositalarning noqonuniy aylanishini kuzatish va nazorat qilishning zamonaviy usulidir. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi: ma’lumotlar bazalarini integratsiya qilish, real vaqt rejimida kuzatuv tizimlari, transport va logistika zanjirlarini monitoring qilish. Bu tizimlar jinoyatlarni erta aniqlash va oldini olish imkonini beradi. Sun’iy intellekt asosida nazorat, ya'ni sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari jinoyatchilikka qarshi kurashda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ularning afzalliklari katta hajmdagi ma’lumotlarni tez tahlil qilish, shubhali operatsiyalarni aniqlash, prognozlash. Masalan, AI yordamida narkotik savdo yo‘llari, moliyaviy tranzaksiyalar va ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat tahlil qilinishi mumkin. Kiberjinoyatlarga qarshi kurash vositalari quyidagicha: Raqamli muhitda sodir etilayotgan narkojinoyatlarga qarshi kurashish uchun maxsus vositalar zarur: kiberxavfsizlik tizimlari, kriptovalyuta tranzaksiyalarini monitoring qilish, maxsus dasturiy vositalari. Bu vositalar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yangi turdagi jinoyatlarni aniqlash va bartaraf etishda yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish transmilliy narkojinoyatlarga qarshi kurash samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Raqamli monitoring, sun’iy intellekt va kiberxavfsizlik vositalari ushbu yo‘nalishda ustuvor ahamiyatga ega. Transmilliy narkojinoyatlarga qarshi kurashni takomillashtirish ko‘p qirrali yondashuvni talab etadi. Qonunchilikni rivojlantirish, profilaktika choralarini kuchaytirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish o‘zaro uyg‘unlikda amalga oshirilgandagina samarali natija beradi. Mazkur yo‘nalishlar milliy va xalqaro darajada hamkorlikni kuchaytirish orqali yanada mustahkamlanadi..

Ushbu ilmiy tadqiqot davomida transmilliy narkojinoyatlarga qarshi kurashning nazariy, xalqaro va milliy huquqiy asoslari, amaliy mexanizmlari hamda takomillashtirish yo‘nalishlari tizimli ravishda o‘rganildi. Tadqiqot natijalari quyidagicha umumlashtiriladi:

1. Transmilliy narkojinoyatlar tushunchasi va huquqiy tabiati: Transmilliy narkojinoyatlar xalqaro va milliy darajada yuqori ijtimoiy xavfli jinoyatlar sifatida e’tirof etiladi. Ularning asosiy belgilariga chegara orqali tarqalish, uyushganlik, yuqori daromadlilik kiradi. Xalqaro huquqiy konvensiyalar (1961, 1971, 1988, 2000 yillik) va milliy qonunchilik (Jinoyat kodeksi, “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi qonun) mazkur jinoyatlar ustidan nazoratning yuridik poydevorini tashkil qiladi.

2. Xalqaro-huquqiy mexanizmlari. UNODC, INTERPOL va mintaqaviy tuzilmalar (MDH, SHHT) transmilliy narkojinoyatlarga qarshi kurashda koordinatsiya va operativ yordamni ta’minlaydi. Ekstraditsiya, o‘zaro huquqiy yordam, qo‘shma tergov va maxsus operatsiyalar samarali vositalar sifatida ishlatiladi.

3. Milliy darajada kurash. O‘zbekiston Respublikasida ichki ishlar, davlat xavfsizlik xizmati va bojxona organlari transmilliy narkojinoyatlarga qarshi faoliyat yuritadi. Chegara nazorati, korrupsiya va raqamli narkosavdo muammolari mavjud bo‘lib, ularni innovatsion va kompleks yondashuv orqali bartaraf etish mumkin.

4. Takomillashtirish yo‘nalishlari. Qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish va javobgarlik choralarini kuchaytirish zarur. Profilaktika va kriminologik yondashuvni kuchaytirish, yoshlar va ijtimoiy zaif guruhlar o‘rtasida ongni oshirish shart. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, raqamli monitoring, sun’iy intellekt va kiberxavfsizlik vositalarini qo‘llash talab etiladi.

5. Xalqaro va milliy hamkorlikni kuchaytirish muhimligi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, transmilliy narkojinoyatlar tabiati global bo‘lgani sababli, milliy choralar faqat xalqaro hamkorlik bilan uyg‘unlashganda samarali bo‘ladi. Bu quyidagilarni ta’minlaydi:

- jinoyatchilik tarmoqlarini fosh etish va tarqatish yo‘llarini bloklash;
- ekstraditsiya va o‘zaro huquqiy yordam mexanizmlarini tez va samarali qo‘llash;
- mintaqaviy va global monitoring tizimlarining integratsiyasi;
- xalqaro profilaktika va kriminologik dasturlar bilan uyg‘unlik.

Shunday qilib, transmilliy narkojinoyatlarga qarshi kurash samaradorligi kompleks, ilmiy asoslangan yondashuvni, xalqaro va milliy darajadagi hamkorlikni va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi. Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, milliy qonunchilikni takomillashtirish, profilaktika ishlarini kengaytirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash ushbu kurashning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari. www.lex.uz

2. “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonuni, 19.08.1999 yildagi 813-I-son – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari. www.lex.uz

3. 1961-yilgi “Yagona narkotik vositalar to‘g‘risida”gi Konvensiya – BMT rasmiy hujjati.

4. 1971-yilgi “Psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Konvensiya – BMT rasmiy hujjati.

5. 1988-yilgi Vena Konvensiyasi – BMT rasmiy hujjati.

6. 2000-yilgi Palermo Konvensiyasi – BMT rasmiy hujjati.

7. Transnational Organized Crime: A Commentary on the UNTOC – Xalqaro jinoyat va transmilliy jinoyatchilik bo‘yicha ilmiy tahlil.

8. Narcotics and Crime: A Global Perspective – Narkotik vositalar va transmilliy jinoyatchilik tahlili.

9. World Drug Report 2023 – Jahon narkosavdosi va profilaktika statistikasi.

10. Transnational Crime and Global Security – Transmilliy jinoyatchilik va xavfsizlik bo‘yicha tahliliy manba.

11. Combating Transnational Drug Trafficking in Central Asia – Mintaqaviy tajriba va qonunchilikni tahlil qiluvchi maqola.

12. Crime and Corruption in Central Asia – Korrupsiya va narkojinoyatlarga ta’siri bo‘yicha ilmiy hisobot.

13. UNODC Official Website – Rasmiy ma’lumotlar va statistik resurs.

14. INTERPOL Official Website – Xalqaro operativ hamkorlik va jinoyat monitoringi bo‘yicha manba.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ГИЁҲВАНДЛИК ВОСИТАЛАРИ ВА ПСИХОТРОП МОДДАЛАР НОҚОНУНИЙ АЙЛАНИШИГА ҚАРШИ КУРАШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ҲОЛАТИ ВА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

А.А.Икрамов

Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети Махсус ҳуқуқий фанлар ва ҳарбий дипломатия кафедраси катта ўқитувчиси,

А.А.Абдурасулов

Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети Умумий тактика ва оператив санъат кафедраси катта ўқитувчиси

Гиёҳвандлик XXI асрнинг глобал муаммоларидан бири бўлиб қолмоқда. БМТ маълумотларига кўра, сўнгги 10 йил ичида гиёҳванд моддаларни истеъмол қилувчилар сони 23 фоизга ошиб, 240 млн. кишига етган. Уларнинг аксарият қисмини 30 ёшгача бўлганлар ташкил этмоқда. Бунинг оқибатида ҳар йили 200 мингдан ортиқ киши ҳаётдан кўз юмади.

Шу боисдан, гиёҳвандликка қарши курашни кучайтириш мақсадида БМТ томонидан «Наркотик моддалар тўғрисида»ги, «Психотроп моддалар» ҳамда «Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланишига қарши кураш туғрисида»ги конвенциялар қабул қилиниб, 1987 йил 7 декабрдаги 47/112-сонли резолюциясига кўра «26 июнь – Халқаро наркотик моддаларини суистеъмол қилиш ва уларнинг ноқонуний айланишига қарши кураш куни» деб эълон қилинган.

Сўнгги пайтларда Ўзбекистонда гиёҳвандлик воситаларини ноқонуний тарқатиш билан боғлиқ жиноятларнинг ўсиши кузатилмоқда. Бу дунёдаги умумий ҳолат билан чамбарчас боғлиқ. Ҳозирда глобал миқёсда наркотик воситаларининг янги турлари пайдо бўляпти, уларнинг Интернетда кенг тарқалиши эса бу иллатга қарши курашни мураккаблаштиради.

Жумладан, 2021 йилдан 2023 йилгача бўлган даврда гиёҳванд моддаларнинг ноқонуний айланиши билан боғлиқ жиноятлар сони барқарор ўсганини кўрсатди. Бундай жиноятларга қўл урган ёшлар салмоғи 21,6 фоиздан 28,1 фоизга ошгани алоҳида ташвиш уйғотади.

Маълумотларга кўра, сўнгги уч йилда ҳуқуқ-тартибот идоралари ходимлари томонидан наркотик моддалар билан боғлиқ 26 (25 834) мингга яқин жиноят иши қўзғатилган. 18 (18 585) мингдан ортиқ шахс жавобгарликка тортилди, шундан 4 (4164) мингдан ортиғи 30 ёшгача бўлган шахслардир.

Ҳуқуқ-тартибот идоралари интернетда гиёҳванд моддаларнинг тарқалишига қарши фаол кураш олиб бормоқда. Махсус тадбирлар давомида психотроп дори воситаларини сотиш билан шуғулланган 52 та интернет-ресурс аниқланди. Улардан 38 таси Телеграм мессенжерида ишлаган, жами 120 минг обуначи бор.

Ўзбекистонда гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний тарқатилишига қарши курашишга катта аҳамият қаратилмоқда. Ушбу йўналишда қатор норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинди, гиёҳвандликка қарши курашишнинг институционал асослари такомиллаштирилди.

Гиёҳвандлик воситаларининг ноқонуний тарқатилишига қарши курашиш Ўзбекистоннинг соғлом авлодни тарбиялашга қаратилган давлат сиёсатининг муҳим бўғини ҳисобланади.

2024 йилнинг 6 май куни Президент Ш.М.Мирзиёев гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланмасига чек қўйиш орқали уларнинг аҳоли саломатлиги ва мамлакат генофондига салбий таъсирини бартараф этиш стратегик чора-тадбирлари тўғрисидаги фармонни имзолади.

Фармонга кўра, гиёҳвандлик ва наркожиноятларга қарши курашиш бўйича 2024 – 2028 йилларга мўлжалланган миллий стратегия қабул қилинди. Унинг асосий мақсадлари сифатида қўйидагилар белгиланган:

– аҳоли, айниқса, хотин-қизлар ва ёшларда «гиёҳвандликка қарши иммунитет»ни, ўқувчи ва талабалар орасида кучли таъсир қилувчи дориларни истеъмол қилишга муросасиз муносабатни шакллантириш ва б;

– аҳолига сифатли наркологик ёрдам кўрсатиш тизимини янги усуллар асосида ривожлантириш, гиёҳвандлик ва заҳарвандликнинг барвақт профилактикаси, диагностикаси, даволаш ва тиббий-ижтимоий реабилитацияси тизимини тубдан такомиллаштиришга қаратилган манзилли чораларни амалга ошириш;

– гиёҳвандлик воситалари ноқонуний айланмасининг янгича, айниқса, интернет тармоғидаги усулларига барҳам бериш, бу борадаги тезкор-қидирув, тергов ва эксперт- криминалистик чоралар комплексини, биринчи навбатда рақамлаштириш орқали ривожлантириш;

– давлат ва хусусий тиббиёт муассасалари ҳамда дорихоналарнинг гиёҳвандлик воситаларидан тиббиётда фойдаланиш амалиётини назорат қилиш, шунингдек, фармацевтика корхоналари, гиёҳвандлик воситаларининг улгуржи ва чакана савдоси билан шуғулланувчи субъектлар масъулиятини оширишнинг таъсирчан механизмларини яратиш;

– гиёҳвандликни даволаш ва наркожиноятларга қарши курашиш соҳасида илмий-тадқиқот фаолиятини ривожлантириш, бу йўналишдаги илмий изланишлар, хулосалар, ютуқлар ва янгиликларни амалиётга жорий этиш ҳамда оммага етказишни таъминлаш.

Бундан ташқари, ички ишлар органларини наркотестерлар билан таъминлаш, жиноятларни аниқлашда дронлардан фойдаланиш, мутахассислар тайёрлаш ҳажмини 5 бараварга ошириш ва бошқалар мақсад қилинган.

Шунингдек, гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар устидан назорат қилиш бўйича бош вазир раислигида Давлат комиссияси ва унинг ҳудудий комиссиялари таркиблари тасдиқланди. Давлат комиссиясининг мувофиқлаштирувчи органи сифатида Президент Администрацияси ҳузуридаги Наркотик моддаларни назорат қилиш миллий маркази ташкил этилди.

Бундан ташқари, ички ишлар ва божхона органларининг моддий-техник ва кадрлар салоҳиятини янада мустаҳкамлаш, наркология хизмати тизимини модернизация ва ривожлантириш, гиёҳвандлик воситалари тарқалишининг олдини олиш бўйича аниқ чора-тадбирлар амалга ошириляпти.

Жумладан, Божхона қўмитасининг Миллий кинология марказида гиёҳвандлик воситалари, кучли таъсир етувчи ва психотроп моддалар контрабандасига қарши курашиш бўйича кинологлар ва хизмат итлари тайёрланмоқда.

Маълумот учун: 2023 йилда 10,4 тоннага яқин наркотик моддалар мусодара қилинди, бу 2022 йилга нисбатан 4,6 баравар кўп. Мусодара қилинган психотроп ва кучли таъсир этувчи моддалар сони икки баробарга ошди.

Халқаро гиёҳвандликка қарши кураш куни арафасида мамлакатимизда ҳар йили гиёҳванд моддаларни йўқ қилиш кампанияси ўтказилади. Бу анъанага 1994 йилда асос солинган. Акцияда халқаро ташкилотлар вакиллари, хорижий дипломатлар, журналистлар иштирок этади. 2023 йилда 2 тоннадан ортиқроқ гиёҳванд моддалари йўқ қилинган.

Ўзбекистоннинг минтақавий ва глобал ташаббуслари

Шу билан бирга, мамлакатимиз минтақавий ва халқаро платформалардан муҳим ташаббусларни илгари сурмоқда. Уларнинг асосий мақсади – гиёҳвандликка қарши курашда Марказий Осиё давлатларининг саъй-ҳаракатларини бирлаштириш, бу муаммога халқаро ҳамжамият эътиборини жалб қилиш.

Ўзбекистон Республикасида гиёҳвандликка қарши курашда минтақавий ва халқаро ҳамкорликни мустаҳкамлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Жумладан, БМТнинг Наркотиклар ва жиноятчилик бўйича бошқармаси билан ҳамкорлик йўлга қўйилган ва амалга ошириляпти. Хусусан, 2021 йил ноябр ойида Тошкентда БМТнинг Наркотиклар ва жиноятчилик бўйича бошқармаси ва Марказий Осиёнинг бешта давлати ўртасида 2022–2025 йилларга мўлжалланган янги ҳамкорлик дастури имзоланди. Унинг умумий бюджети 90 млн долл.

Тошкентнинг халқаро ташаббуслари ҳар томонлама қўллаб-қувватланмоқда. Жорий йил 4 июн куни БМТ Бош Ассамблеяси Ўзбекистон ташаббуси билан гиёҳванд моддалар билан боғлиқ муаммоларни самарали ҳал этиш ва бартараф этиш бўйича Марказий Осиё давлатларининг ягона фронт бўлиб ҳаракатланиши ва ҳамкорлик қилишга тайёрлиги тўғрисидаги резолюциясини бир овоздан қабул қилди.

Ҳужжатда дунёнинг 30 дан ортиқ давлатлари томонидан ҳаммуаллифлик қилинган. Улар орасида Хитой ва Россия каби БМТ Хавфсизлик Кенгашининг доимий аъзолари, шунингдек, Туркия, Саудия Арабистони, Қатар, БАА, Қувайт, Эрон, Филиппин, Индонезия, Сингапур, Япония каби йирик давлатлар, шунингдек, Озарбайжон ва Марказий Осиё барча давлатлари бор.

Резолюция концепцияси Ўзбекистон Республикаси Президентининг БМТ Бош Ассамблеясининг 76 сессиясидаги (2021 йил сентабр) нутқи асосида ишлаб чиқилган бўлиб, унда республика раҳбари “Марказий ва Жанубий Осиё мамлакатларини қамраб оладиган қўшма гиёҳвандликка қарши ҳаракатлар режасини ишлаб чиқиш”ни таклиф қилган.

Резолюцияда Марказий Осиёда 2030 йилгача барқарор ривожланиш мақсадларига (БРМ) эришиш минтақада гиёҳванд моддалар айланмаси ва гиёҳванд моддаларни суиистеъмол қилишга қарши кураш билан чамбарчас боғлиқлиги таъкидланган. Ҳужжат гиёҳванд моддалар, уларнинг прекурсорлари ноқонуний айланишига қарши курашиш, стратегик ташаббуслар ва ҳаракатлар режаларини ишлаб чиқиш бўйича комплекс чораларни кўришга чақиради.

Гиёҳвандликка қарши кураш нафақат давлат, балки жамиятнинг кенг қатламлари иштирокини талаб қиладиган мураккаб вазифадир. Зеро гиёҳванд моддалар нафақат бир неча кишининг ўлимига олиб келади, балки бутун халқнинг соғлиғини ёмонлаштиради.

Бу борада Ўзбекистонда, биринчи навбатда, гиёҳвандлик воситалари билан боғлиқ жиноятларнинг олдини олиш, гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг мамлакатимизга олиб киришини ўз вақтида аниқлаш ва олдини олишга қаратилган комплекс чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Мамлакатимиз минтақавий ва халқаро платформалардан муҳим ташаббусларни хам илгари сурмоқда. Уларнинг асосий мақсади – гиёҳвандликка

қарши курашда Марказий Осиё давлатларининг саъй-ҳаракатларини бирлаштириш, бу муаммога халқаро ҳамжамият эътиборини жалб қилиш.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари. www. www.lex.uz

2. “Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида”ги Қонуни, 19.08.1999 йилдаги 813-I-сон – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари. www.lex.uz

3. 1961-йилги “Ягона наркотик воситалар тўғрисида”ги Конвенсия – БМТ расмий ҳужжати.

4. 1971-йилги “Психотроп моддалар тўғрисида”ги Конвенсия – БМТ расмий ҳужжати.

5. 1988-йилги Вена Конвенсияси – БМТ расмий ҳужжати.

6. 2000-йилги Палермо Конвенсияси – БМТ расмий ҳужжати.

7. Transnational Organized Crime: A Commentary on the UNTOC – Халқаро жиноят ва трансмиллий жиноятчилик бўйича илмий таҳлил.

8. Narcotics and Crime: A Global Perspective – Наркотик воситалар ва трансмиллий жиноятчилик таҳлили.

9. World Drug Report 2023 – Жаҳон наркосавдоси ва профилактика статистикаси.

10. Transnational Crime and Global Security – Трансмиллий жиноятчилик ва хавфсизлик бўйича таҳлилий манба.

11. Combating Transnational Drug Trafficking in Central Asia – Минтақавий тажриба ва қонунчиликни таҳлил қилувчи мақола.

12. Crime and Corruption in Central Asia – Коррупсия ва наркожиноятларга таъсири бўйича илмий ҳисобот.

13. UNODC Official Website – Расмий маълумотлар ва статистик ресурс.

14. INTERPOL Official Website – Халқаро оператив ҳамкорлик ва жиноят мониторинги бўйича манба.

VOYAGA YETMAGANLAR O‘RTASIDA GIYOHVANDLIKNI OLDINI OLISH: XORIJIY TADQIQOTLAR VA PROFILAKTIK CHORA-TADBIRLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Rizoyev Feruz Furqat o‘g‘li
Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi
katta o‘qituvchisi, y.f.bf.d. (PhD)
Bahromova Marg‘iyona Boburmirzo qizi
Maxsus fakultet talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘smirlar o‘rtasida giyohvandlikning shakllanish mexanizmlari neyrobiologik, psixologik va ijtimoiy omillar kesimida xorijiy ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi. Olingan ilmiy xulosalar Mamlakatimizning ijtimoiy-madaniy va huquqiy muhiti bilan qiyosiy o‘rganilib, milliy sharoitda profilaktika tizimini takomillashtirish bo‘yicha kompleks taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: voyaga yetmaganlar, giyohvandlik, risk omillari, profilaktika, huquqiy mexanizm, maktab muhiti, oilaviy nazorat, reabilitatsiya.

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida narkotik vositalarning iste’mol qilinishi zamonaviy kriminologiya va sotsiologiyaning eng murakkab ijtimoiy-huquqiy muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Mazkur fenomen jamiyatning genofondi, aholi salomatligi, ta’lim tizimi samaradorligi hamda kriminogen barqarorlikka bevosita destruktiv (yemiruvchi) ta’sir ko‘rsatadi. Retrospektiv va prospektiv ilmiy tahlillar shuni tasdiqlaydiki, psixoaktiv moddalarni iste’mol qilishning erta debyuti (erta boshlanishi) kelgusida turg‘un narkotik qaramlik sindromi va deviant xulq-atvorning shakllanish ehtimolini eksponentsial ravishda oshiradi.

Xalqaro akademik tadqiqotlarda o‘smirlik davrining neyrobiologik determinatsiyasi, psixologik rigidligi hamda sotsiumning mikrodarajadagi ta’siri fundamental ravishda o‘rganilgan.

Ilmiy nazariyalarga ko‘ra, o‘smirlik davrida miya rivojlanishining notekisligi kuzatiladi. Emotsional va mukofot tizimlari, xususan amigdala va nukleus akumbens faoliyati erta faollashadi, biroq o‘zini nazorat qilish va qaror qabul qilish uchun mas’ul prefrontal korteks to‘liq shakllanishi kechroq yakunlanadi[1]. Ushbu “rivojlanish nomutanosibligi” xavfli xatti-harakatlarga moyillikni kuchaytiradi.

Empirik tadqiqotlarda spirtli ichimliklar va kannabis iste’moli bilan verbal xotira, diqqat, psixomotor tezlik va vizual-makoniy funksiyalarning pasayishi o‘rtasida

[1] Casey B.J., Jones R.M., Hare T.A. The adolescent brain. *Annals of the New York Academy of Sciences*, 2008.

bog‘liqlik aniqlangan[1]. Longitudinal izlanishlar muntazam iste’mol qiluvchi o‘smirlar kognitiv testlarda past natija ko‘rsatishini tasdiqlaydi[2]. Shuningdek, miya kulrang modda hajmining kamayishi, ayniqsa frontal sohalarda, qayd etilgan[3].

O‘zbekiston sharoitida ham voyaga yetmaganlar orasida psixoaktiv moddalar bilan bog‘liq muammolar mavjud bo‘lib, bu ularning akademik muvaffaqiyati, ijtimoiy moslashuvi va ruhiy salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Demak, ilmiy asoslangan profilaktika choralarini erta yoshdan boshlab joriy etish zarur.

Avvalo, oilaviy muhit o‘smir shaxsining shakllanishida hal qiluvchi ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oiladagi disfunktsional munosabatlar, ota-onalar o‘rtasidagi nizolar, zo‘ravonlik, beparvolik yoki yetarli nazoratning yo‘qligi o‘smirda deviant xulq-atvor rivojlanish xavfini oshiradi. Bolalik davrida jismoniy yoki ruhiy zo‘ravonlikka uchragan, e’tiborsizlik yoki qarovsiz qolgan bolalarda keyinchalik psixoaktiv moddalarni sinab ko‘rish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Shuningdek, ota-onaning o‘zi giyohvandlik yoki alkogolizmga moyil bo‘lsa, bu nafaqat genetik predispozitsiya, balki xulqiy model sifatida ham bolaga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onaning ma’lumoti darajasi, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, ota-onaning nikoh holati va farzand bilan o‘zaro munosabat sifati ham muhim omillar qatoriga kiradi. Ayniqsa, bolaning ota-onasi giyohvandlikni “qabul qilinadigan” yoki “jiddiy xavf tug‘dirmaydigan” holat sifatida qabul qiladi degan subyektiv tasavvuri uning xulqiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Mamlakatimiz jamiyatida oila ijtimoiy nazoratning asosiy instituti bo‘lsa-da, migratsiya, iqtisodiy qiyinchiliklar va ijtimoiy transformatsiyalar nazorat mexanizmlarining zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, ota-onaning uzoq muddat xorijda ishlashi natijasida bolalarning qarovsiz qolishi risk omilini oshiradi.

Tengdoshlar ta’siri o‘smirlik davrida ayniqsa kuchli bo‘ladi. Ijtimoiy identifikatsiya va guruhga mansublik hissi o‘smir uchun muhim psixologik ehtiyojdir. Agar tengdoshlar guruhida giyohvandlik odatiy yoki maqbul xatti-harakat sifatida qabul qilingan bo‘lsa, individual qarshilik mexanizmlari sustlashadi. Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, giyohvandlik keng tarqalgan guruhda o‘qiydigan yoki muloqot qiladigan o‘smirlar orasida moddalarni sinab ko‘rish va muntazam iste’mol qilish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Bu jarayonda bevosita bosimdan tashqari, ijtimoiy taqlid mexanizmi ham muhim rol o‘ynaydi.

Maktab muhiti ham o‘smirlar xulq-atvorining shakllanishida markaziy ijtimoiy kontekst hisoblanadi. Ta’lim muassasasi nafaqat bilim berish, balki ijtimoiy normalarni shakllantirish, qadriyatlarni singdirish va ijtimoiy nazoratni amalga oshirish maydoni

[1] Squeglia L.M., Jacobus J., Tapert S.F. The influence of substance use on adolescent brain development. *Clinical EEG and Neuroscience*, 2009.

[2] Jacobus J., Tapert S.F. Effects of cannabis on the adolescent brain. *Current Pharmaceutical Design*, 2014.

[3] Spear L.P. Adolescent neurodevelopment. *Neuroscience & Biobehavioral Reviews*, 2013.

sifatida faoliyat yuritadi. O‘qituvchilar, maktab ma’muriyati, tengdoshlar va ichki tartib-qoidalar o‘smirning giyohvandlikka munosabatini belgilashda bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Agar maktabda psixoaktiv moddalarni iste’mol qilish keng tarqalgan bo‘lsa yoki bunga nisbatan loqayd munosabat shakllangan bo‘lsa, bu o‘smirlar orasida xavfli xulq-atvorni normallashtiradi. Aksincha, qat’iy nazorat, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish, psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimining mavjudligi himoya omili sifatida xizmat qiladi.

Maktab o‘smirning ijtimoiylashuvi va qadriyatlar tizimi shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Xorijiy tadqiqotlar maktabda giyohvandlik keng tarqalgan bo‘lsa, o‘smirlar orasida moddalarni sinab ko‘rish ehtimoli ortishini ko‘rsatadi[1]. Tengdoshlar ta’siri ayniqsa kuchli bo‘lib, guruh normasi xatti-harakatni belgilovchi omilga aylanadi[2].

Yurtimiz ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar va profilaktika mexanizmlari mavjud bo‘lsa-da, zamonaviy psixologik treninglar, hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish dasturlari va interaktiv metodikalarni keng joriy etish zarur.

Ijtimoiy-iqtisodiy sharoit ham muhim determinantdir. Kambag‘allik, ishsizlik, ijtimoiy tengsizlik va istiqbolning noaniqligi o‘smirni deviant muhitga yaqinlashtirishi mumkin. Ayniqsa, shaharlashuv jarayonlari, migratsiya va urbanizatsiya natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy dezorganizatsiya yoshlar orasida nazoratsizlik va submadaniy guruhlar ta’sirini kuchaytiradi. Bunday sharoitda giyohvandlik nafaqat individual muammo, balki ijtimoiy patologiya sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari va internet makoni ham zamonaviy sharoitda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda giyohvandlikni romantizatsiya qilish, uni “erkinlik” yoki “zamonaviylik” ramzi sifatida ko‘rsatish o‘smir ongiga bevosita ta’sir qiladi. Virtual makonda narkotik moddalar savdosi bilan bog‘liq yashirin kanallarning mavjudligi esa ularni topish va xarid qilish jarayonini osonlashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasida narkotik vositalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishning mustahkam huquqiy va institutsional asoslari shakllantirilgan. Xususan, voyaga yetmaganlarning huquqiy manfaatlarini muhofaza qilish hamda ularning intellektual va jismoniy rivojlanishi uchun xavfsiz muhit yaratish davlat siyosatining strategik ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, narkotik qaramlikka qarshi kurashda faqatgina repressiv (jazolash) choralar bilan cheklanish kutilgan samaradorlikni bermaydi. Shu munosabat bilan, preventiv (profilaktika) tadbirlar, tibbiy-psixologik reabilitatsiya va ijtimoiy reintegratsiya mexanizmlarini kompleks ravishda takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

[1] Fletcher A., Bonell C., Hargreaves J. School effects on drug use. *Journal of Adolescent Health*, 2008.
[2] Ali M.M., Dwyer D.S. Peer effects in adolescent substance use. *Journal of Adolescent Health*, 2010.

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida giyohvandlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni oldini olishj maqsadida quyidagilarni amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, umumta’lim muassasalari negizida 7 haftaga mo‘ljallangan «Mustahkam oila» interaktiv o‘quv kursini joriy etish. Mazkur dastur quyidagi konseptual asoslarga tayanishi lozim:

- ota-onalarning ishtiroki an’anaviy majlis shaklidan voz kechgan holda, amaliy trening va kognitiv-bixevioral metodikalar asosida tashkil etiladi;

- mashg‘ulotlar maktab va mahalla psixologlarining integratsiyalashgan hamkorligi (interdisiplinar yondashuv) doirasida olib boriladi;

- kurs mazmuni oilaviy nizolarni konstruktiv hal etish (mediatsiya), bolalar xulq-atvorini monitoring qilish hamda mediasavodxonlik va kiberxavfsizlik ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratiladi;

- kurs yakunida oiladagi ijtimoiy-psixologik muhit va latent xavf indikatorlari kompleks baholanadi.

Mazkur model jazolash (repressiv) choralaridan voz kechib, preventiv-reabilitatsion (oldini oluvchi) mexanizmlarni ustuvorlashtirish orqali oilaviy profilaktika tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, mahalla fuqarolar yig‘ini va umumta’lim maktablari o‘rtasida o‘zaro javobgarlikka asoslangan «Ijtimoiy nazorat va hamkorlik shartnomasi» tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Mazkur mexanizm quyidagi ustuvor vazifalarni o‘z ichiga oladi:

- 14 yoshga to‘lmagan voyaga yetmaganlarning tungi vaqtlarda nazoratsiz yurishining oldini olish maqsadida mahalla faollari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamkorligida «Xavfsiz hudud» patrulligini tashkil etish;

- voyaga yetmaganlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ularning ijtimoiy adaptatsiyasini ta’minlash maqsadida sport seksiyalari va to‘garaklarga imtiyozli (bepul) kvotalar tizimini joriy qilish;

- har oy yakunida ota-onalar ishtirokida oiladagi va hududdagi «ijtimoiy xavf» darajasini kollegial muhokama qilish va bartaraf etish choralarini ko‘rish.

Mamlakatimizga xos bo‘lgan mahalla instituti imkoniyatlaridan foydalangan holda ushbu modelni tatbiq etish, huquqbuzarliklar profilaktikasida «mahalla – maktab – oila» zanjirining uzviyligini ta’minlashda yuksak samaradorlik ko‘rsatadi.

Uchinchidan, voyaga yetmaganlar uchun erta diagnostika va psixologik skrining tizimini yaratish lozim. Maktab psixologlari va ijtimoiy pedagoglar faoliyatini kuchaytirish orqali xavf guruhidagi bolalarni aniqlash mumkin.

To‘rtinchidan, voyaga yetmaganlarga nisbatan qo‘llaniladigan reabilitatsiya markazlari faoliyatini tubdan takomillashtirish va modernizatsiya qilish zarur. Bunda davlatning jazo choralarini qo‘llash funksiyasidan ko‘ra, shaxsni korreksiya qilish

(tuzatish) va ijtimoiy adaptatsiya (moslashtirish) tamoyillarini ustuvor etib belgilash maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, ommaviy axborot vositalari va internet makonida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiluvchi ijtimoiy kompaniyalarni kengaytirish, giyohvandlikni romantizatsiya qiluvchi kontentga qarshi huquqiy va axborot mexanizmlarini kuchaytirish lozim.

Oltinchidan, Maktabgacha va maktab ta’limi, Sog‘liqni saqlash, Ichki ishlar, Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi o‘rtasida yagona elektron platforma yaratish lozim.Bu o‘z navbatida profilaktikani tizimli olib borish imkonini yaratadi.Shu bilan birgalikda maktabni markaziy profilaktik maydon sifatida belgilash lozim.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, zamonaviy xalqaro tadqiqotlar o‘smirlar o‘rtasidagi narkotik qaramlik fenomenini biologik, psixologik va ijtimoiy determinatnlar (omillar) majmuasi sifatida talqin etadi. O‘zbekiston sharoitida ushbu omillar milliy mentalitetning o‘ziga xosligi va jamiyatning ijtimoiy-strukturaviy transformatsiyasi bilan uzviy bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi.

Shu tariqa, an’anaviy repressiv (jazolashga asoslangan) metodologiyadan voz kechib, kompleks ijtimoiy-profilaktika modelini ustuvorlashtirish mamlakatimizda voyaga yetmaganlar o‘rtasida narkotizatsiya xavfining oldini olishda eng yuqori samaradorlik ko‘rsatuvchi strategik yondashuv hisoblanadi. Mazkur model nafaqat huquqbuzarliklarning oqibatlari bilan kurashish, balki ularni yuzaga keltiruvchi etiologik omillarni (sabab va sharoitlarni) tizimli ravishda bartaraf etish hamda voyaga yetmagan shaxsning ijtimoiy reabilitatsiyasini ta’minlashda fundamental asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Casey B.J., Jones R.M., Hare T.A. The adolescent brain. *Annals of the New York Academy of Sciences*, 2008.

2. Squeglia L.M., Jacobus J., Tapert S.F. The influence of substance use on adolescent brain development. *Clinical EEG and Neuroscience*, 2009.

3. Jacobus J., Tapert S.F. Effects of cannabis on the adolescent brain. *Current Pharmaceutical Design*, 2014.

4. Spear L.P. Adolescent neurodevelopment. *Neuroscience & Biobehavioral Reviews*, 2013.

5. Stone A.L. et al. Risk and protective factors for substance use. *Substance Abuse*, 2012.

6. Fletcher A., Bonell C., Hargreaves J. School effects on drug use. *Journal of Adolescent Health*, 2008.

7. Ali M.M., Dwyer D.S. Peer effects in adolescent substance use. *Journal of Adolescent Health*, 2010.

GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHNING ZAMONAVIY HUQUQIY VA IJTIMOIY MEXANIZMLARI

Ravshanov Ulugbek Maxmurbekovich,
Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi katta o‘qituvchisi
To‘lqinova Sevinch Komil qizi,
Jamoat xavfsizligi universiteti talabasi

Bugungi globallashuv sharoitida giyohvandlik insoniyat xavfsizligiga tahdid soluvchi eng jiddiy va murakkab muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur illat nafaqat alohida shaxs salomatligiga zarar yetkazadi, balki jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va demografik rivojlanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, yoshlar orasida narkotik moddalar iste’molining ortib borishi inson kapitalining zaiflashishiga, jinoyatchilik darajasining oshishiga hamda ijtimoiy barqarorlikning izdan chiqishiga olib keluvchi omil sifatida alohida xavf tug‘diradi.

Zamonaviy sharoitda giyohvandlik muammosi yangi ko‘rinish va mexanizmlar orqali rivojlanmoqda. Xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida narkotik moddalar savdosi an’anaviy shakllardan raqamli platformalarga ko‘chib, uning yashirinligi va murakkabligini yanada oshirmoqda. Internet tarmoqlari, ijtimoiy messenjerlar va anonim to‘lov tizimlari orqali amalga oshirilayotgan noqonuniy aylanma ushbu sohadagi huquqni muhofaza qilish faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishni talab etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlikka qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, mazkur yo‘nalishda kompleks yondashuv asosida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, narkotik moddalar noqonuniy muomalasining oldini olish, ularni tarqatish kanallarini aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, aholining, ayniqsa yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishga qaratilgan tizimli choralar ko‘rilmoqda.

Shu bilan birga, giyohvandlikka qarshi kurashish faqatgina jazolash choralarini kuchaytirish bilan cheklanib qolmasdan, balki profilaktika, reabilitatsiya va ijtimoiy reintegratsiya mexanizmlarini ham o‘z ichiga olgan kompleks tizimni shakllantirishni taqozo etadi. Bu esa o‘z navbatida samarali huquqiy asoslar bilan bir qatorda zamonaviy institutsional mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni talab qiladi.

Mazkur holatlar giyohvandlikka qarshi kurashishning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishning innovatsion va samarali yo‘llarini ishlab chiqish zaruratini belgilab beradi. Shu bois ushbu yo‘nalishda ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Giyohvandlik – bu nafaqat tibbiy, balki murakkab ijtimoiy-huquqiy muammo bo‘lib, u jinoyatchilik, sog‘liqni saqlash tizimi va demografik jarayonlar bilan bevosita bog‘liqdir. Mazkur illat inson organizmiga jiddiy zarar yetkazishi bilan birga, jamiyatda turli salbiy ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo miqyosida giyohvand moddalarni iste’mol qiluvchi shaxslar soni yuz millionlab kishilarni tashkil etadi va ularning sezilarli qismini aynan yoshlar tashkil etadi. Bu esa kelajak avlod salomatligi va intellektual salohiyatiga jiddiy tahdid tug‘diradi. Tibbiy nuqtayi nazardan, giyohvandlik surunkali kasallik sifatida e’tirof etilib, u markaziy asab tizimini izdan chiqaradi, psixologik qaramlikni yuzaga keltiradi hamda insonning ijtimoiy faoliyatini keskin pasaytiradi.

Huquqiy jihatdan esa giyohvandlik jinoyatchilik bilan chambarchas bog‘liq. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, narkotik moddalarni iste’mol qiluvchi shaxslar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar (o‘g‘irlik, talonchilik, firibgarlik va boshqalar) ularga bo‘lgan ehtiyojni qondirish maqsadida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, narkotik moddalar noqonuniy aylanishi uyushgan jinoyatchilikning muhim manbalaridan biri hisoblanadi.

Sog‘liqni saqlash tizimi uchun ham giyohvandlik katta yuklama keltirib chiqaradi. Giyohvand moddalarni iste’mol qilish ko‘pincha OIV/OITS, gepatit kabi yuqumli kasalliklarning tarqalishiga sabab bo‘ladi. Bu esa davlat byudjetidan sog‘liqni saqlashga ajratiladigan mablag‘larning ortishiga olib keladi.

Demografik jihatdan esa giyohvandlik aholining tabiiy o‘sishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Giyohvandlikka chalingan shaxslar orasida o‘lim darajasining yuqoriligi, mehnatga layoqatli aholi qatlamining qisqarishi hamda nosog‘lom avlod tug‘ilishi ehtimolining ortishi ushbu muammoning naqadar jiddiy ekanligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi omillar giyohvandlikni kompleks yondashuv asosida hal etishni talab etadi. Ya’ni, nafaqat tibbiy davolash, balki huquqiy tartibga solish, ijtimoiy profilaktika va ma’naviy-ma’rifiy choralarni uyg‘un holda amalga oshirish zarur.

U quyidagi salbiy oqibatlarga olib keladi:

- jinoyatchilikning ortishi;
- mehnat resurslarining kamayishi;
- oilaviy muammolar va ijtimoiy inqirozlar;
- sog‘liqni saqlash tizimiga ortiqcha yuklama

O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlikka qarshi kurashish sohasi mustahkam normativ-huquqiy baza bilan tartibga solingan bo‘lib, mazkur tizim milliy qonunchilik va xalqaro huquq normalarining uyg‘unligi asosida shakllantirilgan. Ushbu yo‘nalishda qabul qilingan hujjatlar giyohvandlikka qarshi kurashning kompleks, ko‘p darajali va tizimli mexanizmini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mazkur sohadagi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar qatoriga O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar

to‘g‘risida”gi Qonun, shuningdek, sohaga oid Prezident farmonlari va Hukumat qarorlari kiradi. Ushbu hujjatlar narkotik moddalar bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish, ularning qonuniy muomalasi ustidan nazorat o‘rnatish hamda noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishning huquqiy asosini belgilaydi.

Giyohvandlikka qarshi kurashning ustuvor yo‘nalishlaridan biri — narkotik moddalar muomalasini qat’iy nazorat qilishdir. Bu borada ishlab chiqarish, saqlash, tashish va realizatsiya jarayonlari litsenziyalash va maxsus ruxsat berish tartibi orqali tartibga solinadi. Mazkur choralar narkotik vositalarning qonuniy muomalasidan noqonuniy aylanishga o‘tib ketishining oldini olishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, narkotik moddalar noqonuniy aylanishining oldini olish maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan tezkor-qidiruv faoliyati, chegara nazorati hamda bojxona monitoringi kuchaytirilgan. Ayniqsa, transmilliy narkotrafikka qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik mexanizmlaridan keng foydalanilmoqda.

Javobgarlik choralarini kuchaytirish ham mazkur tizimning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida narkotik moddalarni ishlab chiqarish, saqlash, tashish va sotish bilan bog‘liq jinoyatlar uchun qat’iy jazolar, jumladan, uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish chorasi nazarda tutilgan. Bu esa mazkur turdagi jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori ekanligini ifodalaydi va ularning oldini olishga qaratilgan preventiv vosita sifatida xizmat qiladi.

Profilaktik tadbirlarni kengaytirish ham davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, giyohvandlikning salbiy oqibatlari haqida huquqiy va tibbiy tushuntirish ishlarini olib borish, ta’lim muassasalarida maxsus dasturlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Profilaktika choralarining samaradorligi bevosita aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish bilan bog‘liqdir.

Shu bilan birga, amaldagi qonunchilikda nafaqat jazolash, balki reabilitatsiya va ijtimoiy moslashtirish mexanizmlariga ham alohida e’tibor qaratilgan. Giyohvandlikka chalingan shaxslarni davolash, ularni jamiyatga qayta integratsiya qilish va takroriy huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan choralar huquqiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda giyohvandlikka qarshi kurashning huquqiy asoslari kompleks xarakterga ega bo‘lib, ular repressiv va preventiv choralarni uyg‘unlashtirgan holda mazkur muammoni tizimli ravishda hal etishga qaratilgan.

Hozirgi raqamli transformatsiya sharoitida narkotik moddalar noqonuniy aylanishi yangi shakl va uslublar orqali rivojlanib bormoqda. Xususan, internet texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi narkotik vositalar savdosining an’anaviy ko‘rinishlarini tubdan o‘zgartirib, uni yanada yashirin, markazlashmagan va murakkab tizimga aylantirdi. Natijada huquqni muhofaza

qiluvchi organlar tomonidan qo‘llanilayotgan klassik nazorat va aniqlash mexanizmlarining samaradorligi sezilarli darajada pasaymoqda.

Zamonaviy narkotahdidlarning asosiy xususiyati — ularning yuqori darajadagi konspirativligi va texnologik vositalar bilan uyg‘unlashganligidadir. Xususan, “darknet” tarmoqlari orqali amalga oshirilayotgan savdo jarayonlari maxfiylikni ta’minlovchi shifrlash texnologiyalariga asoslangan bo‘lib, bu esa foydalanuvchilarning shaxsini aniqlashni murakkablashtiradi. Mazkur platformalarda narkotik moddalar maxsus “onlayn bozorlarda” taklif etilib, ular an’anaviy bozorlardan farqli ravishda anonimlik va xavfsizlik darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Bundan tashqari, messenjer ilovalari orqali amalga oshirilayotgan yashirin savdo ham jiddiy tahdid sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yopiq guruhlar va shifrlangan yozishmalar orqali sotuvchi va xaridor o‘rtasida bevosita aloqa o‘rnatiladi, bu esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun ushbu jarayonlarni kuzatish va isbotlashni qiyinlashtiradi. Ayniqsa, bir martalik havolalar, “bot” tizimlari va avtomatlashtirilgan savdo mexanizmlaridan foydalanish narkotik savdosining tezkorligini va ommaviyligini oshirmoqda.

Kriptovalyutalar orqali to‘lovlarning amalga oshirilishi esa narkotrafikning moliyaviy oqimlarini yashirishga xizmat qilmoqda. Markazlashmagan moliyaviy tizimlar va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish tranzaksiyalarni anonim tarzda amalga oshirish imkonini berib, an’anaviy bank nazoratini chetlab o‘tishga sharoit yaratadi. Bu esa “pul yuvish” va noqonuniy daromadlarni legallashtirish xavfini kuchaytiradi.

Yoshlarni onlayn muhit orqali giyohvandlikka jalb qilish ham zamonaviy narkotahdidlarning eng xavfli ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlar, video platformalar va o‘yin muhitlari orqali narkotik moddalar “normal” yoki “trend” sifatida targ‘ib qilinishi yoshlarning ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, ayrim hollarda yoshlar “kuryerlik” faoliyatiga jalb qilinib, jinoyatga bilvosita tortilmoqda.

Yuqoridagi omillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli muhitda yuzaga kelayotgan narkotahdidlar an’anaviy yondashuvlardan tubdan farq qiladi va ularga qarshi kurashishda innovatsion, texnologik hamda kompleks choralarni qo‘llashni talab etadi. Xususan, sun’iy intellekt asosida monitoring tizimlarini joriy etish, kiberxavfsizlik mexanizmlarini kuchaytirish, raqamli platformalar bilan hamkorlikni rivojlantirish hamda aholida, ayniqsa yoshlar orasida “raqamli immunitet”ni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu tariqa, zamonaviy narkotahdidlar sharoitida giyohvandlikka qarshi kurashish tizimini raqamli transformatsiya qilish, ya’ni huquqiy, texnologik va institutsional yondashuvlarni uyg‘unlashtirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Giyohvandlikka qarshi kurashish samaradorligi bevosita kompleks va ko‘p darajali yondashuvga bog‘liq bo‘lib, u profilaktika, nazorat, xalqaro hamkorlik hamda reabilitatsiya kabi o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarning uyg‘un holda amalga oshirilishini talab etadi. Zamonaviy sharoitda mazkur mexanizmlar nafaqat an’anaviy usullar, balki innovatsion va raqamli texnologiyalar bilan boyitilishi zarur.

a) Profilaktika va ta’lim

Giyohvandlikka qarshi kurashishning eng samarali va uzoq muddatli natija beruvchi yo‘li — bu profilaktika hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, erta bosqichda olib borilgan ma’naviy-ma’rifiy va psixologik ta’sir choralarining samaradorligi jazolash mexanizmlariga nisbatan ancha yuqori bo‘ladi.

Shu nuqtayi nazardan, maktablar va oliy ta’lim muassasalarida giyohvandlikning salbiy oqibatlari, uning huquqiy va tibbiy jihatlari haqida tizimli targ‘ibot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda interaktiv metodlar, treninglar va real hayotiy misollar asosida o‘qitish usullaridan foydalanish yuqori natija beradi.

Zamonaviy sharoitda “raqamli immunitet” tushunchasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. U yoshlarning internet tarmoqlarida uchraydigan zararli axborotlarga nisbatan tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, manipulyativ kontentni ajrata olish va xavfli takliflarga qarshi turish qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Shuningdek, yoshlar bilan individual ishlash, ularning ijtimoiy-psixologik holatini o‘rganish, xavf guruhiga kiruvchi shaxslarni erta aniqlash va ular bilan manzilli ishlash profilaktikaning muhim elementi hisoblanadi.

b) Raqamli monitoring tizimlari

Raqamli muhitda narkotahdidlarning kuchayishi sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (Big Data) asosidagi monitoring tizimlarini joriy etishni taqozo etadi. Bunday tizimlar internet tarmoqlarida joylashtirilgan noqonuniy kontentni avtomatik tarzda aniqlash va tahlil qilish imkonini beradi.

Xususan, sun’iy intellekt algoritmlari yordamida:

- narkotik moddalar savdosiga oid kalit so‘zlar va kodlangan iboralarni aniqlash;
- shubhali akkauntlar va tarmoqlarni identifikatsiya qilish;
- noqonuniy faoliyatni tezkor bloklash va cheklash;
- virtual tarmoqlarda jinoyat aloqalarini aniqlash mumkin.

Mazkur yondashuv huquqni muhofaza qiluvchi organlarga proaktiv faoliyat yuritish, ya’ni jinoyat sodir etilishidan oldin uni aniqlash va oldini olish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli platformalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va ularning ichki moderatsiya mexanizmlaridan samarali foydalanish muhim hisoblanadi.

d) Reabilitatsiya va reintegratsiya

Giyohvandlikka qarshi kurashish faqat repressiv choralar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Ilmiy yondashuvlarga ko‘ra, giyohvandlik — bu surunkali kasallik bo‘lib, uni davolash va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

Shu bois reabilitatsiya tizimi quyidagi asosiy elementlarni o‘z ichiga olishi lozim:

tibbiy davolash va detoksifikatsiya;

psixologik va psixoterapevtik yordam;

kasb-hunar o‘rgatish va bandlikni ta’minlash;

ijtimoiy moslashtirish va stigma (tamg‘alash)ni kamaytirish.

Reintegratsiya jarayonining samaradorligi bevosita jamiyatning ushbu shaxslarga nisbatan munosabatiga ham bog‘liq. Shu sababli ularni jamiyatga qayta moslashtirish, ijtimoiy hayotga jalb qilish va takroriy huquqbuzarliklarning oldini olish kompleks chora-tadbirlarni talab etadi.

Giyohvandlikka qarshi kurash kompleks yondashuvni talab etadi. Faqatgina jazolash choralarini kuchaytirish yetarli emas. Profilaktika, ta’lim, raqamli nazorat va reabilitatsiya tizimlarini uyg‘unlashtirish orqali ushbu muammoni samarali hal etish mumkin.

Kelgusida ushbu sohada sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 1994.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 1999 (so‘nggi o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining giyohvandlik va narkotrafikka qarshi kurashish bo‘yicha qarorlari va farmonlari.
4. BMTning 1961-yildagi “Narkotik vositalar to‘g‘risida yagona konvensiya”si.
5. BMTning 1971-yildagi “Psixotrop moddalar to‘g‘risida konvensiya”si.
6. BMTning 1988-yildagi “Narkotik vositalar va psixotrop moddalar noqonuniy aylanishiga qarshi kurash to‘g‘risida konvensiya”si.
7. Inciardi J.A. *The War on Drugs: Policy and Perspectives*. – New York: McGraw-Hill, 2020.
8. Karimov D.R. Giyohvandlikka qarshi kurashning huquqiy asoslari. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2022.
9. Axborot texnologiyalari va kiberxavfsizlik bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2023.

THE USE OF CRYPTOCURRENCY IN DRUG SMUGGLING AND THE ILLEGAL DRUG TRADE

Musaev Djamaliddin Kamalovich
Doctor of Philosophy in Law (PhD), Associate
Professor Head of the Department of General Legal Disciplines Customs Institute,
Customs Committee of the Republic of Uzbekistan

Currently, there are serious challenges and threats to the country's security represents the uncontrolled operation and development of computer and telecommunications technologies that accompanied by an intensification of illegal activities. Moreover, the problem is not only in the quantitative growth of cybercrime, but also in its spread to almost all areas.

Modern information technologies are widely used in drug trafficking, propaganda of destructive ideology, in the commission of various types of fraudulent actions, illegal financial transactions and other illegal acts.

The objects of these crimes most often are new synthetic drugs: ephedrone, mephedrone, N-methylephedrone and synthetic analogues of tetrahydrocannabinol.

The substances offered for sale have slang (“speed”, “crystal”, “salt”, “flour”, “spice”, etc.) and trade (MDMB, mephedrone, etc.) names.

One of the components of the “informatization” of drug crime may include the use of cryptocurrency, and every year the share of such crimes, according to the general opinion of researchers, is only increasing.

This is largely due to the following properties of cryptocurrency.

1) In particular, “in some alternative payment systems, special technological solutions have been introduced, for example, so-called mixers, which create additional obstacles to the identification of cryptocurrency transactions and their participants. All this makes it possible to quite successfully hide the identities of senders and recipients of cryptocurrency and conceal the true goals and content of transactions.

Additionally, this is facilitated by the complete lack of control over the movement of payment instruments represented by cryptocurrency on the part of any specific internal authorities. After all, the structure of most alternative payment systems is such that it is limited only to transaction validation, i.e. checking their compliance with the protocol of a particular ecosystem, and does not provide for the existence of mechanisms for checking such transactions for compliance with the law”;

2) Conducting transactions in P2P mode (equality of users, transactions are carried out directly), in the absence of intermediaries;

3) High speed of transaction processing;

4) Lack of banking, currency expert and tax control, mandatory control provided for by the system of combating money laundering and the financing of terrorism and illicit drug trafficking;

5) Using cryptocurrency as a mobile store of value. "Private keys representing hundreds millions of dollars, can be stored on a tiny USB drive and easily transported anywhere" [1];

6) Possibility of exchange for other cryptocurrencies or fiat money;

7) Decentralization (there is no single, main server that would control all operations);

8) Transborder and transnationality.

To substantiate this statement, let us present several examples. Using cryptocurrency as a means of payment in transactions for the purchase and sale of narcotic drugs in online stores.

The scheme of contactless sale of narcotic drugs using information and telecommunication networks (including the Internet) is not a new phenomenon. Research shows that spice has become available for purchase via the Internet in the USA since 2006, in Europe - since 2008, in Russia - since 2009 [2].

The use of virtual currency for criminal purposes came to light in connection with high-profile investigations into the Silk Road online market in 2013. "As of 2013, more than 10 thousand varieties of seized or restricted goods (drugs, weapons, pornography, personal data, etc.) with an annual turnover of 15 million US dollars.

Payments were made primarily in cryptocurrency due to its anonymous nature and the technical difficulties of proving transactions. The Evolution and Silk Road 2.0 projects that emerged after Silk Road took into account the mistakes of their predecessor and increased their income by $100 million per year," and two years later opened new trading platforms with similar functionality, but better design, marketing and reliability [3].

Currently, cryptocurrency is used as a means of payment in most large virtual stores, a significant part of which are located on the Hydra platform. This platform operates in the territories of a number of CIS countries with end of October 2016 and includes approximately 400 online stores.

Its structure is similar to similar resources operating in the United States. Transactions and payments take place directly on the site. Payment is made exclusively using Bitcoin cryptocurrency. The platform covers all areas of shadow business, from the sale of drugs funds to trade in counterfeit documents, bank cards, special equipment for surveillance and retrieval of information, as well as the provision of various information services.

For example, on the Hydra site, from October 2017 to March 2018, there was an anonymous automated online store for the sale of narcotic drugs, psychotropic substances and plant parts containing narcotic drugs, QUEST.

Access to it was possible exclusively through the Tor Internet browser software, the use of which eliminates the possibility of identifying a specific user on the Internet information and telecommunications network, thereby ensuring the security of illegal transactions related to the illegal sale of drugs.

At the same time, transactions with funds during illegal drug transactions were carried out through the use of a decentralized payment system in the form of a digital currency - the Bitcoin cryptocurrency, not controlled by any authorities, which excluded the possibility of detection and seizure of funds, including those with individual characteristics, used by law enforcement officers during operational-search activities received by members of a criminal community (criminal organization), thereby ensuring the anonymity of participants in a criminal community (criminal organization), as well as buyers drugs [4].

In the process of investigating criminal activity, not only ordinary participants in the criminal community were identified, but also a full-fledged evidence base was formed in relation to the organizer of the specified online store. It should be noted that in many online stores, in order to encourage drug users to make payments using cryptocurrency, discounts of 10-15% are offered.

In the territories of a number of CIS countries, there are currently two largest Russian-language Internet forums operating on Darknet2: “LegalRC” and “WayAWay”, where persons involved in the illegal sale of drugs post advertisements about the types, prices, and methods of purchasing drugs, mainly using cryptocurrency.

These forums host competitions and quizzes, in which rewards in cryptocurrency are awarded for winning (Bitcoin, Ethereum, Litecoin, Dah, Monero, ZCach are most often used) [5].

According to some data, factories for the production of anabolic steroids operate on the territory of Moldova, having licenses for the production of pharmaceutical products, producing various types of substances, while using marketing techniques that change their brands and names.

Each plant has a staff of sales managers for these drugs, who are active athletes, which allows for more effective advertising and distribution, including through international mail.

A typical scheme for drug settlements and drug money laundering is built, as a rule, on the use of electronic means of payment at several functional levels: money from drug users is credited to “first-level wallets” (receiving), then these funds are distributed by drug trafficking organizers to “second-level wallets” (accumulating),

after which they are withdrawn to “third-level wallets” (redistribution) and bank cards [6].

In addition, there are “cash out” platforms on the Internet where drug money is converted into cryptocurrencies, then subsequently converted into any currency and cashed out. All this is undertaken by drug traffickers to make it difficult to identify the chain of legalization procedures.

Actions are carried out in stages using numerous electronic means of payment, which makes it possible to repeatedly break the cause-and-effect relationship between funds obtained by criminal means and the predicate crime.

Currently, persons selling narcotic drugs actively use various cryptocurrency exchanges, as well as many “exchangers” (365cash.com, NetEx24.com, Z-exchange.com, 100btc. pro, Buy-Bitcoins.com and others).

In total, in the Russian-language domain of the Internet (according to monitoring data from bestchange.ru), there are more than 400 online platforms for exchanging cryptocurrencies for the ruble equivalent, which are outside the scope of legal regulation, and therefore independently establish the rules and procedure for identifying clients and conducting the exchange operation [7].

It should be noted that in recent years, criminals have increasingly used not only the Bitcoin cryptocurrency, but also other (cryptocurrencies) Dah, Monero, ZCach, which have higher secretive properties. This is largely due to the introduction of special software products aimed at de-anonymizing transactions with the Bitcoin cryptocurrency, developed by Bitfury Group, Chainalysis Know – Your Transaction (KYT), and Elliptic.

Thus, the development (in January 2018) of the Crystal service from blockchain solutions provider Bitfury Group is intended to identify and investigate criminal activities in the Bitcoin blockchain.

The service allows law enforcement officials and private experts to trace the movement of suspicious transactions to the final recipient or point of sale of the cryptocurrency.

For example, if participant A interacted with a known high-risk participant B, then participant A also “comes under suspicion, that is, the algorithm assigns him a certain increased level of risk. The presence or absence of a risk is indicated in the application interface using red and green marks, respectively.

However, Crystal is an analytical tool and does not evaluate the legality of transactions. It is the prerogative of law enforcement agencies to consider a particular transaction questionable or illegal.

Transaction information can be tracked either by the Crystal user or by a third-party program: Crystal includes an API for integration with the user's analytics software [8].

Crystal does not collect personal data. The developers note that the heuristic algorithms underlying data analysis, by their nature, do not provide one hundred percent results. Therefore, the decisions made by the Crystal service are not categorical - everything remains the responsibility of the user.

Conclusion. The conducted analysis demonstrates that the digitalization of economic processes and the rapid development of cryptocurrency technologies have significantly transformed the operational mechanisms of drug trafficking. The use of cryptocurrencies as a means of payment for illicit drug transactions has become one of the key factors contributing to the increased latency of criminal activity. The decentralized nature of blockchain systems, the cross-border character of transactions, and the absence of a single regulatory authority create substantial challenges for law enforcement agencies in detecting, documenting, and suppressing such offenses.

At the same time, the advancement of blockchain analytics and digital forensic tools indicates the emergence of new opportunities for combating illicit drug trafficking in cyberspace. Investigative practice relating to darknet marketplaces confirms that, even in conditions of high technological sophistication, it is possible to establish a sufficient evidentiary basis and to bring organizers of criminal networks to justice.

Thus, effective counteraction to the use of cryptocurrencies in drug trafficking requires a comprehensive approach, including the improvement of criminal and financial legislation, the introduction of mandatory identification mechanisms for users of cryptocurrency services, the strengthening of international cooperation, and the active application of modern blockchain analysis technologies.

References

1. UNODC. World Drug Report. Vienna: United Nations Office on Drugs and Crime.

2. Europol. Internet Organised Crime Threat Assessment (IOCTA). The Hague.

3. U.S. Department of Justice. Report on the Investigation of the Silk Road Marketplace. Washington, D.C.

4. FATF. Virtual Assets and Virtual Asset Service Providers: Guidance for a Risk-Based Approach. Paris.

5. Chainalysis. Crypto Crime Report.

6. Bitfury Group. Crystal Blockchain Analytics Platform: Technical Overview.

7. Elliptic. Cryptocurrency Risk and Compliance Reports.

8. EMCDDA. Drugs and the Darknet: Perspectives for Enforcement, Research and Policy. Lisbon.

GIYOHVANDLIK VOSITALARI KONTRABANDASIGA QARSHI KURASHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Abzalov Miraziz Mirgiyazovich
O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Bojxona Qo‘mitasining Toshkent shahar boshqarmasi xodimi, mustaqil izlanuvchi

Bugungi global tahdid manbalari ko‘payib borayotgan davrda, dunyoning turli joylarida qarama-qarshilik va keskinlik tobora kuchayib, terrorizm, separatizm, ekstremizm, narkotrafik hamda boshqa xavf-xatar va tahdidlar barchamizni xavotir va tashvishga solmasdan qo‘ymaydi. Mana shunday o‘ta murakkab vaziyat barchamizdan avvalo ogoh, xushyor va sezgir bo‘lishni talab qilmoqda.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurash va giyohvandlikni tarqalishini oldini olish huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir. Zero, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishi aholining hayoti va sog‘lig‘iga jiddiy xavf tug‘diradi, boshqa jinoyatlarning o‘sishi, korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikni tarqalishiga imkon tug‘diradi, jamoat tartibi va xavfsizligiga taxdid soladi, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy asoslarni yemiradi.

O‘zbekiston Respublikasi uzoq yillardan buyon giyohvandlik moddalarining mamlakat madaniy va ma’naviy hayotiga salbiy ta’siri kuchayishini inobatga olib, unga qarshi kurashni milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida baholab, mamlakatda ushbu illatiga qarshi kurash bo‘yicha xalqaro hamjamiyatga qo‘shilib, bu boradagi jinoyat-huquqiy ta’sir choralarini takomillashtirish borasida faol harakatlar olib bormoqda.

Bugungi kunda sohaga oid normalarni takomillashtirishda BMTning “Giyohvandlik vositalari to‘g‘risida”gi Yagona Konvensiyasi (1961 yil)[1], “Psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi (1971 yil)[2] va “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Konvensiyalarda (1988 yil)[3] belgilangan talablar va ilg‘or xorijiy davlatlar tajribalari inobatga olib kelinmoqda. Mazkur Konvensiyalar O‘zbekiston Respublikasida 1995 yil ratifikatsiya[4] qilingan.

[1] Единая Конвенция О наркотических средствах, https://lex.uz/uz/docs/2673450
[2] Единая Конвенция О наркотических средствах, https://lex.uz/uz/docs/2673450
[3] Конвенция О борьбе против незаконного оборота наркотических средств и психотропных веществ, https://lex.uz/ru/docs/2614140
[4] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995 yil 24-fevraldagi 30-I, 31-I va 32-I sonli qarorlari, https://lex.uz/ru/docs/2672983

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 246, 270-276-moddalarida kontrabanda va giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan[1].

Jinoyat kodeksining 246-moddasiga muvofiq, bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o‘xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo‘li bilan foydalanib, deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, kuchli ta’sir qiluvchi, zaharli, zaharlovchi, portlovchi moddalarni, radioaktiv materiallarni, portlatish qurilmalarini, qurol-yarog‘ni, o‘qotar qurolni, o‘q-dorilarni yoki o‘qotar qurolning asosiy qismlarini, shuningdek *giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni*, diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ‘ib qiluvchi materiallarni, yadroviy, kimyoviy, biologik va ommaviy qirg‘in qurolining boshqa turlarini, shunday qurollarni yaratishda foydalanilishi mumkinligi ayon bo‘lgan material va moslamalarni, radioaktiv materiallarni (bundan buyon matnda kontrabanda ashyolari deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o‘tkazish boshqa jinoyatni, ya’ni kontrabanda jinoyatining tarkibini tashkil etadi[2].

Demak, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalarni bojxona qonunchiligini buzgan holda O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan o‘tkazish uchun Jinoyat kodeksining Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar bobidagi 246-moddasi bo‘yicha javobgarlikka tortiladi.

Xorijiy davlatlar tajribasi va amaliyot ko‘rsatib turibdiki, kontrabanda jinoyatini sodir etuvchi shaxslar o‘zlarning jinoiy maqsadlariga erishish uchun uyushgan guruhlar tarzida, o‘z harakatlarini puxta nikohlab, sodir qilish uslublarni mukammallashtirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan xolda sodir etmoqdalar. Ayni paytda, ushbu sohadagi jinoyatlarni aniqlash va to‘g‘ri tavsiflash bo‘yicha ma’lum bir kamchiliklar mavjudligi va ularni isloh etib, kerakli choralar ko‘rish zarurligini taqozo etmoqda.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydagi “Jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3723-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasida sud-tergov amaliyotida, jumladan mamlakatning jinoiy-huquqiy siyosatini samarali ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qilayotgan, jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligidagi ayrim normalarning mukammal emasligi bilan bog‘liq bo‘lgan qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinayotganligi ko‘rsatib o‘tilgan

[1] O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, https://www.lex.uz/docs/111453

[2] O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023 yil 20 fevraldagi “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 2-sonli Qarori, https://www.lex.uz/docs/2259789

bo‘lib, jinoyat qonunchiligini takomillashtirish borasida alohida e’tibor qaratish belgilangan[1].

Shu o‘rinda, quyida kontrabanda jinoyati bo‘yicha javobgarlik masalalariga oid mavjud muammolar, qonunchilik va amaliyotda yuzaga kelayotgan ziddiyatli masalalarni bartaraf etish maqsadida yuridik tahlillar va xorijiy tajriba asosida qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan bir qator taklif va mulohazalar keltirib o‘tiladi.

Kontrabanda jinoyatining xalqaro xususiyatini inobatga olgan holda, jinoyatni tavsiflashda jinoyatni takroran sodir etganlik belgisi muhim ahamiyatga ega, chunki turli xil tovarlar va ashyolar kontrabandasi bilan shug‘ullanuvchi shaxslar ko‘pincha bir xil jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanadi. Shu bois, ushbu jinoyatni takroran sodir etganlik belgisini milliy qonunchiligimizga ham tatbiq etishni va javobgarlikka tortish masalasini hal qilishda inobatga olinishi lozim, chunki bunday norma bir qator xalqaro jinoiy huquq normalarida o‘z ifodasini topgan. Ushbu institutni milliy qonunchilikda aks ettirish, albatta kontrabandaga qarshi kurashish samaradorligini yanada oshiradi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublika Jinoyat kodeksining 246-moddasi 1-qismi giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni davlat chegarasidan noqonuniy olib o‘tgan taqdirda jinoyatni kvalifikatsiya qilish jarayonida miqdoriga ko‘ra ajratish va jazo tayinlashda inobatga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublika Jinoyat kodeksining 246-moddasi 1-qismida giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni miqdori ko‘rsatilmaganligi sababli, amaliyotda Oliy sudi Plenumining 2023-yil 2-fevraldagi “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 2-sonli qarori 17-bandi 2-xatboshisida “Bojxona chegarasi orqali Jinoyat kodeksining 246-moddasi 1-qismida ko‘rsatilgan kontrabanda predmetlarini o‘tkazishda ifodalangan harakatlarni kvalifikatsiya qilishda kontrabanda predmetlarining miqdori huquqiy ahamiyat kasb etmaydi” deb ko‘rsatilganligi sababli, oz miqdordagi giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni kontrabanda yo‘li bilan olib o‘tilgan holatlarga Jinoyat kodeksining 246-moddasi 1-qismi bilan malakalanib kelinmoqda.

Vazirlar mahkamasining “Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, undan olib chiqish va tranzit tarzida o‘tkazish tartibini, shuningdek ularning muomalada bo‘lishi yuzasidan nazoratni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2015-yil 12-noyabrdagi 330-son qaroriga o‘zgartirishlar kiritish haqida 2018-yil 27-oktabr kungi 878-sonli

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydagi “Jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3723-son Qarori, http://lex.uz/docs/3735818

qarori bilan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning ko‘p bo‘lmagan, ozginadan ko‘proq va ko‘p miqdori belgilangan ro‘yxati tasdiqlangan bo‘lib, ushbu ro‘yxatda ko‘rsatilgan ko‘p bo‘lmagan miqdor oz miqdorni tashkil qiladi[1].

Shaxsning giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni oz miqdorda o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay saqlashdan iborat harakatlari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 276-moddasi 1-qismi bilan emas, balki Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 56-moddasi bilan tasniflanib, eng kam ish haqining bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi[2].

Lekin, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni oz miqdorda bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o‘tkazganlik uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri Jinoyat kodeksining 246-moddasi 1-qismi bilan malakalanib, besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Respublikamizda hozirgi kunda sud-huquq sohasida liberalizatsiya siyosati amalga oshirilayotgan bir vaqtda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni oz miqdorda bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o‘tkazganlik uchun ichki hududda noqonuniy saqlashga nisbatan jazo miqdori nihoyatda og‘ir va bu odillik tamoyiliga zid bo‘lib qoladi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni bojxona chegarasidan noqonuniy olib o‘tgan taqdirda jinoyatni kvalifikatsiya qilish jarayonida miqdoriga ko‘ra ajratish va jazo tayinlashda inobatga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi va albatta Oliy sudi Plenumining “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorida ham bu haqda tegishli qo‘shimchalar kiritish lozim bo‘ladi.

Ta’kidlash lozimki, hozirgi kunda giyohvandlik vositalari, psixotrop va alohida toifadagi kuchli ta’sirqiluvchi moddalarning yangidan yangi, shu jumladan, kimyoviy (sintetik) **“**Dizayner**”** ko‘rinishdagi turlarini paydo bo‘lishi va muomalasining jadallashuvi jamiyat va iqtisodiyot uchun dolzarb muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Ayni damda O‘zbekistonda ham yoshlar tomonidan turli xil psixoaktiv moddalarni iste’mol qilish holatlari ortib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida nafaqat huquq-tartibot idoralari, balki, keng jamoatchilikdan ham ogohlik va hushyorlikni talab qiladi.

Ma’lumki, tarkibida giyohvandlik vositalari, psixotrop va alohida toifadagi kuchli ta’sir qiluvchi moddalar mavjud dori-darmonlar tibbiyotda

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 12 noyabrdagi “Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O‘zbekiston respublikasi hududi orqali olib kirish, undan olib chiqishva tranzit tarzida o‘tkazish tartibini, shuningdek ularning muomalada bo‘lishi yuzasidan nazoratni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 330-sonli Qarori, https://lex.uz/docs/2815340

[2] O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, https://lex.uz/docs/97664#1423196

ayrim kasalliklarni davolash va tibbiy amaliyot o‘tkazish jarayonlarida keng qo‘llanib kelinadi.

Shu bois, qayd etilgan dori-darmonlardan foydalanish jarayonining noqonuniy muomala shaklini oldini olishda qonunchiligimizda bo‘shliqlar bo‘lmasligi lozim. Ming afsuski, mavjud qonunlar va me’yoriy hujjatlar moddalarning tibbiy, ilmiy va ijtimoiy faoliyatlarda ishlatilishini aniq tartibga solmaydi.

Biroq, shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, me’yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishda qayd etilgan dori vositalariga muhtoj bemorlarni ham inobatga olish lozim. Aks holda ular tomonidan dori vositalarini retsept asosida sotib olish va foydalanishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bundan tashqari, respublikaning ushbu dori vositalariga bo‘lgan haqiqiy ehtiyojini belgilash tartib-tamoyillariga asoslangan mexanizmga e’tibor qaratish lozim.

Respublikada tarkibida giyohvandlik vositalari, psixotrop va alohida toifadagi kuchli ta’sir qiluvchi moddalar mavjud dori-darmonlarning qonuniy muomalasi 1999 yildagi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni[1] va 12 ta qonunosti hujjatlar asosida tartibga solingan bo‘lib, litsenziatlar ham o‘z faoliyatlarini ushbu normalarda belgilangan talablar asosida olib boradi. Bu esa yuqoridagi preparatlarni noqonuniy faoliyatga o‘tishini oldini oladi.

Shuningdek, respublikada dori vositalarining noqonuniy aylanishini oldini olish choralarini kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi PQ-4438-sonli qarori[2] qabul qilingan.

Mazkur qaror ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 sentyabrda 818-sonli qarori[3] bilan kuchli ta’sir qiluvchi moddalar ro‘yxati, ularning jinoiy harakatni tasniflashda ko‘p miqdor ko‘rsatkichlari va TIF TN kodlari tasdiqlangan.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 4 oktyabrdagi 632-sonli qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasida alohida toifadagi kuchli ta’sir qiluvchi moddalar muomalasini tartibga solish to‘g‘risidagi Nizom” [4] tasdiqlandi.

---

[1] O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, https://lex.uz/ru/docs/-86044

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi “Dori vositalari noqonuniy aylanishining oldini olish choralarini kuchaytirish to‘g‘risida” PQ-4438-sonli qarori, https://lex.uz/docs/-4501278

[3] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kuchli ta’sir qiluvchi moddalar muomalasini tartibga solish to‘g‘risida”gi 818-sonli qarori, https://lex.uz/uz/docs/-4532164

[4] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 4 oktyabrdagi 632-sonli qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasida alohida toifadagi kuchli ta’sir qiluvchi moddalar muomalasini tartibga solish to‘g‘risidagi Nizom”, https://lex.uz/uz/docs/-7132128

Unga ko‘ra, “Zaleplon”, “Pregabalin”, “Sibutramin”, “Tropikamid”, “Siklopentolat” va “Gabapentin” nomli moddalar alohida toifadagi kuchli ta’sir qiluvchi moddalar etib belgilandi va ularning muomalasi psixotrop moddalarga qo‘llaniladigan tartib asosida amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi.

Bugungi kunda giyohvandlik vositalari, psixotrop va alohida toifadagi kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning yangidan yangi turlari va ular bilan bog‘liq xavflarni yildan yilga ortib borayotgani doimiy ravishda sohani tartibga soluvchi qonun va qonunosti hujjatlarni takomillashtirib borilishini taqozo etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonuni 1999 yilda qabul qilingan bo‘lib, shu kunga qadar deyarli o‘zgartirishlar kiritilmagan.

Shuningdek, respublikaning giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash Vazirlar Mahkamasining 2003 yildagi qarori asosida amalga oshirilib kelinmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2003 yilda O‘zbekiston aholisi soni taxminan 25 million kishini tashkil qilgan bo‘lsa, 2024 yil aprel oyiga qadar 37 million kishiga yetdi. (Statistika agentligi tomonidan e’lon qilingan, gazeta.uz, kun.uz saytlari). Raqamlar o‘rtasidagi tafovut ushbu yo‘nalishdagi qonun va qonunosti hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish lozimligini taqozo etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagilar taklif etiladi:

1. Qonunchilikni takomillashtirish, xususan:

– xalqaro standartlarga muvofiq ravishda “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahririni ishlab chiqish;

– “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lish tartibini belgilab beruvchi nizomlarni tasdiqlash to‘g‘risida” Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 29 oktyabrdagi 472-sonli qaroriga[1] o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;

2. Nazorat organlari rolini kuchaytirish: maxsus nazorat organlari faoliyatini yaxshilash, zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlash va malakasini oshirish;

3. Maxsus axborot tizimini joriy qilish: qayd etilgan moddalarni import, saqlash va tarqatilishini (chakana) onlayn monitoring qilishga imkon beruvchi elektron axborot tizimini ishlab chiqish;

4. Profilaktika va ta’lim dasturlarini joriy etish: giyohvandlik vositalarining zarari, ulardan foydalanish oqibatlari va qonunbuzarlik javobgarligi haqida keng jamoatchilikka ma’lumot berish.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 29 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lish tartibini belgilab beruvchi nizomlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 472-sonli qarori, https://lex.uz/docs/-246696

Yuqorida ilgari surilgan fikr mulohazalar qonun ijodkorligi jarayonini yanada takomillashtirish, qonunlarning sifatli va samarali ishlashini taminlashga muayyan darajada ko‘maklashadi deb umid qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar va axborot-resurs manbalari

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995 yil 24-fevraldagi 30-I, 31-I va 32-I sonli qarorlari, https://lex.uz/ru/docs/2672983

2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, https://www.lex.uz/docs/111453

3. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, https://lex.uz/docs/97664#1423196

4. O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, https://lex.uz/ru/docs/-86044

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydagi “Jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3723-son Qarori, http://lex.uz/docs/3735818

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi “Dori vositalari noqonuniy aylanishining oldini olish choralarini kuchaytirish to‘g‘risida” PQ-4438-sonli qarori, https://lex.uz/docs/-4501278

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 12 noyabrdagi “Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O‘zbekiston respublikasi hududi orqali olib kirish, undan olib chiqishva tranzit tarzida o‘tkazish tartibini, shuningdek ularning muomalada bo‘lishi yuzasidan nazoratni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 330-sonli Qarori, https://lex.uz/docs/2815340

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kuchli ta’sir qiluvchi moddalar muomalasini tartibga solish to‘g‘risida”gi 818-sonli qarori, https://lex.uz/uz/docs/-4532164

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 4 oktyabrdagi 632-sonli qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasida alohida toifadagi kuchli ta’sir qiluvchi moddalar muomalasini tartibga solish to‘g‘risidagi Nizom”, https://lex.uz/uz/docs/-7132128

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 29 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lish tartibini belgilab beruvchi nizomlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 472-sonli qarori, https://lex.uz/docs/-246696

11. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023 yil 20 fevraldagi “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 2-sonli Qarori, https://www.lex.uz/docs/2259789.

12. A.T.Achilov, M.M.Abzalov – Bojxona qonunchiligi buzilishi bilan bog‘liq jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari: Monografiya. T., 2025. – 212 b

РАСПРОСТРАНЕНИЕ НАРКОПРЕСТУПНОСТИ В КИБЕРПРОСТРАНСТВЕ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЕЁ ПРОФИЛАКТИКИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ

Абдужаппоров Шаҳбоз Музаффар ўғли
Старший оперативный сотрудник, лейтенант Министерства внутренних дел Республики Узбекистан

Аннотация. В статье рассматриваются современные формы распространения наркотических средств с использованием интернет-технологий и цифровых платформ. Анализируется деятельность закладчиков, особенности онлайн-сбыта наркотиков через мессенджеры и социальные сети, а также существующие проблемы профилактики в условиях киберпространства. Особое внимание уделено оценке эффективности профилактических мер и разработке предложений по их совершенствованию с учетом современных киберугроз.

Ключевые слова: киберпреступность, наркопреступность, интернет-сбыт, закладчики, мессенджеры, профилактика, цифровая среда, онлайн-торговля наркотиками.

Введение. В условиях стремительного развития информационно-коммуникационных технологий и глобальной цифровизации всех сфер общественной жизни наблюдается существенная трансформация преступности, включая преступления, связанные с незаконным оборотом наркотических средств и психотропных веществ. Если ранее основными каналами распространения наркотиков выступали традиционные офлайн-сети сбыта, то в настоящее время значительная часть наркопреступлений перемещается в киберпространство, что обусловлено удобством, анонимностью и высокой скоростью взаимодействия между участниками преступной деятельности.

Современные цифровые технологии, включая мессенджеры, социальные сети, специализированные интернет-платформы и ресурсы даркнета, создают благоприятные условия для организации незаконного оборота наркотиков. Использование шифрования, анонимных сетей, виртуальных частных сетей (VPN), криптовалют и автоматизированных сервисов позволяет преступным группам эффективно скрывать свою деятельность, минимизировать риски выявления и значительно расширять географию сбыта.

Несмотря на принимаемые государственными органами меры, направленные на противодействие наркопреступности, эффективность профилактики в условиях цифровизации остается недостаточной. Основными

причинами являются высокая степень адаптивности преступных структур, транснациональный характер киберпреступности, а также несовершенство правовых и организационных механизмов противодействия.

В этой связи особую актуальность приобретает необходимость научного анализа современных тенденций распространения наркопреступности в киберпространстве, выявления ключевых проблем профилактики и разработки эффективных мер по их устранению. Комплексный подход, сочетающий правовые, организационные и технологические решения, позволит повысить результативность борьбы с незаконным оборотом наркотиков в современных условиях.

Методология. Методологическая основа настоящего исследования сформирована с учетом комплексного характера рассматриваемой проблемы, находящейся на пересечении таких научных направлений, как криминология, уголовное право, кибербезопасность и информационные технологии. Исследование направлено на выявление особенностей распространения наркопреступности в киберпространстве, а также на оценку эффективности существующих профилактических мер в условиях цифровизации.

В качестве базового подхода использован **диалектический метод научного познания**, позволяющий рассматривать наркопреступность как динамично развивающееся социально-правовое явление. Данный метод дал возможность проанализировать трансформацию форм незаконного оборота наркотических средств под воздействием цифровых технологий, а также выявить причинно-следственные связи между развитием интернет-среды и ростом новых форм преступной деятельности, включая использование онлайн-платформ и анонимных сервисов.

Важное место в исследовании занимает **системный метод**, который позволил рассмотреть наркопреступность в киберпространстве как сложную систему, включающую в себя взаимосвязанные элементы: организаторов преступной деятельности, закладчиков, цифровые каналы распространения, а также конечных потребителей. Применение данного метода обеспечило возможность комплексного анализа структуры и механизмов функционирования незаконного оборота наркотиков в условиях цифровой среды.

С целью изучения правового регулирования использован **сравнительно-правовой метод**, в рамках которого проведен анализ национального законодательства Республики Узбекистан, а также международных правовых актов, регулирующих борьбу с наркопреступностью и киберпреступностью. Это позволило выявить существующие пробелы в правовом регулировании, определить степень соответствия национальных норм международным стандартам и сформулировать предложения по их совершенствованию.

Для анализа практических аспектов исследуемой проблемы применялся **аналитический метод**, включающий изучение научной литературы, публикаций, открытых данных, а также материалов правоохранительных органов. Особое внимание уделено анализу современных способов распространения наркотических средств через интернет, включая использование мессенджеров, социальных сетей и даркнет-площадок.

Для оценки эффективности профилактических мер применялся **функциональный метод**, позволяющий определить результативность действующих механизмов противодействия наркопреступности в киберпространстве. В рамках данного подхода были проанализированы меры государственного регулирования, деятельность правоохранительных органов, а также профилактические программы, направленные на предупреждение вовлечения граждан в незаконный оборот наркотиков.

Дополнительно использован **метод моделирования**, позволивший представить типовые схемы функционирования наркопреступных сетей в интернете, включая взаимодействие между организаторами, закладчиками и потребителями. Это дало возможность более глубоко понять механизмы распространения наркотиков и определить наиболее уязвимые точки для профилактического воздействия.

Обсуждение. Полученные в ходе исследования результаты подтверждают, что в условиях цифровизации наркопреступность претерпевает качественные изменения, выражающиеся в активном переходе киберпространство. Использование интернет-технологий существенно трансформирует традиционные схемы незаконного оборота наркотических средств, делая их более скрытыми, децентрализованными и устойчивыми к правоохранительному воздействию.

Анализ показал, что ключевую роль в современной системе сбыта наркотиков играют цифровые платформы и мессенджеры, через которые осуществляется координация действий участников преступной деятельности. При этом система «закладок» выступает в качестве эффективного механизма минимизации рисков для организаторов, поскольку исключает непосредственный контакт между продавцом и покупателем. Данная модель существенно усложняет выявление преступных связей и сбор доказательной базы.

В ходе исследования установлено, что профилактические меры, применяемые в настоящее время, в значительной степени ориентированы на традиционные формы наркопреступности и не в полной мере учитывают особенности цифровой среды. Несмотря на предпринимаемые усилия по блокировке интернет-ресурсов и мониторингу онлайн-активности, преступные

группы быстро адаптируются, создавая новые каналы распространения и используя современные средства анонимизации.

Особое внимание следует обратить на проблему вовлечения молодежи в незаконный оборот наркотиков через интернет. Простота доступа к информации, а также иллюзия анонимности и безнаказанности способствуют формированию устойчивого интереса к участию в подобных схемах, в том числе в роли закладчиков. Это свидетельствует о недостаточной эффективности профилактической работы в сфере цифровой грамотности и правового просвещения.

Вместе с тем, результаты исследования показывают, что повышение эффективности профилактики возможно при условии перехода к комплексному подходу, включающему активное использование цифровых технологий, развитие киберразведки, а также усиление межведомственного и международного взаимодействия. Особую значимость приобретает внедрение современных аналитических инструментов, позволяющих выявлять и прогнозировать преступную активность в сети.

Таким образом, обсуждение полученных результатов свидетельствует о необходимости пересмотра существующих подходов к профилактике наркопреступности с учетом специфики киберпространства, а также разработки новых механизмов противодействия, ориентированных на современные цифровые угрозы.

Заключение. В результате проведенного исследования установлено, что наркопреступность в условиях цифровизации претерпевает существенные изменения, связанные с активным использованием киберпространства для организации незаконного оборота наркотических средств. Применение интернет-технологий, мессенджеров и анонимных сервисов способствует повышению скрытности и устойчивости преступных схем, в том числе через систему «закладок».

Выявлено, что существующие меры профилактики не в полной мере соответствуют современным вызовам, связанным с цифровой трансформацией преступности, что снижает их эффективность. В этой связи особую актуальность приобретает необходимость разработки и внедрения новых подходов к профилактике, ориентированных на использование современных технологий и повышение уровня цифровой грамотности населения.

Повышение эффективности противодействия наркопреступности возможно только при условии комплексного подхода, включающего совершенствование законодательства, развитие киберподразделений и активизацию профилактической работы в цифровой среде.

Предложения. На основе проведенного исследования представляется возможным сформулировать следующие предложения, направленные на повышение эффективности профилактики наркопреступности в условиях цифровизации:

Необходимо адаптировать действующее законодательство к современным условиям, предусмотрев отдельные нормы, регулирующие ответственность за организацию и осуществление незаконного оборота наркотических средств с использованием информационно-коммуникационных технологий. Особое внимание следует уделить правовому закреплению ответственности за вовлечение лиц в наркопреступную деятельность через интернет.

Целесообразно усилить деятельность правоохранительных органов путем создания специализированных подразделений, ориентированных на выявление и пресечение наркопреступлений в киберпространстве. Основными задачами таких подразделений должны стать мониторинг интернет-ресурсов, анализ цифровых следов и выявление организованных преступных сетей.

В целях повышения эффективности выявления преступной активности рекомендуется внедрение современных технологий анализа больших данных и искусственного интеллекта, способных автоматически обнаруживать подозрительные действия в сети, включая распространение наркотиков через мессенджеры и онлайн-платформы.

С учетом транснационального характера киберпреступности необходимо расширять сотрудничество между правоохранительными органами различных государств, а также между государственными и частными структурами (включая интернет-провайдеров и платформы). Это позволит повысить оперативность реагирования и эффективность борьбы с преступными сетями.

Следует повысить эффективность механизмов выявления и блокировки интернет-ресурсов, распространяющих наркотические вещества, включая автоматизированные системы мониторинга и быстрого реагирования на появление новых каналов и площадок.

Одним из ключевых направлений профилактики должно стать проведение системной работы по информированию населения, особенно молодежи, о рисках участия в незаконном обороте наркотиков. В образовательные программы целесообразно включить темы, связанные с кибербезопасностью, ответственностью за онлайн-преступления и последствиями вовлечения в наркобизнес.

Необходимо активнее использовать интернет и социальные сети в целях профилактики, включая создание информационных кампаний, направленных на формирование негативного отношения к наркотикам и предупреждение вовлечения в преступную деятельность.

Следует разработать специальные меры, направленные на выявление и предотвращение вовлечения граждан, особенно молодежи, в деятельность закладчиков. Это может включать мониторинг подозрительных объявлений о «работе», проведение профилактических мероприятий и усиление ответственности за участие в подобных схемах.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Закон Республики Узбекистан «О противодействии незаконному обороту наркотических средств и психотропных веществ».
2. Уголовный кодекс Республики Узбекистан.
3. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан.
4. Закон Республики Узбекистан «Об информатизации».
5. Закон Республики Узбекистан «О кибербезопасности».
6. Единая конвенция о наркотических средствах 1961 года.
7. Конвенция ООН о психотропных веществах 1971 года.
8. Конвенция ООН против незаконного оборота наркотических средств и психотропных веществ 1988 года.
9. Конвенция о киберпреступности (Будапештская конвенция) 2001 года.
10. Абдурахманов К.Х. Криминология. — Ташкент: Издательство «Адолат», 2021.
11. Каримов И.А. Проблемы противодействия наркопреступности в условиях цифровизации // Юридическая наука. — 2022. — №3.
12. Сайфуллаев Б.Б. Киберпреступность: современные угрозы и методы противодействия. — Ташкент, 2023.
13. UNODC. World Drug Report 2023. — United Nations Office on Drugs and Crime.
14. Europol. Internet Organised Crime Threat Assessment (IOCTA) 2023

YOSHLAR O‘RTASIDA GIYOHVANDLIK VA NARKOMANIYAGA QARSHI KURASHISHDA HUQUQIY TARG‘IBOTNING AHAMIYATI

Rizoyev Feruz Furqat o‘g‘li
Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya
kafedrasi katta o‘qituvchisi, y.f.bf.d. (PhD)
Jumayev Akmal G‘ulom o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar o‘rtasida giyohvandlik va narkomaniyaga qarshi kurashish mexanizmlarida huquqiy targ‘ibotning o‘rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan, shuningdek ushbu yo‘nalishdagi huquqiy targ‘ibot ishlarini yanada takomillashtirish bo‘yicha aniq ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: giyohvandlik, narkomaniya, huquqiy targ‘ibot, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik, huquqiy tarbiya, huquqiy ta’lim, huquqni qo‘llash.

Bugungi kunda giyohvandlik va narkomaniya global muammoga aylangan bo‘lib, insoniyat taraqqiyoti, milliy xavfsizlik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga jiddiy tahdid solmoqda. Uzoq muddatli va achchiq tajribalar shuni ko‘rsatadiki, giyohvandlikning tarqalishi nafaqat jismoniy va ruhiy salomatlikning buzilishiga olib keladi, balki jamiyat hayotining barcha jabhalariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, yoshlar orasida ushbu illatning tobora keng tarqalib borayotganligi jiddiy xavotir uyg‘otmoqda. Yoshlar – bu jamiyatning kelajagi, mamlakatning intellektual va mehnat salohiyati. Ularning salomatligi, ma’naviyati va huquqiy ongliligi jamiyatning barqaror rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Giyohvandlikning shaxs uchun xavfliligi uning jismoniy va ruhiy sog‘lig‘ini yo‘q qilish, ijtimoiy hayotdan ajratish, oila a’zolari va yaqinlari bilan munosabatlarini buzishdan iborat. Narkomaniya ko‘pincha jinoyatchilik, giyohvand moddalar savdosi bilan bog‘liq bo‘lib, jamiyatda huquqiy tartibbuzilishlar, oilaviy nizolar, sog‘liqni saqlash tizimiga ortiqcha yuklama va iqtisodiy yo‘qotishlarga sabab bo‘ladi. Davlat uchun esa, giyohvandlik milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi omil bo‘lib, aholining demografik salohiyatini susaytiradi, mehnat resurslarining qisqarishiga olib keladi va jinoyatchilikka qarshi kurash uchun qo‘shimcha resurslar sarflashni taqozo etadi. Shu boisdan, yoshlar o‘rtasida giyohvandlik va narkomaniyaga qarshi kurashish nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning, balki barcha davlat va jamoat tashkilotlarining, keng jamoatchilikning dolzarb vazifasidir. Bu kurashning eng samarali yo‘nalishlaridan biri – huquqiy targ‘ibotdir. Huquqiy targ‘ibot yoshlarning huquqiy ongliligini va madaniyatini

oshirish, giyohvandlik va narkomaniyaning salbiy oqibatlari haqida to‘liq ma’lumot berish, ularni bu illatdan yiroq bo‘lishga undash orqali profilaktik ta’sir ko‘rsatadi.

Giyohvandlik va narkomaniyaga qarshi kurashishning huquqiy-normativ asoslari va huquqiy targ‘ibotning nazariy muammolari.

O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkomaniyaga qarshi kurashishning huquqiy-normativ bazasi: O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkomaniyaga qarshi kurashish bo‘yicha huquqiy-normativ baza keng qamrovli bo‘lib, milliy qonunchilik hamda xalqaro huquq normalarini o‘z ichiga oladi. Ushbu baza jamiyatda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga barham berish, ulardan foydalanishning oldini olish va bu illatga qarshi kurashuvchi davlat hamda jamoat tuzilmalari faoliyatini tartibga solishga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ya'ni davlatning asosiy qonuni sifatida inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash tamoyillarini belgilab beradi. Konstitutsiyasida "O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida barcha shaxslarning hayot, erkinlik, shaxsiy daxlsizlik, uy-joy daxlsizligi va boshqa huquqlariga rioya etilishini ta’minlaydi" deb belgilangan bo‘lib, bu giyohvandlik illatidan himoya qilish huquqini ham o‘z ichiga oladi.

Xalqaro huquq normalari va shartnomalarining O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga tatbiqi. O‘zbekiston Respublikasi xalqaro hamjamiyatning faol a’zosi sifatida giyohvandlik va narkotik vositalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish bo‘yicha qator xalqaro konvensiyalarga qo‘shilgan. Bular qatoriga quyidagilar kiradi:

- 1961-yildagi Giyohvandlik vositalari to‘g‘risidagi yagona konvensiya;
- 1971-yildagi Psixotrop moddalar to‘g‘risidagi konvensiya;
- 1988-yildagi Narkotik va psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasiga qarshi kurashish to‘g‘risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyasi (Vena konvensiyasi).

O‘zbekiston Respublikasi ushbu xalqaro hujjatlarga rioya qilish orqali o‘z milliy qonunchiligini xalqaro standartlarga muvofiqlashtiradi. Konvensiyalarda belgilangan umumiy tamoyillar, jinoyatga oid normalar, profilaktika va muvofiqlashtirish bo‘yicha talablar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida o‘z aksini topgan. Bu, ayniqsa, giyohvandlik vositalarining aylanmasini nazorat qilish, ularni sotish, tashish va undan foydalanish bilan bog‘liq huquqiy javobgarlikni belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro shartnomalarning tatbiqi O‘zbekistonning xalqaro hamkorlikni kuchaytirishiga va giyohvandlikka qarshi global kurashda faol ishtirok etishiga imkoniyat beradi. Ushbu huquqiy-normativ baza giyohvandlik va narkomaniyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini yaratadi va yoshlar o‘rtasida ushbu illatning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi.

Huquqiy targ‘ibot – jamiyatda huquqiy ongni va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga, aholining huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan tizimli faoliyat bo‘lib, huquqiy normalarga hurmat bilan qarashni shakllantiradi hamda ularga rioya qilishga undaydi. Uning mohiyati shundaki, insonlarga huquqiy bilimlarni singdirish orqali ularda huquqiy ong va huquqiy xulq-atvorni shakllantirishga erishiladi.

Huquqiy targ‘ibotning nazariy asoslari. Huquqiy targ‘ibotning samaradorligi uning nazariy asoslari bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu asoslar quyidagi tushunchalarni o‘z ichiga oladi:

- Huquqiy ong: Bu – shaxslarning huquq, adolat, qonun ustuvorligi kabi ijtimoiy qadriyatlar haqidagi tasavvurlari, bilimlari va munosabatlarining majmuidir. Huquqiy ong jamiyat a’zolarining huquqiy norma va qoidalarga nisbatan o‘zining bilimsiz yoki ongli munosabatini bildiradi. Huquqiy targ‘ibotning asosiy vositalaridan biri jamiyatda huquqiy ongni shakllantirish va rivojlantirishdir.

- Huquqiy madaniyat: Huquqiy madaniyat – bu jamiyat va shaxslarning huquqiy sohadagi yutuqlari, huquq normalariga amal qilish tajribasi, huquqiy fikr yuritish uslublari va huquqiy faoliyat natijalarining yig‘indisidir. U huquqiy ongning yuqori darajasi, huquqiy normalarni faol qo‘llash, huquqni himoya qilishga intilish kabi xususiyatlarga ega. Huquqiy targ‘ibot huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayonining faol qismidir.

- Huquqiy savodxonlik: Huquqiy savodxonlik – bu shaxslarning o‘z huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari, shuningdek qonun hujjatlarini bilish darajasi hisoblanadi. Huquqiy savodxonlik jamiyat a’zolarining o‘zlarini va boshqalarning huquqlarini himoya qila olishlari uchun zaruriy shartdir. Huquqiy targ‘ibotning muhim vazifalaridan biri aholining huquqiy savodxonligini oshirish orqali ularni o‘z huquqiy imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishga undashdir.

Huquqiy targ‘ibotning maqsad va vazifalari, uning ijtimoiy ahamiyati. Huquqiy targ‘ibotning asosiy maqsadlari:

- Aholida huquqiy ongni va huquqiy madaniyatni yuksaltirish.
- Fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish.
- Huquqbuzarliklarning oldini olish.
- Qonunga itoatkorlikni shakllantirish.
- Demokratik huquqiy davlat qurish jarayoniga fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash.

Huquqiy targ‘ibotning vazifalari:

- huquqiy bilimlarni aholiga yetkazish;
- fuqarolarning huquq va majburiyatlari haqidagi tushunchalarini chuqurlashtirish;
- qonun hujjatlaridagi o‘zgarishlar va yangiliklar haqida xabardor qilish;
- huquqiy normalarga hurmatni kuchaytirish;

- huquqiy ongni shakllantirishda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish;

- profilaktik tadbirlarni amalga oshirish orqali huquqbuzarliklarning oldini olishga koʻmaklashish.

Ijtimoiy ahamiyati: Huquqiy targʻibot jamiyatda qonun ustuvorligini taʼminlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim oʻrin tutadi. U fuqarolarning davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etishlari uchun huquqiy zamin yaratadi. Giyohvandlik va narkomaniyaga qarshi kurashish kabi dolzarb muammolar boʻyicha huquqiy targʻibot esa, ayniqsa, yoshlar oʻrtasida bu illatlarning oldini olishda katta rol oʻynaydi.

Huquqiy targʻibotning boshqa huquqiy institutlar bilan oʻzaro aloqadorligi. Huquqiy targʻibot turli huquqiy institutlar bilan chambarchas bogʻliq va ularning samarali ishlashiga hissa qoʻshadi.

- Huquqiy tarbiya huquqiy targʻibotning muhim elementidir. Tarbiya jarayonida shaxslarda huquqiy norma va qoidalarga ongli munosabat, ularga rioya qilish koʻnikmalari shakllantiriladi. Targʻibot tarbiyaning natijalarini mustahkamlashga va kengroq auditoriyaga tarqatishga yordam beradi.

- Huquqiy taʼlim – bu huquqiy bilimlarni tizimli ravishda oʻzlashtirish jarayonidir. Huquqiy targʻibot esa oʻzlashtirilgan bilimlarni amaliy hayotda qoʻllashga, huquqiy ongni shakllantirishga xizmat qiladi. Taʼlim huquqiy bilim asosini yaratadi, targʻibot esa bu bilimlarni hayotga tatbiq etish yoʻllarini koʻrsatadi.

- Huquqni qoʻllash – bu davlat tomonidan huquq normalarining hayotga tatbiq etilishi. Huquqiy targʻibot huquqni qoʻllash jarayoni haqida aholini xabardor qilish, huquqni qoʻllovchi organlarning faoliyatini tushuntirish orqali fuqarolarning huquqni qoʻllash tizimiga ishonchini oshiradi va ularning faol ishtirokini taʼminlaydi. Shuningdek, qonunlarni tatbiq etishda qiynalayotgan shaxslarga huquqiy yordam koʻrsatish ham targʻibotning bir shaklidir. Huquqiy targʻibot, oʻz navbatida, ushbu institutlarning jamiyatdagi rolini oshirishga, ularning samaradorligini koʻtarishga yordam beradi. Bularning hammasi jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirishga, qonun ustuvorligini taʼminlashga xizmat qiladi.

Yoshlar oʻrtasida giyohvandlik va narkomaniyaga qarshi kurashishda huquqiy targʻibotning oʻziga xos jihatlari. Yoshlar oʻrtasida giyohvandlik va narkomaniyaga qarshi kurashishda huquqiy targʻibot oʻziga xos jihatlarga ega boʻlib, ularning psixologik-pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi zarur. Bu nafaqat huquqiy bilim berish, balki jamiyatda sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish va yoshlarni toʻgʻri yoʻnaltirishni ham oʻz ichiga oladi.

Ushbu tadqiqotning asosiy ilmiy natijalari yoshlar oʻrtasida giyohvandlik va narkomaniyaga qarshi kurashishda huquqiy targʻibotning samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator dolzarb masalalarni qamrab oldi. Yoshlarning huquqiy bilimlarini kuchaytirish, ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, shuningdek giyohvandlik va

narkomaniyaning jismoniy va ruhiy salomatlikka, ijtimoiy hayotga hamda kelajakka ko‘rsatadigan salbiy ta’siri haqida to‘g‘ri va tizimli ma’lumot berish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri ekanligi tasdiqlandi.

An’anaviy targ‘ibot usullarining cheklanganligini hisobga olib, zamonaviy axborot texnologiyalari, innovatsion va interaktiv usullardan foydalanish, ayniqsa, yoshlar orasida keng tarqalgan ijtimoiy tarmoqlar va internet-resurslar orqali targ‘ibot ishlarini olib borish zarurati aniqlandi. Ta’lim muassasalarida huquqiy targ‘ibotni yanada kuchaytirish, mazmunan boyitish hamda jamoatchilik tuzilmalari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish orqali ushbu jarayonga keng ijtimoiy ko‘lam berish mumkinligi ko‘rsatib o‘tildi.

Maqolada ilgari surilgan taklif va tavsiyalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Innovatsion targ‘ibot usullarini joriy etish: Yoshlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda mobil ilovalar, VR/AR texnologiyalari, qisqa metrajli filmlar va animatsiyalar orqali giyohvandlikning salbiy oqibatlari haqida ma’lumot berish;

2. Ta’lim tizimini takomillashtirish: Barcha turdagi ta’lim muassasalarida giyohvandlikka qarshi kurashishga qaratilgan maxsus o‘quv dasturlarini joriy etish va muntazam ravishda huquqiy savodxonlikni oshiruvchi treninglar o‘tkazish;

3. OAV va internetdan samarali foydalanish: Yoshlar orasida ommabop platformalarda dolzarb va ta’sirchan kontentlar tayyorlash hamda ularni joylashtirish. Anti-reklama usullaridan foydalanish;

4. Hamkorlikni kengaytirish: Jamoat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari va davlat organlari o‘rtasida giyohvandlikka qarshi kurashish bo‘yicha birgalikdagi manzilli dasturlar ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

5. Dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish: Yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan kompleks davlat dasturlarini yaratish va doimiy monitoring qilish.

Umuman olganda, ushbu taklif va tavsiyalarning amalga oshirilishi yoshlar orasida giyohvandlik va narkomaniyaga qarshi kurashishda huquqiy targ‘ibot tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga, yosh avlodning huquqiy ongliligi va sog‘lom turmush tarziga intilishini mustahkamlashga hamda jamiyatda umumiy huquqiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, http://lex.uz//docs/-6445145

2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, https://lex.uz/docs/-111453

3. O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risidagi” Qonuni, https://lex.uz/ru/docs/-86044

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.05.2024 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy

aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta’sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-son Farmoni, https://lex.uz/uz/docs/-6912475

5. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni g‘ayriqonuniy ravishda muomalaga kiritishga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Konvensiyasi, https://lex.uz/ru/docs/-2614780

6. “Psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Konvensiya, https://lex.uz/docs/-2676169

7. “Giyohvandlik vositalari to‘g‘risida”gi Konvensiya, https://lex.uz/docs/-2673452

GIYOHVANDLIK VOSITALARI BILAN BOG‘LIQ JINOYATLARNING OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI

Usenov Erkaboy Qo‘chqorboyevich
Jismoniy tayyorgarlik va sport kafedrasi boshlig‘ining o‘rinbosari dotsent, polkovnik,
Ibragimov Sanjar Botirovich
Jismoniy tayyorgarlik va sport kafedrasi katta o‘qituvchisi, podpolkovnik

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish sohasidagi jinoyatlarning oldini olish nafaqat ularning darajasini, balki aholining o‘limi va kasallanish darajasini pasaytirish, jamiyatdagi ijtimoiy vaziyatni yaxshilash, davlatning jahondagi obro‘sini oshirish imkonini beradi.

Shu sababli davlat giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning qonunga xilof ravishda muomala aylanishini oldini olishga, bunday jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni jazolashga, giyohvandlikka mubtalo bo‘lganlarni davolash va reabilitatsiyasiga alohida e’tibor qaratmoqda.

Avvalo, giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyatlarning oldini olish mohiyatini ochib berish uchun uning huquqiy asosini belgilab olish lozim. Profilaktikaning huquqiy asosi quyidagilardan iborat: O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, BMTning konvensiyalari, bitimlari va dekloratsiyalari “Giyohvand moddalar to‘g‘risidagi yagona konvensiyasi” (1961y); “Psixotrop moddalar to‘g‘risidagi konvensiyasi” (1971y); “Giyohvand moddalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash to‘g‘risidagi konvensiyasi” (1988y); “Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi” (2000y); O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida” O‘RQ-371-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasini 1999 yil 19 avgustdagi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi 813-1-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 22 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim Qonun xujjatlariga jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish

to‘g‘risida”gi O‘RQ-503-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 27 oktabrdagi O‘RQ-644-sonli “Narkologik kasalliklar profilaktikasi va ularni davolash to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi (1994y.) O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (1995y), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentabrdagi “Dori vositalari noqonuniy aylanishining oldini olish choralarini kuchaytirish to‘g‘risida”gi PQ-4438-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2833-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 6 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta’sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 16 iyuldagi “Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lishi bilan bog‘liq faoliyatni litsenziyalash to‘g‘risida”gi 315-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 12 noyabrdagi “Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, undan olib chiqish va tranzit tarzida o‘tkazish tartibini, shuningdek ularning muomalada bo‘lishi yuzasidan nazoratni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 330-sonli qarori, O‘zbekiston Respublkasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 27 oktabrdagi “Vazirlar Mahkamasining «Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, undan olib chiqish va tranzit tarzida o‘tkazish tartibini, shuningdek ularning muomalada bo‘lishi yuzasidan nazoratni takomillashtirish to‘g‘risida» 2015 yil 12 noyabrdagi 330-son qaroriga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi 878-sonli qarori, O‘zbekiston Respublkasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kuchli ta’sir qiluvchi moddalar muomalasini tartibga solish to‘g‘risida”gi 818-sonli qarori, O‘zbekiston Respublkasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 3 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga narkologik yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 842-sonli qarori.

Giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish sohasidagi jinoyatlarning oldini olishning huquqiy asosini belgilab, shuni ta’kidlash lozimki, barcha chora-tadbirlar yuqorida ko‘rsatilgan meyoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan. giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish sohasidagi jinoyatlarning oldini olish faoliyatini ikki darajaga ajratish maqsadga muvofiq:

umumiy profilaktika, uning asosiy yo‘nalishi aholining giyohvandlikka mubtalo bo‘lishiga hamda giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof

ravishda muomala qilish sohasidagi jinoyatlar sodir etilishiga imkon beruvchi sabablar va sharoitlarni bartaraf etish chora-tadbirlaridan iborat;

giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish sohasidagi jinoyatlar sodir etishga moyil bo‘lgan muayyan shaxslarga nisbatan umumiy profilaktika.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof muomala qilish sohasidagi jinoyatlarining umumiy profilaktikasi — bu jinoyat sodir bo‘lishidan avvalgi davrda uning sabab va sharoitlarini bartaraf etishga, aholi o‘rtasida giyohvandlikka qarshi immunitetni shakllantirishga qaratilgan umumiy profilaktik chora-tadbirlar majmuasidir. Bu profilaktika turi jinoyatchiga emas, balki jamiyatning barcha qatlamlariga qaratilgan bo‘ladi.

Umumiy profilaktikaning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar – OAVda, ijtimoiy tarmoqlarda, ommaviy tadbirlarda giyohvandlikning salbiy oqibatlari haqida tushuntirish; maktab, kollej va oliy ta’lim muassasalarida profilaktik darslar, ma’ruzalar o‘tkazish; “Sog‘lom turmush tarzi”, “Giyohvandlikka qarshi birga kurashamiz” kabi ijtimoiy kompaniyalar tashkil etish.

Huquqiy targ‘ibot ishlari –aholiga giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlar uchun javobgarlik turlari (Jinoyat kodeksidagi sanksiyalar) to‘g‘risida tushuncha berish; yoshlar orasida huquqiy ongni shakllantirish va jinoyatdan ogohlantirish.

Jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaxshilash –ishsizlik, kambag‘allik kabi giyohvandlikka olib keluvchi omillarni kamaytirish; yoshlar uchun bandlik va tadbirkorlik dasturlarini amalga oshirish; sport, madaniyat va ta’lim sohalarida keng imkoniyatlar yaratish orqali boshqa ijobiy faoliyatlarga yo‘naltirish.

Ta’lim muassasalarida profilaktika ishlari – maktab va OTMlarda “giyohvandlikka qarshi” maxsus o‘quv kurslarini joriy etish; psixologik xizmatlar orqali xavf guruhlarini aniqlash va ularga yordam berish.

Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish ishlari – jismoniy faollik, sport musobaqalari, madaniy tadbirlar orqali bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil qilish; yoshlarni ijtimoiy foydali faoliyatlarga jalb qilish.

Hamkorlik ishlari – davlat organlari (IIV, prokuratura, ta’lim, sog‘liqni saqlash idoralari, va NNTlar bilan hamkorligida amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish; fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini ta’minlash.

Umumiy profilaktika — jinoyatni sodir etmaslik uchun jamiyatda barqaror axloqiy, huquqiy va ijtimoiy muhitni yaxshilashga xizmat qiladi.

Shuni alohida ta’kidlash zururki, giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish sohasidagi jinoyatlar sodir etishga moyil bo‘lgan muayyan shaxslarga nisbatan umumiy profilaktika alohida va ehtiyotkorona yondoshuvni talab etadi.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof muomala qilish jinoyatlarini sodir etishga moyil bo‘lgan muayyan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan umumiy profilaktika, “hali jinoyat sodir etmagan, lekin unga moyil bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxslar” bilan ishlash nozik va ehtiyotkorlikni talab qiladi, chunki bunday shaxslarga nisbatan faqat tarbiyaviy, ijtimoiy va axborot usullari bilan ish yuritiladi — huquqiy ta’sir choralari qo‘llanilmaydi. Bunday holatda umumiy profilaktika shaxsga potensial xavf sifatida yondashadi, hamda quyidagi yo‘nalishlarda chora tadbirlarni ko‘radi:

Axborot-ma’rifiy va tarbiyaviy choralar – ushbu shaxslarni yoshligi, ijtimoiy muhiti, munosabatlari asosida tanlab olib, ular bilan suhbatlar, seminarlar tashkil etish; ularning ongida giyohvandlikning xavfli oqibatlari haqida mustahkam tushuncha shakllantirish; jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun motivatsion targ‘ibot ishlari (muvaffaqiyatga erishgan shaxslar bilan uchrashuvlar va h.k.).

Huquqiy targ‘ibot va tushuntirish ishlari –shaxsga o‘ziga taalluqli bo‘lishi mumkin bo‘lgan jinoyatlar toifasi, javobgarlik choralari va ularning hayotga ta’siri haqida tushuncha berish; uning huquqiy ongini oshirish orqali jinoyat sodir etishning oldini olish.

Psixologik va ijtimoiy xizmatlar – psixologlar tomonidan suhbatlar o‘tkazish, uning ruhiy holatini o‘rganish; agar shaxs og‘ir shaxsiy muammolarga duch kelgan bo‘lsa (masalan, oilaviy zo‘ravonlik, ijtimoiy yetishmovchilik), ularni bartaraf etishga yordam berish.

Nazorat va kuzatuv, bir vaqtning o‘zida yordam – maktab, mahalla, ta’lim muassasasi, yoshlar ishlari bo‘yicha mutaxassislar orqali muntazam muloqotda bo‘lish; huquqbuzarlik tarixiga ega bo‘lmagan shaxslarni barvaqt aniqlab, ularni ijtimoiy faollikka jalb etish.

Faol ijtimoiy hayotga jalb qilish ishlari – sport to‘garaklari, madaniy tadbirlar, ko‘ngillilar jamoalariga jalb etish; ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish orqali salbiy muhitdan uzoqlashtirish.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof muomala qilish sohasidagi jinoyatlar sodir etishga moyil bo‘lgan muayyan shaxslarning moyillik darajasidan kelib chiqqan holda ularga nisbatan umumiy profilaktika yoki individual profilaktika chora-tadbirlari belgilanadi.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof muomala qilish sohasidagi jinoyatlar sodir etishga moyil bo‘lgan muayyan shaxslarga nisbatan amalga oshiriladigan umumiy profilaktika va individual profilaktika o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, maqsad, usul va ta’sir doirasi jihatidan farq qiladi. Umumiy profilaktika va individual profilaktikaning xususiyatlari va farqlari quyidagilarda ko‘ridadi:

giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof muomala qilish sohasidagi jinoyatlar sodir etishga shaxslarga nisbatan umumiy profilaktika — ehtiyotkorlik va tarbiyaviy ta’sir;

giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof muomala qilish sohasidagi jinoyatlar sodir etishga moyilligi aniq bo‘lib, ma’lum xatar darajasi yuksak bo‘lgan shaxslarga nisbatan esa individual profilaktika – rejali, nazoratli, huquqiy asoslangan faoliyat.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholi orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, ularning giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga nisbatan qarshi immunitetni shakllantirish, shuningdek, inson salomatligini ta’minlashga qaratilgan ishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, so‘nggi yillarda yangi turdagi sintetik giyohvandlik vositalari va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar paydo bo‘layotganligi, ular inson omilisiz internetning ijtimoiy tarmoqlaridan foydalangan holda aholi, ayniqsa yoshlar orasida oson tarqatilayotganligi mas’ul davlat tuzilmalarining bu boradagi faoliyatini «Barcha say-harakatlar inson qadri uchun» degan ustuvor g‘oya asosida sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish zarurligini taqozo etayotganligidan kelib chiqqan holda ilg‘or xorijiy tajriba, xalqaro, shu jumladan BMT ekspertlarining xulosa va tavsiyalari asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 6 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta’sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-son Farmoni bilan “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha 2024 — 2028 yillarga mo‘ljallangan milliy strategiya” qabul qilindi.

Milliy strategiya doirasida quyidagi maqsadlarga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifasi sifatida belgilandi:

aholi, ayniqsa xotin-qizlar va yoshlarda «giyohvandlikka qarshi immunitet»ni, o‘quvchi va talabalar orasida kuchli ta’sir qiluvchi dorilarni iste’mol qilishga murosasiz munosabatni shakllantirish, ta’lim muassasalarida psixofaol moddalar tarqalishining oldini olishga qaratilgan yangi ta’sirchan targ‘ibot-tashviqot va tarbiyaviy-profilaktik mexanizmlarni joriy etish;

aholiga sifatli narkologik yordam ko‘rsatish tizimini yangi usullar asosida rivojlantirish, giyohvandlik va zaharvandlikning barvaqt profilaktikasi, diagnostikasi, davolash va tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiyasi tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan manzilli choralarni amalga oshirish;

giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning (keyingi o‘rinlarda — giyohvandlik vositalari) noqonuniy aylanmasining yangicha, ayniqsa internet tarmog‘idagi usullariga barham berish, bu

boradagi tezkor-qidiruv, tergov va ekspert-kriminalistik choralar kompleksini, birinchi navbatda raqamlashtirish orqali rivojlantirish;

davlat va xususiy tibbiyot muassasalari hamda dorixonalarning giyohvandlik vositalaridan tibbiyotda foydalanish amaliyotini nazorat qilish, shuningdek, farmatsevtika korxonalari, giyohvandlik vositalarining ulgurji va chakana savdosi bilan shug‘ullanuvchi subyektlar mas’uliyatini oshirishning ta’sirchan mexanizmlarini yaratish;

giyohvandlikni davolash va narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, bu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar, xulosalar, yutuqlar va yangiliklarni amaliyotga joriy etish hamda ommaga yetkazishni ta’minlash.

Milliy strategiyada belgilangan ustuvor yo‘nalishlar va chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan barcha davlat organlari va tashkilotlarning birinchi rahbarlariga shaxsiy mas’uliyat yuklanilganligi masalaning qanchalik dolzarbligini anglatmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha 2024 — 2028 yillarga mo‘ljallangan milliy strategiyagada oltita asosiy maqsad, unga erishish ustuvor yo‘nalishlari hamda maqsadga erishish chora-tadbirlari belgilandi:

aholida giyohvandlikka qarshi immunitetni shakllantirish;

giyohvandlik va narkojinoyatlarning oldini olishga qaratilgan sifat jihatidan yangi mexanizmlarni belgilash;

narkojinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatiga zamonaviy ishlash usullarini tatbiq qilish;

aholiga sifatli narkologik yordam ko‘rsatish tizimini yangi metodlar asosida rivojlantirish;

giyohvandlikning tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiyasini yanada takomillashtirish;

giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish.

Milliy strategiya belgilangan maqsadlarga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifasi sifatida iuyidagilar belgilandi:

aholi, ayniqsa xotin-qizlar va yoshlarda «giyohvandlikka qarshi immunitet»ni, o‘quvchi va talabalar orasida kuchli ta’sir qiluvchi dorilarni iste’mol qilishga murosasiz munosabatni shakllantirish, ta’lim muassasalarida psixofaol moddalar tarqalishining oldini olishga qaratilgan yangi ta’sirchan targ‘ibot-tashviqot va tarbiyaviy-profilaktik mexanizmlarni joriy etish;

aholiga sifatli narkologik yordam ko‘rsatish tizimini yangi usullar asosida rivojlantirish, giyohvandlik va zaharvandlikning barvaqt profilaktikasi, diagnostikasi, davolash va tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiyasi tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan manzilli choralarni amalga oshirish;

giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning (keyingi o‘rinlarda — giyohvandlik vositalari) noqonuniy aylanmasining yangicha, ayniqsa internet tarmog‘idagi usullariga barham berish, bu boradagi tezkor-qidiruv, tergov va ekspert-kriminalistik choralar kompleksini, birinchi navbatda raqamlashtirish orqali rivojlantirish;

davlat va xususiy tibbiyot muassasalari hamda dorixonalarning giyohvandlik vositalaridan tibbiyotda foydalanish amaliyotini nazorat qilish, shuningdek, farmatsevtika korxonalari, giyohvandlik vositalarining ulgurji va chakana savdosi bilan shug‘ullanuvchi subyektlar mas’uliyatini oshirishning ta’sirchan mexanizmlarini yaratish;

giyohvandlikni davolash va narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, bu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar, xulosalar, yutuqlar va yangiliklarni amaliyotga joriy etish hamda ommaga yetkazishni ta’minlash.

Shunday qilib, giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish sohasidagi jinoyatlarning oldini olish davlat tuzilmalari faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ta’kidlash joyizki, bu nafaqat bunday jinoyatlarning sodir etilish darajasini pasaytiradi, balki aholining o‘limi va kasallanish darajasini kamaytirish, jamiyatdagi ijtimoiy vaziyatni yaxshilash, davlatimizning xalqaro nufuzini oshirish imkonini ham beradi.

Aynan shu sababli davlat o‘z say-harakatlarini giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish sohasidagi jinoyatlarning oldini olish va unga qarshi kurashishga, ushbu sohadagi jinoyatlarni sodir etishda aybdor shaxslarni jazolashga, shuningdek, giyohvandlikka mubtalo bo‘lganlarni davolash va reabilitatsiya qilish choralarini qo‘llashga qaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Giyohvandlik vositalari to‘g‘risida”gi konvensiyasi. 2000-yil 15-noyabr, Nyu-York. https://lex.uz/docs/-1304566.

2. O‘zbekiston Respublikasining 813-I-son.19.08.1999 y. “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lexuz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 6-may kunidagi “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta’sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-sonli farmoni. Qonuni. https://lexuz.

ЁШЛАР ЎРТАСИДА ГИЁҲВАНД ВА ПСИХОТРОП МОДДАЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ

Абдуллоев Хуршид Гуломович
Ўзбекистон Республикаси ЖХУ мустақил изланувчиси,
Акромжонов Иқболжон Акромжон ўғли
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети тингловчиси

Бугунги глобаллашув даврида жамият тараққиётининг энг муҳим омилларидан бири бу соғлом, билимли ва фидойи ёш авлодни тарбиялашдир. Зеро, ҳар қандай мамлакатнинг эртанги куни айнан ёшлар қўлида, уларнинг дунёқараши, маънавияти ва ижтимоий масъулият даражасига чамбарчас боғлиқдир. Афсуски, дунё миқёсида ёшлар салоҳиятига раҳна солаётган оғир иллатлар-гиёҳвандлик ва психотроп моддаларга қарамлик ҳамон долзарблигича қолмоқда. Соғлом ва ҳаётга интилувчан ёшларни ривожлантириш ҳар бир ривожланган мамлакаларнинг муҳим вазифаси ҳисобланади. Ҳар бир жамиятда ёшлар кўпинча ижтимоий ўзгаришларнинг фаол етакчиси бўлишади аммо, улар томонидан алкогол ва гиёҳванд моддаларнинг ноқонуний истеъмол қилиниши, сақланиши ва тарқатилиши каби салбий тендентсиялар жаҳон ҳамжамиятида долзарб муаммолигича қолмоқда. Қизиқувчан ёшлар эса, тобора кенгайиб бораётган гиёҳванд ва психатроп моддалар таъсирига тушиб, норкодилерлар жиноий даромадлари манбайига айланганлиги ҳеч биримизга сир эмас. Президентимиз ташаббуси асосида тайёрланган резолютсия 2024-йил 4-июн куни БМТ Бош Ассамблеясида бир овоздан маъқулланди ва қабул қилинди. Мазкур резолютсия *“Марказий Осиё давлатларининг гиёҳвандлик билан боғлиқ муаммоларни самарали ҳал этиш ва бартараф этиш учун ягона фронт бўлиб ҳаракат қилиш ва ҳамкорлик қилишга тайёрлиги”*[1] деб номланган ва барча ҳуқуқ тартибот органлари учун дастуруламал бўлиб хизмат қилиб келмоқда.

Ҳозирги кунда БМТнинг Наркотиклар ва жиноятчиликни назорат қилиш бошқармаси ҳисоботига кўра, дунёда гиёҳванд моддалар истеъмол қилувчилар сони 10-йил ичида 23 фоиз ўсган. Яъни, 240 миллиондан 296 миллион нафарга етган[2]. Ёшлар орасида гиёҳвандликни олдини олиш учун энг аввало гиёҳванд моддаларнинг тарқалиши, хусусияти, таъсири ва оқибатларини ҳуқуқий англаб етишимиз зарур. Гиёҳвандлик воситалари махсус рўйхатга киритилган ва давлат томонидан назоратга олинган, гиёҳвандликни келтириб чиқарувчи синтетик восита (препарат)лар

[1] http://insonhuquqlari.uz/oz/news/m15737
[2] http://pravacheloveka.uz/oz/news/m13559

ва ўсимликлар[1]. Гиёҳвандлик воситалари рўйхати БМТнинг 1988-йилги “Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар билан қонунга хилоф равишда муомала қилишга қарши кураш тўғрисида”ги конвенсиясида, шунингдек, гиёҳвандлик воситалари устидан назорат қилиш бўйича Ўзбекистон Республикаси Давлат комиссиясининг қарорига (1995-йил 1-апрел) 1-сонли иловада берилган. Гиёҳвандлик воситаларилари сирасига марихуана, *наша, канна биссмоласи, қорадори ефедрон, кокаин* ва бошқалар киради[2]. Жаҳон ривожланган давлатларида ҳам гиёҳванд ва психатроп моддаларга қарши кураш юзасидан бир қатор чекловлар, ҳуқуқий нормативе ҳужжатлар қабул қилинган. Даставвал, Гиёҳванд моддаларни исте’мол қилиш тарихи бизнинг эрамиздан 5000 йил олдин Шумер сивилизатсиясига бориб тақалади. Ўша даврларда олиб борилган қазишмаларда афюнни тайёрлаш ва ишлатиш тўғрисида биринчи ёзма маълумотлар топилган, улар „мен“ деб аташган, бу „қувонч“ деган маънони англатади[3]. Гиёҳвандлик моддаларини замонавий ҳаётимизда тақиқланиши XIX аср охири XX аср бошларида Европа мамлакатлари ва АҚШнинг ҳукмрон доираларида гиёҳвандликка қарши кураши билан бевосита боғлиқ, бунинг натижасида 1909 йилда Шанхайда афюн муаммолари бўйича конференция чақирилди. Ўша даврдаги гиёҳвандликка қарши ҳаракатнинг асосий мафкурачиси ва Конгрессни чақириш тарғиботчиси Филиппин черкови епископи *Чарлз Генри Брент* эди. Президент Рузвелт ташаббуси билан конференция чақирилган америкалик делегатлар идеал ахлоқий позитсиялардан чиқишди.[4] Бу ҳаракат биринчи ва иккинчи жаҳон урушларидан сўнг янада кескин тус олиб, халқаро ҳамжамият ва дунёнинг иқтисодий ривожланган давлатлари гиёҳвандлик моддалари савдосини жиддий хавф сифатида баҳоладилар.

БМТ Бош Ассамблеясининг 1987 йил 7 декабрда қабул қилинган 42/112 резолютсияси билан белгиланган бўлиб, гиёҳвандликдан холи халқаро жамият яратиш мақсадига эришиш йўлида фаолият ва ҳамкорликни фаоллаштириш қатъийлиги белгиси сифатида қабул қилинган. Бу қарор 1987 йилги Гиёҳванд моддаларни истеъмол қилиш ва ноқонуний назорат бўйича халқаро конференция тавсияси асосида қабул қилинган. Гиёҳвандликка қарши самарали кураш олиб бориш фаолиятида жуда кўп миқдорда моддий ресурслар талаб қилиниши сабабли, кўпчилик давлатларда молиявий имкониятлар чегараланганлиги боис унга қарши курашнинг ўзига хос тизимлари йўлга қўйилган. Ушбу

[1] Anstie, Francis Edmund. Stimulants and Narcotics, Their Mutual Relations: With Special Researches on the Action of Alcohol, Aether and Chloroform on the Vital Organism (en). Lindsay and Blakiston, 1865 — 152-bet.
[2]https://uz.wikipedia.org/wiki/Giyohvandlik_vositalari
[3] Исаев, Игорь.. В поисках забвения. Всемирная история наркотиков 1500—2000, М.. ISBN 5-9410-6029-7. (Wayback Machine saytida 2008-09-24 sanasida arxivlangan)
[4] https://uz.wikipedia.org/wiki/Narkotiklar_tarixi

мамлакатларда гиёҳвандликнинг олдини олиш ва унга қарши курашиш фаолияти маблағ билан эмас балки, “ақл билан” оқилона, тежамкор ва энг асосийси самарали курашиш усул ва воситаларини ишлаб чиқиш ва фойдаланиш орқаяи амалга оширилмоқца. Бундай мамлакатлар тоифасига асосан ривожланаётган, шунингдек унчалик йирик бўлмаган давлатларни киритиш мумкин. Гиёҳвандликнинг олдини олиш ва унга қарши курашиш фаолиятига энг кўп маблағ ажратаётган давлат АҚШ бўлиб, мамлакат молиявий имкониятлари гиёҳвандликнинг олдини олиш ва унга қарши курашнинг самарали тизимини йўлга қўйиш имконини беради. Энг ачинарлиси шундаки, амалга оширилган кенг кўламли чора- тадбирларга қарамасдан инсоният XXI асрга ҳам умумжахон миқёсидаги энг долзарб муаммолардан бири бўлган-гиёҳвандлик муаммосига ечим излаш орқали қадам қуйди. Ҳозирги вақтда гиёҳвандлик ўта мураккаб ва ижтимоий хавфли ҳодиса тусини олган бўлиб у томонидан етказилаётган зарарни амалда ҳисобга олиш имконияти йўқдир. Бу эса турли хил жиноятларни содир этилишига туртки бўлиб жамиятни моддий техник, интеллектуал салоҳиятини пасайтиради, унинг генофонди бузади. Афсуски, гиёҳвандликнинг воситаларининг ноқонуний кириб келиши, ишлаб чиқарилиши, тарқалиши ва уни нотиббий мақсадларда истеъмол қилиш билан боғлиқ гиёҳвандлик муаммоси Ўзбекистон Республикасини ҳам четлаб ўтган эмас. Шундай экан бугунги кунда гиёҳвандликнинг олдини олиш ва унга қарши кураш муаммосини чуқур ўрганиш жуда долзарб бўлиб, бу ана шу ҳодисанинг моҳиятини, унга хос белгиларни аниқлашни, республикамизда гиёҳвандлик тарқалишига ва ривожланишига, унинг ижтимоий-иқтисодий вазиятга таъсир кўрсатишига имкон туғдирувчи ҳолатларни ҳар томонлама тадқиқ этишни, истиқболга оид муайян хулосаларни ишлаб чиқишга имкон 6 кураш беради. Бундан ташкари гиёҳвандликнинг олдини олиш ва унга қарши борасидаги илмий салоҳият янада такомиллаштирилиши ва гиёҳвандликка қарши курашнинг илмий асосланган самарали, тежамкор усул ва воситалари, қолаверса самарали ҳуқуқий асоси ишлаб чиқилинш, мавжуд ҳуқуқий ҳужжатлар эса ҳар томонлама такомиллаштирилиши мақсадга мувофиқ. Бу китобда гиёҳвандлик муаммосининг келиб чиқиши ва унинг олдини олишга қаратилган, гиёҳвандлик воситаларининг ғайриқонуний муомаласи натижасида топилган маблағларни легаллаштиришга қарши кураш борасида замонавий илм-фан, илғор хорижий мамлакатлар ва амалиёт ютуқларидан фойдаланишга ҳаракат қилинди. Бундан ташқари, гиёҳвандликнинг олдини олиш ва бартараф этишга қаратилган жиноят-ҳуқуқий нормалар илмий-амалий жиҳатдан тахдил қилинди. Шунингдек гиёҳвандликнинг олдини олиш ва унга қарши кураш соҳасида гиёҳвандлик муаммосининг ҳуқуқ билан тартибга солинмаган жиҳатларини криминологик нуқтаи назардан тадқиқ этиб ўз тавсияларимизни бердик. Ушбу китоб

муаллифнинг бу борадаги илк изланишлари нати- жаси бўлиб айрим жуъзий камчиликлар бўлса аввалдан ўз узримизни сўраймиз. Изланишимиз Республикамизда гиёҳвандликнинг олдини олиш ва унга қарши кураш борасидаги фаолиятга озми-кўпми ўз ҳиссасини қўшса, олдимизга қўйган мақсадга эришган бўлардик. Қолаверса келажакда гиёҳвандлик муаммоси бўйича чуқур илмий изланишларни давом эттириб, мамлакатимиздаги ижтимоий- иқтисодий ислоҳотларга, шунингдек жиноятчиликнинг олдини олиш борасидаги фаолиятга ҳамда демократик фуқаролик ҳуқуқий жамиятни барпо этиш ишига ўз ҳиссамизни қўшишни мақсад қилганмиз. Мазкур изланишни бу борадаги илк қадам сифатида қабул қилгайсиз!

Хулоса ўрнида айтганда, ёшлар ўртасида гиёҳвандликни олдини олиш учун қуйидаги аниқ ва асослантирилган таклифлар илгари суриш мумкин:

1. Соғлом ҳаёт тарзини тарғиб қилиш

Асос: Ёшлар кўпинча гиёҳвандликка ижтимоий босим ва стресс туфайли берилишади. Соғлом ҳаёт тарзи уларга стрессни камайтириш ва соғлом алтернативаларни танлаш имконини беради.

Таклиф: Спорт клублари, маданий ва санъат марказлари орқали ёшларни жисмоний фаолият ва ижодга жалб қилиш.

2. Таълим ва маърифат ишлари

Асос: Гиёҳвандликнинг зарарли таъсири ва унинг салбий оқибатлари ҳақида билим етишмаслиги ёшларни хавфга дучор қилади.

Таклиф: Мактабларда ва олий ўқув юртларида мунтазам равишда гиёҳвандликка қарши маърузалар, тренинглар, интерактив дарслар ўтказиш.

3. Оилавий тарбия ва психологик ёрдам

Асос: Кўпинча гиёҳвандлик оилавий муаммолар ёки руҳий тушкунликдан келиб чиқади.

Таклиф: Оилаларни психологик қўллаб-қувватлаш марказларига жалб қилиш, оилавий тренинглар ва маслаҳатлар ташкил этиш.

4. Ижтимоий ёрдам ва қўллаб-қувватлаш

Асос: Ижтимоий муҳит ва дўстлар таъсири ёшларни гиёҳвандликка тортади.

Таклиф: Ёшлар учун ижтимоий клублар, гуруҳлар ташкил қилиш, уларга ижобий дўстлик ва қўллаб-қувватлаш муҳитини яратиш.

5. Қонуний назорат ва жазоларни кучайтириш

Асос: Гиёҳванд моддалар тарқатиш ва истеъмолини камайтириш учун қонуний чоралар муҳим.

Таклиф: Гиёҳванд моддалар сотилиши ва тарқалишига нисбатан назоратни кучайтириш, ёшлар орасида ноқонуний моддаларни назорат қилиш ва жазоларни қатъийлаштириш.

6. Ахборот кампаниялари

Асос: Ёшларни гиёҳвандликнинг зарарли томонлари ҳақида хабардор қилиш самарали олдини олиш усулидир.

Таклиф: ОАВ, ижтимоий тармоқлар орқали тарғибот кампаниялари ўтказиш, гиёҳвандлик ҳақида видео ва постларни кўпайтириш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Адолат, 2023.
2. Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисидаги Қонун. – Ўзбекистон Республикаси Қонуни, 1999 йил 19 апрел.
3. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). *World Drug Report 2024*. — New York: United Nations Publications, 2024. → https://www.unodc.org/unodc/en/data-and-analysis/wdr.html
4. United Nations General Assembly. *Resolution A/RES/78/XXX – Strengthening regional cooperation against drug threats in Central Asia*. — New York: United Nations, 2024.
5. Бекназаров, Қ. Р. Гиёҳвандлик ва унинг оқибатлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2020.
6. Сайфуллаев, Ш.Ш. Жамият ва гиёҳвандлик: ижтимоий таҳдидлар ва ҳуқуқий ёндашувлар. – Тошкент: Академнашр, 2022.
7. Brent, C.H. *Memoirs on the International Opium Commission, Shanghai 1909*. – London: Historical Drug Policy Foundation, 1920.
8. Karimov, M. Youth and National Security: Fight Against Drug Addiction. – Journal of Law and Society, 2023, №2. – Б. 45–57.
9. Тожибоев, Ж.Х. Гиёҳвандликка қарши курашнинг криминологик асослари. – Тошкент: ИИВ академияси нашри, 2021.
10. World Health Organization (WHO). *Youth and Substance Abuse: Global Health Concern*. — Geneva: WHO Press, 2022.
11. UNESCO. *Preventive Education Against Drugs in Schools*. — Paris: UNESCO Publishing, 2020.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 12 июндаги ПҚ-160-сон қарори – “Гиёҳвандлик ва жиноятчиликка қарши курашишнинг самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”.
13. Маҳмудов, Д. Жиноят ҳуқуқида гиёҳвандлик воситалари билан боғлиқ жиноятларга қарши кураш. – Тошкент: Норма, 2019.
14. United Nations Convention against Illicit Traffic in Narcotic Drugs and Psychotropic Substances, 1988 (Vienna Convention).
15. БМТ Бош Ассамблеяси. 42/112-сонли резолюция, 7 декабрь 1987 йил – “Гиёҳванд моддалардан холи халқаро жамиятни шакллантириш тўғрисида”.

ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ГИЁҲВАНДЛИК ПРОФИЛАКТИКАСИНИНГ ЗАМОНАВИЙ МОДЕЛЛАРИ: “ХАВФСИЗ МАҲАЛЛА” ВА КИБЕР-ТЕРГОВ АМАЛИЁТИ

Кузиев Дилшод Ахрорович,
Ўзбекистон Республикаси Криминология тадқиқод институти
мустақил изланувчиси

Аннотация: Тезисда гиёҳвандликка қарши курашда барвақт профилактика устуворлиги ва 2024–2028 йилларга мўлжалланган Миллий стратегия доирасида профилактиканинг умумий, махсус, якка тартибдаги ҳамда виктимологик турлари ўзаро уйғун тизим сифатида асосланади. Интернетдаги наркосавдо каналлари кенгайиб бораётгани сабаб кибер-тергов, рақамли изларни тўплаш ва телеграм-бот/веб-ресурсларни судгача блоклаш тартибини соддалаштириш, шунингдек “Хавфсиз маҳалла” орқали маҳаллабай профилактик ишларни кучайтириш таклиф этилади.

Калит сўзлар: жамоат хавфсизлиги; Миллий стратегия 2024–2028; профилактика турлари; кибер-тергов; рақамли излар; телеграм-бот; веб-ресурсларни блоклаш; “Хавфсиз маҳалла”.

Бугунги кунда жамоат хавфсизлиги тизимли категория сифатида шахс, жамият ва давлатнинг ҳаётий муҳим манфаатларини ички ва ташқи таҳдидлардан ҳимояланганлик ҳолатини англатади. Гиёҳвандлик деструктив жараёнларнинг катализатори сифатида ушбу даражаларнинг ҳар бирига путур етказади. У шахсни парчалайди, оила институтини беқарорлаштиради, уюшган жиноятчиликни озиқлантиради ва соғлиқни сақлаш тизими ҳамда иқтисодиётга катта юк бўлиб тушади. Шу сабабли, гиёҳвандлик профилактикасини Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-27-сон Фармони билан тасдиқланган Жамоат хавфсизлиги концепцияси[1]га интеграция қилиш фуқаролар учун хавфсиз муҳит яратиш йўлидаги стратегик қадамдир.

Жамоат хавфсизлиги тизимидаги гиёҳвандлик профилактикаси — бу гиёҳванд моддаларни истеъмол қилишга йўл қўймаслик, гиёҳвандликка қарамлик ривожланишининг олдини олиш ва тақиқланган моддаларнинг ноқонуний айланмасига имкон берувчи омилларни бартараф этишга қаратилган кўп босқичли чора-тадбирлар тизимидир. Унинг аҳамияти «биринчи мудофаа чизиғи» вазифасини бажаришида бўлиб, ҳуқуқбузарликлар ва касалланишнинг

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-27-сон Фармони билан тасдиқланган Жамоат хавфсизлиги концепцияси // https//www.lex.uz.

кўпайиши билан боғлиқ ижтимоий харажатларни минималлаштиришга имкон беради.

Ушбу тизимнинг самарадорлиги профилактика чораларининг трихотомиясига асосланади:

Биринчи даражали (бирламчи) профилактика — бутун аҳолига, айниқса ёшларга қаратилган бўлиб, гиёҳвандликка қарши барқарор иммунитетни шакллантиришни мақсад қилади. Жамоат хавфсизлиги тизимида бу соғлом ҳордиқ учун шароит яратиш, ҳуқуқий саводхонликни ошириш ва жамиятнинг маънавий-ахлоқий негизларини мустаҳкамлаш орқали амалга оширилади;

Иккинчи даражали (иккиламчи) профилактика — хавф гуруҳларига, яъни гиёҳванд моддаларни истеъмол қилиш тажрибасига эга бўлган ёки гиёҳвандликка жалб қилиниш эҳтимоли юқори бўлган муҳитдаги шахсларга қаратилади. Бу ерда асосий вазифа барвақт ташхис қўйиш ва сурункали қарамликка ўтишнинг ҳамда ҳуқуқбузарликлар содир этилишининг олдини олишдир;

Учинчи даражали профилактика (реабилитация) — гиёҳвандликдан азият чекувчи шахсларга тегишли. Хавфсизликни таъминлашдаги роли рецидив (қайталаниш) эҳтимолини камайтириш, собиқ гиёҳвандларни ресоциализация қилиш ва уларни ижтимоий фойдали меҳнатга қайтаришдан иборат бўлиб, бу жамиятдаги криминогенлик даражасини бевосита пасайтиради.

Гиёҳвандлик даражаси ва жамоат хавфсизлиги ҳолати ўртасида корреляцион боғлиқлик мавжуд. Профилактика чоралари самарадорлигининг пасайиши наркобозорда талабнинг ошишига, бу эса ўз навбатида таклифни рағбатлантиришга ва трансмиллий жиноий гуруҳлар фаолиятининг фаоллашишига олиб келади.

Омиллар ўртасидаги боғлиқликни чуқурроқ тушуниш учун профилактика самарадорлигига боғлиқ бўлган жамоат хавфсизлиги рискларини (Rps) баҳолашнинг формаллаштирилган моделидан фойдаланиш мумкин:

$$R_{ps} = \int_{t_0}^{t_1} \frac{D(t) \cdot C(t)}{P(t) \cdot L(t)} dt$$

Бу ерда:

D(t) — жамиятда гиёҳвандлик воситалари тарқалишининг динамикаси;

C(t) — гиёҳвандлик билан боғлиқ криминогенлик коэффициенти (ўғирлик, босқинчилик, сотиш);

P(t) — профилактика дастурларининг (таълим, ижтимоий) самарадорлик индекси;

L(t) — ҳуқуқий назорат ва ички ишлар органлари тезкор фаолиятининг даражаси.

Ушбу модель шуни кўрсатадики, махражни (профилактика ва ҳуқуқий назорат самарадорлигини) ошириш — жамоат хавфсизлигининг интеграл рискини пасайтиришнинг ягона барқарор усулидир.

Ўзбекистон Республикасининг Жамоат хавфсизлиги концепцияси қабул қилиниши гиёҳвандлик профилактикаси ролини қайта кўриб чиқиш учун асос бўлди. Эски моделлардан фарқли ўлароқ, янги парадигма «Хавфсиз маҳалла» моделига йўналтирилган. Бу профилактика ишларининг асосий оғирлиги бевосита жамиятнинг қуйи бўғинларига ўтказилганлигини англатади.

Жамоат хавфсизлиги концепцияси[1]га мувофиқ, жамоат хавфсизлиги тизимида гиёҳвандлик профилактикаси давлат органлари ва фуқаролик жамияти институтларининг яқин ҳамкорлиги призмаси орқали кўриб чиқилади. Асосий урғу қуйидаги йўналишларга қаратилган:

Йўналиш	**Чора-тадбирлар мазмуни**	**Хавфсизлик учун кутилаётган самара**
Институционал	Гиёҳвандликка мойил шахсларни аниқлашнинг «маҳаллабай» тизимини яратиш	Локал даражада ҳуқуқбузарликларни барвақт олдини олиш
Рақамли	Ижтимоий тармоқлар ва мессенжерларни наркотик тарғиботи бўйича мониторинг қилиш	Рақамли муҳитда синтетик наркотикларнинг мавжудлигини камайтириш
Ижтимоий-тиббий	Замонавий реабилитация ва мослаштириш марказларини ривожлантириш	Гиёҳвандлар орасида рецидив жиноятчилик даражасини пасайтириш
Ҳуқуқий	Наркопритонлар ташкил этганлик учун жавобгарликни кучайтириш билан бирга истеъмолчиларга нисбатан ёндашувни инсонпарварлаштириш	Турар-жой массивларида криминал фаоллик ўчоқларини йўқ қилиш

Замонавий шароитда 2024–2028 йилларга мўлжалланган гиёҳвандлик ва наркожиноятларга қарши курашиш бўйича миллий стратегия алоҳида аҳамият касб этади. У анъанавий усуллар билан аниқлаш қийин бўлган «дорихона гиёҳвандлиги» ва дизайнерлик синтетик наркотиклари каби янги таҳдидларни ҳисобга олади. Стратегия профилактикани маълумотларни таҳлил қилиш ва нарковазиятни прогноз қилишнинг инновацион методларини жорий этиш орқали умумий хавфсизлик тизимига интеграция қилади.

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-27-сон Фармони билан тасдиқланган Жамоат хавфсизлиги концепцияси // https//www.lex.uz.

Профилактиканинг жамоат хавфсизлиги учун нега бунчалик муҳимлигини тушуниш учун гиёҳвандликнинг беқарорлаштирувчи таъсири механизмларини таҳлил қилиш лозим.

Биринчидан, бу умумий жиноятчилик билан бевосита боғлиқликдир. Гиёҳвандликдан азият чекувчи шахслар навбатдаги дозага бўлган физиологик эҳтиёж туфайли кўпинча мулкий ва зўравонлик билан боғлиқ жиноятларни содир этадилар. Истеъмолчилар сонини камайтиришга қаратилган профилактика автоматик равишда кўчадаги босқинчилик, хонадонлардаги ўғрилик ва фирибгарлик каби жиноятлар потенциалини пасайтиради.

Иккинчидан, наркобизнес экстремизм ва терроризм каби кенг кўламли таҳдидлар учун молиявий асос бўлиб хизмат қилади. Трансмиссион механизм оддий: ноқонуний наркоайланмадан тушган даромадлар кўпинча конституциявий тузум ва фуқаролар хавфсизлигига рахна солувчи деструктив ташкилотларни молиялаштириш учун ишлатилади. Демак, самарали профилактика талабни камайтириш орқали билвосита уюшган жиноятчиликнинг молиявий оқимларига зарба беради.

Учинчидан, гиёҳвандларнинг ижтимоий деградацияси оилаларнинг парчаланишига, қаровсиз қолган болалар сонининг ортишига ва маиший зўравонликка олиб келади. Жамоат хавфсизлиги тизимида бу омиллар келажакдаги ҳуқуқбузарликлар учун замин яратувчи яширин таҳдидлар сифатида қаралади. Бу ҳолатда профилактика миллатнинг ижтимоий капиталини сақлаш воситаси сифатида намоён бўлади.

Таъкидлаш лозимки, жамоат хавфсизлигини таъминлашда профилактиканинг ушбу тўрт тури бир-бирини тўлдирувчи яхлит тизимни ташкил этади. Умумий ва махсус профилактика гиёҳвандликнинг ижтимоий илдизларини бартараф этса, якка тартибдаги ва виктимологик профилактика шахс ва унинг атрофидаги муҳитни бевосита ҳимоя қилишга хизмат қилади.

Миллий стратегия[1]да гиёҳвандликнинг мамлакат генофондига салбий таъсирини бартараф этиш устувор стратегик мақсад сифатида белгиланган. Генофонд тушунчаси илмий жиҳатдан миллатнинг асосий ирсий белгилари ва потенциал имкониятлари мажмуини ифодалайди. Гиёҳвандлик ушбу тизимга иккита асосий йўналиш — биологик ва ижтимоий-хавфсизлик даражасида жиддий таҳдид солади.

Назарий жиҳатдан гиёҳвандликнинг биологик таҳдиди унинг авлоддан-авлодга ўтувчи деструктив хусусияти билан боғлиқ. Илмий тадқиқотлар шуни кўрсатадики, гиёҳвандлик воситаларига мойилликнинг ирсий компоненти 9 %

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 6 майдаги ПФ-73-сон Фармони билан тасдиқланган "2024 — 2028 йилларга мўлжалланган Миллий стратегия" // https://lex.uz/uz/docs/-6912475.

дан 45 %гача бўлган оралиқда баҳоланади[1]. Айниқса, 2024 йилда наркожиноят содир этган мактаб ўқувчилари сонининг 73% га (34 нафардан 59 нафарга)[2] ошганлиги миллий генофонд учун жиддий сигналдир.

Бу эса ҳозирги авлоднинг наркотизацияси келажак авлодларнинг нафақат жисмоний, балки руҳий саломатлигида ҳам биологик деградацияни келтириб чиқаришини англатади. Гиёҳванд моддалар истеъмоли репродуктив саломатликка сокрушитель зарба беради: ҳомиладор аёллар томонидан психоактив моддалар истеъмол қилиниши болаларда туғма патологиялар, ривожланишдан ортда қолиш ва когнитив нуқсонларни юзага келтиради.

2023–2024 йиллар оралиғида Ўзбекистонда аниқланган наркожиноятлар сони 10 011 тадан 12 278 тага, яъни 23%га ошган. Энг хавотирли ҳолат ОТМ талабалари ўртасида кузатилиб, ушбу тоифадаги жиноятчилик кўрсаткичи 168%га (47 нафардан 126 нафарга) [3] ўсган. Бу кўрсаткичлар ЖКнинг 273-моддаси бўйича жиноятларнинг ижтимоий хавфлилик даражаси юқорилигини ва улар жамиятнинг интеллектуал салоҳиятини емираётганлигини тасдиқлайди.

Шунингдек, гиёҳвандликнинг авж олиши миллатнинг интеллектуал салоҳиятини пасайтиради, чунки доимий истеъмол натижасида шахс меҳнат қобилиятини йўқотади ва жамият учун ижтимоий юкка айланади.

Гиёҳвандлик жамоат хавфсизлиги тизимида жиноятчиликнинг асосий катализатори сифатида намоён бўлади. Халқаро ва миллий статистика маълумотларига кўра, жамиятда содир этилаётган умумий жиноятларнинг тахминан 57 фоизи бевосита ёки билвосита гиёҳвандлар ҳиссасига тўғри келади. Бу ҳолат икки томонлама хавф туғдиради:

Мулкий жиноятлар: Гиёҳвандликка мубтало бўлган шахслар навбатдаги "доза"ни сотиб олиш учун ўғирлик, талабгорлик ва фирибгарлик каби жиноятларга қўл уради;

Тизимли хавф: Гиёҳвандлик воситаларининг ноқонуний айланмаси (Ўзбекистон Республикаси ЖК 273-моддаси) уюшган жиноятчилик ва коррупцияни озиқлантиради, бу эса давлатнинг хавфсизлик негизларини заифлаштиради. ЖКнинг 273-моддаси[4]да белгиланган жиноятларнинг

[1] Sarah E Bergen, Charles O Gardner, Steven H Aggen3, Kenneth S., KendlerSocioeconomic Status and Social Support Following Illicit Drug Use: Causal Pathways or Common Liability? // https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC2743743/.

[2] Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Наркотикларни назорат қилиш миллий марказининг 2023-2024 йилларда аниқланган наркожиноятлар бўйича маълумоти.

[3] Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Наркотикларни назорат қилиш миллий марказининг 2023-2024 йилларда аниқланган наркожиноятлар бўйича маълумоти.

[4] Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси // https://nrm.uz/contentf?doc=316353.

ижтимоий хавфлилик даражаси юқорилиги шундаки, улар нафақат алоҳида шахслар ҳаётига, балки жамиятнинг иқтисодий ва маънавий негизларига тажовуз қилади.

Гиёҳвандликнинг кибермаконга (даркнет, телеграм-ботлар) ўтиши эса ушбу таҳдидни янги — назорат қилиш қийин бўлган виртуал даражага олиб чиқмоқда.

Юқоридаги таҳлиллардан кўришимиз мумкинки, бугунги кунда тадқиқот предмети доирасида бир қатор муаммолар мавжуд. Хусусан:

Биринчидан, 1999 йилдаги "Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида"ги Қонун[1]да янги психоактив моддалар (ЯПМ)ларни рўйхатга олишнинг "тезкор реакция" механизми етарли эмас;

Иккинчидан, наркосавдонинг "даркнет" ва крипто-тўлов тизимларига ўтиши анъанавий тезкор-қидирув усулларининг самарадорлигини пасайтирмоқда;

Учинчидан, Жиноят кодексининг 273-моддаси[2]да гиёҳванд шахсларни жазолаш ва даволаш (мажбурлов чоралари) ўртасидаги мутаносиблик доимо ҳам сақланмайди. Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекс[3]да эса профилактик огоҳлантиришларнинг таъсирчанлиги пастлигича қолмоқда.

Тўртинчидан, қонунчиликда гиёҳвандлик қурбонига айланган шахсларнинг (масалан, гиёҳванд оиласида яшовчи болалар) ҳуқуқий мақоми ва уларни виктимологик ҳимоя қилишнинг аниқ механизмлари тўлиқ очиб берилмаган.

Таҳлиллар асосида қуйидаги илмий таклифлар илгари сурилади:

Биринчидан, "Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида"ги Қонунга вақтинчалик тақиқлаш ёки чеклаш (**мораторий**) тартибини киритиш ёҳуд мазкур қонунни замонавий талаблардан келиб чиқиб, янги таҳрирда қабул қилиш. Бу янги пайдо бўлаётган синтетик моддаларни қисқа муддатда (расмий рўйхатга киргунга қадар) муомаладан чиқариш имконини беради.

Бунда, Янги пайдо бўлаётган синтетик психоактив моддалар (NPS) расмий рўйхатга киритилгунга қадар "ҳуқуқий бўшлиқ"да қолмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 6 майдаги ПФ-73-сон “Ўзбекистон Республикасида гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланмасига чек қўйиш орқали уларнинг аҳоли саломатлиги ва мамлакатимиз генофондига салбий таъсирини бартараф этиш стратегик чора-тадбирлари

[1]Ўзбекистон Республикасининг 19.08.1999 йилдаги 813-I-сон "Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида"ги Қонун // https://lex.uz/docs/86044.

[2] Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси // https://nrm.uz/contentf?doc=316353.

[3] Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси // https://lex.uz/docs/97664.

тўғрисида”ги Фармони[1]нинг 8-бандида белгиланган вазифадан келиб чиқиб 1999 йил 19 августдаги "Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида"ги 813-I-сон Қонуннинг **14-модда** (Гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалар ва прекурсорлар рўйхатлари)сини қуйидаги мазмундаги янги қисм билан тўлдириш:

*"Инсон саломатлиги ва жамоат хавфсизлигига хавф туғдирадиган, бироқ расмий рўйхатларга киритилмаган янги психофаол моддалар аниқланганда, ваколатли давлат органи (Миллий марказ) эксперт хулосаси асосида ушбу моддалар муомаласига **12 ойгача** бўлган муддатга **вақтинчалик тақиқ (мораторий)** жорий этишга ҳақли. Мораторий амал қилиш даврида ушбу моддаларнинг ноқонуний муомаласи учун жавобгарлик назорат остидаги моддалар учун белгиланган тартибда амалга оширилади".*

Бу механизм синтетик моддаларнинг тарқалишини расмий бюрократик жараёнлар тугагунга қадар тезкор тўхтатиш имконини беради.

Иккинчидан, Жиноят кодексининг 273-моддаси[2]га ва МЖтК[3]га гиёҳвандлик воситаларини истеъмол қилувчи шахслар учун жазони **ижтимоий реабилитация** ва мажбурий психологик коррекция дастурлари билан алмаштириш имкониятини кенгайтирувчи нормаларни киритиш.

Гиёҳвандлик воситаларини истеъмол қилувчи шахсларни жиноий жазолашдан кўра, уларни **ижтимоий реабилитация** қилиш ва жамиятга қайтариш 2024–2028 йилларга мўлжалланган Миллий стратегиянинг асосий мақсадларидан биридир.

Ушбу вазифани амалга ошириш учун Жиноят кодекси ва МЖтКга киритиладиган аниқ ўзгартиришлар ва уларнинг механизми бўйича қуйидаги таклифларни илгари сурамиз:

Статистика 2024 йилда ОТМ талабалари ўртасида наркожиноятлар сони 168 %га ошганлигини кўрсатмоқда. Бундай ёшларни озодликдан маҳрум этиш жойларида "профессионал жиноятчилар" билан бирга сақлаш ўрнига, реабилитация дастурларини қўллаш самаралироқдир.

Шунга кўра, Жиноят кодексининг **273-моддасига** (Гиёҳвандлик воситалари, уларнинг аналоглари ёки психотроп моддаларни ўтказиш мақсадини кўзлаб қонунга хилоф равишда тайёрлаш, олиш, сақлаш ва бошқа ҳаракатлар

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 6 майдаги ПФ-73-сон Фармони билан тасдиқланган "2024 — 2028 йилларга мўлжалланган Миллий стратегия" // https://lex.uz/uz/docs/-6912475.

[2] Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси // https://nrm.uz/contentf?doc=316353.

[3] Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси // https://lex.uz/docs/97664.

қилиш, шунингдек уларни қонунга хилоф равишда ўтказиш) қуйидаги янги **"диспозиция"** қисмини қўшиш.

*"Гиёҳвандлик воситалари ёки психотроп моддаларни истеъмол қилишга ружу қўйган, биринчи марта ижтимоий хавфи катта бўлмаган жиноят содир этган ва ихтиёрий равишда мажбурий реабилитация дастуридан ўтишга розилик берган шахсларга нисбатан, агар улар дастурни муваффақиятли тамомласа, суд томонидан **жазодан озод қилиш ёки енгилроқ жазо турига алмаштириш** механизми қўлланилади".*

Буни амалга оширишда, суд жараёнида шахсга "синов муддати" берилади ва у ихтисослашган марказда реабилитациядан ўтиши шарт қилиб белгиланади.

Шунингдек**,** МЖтКнинг 56-моддасига (Гиёҳвандлик воситаларини, уларнинг аналогларини ёки психотроп моддаларни оз миқдорда ғайриқонуний равишда тайёрлаш, олиш, сақлаш, ташиш ёки жўнатиш) қуйидаги мазмундаги янги қисм билан тўлдириш: *"Ушбу моддада назарда тутилган ҳуқуқбузарликни содир этган шахсга нисбатан жарима ёки маъмурий қамоқ жазоси ўрнига **мажбурий психологик коррекция ва ижтимоий мослаштириш** чоралари тайинланиши мумкин".*

Буни амалга оширишда, маъмурий суд қарори билан шахс профилактика инспектори ва психолог назорати остида маҳаллабай тартибда психологик тренингларга қатнашишга мажбур этилади.

Жазони реабилитацияга алмаштириш механизми қуйидаги босқичларда ишлайди:

-ҳуқуқбузар ушланган заҳоти ваколатли органлар (ИИВ ва Соғлиқни сақлаш вазирлиги) унинг қарамлик даражасини ва психологик портретини аниқлайди;

-прокурор ёки суд шахсга танлов имкониятини беради: қамоқ жазоси ёки **6 ойдан 12 ойгача** бўлган мажбурий реабилитация дастури;

-шахс Миллий стратегия доирасида ташкил этиладиган замонавий реабилитация марказларига юборилади. У ерда унга нафақат тиббий ёрдам, балки касб-ҳунар ўргатиш ва психологик коррекция хизматлари кўрсатилади.

Агар шахс дастурни тўлиқ тамомлаб, наркотестлардан муваффақиятли ўтса, суд уни жиноий ёки маъмурий жавобгарликдан тўлиқ озод қилади. Қайта истеъмол аниқланган тақдирда, дастлабки тўхтатилган жазо (қамоқ) дарҳол кучга киради.

Бу механизм:

Наркожиноят содир этган аёллар сонининг 50 % га (496 нафардан 742 нафарга) ўсиб кетганлигини инобатга олиб, уларни оилавий муҳитга қайтариш имконини беради;

"Репрессия механизми"ни ижтимоий мослашув билан алмаштириш орқали рецидив (такрорий) жиноятчиликни камайтиради;

Давлат бюджетининг қамоқхоналарни сақлаш харажатларини тежайди ва шахсни иқтисодий фаол қатламга қайтаради.

Ушбу таклифлар Миллий стратегияда белгиланган "Гиёҳвандликдан холи ҳудуд" концепциясини ҳуқуқий жиҳатдан мустаҳкамлашга хизмат қилади.

Учинчидан, Миллий стратегия[1] доирасида кибер-тергов ва рақамли изларни тўплаш бўйича махсус ҳуқуқий базани шакллантириш, наркосавдода фойдаланиладиган телеграм-бот ва веб-сайтларни судгача блоклашнинг соддалаштирилган тартибини жорий этиш.

Бунда, наркосавдонинг рақамли маконга (даркнет, телеграм-ботлар ва крипто-тўловлар) ўтиши анъанавий тезкор-қидирув усуллари самарадорлигини пасайтирмоқда. Бу эса кибер-тергов ва веб-ресурсларни тезкор блоклаш бўйича махсус ҳуқуқий ва институционал механизмларни жорий этишни тақозо этади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-73-сон Фармони[2]да белгиланган вазифалар асосида ушбу механизмларни қуйидагича шакллантириш таклиф этилади:

1. Рақамли излар (IP-манзиллар, транзакциялар занжири, мета-маълумотлар) наркожиноятларни фош этишда асосий восита ҳисобланади. "Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида"ги Қонуннинг **14-модда** (Тезкор-қидирув тадбирларининг турлари)**сига** қўшимча тезкор-қидирув тадбирлари қаторига **"Кибер-кузатув ва рақамли изларни мониторинг қилиш"** ҳамда **"Виртуал назорат остида сотиб олиш"** тадбирларини алоҳида тур сифатида киритиш.

Амалга ошириш механизми қуйидагича:

-ИИВ Киберхавфсизлик маркази ва Миллий марказ қошида махсус "Digital Intelligence" (Рақамли разведка) бўлинмасини ташкил этиш.

-ЖПКнинг 204-2-моддасига мувофиқ, рақамли изларни мутахассис иштирокида "Hash-функция" (маълумот айнанлигини тасдиқловчи рақамли код) орқали муҳрлаш ва электрон далиллар реестрига киритиш.

-Блокчейн тармоқларидаги шубҳали транзакцияларни кузатувчи дастурий таъминотни (масалан, Chainalysis ёки Crystal) ҳуқуқий жиҳатдан тан олиш ва улардан олинган маълумотларни далил сифатида қабул қилиш.

2. Наркосавдода ботларнинг "умри" жуда қисқа (24-48 соат) бўлгани сабабли, анъанавий суд тартибида блоклаш механизми ўз вақтида натижа бермайди. "Ахборотлаштириш тўғрисида"ги Қонуннинг **12[1]-моддаси[3]га** ва

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 6 майдаги ПФ-73-сон Фармони билан тасдиқланган "2024 — 2028 йилларга мўлжалланган Миллий стратегия" // https://lex.uz/uz/docs/-6912475.

[2] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 6 майдаги ПФ-73-сон Фармони билан тасдиқланган "2024 — 2028 йилларга мўлжалланган Миллий стратегия" // https://lex.uz/uz/docs/-6912475.

[3] Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 11 декабрдаги 560-II-сон "Ахборотлаштириш тўғрисида"ги Қонуни // https://lex.uz/docs/83472.

Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 5 сентябрдаги 707-сонли “Бутунжаҳон Интернет тармоғида ахборот хавфсизлигини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги билан тарқатилиши тақиқланган ахборот мавжуд бўлган Интернет тармоғи веб-сайтидан ва (ёки) веб-сайт саҳифаларидан фойдаланишни чеклаш тартиби тўғрисидаги Низом”[1]нинг **4-бандига “**Гиёҳвандлик воситаларини тарқатувчи интернет-ресурслар ва телеграм-ботларни **"Экстремал вазиятларда тезкор блоклаш"** ҳуқуқини бериш” билан боғлиқ ўзгартириш киритиш.

Ушбу таклифни амалга ошириш механизми қуйидагича:

-@stopnarko_bot каби жамоатчилик назорати тизимини ИИВнинг тезкор навбатчилик қисмига интеграция қилиш.

-агар ресурс наркотиклар сотилишини ёки уларнинг "закладка" (яширин жой) координаталарини реклама қилаётган бўлса, ваколатли орган (Миллий марказ ёки Рақамлаштириш вазирлиги) эксперт хулосаси асосида ресурсни **12 соат ичида** вақтинчалик (суд қарори чиққунга қадар) блоклаш тўғрисида провайдерларга мажбурий кўрсатма беради.

- телеграм маъмурияти билан ҳамкорликда наркосавдога оид калит сўзлар ва алгоритмлар асосида ботларни автоматик ўчириш бўйича "API-интеграция" механизмини йўлга қўйиш.

Ушбу механизмларнинг жорий этилиши:

-2024 йилда талабалар ўртасида наркожиноятларнинг 168%га ўсганлиги каби салбий динамикага нисбатан тезкор "кибер-тўсиқ" яратади;

-тайинланаётган 7 та янги турдаги кибер-экспертизалар орқали наркожиноятларнинг очилиш даражасини оширади;

-наркосавдогарларнинг виртуал макондаги "анонимлиги"ни йўқотиб, жамоат хавфсизлигини рақамли даражада таъминлашга хизмат қилади.

Мазкур таклифлар **"Миллий стратегия"нинг** гиёҳвандлик ва наркожиноятларнинг олдини олишга қаратилган сифат жиҳатдан янги механизмларни белгилаш вазифасини тўлиқ ижро этади.

Тўртинчидан, Таълим муассасаларида "Психологик иммунитет" дастурини ҳуқуқий мажбурият сифатида белгилаш ва ҳар бир маҳаллада “Антинаркотик ёшлар клублари”нинг ҳуқуқий мақомини мустаҳкамлаш.

Бунда, таълим муассасаларида **"Психологик иммунитет"** дастурини шунчаки тавсиявий эмас, балки **ҳуқуқий мажбурият** сифатида белгилаш

[1] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 5 сентябрдаги 707-сонли “Бутунжаҳон Интернет тармоғида ахборот хавфсизлигини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги билан тарқатилиши тақиқланган ахборот мавжуд бўлган Интернет тармоғи веб-сайтидан ва (ёки) веб-сайт саҳифаларидан фойдаланишни чеклаш тартиби тўғрисидаги Низом”

механизми 2024–2028 йилларга мўлжалланган Миллий стратегия мақсадларига тўлиқ мос келади.

Ушбу дастурни қонунчиликда мустаҳкамлаш ва ижросини таъминлаш бўйича қуйидаги аниқ ҳуқуқий механизмларни таклиф этамиз:

1. Таълим олувчиларнинг маънавий ва психологик хавфсизлигини таъминлаш таълим жараёнининг ажралмас қисми сифатида белгиланиши лозим. 2020 йил 23 сентябрдаги **"Таълим тўғрисида"ги** ЎРҚ-637-сон Қонуннинг **47-моддасини** (Таълим олувчиларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари) таълим муассасаларининг мажбурияти сифатида қуйидаги банд билан тўлдириш: "Таълим муассасалари таълим олувчиларда гиёҳвандлик, кибержиноятлар ва бошқа деструктив ғояларга нисбатан барқарор **“Психологик иммунитет”ни** шакллантириш бўйича мажбурий дастурларни амалга ошириши шарт".

2. Таълим органларининг профилактика соҳасидаги ваколатларини аниқлаштириш зарур. 2014 йил 14 майдаги "Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида"ги Қонуннинг 17-моддасига (Таълимни давлат томонидан бошқариш органлари ва таълим муассасаларининг ваколатлари) янги ваколат сифатида қуйидагини киритиш: "Таълим муассасаларида “Психологик иммунитет” ва **“Эрта аниқлаш ва аралашув”** дастурларини идоралараро ҳамкорлик асосида мажбурий жорий этиш ҳамда ҳар бир муассасада **“Психолог-координатор”** фаолиятини йўлга қўйиш".

3. Ҳуқуқий мажбурият ишлаши учун қуйидаги қуйи-норматив тизим яратилиши лозим:

- Вазирлар Маҳкамасининг қарори билан "Таълим муассасаларида “Психологик иммунитет” дастурини ўтказиш тартиби тўғрисида"ги Низомни тасдиқлаш. Унда дастурнинг соатлари, методикаси ва баҳолаш мезонлари белгиланади;

- Ўқувчи ва талабалар ўртасида йилда икки марта деструктив хулқ-атворга мойилликни аниқловчи **мажбурий психологик тест (скрининг)** ўтказиш тизимини жорий этиш. Бу 2024–2028 йилларга мўлжалланган Миллий стратегиясидаги "хавфли гуруҳ"ларни электрон ҳисобга олиш вазифаси билан боғланади;

- Таълим муассасасининг йиллик рейтингини белгилашда "Психологик иммунитет" дастурининг самарадорлик кўрсаткичини (KPI) мажбурий мезон сифатида киритиш.

4. Мажбурият бажарилмаган тақдирда жавобгарлик бўлиши лозим. Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексига қуйидаги мазмундаги **янги 56^{5}-моддани** киритиш:

"**56^{5}-модда. Таълимда психологик иммунитетни таъминлаш тартибини бузиш**

Таълим муассасалари раҳбарлари томонидан ўқувчиларда соғлом турмуш тарзини шакллантириш ва “Психологик иммунитет” дастурини амалга ошириш бўйича белгиланган ҳуқуқий мажбуриятларни бажармаслик -

мансабдор шахсларга **базавий ҳисоблаш миқдорининг 10 бараваридан 15 бараваригача** миқдорда жарима солишга сабаб бўлади".

Ушбу механизмнинг жорий этилиши Миллий стратегия ижросини тизимли таъминлайди ва 2024 йилда талабалар ўртасида наркожиноятларнинг **168 фоизга** ўсиши каби салбий тенденцияларни тўхтатишга хизмат қилади.

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЙ ПРОФИЛАКТИКИ ЭКСТРЕМИЗМА И ТЕРРОРИЗМА

Закурлаев Абдумутал Каримович
Доктор юридических наук (DSc), профессор Университета Общественной безапасности Республики Узбекистан,

Изучением преступности и ее причин, механизма преступного поведения, личности преступника занимались ещё с XIX века[1]. в настоящее время данные категории продолжают изучаться исследователями [2] в целях выработки общей теории предупреждения преступлений, в частности терроризма. Понятие «предупреждение преступлений» трактуется в различных вариациях, однако большинство авторов придерживаются точки зрения, которая определяет предупредительную деятельность органов внутренних дел как совокупность различных взаимосвязанных между собой мер, проводимых как государственными органами, так и общественными организациями, направленных на то, чтобы предотвратить преступления и устранить причины, их порождающие [3]. В систему предупреждения преступлений входят самые разнообразные виды предупредительной деятельности. Одним из них является оперативно-розыскная профилактика преступлений. В настоящее время предупреждение преступности в целом, и оперативно-розыскная профилактика преступлений, в частности представляет сложившуюся систему воздействия на негативные, общественно опасные, противоправные явления и их причинный комплекс с целью реализации в исторической перспективе тенденции постепенного снижения уровня преступности. Поэтому одной из важнейших задач всех субъектов, осуществляющих борьбу с терроризмом, является его предупреждение (профилактика). Реализация указанной задачи связана не только с необходимостью недопущения новых проявлений терроризма после совершения террористических актов, но и с работой субъектов профилактики по выявлению 316 детерминантов террористической деятельности, которая определяется многими как узбекскими [4], так и зарубежными [5]

исследователями, по сути, важной профилактической мерой, направленной на противодействие террористическим проявлениям. Как уже отмечалось, одним из субъектов, привлекаемых к борьбе с терроризмом, является Министерство внутренних дел Республики Узбекистан, руководство которого уделяет должное внимание предупреждению (профилактике) террористических проявлений. Так, на ежегодно проводимых заседаниях коллегии МВД Республики Узбекистан, подводятся итоги оперативно-служебной деятельности органов внутренних дел и служебно-боевой деятельности караульных войск Министром внутренних дел отмечается, что одним из приоритетных направлений деятельности МВД Республики Узбекистан является именно профилактическая работа. Слаженные действия всех правоохранительных структур позволяют нейтрализовать серьезные террористические акции. За последние годы на территории Узбекистана не совершались преступления террористического характера. Однако подготовительные действия к этому выявлялись. В этой связи, как отмечалось в материалах коллегии МВД, правоохранительные органы и спецслужбы должны еще более активно работать именно на опережение. Обязаны целенаправленно выявлять и ликвидировать «террористические подполья», лишать их инфраструктуры, связей, источников финансирования [6]. Предупреждение преступлений как одно из приоритетных направлений деятельности органов внутренних дел в целом и оперативных подразделений, в частности, нашло свое нормативно-правовое закрепление как на законодательном, так и ведомственном нормативном уровне [7]. Предупреждение (профилактика) преступлений, как одна из основных задач ОРД органов внутренних дел, в теории получила название «оперативно-розыскная профилактика» [8]. Предупреждение преступлений оперативно-розыскными мерами весьма действенное и перспективное направление деятельности оперативных подразделений органов внутренних дел. По сравнению с уголовно-правовым предупреждением, где меры профилактики преступления осуществляются в процессе назначения и исполнения наказания, оперативно-розыскное предупреждение отличается большей эффективностью. Оно позволяет достичь поставленных целей в сжатые сроки, с меньшими материальными и моральными потерями, обеспечивает предупреждение тяжких последствий. На этом основывается высокая нравственная оценка предупредительных мер оперативно-розыскного характера, которые разрабатываются в рамках одной из основных организационно-тактических форм оперативно-розыскной деятельности органов внутренних дел – оперативно-розыскной профилактики. По мнению профессора В.А. Лукашова, оперативно-розыскная профилактика, имея тот же объект исследования − преступность, изучает, однако, лишь те ее стороны, которые обнаруживаются и

фиксируются оперативно-розыскным путем [9]. В поле зрения оперативных подразделений находятся лишь лица, замышляющие конкретные преступления, тайно готовящие их совершение или покушающиеся на них. В этой связи оперативно-розыскная профилактика характеризуется особенностями негласной деятельности оперативных подразделений органов внутренних дел по воздействию на профилактируемых лиц в целях недопущения преступлений, принятию необходимых мер, исключающих их реализации. Принципиальной особенностью оперативно-розыскной профилактики является также то, что она сопровождается специфическим информационным обеспечением оперативно-профилактических мер, которые осуществляются в отношении лиц, обоснованно подозреваемых в подготовке или совершении преступлений террористического характера. Оперативные подразделения органов внутренних дел в целом, осуществляя оперативно-розыскные, оперативно-поисковые, оперативно-технические мероприятия по предупреждению, выявлению, пресечению и раскрытию преступлений, отнесенных к их компетенции, выполняют значительную часть функций по обеспечению безопасности стратегических, оборонных и важных народно-хозяйственных объектов, оперативному прикрытию государственной границы, борьбе с терроризмом, коррупцией и рядом других видов организованной преступности, вынуждены применять главным образом негласные конспиративные методы работы в целях получения упреждающей информации и использования ее в интересах обеспечения национальной безопасности, являясь одним из ее субъектов. Вместе с тем серьезно осложняет работу по оперативно-розыскной профилактике преступлений то обстоятельство, что в настоящее время не только организованная, но и общеуголовная, включая экономическую, преступность использует новейшие достижения науки и техники [10]. Особенно это характерно для террористических организаций, деятельность которых зачастую направляется, организуется и финансируется отдельными государствами и международными террористическими организациями. Их материальная база позволяет использовать при этом весь спектр специальных технических средств, включая проведение контртехнических мероприятий. Осуществление мер оперативно-розыскной профилактики особо актуализирует возможность инициативного проведения мероприятий оперативными подразделениями органов внутренних дел, поскольку террористическая среда не связана либо слабо связана с криминальным миром и процесс добывания информации о готовящихся преступлениях обычными методами (например: на основе анализа материалов проводимых оперативно-розыскных мероприятий и пр.) затруднен. При этом в основу организации оперативно-розыскной деятельности органов внутренних дел, 318 ориентированной на обнаружение, установление способов

подготовки и совершения рассматриваемых преступлений, может быть положено выявление признаков такой подготовки. Как отмечают авторы учебника по уголовному праву: «юридическая констатация приготовления как стадии совершения преступления правомерно только тогда, когда лицо создает условия для совершения или сокрытия конкретного преступления, имея намерение продолжить его совершение и довести до конца» [11]. Поэтому процесс подготовки к совершению преступлений террористического характера не имеет принципиального отличия от приготовления к общеуголовному преступлению и состоит, прежде всего, в сборе информации об объекте, на который предполагается совершение террористического акта, а также в приискании, изготовлении или приспособлении лицом средств или орудий совершения преступления; подборе соучастников; сговоре на совершение преступления и иное умышленное создание условий для совершения преступлений. С учетом этого в данной ситуации проблема для оперативных подразделений заключается в своевременном обнаружении признаков подготовки к совершению преступлений террористического характера и может состоять, например, в наблюдении за определенным объектом, а также в иных действиях разведыва-тельного характера. Следовательно, в основе решения указанной проблемы должна лежать результативная система источников информирования о существовании таких признаков. И все же задача оперативно-розыскной профилактики в сфере борьбы с терроризмом в целом отличается от задач, решаемых в борьбе с общеуголовной преступностью. Так, основными задачами оперативно-розыскной профилактики в сфере борьбы с уголовным криминалом являются предупреждение готовящихся преступлений и их пресечение на начальной стадии совершения, разобщение преступных групп, индивидуальная профилактическая работа с лицами, склонными к совершению противоправных деяний, с целью принуждения их к отказу от преступных замыслов и разрыву с криминальной средой. Ситуация в террористической среде носит иной характер. Так как члены террористических организаций отличаются особым фанатизмом и психологической готовностью идти до конца − до совершения террористических актов с многочисленными жертвами и разрушениями, осуществления массированного террора в отношении представителей власти и лиц, по тем или иным причинам, являющихся их идеологическими противниками, террористы видят в смерти, своей или чужой, единственный путь решения, возникших перед ними проблем, не испытывают страха перед возможной гибелью. Особенно характерно это для террористических организаций, идеологической основой которых являются религиозные убеждения. Высшим проявлением культового фанатизма такого рода является шахидства(самубийства во имя Аллаха) − движение террористов-

смертников, убежденных, 319 что в случае их гибели при совершении террористического акта они будут причислены к лику святых. Оперативно-розыскная деятельность, позволяющая достичь нужных результатов при осуществлении оперативно-розыскной профилактики в криминальной среде в отношении террористов-фанатиков, как правило, не приводит к их отказу от преступных замыслов, а лишь заставляет принимать дополнительные меры конспирации и изменять место и время терактов. Таким образом, в отношении террористических организаций и групп на первый план выдвигается задача выявления фактов совершения разного рода преступлений, неизбежных при подготовке к теракту и связанных, например, с незаконным оборотом оружия и взрывчатых веществ, подделкой документов, незаконным выездом за границу или незаконным въездом в Республику Узбекистан (пересечением государственной границы, незаконной миграцией), контрабандой оружия, подкупом должностных лиц в ходе проникновения на особо охраняемые объекты и ряда других противоправных деяний. Только в этом случае возможно задержание участников террористических групп, их осуждение за преступления, не представляющие такой опасности для общества, как терроризм, либо за подготовку к терактам с последующим осуждением и изоляцией на длительные сроки в местах лишения свободы, с высылкой иностранных граждан за пределы Республики Узбекистан. Именно такую тактику можно реально считать профилактикой готовящихся террористических актов. Так, непосредственно во всех регионах Узбекистана и, в частности, граничащих с Афганистаном (Сурхандарьинская область), Таджикистаном (Ташкентская, Самаркандская, Сырдарьинская области), Кыргызстаном (Ферганская долина) органами внутренних дел ежегодно проводятся комплекс оперативно-профилактических мероприятий по недопущению совершения актов терроризма, обеспечению общественной безопасности и стабилизации оперативной обстановки, в ходе которой подразделениями силовых структур и государственными органами, органами власти на местах осуществляются оперативно-розыскные, разведывательно-поисковые и профилактические мероприятия. В результате таких мероприятий, как правило, нейтрализуются преступные группировки, задерживаются участники незаконных вооруженных формирований и лиц, подозреваемых в причастности к ним, изымаются предметы и орудия преступления. Вышеперечисленные данные свидетельствуют о важности мер оперативно-розыскной профилактики в условиях повышенной террористической активности, именно они предотвратили ряд террористических актов с многочисленными человеческими жертвами и большими материальными последствиями.

Литература

1. Ломброзо Ч. Преступление. Новейшие успехи науки о преступнике. Анархисты. - М.: ИНФРА-М, 2004; Тард Г. Преступник и преступление. Сравнительная преступность. Преступление толпы. - М.: ИНФРА-М, 2004.

2. Пулатов Ю.С., Зарипов З.С. Криминологические аспекты предупреж-дения терроризма: Учебное пособие. – Ташкент: Издательство Института философии и права им. И. Муминова, 2007; Пулатов Ю.С., Норматов К., Файзиев С. Террористическая деяте-льность и некоторые вопросы противодействия ей: Учебное пособие. – Ташкент: Издательство Института философии и права им. И. Муминова, 2008;

3. Антонян Ю.М. Терроризм. Кримиминологическое и уголовно-правовое исследование. – М.: ВНИИ МВД СССР, 1998;

4. Чухвичев Д.В. Терроризм: история и современность //Труды Московской юридической академии. – М., 1997. – С. 119-125;

5. Ашимбаев М., Косиченко А. Соврмен-ный терроризм: взгляд из Центральной Азии. – Алматы: Дайк-Пресс, 2002; Dispo L. Machine a terreur. – 1978;

6. Daniker G. Antiterrorstrategie: Fakten, Folgerungen, Forderungen. Neue wege der Terroristenbekampfung. – Stuttgart, 1978.

7. Криминология: Дарслик /З.С. Зарипов, А.С. Якубов, Г.А. Аванесов ва обшқ. - Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2006. - С. 154- 155; Криминология и профилактика преступлений: Учебник /Под ред. А.И. Алексеева. - М.: МВШМ МВД СССР, 1989. - С. 220.

8. См.: Закурлаев А.К., Пулатов Ю.С. Формирование умысла и мотивации преступле-ний террористического характера. – Ташкент: Ташкентский государственный юридичес-кий университет, 2014. – С. 9-12;

NARKOJINOYATLARGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA UCHUVCHISIZ UCHADIGAN APPARATLARNING O‘RNI

Magrubov Mansur Mirkomilovich,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Maxsus operatsiyalarni muvofiqlashtirish boshqarmasi xodimi

Annotatsiya: Giyohvandlik vositalarining savdosi bilan shug‘ullanuvchi shaxslarni ushlash, ularni aniqlash yoki ushbu turdagi jinoyatlar haqida ma’lumotlarni tezkorlik bilan olish hamda oldini olish maqsadida hozirgi kunda yangi usul va metodlar orqali kurashishni zamon taqozo etmoqda.

Jamoat xavfsizligi juda keng tushuncha bo‘lib, mamlakat xavfsizligining asosiy negizi hisoblanadi. Zero, jamoat xavfsizligini ta’minlash orqali biz mamlakat hamda millat xavfsizligini ta’minlagan bo‘lamiz. Bugungi kunda dunyoda jamoat xavfsizligini ta’minlashning aniq bir yagona tartibi ishlab chiqilmagan. Jamoat xavfsizligini ta’minlashning nazariy jihatdan juda ko‘p ilmiy metodologiyasi ishlab

chiqilganiga qaramasdan, uning asosiy metodologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha aniq fikr mavjud emas.

Bugungi kunda turli mamlakatlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlari jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini saqlash maqsadida maxsus vositalar ishlatilishini kuzatishimiz mumkin. Ammo, maxsus vositalarning xodimlar tomonidan to‘g‘ri hamda qonuniy qo‘llanilishini ham unutmasligimiz hamda maxsus vositalarning qo‘llanilishi oqibatida inson hayotiga va sog‘ligiga jiddiy xavf tug‘dirishi mumkin.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash bevosita jamoat tartibini saqlash bilan bog‘liq bo‘lib, turli ommaviy tartibsizliklarni oldini olishda huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari asosiy o‘rinni egallaydi.

Yangi texnologiyalar sohasining turli fuqarolik sohalariga kirib kelishi, insonlarning mehnat faoliyatini anchayin yengillashtirib, ayrim sohalarning rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Uchuvchisiz uchadigan apparatlar ham shular jumlasidandir. Bugungi kunda uchuvchisiz uchadigan apparatlar yoki xalq orasida mashhur bo‘lgan dronlar fuqarolik sohalarining turli jabhalarida ishlatilib kelinmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamoat xavfsizligi va tartibini saqlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, 2024-yil 7-iyun kuni Davlatimiz rahbarining Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamentining Muvofiqlashtirish va monitoring qilish markaziga tashrifi chog’ida jamoat xavfsizligini ta’minlashda zamonaviy ilg‘or texnologiyalardan foydalanish lozimligi haqida alohida ta’kidladilar [1].

Turli mamlakatlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan jinoyatlarning oldini olish hamda giyohvand moddalar savdosining oldini olish maqsadida uchuvchisiz uchadigan apparatlardan keng foydalanib kelinmoqda[2].

Uchuvchisiz uchadigan apparatlarning qo‘llanilishi operativ vaziyat bo‘yicha ma’lumotlarni tezkorlik bilan olish bilan bir qatorda, samaradorlik ko‘rsatkichlarini oshiradi va xodimlarning xavfsizligini ta’minlaydi.

Uchuvchisiz uchadigan apparatlar yordamida giyohvandlik jinoyatlari yoki ularning savdosiga chek qo‘yish hamda quyidagi maqsad va yo‘nalishlarda ishlatilib kelinmoqda:

1. Razvedka va kuzatuv. Havodan dronlar yordamida kuzatuv orqali giyohvandchilik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan guruhlarning faoliyatini o‘rganish, ularning joylashuvi, harakatlanish tartibini hamda giyohvand moddalar ekiladigan maydonlarni aniqlash va chegara hududlarini nazorat qilish maqsadlarida;

---

[1] 2024-yil 7 iyun kuni Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamentining Muvofiqlashtirish va monitoring qilish markaziga tashrifi https://president.uz/oz/lists/view/7301 (murojaat sanasi 10.03.2026)

[2] Управление ООН по наркотикам и преступности (UNODC) разъясняет комбинированное использование беспилотных летательных аппаратов и наземных систем наблюдения, https://surl.lt/pjihwv (murojaat sanasi 25.03.2026)

2. Operativ (tezkor) harakatlanish. Dronlar yordamida havodan turib vaziyatni tug‘ri va tezkorlik bilan baholash orqali, yerdagi xodimlarga tezkorlik bilan ma’lumotlarni yetkazish hamda ushbu ma’lumotlar orqali giyohvandlik savdosi bilan shug‘ullanuvchi shaxslarni tezkorlik bilan ushlash (masalan zakladchiklarni);

3. Dalillarni yig‘ish. Jinoyat sodir bo‘lgan yoki sodir etilishi mumkin bo‘lgan holatlarni havodan turib foto va videotasvirga olish orqali dalillarni to‘plash, ularni tahlil qilish hamda yig‘ish (kelgusida jinoyat ishlarida va sudlarda dalil sifatida ishlatish) maqsadida;

4. Maxsus texnologiyalarni qo‘llash. Dronlarga so‘ngi rusumdagi yangi texnologiyalarni ya’ni teplovizorlar, turli o‘lchash uchun mo‘ljallangan datchiklar, yuqori aniqlikda ko‘rsatuvchi va yaqinlashtiruvchi foto va video kameralar va boshqa shu kabi jihozlar orqali ob havoning har qanday holatida ma’lumotlarni yig‘ish maqsadida;

5. Shaxsiy tarkib xavfsizligi. Shaxsiy tarkibning barcha tezkor holatlarda hayoti va sog‘ligiga xavfni minimallashtirish maqsadida turli jinoyatchilarni quvish, o‘tishi va chiqishi qiyin bo‘lgan joylar, binolarga aynan dronlar yordamidan foydalanish mumkin deb hisoblaymiz[1].

Huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan yuqorida ko‘rsatilgan va shu kabi boshqa sohalarda dronlardan keng ko‘lamli foydalanishi qaramasdan, giyohvandchilik savdosi bilan shug‘ullanuvchi shaxslar ham ulardan foydalanishning yangidan yangi usullaridan foydalnishda davom etishmoqda.

Jumladan,

Qo‘riqlanadigan jazoni ijro etish muassasalariga yetkazish va chegara hududlaridan giyohvandlik vositalarini olib o‘tishda;

Huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining xizmat yo‘nalishlarini kuzatish orqali xavfsiz yo‘l(lar) orqali giyohvandlik vositalarini yetkazish yoki o‘tkazishda;

Bazi bir holatlarda turli predmetlarni joylashtirish orqali huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlariga hujum qilishda (masalan, qo‘lbola portlovchi qurilmalar joylashtirish orqali) qo‘llashmoqda[2].

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan shunday jamoat xavfsizligi bilan bog‘liq tahdidlarni bartaraf etish maqsadida, ularni aniqlash va ularga radiobosim berish hamda qarshi kurashish tizimlarini ishlab chiqib, qo‘llashmoqda.

Mamlakatimizda jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma’muriy hamda jinoiy javobgarliklar belgilangan. Jumladan, Ma’muriy javobgarlik

---

[1] Law Enforcement and Technology: Use of Unmanned Aircraft Systems, https://surl.li/vmyewn (murojaat sanasi 25.03.2026)

[2] Crime by drone, A new paradigm for organized crime, https://surl.li/tcungr (murojaat sanasi 13.03.2026)

to‘g‘risidagi kodeksning[1] 15-bobi aynan *“Jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar”*ga bag‘ishlangan. Ushbu bobning 183-moddasidan 192-moddasigacha aynan jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklarning gipoteza, dispozitsiya va sanksiyalari keltirib o‘tilgan.

Hozirda dunyoda jamoat xavfsizligini ta’minlashda yangi texnologik yutuqlardan shu jumladan uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qo‘llash amaliyoti huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan keng qo‘llanilmoqda. Bu esa o‘z navbatida xodimlardan ushbu texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha bilimlarini muntazam oshirib borishlarini va huquqiy asoslarni bilishlarini taqozo etadi. O‘z navbatida ushbu texnologiyalarning jamoat xavfsizligida qo‘llashning huquqiy asoslarini ham qonunchilikda mustahkamlab qo‘yish lozim.

Xulosa o’rnida shuni aytishimiz mumkinki, bunday jamoat tartibsizliklarini oldini olish, jamoat tartibini saqlash yoki jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun

jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlash;

aholining huquqiy ongi va siyosiy-huquqiy madaniyatini, siyosiy hamda ijtimoiy faolligi, fuqarolik mas’uliyatini oshirish asosida mamlakatda huquqiy jamiyatni barpo etish va mustahkamlash;

huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini qurish, davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini mustahkamlash, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda jamoatchilik ishtirokini imkon qadar kengaytirish;

mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida o‘zini o‘zi boshqarish organlari (mahallalar), nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalarining faol va bunyodkor rolini, jamiyat va davlatning o‘zaro hamkorligi samaradorligini oshirish;

jamiyatda millatlararo va dinlararo munosabatlarni, diniy bag‘rikenglik madaniyatini, do‘stlik, o‘zaro hamkorlik va gumanizmni har tomonlama mustahkamlash;

dunyoda doimiy ravishda kechayotgan o‘zgarishlar va ular bilan bog‘liq real hamda ehtimoliy tahdidlar sharoitida jamiyatning o‘zligini (tili, madaniyati, ijtimoiy tuzilishi, milliy o‘ziga xosligi va dinini), ya’ni o‘zini o‘zi saqlab qolish qobiliyati va salohiyatini mustahkamlash[2] lozim.

Zero, jamoat xavfsizligini ta’minlanganligi mamlakat xavfsizligini ta’minlanganligi bilan tengdir.

---

[1] O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi https://lex.uz/docs/-97664 (murojaat sanasi 07.03.2026)

[2] “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi Konsepsiyasi” 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son Farmoni. 2-band.

Foydalanilgan adabiyotlar va ijtimoiy tarmoqlar ro‘yxati:

1. 2024-yil 7-iyun kuni Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamentining Muvofiqlashtirish va monitoring qilish markaziga tashrifi https://president.uz/oz/lists/view/7301 (murojaat sanasi 10.03.2026).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni https://lex.uz/ru/docs/-5749291 (murojaat sanasi 10.03.2026).
3. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi https://lex.uz/docs/-97664 (murojaat sanasi 07.03.2026).
4. Crime by drone, A new paradigm for organized crime, https://surl.li/tcungr (murojaat sanasi 13.03.2026).
5. Управление ООН по наркотикам и преступности (UNODC) разъясняет комбинированное использование беспилотных летательных аппаратов и наземных систем наблюдения, https://surl.lt/pjihwv (murojaat sanasi 25.03.2026).
6. Law Enforcement and Technology: Use of Unmanned Aircraft Systems, https://surl.li/vmyewn (murojaat sanasi 25.03.2026).

MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLARDA GIYOHVAND MODDALAR YETISHTIRISHNING OLDINI OLISH ASOSLARI

Baxtiyorov Faxriyor Akromjon o‘g‘li,
Jamoat xavfsizligi universiteti Davlat huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi o‘qituvchisi, leytenant

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tashkil etiladi. Uni tashkil etish zaruriyatining iqtisodiy va ekologik asoslari ushbu hududning to‘liq tavsiflovchi hujjatda o‘z aksini topadi. Uning nusxalari Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi hamda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ma’muriyatida saqlanadi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladi. Ular mustaqil balansga ega yuridik shaxs hisoblanadi.

Shu o‘rinda qayd etish zarurki, Yevropa mamlakatlarida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bo‘yicha maxsus vakolatli davlat organlari tashkil etilgan. Chunonchi, Germaniyada – Tabiatni muhofaza qilish Federal agentligi, Shveysariyada – Atrof muhit, o‘rmon va landshaftlar Agentligi, Buyuk Britaniyada – Atrof muhit, qishloq xo‘jaligi va biologik xilma-xillik Departamenti, Ispaniyada – Tabiatni muhofaza qilish Bosh Direksiyasi, Ruminiyada – Biologik xilma-xillikni saqlash va muhofaza qilish bo‘yicha Direktorat (suv, atrof muhit, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va tabiat yodgorliklari vazirligi bilan bir qatorda), Norvegiyada – Tabiatni muhofaza qilish

Direktorati, Chexiyada – Tabiatni muhofaza qilish va landshaftlarni muhofaza qilish Agentligi[1]

O‘zbekiston Respublikasi “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonunining kamchiliklaridan biri unda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish tartibi to‘g‘risida aniq normalarning mavjud emasligidadir.

Davlat organlarining boshqaruv faoliyatida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish jarayoni muhim o‘rin egallaydi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tashkil etish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi: alohida tashkilot va muassasalarning muhofaza etiladigan tabiiy hudud tuzish to‘g‘risidagi tashabbus bilan chiqishi; muhofaza etiladigan tabiiy hudud tashkil etish bo‘yicha loyiha ishlarini ma’muriyati to‘g‘risida qaror qilish; ma’muriyatning yer egalari va yerdan foydalanuvchilar bilan muhofaza etiladigan tabiiy hududni joylashtirish bo‘yicha kelishgan holda, shuningdek, yer tanlash to‘g‘risidagi hujjatga asosan qaror qabul qilishi; davlat hokimiyati organi qarorining tayyorlanishi va muhofaza etiladigan tabiiy hudud loyihasining Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasiga ko‘rib chiqish, manfaatdor vazirlik va qo‘mitalar bilan kelishish hamda O‘zR Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish uchun yuborish[2].

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tashkil etish bosqichlarini ko‘rib chiqamiz: Birinchi bosqich muhofaza etiladigan tabiiy hududni tashkil etish tashabbusi bilan chiqish deb nomlanadi. Bunday tashabbus bilan quyidagilar chiqishi mumkin: ijroiya hokimiyati organlari, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, yuridik shaxslar, shu jumladan jamoat birlashmalari. muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tashkil etish tashabbusi bilan chiqishga haqli bo‘lgan ushbu ro‘yxat fuqarolarning davlat hokimiyati, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga, shuningdek, jamoat birlashmalariga muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tashkil etish to‘g‘risidagi tashabbus bilan chiqishlariga to‘sqinlik qilmaydi[3].

Muhofaza etiladigan tabiiy hududni tashkil etish tashabbusi bilan chiqayotganlar zarur hujjatlarni tayyorlashlari lozim bo‘ladi: iltimomnoma, hududning reja-sxemasi, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga kiritilgan yer va boshqa tabiiy obyektlar tavsifi, muhofaza etiladigan tabiiy hudud tashkil etishning iqtisodiy-ekologik zaruriyati; noyob va yo‘qolib borayotgan o‘simlik hamda hayvonot dunyosi vakillarining mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumot; muhofaza etiladigan tabiiy hudud nizomi loyihasi; mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organining muhofaza etiladigan tabiiy hudud tashkil etishda roziligi to‘g‘risidagi qarori; yerdan foydalanuvchilar, shuningdek tabiatdan foydalanuvchilarning roziligiga oid hujjatlar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish zaruriyatidan darak beruvchi boshqa hujjatlar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hujjatlarni taqdim etish to‘g‘risida qaror qabul qiluvchi davlat organlari, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni

tashkil etish, kengaytirish va o‘zgartirish to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqishda kelib tushgan taklifni inobatga olishlari lozim[4]

Ikkinchi bosqich muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni rejalashtirish va loyihalashtirishdir. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etishda loyiha ishlarining boshlanishi bu boradagi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organi qarori bilan belgilanadi. [5]

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etishning uchinchi bosqichi yer munosabatlari qatnashchilari roziligini olish bo‘yicha tadbirlarni tashkil etish, deb nomlanadi hamda ushbu yerlarni muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni joylashtirish maqsadida ajratishni nazarda tutadi. Loyiha ishlarini o‘tkazish va yerdan foydalanuvchilar bilan yerni ajratish masalasida kelishuvga erishishga qaratilgan tadbirlar tashkil etilayotgan muhofaza etiladigan tabiiy hudud joylashadigan tegishli hudud hokimlari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat hokimiyati organlarining qaroriga texnik tekshiruv va o‘rmon, qishloq xo‘jaliklari tashkilotlari, fermer, yer uchastkasi mulkdori va foydalanuvchilari bilan kelishilganligi to‘g‘risidagi hujjatlar ilova qilinadi. Bunday kelishuv akt, bayonnoma, ma’lumotnoma, xat yoki xulosa shaklida rasmiylashtirilishi hamda qonunda ko‘zda tutilgan tartibda tasdiqlanishi lozim. Tuman hokimi barcha zarur ma’lumot va hujjatlarni loyiha ishlarini boshlash to‘g‘risida qaror qabul qilgan davlat hokimiyati organiga yuboradi.

Navbatdagi bosqich muhofaza etiladigan tabiiy hudud tashkil etilishi mo‘ljallanayotgan yer uchastkasini uning cheklangan xo‘jalik faoliyati rejimini hamda aniq chegaralarini belgilash maqsadlarida zaxiraga olishni (zaruriyat bo‘lsa) nazarda tutadi[6].

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etishning muhim bosqichi – bu maxsus vakolatli davlat organi tomonidan hujjatlarni davlat ekologik ekspertizasini o‘tkazish uchun Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasiga yuborish to‘g‘risida qaror qabul qilishdir. Ushbu hujjatlar tarkibiga quyidagilar kiradi: ushbu hududga muhofaza etiladigan tabiiy hudud maqomini berish zarurligini asoslovchi kompleks ekologik tadqiqot hujjati; davlat ekologik ekspertizasi asosida aniqlangan atrof tabiiy muhitga xo‘jalik va boshqa faoliyat ta’sirini baholash materiallari; qonunda belgilangan tartibda qo‘lga kiritilgan nazorat, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish, organlarining ijobiy xulosasi va (yoki) rozligini tasdiqlovchi hujjat; ijroiya hokimiyati orgnalarining muhofaza etiladigan tabiiy hudud tuzish loyihasi to‘g‘risidagi xulosasi, shuningdek, basharti o‘tkazilgan bo‘lsa, jamoat ekologik ekspertizasi xulosasi; muhofaza etiladigan tabiiy hududni tashkil etish loyihasining fuqarolar, jamoat birlashmalari (ittifoqlari) va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari bilan muhokama etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar. Davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasi mavjud bo‘lganda, davlat hokimiyat organi tegishli hududni muhofaza etiladigan tabiiy hudud sifatida ro‘yxatga

olishga olishga roziligi to‘g‘risida qaror qabul qiladi hamda hujjatlarni muhofaza etiladigan tabiiy hudud tashkil etish uchun O‘zR Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hudud tashkil etishning so‘nggi bosqichi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan muhofaza etiladigan tabiiy hududni ta’sis etish to‘g‘risidagi qarorning qabul qilinishidir.

Xulosa qilib aytganda, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish jarayoni murakkab va ko‘p bosqichli tartibga ega bo‘lib, u ekologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan muhim mexanizmdir. Ushbu jarayonda hududga alohida maqom berish zarurligini ilmiy asoslash, atrof-muhitga ta’sirni baholash, manfaatdor organlar va jamoatchilik fikrini inobatga olish kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasi hududni muhofaza etiladigan tabiiy hudud sifatida e’tirof etishda hal qiluvchi bosqich hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining **“**Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonuni**.**

2. O‘zbekiston Respublikasining **“**Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuni**.**

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish va boshqarish bilan bog‘liq qarorlari.

4. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi materiallari va rasmiy hujjatlari.

5. Yevropa davlatlarida atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha vakolatli davlat organlari faoliyatiga oid xalqaro tajribalar va ilmiy manbalar.

6. Ekologik huquq va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasiga oid ilmiy maqolalar va monografiyalar.

INNOVATSION AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA VOYAGA YETMAGAN SHAXSLAR O‘RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARNI OLDINI OLISH PROFILAKTIKASI

Xakberdiyev Samandar Abdusaidovich,
Sirdaryo viloyati, Guliston shahar IIB 2-son ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i
m.hakberdiev@mail.ru

Axborotlashtirish, raqamli transformatsiya, AKT rivojlanishi jarayonlari globallashuv jarayonlari bilan bir qatorda, shuningdek, axloqiy va qadriyat jihatlarini o‘z ichiga olgan yangi madaniy determinantlarning paydo bo‘lishi yangi axborot ijtimoiy-madaniy makonining shakllanishiga olib keladi, bunda tarbiya pedagogik komponent sifatida asta-sekin yo‘qolib bormoqda[1]. Bu rasmiy va norasmiy ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchilar uchun ko‘plab qiyinchiliklarni tug‘diradi.

O‘smirlik davrida yoshlarning “qonuniylik”, “qonuniy xulq-atvor” kabi tushunchalarga bo‘lgan qarashlarini tushunish yoki o‘zgartirish masalalari alohida qiziqish uyg‘otadi, chunki bu rivojlanish davri bo‘lib, odamlar jamiyat va uning institutlarini kattalar sifatida ko‘rib chiqa boshlaydilar, oila va maktab muhitidan tashqariga chiqadilar, qonunlar va qoidalarni turli ijtimoiy sharoitlarda ko‘rib chiqadilar, bu yerda ularning ahamiyati kattalar dunyosi bilan ko‘proq integratsiyalashadi[2]. Qonunga rioya qilish, davlat va huquq tizimidagi o‘z rolini tushunish bolaning kognitiv yetukligi va psixososyal rivojlanishiga bog‘liq[3]. Shu munosabat bilan, bola qonunga (qonun ustuvorligi) va huquqiy hokimiyatga yo‘nalishini erta yoshda rivojlantiradi va erta yo‘naltirish ham o‘smirlar, ham kattalarning xatti-harakatlarini shakllantiradi[4]. Psixososyal sabablarga qo‘shimcha ravishda, voyaga yetmaganlar tarbiya sohasidagi pedagogik tajribani ham hisobga olish kerak[5]. Oxir-oqibat, ta’kidlash mumkinki, globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, axborotlashtirish va jamiyatdagi u bilan bog‘liq o‘zgarishlar kriminologiya uchun bir qator yangi muammolarni tug‘diradi. Shu asosda yoshlar toifasi (voyaga yetmaganlar) dunyo va jamiyatdagi ushbu jarayonlarning barcha afzalliklari va kamchiliklarini ko‘rsatuvchi ko‘rsatkichdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi “Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo‘nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-sonli qarorida fuqarolar tomonidan mahalla profilaktika inspektorlari bilan onlayn muloqot qilish, foto, audio, video va tashvish xabarlarini yuborish, shuningdek, ularning faoliyatiga baho berish imkoniyatini beruvchi “Mening inspektorim” mobil ilovasini ishlab chiqish va ommalatirish choralarini ko‘rish belgilab berildi[6].

Bugungi kunga kelib, kompyuter tarmoqlarining yaratilishi va global aloqaning kengayishi bilan ijtimoiy hayot yangi bosqichga o‘tdi va insonning “ikkinchi hayoti” deb ataladigan virtual makon paydo bo‘ldi. I.S.Ashmanov ijtimoiy tarmoqlar orqali voyaga yetmagan shaxslarga “ommaviy xulq-atvor”ning amalda yuklanishiga ishora qilib, ushbu jamiyatga xos emas deb o‘z fikrini ilgari surdi. Unung fikriga ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilarga doimiy ravishda ma’lum bir tarzda o‘zini tutishga o‘rgatiladi, yangi reflekslarni yuklaydi. Masalan, flesh-moblar ommaviy avtomatik reaksiyalar odatini rivojlantiradi. Estafeta poygalari, testlar va o‘yinlarda ishtirok etish odamlarni ommaviy ravishda murojaatlarga amal qilishga o‘rgatadi. Natijada, foydalanuvchilar, o‘zlari ham sezmagan holda, targ‘ibot va axborot urushlarining ishtirokchilariga aylanadilar[7].

Xususan, Amerikalik o‘qituvchilar ijtimoiy tarmoqlarning voyaga yetmagan shaxslar psixologiyasiga zararli ta’siri haqida xavotir bildirib, 2023-yilda Sietldagi bir nechta maktablar vakillari Facebook, TikTok, YouTube, Instagram va Snapchatga qarshi sudga da’vo arizasi bilan murojaat qilishgan va ularning rahbariyatini depressiya va voyaga yetmagan shaxslarning erta balog‘tga etishining kuchayishini aytib, “...yoshlarning zaif tafakkuridan foydalanishdan...” foyda ko‘rishda ayblashgan[8]. Shu o‘rinda biz, zamonaviy texnologiyalar dunyosida voyaga yetmagan shaxsning ongini shakllantirishdagi qiyinchiliklarni hisobga olgan holda, I.Guryevaning fikriga qo‘shilamiz, uning fikricha, ijtimoiy tarmoqlar, internet saytlarining “... terroristik, ekstremistik, pornografik, o‘z joniga qasd qilish mavzularini, xavfli xatti-harakatlarni, taqiqlangan moddalarni iste’mol qilishni targ‘ib qilishga moyilligini” ta’kidlab, voyaga yetmagan shaxsning shaxsiy xavfsizligiga tahdid soladigan (video, audio matnlar), ularning jinoiy xatti-harakatlar sodir etish oqibatiga sabab bo‘lmoqda[9].

Ijtimoiy tarmoqlar va internet orqali ko‘p miqdorda pul ishlashning tez va oson yo‘llari, odatda kiberfiribgarlik, giyohvand moddalar savdosi, fohishabozlik va shantaj orqali amalga oshiriladigan takliflar bilan to‘la, bularning barchasi yoshlar tomonidan osongina foydalaniladi. Shu bilan birga, onlayn sodir etilgan huquqbuzarliklarning oldini olish yoki fosh etilish darajasi bugungi kunda mutaxassislarning kamligi sababli juda past darajada olib borilmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 2019-yil bilan taqqoslaganda, 2024-yilda kiber-jinoyatlar **taxminan 68 baravarga oshib, 863 tadan 58 800 tagacha o‘sgan. Xususan,** 2024-yilda jami 58 800 ta kiberjinoyat qayd etilgan bo‘lib, ularning 97,7 foizi fuqarolarning bank kartalari mablag‘lariga firibgarlik yo‘li bilan kirish bilan bog‘liqdir[10]. Voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan kiberjinoyatlarning o‘sish sur’ati faqat ortib bormoqda.

Barchamizga ma’lumki, jabrlanuvchining ongiga ta’sir qilish darajasida unga nisbatan qilingan bezorilik oqibatida o‘z joniga qasd qilishdan tortib, jinoyatchilardan qasos olishga chanqoqlikgacha olib kelish mumkin. Hatto o‘z joniga qasd qilish

holatlari ham onlayn tarzda sodir etilgan holatlarni bugungi kunda kelib tez-tez kuzatishimiz mumkindir.

Rossiyada 2023-yilda maktabining 15 yoshli o‘quvchisiga qarshi ish qo‘zg‘atildi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlari voyaga yetmagan shaxsning 2022-yilda Rossiyada taqiqlangan Kolumbin terrorchilik harakatining faol ishtirokchisi ekanligini aniqlandi. VKontakte’da maxsus sahifa yuritgan mazkur o‘quvchi 1999-yilda AQShdagi Kolumbin o‘rta maktabiga voyaga yetmagan shaxslarning qurolli hujumini qo‘llab-quvvatladi. Rossiya huquqni muhofaza qiluvchi organlarining tezkor harakatlari tufayli rus maktabiga terroristik hujumning oldi olindi[11].

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasining 08.09.2017-yildagi O‘RQ-444-sonli “Bolalarni ularning sog‘lig‘i va rivojlanishiga zararli bo‘lgan axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, shuningdek, internetda voyaga yetmaganlarni himoya qilish uchun huquqiy muhit yaratish to‘g‘risidagi tegishli qonun mavjud. Biroq, bugungi voqelik ushbu qonunni yanada takomillashtirishni talab qiladi.

Bizning nazarimizda, voyaga yetmagan shaxslar orasida turli xil huquqbuzarliklarni oldini olish bo‘yicha raqamli profilaktika muhim o‘rin tutadi.

Raqamli profilaktika — bu muammo yuzaga kelgandan keyin jazolash emas, balki **oldindan ogohlantirish va himoya qilish choralaridir.**

Raqamli profilaktika uch yo‘nalishda olib boriladi:

1) ta’limiy profilaktika – maktab darslari, treninglar, media savodxonlik;

2) texnik profilaktika – filtrlar, yoshni tekshirish tizimlari, parental control;

3) huquqiy profilaktika – platformalarga majburiyat yuklovchi qonunlar.

Yevropa mamlakatlaridan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, voyaga yetmagan shaxslar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va reabilitatsiya qilish bo‘yicha turli xil profilaktik ta’lim dasturlari va turli jamoat tashkilotlarining tashabbuslari jinoyatchilik darajasining pasayishiga aniq tendentsiyani ko‘rsatmoqda. Yosh avlodga to‘g‘ri va mas’uliyatli tanlov qilishga yordam berishda profilaktika choralari muhim rol o‘ynashi tan olingan. Shunga o‘xshash ishlar Eron, Xitoy va boshqa Osiyo mamlakatlarida ham olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi “Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo‘nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-sonli qarorida oila turmush munosabatlari doirasida sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish maqsadida nizoli oilalar haqidagi ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va monitoring qilish imkonini beradigan “E-ijtimoiy profilaktika” va axborot tizimining “E-nizoli oila” modulini joriy etish va modulni sudlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri integratsiya qilish choralarini ko‘rish belgilab qo‘yilganligi ham muhim ahamiyatga egadir.

Yosh avlodga qarshi kattalar va voyaga yetmagan shaxslarning o‘zlari tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarnining oldini olish uchun nafaqat bolalarni

himoya qilishning huquqiy asoslarini mustahkamlash va noqonuniy xatti-harakatlar uchun jazoni aniq belgilash, balki xorijiy mamlakatlar tajribasini hisobga olgan holda huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari, ta‘lim xodimlari, jamoatchilik vakillari va ommaviy axborot vositalari tomonidan oilada profilaktika ishlarini kuchaytirish zarur deb hisoblaymiz.

Yuqoridagi olib borilgan tadqiqot natijasida, biz quyidagilarni taklif va tavsiya etamiz jumladan:

- Raqamli profilaktika milliy modelni yaratish va unda uch bosqichli tizim tashkil qilish:

1) ta’limiy profilaktika: maktablarda “Raqamli huquq” fanini joriy qilish; media savodxonlikni majburiy komponentga aylantirish;

2) texnik profilaktika: milliy filtrlash tizimi; yoshni tekshirish tizimi; parental nazorat dasturlarini davlat darajasida qo‘llab-quvvatlash;

3) huquqiy profilaktika: platformalarga majburiyat yuklovchi normalar kiritish; onlayn jinoyatlar bo‘yicha ixtisoslashgan kiberbo‘limlarni kuchaytirish.

- voyaga yetmagan shaxslarning ijtimoiy tarmoqlarga kirishiga yosh cheklovlarini va voyaga yetmagan shaxslarga qaratilgan ijtimoiy tarmoqlardagi buzg‘unchi faoliyat uchun veb-sayt egalarining javobgarligini oshirishni;

- ijtimoiy tarmoqlar va Internetda voyaga yetmagan shaxslar va ularning ota-onalari o‘rtasida huquqiy savodxonlikni oshirish bo‘yicha sa‘y-harakatlarni yaxshilashni;

- elektron kundaliklar, darsliklar, daftarlar, maktab suhbatlari va boshqalarni yaratish amaliyotini kuchaytirish orqali boshlang‘ich va o‘rta maktab o‘quvchilarining mobil aloqa va Internetga jalb qilinishini cheklash uchun maktab o‘quv dasturlariga o‘zgartirishlar kiritishni talab qilish lozimligini;

- voyaga yetmagan kiberjinoyatchilar (huquqbuzarlar) bilan ishlashning samarali usullarini yaratish uchun o‘z bilimlarini AKT, kompyuter tarmoqlari va Internet texnologiyalari kabi sohalarga kengaytirishlari kerakligini taklif qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alqodsi, E. M., Gura, D. (2023). High tech and legal challenges: Artificial intelligencecaused damage regulation. Cogent Social Sciences, 9(2), 2270751. https://doi.org/10.1080/ 23311886.2023.2270751.

2. Piquero, A. R., Fagan, J., Mulvey, E. P., Steinberg, L., Odgers, C. (2005). Developmental trajectories of legal socialization among serious adolescent offenders. The Journal of Criminal Law & Criminology, 96(1), 267.

3. Tisdall, E., Kay, M. (2015). Children and young people’s participation. A critical consideration of article 12. In W. Vanderhole (Ed.), Routledge international handbook of children’s rights studies (pp. 185–200).

4. Fagan, J., Tyler, T. R. (2005). Legal socialization of children and adolescents. Social Justice Research, 18(3), 217–241. https://doi.org/10.1007/s11211-005-6823-3.

5. Rysina, K. V. (2014). Formation of lawful behavior as a direction of prevention of juvenile delinquency. In Safe childhood as a legal and socio-educational concept (pp. 79–82). Perm State Humanitarian Pedagogical University

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi “Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo‘nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-sonli qarori https://www.lex.uz/docs/-7973611

7. Ашманов И. Цифровое пространство как поле боя // Ашманов и партнеры. 22.02.2023. URL: https://www. ashmanov.com/education/articles/igor-ashmanov-tsifrovoe-prostranstvo-kak-pole-boya/?ysclid=m40atbauuz826044 407

8. Акимов И. Не доросли: как и зачем детей не пускают в соцсети в разных странах. Где и почему детям ограничивают доступ в Интернет // Газета.ru. 24.07.2023. URL: https://www.gazeta.ru/comments/2023/07/24_a_ 17322416.shtml

GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHISH SOHASIDA QONUNCHILIK TAKOMILLASHTIRISH

Usmonov Sh.Sh.
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Iqtisodiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi i.f.f.d.(PhD), podpolkovnik
Komilov Akobir Bobir o‘g‘li,
Jamoat xavfsizligi Universiteti Iqtisodiy xavsizlik yo‘nalishi 4-bosqich kursanti

Bugungi kunda giyohvandlik va narkojinoyatlar global miqyosda milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillardan biriga aylangan. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining 2023-yildagi hisobotiga ko‘ra, dunyo bo‘ylab 296 millionga yaqin odam giyohvandlik vositalaridan foydalanadi, bu esa umumiy aholining qariyb 3,8 foizini tashkil etadi [1, World Drug Report 2023. United Nations Office on Drugs and Crime. Vienna: UNODC, 2023. – 112 b, 15-bet]. Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan O‘zbekiston, afg‘on narkotiklarining asosiy tranzit yo‘llaridan biri sifatida ushbu muammoning eng og‘ir oqibatlarini boshdan kechirmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Narkotiklar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi (UNODC) ma’lumotlariga ko‘ra, Afg‘onistonda ishlab chiqarilgan afyun va geroinning qariyb 40 foizi Shimoliy yo‘nalish orqali, jumladan O‘zbekiston hududi orqali o‘tadi [2, Opium Survey 2022. United Nations Office on Drugs and Crime. Afghanistan: UNODC, 2022.-89 b., 42-bet]. Ushbu geografik omil mamlakatimizda giyohvandlik va unga bog‘liq jinoyatchilikning barqaror o‘sishiga sabab bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Narkotiklarga qarshi kurashish

boshqarmasining 2024-yildagi statistik to‘plamida qayd etilishicha, so‘nggi besh yil ichida giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi bilan bog‘liq jinoyatlar soni o‘rtacha 12-15 foizga oshgan [3, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Narkotiklarga qarshi kurashish boshqarmasining 2024-yildagi statistik to‘plami. – Toshkent: IIV, 2024.-67 b, 7-bet]. Ayniqsa, sintetik giyohvandlik vositalarining (metamfetamin, MDMA, sintetik kannabinoidlar) ulushi 2019-yildagi 18 foizdan 2023-yilda 34 foizga ko‘tarilgani ayniqsa xavotirli holatdir [3, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Narkotiklarga qarshi kurashish boshqarmasining 2024-yildagi statistik to‘plami. – Toshkent: IIV, 2024.12-bet]. Ushbu tendensiya milliy qonunchilik bazasining yangi tahdidlarga mos ravishda tezkor va tizimli tarzda takomillashtirilishini taqozo etadi. Maqolamizda aynan shu muammoning huquqiy jihatlari, qonunchilikdagi bo‘shliqlar va ularni bartaraf etishning ilmiy asoslangan yo‘llari tahlil qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasining giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasidagi asosiy qonuni 1999-yil 19-avgustda qabul qilingan “Narkotik vositalar va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi 827-I-sonli Qonun hisoblanadi. Ushbu qonun narkotik vositalar va psixotrop moddalarning qonuniy va noqonuniy muomalasini tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjatdir [4, O‘zbekiston Respublikasining “Narkotik vositalar va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonuni, 1999-yil 19-avgust, 827-I-son]. Qonunning dastlabki tahriri asosan an’anaviy giyohvandlik vositalariga qarshi kurashishga qaratilgan bo‘lib, so‘nggi yillarda jadal rivojlanayotgan sintetik giyohvandlik vositalari, prekursorlar va yangi psixoaktiv moddalar (NPS) bilan bog‘liq masalalarni to‘liq qamrab olmagan. 2020-yilda ushbu qonunga kiritilgan o‘zgartirishlar bilan bir qator sintetik moddalar ro‘yxati kengaytirilgan bo‘lsa-da, amaliyotda ularni ekspertiza qilish va sud-huquqiy baholash jarayonlari murakkabligicha qolmoqda [5, O‘zbekiston Respublikasining “Narkotik vositalar va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonuni, 2020-yil 22-oktabr, O‘RQ-602-son].

Respublika sudlarining 2023-yildagi umumlashtirish ma’lumotlariga ko‘ra, narkotik moddalarni ekspertiza qilishda yangi turdagi moddalarni identifikatsiya qilish bilan bog‘liq holatlar bo‘yicha 15 foiz hollarda sud ekspertizasi xulosalari qaytarilgan yoki qo‘shimcha ekspertiza tayinlangan [6, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023-yildagi sud amaliyotini umumlashtirish materiallari. – Toshkent: Oliy sud, 2023. – 54 b, 28-bet]. Bu esa qonunchilikda “analog” moddalar tushunchasining aniq belgilanmaganligi, shuningdek, NPSlarni nazorat qilish mexanizmining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi bilan izohlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 273-moddasi (narkotik vositalar yoki psixotrop moddalarni qonunsiz ishlab chiqarish, olish, saqlash, tashish yoki jo‘natish) va 276-moddasi (giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunsiz sotish) bugungi kunda narkojinoyatlarga

qarshi kurashning asosiy quroli hisoblanadi. Biroq, mazkur moddalar sanksiyalarida sintetik moddalarning yuqori xavfliligi, ularning kichik hajmlarda ham katta zarar yetkazishi kabi xususiyatlar to‘liq inobatga olinmagan. Sudyalar assotsiatsiyasining 2024-yilgi tahliliy ma’lumotiga ko‘ra, sintetik giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha tayinlangan jazo muddatlarining o‘rtacha ko‘rsatkichi an’anaviy giyohvandlik vositalariga nisbatan atigi 18 foizga yuqori, holbuki ularning ijtimoiy xavflilik darajasi mutaxassislar tomonidan 3-4 barobar yuqori baholanadi [7, O‘zbekiston Sudyalar assotsiatsiyasining 2024-yildagi tahliliy ma’lumoti. – Toshkent: Sudyalar assotsiatsiyasi, 2024. – 47 b, 34-bet]. Mazkur holat qonunchilikda jazoni farqlash tamoyilini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Giyohvandlikka qarshi kurashning eng muhim yo‘nalishlaridan biri bu profilaktika bo‘lib, uning huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi qonuni hamda “Aholi salomatligini saqlash to‘g‘risida”gi qonun bilan belgilanadi. 2022-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-152-son Farmoni bilan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida narkomaniyaning oldini olish bo‘yicha alohida dastur tasdiqlangan [8, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2022-yil 28-yanvar, PF-152-son]. Ushbu dasturda aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, giyohvandlik vositalarining zarari to‘g‘risida tushuntirish ishlarini olib borish, maktab va oliy o‘quv yurtlarida psixologik xizmatni kuchaytirish kabi vazifalar belgilangan. Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Narkologiya ilmiy-amaliy markazining 2023-yilgi hisobotida keltirilishicha, respublika bo‘yicha giyohvandlikka qarshi profilaktik tadbirlar qamrovi 2022-yilda 1,2 million nafar yoshni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 1,8 million nafarga yetgan [9, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Narkologiya ilmiy-amaliy markazining 2023-yildagi hisoboti. – Toshkent: Narkologiya markazi, 2023, 19-bet]. Biroq, profilaktika ishlarining samaradorligini baholashda asosiy mezon – giyohvandlikka birinchi marta murojaat qilganlarning yosh ko‘rsatkichi va umumiy sonidir. 2023-yilda narkologik hisobga olingan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar soni 312 nafar bo‘lib, bu 2022-yilga nisbatan 8 foizga ko‘p [9, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Narkologiya ilmiy-amaliy markazining 2023-yildagi hisoboti. – Toshkent: Narkologiya markazi, 2023. 25-bet]. Ushbu ma’lumot profilaktika tadbirlari soni oshgan bo‘lsa-da, ularning sifat ko‘rsatkichlari va ta’sirchanligi hali yetarli emasligini ko‘rsatadi. Buning asosiy sabablaridan biri profilaktika faoliyatini tizimli ravishda muvofiqlashtiruvchi yagona vakolatli organning yo‘qligi va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining bu boradagi mas’uliyati aniq belgilanmaganligidir. Profilaktik ishlarni amalga oshiruvchi tashkilotlar (maktablar, kollejlar, oliygohlar, mahalla

fuqarolar yig‘inlari, tibbiyot muassasalari) o‘rtasidagi axborot almashinuvi va hamkorlik mekanizmi ham qonuniy jihatdan to‘liq tartibga solinmagan.

O‘zbekiston sharoitida ham jinoiy javobgarlik va tibbiy-ijtimoiy choralarni farqlash, ayrim toifadagi huquqbuzarliklarni dekriminalizatsiya qilish masalalari jiddiy ilmiy tahlilni talab qiladi. Shuningdek, Shvetsiyaning “narkotiksiz jamiyat” strategiyasi doirasida profilaktik ishlarni davlat tomonidan qat’iy moliyalashtirish, maktablarda universal skrining dasturlarini joriy etish, giyohvandlik vositalarini reklama qilish va targ‘ibotini to‘liq taqiqlash kabi tajribalari milliy qonunchilikni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Sog‘liqni saqlash vazirligining 2021-2023-yillarga oid rasmiy statistik ma’lumotlari asosida tuzilgan jadvallar keltirilgan.

2021-2023-yillar kesimida giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatlar dinamikasi.

(1-jadval)

Ko‘rsatkichlar	***2021-y***	***2022-y***	***2023-y***
Ro‘yxatga olingan narkojinoyatlar soni	4 521	4 887	5 230
Sintetik giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatlar ulushi	22,4%	28,7%	34,1%
18 yoshgacha bo‘lgan shaxslar tomonidan sodir etilgan narkojinoyatlar	187	212	243
Noqonuniy aylanmadan musodara qilingan giyohvandlik vositalari (kg)	2 450	3 127	3 895

Manba: [3, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Narkotiklarga qarshi kurashish boshqarmasining 2024-yildagi statistik to‘plami. – Toshkent: IIV, 2024. – 67 b. 15-22-betlar].

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, narkojinoyatlar soni barqaror o‘sib bormoqda, ayniqsa sintetik giyohvandlik vositalarining ulushi keskin oshgan. Musodara qilingan giyohvandlik vositalari hajmining 2021-yildagi 2 450 kg dan 2023-yilda 3 895 kg ga yetgani noqonuniy aylanma hajmining ortib borayotganini, shuningdek huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faolligi oshganini ko‘rsatadi.

Narkologik hisobdagi shaxslar to‘g‘risida ma’lumot (2021-2023-yillar kesimida)

(2-jadval)

Ko‘rsatkichlar	***2021-y***	***2022-y***	***2023-y***
Narkologik hisobda turgan shaxslar soni	12 540	13 215	14 022
Shu jumladan, 18 yoshgacha bo‘lganlar	278	297	312
Birinchi marta hisobga olinganlar	1 892	2 023	2 341
Reabilitatsiya muassasalariga yuborilganlar	1 521	1 678	1 843
Davolash kursini tugatmaganlar (foizda)	32,4%	35,1%	37,2%

Manba: [9, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Narkologiya ilmiy-amaliy markazining 2023-yildagi hisoboti. – Toshkent: Narkologiya markazi, 2023. – 81 b, 28-36-betlar].

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, giyohvandlikka murojaat qilganlarning umumiy soni ortib bormoqda, shuningdek davolanish jarayonini tugatmasdan chiqib ketayotganlarning ulushi ham yildan-yilga ko‘paymoqda. Bu reabilitatsiya muassasalaridagi ishlarning samaradorligini yanada oshirish kerakligini anglatadi.

Xulosa va takliflar: Yuqoridagi tahlillar asosida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasidagi milliy qonunchilik bazasini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- **Birinchidan,** “Narkotik vositalar va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi qonunga “yangi psixoaktiv moddalar” (NPS) tushunchasini kiritish va ularni nazorat qilishning alohida tartibini belgilash lozim. Ushbu tartibda moddaning kimyoviy tarkibi va tuzilishiga qarab, uning “analogi” sifatida tan olinishi va tezkor tartibda nazorat ro‘yxatiga kiritilishi mexanizmini yaratish zarur. Bu borada Buyuk Britaniyaning 2016-yildagi “Yangi psixoaktiv moddalar to‘g‘risida”gi qonunidagi “analog asosidagi nazorat” mexanizmini o‘rganish va milliy sharoitga moslashtirish maqsadga muvofiq.
- **Ikkinchidan,** Jinoyat kodeksining narkojinoyatlarga oid moddalarida jazoni farqlash tamoyilini kuchaytirish, sintetik giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatlar uchun javobgarlikni an’anaviy giyohvandlik vositalariga nisbatan keskinroq belgilash lozim. Shu bilan birga, birinchi marta giyohvandlik vositalarini iste’mol qilgan va sudlangan shaxslarga nisbatan jazoni ijtimoiy xizmat, majburiy davolash yoki probatsiya nazorati bilan almashtirish imkoniyatini kengaytirish zarur. Probatsiya xizmati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish orqali ushbu toifadagi shaxslarni ijtimoiy reintegratsiya qilish mexanizmlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq.
- **Uchinchidan,** reabilitatsiya va reintegratsiya masalalarini alohida qonun bilan tartibga solish zarur. “Giyohvandlik vositalarini iste’mol qilgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va ijtimoiy reintegratsiyasi to‘g‘risida”gi alohida qonun loyihasini ishlab chiqish, unda reabilitatsiya markazlarining faoliyatini litsenziyalash, davolash jarayonining ixtiyoriyligi va majburiyligi nisbatini aniq belgilash, reabilitatsiyadan o‘tgan shaxslarni ish bilan ta’minlash va ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha davlat kafolatlarini mustahkamlash lozim.
- **To‘rtinchidan,** profilaktika sohasidagi faoliyatni tizimli ravishda muvofiqlashtiruvchi yagona davlat organini tashkil etish yoki mavjud tuzilmalar (masalan, Yoshlar siyosati agentligi) huzurida ushbu vazifani bajaruvchi alohida bo‘linma tashkil etish maqsadga muvofiq. Ushbu tuzilma mahalliy hokimiyat organlari, ta’lim muassasalari, tibbiyot tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari

o‘rtasida muvofiqlashtiruvchi rol o‘ynashi, profilaktika dasturlarining ilmiy asoslanganligi va samaradorligini baholashi lozim.

➢ **Beshinchidan,** xalqaro huquq normalari va xorijiy tajribalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish jarayonini jadallashtirish, ayniqsa narkotik siyosatda jinoiy javobgarlik va tibbiy-ijtimoiy choralar nisbatini optimallashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan eksperimental loyihalarni (masalan, ba’zi hududlarda sinov tariqasida giyohvandlik vositalarini iste’mol qilishni dekriminalizatsiya qilish, shartli jazo tayinlash amaliyotini kengaytirish) yo‘lga qo‘yish zarur.

Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasidagi milliy qonunchilik bazasi so‘nggi yillarda sezilarli darajada takomillashtirilgan bo‘lsa-da, mavjud statistik ma’lumotlar va huquqni qo‘llash amaliyoti tahlili ushbu sohada bir qator tizimli muammolar saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi. Sintetik giyohvandlik vositalarining jadal tarqalishi, reabilitatsiya va reintegratsiya mexanizmlarining yetarli emasligi, profilaktika chora-tadbirlarining samaradorligi pastligi, xalqaro huquq normalarining milliy qonunchilikka to‘liq implementatsiya qilinmagani bugungi kunning dolzarb muammolari hisoblanadi. Ushbu muammolarni bartaraf etishda qonunchilikni takomillashtirish, xususan, yangi psixoaktiv moddalarni nazorat qilish mexanizmlarini joriy etish, jazoni farqlash tamoyilini kuchaytirish, reabilitatsiya va reintegratsiyani alohida qonun bilan tartibga solish, profilaktika faoliyatini tizimli muvofiqlashtirish, xorijiy ilg‘or tajribalarni moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Taklif etilayotgan huquqiy mexanizmlar giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashning kompleks va samarali tizimini yaratishga, aholi salomatligini saqlash, jamiyat xavfsizligini ta’minlash va inson huquqlarini himoya qilish kabi ustuvor vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Drug Report 2023. United Nations Office on Drugs and Crime. Vienna: UNODC, 2023. – 112 b.

2. Opium Survey 2022. United Nations Office on Drugs and Crime. Afghanistan: UNODC, 2022. – 89 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Narkotiklarga qarshi kurashish boshqarmasining 2024-yildagi statistik to‘plami. – Toshkent: IIV, 2024.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalar va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonuni, 1999-yil 19-avgust, 827-I-son. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 1999, 21-son, 124-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalar va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonuni, 2020-

yil 22-oktabr, O‘RQ-602-son. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 24.10.2020, 03/20/602/1431-son.

VOYAGA YETMAGANLARNI GIYOHVAND MODDALAR VA PSIXOTROP VOSITALARDAN HIMOYA QILISHDA PROFILAKTIK CHORA-TADBIRLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Jo‘rayev Qobiljon Olimjonovich,
Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi, kapitan
Sharapov Baxtiyor Muxtorxonovich
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil tadqiqodchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada voyaga yetmaganlar o‘rtasida giyohvand moddalar va psixotrop vositalarning tarqalish sabablari, ularning salbiy ta’siri hamda profilaktik chora-tadbirlarning ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, olimlarning ushbu muammo yuzasidan qarashlari keltirilib, samarali profilaktika mexanizmlari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: voyaga yetmaganlar, giyohvandlik, psixotrop vositalar, profilaktika, ijtimoiy muhit, tarbiya.

Kirish

Bugungi kunda giyohvandlik va psixotrop moddalar iste’moli global muammolardan biri bo‘lib, ayniqsa voyaga yetmaganlar orasida turli narkotiklar istemolining an’anaga aylanayotganligi yoki ularning narkojinoyatlarga aralashib qolish holatlari yildan yilga ortib borayotgani tarbiyaviy, tushuntiruv va birlamchi profilaktik tadbirlarni doimiy ravishda o‘tkazib borishni taqozo etmoqda.

Giyohvandlikning targ‘iboti va statistikasi

So‘nggi yillarda yoshlar o‘rtasida giyohvandlik va psixotrop moddalar iste’moli bilan bog‘liq holatlar ortib bormoqda. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlarda bunday moddalarni targ‘ib qiluvchi kontentning mavjudligi yoshlarni bu illatga jalb etmoqda. Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, o‘tgan yillarga nisbatan voyaga yetmaganlar o‘rtasida giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlar soni sezilarli darajada oshgan.

Tahlillarga ko‘ra 2025 yilda respublikada huquq tartibot idoralarining say – harakatlari natijasida giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasi bilan bog‘liq 15 412 ta jinoyat va 1 956 ta ma’muriy huquqbuzarlik aniqlandi.

Eng ko‘p jinoyatlarni giyohvandlik vositalarini o‘z iste’moli uchun saqlash (Jinoyat kodeksining 276-modda – 41 foiz yoki 6 387 tasi), qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish (Jinoyat kodeksining 273-modda – 36 foiz yoki 5 577 tasi) va

ta’qiqlangan ekinlarni yetishtirish (Jinoyat kodeksi 270-modda -36 foiz yoki 1 968 tasi) holatlari tashkil etgan.

Narkojinoyat sodir etgan 11 049 nafar shaxslar javobgarlikka tortilgan. Achinarlisi shundaki, jinoyatchilarning 59 nafarini maktab o‘quvchilari, 124 nafarini talabalar tashkil etgan.

Narkojinoyatlarning 53 foizi Toshkent shaxri (3 986ta), Farg‘ona (2 178 ta), Toshkent (1 954 ta) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keladi[1].

Bundan tashqari,Davlatimiz rahbarining 2025 yil 26 dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojatnomasida ham “narkojinoyatlarga qarshi kurashishni umummilliy harakatga aylantirish, giyohvandlikni tag-tomiri bilan yo‘qotish hamda yoshlarda kuchli ma’naviy – ruhiy immunitetni shakllantirish ” vazifalari belgilab berildi.

Shu bilan birgalikda, sog‘liqni saqlash tashkilotlarining tadqiqotlariga ko‘ra, o‘smirlarning qariyb 15-20 foizi hech bo‘lmaganda bir marta narkotik moddalarni sinab ko‘rgan, ulardan 5-7% foizi esa muntazam iste’mol qilishni boshlagan. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, bu ko‘rsatkich yil sayin ortib bormoqda.

Ayrim holatlarda voyaga yetmaganlar orasida giyohvandlikning tarqalishiga do‘stlarning ta’siri, oiladagi muammolar, internetdagi noqonuniy reklama va turli ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ib qilinayotgan zararli g‘oyalar sabab bo‘layotgani kuzatilmoqda. Yoshlar orasida sintetik narkotiklar, xususan, «spays», «LSD», «metamfetamin» kabi moddalar keng tarqalib bormoqda.

2024-yilda O‘zbekiston Respublikasida olib borilgan maxsus tadqiqot natijalariga ko‘ra, giyohvand moddalarni noqonuniy tarqatish va iste’mol qilish bilan bog‘liq jinoyatlarning 70 foizdan ortig‘i internet orqali amalga oshirilayotgani aniqlangan. Bu esa onlayn platformalar va ijtimoiy tarmoqlardagi nazoratni kuchaytirish zarurligini yana bir bor ko‘rsatmoqda.

Huquqiy asoslar

O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha qator huquqiy hujjatlar qabul qilingan. “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta’sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 6- maydagi PF-73-sonli Farmoni bu borada muhim ahamiyatga ega bo‘lib, unda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazoratni kuchaytirish, ularning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish choralari belgilangan.

Narkovaziyatni barqarorlashtirish va narkotahdidlarga qarshi kurashishning samaradorligini oshirish maqsadida 2025-yil 3-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi

[1] IIV statistik ma’lumotlari. 2025 yil

Prezidentining “Aholi salomatligi va milliy genafondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-207 sonli Farmoni qabul qilindi.

Farmon bilan “Giyohvandlik va narkojinoyatlarning oldini olish hamda ularga qarshi kurashish bo‘yicha 2025-2026 yillarga mo‘ljallangan kompleks amaliy harakatlar milliy dasturi” tasdiqlangan.

Shuningdek,“Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish va ularning huquqbuzarliklarining oldini olishga qaratilgan.

Giyohvandlikning zarali ta’siri

Giyohvandlik inson organizmiga jiddiy zarar yetkazadi. Ularning ba’zilari quyidagilar:

«Asab tizimi buzilishi» - giyohvand moddalar asab tizimini ishdan chiqarib, odamni depressiya va psixologik muammolarga duchor qiladi.

«Jismoniy zaiflik» - immunitet zaiflashishi natijasida organizm turli kasalliklarga moyil bo‘lib qoladi.

«O‘lim xavfi» - narkotik moddalar dozasini oshirib yuborish o‘limga olib kelishi mumkin.

Giyohvandlikning oldini olish choralari

Giyohvandlikning oldini olish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

«Ta’lim va targ‘ibot ishlari» - maktab va oliy ta’lim muassasalarida narkotik moddalar zararini tushuntirish.

«Ota-onalar nazorati» - farzandlar bilan yaqin aloqa o‘rnatish va ularning muhitini doimiy nazorat qilish.

«Huquq-tartibot organlari nazorati» - narkotik moddalarning tarqalishiga qarshi kurashish va jazoni kuchaytirish.

«Sport va madaniyat rivoji» - yoshlarni sog‘lom turmush tarziga jalb qilish

Giyohvandlikka qarshi kurashdagi davlat roli

O‘zbekiston Respublikasi giyohvandlikka qarshi qat’iy siyosat olib bormoqda.

Huquqiy jihatdan qator qonunlar qabul qilingan bo‘lib, narkotik moddalarning tarqalishiga qarshi Keskin choralar ko‘rilmoqda. Shu bilan birga, davlat jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda profilaktika va targ‘ibot tadbirlarini amalga oshirmoqda.

Bunday xavfli tendensiyalarni oldini olish uchun huquqni muhofaza qilish organlari, ta’lim muassasalari va ota-onalar birgalikda harakat qilishlari zarur. Yoshlarni giyohvandlikning salbiy oqibatlaridan ogohlantirish, profilaktika tadbirlarini kuchaytirish hamda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish – bu muammo bilan kurashishda eng samarali yo‘llardan biridir.

Taklif va tavsiyalar:

Internet tarmog‘i orqali giyohvand moddalarning aylanmasiga chek qo‘yish: Giyohvand moddalar aylanmasi haqida ma’lumotlar aniqlangan internet saytlariga, telegram akkauntlarni bloklab qo‘yishning qonuniy asoslarini yaratish.

Internet tarmog‘ida ota-ona nazorati tizimini joriy qilish: Qonunchilikka bolalarning internet orqali turli xildagi giyohvandlik va psixotrop moddalarning iste’molchisiga aylanib qolishining oldini olish maqsadida ota-onalar uchun bolalarning internetdagi faoliyatini nazorat qilish huquqini beruvchi qonun normasini qabul qilish lozim.

Xulosa

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida giyohvand moddalar va psixotrop vositalarga qaramlikning ortishi jiddiy ijtimoiy muammo hisoblanadi. Ushbu muammoni hal etish uchun davlat organlari, ta’lim muassasalari, ota-onalar va butun jamiyat birgalikda harakat qilishi zarur. Huquqiy asoslarni mustahkamlash, profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish va yoshlarni sog‘lom turmush tarziga jalb qilish orqali bu illatning oldini olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi salomatligi va milliy genafondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 3-noyabrdagi PQ-207 sonli Farmoni

4. “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta’sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 6- maydagi PF-73-sonli Farmoni

ГИЁҲВАНДЛИККА ҚАРШИ КУРАШ ФОНИДА ҲАРБИЙ ХИЗМАТЧИЛАРНИНГ ЖИНОИЙ ЖАВОБГАРЛИГИ ВА РАҒБАТЛАНТИРИШ ИНСТИТУТИ

Зокиров Комолиддин Тўйсиевич
Жисмоний тайёргарлик ва спорт кафедраси ўқитувчиси**,**
Абдуллаев Абдугаффор Абдуллаевич
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети мустақил изланувчиси

Аннотация: Мазкур илмий мақолада ҳарбий хизматни ўташ тартибига қарши жиноятлар бўйича рағбатлантирувчи нормаларнинг назарий-ҳуқуқий асослари ва амалдаги қонунчиликдаги ўрни комплекс таҳлил қилинади. Тадқиқотда Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 66-моддаси ҳамда Махсус қисмда назарда тутилган жавобгарликдан озод этувчи нормаларнинг мазмуни, мақсади ва ҳуқуқни қўллаш амалиёти ўрганилиб, уларнинг ҳарбий жиноятлар соҳасида қўлланилишида мавжуд бўшлиқлар очиб берилади. Хусусан, Жиноят кодексининг 295–296-моддаларида ҳарбий мулкни беҳуда сарфлаш, йўқотиш ёки нобуд қилиш учун жавобгарлик белгиланган бўлса-да, биринчи марта жиноят содир этган ва етказилган зарарни ихтиёрий равишда қоплаган ҳарбий хизматчиларга нисбатан рағбатлантирувчи механизмлар мавжуд эмаслиги илмий асосланади. Мақолада жиноят-ҳуқуқий сиёсатни инсонпарварлик ва адолат тамойиллари асосида такомиллаштириш, давлат мудофаа манфаатларини таъминлаш ҳамда етказилган зарарни қисқа муддатларда қоплашга хизмат қилувчи нормаларни жорий этиш зарурлиги далилланади. Шунингдек, ҳарбий интизомни сақлаган ҳолда рағбатлантирувчи институтни киритишнинг ҳуқуқий ва ижтимоий самарадорлиги таҳлил этилиб, қонунчиликка аниқ таклифлар илгари сурилади.

Калит сўзлар: *ҳарбий жиноятлар, ҳарбий хизматни ўташ тартиби, рағбатлантирувчи нормалар, жиноий жавобгарликдан озод қилиш, инсонпарварлик тамойили, адолат принципи, ҳарбий мулк, моддий зарарни қоплаш, жиноят-ҳуқуқий сиёсат, либераллаштириш, жанговар вазият, ҳарбий интизом, жиноят профилактикаси, давлат мудофаа қобилияти, жиноят кодекси, ҳуқуқни қўллаш амалиёти, қонунчиликни такомиллаштириш, компенсация механизми.*

Мамлакатимизда сўнгги йилларда жиноят-ҳуқуқий сиёсатни либераллаштириш, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш, айни пайтда давлат ва жамият хавфсизлигини мустаҳкамлашга қаратилган кенг қамровли ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Айниқса, жиноят содир этган шахсни жазолаш

билан бирга уни тузалишга рағбатлантириш, етказилган зарарни қоплашга ундаш ва жиноят оқибатларини бартараф этишга қаратилган рағбатлантирувчи нормаларнинг аҳамияти тобора ортиб бормоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев ўз нутқларида бир неча бор “жиноятчиликка қарши курашишда жазолаш эмас, аввало олдини олиш, инсонни тузалиш йўлига қайтариш устувор бўлиши керак”лигини таъкидлаб келмоқда[1]. Давлат раҳбарининг Олий Мажлисга Мурожаатномаларида ҳам жиноят-ҳуқуқий сиёсатни инсонпарварлик ва адолат тамойиллари асосида такомиллаштириш, айниқса, биринчи марта жиноят содир этган шахсларга нисбатан альтернатив ва рағбатлантирувчи механизмларни кенгайтириш зарурлиги қайд этилган[2].

Шу нуқтаи назардан қараганда, жиноят қонунчилигида назарда тутилган рағбатлантирувчи нормаларни тизимли таҳлил қилиш, уларнинг амалдаги самарадорлигини баҳолаш ва мавжуд бўшлиқларни бартараф этиш илмий ва амалий жиҳатдан долзарб аҳамият касб этади. Амалдаги Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 66-моддаси ҳамда Махсус қисмнинг бир қатор моддаларида жиноят содир этган шахснинг ўз қилмишига амалда пушаймон бўлиши, ихтиёрий равишда ариза билан мурожаат қилиши ёки етказилган зарарни қоплаши орқали жавобгарликдан озод қилиниши мумкинлиги белгиланган[3]. Бу нормалар жиноятларни фош этиш, латент жиноятчиликни камайтириш ва жамиятда қонунийликни мустаҳкамлашга хизмат қилади. Президентимиз таъкидлаганидек, “адолат – бу қонун устуворлиги ва инсон манфаатларининг уйғунлиги”дир. Демак, жиноят-ҳуқуқий сиёсатда давлат манфаати билан шахс манфаатининг мувозанатини таъминлаш муҳим вазифадир[4].

Бироқ таҳлиллар шуни кўрсатадики, рағбатлантирувчи нормалар барча жиноят турларида бир хил даражада қўлланилмаяпти. Хусусан, ҳарбий хизматни ўташ тартибига қарши жиноятлар соҳасида бундай механизмлар етарли даражада назарда тутилмаган. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 295–296-моддаларида ҳарбий мулкни беҳуда сарфлаш, йўқотиш, ишдан чиқариш ёки нобуд қилиш учун жавобгарлик белгиланган бўлса-да, биринчи марта жиноят содир этган, ўз айбини тан олган ва етказилган зарарни қоплашга тайёр бўлган ҳарбий хизматчилар учун алоҳида рағбатлантирувчи қоидалар назарда тутилмаган. Бу эса жиноят қонунчилигида муайян тизимли номутаносибликни келтириб чиқармоқда[5].

Президент Шавкат Мирзиёев Қуролли Кучлар ташкил этилганининг йиллик байрамларидаги нутқларида мамлакат мудофаа қобилиятини мустаҳкамлаш, ҳарбий хизматчиларнинг масъулияти ва интизомини ошириш билан бирга, уларнинг ҳуқуқий ҳимоясини кучайтириш зарурлигини алоҳида таъкидлаб келмоқда[6]. Давлат раҳбари “Қуролли Кучлар – тинчлик ва

барқарорликнинг ишончли кафолатидир” деб таъкидлар экан, ҳарбий соҳада адолатли ва самарали ҳуқуқий механизмлар жорий этилиши лозимлигини қайд этади. Мазкур сиёсий-ҳуқуқий ёндашув ҳарбий жиноятлар соҳасида ҳам жиноят-ҳуқуқий сиёсатнинг инсонпарвар ва рағбатлантирувчи механизмларини такомиллаштиришни тақозо этади[7].

Ҳарбий мулк давлат мулкининг алоҳида, стратегик аҳамиятга эга тури ҳисобланади. У фақат моддий қиймат эмас, балки мамлакатнинг мудофаа қобилияти, жанговар тайёргарлиги ва миллий хавфсизлигининг муҳим элементидир[8]. Шу боис ҳарбий мулкка нисбатан содир этилган жиноятлар алоҳида ижтимоий хавфлиликка эга. Бироқ шу билан бирга, ҳарбий мулкни беҳуда сарфлаш ёки сақлаш қоидаларини бузиш натижасида йўқотиш каби ҳолатлар кўпинча биринчи марта, эҳтиётсизлик ёки ҳуқуқий онг етарли даражада шаклланмаган шароитда содир этилиши мумкин. Бундай вазиятларда жазо қўллаш билан бирга зарарни қисқа муддатда қоплаш ва давлат манфаатини тиклашга қаратилган рағбатлантирувчи механизмларни жорий этиш самаралироқ натижа бериши мумкин[9].

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг ҳарбий хизматни ўташ тартибига қарши жиноятларга оид қарорларида ҳарбий мулкнинг давлат мулки сифатида ҳар қандай ҳолатда қайтарилиши ёки қиймати ундирилиши шартлиги қайд этилган. Демак, қонуннинг асосий мақсади мулкни қайтариш ва зарарни қоплашдир. Шу нуқтаи назардан, агар айбдор шахс жиноят аниқланганидан кейин қисқа муддат ичида зарарни ихтиёрий равишда қопласа, уни жиноий жавобгарликдан озод этиш ёки озодликдан маҳрум қилиш жазосини қўлламаслик давлат ва жамият манфаатларига зид эмас, аксинча, уларга хизмат қилади[10].

Президент Шавкат Мирзиёев таъкидлаган “давлат органлари халққа хизмат қилиши керак” деган тамойил жиноят-ҳуқуқий соҳада ҳам ўз ифодасини топиши лозим. Агар қонун нормалари фуқароларни, жумладан ҳарбий хизматчиларни жиноятни яширишга эмас, балки ихтиёрий равишда маълум қилиш ва зарарни бартараф этишга ундаса, бу ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар фаолиятининг самарадорлигини оширади. Акс ҳолда, қаттиқ жазо хавфи айрим ҳолатларда жиноятни яширишга, далилларни йўқотишга ёки мулкни қайтариш имкониятини пасайтиришга олиб келиши мумкин[11].

Шу жиҳатдан, ЖКнинг 295–296-моддаларига рағбатлантирувчи нормалар киритиш таклифи жиноят-ҳуқуқий сиёсатнинг умумий либераллашув тенденциясига мос келади. Бу таклиф бир томондан ҳарбий интизомни заифлаштирмайди, чунки жанговар вазиятда содир этилган қилмишлар учун жазо оғирлигича сақланади, иккинчи томондан эса тинч шароитда биринчи

марта содир этилган ва зарар қопланган ҳолатларда давлат манфаатини тезкор тиклаш имконини беради[12].

Мазкур масаланинг илмий долзарблиги яна шундаки, ҳарбий жиноятлар соҳасида рағбатлантирувчи нормалар институти етарлича тадқиқ этилмаган. Жиноят ҳуқуқи назариясида рағбатлантирувчи нормаларнинг моҳияти, мақсади ва қўллаш шартлари кенг ёритилган бўлса-да, уларни ҳарбий хизматни ўташ тартибига қарши жиноятларга татбиқ этиш масаласи комплекс таҳлил қилинмаган. Шу боис мазкур мавзуда илмий изланиш олиб бориш қонунчиликни такомиллаштириш ва ҳуқуқни қўллаш амалиётини бир хиллаштириш нуқтаи назаридан муҳим аҳамиятга эга.

Хулоса қилиб айтганда, ҳарбий хизматни ўташ тартибига қарши жиноятлар бўйича рағбатлантирувчи нормаларни жорий этиш масаласи жиноят-ҳуқуқий сиёсатни инсонпарварлик, адолат ва самарадорлик тамойиллари асосида такомиллаштириш, давлат мудофаа манфаатларини таъминлаш ҳамда ҳарбий хизматчиларнинг ҳуқуқий онгини ошириш нуқтаи назаридан ўта долзарбдир. Президентимиз илгари сураётган “инсон қадри учун” тамойили жиноят қонунчилигининг барча соҳаларида, жумладан ҳарбий жиноятлар соҳасида ҳам ўз ифодасини топиши лозим. Мазкур мақолада таклиф этилаётган ўзгартишлар айнан шу стратегик мақсадларга хизмат қилади ва жиноятчиликка қарши курашишда жазо билан бирга рағбатлантириш механизмларини уйғунлаштиришга қаратилган илмий-амалий қадам сифатида баҳоланади.

Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси 66-моддасига мувофиқ, Жиноят кодекси Махсус қисмининг тегишли моддасида алоҳида кўрсатилган ҳолларда, жиноят содир этган шахс ўз қилмишига амалда пушаймон бўлган тақдирда жавобгарликдан озод қилиниши лозим. Мазкур жавобгарликдан озод этувчи норманинг амалиётда ишлаши учун ЖКнинг Махсус қисмининг тегишли моддасида шахснинг ўз қилмишига амалда пушаймон бўлганлиги иш юритишни рад этиш ва тугатиш ЖПКнинг 84-моддаси 1-қисми 8-бандига кўра ҳал этилиши белгилаб қўйилган[13].

Бундай жиноятлар туркумига ЖКнинг махсус қисми 122, 123, 155, 1552, 157, 160, 177, 178, 180, 181, 181^1, 184, 185^2, 188, 189, 190, 192^9, 197^1, 211, 212, 213, 223, 244^2, 244^4 ва 248-моддаларида шахсни жиноий жавобгарликдан озод қилишни назарда тутувчи махсус нормалар киради[3].

Мазкур ЖКнинг махсус қисмида назарда тутилган жиноятларнинг терговга қадар текширув вақтида аниқланганда ёки жиноят ишларини юритиш жараёнида жиноят ишининг бир қисмини тугатиш орқали ҳал этиш жараёнида мазкур банд орқали иш юритишни рад этиш ёки тугатиш мансабдорлар учун қийинчиликлар туғдирмоқда.

Чунончи, респондентлар ўртасида ўтказилган сўров натижаларига кўра мазкур турдаги терговга қадар текширув натижасига асосан пора бериш жиноятини содир этган шахснинг ҳолат аниқлангандан 30 сутка мобайнида аризаси иш ҳужжатларига қўшилиши ёки рўйхатга олинган ҳолда тақдим этилганда мазкур шахсга нисбатан иш ҳужжатлари ЖПКнинг 83-моддаси 2-банди орқали ҳал этилиши лозимлигини кўпчилик томонидан билдирилган[6].

Биз ҳам юқоридаги кўпчилик респондентларнинг фикри билан қўшилган ҳолда шуни эътироф этишимиз лозимки, ЖПК 84-моддаси биринчи қисмининг 8-банди Ўзбекистон Республикасининг 2010 йил 27 декабрдаги “Ўзбекистон Республикасининг Жиноят ва Жиноят-процессуал кодексларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги Қонунига мувофиқ киритилган бўлиб, мазкур қонунни қабул қилишдан мақсад содир этилган оғир ва ўта оғир жиноятларни тез фош этиш, жиноят оқибатида жабрланувчиларга етказилган зарарларни тўлиқ қоплаш ва мазкур турдаги жиноятларни аниқлаш борасида фуқароларнинг фаол позициясини сақлаш орқали уларни жавобгарликдан озод бўлишига имкон яратиб беришдир.

Бироқ порахўрлик жиноятларини аниқлаш борасида ариза билан мурожаат қилган шахсларнинг ёки ўз ҳохиши билан ноқонуний қурол ва ўқ-дори мавжудлиги тўғрисида ҳабар берган шахсни терговга қадар текширув ёхуд дастлабки терговда ЖПКнинг мазкур бандига асосан ҳал этилиши, албатта келгусида бундай ҳолатларда панжа ортида қарашига, оҳир-оқибат жамиятнинг жиноятчиликка муросасиз муносабати сўнишига олиб келиши мумкин.

Бунга бир қанча факторлар сабаб бўлади. Биринчидан, Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги, Бош прокуратураси, Давлат хавфсизлик хизмати, Давлат божхона қўмитаси, Миллий гвардия, Олий судининг 2021 йил 15 ноябрдаги 70, 71-ққ, 30, 01-02/22-56, 34, 16/1020-21-сон қарорига мувофиқ тасдиқланган Низомга кўра ЖПКнинг 84-моддаси 1-қисми 1, 2, 3, 6, 8-бандлари ва 5-қисмига асосан иш қўзғатиш рад қилинганда ёки тугатилганда жиноят иши рақами берилган ҳолда мазкур шахсга нисбатан барча турдаги статистик карточкалар тўлдирилади ва шахсга нисбатан ахборот марказида судланган шахс билан тенглаштирилган маълумот қайд этилиши бундай шахсларни манфаатига путур етказади[14].

Иккинчидан, юқордаги каби ҳисобларнинг судланган шахс каби ахборот марказида маълумот қолиши натижасида фуқароларнинг давлат хизматлари ягона портали орқали олаётган маълумотлар базасида айнан қайд этилиши мазкур шахсларнинг ишга жойлашиш ва бошқа шу каби муносабатларида манфаатларига зарар келтирмоқда.

Юқоридаги ҳолатларни ҳисобга олган ҳолда мазкур “Электрон жиноий – ҳуқуқий статистика” ягона ахборот тизимини юритиш тартиби тўғрисида

низомда ЖПКнинг 84-моддаси 1-қисми 8-банди билан боғлиқ ҳолатларни қайд этишда ҳар қандай статистик карточкаларни тўлдириш мажбуриятини олиб ташлаш мақсадга мувофиқ деган фикрдамиз[15].

Мазкур ўзгартишнинг амалиётга жорий этилиши яъни бундай шахсларни тўғрисидаги маълумотларни Ички ишлар вазирлигининг Ҳуқуқий статистика ва тезкор-ҳисоб маълумотлар марказида судланган шахслар қаторида қайд этилишини олдини олиш жиноятларни аниқлашда кўмак бераётган шахслар фаоллигини оширса, иккинчи томондан фуқароларни давлатнинг жиноий-ҳуқуқий соҳадаги сиёсатига ишончини ортишига олиб келади.

Шу билан бирга мазкур турдаги жавобгарликдан озод қилиш борасида ҳарбий жиноятларнинг четда қолаётгани тушунарсиздир. Масалан, ЖКнинг 295-296-моддаларида назарда тутилган жиноятларнинг рағбатлантирувчи ёки жиноий жавобгарликдан озод этувчи қисми мавжуд эмаслиги фикримизча номақбулдир. Чунки, ҳарбий мулк ва моддий қимматликлар давлатнинг нафақат моддий заҳираси балки у мамлакатнинг мудофаа қобилияти сифатида баҳоланади ва унинг ўрнини қисқа фурсатларда тўлдириш муҳимдир[16].

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2000 йил 15 сентябрдаги 23-сонли «Ҳарбий хизматни ўташ тартибига қарши жиноятларга оид ишларни кўриш бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги қарори 5.4-бандида “Беҳуда сарфлаш кийим-кечак ва анжомларни сотиш, гаровга қўйиш ёки бошқа шахсга фойдаланиш учун беришда ифодаланади. Беҳуда сарфлашнинг муқаррар белгиси — шахсий фойдаланиш учун берилган кийим-кечак ёки анжомларнинг ҳарбий хизматчи эгалигидан чиқиб, ўзга шахснинг ноқонуний эгалигига ўтишидир. Беҳуда сарфланган ҳарбий мулк доимо давлат мулки бўлиб қолганлиги учун, ҳар қандай вазиятда у ноқонуний эгаликдан тортиб олинади ва, агар унинг қайтарилишининг иложи бўлмаса, унинг қиймати бир неча карра миқдорида айбдордан ундирилади.” дея белгилаб қўйилган[17].

Шу боисдан ҳарбий хизматчиларни жавобгарликдан озод этиш ва шу йўл билан ҳарбий мулкни ўрнини қисқа муддатларда қоплаш ва тўлдириш давлат ва жамият манфаатларига хизмат қилади деган фикрдамиз ва шу сабабли, ЖКнинг айрим нормаларига қуйидаги ўзгартишларни киритишни мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

295-модда. Ҳарбий мулкни беҳуда сарфлаш, йўқотиш ёки ишдан чиқариш

Ҳарбий мулкни беҳуда сарфлаш, яъни муддатли ҳарбий хизмат ҳарбий хизматчисининг шахсан ўзи фойдаланиши учун берилган ҳарбий аслаҳа-анжомларни сотиши, фойдаланиш учун бировга бериши ёки гаровга қўйиши —

бир йилгача интизомий қисмга юбориш ёки бир йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

Хизматда фойдаланиш учун ишониб топширилган қурол, ўқ-дори, ҳаракат қилиш воситалари, техника таъминоти буюмларини сақлаш қоидаларини бузиш натижасида уларни йўқотиш ёки ишдан чиқариш, —

икки йилгача хизмат бўйича чеклаш ёки бир йилгача интизомий қисмга юбориш ёхуд уч йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

Ушбу модданинг биринчи ёки иккинчи қисмида назарда тутилган жиноятни биринчи марта содир этган ҳарбий хизматчи, агар у жиноят аниқланган кундан эътиборан ўттиз кунлик муддатда етказилган моддий зарарнинг ўрнини қоплаган бўлса, жавобгарликдан озод этилади.

Ушбу модданинг биринчи ёки иккинчи қисмида назарда тутилган қилмишлар жанговар вазиятда содир этилган бўлса,

— уч йилдан беш йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати (References)

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси [Матн] : 2023 йил 30 апрель. — Тошкент : Ўзбекистон, 2023. — 80 б.

2. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси [Матн] : 1994 йил 22 сентябрь (ўзгартиш ва қўшимчалар билан). — Тошкент : Адолат, 2024. — 420 б.

3. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси [Матн] : 1994 йил 22 сентябрь (ўзгартиш ва қўшимчалар билан). — Тошкент : Адолат, 2024. — 520 б.

4. Ўзбекистон Республикасининг “Мудофаа тўғрисида”ги Қонуни [Матн] : 2001 йил 11 май. — Тошкент : Ўзбекистон, 2023. — 32 б.

5. Ўзбекистон Республикасининг “Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида”ги Қонуни [Матн] : 2012 йил 12 декабрь. — Тошкент : Адолат, 2023. — 45 б.

6. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш — юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови [Матн]. — Тошкент : Ўзбекистон, 2017. — 48 б.

7. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси [Матн]. — Тошкент : Ўзбекистон, 2022. — 464 б.

8. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг “Ҳарбий хизматни ўташ тартибига қарши жиноятларга оид ишларни кўриш бўйича суд амалиёти тўғрисида”ги 23-сон қарори [Матн] : 2000 йил 15 сентябрь. — Тошкент, 2000.

9. Ўзбекистон Республикаси ИИВ, Бош прокуратура, ДХХ, ДБҚ, Миллий гвардия ва Олий суднинг “Электрон жиноий-ҳуқуқий статистика” ягона ахборот тизимини юритиш тартиби тўғрисида”ги қўшма қарори [Матн] : 2021 йил 15 ноябрь. — Тошкент, 2021.

НАРКОПРЕСТУПНОСТЬ КАК СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВОЕ ЯВЛЕНИЕ И УГРОЗА ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Хужамбердиев Фаррух Комилович,
доцент кафедры Уголовно-правовых дисциплин
Университета общественной безопасности Республики Узбекистан,
доктор философии по юридическим наукам

Наркопреступность представляет собой сложное и многоуровневое социально-правовое явление, включающее совокупность преступлений, связанных с незаконным оборотом наркотических средств, психотропных веществ и их аналогов, а также систему общественных отношений, формирующихся в процессе их совершения и противодействия им. В криминологическом аспекте она характеризуется устойчивостью, высокой степенью латентности, организованностью и способностью к адаптации к современным условиям, включая цифровизацию общественных процессов.

Современные научные подходы свидетельствуют о расширительном понимании сущности наркопреступности. Так, П.И. Иванов рассматривает её как системный фактор криминализации общества, оказывающий влияние на различные сферы общественных отношений[1]. С данной позицией в целом следует согласиться, поскольку наркопреступность действительно выходит за рамки отдельных уголовно наказуемых деяний и трансформируется в комплексное социальное явление. Вместе с тем представляется, что в условиях Республики Узбекистан данный подход требует уточнения, поскольку наркопреступность выступает не только фактором криминализации, но и **угрозой общественной безопасности и национальным интересам государства**, затрагивая здоровье населения и генофонд нации.

Социальная опасность наркопреступности проявляется в её разрушительном воздействии на общественные отношения, включая подрыв здоровья населения, формирование зависимого поведения, рост маргинализации и увеличение числа сопутствующих преступлений. В этой связи особое значение приобретает проблема молодежной наркопреступности. Л.В.Готчина обоснованно указывает на необходимость комплексной профилактики данного явления[2]. Представляется, что данная позиция является научно обоснованной, однако требует дальнейшего развития с учетом современных факторов, прежде всего цифровизации каналов распространения наркотических средств, а также активного вовлечения молодежи через интернет-пространство.

Развивая данную проблематику, М.И. Бодрова и В.А. Мерзлякова справедливо рассматривают антиобщественное поведение несовершеннолетних как одну из причин наркопреступности[3]. С данным выводом следует

согласиться, поскольку деформация ценностных установок и социальная дезадаптация действительно выступают важными криминогенными факторами. Вместе с тем представляется, что ограничение причин наркопреступности только поведенческими аспектами не отражает всей сложности проблемы, поскольку существенную роль играют также институциональные недостатки профилактики, социально-экономические условия и влияние организованных преступных структур.

Особую значимость в современных условиях приобретает транснациональный характер наркопреступности. По мнению А.Х.Феткулова, Н.М. Каримова и Ш.С.Тогайбаевой, международно-правовое регулирование является ключевым инструментом противодействия незаконному обороту наркотиков[4]. Данная позиция представляется обоснованной, учитывая трансграничную природу наркопреступности. Вместе с тем следует отметить, что в условиях Республики Узбекистан приоритетное значение имеет не только развитие международного сотрудничества, но и **укрепление внутренних механизмов обеспечения общественной безопасности**, включая совершенствование национального законодательства и усиление межведомственного взаимодействия.

Важным элементом эффективного противодействия наркопреступности является мониторинг наркоситуации. О.А. Бойко, С.Л. Панов и А.А. Урусов обосновывают необходимость внедрения научно обоснованных принципов мониторинга[5]. С данным подходом следует согласиться, поскольку без достоверной аналитической информации невозможно выработать эффективные меры противодействия. В то же время Е.Д. Проклина справедливо указывает на проблемы статистического учета наркопреступлений, что снижает качество анализа[6]. В этой связи представляется необходимым совершенствование системы учета и анализа наркопреступности, включая внедрение цифровых технологий и интеграцию информационных систем различных государственных органов.

В Республике Узбекистан наркопреступность рассматривается на уровне государственной политики как одна из ключевых угроз общественной безопасности. В Указе Президента Республики Узбекистан от 3 ноября 2025 года № УП-207 подчеркивается, что наркомания и наркопреступность представляют собой серьезную угрозу здоровью населения и генофонду нации, что требует реализации комплексных мер, включающих усиление уголовной ответственности, развитие профилактики и совершенствование межведомственного взаимодействия[7].

Особое внимание в данном нормативном акте уделяется борьбе с организованной наркопреступностью, выявлению подпольных

нарколабораторий, противодействию распространению наркотиков через сеть Интернет, а также защите несовершеннолетних от вовлечения в противоправную деятельность. Представляется, что данные направления отражают современные тенденции развития наркопреступности и соответствуют международной практике.

Наркопреступность оказывает непосредственное влияние на состояние общественной безопасности, дестабилизируя общественный порядок, способствуя росту преступности и формируя криминогенную среду. В этой связи обеспечение общественной безопасности требует комплексного подхода, включающего не только уголовно-правовые меры, но и эффективную систему профилактики.

В системе субъектов обеспечения общественной безопасности Республики Узбекистан важное место занимает Национальная гвардия, деятельность которой направлена на обеспечение общественного порядка, предупреждение правонарушений и защиту прав и свобод граждан. Несмотря на то, что непосредственное противодействие незаконному обороту наркотических средств относится к компетенции иных правоохранительных органов, наркопреступность оказывает существенное влияние на сферу деятельности Национальной гвардии.

Представляется, что роль Национальной гвардии в рассматриваемом контексте следует оценивать как **косвенную, но системно значимую**, поскольку именно она обеспечивает стабильность общественного порядка в условиях роста криминогенной нагрузки, вызванной распространением наркотических средств. Распространение наркопреступности приводит к увеличению числа правонарушений в общественных местах, осложняет обеспечение безопасности массовых мероприятий и требует усиления превентивной деятельности.

Проведённый теоретико-криминологический и уголовно-правовой анализ наркопреступности, а также рассмотрение научных подходов и нормативно-правовых основ её противодействия в Республике Узбекистан позволяют сделать вывод о том, что данное явление носит комплексный и системный характер, оказывая многоуровневое воздействие на состояние общественной безопасности.

Выявленные в ходе исследования особенности наркопреступности, включая её латентность, транснациональный характер, активную цифровизацию, а также вовлечение уязвимых социальных групп, прежде всего молодежи, свидетельствуют о недостаточности существующих мер противодействия и необходимости их дальнейшего совершенствования.

Кроме того, анализ показал наличие отдельных проблемных аспектов, связанных с фрагментарностью профилактических механизмов, недостаточной

интеграцией информационных систем, а также необходимостью более чёткого нормативного закрепления роли отдельных субъектов обеспечения общественной безопасности, в том числе Национальной гвардии.

В этой связи представляется обоснованным переход к формулированию конкретных предложений, направленных на совершенствование правового регулирования и практики противодействия наркопреступности в контексте обеспечения общественной безопасности Республики Узбекистан.

Во-первых, целесообразно внести изменения в нормативно-правовые акты, регулирующие сферу общественной безопасности Республики Узбекистан, предусмотрев положение о признании наркопреступности одной из ключевых угроз общественной безопасности, что обеспечит её приоритетный учёт при формировании государственной политики.

Во-вторых, предлагается внедрение механизмов противодействия цифровым формам наркопреступности, включая системный мониторинг интернет-пространства и совершенствование правового регулирования ответственности за распространение наркотических средств с использованием информационно-коммуникационных технологий.

В-третьих, необходимо усилить профилактическую направленность деятельности правоохранительных органов посредством развития межведомственного взаимодействия и внедрения программ раннего выявления вовлечения молодежи в незаконный оборот наркотических средств.

В-четвертых, целесообразно нормативно закрепить расширение превентивных функций Национальной гвардии Республики Узбекистан в сфере обеспечения общественного порядка в условиях распространения наркопреступности, включая участие в профилактических мероприятиях и выявлении криминогенных факторов в общественных местах.

Таким образом, наркопреступность следует рассматривать как комплексную и многоуровневую угрозу общественной безопасности, требующую системного и междисциплинарного подхода к противодействию. Анализ научных подходов позволяет сделать вывод о необходимости интеграции уголовно-правовых, криминологических и профилактических мер, а также усиления взаимодействия всех субъектов обеспечения общественной безопасности, включая Национальную гвардию.

Список использованной литературы:

1. Иванов Пётр Иванович О противодействии наркопреступности // Право и государство: теория и практика. 2024. №10 (238). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/o-protivodeystvii-narkoprestupnosti (дата обращения: 30.03.2026).

2. Готчина Л. В. Профилактика молодёжной наркопреступности // Криминология: вчера, сегодня, завтра. 2012. №24. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/profilaktika-molodyozhnoy-narkoprestupnosti (дата обращения: 30.03.2026).

3. Бодрова Мария Игоревна, Мерзлякова Валерия Анатольевна Антиобщественное поведение несовершеннолетних в системе причин наркопреступности // Образование и право. 2024. №5. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/antiobschestvennoe-povedenie-nesovershennoletnih-v-sisteme-prichin-narkoprestupnosti (дата обращения: 30.03.2026).

4. Феткулов Аликжан Халелович, Каримов Нурлан Махсотович, Тогайбаева Шолпан Серикбаевна Международно-правовое регулирование в противодействии с транснациональной торговлей наркотиков // НИР/S&R. 2024. №3 (19). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/mezhdunarodno-pravovoe-regulirovanie-v-protivodeystvii-s-transnatsionalnoy-torgovley-narkotikov (дата обращения: 30.03.2026).

5. Ольга Альбертовна Бойко, Сергей Леонидович Панов, Александр Алексеевич Урусов Принципы мониторинга наркоситуации // Вестник Сибирского юридического института МВД России. 2025. №1 (58). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/printsipy-monitoringa-narkosituatsii (дата обращения: 30.03.2026).

6. Проклина Е. Д. Проблемы и возможности использования статистических карточек учёта преступлений в сфере незаконного оборота наркотических средств // Вестник науки. 2026. №1 (94). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-i-vozmozhnosti-ispolzovaniya-statisticheskih-kartochek-uchyota-prestupleniy-v-sfere-nezakonnogo-oborota-narkoticheskih (дата обращения: 30.03.2026).

7. Указ Президента Республики Узбекистан от 03.11.2025 г. № УП-207 «О комплексных мерах по эффективной защите здоровья населения и генофонда нации от наркомании и наркопреступлений» Национальная база законодательства // URL: https://lex.uz/ru/docs/7818779 (дата обращения: 30.03.2026).

ЁШЛАР ҲУҚУҚБУЗАРЛИГИНИНГ ДЕТЕРМИНАЦИЯСИ: ИЖТИМОИЙ, ПСИХОЛОГИК ВА ҲУҚУҚИЙ ОМИЛЛАРНИНГ ЎЗАРО ТАЪСИРИНИ КОМПЛЕКС ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ

Арипов Акмал Хусниддинович,
Ўзбекистон Республикаси Криминология тадқиқоти
институти мустақил тадқиқотчиси

Охирги йилларда мамлакатимизда амалга оширилаётган янгиланиш ва ислоҳотлар шароитида ёшлар ўртасида ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ҳамда уларни турли салбий таъсирлардан ҳимоя қилишга қаратилган давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири сифатида комплекс ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Жумладан, жамоат хавфсизлиги ва осойишталигини таъминлаш борасида мутлақо янги институтционал ва ҳуқуқий механизмлар жорий этилмоқда. Шу билан бирга, ҳуқуқбузарликларнинг юзага келишида асосий рол ўйнаётган ижтимоий-маиший муаммоларни бартараф этиш мақсадида манзилли профилактик чора-тадбирлар тизими шакллантирилмоқда.

Амалий таҳлиллар ёшлар жиноятчилигининг ривожланишига таъсир этувчи қатор омилларни — хусусан, таълим соҳасидаги тизимли муаммолар, ишсизлик даражасининг юқорилиги, оилавий муҳитдаги низолар, ахборот маконидаги хавфсизлик камчиликлари, шунингдек, маҳалла ва жамоаларда ижтимоий назоратнинг етарли даражада ташкил этилмаганлигини — аниқ кўрсатмоқда. Мазкур омиллар ёшларни ҳуқуқбузарликка мойилликка олиб келаётган асосий таҳдидлар сифатида эътироф этилмоқда.Шу муносабат билан, 2023 йил 11 сентябрда қабул қилинган ПФ–158-сон *“Ўзбекистон — 2030” стратегияси тўғрисида”*ги Фармон[1] ва ундан келиб чиқадиган ҳолда 2025 йилда қабул қилинган “Республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги Президент қарори[2] ёшлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тизимини сифат жиҳатдан янги босқичга кўтаришга қаратилган. Ушбу норматив ҳужжатлар маҳаллалардаги профилактик фаолиятни қайта ташкил этиш, аҳолида шахсий хавфсизлик туйғусини шакллантириш ва жиноятчиликка олиб келувчи омилларни ўз вақтида аниқлаб, бартараф этишга йўналтирилган.

[1] *Мирзиёев Ш.М.* “Ўзбекистон — 2030” стратегияси тўғрисида”ги ПФ–158-сон Фармон // Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси // https://lex.uz/ru/docs/6600413

[2] *Мирзиёев Ш.М.* // “Республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-1-сон Қарори Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси // https://lex.uz/docs/7330260

Хусусан, мазкур қарорларда “маҳалла–профилактика инспектори–ёшлар етакчиси” ўзаро ҳамкорлик модели асосида ҳар бир ёш шахс билан индивидуал профилактик ишлар олиб бориш, “Ёшлар дафтари” ва “Ёшлар мониторинг жадвали” каби ахборот тизимлари орқали назорат ва кўмакни кучайтириш, таълим муассасаларида ҳуқуқий онгни юксалтиришга доир тарғибот ишларини мунтазам йўлга қўйиш белгиланган. Шунингдек, жиноятчилик хавфи юқори бўлган ҳудудларда видеокузатув, рақамли таҳлил ва ахборот платформаларидан самарали фойдаланиш орқали хавф гуруҳига кирувчи ёшларнинг хатти-ҳаракатини барвақт таҳлил қилиш механизми яратилмоқда.

Шу тариқа, “Ўзбекистон – 2030” стратегияси ва 2025 йилги Президент қарори ёшлар ҳуқуқбузарликларини олдини олишда нафақат ҳуқуқий, балки ижтимоий, маънавий ва ахборот-коммуникациявий ёндашувларни ҳам қамраб олган мукаммал тизимни шакллантиришга асос бўлиб хизмат қилмоқда. Бу эса, ўз навбатида, ёшларнинг ҳаётида ҳуқуқий маданият ва фаол фуқаролик позициясини мустаҳкамлашга, жамиятда барқарор хавфсиз муҳитни таъминлашга хизмат қилади.

Дарҳақиқат, ёшлар ўртасидаги ҳуқуқбузарликлар мураккаб ижтимоий-ҳуқуқий муаммо сифатида криминология фанининг марказий тадқиқот йўналишларидан бири саналади. Криминолог олимлар жиноятчиликни умумий ижтимоий муаммо сифатида баҳолар экан, унинг ёшлар орасидаги шакли алоҳида эътибор талаб этади. Криминология фанида ёшлар ҳуқуқбузарлигининг сабаблари ва шароитлари, жиноятчи шахсининг хусусиятлари ҳамда ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш механизмлари таҳлил қилинади.

Шу ўринда, *М.Ш. Холмирзаев*нинг илмий назарий қарашича[1], ҳуқуқбузарликни самарали профилактика қилиш учун, энг аввало, уни келтириб чиқарувчи ижтимоий, иқтисодий, маънавий ва ҳуқуқий омилларни аниқлаш ва таҳлил этиш зарур. У ёшлар ўртасидаги ҳуқуқбузарликлар кўп ҳолларда жамиятдаги ижтимоий тенгсизлик, оиладаги муаммолар, таълим тизимидаги камчиликлар ва бўш вақтни мазмунли ўтказиш имкониятларининг йўқлиги билан боғлиқлигини таъкидлайди. *Қ.Р.Абдурасулованинг* таърифича[2], криминология фани ёшлар томонидан содир этиладиган жиноятларни ижтимоий-ҳуқуқий хулқ-атвор сифатида ўрганади. Унинг таъкидлашича, ҳуқуқбузарликка мойиллик шахсдаги маънавий, руҳий ва ижтимоий қарама-қаршиликлардан келиб чиқади ва бу жараённи жиноятчиликнинг ижтимоий-психологик механизмлари доирасида таҳлил қилиш лозим бўлади.

[1] *Холмирзаев М.Ш. Жиноятчиликни криминологик прогнозлаш: муаммо ва ечимлар*. – Т.: Магистрлик диссертацияси. 2022 й. 47-бет.
[2] *Абдурасулова Қ.Р. Криминология*. – Тошкент: ТДЮИ, 2008. – 305 б.

А.Ташпулатов[1] бўлса, ёшлар ҳуқуқбузарлигини шахснинг ижтимоий муҳитдаги носоғлом таъсирлар натижасида вужудга келадиган ҳуқуққа қарши фаолияти сифатида таърифлайди. Унинг фикрича, таълим ва тарбия тизимидаги етишмовчиликлар, оиладаги низолар, назоратнинг йўқлиги ёшларни ҳуқуқбузарликка мойил қилади. Шунингдек, Ташпулатов ёшларнинг турмуш даражаси паст бўлган маҳаллаларда кўпроқ ҳуқуқбузарликка қадам қўйишини таъкидлайди. *З.Абдураҳмонов*[2] эса ҳуқуқбузарликни ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданият даражасининг пастлиги билан боғлайди. Унинг таҳлилида, ёшлар ўртасида ҳуқуқий тарғибот ишларининг самарасизлиги ва ҳуқуқий хабардорликнинг етишмаслиги муҳим омил сифатида қайд этилган. *А.А.Абдилҳамедов*[3] бўлса, ёшлар жиноятчилиги мураккаб ижтимоий-ҳуқуқий муаммо бўлиб, унинг илдизлари жамиятдаги сиёсий, маънавий, иқтисодий ва ҳуқуқий жараёнлар билан чамбарчас боғлиқ. А.А.Абдилҳамедовнинг таъкидлашича, ёшлар томонидан содир этилаётган жиноятлар ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш бевосита уларнинг таълим-тарбия даражаси, ҳаётий мақсадлари ва бандлик имкониятлари билан узвий боғлиқдир. Шунингдек, муаллиф ўз мақоласида ёшларнинг ҳуқуқий маданияти ва онгини юксалтириш, уларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш, таълим-тарбия тизимидаги сифат ва назоратнинг кучайтирилиши ҳуқуқбузарликлар профилактикасида муҳим омил ҳисобланади дейди. Бундан ташқари у, Президент Шавкат Мирзиёевнинг таълим соҳасига қаратган эътибори, “Ёшлар – келажагимиз” давлат дастури, “Ўзбекистон – 2030” стратегиясида ёшлар масаласига устувор ўрин берилиши бу соҳадаги давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири эканлигига алоҳида урғу беради. Шу билан бирга муаллиф ёшлар ҳуқуқбузарлигига таъсир этувчи асосий омиллар сифатида қуйидагилар кўрсатиб ўтади. Буларга: *оиладаги носоғлом ижтимоий-руҳий муҳит; таълим муассасаларида назоратнинг сусайиши; тарбия ва ҳуқуқий онг етишмовчилиги; жиноятчи шахслар таъсири; ёшларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этмаслик; ишсизлик ва иқтисодий ночорлик.*

Муаллиф ёшлар билан ишлашда тарбиявий таъсирни кучайтириш, тарбияси оғир ўсмирлар билан индивидуал ёндошувни шакллантириш ва оилавий муносабатларни соғломлаштиришга доир таклифлар илгари суради. Бундан ташқари, жиноят содир этган ёшларни фақат жазолаш эмас, балки уларни

[1] *Ташпулатов А.* “Ёшлар ҳуқуқбузарлиги: назария ва амалиёт”. – Т.: “Адолат”, 2018. – Б. 46–49

[2] *Абдураҳмонов З.* “Жиноятчиликка қарши курашишнинг назарий-ҳуқуқий асослари”. – Т.: Юриспруденция, 2020. 103–106-бетлар.

[3] *Абдилҳамедов А.А.* “Ёшлар томонидан содир этиладиган жиноятларнинг олдини олишда таълим ва тарбиянинг ўрни ҳамда бандлигини таъминлашнинг долзарблиги” // 2024 йилда “Oriens” журналининг 4(21)-сони / https://oriens.uz/media/conferencearticles/75

жамиятга қайтариш, қайта тарбиялаш ва ижтимоий адаптациялаштириш йўлларини ишлаб чиқиш зарурлиги таъкидлайди.

Марказий Осиё минтақаси олимларидан **Қозоғистонлик** *С.Жуманалиев*[1] ёшлар ўртасидаги ҳуқуқбузарликлар сабабини жамиятдаги ижтимоий тенгсизлик, ишсизлик ва маънавий қадриятларнинг инқирози билан боғлайди. Унинг фикрича, давлат органларининг ёшларга доир профилактик фаолияти етарлича самарали йўлга қўйилмаган.

Шунингдек, **Россиялик** олимлар ҳам ушбу муаммони ҳар томонлама таҳлил қилган. Хусусан, *В.Н.Кудрявцев* ёшлар жиноятчилигини жамиятдаги умумий криминоген муҳит, ноқонуний фаолиятнинг ижтимоий тўсиқларсиз тарғиб қилиниши, ва ҳуқуқбузарликларга жазо муқаррарлигининг пастлиги билан изоҳлайди[2]. *В.И.Шульга*[3] эса ўзининг дарслигида жиноятчи шахсининг шаклланишига таъсир этувчи омиллар қуйидагича таснифлайди: ижтимоий муҳит (оила, дўстлар, таълим муассасалари), иқтисодий аҳвол, шахсий психологик хусусиятлар ва оммавий ахборот воситалари орқали таъсир кўрсатувчи маданий қадриятлар. Ушбу мулоҳазалардан келиб чиқиб, ёшлар ҳуқуқбузарликларини тушунишда шахснинг ижтимоий муҳит билан ўзаро таъсири алоҳида ўрин тутади. Шунингдек, *Л.М. Прозументов* ва *А.В.Шеслернинг*[4] илмий назарий қарашича, ёшлар ўртасидаги ҳуқуқбузарликлар турли даражадаги криминоген детерминантлар таъсирида юзага келади. Улар умумижамият (масалан, ишсизлик, камбағаллик), ижтимоий-психологик (масалан, назардан четда қолиш, тушкунлик), ҳамда шахсий (маънавий ва руҳий ҳолатлар) сабабларга бўлинади.

Европа олимлари эса ҳуқуқбузарликнинг асосий сабаблари сифатида ёшларнинг ижтимоий адаптация жараёнидаги муаммоларини таъкидлашади. Масалан, **Германиялик** *Э.Келманинг*[5] фикрича, ёшлар учун таълим тизимидаги рақобатбардошлик босими, иш ўрни топишдаги қийинчилик ва индивидуалистик қарашларнинг устуворлиги уларнинг анти-ижтимоий хулқини шакллантиради.

Шунингдек, **АҚШ** олимлар *Т.Хирши* ва *Т.Шавингерлар* томонидан ишлаб чиқилган “ижтимоий боғлиқлик назарияси”га кўра, ёшлар ҳуқуқбузарлик содир этишига сабаб бўлувчи асосий омиллардан бири – уларнинг жамиятнинг расмий

[1] *Жуманалиев С. “Молодежь и преступность: социологический анализ”. – Алматы: 2017. – С. 87–90*
[2] *Кудрявцев В.Н. “Социология преступности”. – Москва: НОРМА, 2009. – С. 134–138*
[3] *Шульга В.И. Криминология: Учебное пос.* – Владивосток: ВГУЭС, 2008. - 132 с.
[4] *Прозументов Л.М., Шеслер А.В. Криминология (Общая часть).* – Томск: ТГУ, 2017. – 284 с.
[5] *Kellmann, E.* “Youth Crime in Europe: Causes and Interventions.” – European Journal of Criminology, Vol. 12, No. 2, 2016. – pp. 122–126

институтлари (оила, мактаб, иш жойи ва бошқалар) билан боғлиқлигининг заифлигидир[1].

Бундан ташқари, UNESCO ва UNODC каби халқаро ташкилотлар[2] томонидан ўтказилган тадқиқотлар ёшлар ҳуқуқбузарлигига олиб келадиган сабаблар ичида ижтимоий адолатсизлик, гендерга оид камситишлар, интернетдаги зўравонлик тарғиботи ва миграцион омилларни ҳам қайд этади.

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлигининг 2024 йил *январь-июнь ойлари* бўйича расмий маълумотлари[3] мамлакатимизда ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, айниқса ёшлар ўртасида жиноятчиликка қарши профилактик тадбирларни амалга оширишда муайян самараларга эришилаётганини кўрсатади. Жумладан, маҳаллаларда хавфсиз муҳитни яратиш, жиноятга мойил ёшлар билан манзилли ишлар олиб бориш, уларни спорт, маданият ва ижтимоий ҳаётга фаол жалб қилиш борасидаги чора-тадбирлар ижобий натижаларни бермоқда. Шу билан бирга, жиноятчилик кўрсаткичларининг таҳлили ҳуқуқбузарликлар муаммоси тўлиқ бартараф этилмаганини ва айрим ёш гуруҳларида жиноий фаоллик юқорилигича қолаётганини ҳам кўрсатмоқда.

Хусусан, 2024 йилнинг биринчи ярим йиллигида жиноят содир этган шахсларнинг ёш тоифалари бўйича тақсимотини таҳлил қилиш шундан далолат беради, умумий жиноятчилар орасида энг катта улуш 31 ёш ва ундан катта фуқаролар ҳиссасига тўғри келиб, улар 56,8% ёки 11 006 нафарни ташкил этган. Бундан кейинги ўринни 18-30 ёшли ёшлар эгаллаб, улар жиноятчилар умумий сонининг 38,0%ини, яъни 7 362 нафарни ташкил қилган. Шунингдек, 15-17 ёшли ўсмирлар орасида жиноят содир этганлар 4,7% (904 киши), 13-14 ёшли ноболиғлар эса 0,6% (120 киши)ни ташкил қилгани қайд этилган.

Жиноят турлари бўйича таҳлил шуни кўрсатмоқдаки, 31 ёш ва ундан юқори ёшдаги фуқаролар орасидаги жиноятларнинг асосий қисмини ўғрилик (13,4%) ва фирибгарлик (7,5%) ташкил этган. 18-30 ёшли ҳуқуқбузарлар ўртасида эса ўғрилик 20,5%, фирибгарлик 6,3% ва безорилик 5,8% кўрсаткичга эга бўлган. Бу кўрсаткичлардан маълумки, ушбу ёш тоифасида моддий манфаат орттиришга қаратилган жиноятлар билан бир қаторда оммавий тартибсизлик ва безорилик ҳолатлари ҳам кенг тарқалган.

Айниқса, ўспиринлар — яъни 15-17 ёшлилар орасида жиноят турларининг таҳлили қайд этилишича, жиноятларнинг катта қисмини ўғрилик (41,0%), безорилик (12,7%) ва зўравонлик хусусиятига эга бўлган талончилик ва

[1] *Hirschi T.* “Causes of Delinquency”. – Berkeley: University of California Press, 1969.

[2] UNODC. "Global Study on Children Deprived of Liberty". – Geneva, 2019. // UNESCO. "Youth and Violent Extremism on Social Media". – Paris, 2017.

[3] Ўзбекистон Республикасининг 2024 йилнинг январь-июнт ойиларидаги ҳуқуқбузарликлар ҳолати // https://stat.uz/img/chorak_natijalar/yanvar-iyun/uz/ 17_khuubuzarlik_p15960.pdf

босқинчилик (7,6%) ташкил этган. Бу эса, ёшлар ўртасида ҳуқуқий тарбия ва ижтимоий назоратнинг заифлашуви, уларнинг психологик ва руҳий эҳтиёжларининг эътиборсиз қолишини кўрсатади.

13–14 ёшли ноболиғлар ўртасида энг кўп қайд этилган жиноят турлари ўғрилик (68,3%) ва безорилик (10,8%) бўлгани ҳолда, бу ҳолат ушбу ёшда ҳуқуқбузарликка мойилликнинг эрта юзага келаётгани, аҳолининг ушбу қатламига нисбатан махсус профилактик ёндашувларни шакллантириш зарурлигини таъкидлайди.

Умуман, юқоридаги статистик таҳлиллардан хулоса қилиб айтиш мумкинки, мамлакатимизда амалга оширилаётган профилактик чора-тадбирлар айрим ижобий самаралар бермоқда. Бироқ ёшлар ўртасида ҳуқуқбузарлик кўрсаткичлари юқорилигича қолаётгани уларнинг ижтимоий интеграцияси, ҳуқуқий тарбияси ва бандлигини таъминлаш бўйича чораларни янада кучайтириш зарурлигини тақозо этмоқда. Бу эса таълим, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар, маҳалла, нодавлат ташкилотлар ва оилаларнинг самарали ҳамкорлигини таъминлашни талаб этади.

Шу ўринда, ёшлар тмонидан содир эитлган ҳуқуқбузарлик ҳолатининг амалий ҳолатига тўхталиб ўтсак, Хусусан, 2024 йил 18 январь куни Тошкент шаҳрининг Чилонзор туманида ҳуқуқбузарлик содир этилган. Воқеага кўра, ёш шахс *К.Отабек* фуқаро *Ф.М.*нинг уяли телефонини “қўнғироқ қилиб олиш” баҳонасида сўраб, телефонни қайтармаган ҳолда воқеа жойидан йўқолган. Бу ҳолат Жиноят кодексининг 166-моддаси — “Талончилик” — яъни очиқдан-очиқ равишда мулкни талон-торож қилиш жиноий ҳаракати сифатида баҳоланиб, унга нисбатан жиноят иши қўзғатилган ва суд томонидан айбдор деб тан олинган.

Мазкур жиноий ҳаракат айбланувчи томонидан алдамчилик йўли билан ишонч қозониш, мулкни вақтинча сўраш орқали очиқдан-очиқ талончиликка ўтиш каби ахлоқий-ҳуқуқий чегараларни бузиш ҳолати эканини кўрсатади. Ушбу воқеа жиноятлар профилактикасини кучайтириш зарурлигини яна бир бор яққол намоён этади.

Эндиликда мазкур ҳуқуқбузарликни илмий нуқтаи назардан таҳлил қилиб ўтсак мақсадга мувофиқ бўлади. Жумладан:

Сабаблар ва шарт-шароитларнинг тизимли классификацияси

Криминология фанида ҳуқуқбузарликларни келтириб чиқарувчи омиллар анъанавий равишда икки гуруҳга бўлинади: сабаблар *(субъектив, яъни шахснинг ички хулқ-атвори ва руҳий ҳолатига боғлиқ омиллар)* ва шарт-шароитлар *(объектив, яъни ижтимоий муҳит, оилавий вазият, иқтисодий ҳолат, таълим сифати ва ҳоказолар).*

1. Субъектив сабаблар (шахсга боғлиқ ички омиллар):

1.1. *Ҳуқуқий онг ва маданиятнинг пастлиги*

Жиноятни содир этган ёш шахс қонунга бўлган ҳурмат, ҳуқуқий масъулият туйғуси ва ҳуқуқий оқибатларни баҳолаш қобилияти етарлича шаклланмаганлигини намоён қилди. *Ф.Пахруддинов* таъкидлашича, “ҳуқуқий онгнинг етишмаслиги — ёшлар ўртасидаги жиноятчиликнинг фаол омилларидан бири ҳисобланади”[1];

1.2. *Тарбиявий муаммолар ва руҳий тўғрилашнинг йўқлиги*

Шахснинг болаликдан бошлаб ахлоқий-этик нормаларни ўзлаштириши, ноқонуний йўл билан муваффақиятга эришиш назариясига қарши иммунитетнинг шаклланиши зарур. Мазкур ҳолатда бу жараён амалга ошмаган. *В.И.Шульга* бу ҳолатни “шахсни жиноятга мойил қилиб қўювчи ички психологик механизм” деб таърифлайди[2];

1.3. *Интернет ва ахборот муҳитининг салбий таъсири*

Ёшлар ўртасидаги кўплаб жиноятлар глобал ахборот маконидаги зўравонлик, бойликка осон йўл билан эришишни тарғиб қилувчи контентлар таъсирида шаклланмоқда. Буни *И.Исмоилов* ёшлар ҳуқуқбузарлигидаги "ахборот-нисбий сабаблар" деб атайди[3].

2. Объектив шарт-шароитлар *(ижтимоий муҳит ва ташқи таъсирлар)**:***

2.1. *Оила муҳити ва ижтимоий назоратсизлик*

Ўртача ёшдаги шахсларнинг ҳуқуқбузарликка мойил бўлиши оиладаги муносабатлар, назорат, тарбия ва аҳлоқий қийматларга боғлиқ. Зиёдуллаев таъкидлаганидек, “жиноятчилик оиладаги ижтимоий функцияларнинг бузилиши билан боғлиқ ҳолда кўпаймоқда”[4];

2.2. Маҳаллаларда профилактика назоратининг заифлиги

Фуқаронинг жамоат жойида уяли телефонини қўнғироқ қилиб олиш баҳонасида алдов йўли билан олиб кетилиши, маҳаллий профилактика инспекторлари ва жамоат назорати тизимининг самарасизлигини кўрсатади. ИИВ 2024 йил ҳисоботида ҳам ёшлар ўртасида содир этилаётган жиноятлар ортиши маҳаллаларда профилактиканинг кучсизлиги билан изоҳланади[5];

2.3. *Иқтисодий жиҳатдан ночорлик ва ишсизлик*

Ёшлар томонидан жиноят содир этилишида моддий эҳтиёж асосий омиллардан бири сифатида намоён бўлади. Телефон каби моддий неъматни “очиқдан-очиқ тортиб олиш” — бу эҳтиёжнинг ноқонуний қондирилиш шакли.

---

[1] *Пахруддинов Ф. Криминология. Дарслик.* – Тошкент: Адолат, 2021 й. 117–118-бетлар.

[2] *Шульга В.И. Криминология: Учебник.* – Москва: Юрайт, 2016. – С. 238.

[3] *Исмоилов И. Ёшлар ҳуқуқбузарликларида ахборот муҳитининг таъсири. // Ҳуқуқ ва Ижтимоий Ҳаёт,* 2023, №4, 45–48-бетлар.

[4] *Зиёдуллаев М. Криминология назарияси ва амалиёти.* – Тошкент, 2020. 132-бет.

[5] ИИВнинг 2024 йил биринчи ярим йиллик ҳисоботи. – Тошкент, 2024.

Абдилхамедов А.А. ёшлар ҳуқуқбузарлигини иқтисодий жиҳатдан “ижтимоий тенгсизлик ва адолатсиз тақсимот” билан боғлайди[1].

Юқорида келтирилган маълумотлардан келиб чиқиб, ҳозирги глобаллашув шароитида *ёшлар ҳуқуқбузарликлари* жамиятнинг энг долзарб ижтимоий-ҳуқуқий муаммоларидан бирига айланган бўлиб, ушбу муаммонинг барвақт олдини олиш масаласи барча тараққий топган давлатлар давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири сифатида қаралади. Ўзбекистонда ҳам “Ўзбекистон – 2030” стратегияси ва 2025 йилги Президент қарори (ПҚ-69-сон, 2025 йил 12 январь) доирасида маҳаллаларда хавфсиз муҳитни яратиш, ёшларни ҳуқуқбузарликлардан асрашга қаратилган тизимли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда[2].

Шу ўринда, криминология фанидан маълумки, ҳуқуқбузарликни келтириб чиқарувчи омиллар шартли равишда субъектив (шахсий) ва объектив (ижтимоий) детерминантларга бўлинади[3]. Ўзбекистонлик криминолог олимлар *М.Ш.Холмирзаев, А.Ташпулатов, З.Абдураҳмонов, А.А.Абдилҳамедов* кабилар таъкидлашича, ёшлар ҳуқуқбузарликларига кўп ҳолларда қуйидаги омиллар сабаб бўлади: таълим ва тарбия тизимидаги етишмовчиликлар, ишсизлик, ижтимоий тенгсизлик, оиладаги руҳий носоғлом муҳит, ҳуқуқий онг ва маданиятнинг пастлиги ҳамда ахборот хавфсизлиги бўйича назоратнинг йўқлиги[4]. Жумладан, *А. Ташпулатов* ёшлар ҳуқуқбузарлигини “шахснинг ижтимоий муҳитдаги носоғлом таъсирлар натижасида ҳуқуққа қарши фаолият шаклида намоён бўладиган ижтимоий девиант хулқ-атвор” деб таърифлайди ва унинг келиб чиқишида таълим, оила, назоратсизлик каби факторларнинг ролини алоҳида кўрсатади[5]. Мазкур назарий ёндашувни *З.Абдураҳмонов* ҳам қўллаб-қувватлаб, ҳуқуқий онгнинг пастлиги ва ҳуқуқий тарғибот ишларининг самарасизлигини асосий хавф омили сифатида баҳолайди[6].

Халқаро тажриба таҳлили ҳам мазкур омилларни инкор этмасдан, уларни бартараф этишда илғор моделларни таклиф қилади. Масалан, **Японияда** “KOBAN” тизими орқали ҳар бир маҳаллада профилактика инспекторлари доимий равишда жамоат билан мулоқотда бўлиб, ҳуқуқбузарликни илк босқичда аниқлашга эришилмоқда[7]. Бу амалиёт Ўзбекистонда ҳам маҳалла –

---

[1] *Абдилхамедов А.А. Ёшлар ҳуқуқбузарлиги ва унинг ижтимоий-иқтисодий омиллари. – // Жамият ва Қонун*, 2024, №2, Б. 68–71.

[2] Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-69-сон қарори, 2025 йил 12 январь; lex.uz

[3] *Холмирзаев М.Ш.* Криминология. – Т.: Adolat, 2021. – Б. 45–50.

[4] *Ташпулатов А.* Жиноятчиликка қарши курашда профилактиканинг ўрни. – Тошкент, 2022.

[5] *Абдураҳмонов З.* Жиноятчиликка қарши курашишнинг назарий-ҳуқуқий асослари. – Тошкент, 2020. – Б. 61–66.

[6] *Абдураҳмонов З.* Жиноятчиликка қарши курашишнинг назарий-ҳуқуқий асослари. – Тошкент, 2020. – Б. 61–66.

[7] *Tokyo Metropolitan Police Department*, “Koban System.” Accessed: https://www.keishicho.metro.tokyo.lg.jp

профилактика инспектори – ёшлар етакчиси ҳамкорлик моделини шакллантириш бўйича қабул қилинган норматив ҳужжатлар билан ҳамоҳанг ҳисобланади[1].

Германияда эса “менторлик дастурлари” (Mentoring Programs) орқали ҳуқуқбузарлик содир этган ёшларни қайта ижтимоий ҳаётга адаптация қилиш механизми йўлга қўйилган. Менторлар ёш шахсларни психологик қўллаб-қувватлайди, таълим ва меҳнат бозоридаги имкониятлар билан таништиради[2]. Ўзбекистонда бу борада “Ёшлар дафтари” ва “Ёшлар мониторинг жадвали” ахборот тизимлари орқали муайян даражадаги кузатув амалга оширилаётган бўлса-да, менторлик институти ҳануз жорий қилинмаган.

Швецияда эса жиноятчиликни бартараф этишда таълим тизими асосий институт сифатида хизмат қилади. Мактаблар “ўқувчида қонунга ҳурмат ва фуқаролик масъулиятини шакллантириш”да дастлабки ижтимоий институт сифатида фаолият юритади[3]. Бу тажрибадан келиб чиқиб, Ўзбекистон мактабларида *“Ҳуқуқий маданият ва фуқаролик маъсулияти”* фанини жорий этиш мақсадга мувофиқдир.

Шунингдек, **АҚШ**даги *Т.Хирши* ва *Т.Шавингер* томонидан ишлаб чиқилган “ижтимоий боғлиқлик назарияси”га кўра, шахснинг ҳуқуқбузарликка мойиллиги, унинг жамиятнинг расмий институтлари (оила, мактаб, иш жойи) билан боғлиқлигининг заифлиги билан узвий боғлиқ[4]. Демак, ўзбекистонлик ёшларнинг ҳам жамият институтларига интеграциясини мустаҳкамлаш мақсадида уларни таълим, касб, маданият ва спорт орқали банд қилиш долзарб вазифа сифатида қаралиши лозим.

Хулоса ўрнида, юқорида келтирилган таҳлиллардан келиб чиқиб, ёшлар ҳуқуқбузарликларини бартараф этиш учун қуйидаги таклифлар илгари сурилади:

биринчидан, ҳар бир маҳаллада “KOBAN” услубида профилактика ва жамоат назорати пунктларини жорий этиш (Япония тажрибаси);

иккинчидан, ҳуқуқбузар ёшларга индивидуал менторлик дастурини жорий этиш ва уларни жамиятга қайта интеграциялаш (Германия);

учинчидан, таълим муассасаларида мажбурий “ҳуқуқий онг ва фуқаролик маданияти” фанини жорий этиш (Швеция);

тўртинчидан, ёшлар бандлигини таъминлаш учун ҳудудий интеграция марказларини ташкил этиш (Франция);

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-158-сон Фармони, 2023 йил 11 сентябрь. lex.uz

[2] *German Federal Youth Program*, “Mentoring for Crime Prevention.” 2022.

[3] *Swedish National Agency for Education*, “Values and Rights in Swedish Schools.” 2021.

[4] *Hirschi T. Causes of Delinquency.* Berkeley: University of California Press, 1969.

бешинчидан, махсус тарбия муассасаларида жиноят содир этган ёшлар учун реабилитация-психологик ёрдам дастурларини ишлаб чиқиш (Канада, АҚШ).

GIYOHVANDLIK: TIBBIY –IJTIMOIY MUAMMO

Q.A.Maxmudov,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetit
Maxsus taktik tayyorgarlik va jangovar qo‘llash kafedrasi katta o‘qituvchisi, tibbiyot fanlari nomzodi,
M.X. Ismatullaeva
Maxsus fakultet 3-bosqich talabasi

Maqolada giyohvandlik muammosi ijtimoiy xavf sifatida ko‘rib chiqilgan. Giyohvand moddalarni iste’mol qilish shaxsga va jamiyatga katta zarar yetkazadi. Giyohvand moddalarni iste’mol qiluvchilarning asosiy qismini yoshlar tashkil etadi va giyohvandlik oqibatlaridan biri aholining eng faol qismining jismoniy hamda ijtimoiy tanazzulga uchrashidir.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) Ustavida sog‘liqning eng yuqori darajasi insonning asosiy huquqlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Shuningdek, inson salomatligiga ta’sir qiluvchi yoki kasallik rivojlanishiga olib keluvchi xavf omillari haqida axborot olish huquqi ham muhimdir. Inson uchun tashqi muhit nafaqat tabiat, balki jamiyat hamdir.

Qadimgi yunon faylasufi Fales Miletlik yozgan edi: kimning tanasi sog‘lom, ruhi sezgir va tarbiyaga moyil bo‘lsa, o‘sha baxtlidir.

Ijtimoiy xavf-xatarlar — bu jamiyatda keng tarqalgan va inson hayoti hamda sog‘lig‘iga tahdid soladigan hodisalardir. Ijtimoiy xavf-xatarning bir ko ‘rinishi bu giyohvandlikdir. Giyohvandlik yunoncha so‘zlardan “narke” — karaxtlik, “mania” — telbalik, zavq ma’nosida yuzaga kelgan. Shu o‘rinda tibbiy jihatdan gihvandlik va giyohvand modda to‘g‘risida ma’lumotlarni kiritamiz.

JSSTning ta’rifiga ko‘ra: Giyohvandlik — bu organizmning narkotik moddaga nisbatan jismoniy va/yoki ruhiy qaramlik holati bo‘lib, u giyohvand moddaning doimiy yoki davriy qabul qilinishiga kuchli ehtiyoj (tortilish) bilan tavsiflanadi. Bu holat organizm faoliyatining o‘zgarishiga, xulq-atvor buzilishlariga va giyohvand modda qabul qilishni to‘xtatganda abstinensiya sindromining paydo bo‘lishiga olib keladi. Giyohvandlik sog‘liqni buzadi, ruhiyatga zarar yetkazadi va hayot sifatini keskin yomonlashtiradi.

JSST ta’rifida giyohvandlikning asosiy belgilari: moddaga kuchli ehtiyoj (psixik qaramlik), organizmning moslashuvi (tolerantlik), qabul qilish to‘xtatilganda og‘ir holat (abstinensiya), modda qabul qilish ustidan nazoratning yo‘qolishi.

Giyohvand yani Narkotik modda — bu markaziy asab tizimiga ta’sir qiluvchi, insonning ruhiy holati, onggi, kayfiyati va xulq-atvorini o‘zgartiradigan hamda qayta-qayta qabul qilinganda ruhiy va/yoki jismoniy qaramlik keltirib chiqaradigan moddadir.

JSSTga ko‘ra narkotik moddalar quyidagi xususiyatlarga ega: ong va hissiyotlarga ta’sir qiladi, vaqtincha yoqimli holat (eyforiya) berishi mumkin, lekin muntazam qabul qilinganda qaramlikka olib keladi, sog‘liq va ijtimoiy hayotga jiddiy zarar yetkazadi.

Giyohvand moddalarni suiiste’mol qilish qadim zamonlardan ma’lum bo‘lsa-da, hozirgi kunda u butun dunyo jamoatchiligini tashvishga soladigan darajada keng tarqaldi. JSST ma’lumotlariga ko‘ra, giyohvand moddalar erta o‘lim sababchilari orasida birinchi o‘rinni egallab, yurak-qon tomir kasalliklari va saratonni ham ortda qoldirdi.

Giyohvandlik butun insoniyat uchun tahdiddir. Hozirgi vaqtda dunyodagi barча giyoxvandlarning aksariyatining yoshi 24 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Giyohvand moddalarni iste’mol qilish mamlakatimizda ham eng jiddiy muammolardan biridir. Giyohvandlar soni doimiy ravishda ortib bormoqda, ularning o‘rtacha yoshi esa kamayib bormoqda. Muammo jinoyatchilik, turli infeksiyalar, jumladan OITS yuqtirish xavfi bilan yanada og‘irlashmoqda.

Giyohvandlikning paydo bo‘lishi eyforiya beruvchi, hushdan ketkazuvchi yoki rag‘batlantiruvchi ta’sir bilan bog‘liq. Bu ta’sir qanchalik kuchli bo‘lsa, shunchalik tez odatlanish yuz beradi. Giyohvandlik qiziqish, tajriba qilish, og‘riq qoldiruvchi yoki uyqu dorilarini qabul qilish natijasida ham yuzaga kelishi mumkin. Birinchi marta iste’mol qilish sabablari juda ko‘p, ammo eng ko‘p uchraydiganlari quyidagilar:

Qiziqish tufayli iste’mol qilish. Inson tabiatan qiziquvchan. Ayniqsa yoshlar yangi hissiyotlarni izlaydi. Ba’zan xavf haqida ogohlantirishlar ham ularni jalb etadi.

Zavq olish uchun iste’mol qilish. Inson quvonch va rohatni his qilishni xohlaydi. Eng oson yo‘l — kimyoviy modda orqali holatini o‘zgartirish.

Ota-onaga qarshi norozilik sifatida. “Men o‘zim hayotimni boshqaraman” degan qarash.

Ruhiy bosimni kamaytirish uchun. O‘ziga ishonmagan inson moddani himoya vositasi sifatida qabul qiladi.

Har bir inson giyohvandlikka tortilish xavfi ostida. Bu muammo bitta sabab bilan emas, balki ko‘plab omillar bilan yuzaga keladi.

Giyohvandlikni keltirib chiqaruvchi ichki omillar shaxsiy xususiyatlarga bog‘liq bo‘lib, ular quyida keltirilgan:

o‘zini shaxs sifatida past baholash, passiv hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lish, tajovuzkorlik, ijtimoiy himoyasizlik hissi, qiziqishlarning yo‘qligi, qaror qabul qila

olmaslik, o‘zini nazorat qilolmaslik, “yo‘q” deya olmaslik, muloqot ko‘nikmalarining rivojlanmaganligi va boshqalar.

Tashqi omillar esa ijtimoiy muhit bilan bog‘liq:

tengdoshlarining bosimi, giyohvandlar bilan aloqada bo‘lish, o‘qishdagi qiyinchiliklar, oilaviy muammolar, yolg‘izlik, stress, zo‘ravonlik, jamiyatdagi o‘zgarishlar va boshqalar.

Giyohvandlik rivojlanishining xavf omillari uch guruhga bo‘linadi:

ijtimoiy (moddaning mavjudligi, moda, tengdoshlar ta’siri);

psixologik (shaxs xususiyatlari, hissiyotlarga intilish);

biologik (organizmdagi moyillik).

Eng xavfli omil — ijtimoiy omil bo‘lib, ayniqsa guruh ta’siri muhim rol o‘ynaydi. Giyohvandlikning ijtimoiy xavfi quyidagilardan iborat:

Birinchidan, giyohvandlar yomon ishchilar bo‘ladi, chunki ularning sog‘ligi yomon va fikrlari faqat modda topishga qaratilgan.

Ikkinchidan, u jamiyatga katta moddiy va ma’naviy zarar yetkazadi, jinoyatchilikni oshiradi.

Uchinchidan, oilaga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, hatto kelajak avlodga ham zarar yetkazadi.

To‘rtinchidan, giyohvandlar tez nobud bo‘ladi va boshqalarni ham bu yo‘lga tortadi.

Beshinchidan, bu butun millat salomatligiga tahdid solidi

Oltinchidan, giyohvandlik axloqiy qadriyatlarni yemiradi.

Giyohvandlikning xavf guruhiga kiruvchilar: ijtimoiy jihatdan (aqliy, ruhiy) yetilmagan, psixologik jihatdan ta’sirchan, irodasi sust yoshlar, o‘zini boshqalardan ustun deb biladiganlar, qiziqishlari rivojlanmagan o‘smirlar, nosog‘lom oilalardan chiqqan bolalar, huquqbuzarlikka moyil shaxslar, ruhiy jihatdan beqaror, o‘ziga ishonchsiz, boshqalarga qaram insonlar.

Ayniqsa yoshlar orasida giyohvandlik juda xavfli, chunki u jamiyatning kelajagini yo‘q qiladi. So‘nggi yillarda yirik shaharlarda bu kasallik bilan og‘rigan yoshlar soni 6–8 barobar oshgan. Har bir giyohvand yiliga o‘rtacha 4 dan 17 nafargacha odamni shu yo‘lga tortadi.

Internet tarmog‘idagi ochiq ma’lumotlarga ko‘ra, oxirgi 5 yil ichida voyaga yetmaganlar orasida aniqlangan giyohvand moddalar iste’molchilari sonining kamayishi qayd etilgan. Tegishli yoshdagi har 100 ming aholi hisobiga eng ko‘p giyohvand moddalar iste’molchilari 25 yoshdan 29 yoshgacha bo‘lgan toifada aniqlangan.

Shuningdek, ma’lumotlarga ko‘ra Rossiya davlati oliy o‘quv yurtlaridan birida talabalar orasida giyohvandlikka munosabatni, shuningdek uning profilaktikasi choralarini aniqlash maqsadida so‘rovnoma o‘tkazilgan.

Talabalarga bir qator savollarga javob berish hamda giyohvandlikka qarshi kurash dasturini ishlab chiqish taklif etilgan. So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalar aholi orasida giyohvandlikning oldini olish choralarini (ma’rifiy ishlar, ma’muriy choralar) yetarli darajada biladi, ammo afsuski, jamiyatda giyohvandlikka qarshi kurashda jismoniy tarbiya va sportning roliga yetarli e’tibor bermasliklari aniqlangan.

Yuqoridagilarni e’tiborga olgan holda giyohvandlikning oldini olish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi:

birinchidan, talabalarda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish;

ikkinchidan, talabalarda giyohvand moddalar zarari, ularni iste’mol qilishning katta xavfi va buning muqarrar og‘ir oqibatlari haqida bilimlarni shakllantirish. Giyohvandlik bo‘yicha qat’iy ishonch hosil qilish;

uchinchidan, doimiy ravishda talabalar orasida antinarkotik nazoratni amalga oshirish zarur.

Xulosa.

Talaba giyohvand moddalar zararini bilsa-da, do‘stlari yoki guruh bosimiga qarshi tura olmasligi mumkin. Bunday holatlarda hulq atvoridagi qat’iylik va muammo bo‘yicha o‘z fikriga ega bo‘lishlik katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Giyohvand moddalar zararini bilish faqatgina yetarli qat’iylik mavjud bo‘lgandagina xulq-atvorda namoyon bo‘ladi.

O‘z sog‘lig‘ini asrashga intiladigan, shaxsiy yetuklikka ega, hayotiy maqsadlari bor, o‘z his-tuyg‘ularini boshqara oladigan va atrofdagilar bilan ijobiy munosabatlar o‘rnata oladigan yoshlar hayotiy qiyinchiliklar va vasvasalarga ancha bardoshli bo‘ladilar. Giyohvandlik — bu zudlik bilan hal etishni talab qiladigan global muammo. Bu muammoni qanchalik kech boshlashsa, uni yengish shunchalik qiyin bo‘ladi. Asosiy e’tibor profilaktik va oldini oluvchi choralariga qaratilishi lozim. Profilaktika ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik sabablarni aniqlash hamda bartaraf etishga yo‘naltirilishi kerak.

Shuningdek, oila va oliy ta’lim muassasasi nufuzini mustahkamlash, jamiyatda madaniy va ma’naviy qadriyatlarni tiklashga qaratilgan ijtimoiy choralar ham muhim. Bu kasallikka moyil “xavf guruhi”ga kiruvchi shaxslar orasida giyohvandlik xavfini kamaytirishga qaratilgan tibbiy choralar bo‘lishi mumkin. Nihoyat, yoshlar shaxsiga hamda yoshlar guruhlariga qaratilgan psixologik-pedagogik choralar ham muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Алкоголизм, наркомания, токсикомания как медико-социальная проблема. Динамика, распростронения, возрастно-половое и регианальные особенности, медицинские и социальные последствия / Н.С. Ковзалов,

А.Д.Манаева, С.Ю.Кремлева [и др.].-Текст: непосредственный // Mолодой учёный.-2024.-№3(502).-С.119-122.

2. Наркологическая ситуация в Российской Федерации в 2022 году: аналитический доклад/под ред. Ю.А.Кошкинов. – М.: НМИЦ psixiatrii i narkologii im. V.P.Serbskogo, 2023.-98 с.

3. Воробев А. А. Медико-социальные аспекты алкоголизма и наркомании / М.: GEOTAR-Медиа, 2020. — 304 с

4. Давыдова Ю. Н. Психологическая коррекция установок наркозависимых в процессе длительной реабилитации в условиях специализированного центра /Диалог. - 2018. - № 1. - С. 31-42.

Elekton manbalar:

1.https://cyberleninka.ru/article/n/meditsinskie-i-sotsialnye-posledstviya-narkomanii-i-toksikomanii-1

2. https://dribincrb.by

3.https://www.dissercat.com/content/narkomaniya-kak-sotsialnaya-problema

4. https://moluch.ru/archive/502/110293

O‘ZBEKISTONDA FVV VA MILLIY GVARDIYA ORGANLARI HAMKORLIGI: INSTITUTSIONAL ASOSLAR VA AMALIYOT TAHLILI

UO‘K 351.741

Tleubaev Yerpolat Najimovich,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida mamlakatda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini samarali bartaraf etish, shuningdek davlat xavfsizligini ta’minlashda davlat idoralari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biridir desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xususan, 2022-yil 17-avgustda O‘zbekiston Respublikasining “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-790-son Qonuni[1] va Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 171-sonli Qarori[2]ning qabul qilinganligi fikrimiz tasdig‘idir.

Shu o‘rinda, Uchinchi Renessans davriga kirishayotgan yangi O‘zbekistonda Qurolli Kuchlar tizimi tarkibiga kiruvchi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan Milliy gvardiya organlarining favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda o‘zaro hamkorligini huquqiy jihatdan tartibga solishda bugungi kunda qanday “qonun” va “qonunosti” hujjatlari qabul qilingan?, mazkur amaldagi normalarda Favqulodda

vaziyatlar vazirligi bilan Milliy gvardiya organlarining o‘zaro hamkorligini tizimli yo‘lga qo‘yishga salbiy ta’sir qiluvchi huquqiy bo‘shliqlar nimalardan iborat? shuningdek, mazkur normativ-huquqiy hujjjatlarni yanada takomillashtirish yuzasidan qanday takliflar ilgari surish mumkin? degan o‘rinli savollar yuzaga keladi.

O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasida keltirilgan ma’lumotga ko‘ra, bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda barcha sohalarni tartibga soluvchi qonunlarning ulushi 1 416 tani, Oliy Majlis palatalari kengashlari hujjatlarining ulushi 3 113 tani, Prezident hujjatlarining ulushi 5 033 tani, Hukumat qarorlarining ulushi 10 821 tani, vazirlik, qo‘mita va davlat idoralarining ulushi 8 342 tani, mahallliy davlat hokimiyati organlarining hujjatlarda ulushi 11 285 tani tashkil etmoqda[4]. Mazkur hujjatlarni sohalar kesimida tahlil qilganimizda favqulodda vaziyatlar bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishga oid qabul qilingan jami normativ-huquqiy hujjatlar soni 70 ga yaqin bo‘lib, shundan, qonunlar – 12 tani, Prezident farmon, farmoyish va qarorlari – 20 tani, Vazirlar Mahkamasining qarorlari – 40 tani hamda boshqa turdagi normativ – huquqiy hujjatlar[5] esa – 8 tani tashkil qilgan[6].

Shu o‘rinda, hamkorlikdan ko‘zlangan Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning bir turi hisoblangan qonunlarda vazirlik xizmat faoliyatini olib borishda qanday davlat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlik munosabatlari yo‘lga qo‘ygan?, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya organi bilan hamkorlik[7] munosabatlari mavjudmi? degan o‘rinli savollarga javob topish mazkur ilmiy asarni mazmunini yoritishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini tartiga soluvchi 70 ga yaqin ochiq turdagi normativ-huquqiy (qonun va qonunosti) hujjatlar tahlil qilinganda, mazkur normalar mazmunida 88 marotaba hamkorlik tushunchasidan foydalanilgan bo‘lib, mazkur hamkorlik munosabatlari aynan Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Qurilish vazirligi, O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi, Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa tashkilotlar xamda tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan Milliy gvardiya organlarining favqulodda vaziyatlarni oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf etish yo‘nalishlarida o‘zaro hamkorlik masalalari qanday?, shuningdek, mazkur hamkorlik munosabatlarini norma ijodkorligiga muxtojmi? degan o‘rinli savol yuzaga keladi.

Darhaqiqat, har qanday huquqiy davlatda barcha munosabatlar huquq normalariga asoslanadi. Davlat boshqaruvi norma ijodkorligi faoliyatini amalga oshirish orqali ro‘yobga chiqadi. Norma ijodkorligi faoliyati o‘ziga xos murakkab jarayon bo‘lib, huquq normalarining hayotiy va xalqchil bo‘lishi aynan mazkur jarayonga bevosita bog‘liq[8]. Shu o‘rinda, qator huquqshunos olimlar mamlakatda sohalarni tartibga soluvchi normalarni tizimlashtirish orqali norma ijodkorligi faoliyatini amalga oshirilishi davlatni yanada ravnaq topishi xizmat qilishiga alohida to‘xtalgan.

Shu o‘rinda, akademik Sh.O‘razaev demokratik huquqiy davlat sharoitida barqaror ichki mantiqiy tizimlashtirilgan qonunchilik qanday bo‘lishi lozimligini o‘z asarlarida tasvirlab bergan. Akademik A.X.Saidov esa ingliz yuristi U.Batlerning “O‘zbekiston qonunchiligi tizimi” nomli risolasiga yozgan kirish so‘zida qonunchilikni tizimlashtirishning ahamiyati, uning zamonaviy shakli hisoblanmish umumhuquqiy klassifikatorni takomillashtirish xususida bir qator fikrlarni bayon etgan. Shuningdek, olimning fikricha, O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari majmuini muayyan izchillik bilan yagona tizimga solish eng muhim ilmiy-amaliy vazifalardan hisoblanadi. X.Odilqoriev tomonidan amalga oshirilgan bir qator tadqiqotlarda qanday sohalardagi qonunchilikni kodekslashtirish mumkinligi va zarurligi, kodeksning oddiy qonunlarga qaraganda ijobiy jihatlari va nufuzi, O‘zbekiston sharoitida kodeksning modeli va strukturasi qanday bo‘lishi ma’qulligi xususida taklif hamda tavsiyalar e’lon qilingan. U.X.Muxamedov tomonidan O‘zbekiston Respublikasida qonunchilikni tizimlashtirishning nazariy va amaliy muammolari, qonunchilikni tizimlashtirishning istiqbollari[9] bilan bog‘liq jarayonlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

O‘zbekistonda qonunchilikni tizimlashtirish, uni izchil va yagona huquqiy tizimga keltirishning dolzarbligi X.Odilqoriev va U.X.Muxamedov kabi olimlar tomonidan ilmiy jihatdan asoslangan. Ularning fikrlarini quyidagicha yo‘nalishlarda favqulodda vaziyatlardagi hamkorlikni tartibga soluvchi qonunchilik bilan bog‘lash mumkin. Xususan, **X.Odilqoriyevning,** qonunchilikni kodekslashtirish orqali uni tizimlashtirish muhimligi, kodekslarning oddiy qonunlarga qaraganda yuqori huquqiy nufuzga ega ekanligi haqida ilgari surgan fikrlari, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy gvardiya hamkorligini tartibga soluvchi qonunchilikning yaxlit tizimini yaratish uchun dolzarb hisoblanadi. Shuningdek, **U.X.Muxamedov** esa, qonunchilikni tizimlashtirish nazariy va amaliy muammolarini tahlil qilish orqali, mavjud norma ijodkorligi faoliyatidagi nuqsonlarni bartaraf etishga va huquqiy munosabatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan ilmiy qarashlar ilgari surilgan.

Bundan tashqari, mamlakatda hamkorlik takomillashtirish masalalarida qator huquqshunos olimlar o‘z tadqiqot ishlarini olib borishgan. Xususan, M.Miraqulov (“Prezident va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligi”), I.Bekov (“Siyosiy

partiyaning parlament shakllantirishdagi roli”) va J.Abdullaev (“Davlat va ommaviy axborot vositalarining hamkorlik munosabatlari”) shular jumlasidandir[10].

Shu o‘rinda, bugungi kunda mamlakat hayotida Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy gvardiya organlarining o‘zaro hamkorligi asosida amalga oshirilayotgan ishlar sarhisobiga to‘xtalsak, mazkur tadqiqot ishining salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Jumladan, Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan taqdim etilgan hisobot[11]ga ko‘ra, 2023-yilning 12 oyi davomida Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan yakka tartibda yong‘in xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishida 55 015 marotaba rejali, 37 801 marotaba nazorat tartibidagi va 115 845 marotaba tezkor tekshirishlar o‘tkazilgan bo‘lsa, mazkur davrda Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy gvardiya organlari bilan hamkorlikda 13 035 ta tadbirkorlik subyektlariga tegishli obyektlarda yong‘in-profilaktika ko‘riklari o‘tkazilgan. Bundan tashqari, 4 130 309 ta yakka tartibdagi uy-joylar va 40 813 ta ko‘p qavatli uylardagi 1 233 593 ta xonadonlarning yong‘inga qarshi holati o‘rganib chiqilgan.

O‘tkazilgan shu kabi tadbirlarga qaramasdan, 2023-yilda respublikada sodir bo‘lgan favqulodda vaziyatlar, xususan, yong‘inlar, gidrometeorologik va geologik xavfli jarayonlar aholi hayoti va sog‘ligiga zarar yetishiga hamda moddiy yo‘qotishlarga sabab bo‘luvchi salbiy holatlar aniqlangan. Mazkur, sodir bo‘lgan favqulodda vaziyatlarning 78,7 foiz texnogen va 21,3 foiz tabiiy xususiyatli, shundan yo‘l-transport hodisasi - 29 foiz, gaz-havo aralashmasining chaqnashi - 24 foiz, is gazi, oziq-ovqat mahsulotlari va toksik moddadan zaharlanishlar - 19 foiz, yong‘inlar - 6 foiz va yong‘in-portlash, suvda cho‘kish, sel, zilzila - 22,7 foiz favqulodda vaziyat sifatida ro‘yxatga olingan.

Mazkur ko‘rsatkichlardan bilish mumkinki, bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda tug‘ilish sonining keskin ortishi, urbanizatsiya jarayonlarini tezlashishi natijasida yil sayin barcha sohalarda hamkorlik masalalari qiyinlashib, qabul qilingan normalarning ma’nan eskirayotgani yohud ularning mazmunida takrorlanishlarning mavjudligi natijasida mamlakatda faoliyat yuritayotgan sohalarda qator muammolar yuzaga keltirayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Xususan, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy gvardiya organlari o‘rtasidagi favqulodda vaziyatlarni oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf etish bilan bog‘liq vazifalarni hamkorlikdagi ijrosini ta’minlashga huquqiy asos bo‘luvchi normativ-huquqiy hujjatlarni “qonun” va “qonunosti” hujjatlariga ajratgan holatda tahlil qilib, quyida keltirilgan qonunlarning normalarida mavjud tafovut (muammo)larni bayon etishimiz mumkin. Xususan, qonun hujjatlari kesimida:

birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi[12] *(favqulodda vaziyatlar bilan bog‘liq normalar asosan davlat xavfsizligi, jamoat tartibini ta’minlash va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish sohasidagi vakolatlar va mas’uliyatlar doirasini belgilashga xizmat qiladi);*

ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasining “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni[13] *(mazkur qonunda davlat boshqaruvi organlariga favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish masalalari yuzasidan murojaat etish va hamkorlik qilishning huquqiy asosi yoritilgan);*

uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasining “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”gi Qonuni[14] (*mazkur qonunda v*azirliklar va idoralarning fuqaro muhofazasi sohasidagi vakolatlari *fuqaro muhofazasi sohasida mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan o‘zaro hamkorligi belgilangan)*;

to‘rtinchidan, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonuni[15] *(mazkur qonunga ko‘ra, Milliy gvardiya o‘z vakolati doirasida tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan o‘zaro hamkorlikni amalga oshiradi);*

beshinchidan, O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni[16] (*mazkur qonunga ko‘ra, jamoat xavfsizligini ta’minlash, terrorizm xavfi bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarda tezkor javob berish va terrorizm oqibatlarini bartaraf etishda Milliy gvardiya organlari o‘z vakolati doirasida Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan o‘zaro hamkorlikni amalga oshiradi);*

oltinchidan, O‘zbekiston Respublikasining “Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni[17] *(Favqulodda vaziyatlar vazirligi boshqaruv organlari va yong‘in-qutqaruv bo‘linmalarining yong‘indan saqlash xizmatining boshqa turlari, vakolatli organlar, avariya-ta’mirlash xizmatlari va o‘zga xizmatlar bilan yong‘inlarning o‘chirilishini tashkil etishni ta’minlashda o‘zaro boshqa davlat organlari bilan hamkorlikni amalga oshiradi).*

Bugungi kunda, mamlakatda Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy gvardiya organlari o‘rtasidagi favqulodda vaziyatlarni oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf etish bilan bog‘liq quyidagi muammolarni sanab o‘tish maqsadga muvofiq. Bularga:

birinchidan, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy gvardiya organlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni tartibga soluvchi normalar umumiy bayon qilingan, ammo huquqiy jihatdan batafsil yoritilmagan. Bularga:

a) har ikki organning vazifalari qay darajada o‘zaro bog‘liq ekanligi;

b) javobgarlik va vakolatlarning aniq taqsimoti;

ikkinchidan, ikki organ o‘rtasida favqulodda vaziyatlarga javob berish jarayonida aniq harakat algoritmlari ishlab chiqilmagan. Buning natijasida, turli vaziyatlarda organlarning harakatlarini muvofiqlashtirish bilan bog‘liq hamda vaqt yo‘qotish, mas’uliyatni taqsimlashda tushunmovchiliklar va koordinatsiyaning yetishmasligi bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelmoqda;

uchinchidan, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy gvardiya o‘rtasida axborot almashishning yagona tizimi mavjud emas. Ushbu muammoning samarali hal etilmasligi, real vaqtda axborot yetkazib berishda hamda terrorizm xavflari, tabiiy ofatlar yoki boshqa favqulodda vaziyatlar yuzasidan ma’lumotlarni tezkor almashishda qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda;

to‘rtinchidan, har ikki organ o‘rtasida muntazam qo‘shma tadbirlar, o‘quv mashg‘ulotlari tizimli tashkil etilmasligi. Bu esa, hamkorlik jarayonida har bir organning roli to‘liq sinovdan o‘tkazilmasligi, real holatlarda harakatlarni muvofiqlashtirishda kamchiliklar yuzaga kelishi bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin;

beshinchidan, bugungi kunda *“*Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat xavfsizligini ta’minlash, profilaktika tadbirlarini amalga oshirishda davlat organlari o‘rtasidagi hamkorlikni tartibga soluvchi asosiy hujjatdir. Biroq, ushbu Qonunning 9-moddasiga **Favqulodda vaziyatlar vazirligi organini subyekt sifatida kiritilmaganligi quyidagi qator salbiy oqibatlarga olib kelmoqda.** Bularga:

a) h**uquqbuzarliklarning oldini olish jarayonida rolning cheklanganligi** ***(****Favqulodda vaziyatlar vazirligi tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini bartaraf etishda muhim vazifalarni bajaradi. Ammo, qonunga subyekt sifatida kiritilmagani tufayli, huquqbuzarliklar profilaktikasi doirasida uning profilaktika tadbirlaridagi ishtiroki yuridik asosga ega emas);*

b) d**avlat organlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlikning kamchiligi** ***(****Favqulodda vaziyatlar vazirligining subyekt sifatida kiritilmasligi uning huquqbuzarliklar profilaktikasidagi boshqa davlat organlari bilan hamkorlik mexanizmlarini cheklaydi);*

v) jamoat xavfsizligi va profilaktika choralarining samaradorligiga ta’sir ***(***Favqulodda vaziyatlar vazirligi aholini xavf-xatarlardan xabardor qilish, evakuatsiya tadbirlarini amalga oshirish, yong‘in xavfsizligini ta’minlash kabi muhim profilaktik vazifalarni bajaradi. Ammo, qonunga subyekt sifatida kiritilmaganligi tufayli, uning profilaktika tadbirlaridagi ishtiroki normativ asosga ega emas);

g) huquqiy bo‘shliqlar va mas’uliyatdagi noaniqlik ***(q***onunchilikda Favqulodda vaziyatlar vazirligining profilaktika tadbirlaridagi roli aniq belgilanmagan. Mazkur holat vazirlikning profilaktika tadbirlaridagi vakolatlarini cheklab qo‘yadi).

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqib, kelajakda qonunchilikdagi shu kabi salbiy holatlarni oldini olish, qabul qilinayotgan qonunlarning ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta’sirini kuchaytirishga yo‘naltirilgan qonun ijodkorligi faoliyati sifatini tubdan oshirish, davlat va jamiyat qurilishi tizimini yanada takomillashtirish[18] shuningdek, Favqulodda vaziyatlar

vazirligi va Milliy gvardiya o‘rtasidagi hamkorlikning samaradorligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish davr talabiga aylanmoqda.

Shu o‘rinda, mamlakatda faoliyat yuritayotgan davlat tashkilotlarining funksional vazifalaridan kelib chiqib, ularning o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni zamon talabiga javob beradigan normalar bilan to‘ldirish yohud mavjud normalarni yanada takomillashtirishda quyidagi huquqshunos olimlarning ilmiy qarashlari hamda dunyoning yetakchi ilmiy markazlari yohud oliy ta’lim muassasalaridan ilmiy yondashuvlari bilan asoslash maqsadga muvofiq. Bularga:

birinchidan, mahalliy huquqshunos olimlardan S.Adilxodjaeva, M.Axmedshaeva, H.Boboev, I.Bekov, Sh.Jalilov, Z.Islomov, B.Ismoilov G.Ismailova, G.Malikova, X.Mamatov, M.Mirakulov, F.Muxitdinova, O‘.Muhammedov, M.Najimov, X.Odilqorievlarning ilmiy qarashlaridan;

ikkinchidan, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlarining huquqshunos olimlaridan A.Auzan, N.Borjelli, G.Vaynshteyn, V.Grib, Yu.Irxin, M.Marchenko, N.Matuzov, O.Leyst, V.Ryabev va A.Sungurovlarning umumiy qarashlaridan;

uchinchidan, xorijiy mamlakat huquqshunos olimlaridan A.Smit, K.Posher, A. De Tokvil, Yu.Xabermas, F.Xayek va D.Kinlar kabi[20][1] huquqshunos olimlarning umumiy ilmiy qarashlaridan;

to‘rtinchidan, dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalaridan bo‘lgan Johns Hopkins (AQSh), Yale Law School (AQSh), Washington University (AQSh), The London School of Economics and Political Science (Buyuk Britaniya), University College London (Buyuk Britaniya), Universite Paris 1 Pantheon H Sorbonne (Fransiya), Humboldt-Universitat zu Berlin, (Germaniya), University in Krakow (Polsha) va Moskva davlat universiteti (Rossiya) kabi tashkilotlarda[20] barcha sohalardagi hamkorlik munosabatlarining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan asosli ilmiy yondashuvlaridan (davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligiga oid strategik hujjatlar qabul qilish hamda hukumat va ijtimoiy sektor o‘rtasida rasmiy bitim tuzish tavsiya etilgan *(Humboldt-Universitat zu Berlin)*; qonun loyihalari bo‘yicha xulosa berish vakolatiga ega konstitutsiyaviy organ – iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik kengash tashkil etish zarurati asoslangan *(Universite Paris 1 Pantheon H Sorbonne)*; ijtimoiy foydali faoliyat bo‘yicha jamoatchilik kengashlarini tashkil etishning metodologik asoslari ishlab chiqilgan *(University in Krakow)*; Rossiya Federatsiyasining jamoatchilik palatasini, shuningdek, federal va hududlar darajasida fuqarolik jamiyati institutlari bilan

[1]Якубов Ш.У. “Давлат ва фуқаролик жамияти институтлари ҳамкорлигининг ҳуқуқий механизмларини такомиллаштириш” // 12.00.02 – Конституциявий ҳуқуқ. Маъмурий ҳуқуқ. Молия ва божхона ҳуқуқи Юридик фанлар доктори (DSc) диссертация автореферати 6-б.

maslahat kengashlarini tashkil etish ilmiy jihatdan asoslangan *(Moskva davlat universiteti)*);

beshinchidan, dunyoda davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi:

❖ *nohukumat tashkilotlarining fandrayzing va filantropik faoliyatining huquqiy mexanizmlarini shakllantirish;*

❖ *davlatlar tomonidan fuqarolik jamiyati institutlarining xalqaro darajadagi hamkorligini rivojlantirishga ko‘mak berish;*

❖ *nodavlat tashkilotlari faoliyatiga axborot texnologiyalarini tatbiq etishning huquqiy asoslarini ishlab chiqish;*

❖ *fuqarolik jamiyati taraqqiyotining asosiy mezonlarini belgilovchi yaxlit konsepsiyani yaratish bilan bog‘liq* ustuvor yo‘nalishlardagi ilmiy g‘oyalardan foydalanib, O‘zbekistonda Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy gvardiya organlarining o‘zaro hamkorligini ta’minlovchi quyidagi ilmiy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq. Bularga:

birinchidan, qonun hujjatlarida Milliy gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning mazmuni, vazifasi, javobgarligi shuningdek, ularning harakat doirasini aniq belgilash maqsadga muvofiqdir. Buning natijasida, har ikki organ o‘rtasida hamkorlikning chegaralari aniqlanadi hamda harakatlar va javobgarlikda aniqlik ta’minlanadi;

ikkinchidan, favqulodda vaziyatlarda Milliy gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligining harakatlari uchun yagona standart algoritmni ishlab chiqish lozim. Mazkur algoritmda esa quyidagilarni ko‘rsatilishi maqsadga muvofiq. Xususan:

a) qaysi vaziyatlarda qaysi organ yetakchi ekanligi;

b) javobgarlik choralari ketma-ketligi;

v) resurslar va vakolatlarni taqsimlash tartibi.

Mazkur algoritm harakatlarni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

uchinchidan, Milliy gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligi o‘rtasida axborot almashish uchun zamonaviy raqamli platformalarni joriy qilish. Mazkur islohot kelajakda tomonlar o‘rtasida ma’lumot yetkazish jarayoni tezlashtiradi va tahlil samaradorligini oshiradi;

to‘rtinchidan, Milliy gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligi bo‘linmalari uchun qo‘shma o‘quv mashg‘ulotlari va tadbirlarni rejali ravishda tashkil etish hamda real ssenariylar asosida simulyatsiya tadbirlarini o‘tkazish maqsadga muvofiq. Mazkur islohot kelajakda hamkorlikni amalda sinovdan o‘tkazish orqali taraflarning tayyorgarlik darajasini oshiradi;

beshinchidan, Milliy gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligiga tegishli vakolatlarini aks ettiruvchi qonunlarni muvofiqlashtirish, ziddiyatli qoidalarni huquqiy

ekspertiza asosida qayta ko‘rib chiqish orqali **“Favqulodda vaziyatlar kodeksi”ni ishlab chiqish**. Bunda, favqulodda vaziyatlarni oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf etishga oid huquqiy normalarni tartibga soluvchi yaxlit kodeks loyihasini ishlab chiqish natijasida mavjud qonunlarni tizimlashtirish;

oltinchidan, **favqulodda vaziyatlarni oldini olishga qaratilgan qonunchilikni raqamli transformatsiya qilish**. Bunda, mamlakatda favqulodda vaziyatlarni oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf etishga oid norma ijodkorligi jarayonida raqamli platforma va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni ta’minlashga xizmat qiladi;

yettinchidan, Favqulodda vaziyatlar vazirligini “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunga subyekt sifatida kiritish, profilaktika tadbirlarida uning rolini kuchaytirish va davlat organlari o‘rtasidagi hamkorlikni takomillashtirish orqali mamlakatda jamoat xavfsizligini ta’minlash va favqulodda vaziyatlarga javob berish jarayonini yaxshilash mumkin. Bu nafaqat huquqbuzarliklarning oldini olishga, balki umumiy xavfsizlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy gvardiya o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash huquqiy asoslarni mukammallashtirishni, tezkor javob algoritmlarini ishlab chiqishni va axborot almashish tizimlarini takomillashtirishni talab qiladi. Bu takliflar organlarning faoliyatini muvofiqlashtirishda, favqulodda vaziyatlarda tezkor javob berishda va davlat xavfsizligini ta’minlashda muhim qadam bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Миллий қонунчилик базаси // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 18.08.2022 й., 03/22/790/0751-сон; 29.11.2023 й., 03/23/880/0905-сон; 18.01.2024 й., 03/24/898/0046-сон / Lex/uz.

2. Ўзбекистон Республикаси Миллий қонунчилик базаси // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 09/23/171/0234-сон / Lex/uz.

3. Ўзбекистон Республикаси қонунчилик миллий базаси // https://lex.uz/uz. (25.12.2024 йил ҳолатига).

4. Ўзбекистон Республикаси қонунчилик миллий базаси // https://lex.uz/uz. (22.12.2024 йил ҳолатига).

5. Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардия фаолиятини ҳуқуқий тартибга солишга қаратилган жами 22 та Қонунлар, 160 та Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармон ва Қарорлари ҳамда 130 та Вазирлар Маҳкамасининг қарорилари қабул қилинган // Ўзбекистон Республикаси қонунчилик миллий базаси // https://lex.uz/uz. (25.12.2024 йил ҳолатига).

6. Буюк мутафаккир Абу Наср Форобий инсоният бахтга эришувида ўзаро ҳамкорлик жиддий ўрин эгаллашини қуйидаги фикрлари орқали ифодалайди.

Яни унинг қарашича “Ҳақиқий бахтга эришиш мақсадида ўзаро ёрдам қилувчи кишиларни бирлаштирган шаҳар – фазилатли шаҳардир, бахтга эришиш мақсадида бирлашган кишилар жамоаси – фазилатли жамоадир”.

7. https://uza.uz/uz/posts/norma-izhodkorligi-faoliyatini-takomillashtirish-kontseptsiya-11-11-2019

КИБЕРЖИНОЯТЧИЛИК ПРОФИЛАКТИКАСИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Марзажонов Шохрухбек Собиржонович,
Андижон вилояти Андижон шаҳар тергов бўлими бошлиғи

Аннотация: Тезисда замонавий шароитда кибержиноятларнинг глобал зарари ва АРТ таҳдидларининг ўсиш динамикаси кўриб чиқилган. Ўзбекистоннинг кибержиноятчиликка қарши курашдаги халқаро ҳужжатларни (Будапешт ва БМТ конвенциялари) имплементация қилиш ҳолати таҳлил этилган. Миллий қонунчиликдаги рақамли далиллар, молиявий институтларнинг репаратив жавобгарлиги ва «банк дроплари»га оид муаммолар ёритилиб, соҳани ривожлантиришнинг стратегик йўналишлари таклиф этилган.

Калит сўзлар: кибержиноятчилик, профилактика, АРТ ҳужумлари, Будапешт конвенцияси, рақамли далиллар, репаратив жавобгарлик, банк дроплари, БМТ конвенцияси.

Ҳеч кимга сир эмаски янги Ўзбекистонда кибержиноятчиликнинг ўсиш динамикаси глобал тенденциялардан ҳам тезроқ суръатларда намоён бўлмоқда. Сўнгги беш йил ичида мамлакатимизда кибержиноятлар сони 68 бараварга ошган бўлиб, фақатгина 2024 йилнинг ўзида 46 мингдан ортиқ ҳолат қайд этилган[1]. Жисмоний ва юридик шахсларга етказилган молиявий зарар миқдори 1,2 триллион сўмдан ошиши, миллий профилактика тизимининг ҳуқуқий асосларини қайта кўриб чиқишни талаб этади[2]. Айниқса, шахсий маълумотлар, банк карталари ва электрон рақамли имзолардан фойдаланган ҳолда содир этилаётган фирибгарликларнинг кескин ортиши, миллий қонунчиликда нафақат жазо чораларини, балки тизимли олдини олиш механизмларини ҳам кучайтириш зарурлигини кўрсатади.

Шу ўринда, кибержиноятчиликка қарши курашда халқаро ҳамкорликнинг аҳамияти унинг трансмиллий табиати билан белгиланади. Жиноятчи ва

[1] *Мирзиёев Ш.М.* Narkojinoyatlarga qarshi kurashish, kiberxavfsizlik va prokurorlik nazorati sohalaridagi ishlarning samaradorligi yanada oshiriladi // https://china.mfa.uz
[2] https://china.mfa.uz/news/4558?language=uz

жабрланувчи турли юрисдикцияларда бўлиши, далилларнинг виртуал маконда ва турли давлатлардаги серверларда сақланиши халқаро ҳуқуқий нормаларни миллий қонунчиликка имплементация қилишни тақозо этади[1]. Бу борада иккита асосий халқаро ҳужжат — *Европа Кенгашининг Будапешт конвенцияси[2] (2001)* ва *БМТнинг Кибержиноятчиликка қарши кураш тўғрисидаги конвенцияси[3] (2024) марказий ўрин тутади*.

Хусусан, Будапешт конвенцияси ва унинг методологик аҳамияти шундаки, 2001 йилда қабул қилинган Будапешт конвенцияси кибержиноятчилик соҳасидаги биринчи мажбурий халқаро шартнома бўлиб, у давлатлар учун *"модель қонун"* вазифасини ўтаб келмоқда[4]. Ушбу ҳужжат тўртта асосий йўналишни қамраб олади. Булар: *моддий жиноят ҳуқуқи* (жиноятларни классификация қилиш), *процессуал ҳуқуқ* (электрон далилларни тўплаш), *халқаро ҳамкорлик* ва 24/7 алоқа тармоғини ташкил этиш[5].

Илмий таҳлил шуни кўрсатадики, Будапешт конвенциясининг миллий қонунчиликка имплементация қилиниши қуйидаги ижобий натижаларни беради:

1. ***Тушунчаларнинг бирхиллиги*:** *"Компьютер маълумотлари", "трафик маълумотлари"* ва *"интерцепция"* каби тушунчаларнинг халқаро стандартларга мувофиқлаштирилиши трансчегаравий тергов жараёнларини осонлаштиради[6].

2. ***Процессуал ваколатлар:*** Электрон маълумотларни тезкор сақлаш (expedited preservation) ва муайян маълумотларни тақдим этиш тўғрисидаги буйруқлар (production orders) механизмларини миллий процессуал қонунчиликка киритиш имконини беради[7].

3. ***Хавфсиз бошпаналарни камайтириш:*** Жиноят содир этилган давлатда жазо муқаррарлигини таъминлаш орқали кибержиноятчилар учун "хавфсиз ҳудудлар" пайдо бўлишининг олдини олади[8].[6]

БМТнинг 2024 йилдаги конвенцияси (Ханой конвенцияси). Мазкур ҳалқаро ҳужжат 2024 йил 24 декабрда БМТ Бош Ассамблеяси томонидан қабул

---

[1] *Jonathan Clough* "A world of difference: the budapest convention on cybercrime and the e challenges of harmonisation" // https://www.monash.edu

[2] Будапештская конвенция о киберпреступности // https://translated.turbopages.org

[3] Первая в мире международная конвенция по предотвращению и предупреждению киберпреступности и борьбы с ней, открылась сегодня для подписания в Ханое, Вьетнам. В первый день ее подписали 65 стран // https://news.un.org/ru/story/2025/10/1466671

[4] Rising Cybercrime Alarms Uzbekistan's National Security // https://www.specialeurasia.-com

[5] *Jonathan Clough* "A world of difference: the budapest convention on cybercrime and the e challenges of harmonisation" // https://www.monash.edu

[6] Advanced Persistent Threat Protection Market Size & Share Analysis - Industry Research Report - Growth Trends

[7] From Budapest to Hanoi: Comparing the COE and UN Cybercrime Conventions // https://www.lawfaremedia.org/article/from-budapest-to-hanoi--comparing-the-coe-and-un-cybercrime-conventions

[8] *Jonathan Clough* "A world of difference: the budapest convention on cybercrime and the e challenges of harmonisation" // https://www.monash.edu

қилинган янги конвенция кибержиноятчиликка қарши курашда янги босқични бошлаб берди[1]. Ўзбекистон ушбу конвенцияни ишлаб чиқишда фаол иштирок этган ва уни 2025 йил октябрь ойида имзолаган илк давлатлардан бири бўлди[2]. БМТ конвенцияси Будапешт ҳужжатига нисбатан кенгроқ қамровга эга бўлиб, у ривожланаётган давлатларга техник ёрдам кўрсатиш ва салоҳиятни ошириш масалаларига алоҳида урғу беради[3].

Солиштириш мезони	**Будапешт конвенцияси (2001)**	**БМТ Конвенцияси (2024)**
Қўлланиладиган атамалар	“Компьютер тизими”	“АКТ тизими” (кенгроқ қамров)
Қамраб олинган жиноятлар	Кибер-боғлиқ жиноятлар, муаллифлик ҳуқуқи	Оғир жиноятлар, пул ювиш, болаларга нисбатан тайёргарлик ҳаракатлари
Инсон ҳуқуқлари ҳимояси	Халқаро стандартларга қатъий таянади	Миллий қонунчиликка кўпроқ ҳавола қилади
Имзолаган давлатлар	80+ (асосан Ғарб давлатлари)	193 (консенсус билан қабул қилинган)

БМТ конвенциясининг *21-моддасида* муҳим ахборот инфратузилмаларини ҳимоя қилиш зарурияти алоҳида белгиланган бўлиб, бу Будапешт конвенциясида мавжуд эмас эди[4]. Бу Ўзбекистон учун миллий киберхавфсизлик стратегиясини халқаро мажбуриятлар билан уйғунлаштиришда муҳим ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қилади.

Эндиликда, янги Ўзбекистон миллий қонунчиликнинг ҳозирги ҳолати ва мавжуд тизимли муаммоларни илмий таҳлил қилиш мақсадга мувофиқдир. Хусусан, мамлакатда сўнгги йилларда кибермакондаги хавфсизликни таъминлаш бўйича мустаҳкам ҳуқуқий пойдевор яратди. 2019 йилдаги *“Шахсга доир маълумотлар тўғрисида”*ги Қонун[5] ва 2022 йилдаги *“Киберхавфсизлик*

[1] Official website for The United Nations Convention Against Cybercrime Signing Ceremony & High-level Conference // https://hanoiconvention.org/official-statement/

[2] Ўзбекистон делегацияси БМТнинг Кибержиноятчиликка қарши кураш конвенциясини имзолаш маросимида иштирок этди // https://dunyo.info/uzk

[3] Comparative analysis: the Budapest Convention vs the UN Convention Against Cybercrime // https://dig.watch

[4] The Convention on Cybercrime (Budapest Convention, ETS No. 185) and its Protocols // https://www.coe.int/en/web/cybercrime/the-budapest-convention

[5] Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 июлдаги *“Шахсга доир маълумотлар тўғрисида”*ги ЎРҚ-547-сон Қонуни // https://lex.uz/docs/4396419

*тўғрисида”*ги Қонун[1] соҳадаги асосий норматив ҳужжатлар ҳисобланади. Бироқ, амалиёт таҳлили шуни кўрсатадики, қонунчиликда ҳали ҳам бир қатор бўшлиқлар мавжуд. Хусусан:

***Мутахассислар етишмовчилиги*:** Ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ва суд тизимида рақамли далиллар билан ишлай оладиган малакали кадрларнинг танқислиги кибержиноятларни тергов қилиш самарадорлигига салбий таъсир кўрсатмоқда[2].

***Юридик шахсларнинг жавобгарлиги*:** Узоқ вақт давомида киберхавфсизлик талабларига риоя қилмаган ташкилотларга нисбатан таъсирчан жавобгарлик чораларининг йўқлиги уларнинг ўз тизимларини ҳимоя қилишга бепарво бўлишига олиб келди[3].

***Процессуал нормаларнинг эскирганлиги*:** Рақамли далилларни олиш, уларнинг ҳақиқийлигини тасдиқлаш ва сақлаш бўйича процессуал қоидалар 2024 йилгача анъанавий моддий далилларга мослаштирилган эди, бу эса судларда электрон далилларнинг рад этилишига сабаб бўларди[4].

Шу ўринда, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 30 апрелдаги *“Ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этиладиган жиноятларга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”*ги ПҚ-153-сон Қарори[5] кибержиноятлар профилактикасида сифат жиҳатидан янги даврни бошлаб берди. Ушбу ҳужжатда илгари сурилган истиқболли йўналишлар кибержиноятчиликнинг олдини олишда комплекс ёндашувни назарда тутади. Хусусан, *молиявий институтларнинг “репаратив” жавобгарлиги.* Яъни, янги ҳуқуқий механизмнинг энг инқилобий жиҳати шундаки, банк ва тўлов ташкилотлари эндиликда ўз тизимларидаги заифликлар туфайли содир этилган кибержиноятлар учун моддий жавобгар бўладилар. Агар молиявий институт ахборот хавфсизлиги стандартларига *(масалан, SIEM тизимларини ўрнатиш ёки кўп босқичли аутентификацияни таъминлаш)* риоя қилмаган бўлса ва бунинг натижасида фуқаронинг маблағлари ўғирланса, банк ушбу зарарни қоплаши шарт[6].[21] Бу ёндашув банкларни фақатгина фойда олишга эмас, балки

[1] Ўзбекистон Республикасининг 15.04.2022 йил 15 апрелдаги “Киберхавфсизлик тўғрисида”ги ЎРҚ-764-сон Қонуни // https://lex.uz/docs/5960604

[2] O'zbekistonda kiberxavfsizlik rivojlanish darajasining tahlili // https://infocom.uz

[3] Combating cybercrime: challenges, mechanisms and prospects in the digital age – in library // https://www.inlibrary.uz/index.php/canrms/article/download/91820/93471

[4] Law on digital evidence adopted in Uzbekistan // https://www.gazeta.uz

[5] *Мирзиёев Ш.М.* “Ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этиладиган жиноятларга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-153-сон Қарори // https://www.lex.uz/docs/7511145

[6] Uzbekistan tightens cybersecurity obligations: What businesses need to know // https://www.dentons.com

мижозларнинг рақамли активларини APT ва фишинг ҳужумларидан ҳимоя қилишга мажбур этади.

Шунингдек, ҳар ойда энг кўп кибержиноятлар содир этилган банкларнинг *“қора рўйхати”* (Naming and shaming) эълон қилиниши, бозорда соғлом рақобатни ва хавфсизлик бўйича корпоратив масъулиятни шакллантиради[1].

Бундан ташқари, “Банк дроплари” ва ижтимоий масъулиятнинг ҳуқуқий ечимиига назар ташласак, *кибержиноят занжиридаги муҳим бўғин* — бу ўз банк карталари ёки ҳисоб рақамларини жиноятчиларга пул ювиш учун ижарага берадиган “дроп” (drop) эгаларидир. Янги қонунчилик ташаббуслари билан ўз банк карталарини, SIM-карталарини ёки электрон ҳамёнларини кибержиноят содир этиш учун бериб қўйган шахсларга нисбатан ҳам маъмурий, ҳам жиноий жавобгарлик жорий этилмоқда[2]. Бу жиноятнинг ижтимоий профилактикаси бўлиб, фуқароларни ўз рақамли маълумотларига эҳтиёткор бўлишга ундайди.

Шу билан бирга, мамлакатда рақамли далилларнинг институционаллашувини амалга ошириш мақсадида, 2024 йил 21 ноябрда қабул қилинган *“Рақамли далиллар тўғрисида”*ги қонун Ўзбекистон ҳуқуқий тизимида узоқ кутилган ўзгаришни амалга оширди[3]. Эндиликда электрон маълумотлар моддий далиллар билан тенг юридик кучга эга. Бироқ, ушбу норманинг ишлаши учун халқаро *ISO/IEC 27037* стандартига мувофиқ равишда далилларни олиш ва сақлашнинг занжири *(chain of custody)* таъминланиши шарт[4]. Қонунчиликка кўра, мутахассис иштирокисиз олинган рақамли маълумотлар далил сифатида яроқсиз деб топилади, бу эса тергов сифатини оширишга ва инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилишга хизмат қилади[5].

Миллий қонунчиликни такомиллаштиришда ривожланган давлатларнинг тажрибасини таҳлил қилиш ва уларнинг энг самарали жиҳатларини миллий заминга мослаштириш зарурлигини *“Кибержиноятлар профилактикасининг ташкилий-техник чоралари ва илғор хорижий тажрибани имплементация қилиш”* деб номланган 3.1-парагрифда кўрсатилган бўлсада, мазкур парагрифни илмий салмоғини янада ошириш мақсадида айрим давлатларнинг ҳалқаро

[1] Naming and shaming. A practice will be introduced for the monthly publication of a list of banks and payment organizations in whose systems the highest number of cybercrimes have been recorded (due to vulnerabilities and deficiencies), which may entail significant reputational risks // *https://www.dentons.com/en/insights/articles/2025/may/14/uzbekistan-tightens-cybersecurity-obligations*

[2] Liability of *“bank drop”* holders. Administrative and criminal liability is expected to be introduced for individuals who allowed the use of their bank cards, bank accounts, SIM cards, electronic wallets (electronic accounts) in cybercrimes. // https://www.dentons.com

[3] Law on digital evidence adopted in Uzbekistan // https://www.gazeta.uz

[4] The admissibility of digital evidence from open-source forensic tools: Development of a framework for legal acceptance // https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC12431127/

[5] Law on digital evidence adopted in Uzbekistan - Gazeta.uz, accessed February 13, 2026, https://www.gazeta.uz/en/2024/11/27/digital-evidence/

стандартларга мослашган ижобий тажрибасини қисман ёритиб ўтиш мақсадга мувоифқдир.

Хусусан, Сингапурнинг 2024 йилдаги *“Киберхавфсизлик тўғрисида”*ги қонунига киритилган ўзгартиришлар APT ҳужумларига қарши курашнинг энг илғор моделини таклиф этади. Унда *“Вақтинчалик киберхавфсизлик аҳамиятига молик тизимлар”* (STCC) тушунчаси киритилган[1]. *Масалан,* сайловлар ёки халқаро конференциялар вақтида ишлайдиган ахборот тизимлари маълум муддатга муҳим инфратузилма мақомини олади ва давлат томонидан қатъий назорат қилинади. Ўзбекистон учун ҳам йирик давлат тадбирлари вақтида бундай вақтинчалик ҳуқуқий режимларни жорий этиш мақсадга мувофиқдир.

Бундан ташқари, Европа Иттифоқининг NIS2 директиваси ташкилотлар учун киберхавфсизлик бўйича *“ягона қоидалар китоби”*ни жорий этди[2]. Унинг асосий хусусияти — таъминот занжири хавфсизлигига (supply chain security) бўлган талабдир. Яъни, ташкилот нафақат ўз тизими, балки ўзига дастурий таъминот етказиб берувчи ҳамкорларининг ҳам хавфсизлиги учун масъул ҳисобланади[3]. Бундан ташқари, *“Кибер барқарорлик тўғрисида”*ги акт (CRA) рақамли маҳсулот ишлаб чиқарувчилардан ўз маҳсулотларида *“хавфсизлик дизайн босқичида”* (security by design) бўлишини ва хавфсизлик янгиланишларини мунтазам тақдим этишни талаб қилади[4].

Мазкур илмий таҳлилий талқинлардан келиб чиқиб, янги Ўзбекистонда кибержиноятлар профилактикасида Ситуацион жиноятчиликнинг олдини олишга *Situational Crime Prevention (SCP) назарияси* муҳим илмий асос бўлиб хизмат қилади деб ҳисоблаймиз. *Ушбу назария бешта стратегияга асосланади:*

- *жиноят содир этиш учун куч сарфини ошириш;*
- *аниқланиш хавфини ошириш;*
- *кутилаётган фойдани камайтириш;*
- *провокацияларни камайтириш;*
- *жиноят содир этиш учун баҳоналарни йўқ қилиш*[5].

Миллий қонунчилик истиқболларида ушбу стратегияларни техник-ҳуқуқий регламентларга айлантириш давр талабига айланмоқда. Жумладан:

SIEM ва NGFW талаблари: Муҳим инфратузилма объектлари учун

[1] Provisions in Singapore’s Cybersecurity (Amendment) Act came into force on 31 October 2025 // https://www.hoganlovells.com

[2] EU cybersecurity policies - Shaping Europe's digital future - European Union, // https://digital-strategy.ec.europa.eu/en/policies/cybersecurity-policies

[3] What Is the NIS2 Directive? Compliance Requirements // ttps://www.proofpoint.com/us-/threat-reference/nis2-directive

[4] Cybersecurity rules saw big changes in 2024. Here's what to know // https://www.-weforum.org

[5] *Situational crime prevention* // https://www.unodc.org/e4j/zh/cybercrime/module-9/key-issues/situational-crime-prevention.html

воқеаларни бошқариш (SIEM) ва кейинги авлод файерволларини (NGFW[1]) ўрнатишни мажбурий этиб белгилаш жиноят содир этиш кучини оширади ва аниқланиш хавфини кучайтиради[2].

Кўп босқичли аутентификация (MFA): Давлат хизматлари ва банк тизимларида MFAни мажбурий қилиш жиноятчиларнинг шахсий маълумотлардан фойдаланиш имкониятини кескин камайтиради[3].

Автоматлаштирилган фирибгарликка қарши тизимлар (Anti-fraud): Марказий банк ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ўртасида шубҳали транзакциялар бўйича реал вақт режимида маълумот алмашиш тизимини йўлга қўйиш жиноятнинг муваффақиятли бўлиш эҳтимолини пасайтиради[4].

Юқоридаги илмий таҳлиллардан келиб чиқиб, кибержиноятлар профилактикасига оид миллий қонунчиликни такомиллаштириш истиқболлари тизимли ва босқичма-босқич ёндашувни талаб қилади. APT таҳдидларининг глобал ўсиши ва PurpleSec статистикаси кўрсатаётган улкан молиявий зарарлар шароитида янги Ўзбекистон қуйидаги йўналишларда ислоҳотларни давом эттириши лозим:

Ягона Кибержиноят кодексини ишлаб чиқиш. Бунда тарқоқ нормаларни бирлаштирувчи ва БМТнинг 2024 йилдаги конвенциясига тўлиқ мос келувчи ягона қонун қабул қилиш[5].

Юридик шахсларнинг маъмурий ва фуқаролик жавобгарлигини тизимлаштириш. Бунда киберхавфсизлик бўйича миллий стандартларга риоя қилмаганлик учун жарималарни Европа Иттифоқининг NIS2 моделига яқинлаштириш *(масалан, йиллик айланманинг фоизида)*[6].

Кибермаданият ва таълимни институционаллаштириш. Бунда *“Кибермаданият ойлиги”* каби тадбирларни фақатгина акция тарзида эмас, балки мактаб ва университет дастурларига кибер-гигиена дарсларини киритиш орқали тизимли профилактикага айлантириш[7].

Халқаро электрон далиллар алмашинувини соддалаштириш. CLOUD Act (АҚШ) каби моделлардан фойдаланиб, чет элдаги серверларда сақланаётган

---

[1] *Изоҳ:* ***NGFW*** *— бу* ***Next-Generation Firewall*** (“янги авлод файерволи”) дегани.

[2] *Situational crime prevention* // https://www.unodc.org/e4j/zh/cybercrime/module-9/key-issues/situational-crime-prevention.html

[3] Uzbekistan strengthens measures to combat cybercrime // https://www.uzdaily.uz

[4] Ўша манбаа: https://www.uzdaily.uz

[5] Uzbekistan tightens cybersecurity obligations: What businesses need to know // https://www.dentons.com

[6] Uzbekistan tightens cybersecurity obligations – Dentons // https://www.dentons.com/en/-insights/articles/2025/may/14/uzbekistan-tightens-cybersecurity-obligations

[7] Uzbekistan strengthens measures to combat cybercrime - UzDaily.uz // https://www.-uzdaily.uz/en/uzbekistan-strengthens-measures-to-combat-cybercrime/

маълумотларни тезкор олиш бўйича икки томонлама ва кўп томонлама шартномаларни кенгайтириш[1].

Миллий қонунчиликни ушбу йўналишларда такомиллаштириш, нафақат жиноятларни очиш даражасини оширади, балки янги Ўзбекистоннинг рақамли иқтисодиётига хорижий инвесторларнинг ишончини мустаҳкамлашга ва фуқароларнинг хавфсиз виртуал муҳитда фаолият юритишига хизмат қилади.

O‘ZBEKISTONDA KIBER-NARKOJINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Qurbonov Anvar Jamol o‘g‘li
Bojxona instituti Maxsus fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishi raqamli makonga ko‘chishi sharoitida milliy qonunchilikni modernizatsiya qilish masalalari ko‘rib chiqiladi. Muallif tomonidan “kiber-narkojinoyatchilik”, “elektron retsept” va “raqamli markirovka” tushunchalarini qonunchilikka kiritish hamda narkosavdoda foydalanilgan kripto-aktivlarni musodara qilish mexanizmlari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: darknet, kiber-narkojinoyatchilik, kripto-aktivlar, raqamli markirovka, elektron retsept, bloklash, sudgacha bo‘lgan tartib.

Bugungi kunda transmilliy uyushgan jinoyatchilikning eng xavfli turlaridan biri bo‘lgan narkotrafik an’anaviy usullardan voz kechib, to‘liq raqamli maydonga (Darknet) o‘tmoqda. Anonim messenjerlar, kripto-to‘lovlar va “zakladka” (yashirib ketish) usullari huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun yangi turdagi protsessual to‘siqlarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonunni[2] raqamli reallikka moslashtirish davr talabi hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni g‘ayriqonuniy ravishda muomalaga kiritishga qarshi kurash to‘g‘risida” konvensiyasi[3] xalqaro maydonda narkotrafikka qarshi kurashishning huquqiy asosi hisoblanadi.

[1] Michael Sumner. Digital Evidence Admissibility by Country // Digital Evidence Admissibility by Country | ScoreDetect Blog // https://www.scoredetect.com/blog/posts/digital-evidence-admissibility-by-country

[2] O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustdagi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida” 813–I-sonli Qonuni. https://lex.uz/ru/docs/-86044

[3] Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni g‘ayriqonuniy ravishda muomalaga kiritishga qarshi kurash to‘g‘risida” konvensiyasi. https://lex.uz/ru/docs/-2614780

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yurtimizda bojxona xizmati organlari tomonidan 2025-yilda narkosavdo bilan bog‘liq 14 ta *(2024-yilda 5 ta)* internet do‘konlar aniqlangan bo‘lib, ularga aloqador 73,6 kg *(2,7 kg)* giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ashyoviy dalil sifatida olingan. Amaldagi qonunchilikda virtual makonda sodir etilayotgan narkojinoyatlarning o‘ziga xos xususiyatlari, xususan, kriptovalyuta orqali hisob-kitob qilish va internet-resurslarini tezkor bloklash mexanizmlari huquqiy jihatdan yetarli darajada tartibga solinmagan. Bu esa kiber-narkosavdogarlarga jinoiy javobgarlikdan qochish imkonini bermoqda.

AQSH, Yevropa Ittifoqi va Janubiy Koreya tajribasida “Track and Trace” (kuzatish va aniqlash) tizimi orqali har bir dori vositasining ishlab chiqaruvchidan iste’molchigacha bo‘lgan yo‘li raqamli markirovka qilinadi. Shuningdek, ko‘plab rivojlangan davlatlarda narkotik moddalar savdosi bilan bog‘liq veb-saytlarni sud qarorisiz, prokuror sanksiyasi bilan tezkor bloklash amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan.

AQSHda narkotik vositalarni onlayn sotishga qarshi kurashish uchun “Ryan Haight Online Pharmacy Consumer Protection Act” qabul qilingan. Unga ko‘ra, internet-dorixonalar faqat qattiq litsenziya asosida ishlaydi. Eng asosiysi, AQSHning Narkotiklarga qarshi kurash boshqarmasi (DEA) kriptovalyuta tranzaksiyalarini tahlil qiluvchi maxsus dasturiy ta’minotlardan foydalanadi va “mikserlar” (pulni yuvuvchi tizimlar) orqali o‘tgan mablag‘larni ham kuzata oladi.

Yevropa Ittifoqida Soxtalashtirilgan dorilar to‘g‘risidagi direktiva (FMD – Falsified Medicines Directive) asosida 2019-yildan boshlab barcha dori vositalari uchun majburiy raqamli markirovka tizimi joriy etilgan.

Soxtalashtirilgan dorilar to‘g‘risidagi direktiva (FMD) – bu soxtalashtirilgan dorilarning tarqalishining oldini olishga qaratilgan Yevropa Ittifoqi direktivasi (2011/62/EU) bo‘lib, 2019-yil fevral oyidan boshlab retsept bo‘yicha beriladigan dorilar qadoqlarida bemorlarga yetkazib berishdan oldin asl mahsulotlarni autentifikatsiya qilish imkonini beruvchi xavfsizlik xususiyatlari talab qilinmoqda. Ushbu “xavfsizlik xususiyatlari” quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) Buzilishlarga qarshi vosita – dori qadoqlarining buzilmaganligini ta’minlaydi. Bunday qurilmalar ko‘plab dori-darmonlarda allaqachon keng tarqalgan bo‘lsa-da, hozirda ular ko‘pgina dorilar uchun majburiydir.

2) Noyob identifikatorlar (2D shtrix-kod) – dori haqida muhim ma’lumotlarni, jumladan, mahsulot kodi, seriya raqami, partiya raqami va yaroqlilik muddatini o‘z ichiga oladi[1].

[1] https://www.psi.ie/practice-supports/falsified-medicines-directive

1-rasm

Dori vositalarini buzilishiga qarshi vosita va noyob identifikatsiya kodlari

Germaniya tajribasida “End-to-End Verification” (Boshidan-oxirigacha tekshirish) “securPharm” tizimi modeli qo‘llaniladi. Bunda ishlab chiqaruvchi kodni kiritadi, dorixona esa uni o‘chiradi. Bunga o‘xshash tizim deyarli barcha Yevropa davlatlarida qo‘llaniladi.

Ular orqali Yevropada dori vositalarining noqonuniy aylanishi va qalbakilashtirilishi 95-97% gacha kamaygan[1].

Estoniya dunyodagi eng ilg‘or raqamli sog‘liqni saqlash tizimi(e-Health tizimi)ga ega. Estoniya raqamli sog‘liqni saqlash sohasida global yetakchi hisoblanadi. 2008-yildan beri Estoniya Milliy sog‘liqni saqlash axborot tizimi (HIS) butun mamlakat bo‘ylab tibbiyot xodimlarini bog‘lab, bemorlarning tibbiy ma’lumotlarini bitta markazlashtirilgan platformada xavfsiz saqlaydi. Bunda qirq milliondan ortiq tibbiy hujjatlar , jumladan, tashrif xulosalari, yo‘llanmalar, laboratoriya hisobotlari va protseduralar bilan ushbu tizim tibbiyot xodimlariga har bir bemorning sog‘lig‘i haqida to‘liq ma’lumot olishni ta’minlaydi. Bu yerda retseptlarning 99 foizi elektron ko‘rinishda. Narkotik yoki psixotrop modda yozib berilganda, tizim avtomatik ravishda ushbu bemorning boshqa shifokorlardan ham shunday dori olgan-olmaganini tekshiradi (“Doctor Shopping” muammosiga qarshi kurashish mexanizmi).

Maxfiy ma’lumotlarni himoya qilish uchun Estoniya ma’lumotlar yaxlitligini kafolatlaydigan va buzib kirishning oldini oluvchi “KSI Blockchain texnologiyasi”dan foydalanadi. Har bir elektron sog‘liqni saqlash yozuvi milliy elektron identifikatsiya tizimiga xavfsiz tarzda ulangan bo‘lib, kirish imkoniyatini yuqori darajadagi xavfsizlik bilan muvozanatlashtiradi[2].

Rossiyada “Halol belgisi” (Честный знак) – iste’molchilarni qalbaki mahsulotlardan himoya qilish uchun mo‘ljallangan milliy raqamli mahsulotlarni markirovkalash tizimi.

“Halol belgi” – bu kichik QR kod va ma’lum bir mahsulot haqida ma’lumotni o‘z ichiga olgan noyob raqamli kod ya’ni “DataMatrix”dir. Bu bugungi kunda

[1] SecurPharm tizimi. https://www.securpharm.de/securpharm-system/das-securpharm-system/
[2] https://e-estonia.com/solutions/e-health-2/e-health-records/

yorliqlash majburiy bo‘lgan krossovkalar, kameralar, tabletkalar kabi ko‘plab mahsulotlarning har qandayining raqamli pasportidir[1].

Rossiyada dori vositalarini markirovka qilishda “Halol belgisi” (Chestniy ZNAK) tizimidan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Bu tizim O‘zbekistondagi “Asl Belgisi” tizimiga o‘xshash bo‘lib, u yerda dori vositalarining harakati ustidan davlat nazorati to‘liq avtomatlashtirilgan.

Tadqiqot doirasida milliy qonunchilikka quyidagi yangiliklarni kiritish taklif etiladi:

Terminologik apparatni kengaytirish – Qonunga “kiber-narkojinoyatchilik”, “elektron reestr” va “raqamli markirovka” kabi tushunchalarni kiritish lozim. Bu huquqni qo‘llash amaliyotida yagona yondashuvni shakllantiradi.

Sudgacha bloklash mexanizmi – narkotik moddalarni targ‘ib qiluvchi yoki sotuvchi resurslarni (botlar, saytlar) aniqlangan zahoti maxsus vakolatli organ taqdimnomasi bilan tezkor bloklash tizimini joriy etish zarur. Bu esa jinoiy kontentning tarqalish tezligini 40% gacha kamaytirish imkonini beradi.

Kripto-aktivlar maqomi – jinoiy yo‘l bilan topilgan kriptovalyutalarni “jinoyat quroli” yoki “ashyoviy dalil” deb hisoblash va ularni davlat foydasiga musodara qilishning huquqiy asoslarini yaratish ham talab etiladi. Shu orqali jinoyatchilarning iqtisodiy bazasiga zarba berishning huquqiy asosi mustahkamlanadi.

Raqamli nazorat (Track and Trace) – giyohvandlik vositalari, kuchli ta’sir qiluvchi moddalar aylanishini elektron retsept va elektron hisob-fakturalar orqali real vaqt rejimida nazorat qilish “dorixona narkomaniyasi”ga chek qo‘yishga xizmat qiladi.

Taklif etilayotgan o‘zgartishlar nafaqat huquqiy bo‘shliqlarni to‘ldiradi, balki O‘zbekistonda kiber-xavfsizlik va jamoat salomatligini himoya qilishning yangi bosqichini boshlab beradi. Raqamli markirovka va kripto-aktivlar ustidan nazoratning o‘rnatilishi kiber-narkojinoyatlarni ochish koeffitsiyentini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Shungdek, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, narkotik vositalar ustidan raqamli nazorat (Track and Trace) o‘rnatilishi hamda kiber-makonda tezkor protsessual vakolatlarning (sudgacha bloklash) mavjudligi nafaqat jinoyatchilikni kamaytiradi, balki sog‘liqni saqlash tizimining shaffofligini ta’minlaydi. O‘zbekiston qonunchiligiga taklif etilayotgan “kripto-aktivlarni musodara qilish” normasi esa xalqaro huquqdagi “Follow the money” (Pul izidan bor) tamoyilini hayotga tatbiq etish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustdagi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida” 813–I-sonli Qonuni. https://lex.uz/ru/docs/-86044

[1] https://www.rbc.ru/industries/news/668faf799a79471989c08667

2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni g‘ayriqonuniy ravishda muomalaga kiritishga qarshi kurash to‘g‘risida” konvensiyasi. https://lex.uz/ru/docs/-2614780

3. https://www.psi.ie/practice-supports/falsified-medicines-directive

4. SecurPharm tizimi. https://www.securpharm.de/securpharm-system/das-securpharm-system/

5. https://e-estonia.com/solutions/e-health-2/e-health-records/

6. https://www.rbc.ru/industries/news/668faf799a79471989c08667

YOSHLAR JINOYATCHILIGINING PROFILAKTIKASIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA ULARNI QO‘LLASH MUAMMOLARI

Raxmatov Kamoljon Ximmat o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistraturasi tinglovchisi

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlar jinoyatchiligi nafaqat alohida davlatlar, balki butun jahon hamjamiyati oldida turgan dolzarb kriminologik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning ko‘payishi jamiyat xavfsizligi, ijtimoiy barqarorlik va kelajak taraqqiyotiga jiddiy tahdid soladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan o‘tkazilgan uchrashuvda yoshlarga yaratilayotga sharoitlar, erishilayotgan natijalar xususida nutq so‘zlab, *Birinchi va ikkinchi Renessansni buyuk alloma va mutafakkirlarimiz yaratgan bo‘lsa, bugun tarix navbatni sizlarga bermoqda. Ishonchim komil, sizlar barcha sohalarda mamlakatimiz bayrog‘ini baland ko‘tarishga qodirsiz. Sizlar – Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz,* – deya yoshlarni ta’riflaydilar[1]. Bugungi kunda qaysi sohada bo‘lmasin yoshlarga juda keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Afsuski “Yoshlik - beboshlik” deya nojo‘ya harakatlarga qo‘l urib, jinoyat ko‘chasiga kirib ketayotgan yoshlar ham bugungi kunda uchrab turibdi. Tahlillarga ko‘ra 2025-yil davomida jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan 63 177 ta jinoyat ishi ko‘rib chiqilib, ular doirasida 79 554 nafar shaxsga nisbatan sud qarorlari qabul qilingan. Sudlangan shaxslarning 55 829 nafari erkak, 7 511 nafari ayollarni tashkil etgan. Yoshlar orasida sudlanganlar esa 23 973 nafarga yetgan, ularning 2 431 nafari voyaga yetmaganlar hisoblanadi.[2] Shu bois mazkur muammoni kriminologik jihatdan chuqur o‘rganish, uning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash hamda samarali profilaktika choralarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

[1] https://president.uz/oz/lists/view/8278
[2] https://vaqt.uz/uz/news/2025-yilda-24-mingga-yaqin-yoshlar-jinoyat-ishlari-boyicha-sudlangan-19375

Travis Hirschi tomonidan 1969-yilda ilgari surilgan **"Ijtimoiy nazorat nazariyasi"** (Social Control Theory) kriminologiyada inqilobiy yondashuv hisoblanadi. An'anaviy nazariyalar "Nima uchun odamlar jinoyat sodir etadi?" degan savolga javob izlagan bo'lsa, Hirschi ''Nima uchun ko'pchilik odamlar jinoyat sodir etmaydi va qonunga itoat qiladi?'' degan masalani o'rtaga tashlaydi. Uning fikricha, inson tabiatan o'z manfaatlarini ko'zlovchi mavjudotdir va agar uni hech narsa to'xtatib turmasa, u oson yo'l bilan maqsadiga erishish uchun qonun buzishga moyil bo'ladi. Uni jinoyatdan to'xtatib turuvchi kuch — bu **jamiyat bilan bo'lgan mustahkam ijtimoiy aloqalardir**.

Hirschi ushbu aloqalarni (Social Bonds) to'rtta asosiy elementga ajratadi:

1. Bog'liqlik (Attachment): Bu element shaxsning boshqa odamlar (ota-ona, o'qituvchilar, tengdoshlar) bilan bo'lgan hissiy va emotsional rishtalarini anglatadi. Bunda **oilaning roli va aloqaning uzilishi** haqida to'xtaladi, ya'ni agar bola o'z ota-onasini yaxshi ko'rsa va hurmat qilsa, u biror nojo'ya ish qilishdan oldin "Ota-onam bilsa nima deydi? Ularning ishonchini qanday oqlayman?" deb o'ylaydi, aloqaning uzilishi esa oila va maktab bilan hissiy bog'liqlik zaiflashsa, o'smirda jamiyat qadriyatlariga nisbatan befarqlik uyg'onadi va u jinoyatga moyil bo'lib qoladi.

2. Majburiyat (Commitment): Bu shaxsning jamiyatda erishgan yutuqlari va kelajakdagi maqsadlari uchun kiritgan "investitsiyasi"dir. **Ijtimoiy sarmoya:** Yaxshi o'qish, sportdagi yutuqlar yoki kelajakdagi martaba rejalari shaxsni jinoyatdan tiyadi. Chunki bitta jinoiy ish butun hayoti davomida erishgan nufuzi va imkoniyatlarini yo'qqa chiqarishi mumkinligini anglaydi. **Xavf:** Hech qanday ijtimoiy maqsadga ega bo'lmagan yoshlarda "yo'qotadigan narsaning o'zi yo'q" degan tushuncha shakllanadi, bu esa ularni jinoiy yo'lga boshlaydi.

3. Jalb qilinganlik yoki Bandlik (Involvement): Bu insonning foydali va qonuniy faoliyatlar bilan bandlik darajasi ya'ni **vaqt omili:** Hirschining oddiy, ammo o'rinli fikri bor: "Bekorchi odamda jinoyat haqida o'ylashga vaqt ko'proq bo'ladi". Sport to'garaklari, o'qish va ijtimoiy foydali mehnat bilan band bo'lgan yoshlarning jismonan jinoyat sodir etishga vaqti va imkoniyati qolmaydi.

4. Ishonch (Belief): Bu jamiyatning umumiy axloqiy va huquqiy qoidalari adolatli ekanligiga bo'lgan ichki ishonch. **Qonun ustuvorligi:** Agar yoshlar qonunlarni "hamma uchun barobar" va "to'g'ri" deb qabul qilsa, ularga itoat qilishadi. Agar ularda qonunlar faqat boylar yoki ma'lum guruhlar manfaatini ko'zlaydi degan ishonchsizlik paydo bo'lsa, qonunni buzish ular uchun ma'naviy muammo tug'dirmaydi.

Hirschi ta'kidlaydiki, ushbu to'rt element bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Masalan, oilasiga kuchli **bog'langan** (attachment) bola, o'qishda yaxshi natijalarga erishishga **majburiyat** (commitment) sezadi, dars tayyorlash bilan **band** (involvement) bo'ladi va natijada jamiyat qoidalarining to'g'riligiga **ishonchi** (belief)

ortadi. Ushbu nazariya bugungi kunda yoshlar jinoyatchiligining oldini olishda "jazo"dan ko‘ra "ijtimoiylashtirish" (mahallada yoshlarni sportga jalb qilish, oilaviy muhitni sog‘lomlashtirish) samaraliroq ekanligini ilmiy isbotlab beradi.[1]

Bizning nazarimizda, T. Hirschining ijtimoiy nazorat nazariyasidagi **"Jalb qilinganlik" (Involvement)** elementi bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining fundamental asosi bilan hamohangdir. Hirschi ta’kidlaganidek, yoshlarning bo‘sh vaqti qanchalik foydali va tizimli mashg‘ulotlar bilan band bo‘lsa, ularda jinoiy rejalarga o‘rin va imkoniyat qolmaydi. Ushbu nazariy yondashuvni O‘zbekiston amaliyotida quyidagi ikki mexanizm misolida ko‘rishimiz mumkin:

1. "Besh muhim tashabbus" — tizimli bandlik asosi sifatida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbus (madaniyat, sport, IT, kitobxonlik va xotin-qizlar bandligi) Hirschining "Involvement" konsepsiyasini jamiyatning quyi bo‘g‘ini — mahalla va maktab darajasida hayotga tatbiq etishdir. Ma’lumki, yoshlar o‘rtasidagi aksariyat bezorilik yoki guruh bo‘lib sodir etiladigan jinoyatlar aynan "nazoratsiz bo‘sh vaqt" mahsulidir. Besh tashabbus doirasidagi to‘garaklar yoshlarni faqat jismonan band qilib qolmay, ularda Hirschining birinchi elementi — **"Bog‘liqlik" (Attachment)** hissini (ustoziga, jamoasiga, maktabiga nisbatan) ham mustahkamlaydi.

2. "Yoshlar daftari" — ijtimoiy majburiyatni shakllantirish vositasi "Yoshlar daftari" tizimi orqali ishsiz va muammoli yoshlarga berilayotgan imtiyozlar (subsidiyalar, o‘qish xarajatlarini qoplash) Hirschining **"Majburiyat" (Commitment)** elementiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. Inson davlatdan ko‘mak olib, o‘z tadbirkorligini boshlar ekan, u o‘zining ijtimoiy statusini yo‘qotishdan qo‘rqadi. Binobarin, iqtisodiy va ijtimoiy "sarmoyaga" ega bo‘lgan yosh yigit yoki qiz o‘z kelajagini xavf ostiga qo‘yib, huquqbuzarlik sodir etishdan tiyiladi

Edvin Sazerlend (Edwin Sutherland) tomonidan 1939-yilda ishlab chiqilgan **Differensial assotsiatsiyalar nazariyasi** (Theory of Differential Association) kriminologiya tarixidagi eng nufuzli kontseptsiyalardan biri hisoblanadi. Ushbu nazariya jinoyatchilikning sabablarini insonning biologik tuzilishi yoki ruhiy kasalliklaridan emas, balki uning **ijtimoiy muhiti va muloqotidan** qidiradi. Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki: **Jinoyatchilik — bu o‘rganiladigan jarayon.** Edvin Sazerlend o‘z nazariyasini tushuntirish uchun to‘qqizta tayanch nuqtani ilgari suradi:

1. **Jinoiy xulq-atvor o‘rganiladi:** U irsiy emas, inson jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmaydi.
2. **Muloqot jarayonida o‘rganiladi:** Shaxs boshqa odamlar bilan verbal (so‘z) yoki imo-ishora orqali muloqot qilib, jinoiy tajribani o‘zlashtiradi.

[1] Hirschi T. Causes of Delinquency. – Berkeley and Los Angeles: University of California Press, 1969. – P. 16-34.

3. **Yaqin shaxslar davrasida:** Jinoyatni o‘rganishda ommaviy axborot vositalaridan ko‘ra, shaxs uchun eng yaqin va qadrli bo‘lgan guruhlar (oila, do‘stlar, tengdoshlar) hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

4. **Nimalar o‘rganiladi?** Ikki narsa o‘rganiladi: a) Jinoyat sodir etishning **texnikasi** (usullari); b) Motivlar, intilishlar va **oqlash usullari** (ratsionalizatsiya).

5. **Qonunga munosabat:** Motivlar va intilishlar huquqiy normalarni "ijobiy" yoki "salbiy" talqin qilish orqali shakllanadi.

6. **Prinsipial nuqta:** Agar shaxsning atrofida qonunni buzishni qo‘llab-quvvatlovchi qarashlar, qonunga itoat qilishni targ‘ib qiluvchi qarashlardan **ustun kelsa**, u jinoyatchiga aylanadi.

7. **Differensial assotsiatsiyalar farqlanadi:** Muloqotning **chastotasi** (necha marta), **davomiyligi** (qancha vaqt), **ustuvorligi** (shaxs uchun ahamiyati) va **intensivligiga** qarab ta’sir kuchi turlicha bo‘ladi.

8. **O‘rganish mexanizmi:** Jinoiy xulq-atvorni o‘rganish jarayoni har qanday boshqa qonuniy ko‘nikmani (masalan, duradgorlik yoki o‘qishni) o‘rganish mexanizmi bilan bir xil.

9. **Ehtiyojlar bilan tushuntirib bo‘lmaydi:** Jinoyatchilikni faqat "pulga ehtiyoj" bilan tushuntirib bo‘lmaydi, chunki halol mehnat qilayotgan odamda ham o‘sha ehtiyoj bor, lekin u qonunni buzmaydi.

Atrof-muhitning roli va ‘‘Oqlash usullari’’: Sazerlend nazariyasining eng qiziqarli qismi bu — **ratsionalizatsiya (oqlash)**. Masalan, yoshlar o‘rtasida o‘g‘rilik sodir etgan shaxs o‘zini quyidagicha oqlashi mumkin: ‘‘Men o‘g‘irlamadim, shunchaki boylardan haqqimizni oldi’’, ‘‘amma shunday qilyapti-ku’’. Bu kabi fikrlar yoshlarning muloqot muhitida shakllanadi. Agar o‘smir jinoyatni ‘‘jasora’’ deb biladigan guruhga tushib qolsa, u yerda jinoyat sodir etish ijtimoiy jihatdan rag‘batlantiriladi.

Zamonaviy talqin: Virtual ‘‘Assotsiatsiyalar’’: Bugungi kunda Sazerlend nazariyasi raqamli muhit uchun juda dolzarb.

- **Virtual muhit:** Endi yaqin do‘stlar faqat qo‘shni bolalar emas, balki Telegram yoki ijtimoiy tarmoqlardagi "yopiq guruhlar" a’zolari bo‘lishi mumkin.
- **Kiber-jinoyatchilik:** Kiber-firibgarlik usullari, zararli dasturlardan foydalanish aynan onlayn forumlar va forumdagi "ustozlar" (differensial assotsiatsiya) orqali o‘rganilmoqda.[1]

Bizning nazarimizda, Sazerlend nazariyasidan kelib chiqib, yoshlar profilaktikasida nafaqat ularni jazolash, balki ularning **muloqot muhitini (assotsiatsiyalarini)** sog‘lomlashtirish, virtual olamdagi shubhali guruhlar ta’siridan himoya qilish birinchi darajali vazifadir.

[1] Sutherland E. H., Cressey D. R. Principles of Criminology. 11th edition. – Chicago: General Hall, Inc., 1992. – P. 77-83.

BMTning Narkotik moddalar va jinoyat bo‘yicha boshqarmasi (UNODC) hamda Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, yoshlar o‘rtasidagi jinoyatlar so‘nggi o‘n yillikda barqaror o‘sishga ega bo‘lgan. 2023-yilgi hisobotda qayd etilishicha, dunyo bo‘yicha sodir etilgan jinoyatlarning 25–30 foizgacha bo‘lgan qismini 15–29 yosh oralig‘idagi shaxslar tashkil qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti hamda Ichki ishlar vazirligi statistikalariga asoslanadigan bo‘lsak, 2022–2024 yillar oralig‘ida jinoyat sodir etgan shaxslar orasida 18–30 yoshgacha bo‘lganlar soni 35% atrofida bo‘lgan. Ushbu tahlillar mamlakatimizda yoshlar bilan ishlash tizimida **"proaktiv" (oldindan harakat qiluvchi)** choralarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatmoqda. O'zbekistonda 18–30 yosh oralig‘idagi shaxslar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning yuqori ulushi bizning fikrimizcha quyidagi omillarga bog'liq:

- **Global kiber-tahdidlarning mahalliylashishi:** Yoshlarning raqamli texnologiyalarga tez moslashishi fonida, kiber-jinoyatchilik va onlayn qimor (ludomaniya) kabi yangi turdagi huquqbuzarliklar an'anaviy profilaktika usullarini ortda qoldirmoqda.
- **Ijtimoiy-psixologik adaptatsiya jarayoni:** 18–30 yosh — shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topishidagi eng kritik bosqich bo'lib, iqtisodiy mustaqillikka erishish yo'lidagi to'siqlar kriminogen xavfni oshirmoqda.
- **Nazariya va amaliyot uzilishi:** Mavjud kriminologik nazariyalarning (masalan, Ijtimoiy nazorat nazariyasi) amaliyotga tatbiq etilishida hali ham "mahallabay" ishlash tizimida raqamli tahlil (Big Data) va individual psixologik yondashuvlar to'liq integratsiya qilinmagan.

O‘zbekiston Kontekstida Muammolar va Yechimlar: O‘zbekistonda yoshlar jinoyatchiligining oldini olishda "Ijtimoiy profilaktika" tushunchasi so‘nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Xususan, huquqbuzarliklarning oqibati bilan kurashishdan ko‘ra, ularning barvaqt oldini olishga qaratilgan "mahallabay" tizimi joriy etildi[1]. Biroq, amaliyotda ushbu tizimning samaradorligiga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

1. Idoralararo integratsiyaning zaifligi Bugungi kunda yoshlar bilan ishlashda IIV, Yoshlar ishlari agentligi va Milliy gvardiya kabi o‘ndan ortiq tuzilmalar mas’ul etib belgilangan. Bizning nazarimizda, muammo ushbu idoralarning ko‘pligida emas, balki ular o‘rtasidagi yagona raqamli axborot platformasining mukammal emasligidadir. Bu esa "profilaktik zanjir"ning uzilishiga va resurslarning tarqoq sarflanishiga olib kelmoqda .[2]

[1] **O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.** "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida"gi O‘RQ-371-son Qonuni. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. (Yangi tahrirdagi sharhlar bilan, 2023).
[2] **Rustambayev, M. H.** *Kriminologiya: O‘quv qo‘llanma.* – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021. – B. 156-160.

2. Jazo va profilaktika muvozanatining buzilishi Amaliyotda profilaktika inspektori va psixolog hamkorligi ko‘pincha rasmiy xarakterga ega. Ko‘p hollarda huquqni muhofaza qiluvchi organlar yoshning psixologik portretini tahlil qilishdan ko‘ra, ma’muriy jazo choralarini qo‘llashni afzal ko‘rmoqdalar. Bu esa yoshlarda jamiyatga nisbatan "begonalashuv" (alienation) hissini uyg‘otadi.[1]

3. "Ijtimoiy profilaktika"ning deklarativligi Bizning fikrimizcha, profilaktika chora-tadbirlari ko‘pincha umumiy ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar bilan cheklanib qolmoqda. Vaholanki, zamonaviy kriminologiya jinoyatning tub ildizi sifatida yoshlarning iqtisodiy nosog‘lom muhiti va raqamli dunyodagi "bo‘shliq"larini ko‘rsatadi [2].

Taklif etilayotgan yechimlar:

1. **"Case Management" (Keys-menejment) tizimi:** Har bir "og‘ir" toifadagi yosh bo‘yicha alohida keys ochilib, unga barcha idoralar birgalikda (biriktirilgan holda) yechim topishi.
2. **Raqamli profilaktika (E-profilaktika):** Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardagi kriminogen faolligini sun’iy intellekt yordamida tahlil qilish va erta ogohlantirish tizimini joriy etish.
3. **Restorativ adolat (Tiklovchi odillik):** Yoshlarni darrov jinoiy javobgarlikka tortmasdan, yetkazilgan zararni qoplash va jamiyatga qaytarish orqali tarbiyalash tizimini kengaytirish.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlar jinoyatchiligining oldini olishda faqat jazo choralariga tayanish kutilgan samarani bermaydi. Zamonaviy kriminologik nazariyalar tahlili shuni tasdiqlaydiki, yoshlarning oila, ta'lim va sog'lom ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi zaiflashishi hamda nazoratsiz virtual makon orqali kriminogen xulq-atvorni o'zlashtirishi asosiy xavf omillaridir. Bizning nazarimizda, O'zbekistonda 18–30 yoshlilar o'rtasidagi jinoyatchilik ulushining 35% ni tashkil etishi — profilaktika tizimida nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzilishning natijasidir. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun quyidagi choralar zarur deb hisoblaymiz:

- **Raqamli integratsiya:** Idoralararo ma'lumot almashish tizimini to'liq raqamlashtirish va "xavf ostidagi" yoshlarni barvaqt aniqlashda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish.
- **Psixologik ustuvorlik:** Profilaktika inspektorlari faoliyatida jazolash emas, balki "tiklovchi odillik" va individual psixologik reabilitatsiya tamoyillarini birinchi o'ringa olib chiqish.

[1] **G‘ofurov, M.** "Yoshlar jinoyatchiligini oldini olishda psixologik xizmatning o‘rni". // *Huquq va burch* jurnali. – 2022. – №4. – B. 22-25.

[2] **United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC).** *Handbook on the Crime Prevention Guidelines: Making them work.* – New York: United Nations, 2010 (Updated 2023). – P. 88.

- **Kiber-immunitet:** Yoshlar orasida raqamli gigiyena va kiber-etika madaniyatini shakllantirish orqali virtual jinoyatchilikka qarshi profilaktikani tizimlashtirish.

Yoshlar jinoyatchiligining oldini olish — bu shunchaki huquqbuzarlikni to'xtatish emas, balki ularning ijtimoiy ehtiyojlarini to'g'ri yo'naltirish va jamiyat bilan aloqalarini mustahkamlash demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T 2023 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida"gi O‘RQ-371-son Qonuni. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014.
3. Hirschi T. Causes of Delinquency. – Berkeley and Los Angeles: University of California Press, 1969. – P. 16-34.
4. *Sutherland E. H., Cressey D. R. Principles of Criminology. 11th edition. – Chicago: General Hall, Inc., 1992. – P. 77-83.*
5. Rustambayev, M. H. *Kriminologiya: O‘quv qo‘llanma*. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021. – B. 156-160.
6. G‘ofurov, M. "Yoshlar jinoyatchiligini oldini olishda psixologik xizmatning o‘rni". // *Huquq va burch* jurnali. – 2022. – №4. – B. 22-25.
7. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). *Handbook on the Crime Prevention Guidelines: Making them work*. – New York: United Nations, 2010 (Updated 2023). – P. 88.
8. https://president.uz/oz/lists/view/8278
9. https://vaqt.uz/uz/news/2025-yilda-24-mingga-yaqin-yoshlar-jinoyat-ishlari-boyicha-sudlangan-19375

МИЛЛИЙ ГВАРДИЯ ОРГАНЛАРИНИНГ МАЪМУРИЙ ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛУВЧИ ҲУҚУҚИЙ НОРМАЛАРДАГИ МУАММОЛАР ТАҲЛИЛИ ВА УЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ

Назаров Ғанишер Баҳодирович,
Жамоат хавфсизлиги университети мустақил изланувчиси

Аннотация: Мазкур мақолада Миллий гвардия органларининг маъмурий амалиётини амалга ошириш жараёнида намоён бўлаётган ҳуқуқий, ташкилий ва профилактик масалалар комплекс тарзда таҳлил этилган. Аввало, 2023–2025 йилларда Сирдарё вилоятида қайд этилган маъмурий ҳуқуқбузарликлар статистик маълумотлари асосида МЖтКнинг 61, 88, 91, 161, 185², 187 ва 194-моддалари бўйича ҳуқуқбузарликлар динамикаси, уларнинг туғилишига таъсир этувчи омиллар ҳамда ҳудудий хусусиятлар очиб берилган. Шу билан бирга, Президент Ш.М. Мирзиёев раҳнамолигида амалга оширилаётган маъмурий

ислоҳотлар доирасида Миллий гвардияга юклатилган янги ваколатларнинг жамоат хавфсизлигини таъминлашдаги ўрни ва амалий натижалари тадқиқ этилган.

Мақолада маъмурий амалиёт самарадорлигини ошириш мақсадида рақамли назорат ва мониторинг тизимларини жорий этиш, профилактик таъсир чораларини институционаллаштириш, жамоатчилик иштирокини кенгайтириш, давлат органлари ўртасидаги ҳамкорликни мустаҳкамлаш бўйича илмий асосланган таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган. Ҳар бир модда кесимида муаммо, унинг таҳлили ва назарий-амалий ечимлари ўзаро боғлиқ ҳолда ёритилиб, Миллий гвардия маъмурий амалиётини ислоҳ этишнинг устувор стратегик йўналишлари белгиланган.

Калит сўзлар: Миллий гвардия, маъмурий амалиёт, МЖтК, назорат тизими, профилактика, рақамлаштириш, ҳуқуқий ислоҳотлар, жамоат хавфсизлиги, Сирдарё вилояти, давлат бошқаруви.

Янги Ўзбекистонда хавфсизлик ва жамоат тартибини таъминлаш соҳасида амалга оширилаётган туб ислоҳотлар Миллий гвардия органларининг давлат бошқаруви тизимидаги ўрни ва функцияларини янги босқичга олиб чиқмоқда. Қўриқланадиган объектлар хавфсизлигини таъминлаш, оммавий тадбирларда тартибни сақлаш, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва маъмурий жавобгарлик чораларини қўллаш каби вазифалар кенгайиб борар экан, ушбу фаолиятни тартибга солувчи ҳуқуқий базанинг барқарорлиги, тизимлилиги ва аниқлигига бўлган талаб ҳам ортаяпти.

Амалдаги қонунчиликни таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, Миллий гвардия органларининг маъмурий амалиёт фаолияти турли даражадаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда парчаланган ҳолда акс этган: Конституция ва базавий қонунларда умумий принцип ва вазифалар, кодексларда маъмурий жавобгарлик масалалари, Президент фармон ва қарорларида институционал модель, Вазирлар Маҳкамаси ҳужжатлари ва идоралараро низомларда эса амалий тартиб-таомиллар белгилаб қўйилган. Бироқ ушбу ҳужжатлар ўртасидаги ички уйғунлик, ваколатлар занжири ва ҳуқуқни қўллаш механизми ҳар доим ҳам етарли даражада таъминланмаган.

Маъмурий ислоҳотларнинг ҳуқуқий пойдевори сифатида 2025 йил 8 сентябрда қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ–161-сонли *“Давлат бошқаруви тизимини янада такомиллаштириш ва масъулиятни кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”*ги Фармони муҳим

аҳамият касб этади[1]. Ушбу фармонда вазирлик ва идоралар фаолиятида ташаббускорлик, ҳисобдорлик, очиқлик ҳамда фуқаролар манфаатларига йўналтирилган бошқарув тизимини яратиш вазифаси белгилаб берилган. Мазкур ҳужжат давлат бошқарувининг институционал тизимини мустаҳкамлаш, маъмурий амалиётни ҳуқуқий жиҳатдан такомиллаштириш ва давлат органлари фаолиятида масъулиятни ошириш учун зарур сиёсий-ҳуқуқий асосни яратди.

Дарҳақиқат, ҳар қандай ислоҳотнинг барқарор ва узоқ муддатли самараси, аввало, унинг ҳуқуқий пойдеворининг мустаҳкамлиги билан белгиланади. Зеро, ҳуқуқий асослар етарли даражада такомиллаштирилмаган ҳолда амалга оширилаётган ислоҳотлар амалда самара бермаслиги ёки тизимли муаммоларни келтириб чиқариши мумкин. Шу нуқтаи назардан, давлат бошқаруви тизимидаги ҳар бир ислоҳот ташаббуси ҳуқуқий асослар, норматив-ҳуқуқий кафолатлар ва институционал механизмлар билан мустаҳкамланиши зарур. Бу эса ислоҳотларнинг барқарорлигини, бошқарув жараёнларининг изчиллигини ва давлат органлари фаолиятининг ҳуқуқий аниқлигини таъминлайди.

Шу билан бирга, бошқарув тизимини самарали ташкил этишда шахсий жавобгарлик ва ҳисобдорлик принциплари алоҳида аҳамият касб этади. Ҳар бир раҳбар шахсан қабул қилаётган қарорлари учун ҳуқуқий ва ахлоқий жавобгарликни ҳис этиши лозим. Бу нафақат бошқарув самарадорлигини оширади, балки давлат хизматчилари фаолиятида шаффофлик ва масъулият муҳитини яратади. Натижада, мазкур ёндашув маъмурий юрисдикция соҳасида амалга оширилаётган ислоҳотларнинг мазмун-моҳиятини аниқ белгилаб берди. Яна шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, бугунги кунда давлат бошқарувида жавобгарлик ва ҳисобдорлик принципларининг марказий мезон сифатида мустаҳкамланиши маъмурий ҳуқуқий муносабатларнинг ҳуқуқий аниқлик, тизимлилик ва барқарорлик асосида ривожланишига замин яратди. Бу эса *“қонун устуворлиги”* тамойилини амалий мазмунда қарор топтириш ҳамда давлат бошқарувида фуқаролар манфаатларига йўналтирилган фаолиятни таъминлашнинг муҳим ҳуқуқий-сиёсий гарови сифатида намоён бўлди.

Мазкур сиёсий-ҳуқуқий ёндашувнинг амалий ифодаси 2025 йилда қабул қилинган бир қатор Президент қарорларида ҳам ўз аксини топди. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 3 январдаги ПҚ–1-сонли *“2025 йилда республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”*ги қарорида жамоат хавфсизлиги тизимини илмий асосда қайта қуриш, маҳаллий даражада жиноятчиликнинг асл

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 8 сентябрдаги ПФ–161-сон Фармони *“Давлат бошқаруви тизимини янада такомиллаштириш ва масъулиятни кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”*. lex.uz.

сабабларини бартараф этиш, шунингдек *“маҳалла – туман – вилоят”* тизимида шахсий масъулият ва ҳисобдорликни кучайтириш вазифалари белгилаб берилди[1].

Бундан ташқари, 2025 йил 18 августда қабул қилинган ПҚ–253-сонли қарор билан маҳаллаларда жиноятчиликнинг барвақт олдини олиш тизимини янада самарали ташкил этиш, *“намунали хавфсиз кўча”* ва *“намунали хавфсиз уй”* лойиҳаларини жорий қилиш ҳамда масъул раҳбарлар шахсий жавобгарлигини кучайтириш бўйича янги механизмлар белгилаб берилди[2]. Ушбу қарорда замонавий рақамли технологиялар ва сунъий интеллект имкониятларини жорий этиш орқали хавфсиз муҳитни таъминлаш, ички ишлар тизимида кадрлар тайёрлашни рақамли форматда такомиллаштириш ва маҳалла даражасида профилактика ишларини самарали ташкил этиш устувор вазифа сифатида белгиланди[3].

Шундай қилиб, Президент *Ш.Мирзиёев* раҳнамолигида амалга оширилаётган мазкур маъмурий ислоҳотлар Миллий гвардия органларининг маъмурий амалиёт фаолиятини ҳам илмий-ҳуқуқий асосда қайта кўриб чиқишни тақозо этмоқда. Дарҳақиқат, ваколатларни аниқ белгилаш, идоралараро мувофиқлашувни кучайтириш, ҳисобдорлик ва жавобгарлик механизмларини такомиллаштириш орқали Миллий гвардиянинг давлат хавфсизлиги ва жамоат тартибини таъминлашдаги стратегик роли янада ошириш давр талабига айланмоқда. Мазкур ислоҳот эса янги Ўзбекистонда инсон манфаатларига йўналтирилган самарали, қонуний ва илмий асосланган маъмурий амалиёт тизимини шакллантиришнинг муҳим кафолати ҳисобланади.

Шу ўринда, Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг 248[1]-моддасида Миллий гвардия органларига жамоат хавфсизлигини таъминлаш, фуқароларнинг тинчлиги ва қонуний тартибни сақлаш соҳасидаги ҳуқуқбузарликларни аниқлаш ҳамда уларга нисбатан маъмурий таъсир чораларини қўллаш бўйича аниқ ваколатлар юклатилгани белгиланган[4].

---

[1] Мирзиёев Ш.М. *“2025 йилда республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”*ги ПҚ-1-сон Қарори // Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси // https://lex.uz/docs

[2] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 18 августдаги ПҚ–253-сон қарори *“Маҳаллаларда жиноятчиликнинг барвақт олдини олиш тизимини такомиллаштириш тўғрисида” //* Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси // https://lex.uz/docs

[3] Ахмедов А. *Рақамли трансформация ва хавфсизлик соҳасидаги инновациялар*. Тошкент: ТДЮУ нашриёти.

[4] Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси. – Тошкент: “Адолат”, 2024. – 248[1]-модда.

Шу муносабат билан, сўнгги йилларда Миллий гвардия органлари томонидан мазкур модда доирасида амалга оширилган ишлар, уларнинг ҳуқуқни муҳофаза қилиш соҳасидаги натижадорлиги, жамоат хавфсизлигини таъминлашда тутган ўрни ва қўлланилган маъмурий таъсир чораларининг самарадорлигини илмий таҳлил қилиш муҳим аҳамият касб этади. Бу таҳлил нафақат статистик кўрсаткичларнинг қиёсий баҳосини, балки маъмурий юрисдикция амалиётидаги тизимли муаммоларни ва уларни бартараф этиш бўйича амалий таклифларни ишлаб чиқишни ҳам назарда тутади[1].

Мазкур жараён Миллий гвардия фаолиятини илмий-ҳуқуқий асосда такомиллаштириш, жамоат хавфсизлиги соҳасидаги назорат функцияларини аниқ белгилаш ҳамда маъмурий таъсир чораларини қонунийлик, адолат ва пропорционаллик тамойилларига мувофиқ равишда амалга ошириш имконини яратади[2]. Шунингдек, бу таҳлиллар орқали ички ишлар тизимидаги бошқа институтлар билан ўзаро мувофиқлашувни мустаҳкамлаш ва фуқароларнинг ҳуқуқий онги ҳамда давлат органларига бўлган ишончини оширишга хизмат қилади[3].

Шу ўринда, Сирдарё вилояти Миллий гвардия органлари томонидан 2023–2025 йиллар мобайнида фуқаролар томонидан содир этилган маъмурий ҳуқуқбузарликлар бўйича амалга оширилган маъмурий амалиётнинг ҳолати ва динамикасини таҳлил қилиш жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасидаги институционал ислоҳотларнинг амалий самарадорлигини баҳолаш нуқтаи назаридан муҳим илмий аҳамият касб этади. Президент Ш.М. Мирзиёев раҳнамолигида амалга оширилаётган маъмурий ислоҳотлар доирасида Миллий гвардия органларининг ҳуқуқий мақоми ва юрисдикция доираси изчил равишда кенгайиб, уларга маъмурий ҳуқуқбузарликлар устидан назоратни амалга ошириш ҳамда тегишли чоралар қўллаш бўйича қўшимча ваколатлар берилди.

Ушбу тенденция амалда Миллий гвардия фаолиятининг ҳуқуқий-амалий механизмларини такомиллаштиришга, шунингдек, фуқароларнинг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини юксалтиришга хизмат қилмоқда. Сирдарё вилояти кесимида 2023–2025 йиллар давомида қайд этилган маълумотлар таҳлили Миллий гвардиянинг назорат, профилактика ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш соҳаларидаги фаоллиги сезиларли даражада ошганини кўрсатади. Бу эса, ўз навбатида, маъмурий юрисдикция соҳасида қонун устуворлигини таъминлаш, давлат бошқаруви тизимининг самарадорлигини ошириш ҳамда аҳоли ўртасида

---

[1] Насиров Х.Р. *Миллий гвардия органларининг маъмурий юрисдикция фаолиятини такомиллаштириш масалалари*. – Тошкент ТДЮУ нашриёти.

[2] Мирзиёев Ш.М. Президент нутқи: *Жамоат хавфсизлигини таъминлаш — барқарор тараққиёт гарови*. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти.

[3] Тошпўлатов Н. *Маъмурий ҳуқуқ ва бошқарув тизимида ҳисобдорлик тамойили*. – Тошкент: ТДЮУ нашриёти.

ҳуқуқий маданиятни мустаҳкамлаш каби устувор вазифаларнинг амалий мазмун билан бойиб бораётганидан далолат беради.

Шунингдек, мазкур даврдаги таҳлилий маълумотлар Миллий гвардия органларининг маъмурий амалиёт фаолиятида самарадорликнинг ошиши, ҳуқуқбузарликлар тузилиши ва динамикасидаги тенденциялар билан узвий боғлиқлигини кўрсатмоқда. Хусусан, назорат ва профилактика фаолиятининг кучайиши маъмурий ҳуқуқбузарликлар сонидаги ўзгаришлар билан ўзаро корреляцион муносабатни намоён этмоқда. Бу ҳолат Миллий гвардия органларининг маъмурий амалиётида амалга оширилаётган тизимли ислоҳотларнинг самарадорлигини илмий жиҳатдан асослаш имконини беради.

Умуман олганда, Сирдарё вилоятида Миллий гвардиянинг маъмурий амалиёти таҳлили шуни кўрсатадики, мазкур орган фаолиятидаги фаолликнинг ошиши жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг миллий моделини такомиллаштиришда муҳим омил сифатида намоён бўлмоқда. Бу жараён *“Янги Ўзбекистон – 2030”* тараққиёт стратегиясида белгиланган давлат бошқарувини инсон манфаатларига йўналтириш, қонун устуворлигини таъминлаш ва ҳуқуқий давлатни барпо этиш йўлидаги стратегик мақсадлар билан чамбарчас уйғунлашган ҳолда амалга оширилмоқда. Шу ўринда, бугунги кунга қадар Миллий гвардия органлари томонидан 2023-2025 йилнинг 10 ойлик даврида аниқланган[1] ҳар бир маъмурий ҳуқуқбузарлик турларига илмий ёндашув асосида тўхталиб ўтиш мақсадга мувофиқдир. Хусусан:

1. Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 61-моддаси таҳлили *(Давлат ёки жамоат мулкини оз миқдорда ўзлаштириш ёки растрата қилиш)*. Мазкур ҳуқуқбузарлик 2023–2025 йилларда ушбу модда бўйича ҳуқуқбузарликлар сони 138 та ҳолатдан 159 тагача ўсгани қайд этилган. Бу тенденция давлат мулкидан фойдаланиш устидан назоратнинг етарли даражада ташкил этилмаганини кўрсатади. Миллий гвардия органларининг ҳисобот маълумотларига кўра, кўпчилик ҳолатларда ҳуқуқбузарликлар коммунал хизмат соҳаси, давлат муассасалари, таълим ва тиббиёт ташкилотларида моддий бойликларни ўзлаштириш ёки растрата қилиш билан боғлиқ бўлган.

Бундай ҳолатларнинг асосий сабабларидан бири — давлат мулкидан самарали фойдаланишни таъминловчи ички назорат тизимининг заифлиги ҳамда моддий масъул шахсларнинг жавобгарлик ҳиссининг пастлиги ҳисобланади. Шунингдек, молиявий ҳисобот ва коммунал ресурслар сарфи бўйича электрон мониторинг тизимларининг йўқлиги моддий жавобгарлик ва ҳисобдорликни таъминлаш имконини чекламоқда.

Мазкур ҳуқуқбузарликларни келтириб чиқарувчи асосий муаммоларга:

[1] O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi markaziy devonining 2025 yil 24-oktyabrdagi 012/1/4152-son xati

Давлат мулкидан фойдаланиш устидан ички назорат тизими самарасиз бўлиб, ҳисоботлар қоғозбозлик шаклида юритилмоқда;

Коммунал ва моддий ресурслар сарфи бўйича рақамли назорат тизими мавжуд эмас;

Маъмурий жазо чоралари (жарима ёки 15 суткагача қамоқ) ҳуқуқбузарларга таъсир кўрсатмаяпти, чунки жиноятнинг моддий манфаати жазо миқдоридан каттароқ.

Муаммоларни бартараф этиш юзасидан илмий таклифлар!

Миллий гвардия ва Давлат молия назорати инспекцияси ўртасида ***электрон маълумот алмашинув тизими*** ташкил этиш, бу орқали молиявий ҳисобот ва мулкий ҳаракатларни онлайн тарзда мониторинг қилиш имкони яратилади;

оз миқдордаги талон-торож ҳолатларига нисбатан ***мажбурий жамоат хизмати*** *ёки* ***шартли компенсация тўлови****ни* жорий этиш орқали жавобгарликни тарбияви таъсир билан уйғунлаштириш;

давлат мулкидан фойдаланишни ***QR-кодли ҳисобот тизими*** орқали назорат қилиш, бу орқали ҳар бир моддий жавобгар шахснинг харажатлари очиқлик асосида ҳисобга олинади.

2. Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 88-моддаси таҳлили *(Атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш талабларини бузиш)*. Мазкур ҳуқуқбузарлик 2023 йилда 660 та, 2024 йилда 962 та, 2025 йилда эса 1064 та ҳолат қайд этилган. Бу экологик ҳуқуқбузарликлар сони 50 фоиздан ортиқ ўсганини кўрсатади. Бу ҳолат, айниқса Янгиер, Cirdapë ва Гулистон шаҳарларида қурилиш, йўл ишлари ҳамда ёнилғи ёқиш жараёнларида экоталабларга риоя этилмагани билан боғлиқдир.

Ҳуқуқбузарликлар кўпинча корхоналарнинг иссиқлик чиқиндиларини тозалаш тизими етишмаслиги, қишлоқ хўжалигида янгиланмаган техникадан фойдаланиш, ёқилғи ёқиш орқали чиқинди йўқотиш амалиёти билан боғлиқ. Бу эса фуқаролар саломатлигига ва экологик муҳитга жиддий таҳдид солади.

Мазкур ҳуқуқбузарликларни келтириб чиқарувчи асосий муаммоларга:

Экологик назоратнинг марказлашмаганлиги, давлат экологик инспекциялари фаолиятининг назорат даражаси паст;

Ёнилғи ёқиш ва чиқинди чиқариш стандартлари тўлиқ ривожланмаган;

Аҳоли ва тадбиркорлик субъектларининг экологик маданияти паст, жарима миқдори жуда кичик.

Муаммоларни бартараф этиш юзасидан илмий таклифлар!

Миллий гвардия ва Экология, атроф муҳитни муҳофаза қилиш қўмитаси ўртасида ҳамкорликда ***“Эко-назорат” электрон мониторинг тизими*** *жорий этиш;*

*қурилиш ва қишлоқ хўжалиги соҳаларида **дронлар ва сенсор ускуналари** орқали атмосфера ифлосланишини назорат қилиш;*

*экологик қонунбузарлик қилган корхоналар учун **мажбурий қайта ўқув курслари** ва жамоат ишларини жорий этиш;*

*ҳудудий даражада **“Соғлом муҳит – соғлом инсон”** акцияларини ташкил этиш орқали аҳолининг экологик маданиятини ошириш.*

3. Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 91-моддаси таҳлили *(Чиқиндиларни йиғиш ва ташиш талабларини бузиш).* Мазкур ҳуқуқбузарлик 2023 йилда 817 та ҳолат аниқланган бўлса, 2024 йилда 490 тага тушиб, 2025 йилда яна 643 тага кўтарилган. Бу ҳолат чиқинди бошқаруви соҳасида тизимли назоратнинг барқарор эмаслигини англатади. Айниқса Сардоба ва Мирзаобод туманларида чиқинди ташиш ва чиқиндиларни ажратиб йиғиш талаблари бузилган.

Бу муаммо нафақат санитария ҳолатига, балки жамоат хавфсизлигига ҳам таъсир кўрсатади. Чиқиндиларни белгиланмаган жойларга ташлаш фуқароларда норозилик, атроф муҳитнинг ифлосланиши ва инфекция хавфини оширади.

Мазкур ҳуқуқбузарликларни келтириб чиқарувчи асосий муаммоларга:

Чиқиндиларни йиғиш ва қайта ишлаш инфратузилмаси етарли даражада ривожланмаган;

Коммунал хизматлар фаолиятида ҳисобот ва назорат механизми суст;

Аҳолининг чиқинди ташлаш маданияти паст.

Муаммоларни бартараф этиш юзасидан илмий таклифлар!

*Миллий гвардияга санитария назорати соҳасида **қўшимча назорат ваколатлари** бериш;*

*Чиқиндиларни ажратиб йиғиш тизимини жамоавий **рағбатлантириш тизими** асосида жорий этиш;*

*Ҳар бир туманда **“Тоза муҳит – соғлом ҳаёт”** дастурини амалга ошириш;*

Чиқиндиларни қайта ишлаш корхоналари фаолиятини солиқ ва лицензия имтиёзлари орқали рағбатлантириш.

4. Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 161-моддаси таҳлили *(Ободонлаштириш қоидаларини бузиш)*. Мазкур ҳуқуқбузарлик 2023 йилда 35 та, 2024 йилда 95 та, 2025 йилда 233 та ҳолат қайд этилган бўлиб, уч йилда бу кўрсаткич қарийб уч баробарга ўсган. Бу ҳолат шаҳарчилик маданияти ва фуқаролик масъулиятининг пастлигини кўрсатади. Миллий гвардия ходимлари иштирокида ўтказилган профилактик рейдлар натижасида аҳоли орасида ободонлаштириш қоидалари бўйича маълумотлар кенг тарқатилган бўлса-да, амалда ижро даражаси ҳануз қониқарсиз.

Мазкур ҳуқуқбузарликларни келтириб чиқарувчи асосий муаммоларга:

Аҳолида шаҳар ва қишлоқ ободонлашувига нисбатан масъулият етишмайди;

Коммунал хизматлар томонидан назорат ва профилактик ишлар суст;

Маъмурий жарималар таъсирсиз, чунки кўп ҳолатда моддий имкониятлар билан қопланади.

Муаммоларни бартараф этиш юзасидан илмий таклифлар!

“***Фуқаро ташаббуси***” *дастури асосида аҳолини ободонлаштириш ишларига жалб қилиш;*

бузилиш ҳолатлари учун жамоат хизмати ёки тузатувчи меҳнат туридаги жазо жорий этиш;

*Миллий гвардия ва маҳаллий ҳокимликлар иштирокида “**Обод шаҳар – хавфсиз шаҳар**” акцияларини мунтазам ўтказиш;*

*ҳар бир туман бўйича ободонлаштириш ишини баҳоловчи **рейтингов тизимини** жорий этиш.*

5. Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 185²-моддаси таҳлили *(Совуқ қуролларни ноқонуний олиб юриш)*. Мазкур ҳуқуқбузарлик 2023 йилда 5 та ҳолат аниқланган бўлса, 2025 йилда 437 тага етган. Бунинг асосий сабаби – 2023 йилда Миллий гвардияга берилган қўшимча ваколатлар *(ЎРҚ–842-сон қонун)* натижасида қурол айланмаси устидан назорат кучайтирилганидир. Ҳуқуқбузарликларнинг ортиши фақат хатти-ҳаракат кўпайганини эмас, балки фаолият самарадорлигининг ошганини ҳам кўрсатади. Бироқ ушбу кўрсаткич ёшлар орасида қуролга бўлган қизиқиш юқори эканлигини ҳам тасдиқлайди.

Мазкур ҳуқуқбузарликларни келтириб чиқарувчи асосий муаммоларга:

Ёшлар ўртасида қуролларга қизиқиш кучайган, ҳуқуқий маданият паст;

Интернет орқали қурол сотуви ва тарқалишини назорат қилиш механизмлари самарасиз;

Маҳаллаларда қуролсизлик ва жамоат хавфсизлиги бўйича тарғибот ишлари кам.

Муаммоларни бартараф этиш юзасидан илмий таклифлар!

*Миллий гвардия, Маҳалла тизими ва Ёшлар иттифоқи билан ҳамкорликда “**Қуролсиз ҳаёт**” тарғибот дастурини амалга ошириш;*

барча совуқ қуролларни рақамли рўйхатга олиш ва электрон ҳисобга олиш тизимини яратиш;

*мактаб, лицей ва техникумларда хавфсизлик маданияти, қуролсизлик ва жамоат тартибига оид **соғлом турмуш фан соатларини** жорий этиш.*

6. Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 187-моддаси таҳлили *(Жамоат жойларида алкогол маҳсулотини истеъмол қилиш)*. Мазкур ҳуқуқбузарлик 2023 йилда 18 та, 2024 йилда 31 та, 2025 йилда эса 179 та ҳолат

қайд этилган. Бу ўсиш Миллий гвардияга берилган янги ваколатлар билан боғлиқ бўлиб, аҳоли маданияти ва жамоат тартибидаги камчиликларни кўрсатади.

Мазкур ҳуқуқбузарликларни келтириб чиқарувчи асосий муаммоларга:

Жамоат маданияти паст ва профилактика ишлари етарли эмас;

Байрам ва дам олиш кунларида назорат кучайтирилмаган;

Маъмурий жазо таъсирсиз, чунки кўп ҳолларда жарима миқдори кам.

Муаммоларни бартараф этиш юзасидан илмий таклифлар!

*Алкогол истеъмол қилган шахслар учун **мажбурий жамоат хизмати**ни жорий этиш;*

*“**Соғлом турмуш тарзи – менинг танловим**” номли профилактик медиа лойиҳаларни йўлга қўйиш;*

*Миллий гвардия патрулларининг байрам кунларида **кучайтирилган режимда фаолият юритишини** таъминлаш;*

Аҳоли ўртасида мажбурий маърифий семинарлар ташкил этиш.

7. Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 194-моддаси таҳлили *(Ички ишлар органи ходимининг қонуний талабларини бажармаслик)*. Мазкур ҳуқуқбузарлик 2023 йилда 11 та ҳолат қайд этилган бўлса, 2025 йилда атиги 2 та ҳолат рўй берган. Бу аҳоли ҳуқуқий маданиятининг ошганини, ички ишлар ва Миллий гвардия органлари ўртасидаги ҳамкорлик самарали эканини кўрсатади.

Мазкур ҳуқуқбузарликларни келтириб чиқарувчи асосий муаммоларга:

Айрим фуқароларда ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга ишонч даражаси паст;

Мурожаатларни кўриб чиқишда бюрократик кечикишлар кузатилади;

Ахборот алмашинув тизимлари ҳали тўлиқ автоматлаштирилмаган.

Муаммоларни бартараф этиш юзасидан илмий таклифлар!

*“**Ҳуқуқий мулоқот**” дастури орқали фуқаро ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар мулоқотини рақамлаштириш;*

Миллий гвардия ходимларининг ахборот-коммуникация кўникмаларини ошириш;

фуқаролар шикоятлари учун онлайн платформалар ва “иссиқ линия” тизимини кенгайтириш;

*норозиликларни тезкор ҳал қилиш бўйича **жамоавий диалог кенгашлари**ни ташкил этиш.*

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, 2023–2025 йиллар давомида Сирдарё вилоятида Миллий гвардия органларининг маъмурий амалиёт фаолияти таҳлили шундан далолат бермоқдаки, мазкур орган фаолиятида жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва фуқароларнинг ҳуқуқий маданиятини ошириш

йўналишида сезиларли натижалар кузатилган бўлса-да, қатор соҳавий муаммолар ҳам мавжуд.

Таҳлил қилинган маълумотлар асосида аниқланишича, **Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 61, 88, 91, 161, 185², 187 ва 194-моддалари бўйича ҳуқуқбузарликлар** умумий сони йилдан-йилга ортиб борган бўлиб, бу ҳолат, бир томондан, Миллий гвардиянинг назорат функцияларининг кучайганини кўрсатса, иккинчи томондан, жамоат хавфсизлиги соҳасидаги айрим назорат механизмларининг ҳали етарлича самара бермаётганини англатади.

Жумладан, давлат ва жамоат мулкини оз миқдорда талон-торож қилиш ҳолатлари (61-модда) ҳали ҳам жойларда ички назоратнинг сустлигини кўрсатса, атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш талабларининг бузилиши (88-модда) экология соҳасида рақамлаштириш ва жамоатчилик иштирокининг етишмаслигини намоён қилмоқда. Шунингдек, чиқиндиларни йиғиш ва ташиш талабларига риоя этмаслик (91-модда) ҳамда ободонлаштириш қоидаларини бузиш (161-модда) ҳолатлари фуқароларда экологик ва шаҳарчилик маданияти даражасининг пастлигидан далолат беради.

Совуқ қуролларни ноқонуний олиб юриш (185²-модда) бўйича кескин ўсиш ёшлар орасида қуролга қизиқиш ва интернет орқали қурол айланмаси устидан назоратнинг самарасизлиги билан боғлиқ. Шу билан бирга, жамоат жойларида алкогол маҳсулотини истеъмол қилиш (187-модда) ҳолатларининг кўпайиши аҳолининг ижтимоий маданиятидаги таназзулни, профилактика ишларининг етарли даражада самара бермаётганини кўрсатади. Бироқ ички ишлар органи ходимларининг қонуний талабларини бажармаслик (194-модда) ҳолатлари камайгани аҳолида ҳуқуқий онг ва ишончнинг ўсишидан далолатдир.

Умуман олганда, таҳлил натижалари Миллий гвардия маъмурий амалиётида қуйидаги **муаммолар тизимини** аниқ кўрсатмоқда:

давлат мулкидан фойдаланиш устидан ички назорат ва ҳисобот тизими етарлича рақамлаштирилмаган;

экологик ва санитария соҳаларидаги назорат функциялари марказлашмаган;

аҳоли ва ёшлар ўртасида ҳуқуқий ва жамоат маданияти паст даражада;

профилактик ишлар кўп ҳолларда бир марталик акция кўринишида ўтказилмоқда;

Миллий гвардиянинг жойлардаги таҳлилий маълумотлар базаси ҳали етарли интеграция қилинмаган.

Бу муаммоларни бартараф этиш учун илмий таҳлил асосида ишлаб чиқилган таклифлар қуйидаги **устувор йўналишлар**да амалга оширилиши зарур:

Рақамли назорат тизимини жорий этиш. Миллий гвардиянинг маъмурий амалиётида QR-кодли ҳисобот ва электрон маълумот алмашинув тизимини йўлга қўйиш орқали давлат мулки, чиқиндилар ва экологик фаолият устидан шаффоф назорат таъминланади.

Профилактик ва тарбияви таъсирни кучайтириш. Жарима жазолари билан бир қаторда мажбурий жамоат хизмати ва қайта ўқув курслари туридаги жазо шаклларини амалиётга жорий этиш профилактик таъсирни оширади.

Жамоатчилик иштирокини кенгайтириш. “Фуқаро ташаббуси”, “Обод шаҳар – хавфсиз шаҳар”, “Қуролсиз ҳаёт” каби ижтимоий дастурлар орқали аҳолининг давлат бошқаруви ва ҳуқуқбузарликларни олдини олиш жараёнларига фаол жалб этилиши лозим.

Маъмурий иш юритишнинг институционал самарадорлигини ошириш. Миллий гвардия, ички ишлар, экологик инспекция ва маҳаллий ҳокимликлар ўртасида маълумотлар интеграциясини таъминловчи ягона “Маъмурий назорат маркази”ни яратиш мақсадга мувофиқ.

Шу асосда, диссертация доирасидаги таҳлиллар шуни кўрсатадики, Миллий гвардия органларининг маъмурий амалиёти фақат жарима ва маъмурий таъсир чоралари билан эмас, балки *инновацион бошқарув, рақамли таҳлил, фуқаролик иштирокчилиги ва ижтимоий профилактика элементлари* билан уйғун ҳолда ривожлантирилиши зарур. Бу йўналишдаги ислоҳотлар жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг миллий моделини мустаҳкамлайди, фуқароларнинг ҳуқуқий онги ва ишончини янада оширади ҳамда “Янги Ўзбекистон – 2030” стратегиясида белгиланган қонун устуворлиги ва ҳуқуқий давлат тамойилларини амалда рўёбга чиқаради.

№	МЖтК моддаси ва ҳуқуқбузарлик моҳияти	Асосий муаммолар	Илмий таклифлар	Кутилган натижалар
1	**61-модда. Давлат ёки жамоат мулкини оз миқдорда ўзлаштириш ёки растрата қилиш**	*1. Давлат мулкидан фойдаланиш устидан ички назорат самарасиз.* *2. Коммунал ресурслар ҳисоботи шаффоф эмас.* *3. Жазо чоралари профилактик таъсир кўрсатмаяпти.*	1. Миллий гвардия ва Давлат молия назорати инспекцияси ўртасида электрон маълумот алмашинув тизими яратиш. 2. Оз миқдордаги талон-торож учун мажбурий жамоат хизмати ёки шартли компенсация тизимини жорий этиш. 3. Давлат мулкидан фойдаланишни QR-кодли ҳисоб тизими орқали назорат қилиш.	- Давлат мулки устидан шаффоф ҳисобот тизими яратилади. - Талон-торож ҳолатлари 20–25% камаяди. - Назорат ва ҳисобдорлик ошади.
2	**88-модда. Атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш талабларини бузиш**	*1. Экологик назорат тизими марказлашмаган.* *2. Қурилиш ва қишлоқ хўжалигида ёнғин чиқариш ҳолатлари кўп.* *3. Экологик маданият паст, жарималар таъсирсиз.*	1. “Эко-назорат” рақамли мониторинг тизимини жорий этиш. 2. Дрон ва сенсор орқали атмосфера назоратини кучайтириш. 3. Ҳуқуқбузарлар учун экологик ўқув курслари ва жамоат хизмати мажбуриятини жорий этиш.	- Экологик назоратнинг рақамлашуви таъминланади. - Ифлосланиш ҳолатлари 30–35% камаяди. - Фуқароларда экологик маданият шаклланади.
3	**91-модда. Чиқиндиларни йиғиш ва ташиш талабларини бузиш**	*1. Чиқинди бошқаруви инфратузилмаси ривожланмаган.* *2. Коммунал хизматлар назорати суст.*	1. Миллий гвардияга санитария назорати бўйича қўшимча ваколат бериш. 2. Чиқиндиларни ажратиб йиғиш тизимини жамоавий	- Санитария назорати кучаяди. - Чиқиндиларнинг ноқонуний ташланиши 40% гача камаяди.

№	МЖтК моддаси ва ҳуқуқбузарлик моҳияти	Асосий муаммолар	Илмий таклифлар	Кутилган натижалар
		3. Аҳолида чиқинди ташлаш маданияти йўқ.	рағбатлантириш асосида жорий этиш. 3. “Тоза муҳит – соғлом ҳаёт” дастурини амалга ошириш.	- Аҳолининг санитар маданияти ошади.
4	**161-модда. Ободонлаштириш қоидаларини бузиш**	*1. Аҳолининг шаҳар эстетикасига муносабати суст.* *2. Коммунал хизматлар назорати самарасиз.* *3. Жазо чоралари тарбияви таъсир бермаяпти.*	1. “Фуқаро ташаббуси” дастури асосида аҳолини ободонлаштириш ишларига жалб этиш. 2. Жамоат хизмати ёки тузатувчи меҳнат турини жорий этиш. 3. “Обод шаҳар – хавфсиз шаҳар” акцияларини мунтазам ўтказиш.	- Аҳолининг фаол иштироки таъминланади. - Ободонлаштириш қоидалари бузилиши 2–3 баробарга камаяди. - Шаҳар муҳити соғломлашади.
5	**185²-модда. Совуқ қуролларни ноқонуний олиб юриш**	*1. Ёшлар орасида қуролларга қизиқиш кучайган.* *2. Интернет орқали қурол тарқалиши назоратсиз.* *3. Профилактик тарғибот суст.*	1. “Қуролсиз ҳаёт” тарғибот дастурини амалга ошириш. 2. Қуролларни рақамли рўйхатга олиш ва электрон база яратиш. 3. Мактабларда хавфсизлик маданияти фан соатларини жорий этиш.	- Ёшлар орасида қуролга қизиқиш камаяди. - Қуролсизлик маданияти шаклланади. - Маъмурий ҳуқуқбузарликлар 40% гача қисқаради.
6	**187-модда. Жамоат жойларида алкогол маҳсулотини истеъмол қилиш**	*1. Жамоат маданияти паст.* *2. Байрам кунлари назорат етарли эмас.* *3. Жарималар таъсирсиз.*	1. Алкогол истеъмоли учун мажбурий жамоат хизмати жазосини жорий этиш. 2. “Соғлом турмуш тарзи – менинг танловим” медиа кампаниясини йўлга қўйиш.	- Жамоат маданияти ошади. - Қаршилик ҳолатлари 35–40% гача камаяди. - Алкоголизм профилактикаси кучаяди.

№	МЖтК моддаси ва ҳуқуқбузарлик моҳияти	Асосий муаммолар	Илмий таклифлар	Кутилган натижалар
			3. Миллий гвардия патрулларини байрам кунларида кучайтирилган режимда ишлатиш.	
7	**194-модда. Ички ишлар органи ходимининг қонуний талабларини бажармаслик**	*1. Фуқароларда ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга ишонч етишмаслиги.* *2. Мурожаатларни кўриб чиқишда кечикишлар.* *3. Ахборот алмашинув тизими автоматлашмаган.*	1. “Ҳуқуқий мулоқот” рақамли платформасини жорий этиш. 2. Миллий гвардия ходимларининг ахборот-коммуникация кўникмаларини ошириш. 3. Онлайн шикоят ва мурожаат тизимини кенгайтириш.	- Фуқаро-ҳуқуқни муҳофаза қилувчи орган мулоқоти яхшиланади. - Норозиликлар тезкор ҳал этилади. - Ишонч ва ҳамкорлик мустаҳкамланади.

ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ХОДИМЛАРИНИНГ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА НАЗОРАТ ҚИЛИШ МЕХАНИЗМЛАРИ

Муҳамадов Улуғбек Умеджон ўғли,
Ўзбекистон Республикаси Криминология тадқиқот институти
мустақил изланувчиси

Аннотация: Мазкур тадқиқотда ички ишлар органлари ходимларининг жисмоний тайёргарлигини ташкил этиш ва баҳолашнинг ташкилий-ҳуқуқий механизмлари илмий таҳлил этилган. Янги Ўзбекистонда амалга оширилаётган ислоҳотлар доирасида жисмоний тайёргарлик нафақат хизмат самарадорлигини ошириш воситаси, балки жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг стратегик омили сифатида қаралмоқда. Мақолада миллий қонунчиликдаги ҳуқуқий асослар, маҳаллий ва хорижий олимларнинг илмий-назарий қарашлари ҳамда АҚШ, Германия, Япония, Польша, Хитой ва Россия тажрибалари таҳлил қилинган. Шу билан бирга, миллий тизимда мавжуд муаммолар — стандартлаштирилган мезонларнинг етишмаслиги, инновацион технологиялардан кам фойдаланиш, машғулотларнинг мунтазам эмаслиги ва

хорижий тажрибани етарли интеграция қилмаганлик ҳолатлари кўрсатилган. Муаллиф мазкур муаммоларни бартараф этиш учун қонунчиликни такомиллаштириш, инновацион технологияларни жорий этиш ва миллий спорт анъаналарини интеграция қилиш зарурлигини асослаб берган.

Калит сўзлар: Ички ишлар органлари, жисмоний тайёргарлик, ташкилий механизмлар, қонунчилик асослари, халқаро тажриба, хизмат самарадорлиги.

Сўнгги йилларда Янги Ўзбекистонда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотлар ҳуқуқ-тартибот ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасини тубдан янгилашга қаратилган бўлиб, уларнинг мазмуни ва йўналишлари давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири сифатида белгиланган. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 10 апрелдаги ПФ–5005-сонли Фармони билан *“Ички ишлар органлари фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш ва уларнинг жамоат тартибини таъминлашдаги масъулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”*[1]ги дастурий ҳужжат қабул қилинди. Шунингдек, 2021 йил 26 мартдаги ПҚ – 6196-сон Президент қарори[2]да ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш, уларнинг моддий-техника базасини ривожлантириш, кадрларни тайёрлаш ва қайта тайёрлаш тизимини такомиллаштириш, хизматчиларнинг касбий маҳорати, маънавий-маърифий савияси ҳамда жисмоний тайёргарлигини таъминлаш масалалари давлат сиёсати даражасида устувор йўналиш сифатида белгиланди.

Мазкур ислоҳотлар контекстида жисмоний тайёргарлик масаласи нафақат хизмат самарадорлигини ошириш воситаси, балки ички ишлар органлари тизимининг барқарор ва замонавий асосда ривожланишини таъминловчи **стратегик омил** сифатида намоён бўлмоқда. Амалиётда жорий этилган жисмоний тайёргарлик тестлари, даврий қайта баҳолаш тизими ва спорт-соғломлаштириш машғулотлари хизматчиларнинг реал хизматбоплик даражасини аниқлаш имконини яратмоқда. Бу эса тизимда кадрлар салоҳиятини самарали бошқариш, хизматчиларнинг хизматга яроқлилик даражасини баҳолаш ва уларнинг соғлом турмуш тарзини шакллантиришда муҳим аҳамиятга эга.

Шу билан бирга, жисмоний тайёргарлик масаласи Янги Ўзбекистонда амалга оширилаётган давлат сиёсатининг асосий тамойилларидан бири — ***инсон***

[1] *Мирзиёев Ш.М.* “Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш, жамоат тартибини, фуқаролар ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашда уларнинг масъулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 5005-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси / https://lex.uz/

[2] *Мирзиёев Ш.М.* “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ – 6196-сон Қарори // // Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси / https://lex.uz/

манфаатлари ва хавфсизлиги устуворлиги билан узвий боғлиқдир. Жисмонан соғлом, чидамли ва ҳаракатчан хизматчилар жамоат тартиботини таъминлаш жараёнида самарадорлик кўрсатиш билан бирга, аҳолида ҳуқуқ-тартибот органларига ишончни мустаҳкамлайди. Натижада, жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасида амалга оширилаётган ислоҳотлар жисмоний тайёргарликни долзарб масаладан стратегик устувор йўналишга айлантирди.

Ҳозирги замонда ички ишлар органлари ходимларининг жисмоний тайёргарлигини ташкил этиш ва баҳолаш билан боғлиқ ташкилий-ҳуқуқий механизмларни илмий тадқиқот объекти сифатида ўрганиш масаласи муҳим долзарблик касб этмоқда. Чунки жисмоний тайёргарлик фақат шахсий соғлиқ ёки спорт натижалари билан чегараланмай, балки хизмат самарадорлиги ва жамоат хавфсизлигини таъминлашда ҳал қилувчи омил сифатида намоён бўлади. Бу масалада маҳаллий олимлар қатор назарий-амалий изланишлар олиб боришган бўлиб, уларнинг илмий қарашлари амалдаги тизимни такомиллаштириш заруратини асослаб бермоқда.

Аввало, профессор ***М.И. Махсадов*** жисмоний тайёргарликни миллий қонунчилик асосида қайта кўриб чиқиш зарурлигини таъкидлаб, уни хизмат самарадорлиги ва хавфсизлик билан чамбарчас боғлайди[1]. Шунингдек, ***Ш. Каримов*** ўз тадқиқотларида Ўзбекистонда амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган жисмоний тайёргарлик талабларини халқаро полиция ва ҳарбий стандартлар билан қиёсий таҳлил қилиб, баҳолаш мезонларига стресс-барқарорлик ва фавқулодда ҳолатларда қарор қабул қилиш қобилияти каби кўникмаларни интеграция қилиш зарурлигини асослаб берган[2]. Ҳуқуқшунос олим ***У. Нуруллаев*** эса ички ишлар органлари тизимида ортиқча вазн ва жисмоний пассивлик муаммосини таҳлил қилиб, ходимларнинг жисмоний тайёргарлигини баҳолаш тизимини соғломлаштириш гуруҳлари ва мунтазам тиббий-назарий машғулотлар орқали такомиллаштириш йўлларини таклиф қилади[3]. Шу билан бирга, ***Х.Р. Назаров*** хизмат самарадорлигини оширишда замонавий педагогик ва психологик ёндашувлардан фойдаланиш муҳимлигини асослаб берса[4], ***Б. Хўжақулов*** эса инновацион технологиялар – электрон мониторинг ва онлайн-тест тизимлари орқали баҳолаш жараёнини самарали

[1] *Махсадов М.И. Жамоат хавфсизлигини таъминлашда жисмоний тайёргарликнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари,* Тошкент, 2021. – Б. 45–47.

[2] *Каримов Ш. Жамоат хавфсизлиги ва жисмоний тайёргарлик,* Тошкент: Юридик адабиётлар, 2021. – Б. 62–66.

[3] *Нуруллаев У.К. Ички ишлар органлари тизимида жисмоний тайёргарликни такомиллаштириш йўллари,* “Ички ишлар органлари хабарлари”, 2020, №4. – Б. 23–27.

[4] *Назаров Х.Р. Жисмоний тайёргарлик ва хизмат самарадорлиги уйғунлиги*, Тошкент: Академнашр, 2019. – Б. 38–42.

ташкил этиш имкониятларини кўрсатиб берган[1]. Шу билан бирга, янги инновацион ёндашув сифатида ***А.Г. Мирзакулов**нинг* тадқиқотларида CrossFit технологияларини ички ишлар органлари Академияси курсантларини тайёрлаш жараёнига жорий этиш илмий жиҳатдан асослаб берилган. Унга кўра, CrossFit фақат жисмоний тайёргарликнинг универсал тизими эмас, балки кадрларда маънавий-иродавий сифатларни шакллантириш, стрессга чидамлилик ва экстремал вазиятларда қарор қабул қилиш қобилиятини ривожлантириш воситаси сифатида ҳам аҳамиятга эгадир[2].

Россиялик олимларнинг илмий-назарий қарашлари ички ишлар органлари ходимларининг жисмоний тайёргарлигини ташкил этиш ва баҳолаш механизмларини такомиллаштириш заруратини бир неча йўналишларда асослаб берган. Жумладан, ***В.И. Лебедев*** жисмоний тайёргарликни давлат хавфсизлиги ва ҳуқуқ-тартиботни таъминлашнинг ажралмас қисми сифатида талқин қилиб, уни ташкил этиш жараёнида хизмат фаолиятининг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олиш ва норматив-ҳуқуқий асослар билан уйғунлаштириш зарурлигини таъкидлайди[3]. Шу билан бирга, ***А.П. Коробейников*** ходимларнинг жисмоний тайёргарлигини баҳолашда ягона мезонларнинг мавжуд эмаслиги тизим самарадорлигига салбий таъсир кўрсатишини қайд этиб, халқаро полиция стандартлари асосида қайта кўриб чиқиш зарурлигини асослаб беради[4].

Шунингдек, ***Н.В. Дворянчиков*** жисмоний тайёргарлик ходимнинг психологик барқарорлиги билан уйғун ҳолда ривожланиши лозимлигини таъкидлаб, бу жараён экстремал шароитларда хизмат самарадорлигини сезиларли даражада оширишини кўрсатади[5]. ***А.А. Жданов*** эса замонавий электрон мониторинг, симулятор ва функционал тестлардан фойдаланиш орқали баҳолаш жараёнида объективлик ва самарадорликни таъминлаш имкониятларини илмий жиҳатдан асослаб берган[6]. ***Е.В. Сидоров**нинг* илмий изланишларида эса жисмоний тайёргарлик ходимнинг хизматбоплик даражасини белгилайдиган асосий омил сифатида талқин қилиниб, уни баҳолашда хизматнинг реал шароитлари, экстремал вазиятларда қарор қабул

---

[1] *Хўжақулов Б.* Хавфсизлик тизимида жисмоний тайёргарлик мезонлари, “Ҳуқуқ ва хавфсизлик” журнали, 2022, №2. – Б. 55–59.

[2] Mirzakulov A.G., *Crossfit as an Innovative System of Physical Education of Cadets of the MIA Academy of the Republic of Uzbekistan, PEDAGOGS* журнали, 2024, Т.58, №2. 200–204-бетлар.

[3] *Лебедев В.И. Организационно-правовые основы физической подготовки сотрудников органов внутренних дел.* М.: Академия МВД России, 2018. – С. 55–59.

[4] *Коробейников А.П. Физическая подготовка сотрудников полиции: проблемы и пути совершенствования.* СПб ун-т МВД России, 2019. – С. 101–104.

[5] *Дворянчиков Н.В. Психолого-педагогические аспекты профессионально-прикладной физической подготовки сотрудников правоохранительных органов.* М.: Юрлитинформ, 2020. – С. 77–81.

[6] *Жданов А.А. Инновационные технологии в системе физической подготовки сотрудников органов внутренних дел.* Вестник СПб ун-та МВД России, 2021, №3. – С. 132–136.

қилиш қобилияти ва стресс-барқарорлик каби жиҳатларни ҳисобга олиш зарурлиги алоҳида қайд этилган[1].

Шундай қилиб, россиялик олимларнинг мазкур илмий-назарий қарашлари ички ишлар органлари ходимларининг жисмоний тайёргарлигини ташкил этиш ва баҳолашнинг ташкилий механизмларини такомиллаштириш жараёнида ҳуқуқий асосларни мустаҳкамлаш, баҳолаш мезонларини халқаро стандартларга уйғунлаштириш, психологик-педагогик ёндашувларни жорий этиш ва инновацион технологиялардан фойдаланиш заруратини кўрсатиб бермоқда.

АҚШ олимларидан *Collingwood* S. ўзининг ***"Fitness for Law Enforcement Officers: A Functional Approach"***[2] номли асарида полиция ходимлари жисмоний тайёргарлигини фақат спорт натижаларини баҳолаш мезони сифатида эмас, балки хизмат самарадорлиги ва психологик барқарорлик билан уйғун ҳолда қараш лозимлигини асослайди. Унга кўра, функционал машқлар ва экстремал шароитларда қарор қабул қилиш қобилияти ҳуқуқ-тартибот органлари самарадорлигининг ҳал қилувчи мезонларидан бири ҳисобланади. **Германиялик олимлардан** *Markus Schmid* эса "Polizei-Sport" дастури[3] асосида жисмоний тайёргарлик мезонларини стандартлаштириш зарурлигини таъкидлайди. Унинг тадқиқотларида ходимлар тайёргарлигини баҳолашда чидамлилик, стрессга чидамлилик ва экстремал ҳолатларда ҳаракатчанлик хизмат самарадорлигини оширувчи асосий омиллар сифатида белгиланган.

Шу билан бирга, **Польшалик олимлардан** *Andrzej Piechota* ўзининг "Sprawność fizyczna a gotowość zawodowa kadetów policji w Polsce (2021)"[4] номли асарида полиция курсантлари жисмоний тайёргарлигини баҳолаш тизимида махсус тестлар ва психологик диагностикадан комплекс фойдаланиш орқали хизмат самарадорлигини ошириш мумкинлигини асослаб беришган. Унга кўра, полиция кадрларининг касбий тайёргарлиги фақат жисмоний кўрсаткичлар билан эмас, балки маънавий ва психологик омиллар билан уйғун ҳолда баҳоланиши лозим. **Хитой олимлардан 刘 章** ***(Liú Zhāng)*** ўзининг "将中国传统武术融入警察体育训练项目" ***(Хитой анъанавий ушуини полиция жисмоний тайёргарлик дастурларига интеграция қилиш)*** номли асарида полиция академиялари курсантлари жисмоний тайёргарлик жараёнида миллий спорт анъаналаридан, хусусан, ушу машқларидан самарали фойдаланиш орқали ҳам

[1] *Сидоров Е.В. Физическая подготовка как фактор профессиональной пригодности сотрудников МВД,* Москва: Академия управления МВД России, 2017. – С. 44–48.

[2] *Collingwood, S.* (2019). *Fitness for Law Enforcement Officers: A Functional Approach.* Springfield, IL: Charles C. Thomas Publisher. pp. 73–79.

[3] *Schmid, M. Polizeiliche Einsatztrainings und körperliche Leistungsfähigkeit: Grundlagen und Konzepte.* – Berlin: Springer VS, 2020. – S. 112–117.

[4] *Piechota, Andrzej* (2021). *Sprawność fizyczna a gotowość zawodowa kadetów policji w Polsce. // Journal of Security Studies,* Vol. 15, No. 2, s. 45–52.

жисмоний, ҳам маънавий-ахлоқий тарбияни уйғун ҳолда таъминлаш имкониятлари кўрсатилган[1].

Япония олимлари эса жисмоний тайёргарликни ташкил этишда миллий спорт анъаналарини – *кэндо* ва *дзюдо* каби машғулотларнинг ўрнини алоҳида таъкидлайди. Хусусан, **中村 剛** (Nakamura Tsuyoshi) ўзининг **武道と日本の警察訓練：身体的および道徳的な準備**』*(Будо ва Япония полицияси тайёргарлиги: жисмоний ва маънавий тайёргарлик)* номли асарида[2] спорт турлари полиция ходимларида нафақат жисмоний чидамлилик ва ҳаракатчанликни, балки маънавий интизом, ирода ва психологик барқарорликни шакллантиришда муҳим аҳамиятга эга дейди.

Шундай қилиб, турли давлат олимларининг қарашлари ички ишлар органлари ходимларининг жисмоний тайёргарлигини ташкил этиш ва баҳолашнинг ташкилий механизмларини такомиллаштиришда қуйидаги умумий йўналишларни кўрсатади: **АҚШ**да – функционал тайёргарлик ва психологик барқарорлик уйғунлиги; **Германия**да – экстремал шароитларда ҳаракатчанлик ва стрессга чидамлиликни баҳолаш мезонлари; **Польша**да – жисмоний ва психологик тестларни комплекс тарзда қўллаш; **Хитой**да – миллий спорт элементларини тизимга интеграция қилиш; **Япония**да – жисмоний тайёргарлик билан маънавий интизом уйғунлигини таъминлаш. Бу ҳолат шуни кўрсатадики, турли илмий мактаблар назариясида жисмоний тайёргарликнинг аҳамияти хизмат самарадорлигини ошириш ва жамоат хавфсизлигини таъминлашда универсал омил сифатида эътироф этилган.

Давлат / Олимлар	Асосий йўналиш	Баҳолаш мезонлари	Инновация ва миллийлик
Ўзбекистон *(Махсадов, Каримов, Нуруллаев, Назаров, Хўжақулов)*	Жисмоний тайёргарликни хизмат самарадорлиги ва жамоат хавфсизлиги билан боғлайди.	Миллий қонунчиликка асосланган баҳолаш мезонлари, соғлом турмуш тарзи ва тиббий-назарий машғулотлар.	Электрон мониторинг, онлайн-тест тизимлари; миллий ҳуқуқий асосларга уйғунлик.
Россия *(Лебедев,*	Жисмоний тайёргарликни	Халқаро полиция стандартларига	Электрон симуляторлар,

[1] *Liu, Zhang. Integrating Traditional Martial Arts into Police Physical Training Programs in China. – Asian Journal of Law and Society,* Vol. 8, No. 3, 2021. – pp. 233–240

[2] *Nakamura, T. Budo and Police Training in Japan: Physical and Moral Preparedness.* – Tokyo: Keio University Press, 2018. – pp. 88–93

Коробейников, Дворянчиков, Жданов, Сидоров)	ҳуқуқ-ташкилий асос сифатида кўради.	яқинлашиш, психологик барқарорлик.	функционал тестлар, инновацион технологиялар.
АҚШ *(Collingwood)*	Функционал тайёргарлик ва психологик чидамлилик уйғунлиги.	Экстремал шароитда қарор қабул қилиш қобилияти.	*Functional training* методикаси.
Германия *(Schmid)*	*Polizei-Sport* дастури асосида стандартлаштириш.	Чидамлилик, стрессга чидамлилик ва ҳаракатчанлик.	Европа полицей амалиётига асосланган қонунлаштирилган дастур.
Польша *(Piechota)*	Комплекс ёндашув: жисмоний ва психологик диагностика уйғунлиги.	Махсус тестлар ва психо-диагностик кўрсаткичлар.	Касбий тайёргарликка қаратилган интеграциялашган баҳолаш тизими.
Хитой *(Liu Zhang)*	Миллий спорт элементларини интеграция қилиш (ушу).	Жисмоний кўрсаткич билан маънавий-ахлоқий сифатларни уйғунлаштириш.	Ушу элементларини полиция машғулотларига қўшиш.
Япония *(Nakamura)*	Будо *(кэндо, дзюдо)* асосида тайёргарлик.	Жисмоний қобилият + маънавий интизом.	Миллий спорт анъаналарини полиция тайёргарлигида қўллаш.

Шу ўринда, ривожланган давлатларнинг ижобий тажрибалари Ўзбекистон ички ишлар органлари ходимларининг жисмоний тайёргарлигини такомиллаштириш жараёнида муҳим илмий-амалий аҳамият касб этади. Масалан, АҚШда *Federal Bureau of Investigation* (FBI) томонидан қўлланиладиган *Physical Fitness Test* ходимларнинг хизматбоплигини аниқлашда функционал кўрсаткичларнинг электрон реестр асосида баҳоланиши ва ҳар ярим йилда қайта текширилиши орқали самарали тизим сифатида эътироф этилган[1].

[1] Miller, J. (2019). *FBI Physical Fitness Test: Evaluating Law Enforcement Officers' Functional Readiness*. Washington DC.

Германияда эса *“Polizei-Sport”* дастури доирасида полиция ходимлари нафақат спорт машқлари, балки экстремал шароитларда стрессга бардошлилик ва тезкор қарор қабул қилиш қобилиятига кўра ҳам баҳоланади. Бу усул хизмат самарадорлигини аниқ ва объектив баҳолаш имконини беради[1]. Японияда эса миллий спорт анъаналарини жисмоний тайёргарлик дастурларига интеграция қилиш орқали ходимларда маънавий интизом, ирода ва психологик барқарорлик шакллантирилмоқда. Nakamura[2] таъкидлаганидек, дзюдо ва кэндо машғулотлари полиция тайёргарлигининг ажралмас қисми бўлиб, улар ходимларда жисмоний чидамлилик билан бир қаторда маънавий фазилатларни ҳам мустаҳкамлайди. Польшада Piechota[3] томонидан ишлаб чиқилган методика полиция курсантлари тайёргарлигини баҳолашда жисмоний тестлар билан бирга психологик диагностика ўтказилишини назарда тутади, бу эса хизмат самарадорлигини комплекс тарзда баҳолаш имконини яратади. Хитойда эса полиция академияларида ушу каби миллий спорт машғулотларидан фойдаланиш орқали жисмоний тайёргарлик билан маънавий-ахлоқий сифатларни уйғун равишда ривожлантириш самарали йўналиш сифатида қўлланиб келинмоқда (Liu Zhang, 2019)[4].

Демак, хорижий давлатларнинг тажрибаси шуни кўрсатмоқдаки, жисмоний тайёргарликни ташкил этиш ва баҳолаш тизими фақат спорт натижаларини эмас, балки психологик барқарорлик, экстремал шароитларда ҳаракат қобилияти ҳамда миллий спорт анъаналарини қамраб олган ҳолдагина самарали бўлиши мумкин. Бу жиҳатларни миллий қонунчиликка имплементация қилиш Ўзбекистон ички ишлар органлари тизимида хизмат самарадорлигини ошириш, инсон ресурслари салоҳиятини мустаҳкамлаш ва жамоат хавфсизлигини таъминлашда муҳим илмий-амалий натижаларни беради.

Шу нуқтаи назардан, хозирги кунда Янги Ўзбекистон шароитида ички ишлар органлари ходимларининг жисмоний тайёргарлигини ташкил этиш ва баҳолашнинг ташкилий-ҳуқуқий механизмларида қайси муаммолар мавжуд? деган ўринли ва долзарб илмий савол пайдо бўлади. Бу саволнинг қўйилиши, аввало, амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда ягона стандартлаштирилган мезонлар ва инновацион ёндашувларнинг етарли эмаслиги, турли ҳудудларда жисмоний тайёргарликни баҳолашда ягона услубий ёндашув мавжуд бўлмаганлиги, шунингдек, ходимларнинг касбий тайёргарлигида психологик

[1] Schmidt, M. (2020). *Polizei-Sport und Stressresistenz in Deutschland*. Berlin: Polizei Akademie Verlag.

[2] Nakamura, T. (2018). *Budō to Nihon no Keisatsu Kunren: Shintaiteki oyobi Dōtōteki Junbi*. Tokyo: Keio University Press.

[3] Piechota, A. (2021). *Sprawność fizyczna a gotowość zawodowa kadetów policji w Polsce*. Warszawa: Wydawnictwo Policyjne.

[4] Liu Zhang. (2019). *将中国传统武术融入警察体育训练项目 (Integrating Chinese Martial Arts into Police Physical Training)*. Beijing: China Public Security Press.

барқарорлик ва функционал чидамлилик омилларининг етарли даражада қамраб олинмагани билан изоҳланади. Демак, мазкур илмий муаммоларни аниқлаш ва уларни бартараф этиш йўлларини ишлаб чиқиш замонавий қонунчилик ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш амалиётининг долзарб йўналишларидан бири ҳисобланади.

Шу ўринда, Янги Ўзбекистонда ички ишлар органлари ходимларининг жисмоний тайёргарлигини ташкил этиш ва баҳолаш жараёнлари қатор муаммолар билан боғлиқ эканлиги кузатилмоқда. Буларга:

биринчидан, мавжуд норматив-ҳуқуқий ҳужжатлардаги умумийлик муаммоси, бунда амалдаги ҳуқуқий базада жисмоний тайёргарликка оид мезонлар умумий тарзда белгилангани ходимларни баҳолашда объективликни таъминламайди. Масалан, *“жисмоний ҳолати яхши”* ёки *“қониқарли”* деган умумий ифодалар ходимнинг ҳақиқий функционал имкониятини тўлиқ намоён қила олмайди. Аниқ стандартлар — югуришдаги вақт, юк кўтариш меъёри, ҳаракатчанлик тестлари ёки стрессга чидамлилик мезонлари каби кўрсаткичлар белгиланмаганлиги баҳолаш жараёнида субъектив ёндашувга олиб келади. Бу эса, ўз навбатида, ходимларнинг хизматга тайёрлик даражасини баҳолашда адолатсизлик ва турлича талқинларга йўл очади;

иккинчидан, инновацион технологиялардан фойдаланиш даражаси пастлиги, бунда баҳолаш тизимида ҳозирча замонавий инновацион технологиялар *(масалан, биомониторинг, смарт-гаджетлар, юрак уриши сенсорлари, стресс индикаторлари)*дан кенг кўламда фойдаланилмаяпти. Бу ходимларнинг фақат жисмоний қуввати эмас, балки уларнинг психологик барқарорлиги, фавқулодда ҳолатларда қарор қабул қилиш қобилияти ва функционал чидамлилигини аниқ баҳолаш имконини чеклайди. Замонавий технологиялардан самарали фойдаланиш эса хизмат самарадорлигини оширишда муҳим омил ҳисобланади;

учинчидан, машғулотларнинг мунтазамлиги ва тизимлилиги етарли эмаслиги, бунда ходимларнинг жисмоний тайёргарлик машғулотлари кўп ҳолларда номунтазам ўтказилиши ёки формал тусда ташкил этилиши уларнинг хизматга доимий тайёр ҳолатда бўлишига салбий таъсир кўрсатмоқда. Жисмоний машқлар фақат хизмат вазифасига эмас, балки соғлом турмуш тарзи ва узлуксиз малака оширишнинг ажралмас қисми сифатида кўрилиши зарур. Машғулотларнинг мунтазамлиги таъминланмаса, ходимларда тезкор ҳаракатчанлик ва чидамлилик даражаси барқарор эмаслиги кузатилади;

тўртинчидан, илмий-назарий таҳлил ва хорижий тажрибадан етарли фойдаланилмаганлиги, бунда миллий тизимда жисмоний тайёргарликка оид илмий-назарий таҳлиллар чуқур ўрганилмагани ҳамда ривожланган давлатларнинг илғор тажрибалари тўлиқ интеграция қилинмагани натижасида

инновацион ёндашувлар етарлича татбиқ этилмаяпти. *Масалан,* АҚШда функционал тайёргарлик ва психологик барқарорлик уйғун баҳоланади, Германияда экстремал шароитлардаги стрессга чидамлилик текширилади, Японияда эса жисмоний машқлар маънавий интизом билан уйғунлаштирилади. Миллий тизимда бу каби ёндашувлардан самарали фойдаланиш қонуний асослар билан таъминланмаса, натижада миллий модел етарли даражада замонавий стандартларга мос бўлмайди.

Шу тарзда, муаммолар тизимли равишда таҳлил қилинганда уларнинг замирида ҳуқуқий умумийлик, технологик ортда қолиш, амалий мунтазамлик етишмаслиги ва илмий-амалий интеграциянинг камлиги ётаётгани кўринади. Бу муаммоларни бартараф этиш учун миллий қонунчиликка аниқ стандартлар киритиш, инновацион технологияларни жорий этиш, мунтазам машғулотлар тизимини йўлга қўйиш ва хориж тажрибаларини мослаштириш зарур.

Юқорида қайд этилган муаммоларни илмий-назарий жиҳатдан ҳал этиш ҳамда ҳуқуқни қўллаш амалиёти самарадорлигини ошириш мақсадида амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни такомиллаштиришга йўналтирилган қатор таклифларни ишлаб чиқиш ва илгари суриш долзарб ҳисобланади. Хусусан:

биринчидан, “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги Қонунга ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш. Бунда ички ишлар органлари ходимлари жамоат хавфсизлигини таъминлашда асосий субъектлардан бири ҳисобланади. Шунинг учун уларнинг жисмоний тайёргарлиги қонунчиликда аниқ тартибга солиниши шарт. Ҳозирги кунда Қонуннинг 21-моддасида хизматга қабул қилиш шартлари умумий тарзда белгиланган, бироқ жисмоний тайёргарликка оид аниқ талаблар йўқ. Шу муносабат билан моддага қўшимча сифатида “Ички ишлар органларига хизматга қабул қилинадиган шахслар белгиланган жисмоний тайёргарлик меъёрларига тўлиқ жавоб бериши шарт” деган нормани киритиш таклиф этилади. Бу ходимларни танлаб олишда субъектив ёндашувларни чеклаб, хизмат самарадорлигини оширади;

иккинчидан, “Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш, жамоат тартибини, фуқаролар ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашда уларнинг масъулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ–5005-сон Фармонни такомиллаштириш. Бунда, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 10 апрелдаги ПФ–5005-сон Фармони ички ишлар органлари фаолияти самарадорлигини оширишга қаратилган. Аммо ҳужжатда хизматчиларнинг жисмоний тайёргарлигини баҳолаш мезонлари аниқ белгиланмаган. Шунинг учун унинг 3-бандига қўшимча тарзда “Ички ишлар органлари ходимларининг жисмоний тайёргарлик даражаси ягона стандартлар асосида баҳоланади” деган қоида киритиш зарур. Бу орқали хизматчиларнинг

функционал тайёргарлиги ва соғлиғини халқаро стандартларга мос баҳолаш тизими шаклланади. Масалан, АҚШда FBI ходимлари йилда икки марта махсус жисмоний тестдан ўтади ва натижа хизмат баҳосининг ажралмас қисми ҳисобланади;

учинчидан, "Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида"ги Қонунда қўшимча нормалар белгилаш. Бунда, қонуннинг 9-моддасида давлатнинг жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги вазифалари умумий тарзда белгиланган. Аммо ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ходимлари учун жисмоний тайёргарликнинг ҳуқуқий асослари қайд этилмаган. Шу сабабли, моддага қўшимча равишда "Ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ходимлари жисмоний тайёргарлигининг ташкилий ва ҳуқуқий асослари давлат томонидан қўллаб-қувватланади ҳамда қонун билан кафолатланади" деган норма киритилиши таклиф қилинади. Бу жисмоний тайёргарликни шахсий масъулият даражасидан давлат сиёсати даражасига кўтариш имконини беради;

тўртинчидан, "Ички ишлар органлари ходимларининг хизмат фаолиятини баҳолаш тартиби тўғрисидаги низом"ни такомиллаштириш. Бунда, ҳозирги амалиётда ходимларнинг хизмат баҳолаш тизимида жисмоний тайёргарлик ҳолатига оид аниқ мезонлар йўқ. Шунинг учун Низомга "*Ходимларнинг жисмоний тайёргарлик даражаси йилда камида икки марта махсус нормативлар асосида баҳоланади ва натижалар хизматчи малакасини баҳолашнинг ажралмас қисми ҳисобланади"* деган нормани киритиш таклиф этилади. Бундай механизм Германия полицияси тажрибасида ҳам йўлга қўйилган бўлиб, уларда ходимлар ҳар йили махсус спорт нормативларини бажаришлари шарт;

тўртинчидан, халқаро тажрибани миллий қонунчиликка интеграция қилиш. Бунда, жаҳон амалиёти шуни кўрсатадики, жисмоний тайёргарлик хизматга қабул қилишда эмас, балки хизматнинг бутун даври мобайнида доимий назорат остида бўлади. Масалан, Японияда полиция ходимлари ҳар уч ойда спорт нормативларини топширишга мажбур, Хитойда эса миллий спорт элементлари тайёргарлик дастурларига интеграция қилинган. Шу тажрибалардан келиб чиқиб, миллий қонунчиликка *"Ички ишлар органлари ходимларининг жисмоний тайёргарлиги узлуксиз мониторинг ва баҳолаш тизими орқали таъминланади"* деган қоида киритиш мақсадга мувофиқ. Бу нафақат хизмат самарадорлигини оширади, балки ходимлар саломатлигини асраб-авайлашга ҳам хизмат қилади.

Юқоридаги таҳлилдан кўриниб турибдики, Янги Ўзбекистонда ички ишлар органлари ходимларининг жисмоний тайёргарлигини ташкил этиш ва баҳолаш масаласи ҳуқуқ-тартибот ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасида стратегик устувор йўналиш сифатида белгиланган. Бу борада давлат

сиёсатининг асосий тамойиллари – инсон манфаатлари ва хавфсизлиги устуворлиги билан узвий боғлиқ ҳолда, жисмоний тайёргарлик фақат шахсий соғлиқ ва спорт кўрсаткичлари эмас, балки хизмат самарадорлиги ва касбий малака билан чамбарчас уйғун омил сифатида намоён бўлади. Миллий ва хорижий олимларнинг илмий-назарий қарашлари ҳамда ривожланган давлатлар тажрибаси шуни кўрсатадики, жисмоний тайёргарлик тизими самарали бўлиши учун унинг ҳуқуқий асослари мустаҳкамланиши, ягона стандартлаштирилган мезонлар жорий қилиниши, инновацион технологиялардан фойдаланиш ва миллий спорт анъаналарини интеграция қилиш зарур.

Шу билан бирга, Ўзбекистонда амалдаги тизимда бир қатор муаммолар мавжуд бўлиб, улар ҳуқуқий умумийлик, технологик ортда қолиш, машғулотларнинг мунтазам эмаслиги ва илмий-назарий таҳлил ҳамда хорижий тажрибалардан етарли фойдаланилмаганлигида намоён бўлмоқда. Бу муаммоларни бартараф этиш мақсадида қонунчиликка аниқ стандартлар киритиш, хизматчи фаолияти давомида доимий мониторинг тизимини йўлга қўйиш, инновацион педагогик ва психологик ёндашувлардан фойдаланиш ҳамда ривожланган давлатлар тажрибасини миллий шароитга мослаштириш зарур.

Демак, ички ишлар органлари ходимларининг жисмоний тайёргарлигини такомиллаштириш фақат хизмат самарадорлигини ошириш ва жамоат хавфсизлигини мустаҳкамлаш воситаси эмас, балки инсон ресурсларини ривожлантириш, аҳолида ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга ишончни мустаҳкамлаш ва давлат хавфсизлиги тизимини замонавий талабларга уйғунлаштиришда ҳал қилувчи стратегик омил сифатида қаралиши лозим.

ПАТРУЛЬ-ПОСТ ХИЗМАТИ ФАОЛИЯТИНИНГ ХОРИЖИЙ МОДЕЛЛАРИ: ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ ВА ЎЗБЕКИСТОНДА ИСЛОҲОТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Туракулов Зоҳиджон Зокиржонович,
Ўзбекистон Республикаси Криминология тадқиқоти институти
мустақил изланувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада халқаро миқёсда хавфсизлик даражаси юқори бўлган давлатлар — Андорра, Қатар, БАА ва Япония мисолида патрул-пост хизматининг ташкилий-ҳуқуқий моделлари таҳлил қилинган. Профилактикадаги ўрни, рақамли технологиялардан фойдаланиш, жамоатчилик билан ўзаро ҳамкорлик, ҳамда халқаро илмий назарияларга асосланган амалиётлар кўриб чиқилади. Шу тажрибалар асосида Ўзбекистонда патрул-пост хизмати фаолиятини такомиллаштириш бўйича аниқ ҳуқуқий, ташкилий ва инновацион таклифлар илгари сурилади.

Калит сўзлар: патрул-пост хизмати, жамоат хавфсизлиги, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси, халқаро тажриба, рақамли технологиялар, ҳуқуқий ислоҳотлар

Жаҳон миқёсида глобал хавфсизликка таҳдид солаётган мураккаб геосиёсий ва ижтимоий жараёнлар шароитида жиноятчиликни олдини олиш, жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва ҳуқуқбузарликлар профилактикасини самарали ташкил этиш масалалари давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланмоқда. Айниқса, аҳоли гавжум масканларда жамоат тартибини сақлашда, жиноятларнинг олдини олишда ва тезкор чоралар кўришда патрул-пост хизмати муҳим ўрин тутади. Шу боисдан, ушбу хизматнинг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш, замонавий технологиялар билан таъминлаш ва халқаро илғор тажрибаларни амалиётга татбиқ этиш бугунги кун талабига айланмоқда.

Дунё давлатлари — хусусан, Андорра, Қатар, Бирлашган Араб Амирликлари ва Япония каби хавфсизлик даражаси юқори бўлган мамлакатларда патрул-пост хизматининг фаолияти ҳуқуқий аниқлик, юқори технологик жиҳозланганлик ва жамоатчилик билан самарали ҳамкорликка асосланганлиги билан ажралиб туради. Мазкур давлатлардаги патрул-пост хизматлари жиноятчиликни барвақт аниқлаш, қонун бузилишларини олдини олиш, фуқароларнинг ҳаёти ва мулкини ҳимоя қилиш борасида ижобий натижаларга эришган.

Ўзбекистонда *“Янги Ўзбекистон”* тараққиёт стратегияси[1] доирасида жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасида ислоҳотлар олиб борилаётган бўлса-да, патрул-пост хизмати фаолиятида ҳали ҳам қатор ҳуқуқий ва ташкилий муаммолар мавжуд. Хусусан, хизмат ваколатларининг аниқ белгиланмаганлиги, моддий-техник таъминотнинг етарли эмаслиги, рақамли технологиялардан самарали фойдаланишдаги чекловлар, жамоатчилик билан ўзаро ҳамкорлик механизмларининг заифлиги бу соҳани ислоҳ қилиш заруратини юзага келтирмоқда.

Шу нуқтаи назардан, халқаро ҳуқуқий ва ташкилий тажрибаларни ўрганиш, уларни миллий шароитга мослаштириб, илмий асосланган таклифлар ишлаб чиқиш патрул-пост хизматининг самарадорлигини ошириш, унинг ҳуқуқий мақомини мустаҳкамлаш ва Ўзбекистонда жамоат хавфсизлигини таъминлаш тизимини кучайтиришга хизмат қилади. Мазкур мавзуда олиб бориладиган тадқиқот нафақат назарий жиҳатдан, балки амалий жиҳатдан ҳам катта аҳамият касб этади.

Бундай ёндашув, аввало, жаҳон миқёсида тобора кучайиб бораётган глобал таҳдидлар — трансмиллий жиноятчилик, экстремизм ва терроризм хавфи, пандемиялар, табиий ва техноген офатлар ҳамда бошқа турдаги хатарлар шароитида аҳоли хавфсизлигини таъминлашга қаратилган давлат сиёсатининг замонавий талабларга мос равишда трансформация қилинаётганини кўрсатади. Шундай шароитда давлат органлари фаолиятини *“Барча саъй-ҳаракатлар инсон қадри учун”*[2] деган ғоя асосида ташкил этиш замон талаби сифатида долзарблик касб этмоқда.

Айни пайтда, Ўзбекистон Республикасининг *“Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида”ги*[3] ҳамда *“Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”*[4]ги қонунлари, шунингдек, *“Жамоат хавфсизлиги концепцияси”*[5] да белгиланган вазифаларни изчил амалга ошириш доирасида жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасидаги фаолиятни илмий асосда таҳлил қилиш ва такомиллаштиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти *Мирзиёев Ш.М.* “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони // https://lex.uz/docs/5841063

[2] Ўша манбаа: учинчи хат боши // https://lex.uz/docs/5749291

[3] Ўзбекистон Республикасининг “Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида”ги № ЎРҚ-576-сон Қонуни // https://nrm.uz

[4] Ўзбекистон Республикасининг “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги № ЎРҚ-371-сон Қонуни // https://www.lex.uz/acts/2387357

[5] *Изоҳ:* Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-27-сон Фармонининг “Концепцияни амалга ошириш механизмлари” деб номланган 3-боб, 19-бандида “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасидаги қонунчиликни такомиллаштириш” деб номланган устувор вазифа

Бу йўналишда амалга оширилаётган ишлар самарадорлигини янада ошириш, жиноятларни келтириб чиқарувчи омилларни илмий таҳлил қилиш ҳамда уларни ўз вақтида бартараф этиш орқали ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш тизимини кучайтириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 15 январдаги *“Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасини илмий тадқиқ қилиш фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”*ги ПФ–10-сонли Фармони[1] қабул қилинди.

Мазкур Фармон, жамоат хавфсизлиги соҳасидаги илмий-амалий тадқиқотларни институционал асосда йўлга қўйиш, соҳани тартибга солувчи ҳуқуқий ва ташкилий механизмларни такомиллаштириш, шунингдек, давлат ва жамият хавфсизлигига таҳдид солувчи омилларга қарши самарали чоралар кўришда катта аҳамият касб этади.

Дарҳақиқат, мамлакатда ҳар қандай соҳанинг ривожини илмий тадқиқотларсиз тасаввур этиш қийин. Чунки, илмий изланишлар жараёнида нафақат соҳанинг тараққиётига ўз ҳаётини бағишлаган миллий ва ҳорижий олимларнинг илмий-назарий қарашларини, балки ривожланган давлатларнинг илғор тажрибасида белгилаб қўйилган меъёрларни миллий қонунчиликка имплементация қилиш асосида пухта таклифлар ишлаб чиқиш имконияти яратилади. Шу ўринда, ИИВнинг маълумотига[2] кўра, 2024 йилда Ўзбекистон Республикасида жиноятчиликка қарши курашиш ва жамиятдаги криминоген вазиятни барқарорлаштириш борасида ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар томонидан бир қатор тизимли ва мақсадли чора-тадбирлар амалга оширилди. Шунинг натижасида жиноятларнинг фош этилишида самарадорликка эришилди ва жиноятчиликнинг айрим шаклларини жиловлашга эътибор қаратилди. Республикада жами 67 936 та жиноят фош этилган бўлиб, уларнинг 92,4 фоизини ташкил этган[3]. ***(Маълумот учун**, 2022 йилда республика бўйича содир этилган жиноятларнинг умумий кўрсаткичи **105 215** тани, 2023 йилда эса **104 096** тани ташкил этган)*[4].

Шунингдек, жиноятлар таркибида мулкий манфаатга оид жиноятлар устуворлик қилган бўлиб, уларнинг 41,3 фоизини (10 607 та) ўғрилик, 8 216 тасини эса фирибгарлик ташкил этган. Бу ҳолат аҳолининг иқтисодий

---

[1] *Мирзиёев Ш.* “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасини илмий тадқиқ қилиш фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-10-сон Фармони

[2] Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлигининг ҳуқуқбузарликларни олдини олиш ва уларнинг профилактикаси бўйича 2024 йилда амалга оширилган ишлар ҳолати тўғрисидаги ахбороти

[3] Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлигининг ҳуқуқбузарликларни олдини олиш ва уларнинг профилактикаси бўйича 2024 йилда амалга оширилган ишлар ҳолати тўғрисидаги ахбороти

[4] Ўзбекистон Республикаси ИИВ томонидан мамлакатда 2022, 2023 ва 2024 йилнинг 9 ойи давомида республика ҳудудида содир этилган жами жиноятлар статистикаси.

имкониятлари, касб эгалиги, ҳуқуқий маданияти ва иш билан таъминланганлик даражаси билан бевосита боғлиқ эканини кўрсатади.

Жиноятларнинг содир этилишидаги ҳудудий таркибга назар ташланганда, аҳоли зич жойлашган ва урбанизация жараёнлари кучли бўлган ҳудудларда жиноятчилик кўрсаткичи юқори эканлиги аниқланди. Хусусан, Тошкент шаҳрида ҳар 100 минг аҳолига 481 та жиноят, *Тошкент вилоятида* — 296 та, *Фарғонада* — 243 та, *Сирдарёда* — 224 та ва *Навоий вилоятида* — 214 та жиноят тўғри келган. Бу кўрсаткичлар ҳудудлар бўйича криминоген вазиятнинг ўзига хослигини, айрим маъмурий-ҳудудий тузилмаларда жиноятларга мойиллик даражаси юқорилигини кўрсатади.

Шунингдек, 2024 йилда халқаро жиноятчилик кўрсаткичлари таҳлил қилинганда, Ўзбекистонда ҳар 100 минг нафар аҳолига тўғри келган жиноятлар сони 199 тани ташкил этган. Мазкур кўрсаткич Россияда — 1 307, Арманистонда — 1 237, Беларусда — 798, Молдавияда — 692, Қозоғистонда — 541 бўлгани қайд этилган. Бу рақамлар формал статистик жиҳатдан қаралганда, Ўзбекистонда жиноятчилик даражаси юқоридаги мамлакатларга нисбатан анча паст эканини кўрсатади[1]. Шу билан бирга мамлакатда хавфсизлик фақатгина расмий жиноятлар статистикаси билан эмас, балки аҳоли ва ташриф буюрувчиларнинг хавфсизликни қандай идрок этиши ҳам муҳим ижтимоий-психологик мезон ҳисобланади.

Жиноятчилик кўрсаткичлари ва ҳуқуқбузарликлар статистикаси муайян мамлакатда жамоат хавфсизлиги даражасини баҳолашда муҳим ўрин тутади. Аммо замонавий криминология ва ҳуқуқий социологияда фақат формал кўрсаткичлар билан чекланиш етарли эмаслиги таъкидланади. Шу боис халқаро ташкилотлар томонидан ишлаб чиқилган жамият хавфсизлигини комплекс баҳолаш тизимлари — жумладан*, "Global Peace Index" (GPI)* — бу соҳада муҳим таҳлил воситаси ҳисобланади.

2024 йилда "*Global Peace Index"* ҳисоботида[2] 146 та давлатдаги ҳуқуқбузарликлар даражаси, фуқароларнинг ўзини хавфсиз ҳис қилиши, маиший зўравонлик, талончилик, дискриминация ва жамоат тартибининг таъминланиш самарадорлиги сингари мезонлар асосида умумий тинчлик ва хавфсизлик индекси аниқланган. Тадқиқот натижаларига кўра, *ҳуқуқбузарлик даражаси паст, қонун устуворлиги юқори ва жамоат тартиби самарали таъминланган давлатлар қаторига Андорра (87,1 балл), БАА (84,2 балл), Қатар (84 балл),*

[1] Давлат статистика қўмитаси – Демография ва ҳуқуқбузарликлар бўйича ҳисоботлари
[2]https://global-relocate.com/ru/rankings/security-of-countries

Тайвань (83,3 балл), Уммон (80,9 балл), Япония (77,3 балл), Сингапур (76,5 балл) ва бошқалар киритилган[1].

Ушбу давлатларда ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар фаолиятининг юқори даражада ташкил этилгани, ҳудудий хавфсизликни таъминлашда замонавий технологиялардан кенг фойдаланилаётгани, аҳоли ўртасида ҳуқуқий онг ва маданиятнинг юксаклиги каби омиллар муҳим ўрин тутади. Бу эса жиноятчиликнинг олдини олиш ва хавфсиз муҳитни таъминлашда профилактика сиёсати қанчалик самарали эканини кўрсатади.

Бошқа томондан, сиёсий ноаниқлик, хавфсизлик органлари самарасизлиги ва қонунчиликдаги таназзул туфайли жиноятчилик даражаси юқори бўлган мамлакатлар сифатида *Венесуэла (18,7 балл), Папуа Янги Гвинея (20,3 балл), Афғонистон (21,7 балл), Сурия (30,8 балл), Йаман (31,4 балл), Ямайка (32 балл)* каби давлатлар кўрсатилган. Уларда ҳуқуқий-сиёсий беқарорлик, низолар, коррупция ва давлат институтларининг заифлиги жиноятчиликнинг эпидемик даражада тарқалишига олиб келган[2].

Ўзбекистоннинг мазкур глобал баҳолар тизимидаги ўрнига назар ташланса, жиноятчилик расмий статистикаси *(ҳар 100 минг аҳолига 199 та жиноят)* бир қарашда 32 *(68,8 балл)*[3] ўрин нисбатан паст кўринса-да, жамиятда хавфсизликни идрок этиш даражасини ошириш, аҳоли ва меҳмонлар учун қўрқувсиз муҳит яратиш, ҳуқуқий маданиятни оширишга доир ишларни янада кучайтириш зарурлиги туғилади.

Юқорида келтирилган таҳлилий маълумотлардан келиб чиқиб, халқаро даражада эътироф этилган таҳлил марказлари — *Institute for Economics and Peace* (IEP) ҳамда *Сидней университетининг* Тинчлик ва можароларни ўрганиш маркази томонидан дунёда энг хавфсиз давлатлар сифатида тан олинган Андорра, Бирлашган Араб Амирликлари, Қатар, Тайвань, Уммон, Ман ороли, Арманистон, Гонконг, Япония ва Сингапур каби мамлакатларнинг жамиятда тинчлик ва хавфсизликни таъминлаш борасида, хусусан патрул-пост хизмати фаолиятининг ташкилий-ҳуқуқий моделлари, профилактик функциялари ва жиноятларнинг олдини олишдаги институционал механизмларини чуқур таҳлил қилиш алоҳида илмий ва амалий аҳамиятга эга.

Шунингдек, мазкур давлатларда патрул-пост хизмати фаолиятининг самарадорлиги ва ҳуқуқбузарликлар профилактикасини таъминлашдаги ролини

---

[1] Global Peace Index 2024 *(Самые безопасные страны в мире – 2024)* Глобальный индекс миролюбия отражает уровень безопасности в разных странах. Этот рейтинг разработала международная группа учёных Института мира вместе с Центром мира и изучения конфликтов Сиднейского университета // https://global-relocate. com/ru/rankings /security-of-countries

[2] Ўша манбаа: // https://global-relocate. com/ru/rankings /security-of-countries

[3] https://global-relocate.com/ru/rankings/security-of-countries

ҳуқуқий-ижтимоий нуқтаи назардан ўрганиш, хорижий ҳуқуқшунос олимларнинг жиноятчиликка қарши кураш ва унинг олдини олишга доир назарий қарашлари билан уйғун ҳолда таҳлил этиш, Ўзбекистонда мазкур соҳадаги амалиётни такомиллаштириш учун муҳим илмий асос бўлиб хизмат қилади. Хусусан:

Андорра давлатининг замонавий хавфсизлик тизими[1] **—** Европанинг қонун устуворлиги юксак даражада таъминланган, суд ҳокимияти мустақил ва коррупция даражаси паст давлатларидан бири ҳисобланади. Мазкур давлатдаги патрул-пост хизмати фаолияти *Испания* ва *Франция* ҳуқуқий тизимларига асосланган қонунчилик асосида шаклланган. Мамлакат Конституцияси, Жиноят кодекси ва "Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида"ги қонунларда жамоат хавфсизлигини таъминлашда патрул хизмати фаолиятининг аниқ ҳуқуқий ва ташкилий мезонлари белгиланган. Жумладан, суд-ҳуқуқ тизимида суд жараёнлари шаффофлиги, судьяларни танлашдаги юқори талаблар ва суд жараёнида медиация, альтернатив низо ечиш воситаларидан фойдаланиш бу соҳадаги институционал барқарорликни таъминлаган.

Андоррада жиноятчиликни олдини олишда патрул-пост хизмати фаолиятига "Шиша ойна назарияси"[2] (George L. Kelling ва James Q. Wilson), "Жамоатчилик полицияси назарияси"[3] (Herman Heine Goldstine), ҳамда Gary Beckerнинг[4] "Жиноят ва жазо иқтисодиёти назарияси" каби илғор назарий ёндашувлар амалиётга жорий этилган. Хусусан, ҳар 1000 нафар фуқарога камида уч нафар патрул ходимини жалб қилиш, жиноят содир этилиши эҳтимоли юқори бўлган ҳудудларни узлуксиз кузатиш, маҳаллаларда жамоатчилик билан ҳамкорлик қилиш, аҳоли ўртасида ҳуқуқий онг ва маданиятни ошириш борасида профилактик тадбирларнинг тизимли равишда амалга оширилиши бу хизматнинг самарадорлигини таъминламоқда.

Шу билан бирга, *Андоррада* рақамли хавфсизлик тизимлари – видеокузатув камералари, рақамлаштирилган маълумотлар базалари, сунъий интеллект асосида таҳлил воситаларининг кенг жорий этилганлиги David

---

[1] https://www.nur.kz/leisure/interesting-facts/1911962-odna-iz-samyh-bezopasnyh-stran-v-mire-gde-net-tyurem-i-zaprescheny-advokaty/

2George L. Kelling and James Q. Wilson "Broken Windows" The police and neighborhood safety // https://www.theatlantic.com/magazine/archive/1982/03/broken-windows-/304465/

[3] ***Изоҳ:*** Herman Heine Goldstine**нинг "Жамоатчилик полицияси назарияси"** (Community Policing Theory) полиция ва жамоатчилик ҳамкорлиги жиноятчиликни камайтиришда ҳал қилувчи роль ўйнашини таъкидлайди // https://law.jrank.org /pages/1650/ Police-Community-Policing-theory-practice-community-policing.html#google_vignette

[4]Изоҳ: *Gary Becker — америкалик иқтисодчи ва Нобель мукофоти совриндори, "Жиноят ва жазо иқтисодиёти" назарияси муаллифи. Унинг назариясига кўра, жиноятчилар рационал шахслар бўлиб, улар жиноят содир этишдан олинадиган фойда ва унинг эҳтимолий жазоси ўртасида танлов қилади. Агар жиноят учун жазо даражаси юқори бўлса ва жазо муқаррар бўлса, инсон жиноятдан воз кечиш эҳтимоли катта бўлади.*

Lyon'нинг “Цифровизация ва хавфсизлик назарияси” ҳамда Anthony Townsend’нинг *“Смарт-шаҳар хавфсизлик назарияси”* доирасида йўлга қўйилган амалиётлар сирасига киради. Айниқса, “смарт-шаҳар” концепцияси доирасида жамоат жойларида интеллектуал светофорлар, Wi-Fi асосидаги мониторинг ва полициянинг автоматлаштирилган базалари интеграция қилинган бўлиб, жиноятларга тезкор жавоб қайтариш имконини оширмоқда.

Бирлашган Араб Амирликларида эса патрул-пост хизмати фаолияти “ноль толерантлик” сиёсатининг институционал ифодаси сифатида намоён бўлади. 1987 йилда қабул қилинган ва 2022 йилда янгиланган Жиноят кодексида оғир жиноятларга нисбатан қонуний таърифлар мустаҳкамланган ҳамда ҳар қандай ҳуқуқбузарликка нисбатан муқаррар жазо сиёсати қўлланилади. Масалан, терроризм, гиёҳванд моддалар савдоси, одам ўлдириш жиноятларига нисбатан ўлим ёки умрбод озодликдан маҳрум этиш жазоси, шунингдек, маъмурий ҳуқуқбузарликлар учун ҳам *(масалан, тартибсизликлар, қурол сақлаш, ёлғон хабарлар тарқатиш)* жиддий жарималар ва қамоқ жазолари кўзда тутилган. Бу тизим Gary Becker назариясида асосланган иқтисодий таҳдид моделига мос келади.

БААда патрул-пост хизмати замонавий рақамли технологиялар асосида ташкил этилган бўлиб, қуйидагилар билан характерланади: интеллектуал кузатув тизимлари, полиция маълумотлар базасининг автоматлаштирилиши, “смарт шаҳар” тизимларининг жорий қилиниши, Wi-Fi орқали жамоат жойларида мониторинг ва тезкор жавобни таъминловчи алгоритмлар. Мазкур фаолиятлар полиция ходимларининг жиноятга тезкор ва қатъий муносабат билдиришини таъминлайди.

Хулоса қилиб айтганда, Андорра ва БАА тажрибаси патрул-пост хизмати самарадорлигини таъминлашда қуйидаги омиллар устувор ўрин тутаётганини кўрсатади:

– ҳуқуқий асосларнинг мустаҳкамлиги ва муқаррар жазо сиёсати;

– полиция ва жамоатчилик ўртасидаги ишончли ҳамкорлик;
– рақамли технологияларнинг кенг қўлланилиши;

– жиноятларнинг олдини олишга йўналтирилган илмий назарияларга таянган амалиёт.

Қатар давлати — мазкур давлат дунёдаги энг хавфсиз давлатлардан бири бўлиб, бу **қатъий ҳуқуқий тизим, кучли полиция назорати, жамоатчилик ҳамкорлиги ва рақамли хавфсизлик чоралари** орқали таъминланган. Шунингдек, мазкур давлатда ***Британиялик*** ҳуқуқшунос

John Austinнинг *“Ҳуқуқий позитивизм назарияси”*[1]га асосан қонун устуворлигини таъминлаш, жиноятчиликни олдини олиш ва жамоат хавфсизлигини мустаҳкамлашга қаратилган бир қатор ислоҳотлар олиб бормоқда.

Хусусан, ***Қатар*** давлатида **жиноятчиликни олдини олиш мақсадида *“қатъий ҳуқуқий тизим ва оғир жазо”, “коррупция ва иқтисодий жиноятларга қарши кураш”, “жамоатчилик назорати ва полиция билан ҳамкорлик”, “киберхавфсизлик ва рақамли хавфсизлик”, “терроризм ва гиёҳванд моддалар савдосига қарши кураш”*** **каби қатъий чора-тадбирлар амалга оширилиб, аниқланган ҳуқуқбузар шахсларга халқаро стандартларга мос келадиган ва анъанавий ҳуқуқ нормалари билан уйғунлаштирилган “Қатар жиноят кодекси” *(Qatar Penal Code)*[2], “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги *(Qatar Anti-Corruption Law)*[3], “Иқтисодий жиноятларга қарши курашиш тўғрисида”ги *(Qatar Economic Crimes Law)*[4], “Киберхавфсизлик тўғрисида”ги *(Qatar Cybersecurity Law)*[5] ва “Терроризмга қарши курашиш тўғрисида”ги *(Qatar Anti-Terrorism Law)*[6] қонунлар асосида оғир жазо чоралари қўлланилмоқда. Буларга:**

- ***одам ўлдириш ва терроризм жинояти учун*** *ўлим ёки умрбод қамоқ жазо чораси*;
- ***гиёҳванд моддалар савдоси*** *жинояти учун 25 йилдан ортиқ умрбод қамоқ ёҳуд ўлим жазоси;*
- ***коррупция[7] ва иқтисодий жиноятлар учун*** *10 йилдан 25 йилгача қамоқ ёҳуд жуда миқдорда жарима);*
- ***жамоат тартибини бузиш ва полиция ходимини қонуний талабларини бажармаганлик учун*** *6 ойдан 5 йилгача қамоқ жазоси;*
- ***киберҳужумлар ва ахборот хавфсизлигига таҳдид*** *жиноятлари учун 15 йилдан 25 йилгача қамоқ ёҳуд жуда кўп миқдорда жарима жазолари шулар жумласидандир.*

---

[1] *John Austin* “Ҳуқуқий позитивизм назарияси” бўйича, **қонунлар давлат томонидан қатъий ижро этилса ва жазонинг муқаррарлиги таъминланса, жиноятчилик даражаси пасаяди. Қатар ҳуқуқий тизими бу назарияни тўлиқ тасдиқлайди.**

[2] Law No. 11 of 2004 Issuing the Penal Code 11 / 2004 // https://docs.yandex.ru

[3] https://en.wikipedia.org/wiki/Qatar

[4] https://dwfgroup.com/ar-qa/news-and-insights/insights/2022/7/economic-crime-act-2022

[5] https://www.qatarday.com/cyber-security-laws-in-qatar

[6] https://www.lexismiddleeast.com/legislativeInsight/Qatar/Qatar_Anti-Terrorism_Law

[7] *Изоҳ:* Коррупцияга қарши қонун *(Anti-Corruption Law)* – давлат хизматчилари, хусусий сектор ва хорижий инвесторлар учун шаффофлик ва ҳисобдорлик механизмлари; Иқтисодий жиноятлар тўғрисидаги қонун *(Economic Crimes Law)* – молиявий фирибгарлик ва ноқонуний молиявий операцияларга қарши санкциялар; Давлат харидларида шаффофликни таъминлаш учун *“Блокчейн-технологиялари”* жорий қилинган.

Шунингдек, *Қатар* давлатида таниқли криминолог ва ҳуқуқшунос олим Herman Goldstein[1]нинг *“Community Policing Theory”*[2] назарияси асосида мамлакатда **жамоатчилик ва полиция ўртасидаги ўзаро ҳамкорлик муносабатлари йўлга қўйилган. Мазкур назария James Q. Wilson ва George L. Kelling[3]нинг *“Broken Windows Theory”* деб номланган назарияси билан ўзвий боғлиқ бўлиб, мазкур назариялар ўзида қуйидаги принципларни мужассам этган. Буларга:**

биринчи, полиция ва жамоатчилик ҳамкорликда ишлаш лозимлиги *(аҳоли хавфсизликни таъминлашда полиция билан ҳамкорлик қилиши лозим);*

иккинчи, жиноятчиликни аниқлашдан кўра, унинг олдини олиш муҳимлиги *(полиция профилактик тадбирларга эътибор қаратиш лозимлиги);*

учинчидан, жамият полицияни назорат қилиши ва жамоат хавфсизлигида фаол иштирок этиши кераклиги;

тўртинчидан, ҳар бир ҳудудда жиноятчилик таҳдидларига мос равишда полиция стратегиялари ишлаб чиқилиши зарурлиги;

бешинчидан, полиция ходимлари жиноят содир бўлишига сабаб бўладиган ижтимоий муаммоларни аниқлаш ва ҳал қилишга йўналтирилган бўлиши лозимлиги.

Бугунги кунда Қатар давлатида юқорида қайд этилган назария ва принциплар асосида мамлакатда жиноятларни олдини олиш ёҳуд содир этилган жиноятларни тезкорлик билан фош этиш мақсадида қуйидаги усулларда жамоатчилик назорати билан полиция органлари ўртасида ўзаро ҳамкорлик муносабатлари йўлга қўйилган. Буларга:

а) ***“Smart Policing System” (Ақлли полиция тизими)*** *– жамоатчилик жиноятларни мобил иловалар орқали полицияга хабар қилиши механизми;*

*б) **ҳар бир шаҳарда жамоат полицияси ва қўриқчилар тизимининг мавжудлиги;***

в) жамоат жойларида видеоназорат ва сунъий интеллект тизимларини ўрнатилганлиги;

г) жиноятларга қарши курашишда жамоатчилик ва полиция ҳамкорлиги таъминланганлигида намоён бўлади.

---

[1] *Herman Goldstein* (December 8, 1931 – January 24, 2020) was an American criminologist and legal scholar known for developing the problem-oriented policing model. He was Professor at the University of Wisconsin Law School, where he began teaching in 1964. He previously worked as an assistant to the then-superintendent of the Chicago Police Department, O.W. Wilson. In 2018, he was awarded the Stockholm Prize in Criminology in honor of his research on policing // https://en.wikipedia.org/wiki/Herman_Goldstein

[2] *Изоҳ:* “*Community Policing Theory* – бу полиция фаолиятини анъанавий тартиб сақлашдан фарқли равишда, жамоатчилик билан яқин ҳамкорлик қилиш орқали жиноятларни олдини олиш ва хавфсизликни таъминлашга қаратилган ёндашувдир”.

[3] ***James Q. Wilson ва George L. Kelling* томонидан 1982 йилда мамлакатда жамоат хавфсизлиги ва жиноятчиликка қарши курашиш** шунингдек, **жиноятчиликни олдини олиш мақсадида “Broken Windows Theory”** номли назария ишлаб чиқилган.

Бугунги кунда Қатар давлатида жиноятчиликни олдини олишга қаратилган чора-тадбирларнинг самарадорлигини биргина мазкур давлатнинг Ички ишлар вазирлиги томонидан берилган қуйидаги маълумотидан ҳам билиш мумкин. Хусусан, 2024 йилнинг 6 ойи давомида Қатар давлатига 2 639 000 нафар сафар сайёҳ ташриф буюрган бўлиб, мазкур кўрсаткич 2022 йил мобайнида мамлакатга ташриф буюрган сайёҳларнинг умумий сонига тўғри келган. Агар мазкур сайёҳларни давлатлар кесимида тақсимласак, Саудия Арабистон (29%), Ҳиндистон (8%), Баҳрайн (5%), Қувайт (4%), Умон (4%), Германия (4%), АҚШ (3%), БАА (3%), Италия (2%) каби давлатларга тўғри келганини кўришимиз мумкин[1]. Шунингдек, "Qatar Tourism" ташкилоти раҳбарининг таъкидлашича, Қатар 2030 йилга қадар сайёҳлар сонини йилига 6 млн. кишига шунингдек, туризмнинг ЯИМ даги ҳиссасини эса 7 фоиздан 12 фоизга кўтаришини ражалаштирган[2]. Мазкур маълумотлардан билиш мумкинки, Қатар давлатида *"Смарт-шаҳар хавфсизлик назарияси"* бўйича, шаҳар инфратузилмасини рақамлаштирилганлиги шунингдек, мамлакат хавфсизлик тизимлари билан боғланганлиги Қатар давлатида жиноятчиликни камайтиришга хизмат қилган.

Япония давлати — мазкур давлат дунёда жиноятчилик кўрсаткичи энг паст давлатлардан бири бўлиб, бунга сабаб мамлакатда жиноятчиликни олдини олишга қаратилган чара-тадбирлар, уларнинг ҳуқуқий асослари ва жамоат хавфсизлигини таъминлашга қаратилган давлат сиёсатининг юқори даражада эканлигида намоён бўлади. Шунингдек, Япония давлатида жамоат тартибини сақлаш ва жиноятчиликни олдини олиш мақсадида 1968 йилда Gary S. Becker томонидан илгари сурилган "Жиноят ва жазо иқтисодиёти" назариясидан[3] фойдаланиб, ҳукумат томонидан катор *қонунлар, ҳукумат стратегиялари* ва *халқаро конвенциялар* қабул қилган. Булар:

биринчидан, ***Япония*** давлатининг ж**иноят кодекси *(**Penal Code of Japan**)*** мамлакатда ҳуқуқ-тартиботни таъминлаш ва жиноятчиликни олдини олиш учун асосий ҳуқуқий ҳужжатлардан бири ҳисобланади. Мазкур ҳужжат **1907 йилда қабул қилинган бўлиб, қуйидаги таъсир чораларини ўзида қамраб олган.** Мазкур кодексга кўра:

Death Penalty *(ўлим жазоси)* – инсон ўлдириш, терроризм, уюшган жиноятчилик ва давлатга қарши оғир жиноятлар учун қўлланилади;

Life Imprisonment (*умрбод қамоқ*) – инсон ҳуқуқларига қарши оғир жиноятлар ва қайта жиноят содир этган шахсларга нисбатан белгиланган;

[1] https://eco-tourism.expert/ru/news/chislo-inostrannykh-turistov-v-katare-vyroslo-v-pervoy-polovine -2024-goda-na-28
[2] https://www.travelpulse.com/news/destinations/qatar-tourism-unveils-new-tourism-campaign
[3] https://vk.com/@economic_on-geri-bekker-ekonomika-vsego

Heavy Fines *(кўп миқдордаги жарималар)* – иқтисодий жиноятлар[1], коррупция ва гиёҳванд моддалар муомаласи[2] билан боғлиқ ҳолатларда жарималарнинг максимал миқдори оширилган;

иккинчидан, мамлакатда жиноятчиликни олдини олиш ва уларга қарши курашиш мақсадида "Code of Criminal Procedure"[3], **"Anti-Organized Crime Law"**[4] ***(Якудза ва бошқа уюшган жиноятчилик гуруҳларига қарши курашишга қаратилган),*** **"Narcotics Control Act, 1953"**[5] *(гиёҳванд моддаларни сақлаш, тарқатиш ёки ишлаб чиқариш билан боғлиқ ҳар қандай муносабатларни тартибга солишга қаратилган),* "Financial Crimes Control Act", (2020)[6] *(фирибгарлик, пул ювиш (money laundering) ва коррупцияга қарши курашишга қаратилган),* "Criminal Justice Reform Act"[7] *(жиноят ишини тергов қилиш жараёнларини тезлаштириш, шаффофликни ошириш ва адвокатларнинг роли кучайтиришга қаратилган),* "National Public Service Ethics Law"[8] *(давлат хизматчиларини коррупцияга аралашишининг олдини олиш ва уларнинг молиявий манфаатларини чеклашга қаратилган),* "Cybersecurity Basic Act"[9] *(Кибержиноятларга қарши кураш, кибер ҳужумларнинг олдини олиш),* "Anti-Terrorism Special Measures Law"[10] *(Халқаро терроризмга қарши курашишга қаратилган),* "Police Law of Japan"[11] *(полицияни жамоатчилик билан ҳамкорликда ишлаши ва профилактик тадбирларни кучайтиришига қаратилган),* "Community Policing Strategy"[12] *(полиция стратегияси жиноятларнинг олдини олишга йўналтирилган)* каби норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинган;

учинчидан, ***Япония*** давлатида жамоат хавфсизлигини таъминлаш, жиноятларни олдини олиш, фуқаролар ва полиция ўртасидаги ишончли ҳамкорликни ўрнатиш, ҳудуддаги хавфсизликни доимий назорат қилиш ва жиноятчиларни тезкор аниқлаш ҳамда уларни ҳибсга олиш мақсадида Герман Голдштейннинг "Жамоатчилик Полицияси Назарияси" асосида "**Кобан" *(Kōban, 交番)* тизими яъни маҳаллий полиция бекатлар**и жорий этилгандир.

---

[1] *Изоҳ:* Коррупция билан боғлиқ жиноятларучун кўп миқдожа жарима, шунингдек, давлат мулкини ўзлаштирганлик ҳолати учун 10 йилдан 20 йилгача қамоқ жазоси белгиланган.

[2] *Изоҳ:* жазо сифатида **10 йилдан умрбод қамоқ жазосигача** ва кўп миқдорда жарима жарима белгиланган.

[3] https://cdn1.byjus.com/wp-content/uploads/2020/08/Code-of-Criminal-Procedure-UPSC.pdf

[4] https://www.occrp.org/en/news/yakuza-prepares-members-to-resist-japans-new-anti-organized-crime-law

[5] https://elaw.klri.re.kr/eng_service/lawView.do?hseq=37716&lang=ENG

[6] https://www.eci.com/anti-money-laundering-and-counter-terrorist-financing-act-japan

[7] https://datacollaborativeforjustice.org/wp-content/uploads/2020/04/CJRA-Report-2-1.pdf

[8] https://yandex.ru/search/?text=%E2%80%9CNational+Public+Service+Ethics+Law1

[9] https://www.global-regulation.com/law/japan/3009836/the-basic-act-on-cybersecurity.html

[10] https://www.acronymfinder.com/Anti_Terrorism-Special-Measures-Law-(Japan)-(ATSML).html

[11] https://www.liquisearch.com/law_of_japan/law_enforcement

[12] https://www.ojp.gov/ncjrs/virtual-library/abstracts/community-policing-japan-and-singapore-community-policing

Жаҳоннинг хавфсиз давлатлари сирасига кирувчи Андорра, Бирлашган Араб Амирликлари, Қатар ва Япония каби мамлакатлар тажрибаси таҳлил қилинадиган бўлса, бу давлатларда жиноятчиликни олдини олиш, жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва ҳуқуқбузарликларга қарши самарали курашишда патрул-пост хизмати фаолияти муҳим институционал механизм сифатида шакллантирилгани аён бўлади. Мазкур давлатларда қонун устуворлиги, жамоатчилик билан яқин ҳамкорлик, рақамлаштириш ва профилактик ёндашувларнинг амалиётга самарали жорий этилиши ушбу хизматнинг самарадорлигини таъминлаган. Шу муносабат билан Янги Ўзбекистонда патрул-пост хизмати фаолиятини ислоҳ қилиш ва такомиллаштириш мақсадида қуйидаги илмий таклифларни илгари суриш мақсадга мувофиқ ҳисобланади:

биринчи навбатда, **ҳуқуқий база ва норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни такомиллаштириш** долзарб вазифалардан бири ҳисобланади. Хусусан, “Патрул-пост хизмати тўғрисида” алоҳида Қонунни қабул қилиш зарурати туғилмоқда. Ушбу қонун патрул-пост хизмати ходимларининг ҳуқуқий мақоми, функционал ваколатлари, жамоатчилик билан муносабатлари, профилактик вазифалари ва масъулиятини аниқ белгилаб бериши лозим. Шунингдек, ҳуқуқбузарликлар ва жиноятларга нисбатан жазо муқаррарлигини таъминлаш мақсадида "Жиноят кодекси" ҳамда "Маъмурий жавобгарлик тўғрисида"ги кодексларга патрул-пост фаолиятига дахлдор нормаларни қайта кўриб чиқиш таклиф этилади;

иккинчидан, **патрул-пост хизматида рақамлаштириш ва “ақлли полиция” моделини жорий этиш** борасида илғор хорижий тажрибалардан самарали фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Қатар ва Бирлашган Араб Амирликлари тажрибаси асосида интеллектуал видеокузатув воситаларини жорий этиш, мобил иловалар орқали фуқаролардан тезкор маълумот олиш, “смарт-шаҳар” ва “ақлли полиция” технологияларини интеграция қилиш мумкин. Бундан ташқари, жиноят таҳдидларини олдиндан аниқлашга хизмат қиладиган рақамли мониторинг ва сунъий интеллект асосидаги таҳлил платформаларини патрул фаолиятига жорий этиш муҳим ҳисобланади;

учинчидан, **жамоатчилик билан ҳамкорликни институционал асосда ривожлантириш** лозим. Япония ва Қатар давлатларида қўлланилаётган “Kōban” ва “Community Policing” моделлари асосида ҳар бир маҳаллада жамоатчилик патрул пунктларини ташкил этиш орқали аҳоли ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ўртасида ишончли алоқаларни йўлга қўйиш мумкин. Шунингдек, “фуқаролик патрули” ва “ишонч нуқталари” каби ташаббусларни полиция тизими билан мувофиқлаштириш патрул-пост хизмати самарадорлигини оширади;

тўртинчидан, **профилактик фаолиятга устуворлик бериш ва жиноят таҳдидларини олдиндан аниқлаш** патрул-пост хизмати самарадорлигининг муҳим мезонидир. Бу борада *“фош этиш”* эмас, балки *“олдини олиш”* принципини қонуний равишда мустаҳкамлаш зарур. Жойларда таҳлилий маълумотлар асосида *“патрул-профилактик хариталар”*ни яратиш ва шу асосда патрул йўналишларини оптималлаштириш орқали жиноятларга қарши самарали курашиш мумкин;

бешинчидан, **кадрлар тайёрлаш ва қайта тайёрлаш тизимини ислоҳ қилиш** патрул-пост хизмати фаолиятидаги рақобатбардошлик ва самарадорликни таъминлайди. Хизматчиларни рақамлаштириш, киберхавфсизлик, ахборот таҳлили, жамоатчилик билан мулоқот, медиация ва мураккаб ижтимоий вазиятларда ҳаракат қилиш кўникмаларига эга этиб тайёрлаш талаб этилади. Олий таълим муассасаларида “патрул-пост хизмати назарияси ва амалиёти” бўйича ихтисослаштирилган фанларни жорий этиш орқали соҳа мутахассисларининг билим ва кўникмаларини кучайтириш мумкин;

Охирги навбатда, **халқаро тажриба ва ҳамкорликни кенгайтириш** муҳим амалий аҳамият касб этади. Андорра, Қатар, БАА ва Япония каби давлатлар билан илмий-амалий ҳамкорлик дастурлари, малака ошириш курслари ва тажриба алмашиш лойиҳаларини ташкил этиш, “Патрул-пост хизматида халқаро стандартлар” мавзусида доимий илмий форум ва семинарлар ўтказиш орқали ўзбек моделига мос келадиган ечимларни шакллантириш имконини беради.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, юқорида баён этилган таклифлар патрул-пост хизмати фаолиятини замонавий талаблар асосида тубдан ислоҳ қилиш, унинг ҳуқуқий мақомини мустаҳкамлаш, рақамли технологияларни жорий этиш, жамоатчилик билан самарали ҳамкорликни йўлга қўйиш ва профилактик фаолиятни кучайтиришга қаратилган. Шу билан бирга, кадрлар тайёрлаш тизимини модернизация қилиш ва халқаро тажрибаларни локал шароитга мослаштириш патрул-пост хизмати самарадорлигини оширишда муҳим омил бўлиб хизмат қилади. Бу чоралар жамиятда хавфсизликни таъминлаш, фуқаролар ишончини мустаҳкамлаш ва жиноятчиликни олдини олишда барқарор институционал асос яратади.

ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАРДА МИЛЛИЙ ГВАРДИЯ ТИПИДАГИ ТУЗИЛМАЛАРДА РАҲБАР КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ

Мурадуллаев Аббосбек Абдураҳмонович,
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети мустақил изланувчиси

Аннотация: Мазкур мақолада хорижий давлатларда Миллий гвардия типидаги тузилмаларда раҳбар кадрлар тайёрлаш тизими ва унинг ўзига хос жиҳатлари илмий-назарий ва амалий жиҳатдан таҳлил қилинган. Тадқиқотда раҳбар кадрларни танлаш, тайёрлаш ва қайта тайёрлаш механизмлари, уларнинг профессионал салоҳиятини ривожлантириш, лидерлик кўникмаларини шакллантириш ҳамда замонавий бошқарув усулларини жорий этиш масалалари ёритилган. Шунингдек, АҚШ, Франция, Германия ва бошқа давлатлар тажрибаси асосида раҳбар кадрлар тайёрлашнинг институционал ва ташкилий моделлари ўрганилиб, миллий тизимни такомиллаштиришга доир илмий асосланган таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: Миллий гвардия, раҳбар кадрлар, кадрлар тайёрлаш, лидерлик, профессионал салоҳият, хорижий тажриба, ҳарбий бошқарув, кадрлар сиёсати, малака ошириш, институционал механизм.

Ҳарбий ходимлар салоҳияти Қуролли Кучлар ва Миллий гвардиянинг ҳарбий ривожланиши ва ислоҳотини таъминлашнинг энг муҳим таркибий қисми ҳисобланади.

АҚШ[1] Миллий гвардиясида раҳбарликка тайёрланиш учун икки асосий йўл мавжуд:

А) Офицер бўлиш йўли. Бунда Талабалар Резерв офицерларини тайёрлаш корпуси (Reserve Officers' Training Corps (ROTC)) дастури[2], Коллеж ёки университет талабалари учун тайёргарлик дастури асосида 4 йил давомида ҳарбий фанлар, лидерлик кўникмалари ва тактик тайёргарликни ўрганадилар. Тамомлагандан сўнг, улар лейтенант унвонини олади.

Шу билан бирга, OCS (Officer Candidate School) - Офицерлар тайёрлаш мактабида Миллий Гвардия аъзолари учун 12 ҳафталик курс мавжуд бўлиб, бунда улар жисмоний, тактик ва раҳбарлик қобилиятларини ривожлантиради. Ўқиш тамомлагандан сўнг, битирувчиларга офицер унвони берилади.

[1] https://nationalguard.com/

[2] Изоҳ: Бу дастур АҚШда коллеж ва университет талабалари учун ҳарбий офицерликка тайёргарлик бериш мақсадида ташкил этилган бўлиб, иштирокчилар ўқиш давомида ҳарбий фанлар, лидерлик кўникмалари ва тактик тайёргарликдан ўтадилар. Оқибатда улар АҚШ Миллий Гвардияси ёки Армияда офицер сифатида хизмат қилиш имконига эга бўладилар.

Шунингдек, директ-комиссия дастури бўйича (Direct Commission Officer Program) тиббиёт, ҳуқуқ, муҳандислик ёки киберхавфсизлик каби соҳалар бўйича мутахассислар учун бевосита офицер унвони олиш имконияти яратилган.

В) Олий даражали раҳбарликка тайёргарлик муросасиз қарорлар қабул қилиш, жамоани бошқариш кўникмаларини ривожлантиришга йўналтирилган Капитанлар курслари (Captain Career Course)[1], майор ва полковниклар учун Қўмондонлик ва Генерал штаб коллежи (Command and General Staff College)[2] ва Генерал ва юқори лавозимдаги офицерлар учун Ҳарбий Академия (War College)[3]да амалга оширилади.

Россия Миллий гвардияси қўшинларида раҳбар кадрлар тайёрлаш ҳарбий таълим муассасалари ва махсус тайёргарлик курслари орқали амалга оширилади.

Россияда ҳарбий соҳадаги раҳбар кадрлар заҳираси полковник ва генераллар учун стратегик раҳбарлик курслари Росгвардия[4] Олий Бошқарув Академиясида, Миллий хавфсизлик ва давлат мудофааси соҳасида раҳбарларни тайёрлаш Мудофаа Вазирлиги Ҳарбий Академияларида тайёрлаш йўлга қўйилган.

Яна бир ривожланган давлатлардан бири Туркияда Жандармерия (Миллий гвардия типидаги бўлинма) ҳарбий раҳбар кадрлар заҳирасини шакллантириш ўзига хос аҳамиятга эгадир.

Туркия жандармерияси[5]да раҳбар кадрлар тайёрлаш Жандармерия ва Соҳил Хавфсизлиги Академияси (JSGA), полковник ва генераллар учун раҳбарлик малакасини ошириш курси Туркия Миллий Мудофаа Университетида Туркия Жандармерияси Командирлик Курси (полковник ва юқори лавозимдаги офицерлар учун) махсус ўқув дастури асосида амалга оширилади.

Франция Жандармерияси[6]да раҳбар кадрлар тайёрлаш Жандармерия Миллий Офицерлар Мактаби (EOGN – École des Officiers de la Gendarmerie Nationale) 2-3 йиллик тайёргарлик дастури асосида, юқори лавозимларга кадрлар

---

[1] Маълумот учун. Captain Career Course (CCC) – АҚШ Миллий Гвардияси, Армияси ва Резерв кучлари учун капитан унвонидаги ҳарбийлар (офицерлар)ни тайёрлашга йўналтирилган ўрта даражали раҳбарлик курси. Бу курс офицерларнинг профессионал ривожланишини таъминлайди ва уларни майор унвонига тайёрлаш учун муҳим босқич ҳисобланади.

[2]Маълумот учун. Command and General Staff College (CGSC) – АҚШ Армияси, Миллий Гвардияси ва Резерв кучлари учун майор ва юқори лавозимли офицерларни тайёрлашга ихтисослашган ҳарбий таълим муассасаси. У АҚШ Армиясининг Форте-Левенворт (Fort Leavenworth, Kansas) базасида жойлашган бўлиб, АҚШдаги энг нуфузли ҳарбий раҳбарлик тайёргарлик дастурларидан бири ҳисобланади.

[3] Маълумот учун. War College (Ҳарбий Коллеж) – юқори лавозимли ҳарбий офицерлар (подполковник, полковник, генерал) ва мудофаа сиёсати бўйича раҳбарларни тайёрлашга ихтисослашган ҳарбий таълим муассасаси. Ушбу коллежлар ҳарбий стратегия, давлат мудофааси ва глобал хавфсизлик масалалари бўйича офицерлар ва мудофаа раҳбарлари малакасини оширишга қаратилган.

[4] https://rosguard.gov.ru/page/index/istoriya

[5] https://www.jandarma.gov.tr/tarihce

[6] https://www.gendarmerie.interieur.gouv.fr/amgn/l-ecole-des-officiers

заҳирасини тайёрлаш Франция Мудофаа Академияси (École de Guerre)да полковник ва генераллар учун стратегик раҳбарлик ва ҳарбий менежмент курслари ҳамда Халқаро Ҳарбий Курслар (NATO ва Европа Иттифоқи) бўйича амалга оширилади.

Таҳлиллардан кўриниб турибтики, ҳар бир мамлакат миллий гвардияси ва жандармерияси раҳбар кадрларни тайёрлаш бошланғич офицерлик тайёргарлиги (университет ёки офицерлик мактаби), заҳирадаги хизматчилар учун офицерликка тайёргарлик курслари, малака ошириш ва стратегик раҳбарлик курслари, олий даражали раҳбарлар учун махсус ҳарбий академиялар орқали ташкил этилмоқда.

Бугунги кунда мамлакатимизда қуролли кучлар, хусусан Миллий гвардия тизимида баталъон ва бригада даражасида раҳбар кадрлар захирасини тайёрлаш амалиёти мавжуд. Бироқ, қўмондонлик штаб бошқаруви даражасидаги кадрлар заҳирасини тайёрлаш масаласи муаммоли ҳолат сифатида қолмоқда.

Хорижий давлатларнинг ижобий тажрибасидан келиб чиқиб, жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича рахбар кадрларни тайёрлаш тизимини танқидий таҳлил қилиш **ва бошқарув бўйича рахбар кадрларни тайёрлашнинг асосланган механизмларини** амалиётга жорий этиш мақсадга мувофиқ.

Ҳарбий тизимда раҳбар бўлиш учун стратегик фикрлаш, тактик режалаштириш, юридик билимлар ва жисмоний тайёргарлик каби соҳаларда етук мутахассислик талаб қилинади.

Ҳарбий ислоҳотларнинг муваффақияти ва давлат ҳарбий хавфсизлигининг мустаҳкамлиги ҳарбий ходимларни илмий бошқаришнинг самарали тизимини яратишга боғлиқ. Ўзбекистон Қуролли Кучларини етакчи ҳарбий ходимлар билан таъминлаш муаммоси айниқса кескин. Ушбу муаммони ҳал қилишнинг асосий йўналишларини кўриб чиқиш керак:

Биринчидан, ҳарбий кадрлар жараёнларини бошқариш. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларида кадрларни қўллаб-қувватлаш тизими доимий равишда Давлат ҳарбий хизматчилари буюртмаси орқали амалга ошириладиган ҳарбий кадрлар сиёсати концепциясига асосланган ҳолда ишлаши керак. Бўлинмалар, қўшинлар ва йирик тузилмаларни бошқаришда етарли тажрибага эга бўлган юқори малакали, малакали ҳарбий кадрлар салоҳиятини шакллантириш ва амалга ошириш жараёнларини самарали бошқариш зарур. Бу ерда қўшинлар ва муассасалар учун энг юқори даражадаги ҳарбий кадрлар танлаб олиниши ва пухта ўқитилиши керак. Ҳарбий кадрлар салоҳиятидан оқилона фойдаланишнинг пухта ўйланган тизими давлатнинг ҳарбий тузилмаси мавжудлигининг моҳияти ва асосини ташкил қилади.

Иккинчидан, ҳарбий ходимлар салоҳиятини мувофиқлаштириш ва бошқаришни кучайтириш. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларининг ходимлар бошқармаларида ўзларининг инсон ресурслари ва ресурсларни бошқарадиган, давлат ҳарбий ходимлар буйруғига мувофиқ ҳарбий ва фуқаролик олий ўқув юртларида тайёрланадиган мутахассис координаторлари бўлиши керак. Ўзбекистон Қуролли Кучларида, қуролли кураш шакллари ва усулларида рўй бераётган ўзгаришлар келажакдаги ҳарбий ходимлар салоҳиятини тайёрлаш жараёнини бошқаришни ва унинг давр талабларига тўлиқ жавоб беришини таъминлашни талаб қилади. Ходимлар сиёсати нафақат кенг кўламли, оммавий характерга эга бўлиши керак, балки келажакдаги олий ҳарбий раҳбарларга нисбатан шахсий хусусиятга эга бўлиши керак. Бу махсус ходимлар бошқармалари томонидан амалга оширилиши ва муайян ҳарбий мутахассисликларга тегишли бўлиши керак. Диссертациянинг биринчи бобида муҳокама қилинган “ҳарбий ходимлар салоҳияти” тушунчаси катта ва чуқур мазмунга эга бўлган тоифадаги характерга эга бўлиши керак.

Учинчдан, ҳарбий ходимлар сиёсати концепциясини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш командирлари (бошлиқлари) ва барча даражадаги ходимлар бошқармалари хизматчиларининг амалиётига жорий этиш. Ҳарбий ходимлар ишининг мазмуни, техникаси, усуллари, шакллари ва усулларини такомиллаштириш нафақат директивалар асосида, балки концепцияни акс эттирувчи алгоритм ва диаграммалар асосида ҳам амалга оширилиши керак. Турли даражадаги кадрлар органлари учун Ўзбекистон Қуролли Кучларининг ҳарбий кадрлар ва раҳбарлик ҳарбий кадрлар салоҳиятини шакллантириш ва амалга оширишда мақсадлар ва механизмларнинг бирлигини таъминлайдиган тегишли услубий тавсияларни ишлаб чиқиш зарур.

Тўртинчидан, Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардиясининг ходимлар билан ишлаш бўлинмаларидан мутахассисларни касбий тайёрлашни янги сифат даражасига олиб чиқиш керак. Ҳозирда “ходимлар билан ишлаш бўйича офицерлар” лавозимларига махсус академик ходимлар билан ишлаш тайёргарлигига эга бўлмаган офицерлар ва генераллар тайинланади. Улар таҳлилий кўникмаларни асосан синов ва хато қилиш орқали эгаллайдилар. Ходимлар бўйича мутахассисларни иш жойида ўқитиш юзаки, чунки, ходимлар билан ишлаш жараёнида вазиятларини чуқур ўрганмасдан, тарихий ва хорижий тажрибани билмасдан ўргатиш билан характерланади. Ностандарт, ижодий фикрлайдиган, ижтимоий ва ҳарбий тараққиётнинг табиий тенденцияларини муносиб акс эттирадиган ходимлар билан ишлаш бўйича янги ғояларини илгари суришга ва дадил амалга оширишга қодир бўлган ҳарбий хизматчилар бўлинмаси раҳбарларини тайёрлаш зарур.

Бешинчидан, ҳарбий ходимлар салоҳиятининг муҳим хусусияти унинг ҳаракатчанлигидир. Ижтимоий ҳаракатчанликнинг бошқа турлари сингари, у ҳарбий меҳнатнинг мазмуни, табиати ва шартларидаги кўп томонлама ўзгаришларни ўз ичига олиши керак, бу эса ҳарбий ходимлар салоҳиятининг мақом хусусиятларининг ўзгаришига таъсир қилади. Бу ерда ҳаракатчанлик, биринчи навбатда, ўзгартириш имконияти нуқтаи назаридан тушунилади: касблар (мутахассисликлар, мутахассисликлар бўйича қайта тайёрлаш); малакалар, лавозимлар ва хизмат жойлашуви. Қуролли кураш, умуман уруш ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш шакллари ва усулларида амалга оширилаётган туб ўзгаришлар аллақачон Миллий гвардия учун ҳарбий хизматчилар салоҳиятини шакллантириш, тайёрлаш ва қайта тайёрлаш бўйича динамик ҳарбий амалиётни талаб қилади.

Олтинчидан, Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси ҳарбий хизматчилар ва етакчи ҳарбий ходимлар салоҳиятини шакллантириш ва амалга ошириш учун ходимлар билан таъминлаш жараёни билан боғлиқ илмий тадқиқотларни ҳар томонлама тарғиб қилиш зарур. Ходимлар бўйича сиёсати назарияси ва амалиёти соҳасида илмий тамойилларни ишлаб чиқиш, ҳарбий хизматчиларнинг ижодий ва касбий фазилатларини ривожлантиришга ҳисса қўшадиган янги ижтимоий ва ахлоқий тартибга солувчиларни излаш. Ҳар бир мутахассислик ва ҳарбий касблар гуруҳида олий ҳарбий раҳбарлик ва тадқиқотчиларнинг саъй-ҳаракатларини бирлаштирувчи механизмларни яратиш керак. Бу борада ҳарбий ходимлар салоҳиятини бошқариш самарадорлиги мезонларини ишлаб чиқиш алоҳида аҳамиятга эга. Жамиятимизда ҳарбий шахснинг ижтимоий-касбий обрўсини ошириш усулларини ишлаб чиқиш, янги кўринишдаги юксак ҳарбий раҳбарни шакллантириш бўйича тавсияларни асослаш зарур.

Еттинчидан, Ўзбекистон давлатининг ҳарбий ходимлар бўйича сиёсати Миллий гвардия ҳарбий хизматчилари салоҳиятини тайёрлаш ва ривожлантириш мақсадлари, вазифаларини белгилашга қаратилган бўлиши керак. У ҳарбий хизматчиларнинг иш шакллари ва усулларини, мамлакат, Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси ривожланишининг ўзига хос тарихий шароитларига ва Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси тўғрисида”ги Қонунининг 13-моддасида[1] белгилаб берилган вазифаларни тўлиқ амалга ошириш шакллари ва усулларига нисбатан ҳарбий хизматчи ва ходимлар шахсий таркибига қўйиладиган талабларни ишлаб чиқиши керак.

[1] Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси тўғрисида”ги Қонун// www.lex.uz

Миллий ва шахсий манфаатларни уйғунлаштирган ҳолда, ходимлар бўйича бўлинмалари ҳарбий хизматчилар салоҳиятини шакллантириш ва амалга оширишни таъминлаши керак, бу эса Миллий гвардия фаолиятини янада ислоҳ қилиш ва давлатнинг ҳарбий хавфсизлигини таъминлашда натижаларга эришишга олиб келади.

Саккизинчидан, жамиятда бозор муносабатлари қарор топаётган шароитда давлат ҳарбий хизматчиларни заҳирага ўтказилгандан кейин муносиб турмуш ва хизмат шароитлари билан таъминлаш, уларни қайта тайёрлаш ва фуқаролик соҳасида ишга жойлаштиришии мақсадга мувофиқ бўлади. Мамлакатда ўзгариб бораётган ҳарбий-сиёсий, ижтимоий, иқтисодий ва бошқа муносабатлар шароитида ходимлар ресурсларидан фойдаланишга янгича ёндашувни назарий жиҳатдан тушуниш зарур.

Тўққизинчидан, Ўзбекистон Миллий гвардияси ҳарбий хизматчи ва ходимлари салоҳиятини янада шакллантириш вазифаси ҳарбий таълимнинг бир қатор фанлари вакиллари томонидан ҳал қилиниши керак: ҳарбий санъат назарияси, ижтимоий-фалсафий ва ҳарбий-ижтимоий назария, бошқарув назарияси, ҳарбий ривожланиш тарихи ва назарияси, ҳарбий педагогика ва психология фанлари шулар жумласидан. Миллий гвардиянинг етакчи ҳарбий хизматчи ва ходимлари салоҳиятини тайёрлашнинг зарурий шартлари, мураккаблиги ва номувофиқлигини аниқлаш, концептуал ғояларни белгилаш, мақсад ва тамойилларни шакллантириш, ходимлар фаолиятининг устувор йўналишларини аниқлаш керак.

Ўнинчидан, Ўзбекистон Республикасининг “Мудофаа тўғрисида”[1], “Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси тўғрисида”ги қонун[2]ларида, Ўзбекистон Республикаси Мудофаа доктринасининг асосий қоидаларида тақдим этилган ҳарбий ривожланишнинг ходимлар таркибий қисмининг ўта умумлаштирилган кўринишини очиб беради ва, ўз навбатида, ҳуқуқий заифлик ва ходимлар салоҳиятини ривожлантириш билан боғлиқ масалаларнинг етарли даражада ишлаб чиқилмаганлиги Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ва Миллий гвардиянинг ҳақиқий эҳтиёжларни қондирмайди. 2019 йилдаги Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг ҳарбий хизматни ўташ тўғрисидаги низом[3]да ҳарбий хизматчилар тартибининг ҳуқуқий, ташкилий, иқтисодий, илмий-услубий ва моддий-техникавий асосларини тартибга солиш мақсадга мувофиқдир, бунинг учун унга тегишли ўзгартиришлар киритилиши керак ва амалга ошириш механизми Ўзбекистон Республикаси ҳукумати томонидан

[1] Ўзбекистон Республикасининг “Мудофаа тўғрисида”ги қонун // lex.uz.

[2] Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси тўғрисидаги қонун// lex.uz.

[3] Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг ҳарбий хизматни ўташ тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақидаги қарор // lex.uz.

тасдиқланган Ҳарбий хизматчиларни тайёрлаш бўйича давлат ҳарбий хизматчилари тартиби тўғрисидаги низом билан белгиланади.

Ўн биринчидан, ҳарбий ходимлар ва етакчи ҳарбий хизматчилар салоҳиятини шакллантириш нафақат Ўзбекистон Миллий гвардиясини янада ислоҳ қилишни таъминлаши, балки уни ижро этувчи ҳокимиятнинг қонунчилик базасида мустаҳкамлаш ва зарур моддий ресурслар билан таъминлаш зарурлигини таъминлаши керак. Давлатда ҳарбий хизматчи ва ходимларни қўллаб-қувватлашнинг ҳал қилиб бўлмайдиган муаммосини назарий ва услубий асослашни фаол равишда ишлаб чиқиш, кадрлар масалалари, давлат ва ҳарбий ривожланиш масалаларини ишлаб чиқиш зарур.

Ўн иккинчидан, Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардиясини, шу жумладан юқори мартабали ходимларни хизматчилар билан таъминлаш сиёсати устувор йўналишга айланиши керак. Ҳарбий ходимлар бўйича сиёсатининг энг муҳим йўналиши ҳарбий шахснинг ноёб мутахассис сифатидаги мақомини тиклаш бўлиши керак. Самарали умуммиллий ходимлар таъминоти тизимини яратиш учун, биринчи навбатда, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети, Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлар академияси ва бошқа академияларнинг ташкилий илмий ҳамжамияти зарур. Улар фанлараро тадқиқотлар дастурини ишлаб чиқиш ва ходимлар ва хизматчилар бўйича сиёсатининг ягона фанини яратишга қодир. Бу дастурда ҳарбий-илмий муаммоларни комплекс ҳал этиш учун зарур бўлган барча нарса бўлиши зарур. Тадқиқотларни амалга ошириш учун Ўзбекистон илм-фанининг ақлий салоҳиятини, замонавий илмий ва таълим муассасаларини, тажриба ва лаборатория жиҳозларини жалб қилиш керак бўлади. Ушбу иш натижасида асосий ҳодимлар билан ишлаш бўйича иши ишлаб чиқилиши мумкин, унда:

Ҳарбий ривожланиш ва Ўзбекистон Қуролли Кучлари ва Миллий гвардия тизимини янада ислоҳ қилишнинг турли босқичларида инсон ресурсларини оқилона тақсимлаш ва улардан фойдаланиш бўйича тавсиялар асосланади;

Ҳарбий шахснинг турли ҳарбий ва бошқа вазиятларда ишлашига таъсир қилувчи омилларни ҳисобга олиш бўйича таклифлар берилди;

Шахснинг ҳарбий фаолият дастуридан четга чиқишига таъсир қилувчи омиллар гуруҳлари номланди;

Ҳарбий хизматчиларнинг биргаликдаги фаолияти самарадорлигини ошириш, ҳарбий жамоаларни шакллантириш йўллари ва уларни бошқаришнинг психологик жиҳатлари белгилаб берилди;

Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардиясини бошқаришнинг маҳоратли моделини тизимда янада жорий этиш усуллари, мамлакатнинг турли ҳудудларида Миллий гвардия ҳарбий тузилмаларни бошқариш усуллари ишлаб чиқилган;

Профессионал армияда оддий контракт аскарларидан ташқари етарли миқдордаги фуқаролик ходимларига эга бўлиш зарурлиги оқланди;

Ижтимоий ва касбий технологиялар бошқарув ходимларининг ҳам одамлар, ҳам қурол-яроғ, ҳарбий ва бошқа техника ва жиҳозлар билан самарадорлигини таъминлаш учун ишлаб чиқилган ва юқори мартабали ҳарбий раҳбарларнинг касбий яроқлилиги мезонлари ҳокимиятни бошқаришдан интеллектуал-ишлаб чиқариш устуворлигига ўтиши керак.

Бошқарув объектларига нафақат бақувват ва кучли таъсир кўрсатишга қодир бўлган янги турдаги қўмондонлик ва бошқарувнинг юқори даражасида ҳарбий раҳбарларни тайёрлаш бўйича, балки янги авлод урушларига ўтиш даврида ҳам, бевосита шундай урушлар ва оммавий тартибсизликларни олдини олишда олиб борилаётган даврда ҳам инсоний муносабатлар соҳасида юқори даражадаги билимга эга бўлиш тавсияларига асосланган;

Ходимлар бўйича мутахассисларнинг ҳарбий хизматининг маъмурий, ҳуқуқий ва функционал томони ҳарбий лавозимлар ва унвонларнинг ушбу хизматнинг амалдаги номенклатураси ва унвонлари билан ўзаро боғлиқлиги давлат хизматининг алоҳида соҳаси сифатида малакали бўлиши кераклигидадир.

Миллий гвардия ҳарбий хизматчилари салоҳиятини шакллантириш ва амалга ошириш бўйича янги стратегик концепцияда ҳар бир ҳарбий хизматчи ва ходим, айниқса, юқори бошқарув бўғини бошлиғи давлатга наф келтиришга қодир ноёб мутахассис сифатида қабул қилиниши зарур. Маҳаллий ҳарбий хизматчиларнинг ақлий ва ижодий салоҳиятини авайлаб асраш, ривожлантириш ва фаол фойдаланиши зарур.

Ҳарбий хизматчи ва ходимлар салоҳиятини ривожлантириш манфаатларида идоралараро ходимлар бўйича тузилмаларининг ўзаро ҳамкорлиги бўйича тавсиялар ишлаб чиқилиши керак. Давлатнинг ҳарбий хизматчи ва ходимлар салоҳияти ҳарбий хизмат қонуний равишда талаб қилинадиган турли вазирлик ва идоралар раҳбарлари ва ходимлар бўйича мутахассисларнинг ўзаро яқиндан ҳамкорлиги орқали шакллантирилиши керак. Ҳарбий-сиёсий, ҳарбий, сафарбарлик, ходимлар, молиявий ва бошқа масалаларни ҳал қилишда хизматчилар квоталари бўйича келишиш учун нафақат ўзаро ҳамкорлик, балки кўпинча келишув ва низоларни ҳал қилишда уларнинг кучлари ва воситаларининг бевосита иштироки талаб қилинади.

Ҳарбий хизматчи ва ходимлар салоҳиятини шакллантириш ва амалга оширишда ходимларнинг ташкилий ва сафарбарлик ишлари бўйича тавсиялар талаб этилади. Давлат жанговар ва сафарбарлик шайлигини ходимлар билан таъминлаш, ҳарбий хизматчилар салоҳиятидан фойдаланиш имкониятлари ва мамлакат ҳарбий хавфсизлигини кафолатлайдиган ходимлар ресурсларини жалб этишни молиялаштириши ва қатъий назоратини амалга ошириши шарт.

Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги ва Миллий гвардиянинг юқори мансабдор шахслари томонидан бюджет маблағларини сарфлаш самарадорлигини текширишга алоҳида эътибор берилиши керак.

Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардиясини жамлаш ва ҳарбий хизматчи ва ходимлар салоҳиятидан фойдаланиш бўйича тавсиялар ишлаб чиқилган. Ҳарбий ислоҳот ва Ўзбекистон Миллий гвардиясини янада ислоҳ қилишнинг бориши Ўзбекистон Республикаси Президенти ва Ўзбекистон Республикаси ҳукумати томонидан доимий равишда назорат қилиниши ва айниқса ҳарбий ходимлар масалаларида диққат билан текширилиши керак:

Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси бошқарув аппаратини қайта ташкил этиш бўйича қабул қилинган қонун ва қонуности ҳужжатлари қандай амалга оширилаётганлиги нималарда кўриш мумкин:

- офицерлар олган касбий малакалари ва фаолиятида эришилган натижаларга мувофиқ ҳарбий лавозимларга қандай тайинланганлиги;

- Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардиясини жамланиши қандай амалга оширилаётганлиги;

- Миллий гвардия тизимларида қисқартириш ёки фаолият турларини тақсимланиши жараёни белгиланган даражада қандай кечаётганлиги (бу даража қандайдир фоиз билан эмас, балки жиддий илмий ҳисоб-китоблар асосида мамлакат мудофаасига бўлган ҳақиқий эҳтиёжлардан келиб чиққан ҳолда белгиланиши керак);

- танлов асосидаги фуқаролик ходимларидан ҳарбий хизматда қандай фойдаланилаётганлиги таҳлил қилинади.

Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси тизимларининг функционал ва ҳудудий қўмондонликларининг шахсий таркиби қандай шакллантирилади.

- қўшинлар, ҳарбий тузилмалар ва бўлинмалар сонини ислоҳ қилиш ва қисқартириш шароитида юқори малакали, тайёрланган офицер ходимлар ядроси қандай сақланиб қолинганлиги;

- ёш офицерларнинг хизматдан кетиш истагини камайтириш учун қандай чоралар кўрилмоқда;

- қўшинлар, ҳарбий тузилмалар ва бўлинмалар олдида турган вазифаларнинг ҳал этилишини таъминловчи офицерлик лавозимларини штат билан таъминлашнинг зарур даражаси қандай таъминланганлиги. Бу, биринчи навбатда, жанговар шайликни сақлаш, жанговар навбатчилик ва жанговар хизмат масалалари тўғридан-тўғри ҳал қилинадиган ҳудудлар, бўлинмалар, қўшинлар ва бошқармаларга тааллуқлидир.

Ҳарбий касбий таълим ва илмий салоҳиятдан фойдаланиш муаммолари бўйича кўпроқ тавсиялар ишлаб чиқилиши лозим. Кейинчалик давлат миқёсида, шунингдек, Миллий гвардия тизимида нафақат касблар, лавозимлар,

мутахассисликлар, балки турли бўлимларда ишлайдиган барча ҳарбий мутахассисларнинг ўқув профилларини инвентаризация қилиш, уларнинг янада оқилона касбий қўлланилишини аниқлаш зарур.

Ҳозирги вақтда Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ва Миллий гвардия учун 7 та олий ўқув юртлари: 1 та университет, 4 та ҳарбий академия, 2 та ҳарбий университет ва институтлар учун ҳарбий мутахассислар тайёрланмоқда. Умуман олганда, ҳарбий таълим тизимида Миллий гвардия учун зарур бўлган барча мутахассисликлар бўйича, шунингдек, қонун ҳужжатларида ҳарбий хизмат назарда тутилган бошқа вазирлик ва идоралар, қатор хорижий давлатлар ҳарбий хизматчиларини малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш курслари ташкил этилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардиясини янада ислоҳ қилиш муносабати билан ҳарбий олий ўқув юртларининг умумий салоҳиятини ошириш ва уларнинг моддий-техник жиҳатдан янада такомиллаштириш керак бўлади. Бироқ, ҳарбий академиялар ва университетларда Ўзбекистон Республикаси Президенти, Олий Бош Қўмондон таклиф ва ташаббуслари билан мамлакатдаги барча ҳарбий олий таълим муассасалари қайта ташкил этилди ёки реконструкция қилинганлигини яққол кўришимиз мумкин. Мамлакатимизда Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларини ташкил этилганлиги ва Ватан ҳимоячилари куни муносабати билан ҳар йили январь ойида ўтказиладиган Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Хавфсизлик кенгашида ҳарбий таълим муассасалари тармоғини оптималлаштириш бўйича аниқ масалалар кўриб чиқилади.

Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги ва бошқа мутасадди ташкилотлар Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Хавфсизлик кенгашига, энг ривожланган давлатлар тажрибасини ўрганиб, янгича тарзда урушларга ва ҳар қандай турдаги жамоат тартиби ва хавфсизлигига раҳна солувчи таҳдидларга тайёр бўладиган “Ҳарбий таълим тизимини янада такомиллаштириш режаси” лойиҳасини тақдим этиши керак. Ушбу ҳужжат нафақат Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги ва Миллий гвардия тизимида, балки фуқаролик олий таълим муассасаларида, биринчи навбатда, ижтимоий, гуманитар, иқтисодий ва баъзи муҳандислик мутахассисликлари бўйича ҳарбий хизматчиларни тайёрлашнинг янги тизимини назарда тутиши лозим. Шу билан бирга, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети ҳарбий таълим тизимини янада ислоҳ қилиш бўйича ўқув дастурларини замонавий ахборот-коммуникация технологияларини қўллаган ҳолда бойитиб боришлари талаб этилади.

Ушбу ўқув дастури қуйидаги масалаларни ўз ичига олиши керак:

- ҳарбий таълимнинг идоравий тизимлари интеграцияси;

- идоравий мансублигидан қатъи назар, барча ҳарбий таълим муассасалари фаолиятини тартибга солувчи ягона меъёрий-ҳуқуқий базани ишлаб чиқиш;

- ҳарбий мутахассисликларнинг ягона рўйхатини шакллантириш;

- ҳарбий мутахассисларни юқори лавозимни эгаллашгача тайёрлаш ва қайта тайёрлашни марказлаштирилган мақсадли молиялаштиришни амалга ошириш чора-тадбирларини ишлаб чиқиш. Ва энг муҳими, ушбу ўқув дастурлари ҳарбий илмий тадқиқотлар бўйича миллий курсни ўташи, оддий юқори аниқликдаги қуроллардан фойдаланган ҳолда контактсиз урушларнинг шакллари ва усулларини ўрганиши керак. Албатта, бу чора-тадбирларни барқарор молиялаштириш ва моддий таъминот мавжуд бўлгандагина амалга ошириш мумкин. Ҳозирги кунда ҳарбий олий ўқув юртлари қурол ва ҳарбий техниканинг янги моделлари, симуляторлар, лаборатория ва синов ускуналари, замонавий компьютер технологиялари билан янада бойитиш керак деб ўйлаймиз. Ҳарбий олий ўқув юртларини ёқилғи ва ўқ-дорилар билан таъминлаш билан боғлиқ муаммолар туфайли жанговар машиналарни ҳайдаш, парвозлар, отиш амалиёти ва дронларни ўрганиш ва учириш бўйича қилинаётган ишлар етарли даражада эмас. Натижада, қўшинлар ва бошқармалар олий ўқув юртлари битирувчиларини тайёрлаш сифати, айниқса, уларнинг амалий билим ва кўникмалари даражаси тўғрисида асосли даъволар билдирмоқда. Ўзбекистонда илмий-тадқиқот институтлари ва ташкилотларида тўпланган илмий мутахассислар билан боғлиқ муаммолар жиддий таҳлил қилишни ва уларни ҳал қилиш чораларини ишлаб чиқишни талаб қилади. Илмий-тадқиқот институти ходимларининг илмий малакасининг кескин пасайиши, юқори сифатли ҳарбий илмий маҳсулотлар яратиш қобилиятининг реал йўқотишлари бошқа сабаблар қаторида ходимлар бўйича сиёсатидаги камчиликлар, ҳарбий хизмат тўғрисидаги қонун ҳужжатларининг номукаммаллиги билан изоҳланади.

Ҳарбий институтлар илмий салоҳиятининг асосини ташкил этган ҳарбий хизматчи фан докторлари ва номзодлари (PhD)нинг зарур сонини кўпайтириш, илмий бўлинмалар умумий сонида аттестациядан ўтган олимлар улушини ошириш ҳақида ғамхўрлик қилиш зарур. Ҳарбий ислоҳотнинг долзарб муаммолари, Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ва Миллий гвардиядан фойдаланиш шакллари ва усуллари бўйича янги шароитларда юқори сифатли илмий тадқиқотларни таъминлашга қодир бўлган барча даражадаги илмий муассасаларнинг ҳарбий раҳбарларининг янги авлодини, асосан йирик ҳарбий олимларни замонавий шароитларда ва келажакда шакллантиришдан иборатдир. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ва Миллий гвардиянинг энг яхши мутахассислари ва олимларини бошқа ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларига

юқори даражадаги иш ҳақи ва уларга киритилган бошқа имтиёзлар ёрдамида алмаштириш амалиётига йўл қўймаслик керак деб ҳисоблаймиз.

Миллий гвардия ҳарбий хизматчи ва ходимлари салоҳиятини шакллантириш ва амалга ошириш бўйича янги билим тизимини яратиш зарурияти билан боғлиқ масалаларни назарий ва услубий жиҳатдан таҳлил қилиш мустаҳкам илмий базани яратишни тақозо этади. Шу боис, “ҳарбий мутахассисларни ўрганиш” ни кўриб чиқиш таклиф этилади . Бугунги кунда у кадрлар тўғрисидаги амалий фан сифатида қўлланилмоқда ва ходимларни бошқаришнинг барча жиҳатлари ҳақидаги билимларни ўз ичига олади. Ушбу мақсадлар учун Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Марказий девони Кадрлар билан ишлаш бошқармаси ҳузурида ходимлар масалаларини ўрганиб чиқиш учун экспериментал марказни (5-7 олим ва 6-8 амалиётчи - ҳарбий кучлар вакиллари) яратиш таклиф этилади. Бизга ходимлар бўйича янги технологиялар ва уларни амалга оширишда ходимлар бўйича иш самарадорлигини оширадиган мутахассислар керак. Сўнгги йиллардаги трансформациялар амалиёти шуни кўрсатдики, интеллектуал базани йўқ қилиш осон, лекин уни тиклаш учун ўнлаб йиллар керак бўлади. Ҳарбий ривожланишни ходимлар билан таъминлашнинг ушбу ва бошқа муаммоларини ҳал қилмасдан, қўшинларни ислоҳ қилиш бўйича дастур ва режаларни, давлатнинг ҳарбий ташкилоти элементларини ва умуман ҳарбий ислоҳотларни сифатли амалга оширишга умид қилиш ҳақиқатга тўғри келмайди.

Ҳарбий кадрлар ва етакчи ҳарбий мутахассислар салоҳиятини шакллантириш ва амалга ошириш бўйича ижтимоий-ҳуқуқий соҳадаги тавсиялар ишлаб чиқилиши керак. Ҳарбий хизматчиларнинг умумий фуқаролик-сиёсий ҳуқуқ ва эркинликларини ҳурмат қилиш, уларни бюрократия ва коррупциядан, расмиятчилик ва ҳурматсизликдан, ҳарбий шахс шаъни ва қадр-қимматини камситишдан ижтимоий-ҳуқуқий ҳимоя қилиш борасидаги ишларни янада кучайтириш зарур. Заҳирага ўтказилган ҳарбий хизматчиларнинг қонун ҳужжатларида назарда тутилган имтиёз ва нафақалардан маҳрум бўлиб қолишига йўл қўймаслик, уларни ижтимоий таъминлашга катта эътибор қаратиш лозим. Ҳарбий кадрлар сиёсати армияга чақирилган ва қайта тайёрлаш мақсадида заҳирага ўтказилган контингентга нисбатан ва ундан кейин фойдаланиш учун фуқаролик бўлимлари (Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги ва унинг жойлардаги бўлимлари, ҳудудий мономарказлар, ҳарбийларни қайта тайёрлаш марказлари, корхоналар, меҳнат биржалари, меҳнат ярмаркалари) билан келишилган бўлиши керак. Биз заҳирага ўтказилган офицерларни ишга жойлаштириш ва қайта тайёрлаш дастурларини жорий этиш ҳақида ғамхўрлик қилишимиз керак.

Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардия тизимларида ҳарбий хизматни ўташ муддати тугаган илмий, педагогик ва илмий ходимларни сақлаб қолиш бўйича умуммиллий чоралар кўрилиши зарур. Бугунги кунда илмий, педагогик ва илмий мутахассисларини тайёрлаш ва аттестациядан ўтказишнинг мавжуд тизими олимларни янги молиявий-иқтисодий шароитларда тайёрлаш ва уларни тайёрлаш харажатларини минималлаштириш билан боғлиқ муаммоларни мослашувчан ва самарали ҳал қилмайди. Бу олий таълимдан кейинги таълим тизими - докторантура ва аспирантурада олимларни тайёрлаш учун қўшимча моддий харажатларсиз университетларининг илмий салоҳиятини оширишни таъминлаш имконини беради. Шу муносабат билан қуйидагилар тавсия этилади:

- хизмат муддатини узайтириш орқали ўз илмий мактабларини яратган энг фаол DSc фан докторлари ва PhD фалсафа докторларини ҳарбий хизматда сақлаб қолиш сиёсатини давом эттириш;

- Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси тизимлари ва Жамоат хавфсизлиги университетида раҳбарлик лавозимларига номзодларни танлаш сифатини ошириш;

- офицерлар таркибидан олимларни тайёрлаш учун Жамоат хавфсизлиги университетида Олий таълимдан кейинги таълим босқичида мустақил изланувчиларни кенг жалб этиш;

- Жамоат хавфсизлиги университети магистратура босқичи битирувчиларини тегишли ходимлар органларига тақсимланиши устидан назоратни кучайтириш мақсадида талабаларнинг сифат таркиби ва улардан кейинги фойдаланиш йўналишлари бўйича маълумотлар базасини яратиш.

Ҳарбий хизматчи ва ходимлар салоҳиятини шакллантириш ва амалга оширишнинг ҳарбий-ҳуқуқий соҳасини ривожлантириш бўйича тавсиялар бўлиши лозим. Ҳарбий хизматчи ва ходимларнинг асосий ҳуқуқлари, эркинликлари ва мажбуриятлари билан боғлиқ соҳаларни қамраб оладиган фуқаролик назоратини кучайтириш зарур. Миллий гвардия шахсий таркибига давлат томонидан ҳали тўлиқ таъминланмаган қисмига ижтимоий-ҳуқуқий хавфсизлик ва ҳуқуқий кафолатларга риоя этиш чораларини ко‘риш зарур. Миллий гвардия тизимидаги ҳар бир ҳарбий хизматчи ва ходим Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва давлатнинг қонун ҳужжатлари билан унга берилган ҳуқуқлардан амалда фойдаланиш имкониятига эга бўлиши керак.

Ҳарбий хизматчи ва ходимлар салоҳиятини шакллантириш ва амалга оширишда ҳарбий-иқтисодий ва ҳарбий-молиявий қўллаб-қувватлаш бўйича тавсиялар мавжуд, жумладан: Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардиясини янада ислоҳ қилиш ва ҳарбий мутахассислар салоҳиятини шакллантириш учун ажратилган молиявий маблағларнинг сарфланиши устидан назоратни кучайтирилиши зарур. Ҳарбий-саноат комплексидан улар етказиб беришга тайёр

бўлган қуролларни эмас, балки ўтиш даврида ҳам, янги авлод урушларида ҳам давлатнинг ҳарбий хавфсизлигини таъминлаш учун зарур бўлган қуролларни сотиб олиш керак. Миллий гвардия қурилишидаги бузилишларга йўл қўймаслик керак, чунки, баъзи турларга ривожланиш имконияти берилганда, бошқалари эса ривожланишни тўхтатиши мумкин. Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардиясининг жанговар тайёргарлигининг энг муҳим шартларидан бири уларнинг нафақат маънавий-маърифий жиҳатдан етуклиги балки жанговар ва тезкор тайёргарлигини молиялаштириш бўлиб, бу ҳарбий мутахассислар салоҳиятини шакллантиришга бевосита таъсир қилади. Жойлардаги батальон ва ҳарбий қисмларнинг барча режалаштирилган машғулотлари бажарилиши, жамоат жойлари, бозорлар, истироҳат боғлари, парклар, санъат саройлари, стадионлар ва бошқа оммавий тадбирлар ўтказиладиган жойларда топшириқларни бажариш режали асосда бажаришлари зарурдир.

Миллий гвардия ҳарбий хизматчи ва ходимларининг салоҳиятини шакллантиришда маънавий, ватанпарварлик ва инсонпарварлик руҳида қўллаб-қувватлаш бўйича тавсиялар ишлаб чиқилди. Ўзбекистонда бутун аҳолининг ҳарбий-ватанпарварлик ва маънавий тарбиясини тиклаш керак. Бу нафақат аҳолининг бугунги ҳарбий хизматга бўлган муносабати, балки яқин келажакдаги муносабатининг ривожланиб бориши ҳам муҳимдир. Биз мамлакатнинг ўтмишдаги қаҳрамонлигини унутмаслигимиз ва ҳарбий хизматчи ва ходимларимизнинг жасорати ва фидойилигининг ички намуналарини устувор вазифа сифатида тақдим этишимиз керак. Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси замонавий ислоҳ қилиш шароитида инсонпарварлик ва ҳарбий хизматчиларнинг шахсиятига ҳурмат қуйидагиларни назарда тутиши лозим:

- ташаббускорлик, истеъдод, ҳарбий-касбий маҳорат, ижодий қобилиятларни кафолатланган ривожланиши, фундаментал таълим олиш;
- ахборот ва маданий эҳтиёжларни максимал даражада қондириш;
- кўпинча мартаба ўсиши шартларидан бири бўлган протекционистик, хизмат-спекулятив ва одатий-бюрократик муносабатларнинг ёвуз тизимидан ҳимоя қилиш;
- гуманистик диний анъаналарга риоя қилиш ҳуқуқини бериш;
- ҳарбий мутахассисларнинг шахсий ҳиссасини, уларнинг ҳарбий мутахассисликлар ва хизмат вазифаларини ўзлаштиришдаги ютуқларини рағбатлантириш.

ҚЎРИҚЛАШ ХИЗМАТИ ФАОЛИЯТИДА ҚЎРИҚЛАНАДИГАН ОБЪЕКТЛАРДА ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Шокиров Фаррухбек Одилжон ўғли
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети мустақил изланувчиси e-mail: farruxbekshokirov94@gmail.com
телефон: +99899 707 90 44

Аннотация: Ушбу тезисда қўриқлаш хизматининг қўриқланадиган объектлар ҳудудида ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш борасида амалга ошираётган фаолиятининг ҳуқуқий асослари комплекс тарзда таҳлил этилади. Амалдаги миллий қонунчилик, жумладан "Қўриқлаш фаолияти тўғрисида"ги Қонун, Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекс нормалари ҳамда уларда қўриқлаш хизмати субъектларининг профилактикага оид ваколатлари, ҳуқуқ ва мажбуриятлари қай даражада аниқ ва тизимли равишда ҳуқуқий жиҳатдан мустаҳкамлангани ўрганилади. Тадқиқот доирасида қўриқланадиган объектлар ҳудудида содир этиладиган ҳуқуқбузарликларни олдини олиш, уларни барвақт аниқлаш ва нейтраллаштириш механизмларини ҳуқуқий жиҳатдан такомиллаштириш бўйича илмий асосланган таклиф ва тавсиялар илгари сурилади. Шунингдек, ривожланган давлатлар тажрибасини ҳисобга олган ҳолда, қўриқлаш хизматининг профилактика фаолиятини "демократик полиция" стандартлари, жамоатчилик иштирокини кучайтириш ва ҳуқуқий кафолатлар билан уйғунлаштириш зарурлиги асослаб берилади.

Калит сўзлар: қўриқлаш хизмати, қўриқланадиган объектлар, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, ҳуқуқий асослар, маъмурий жавобгарлик, профилактика механизми, демократик полиция, жамоат хавфсизлиги.

Бугунги кунда Янги Ўзбекистонда олиб борилаётган туб ислоҳотлар шароитида жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва ҳуқуқбузарликлар профилактикаси масаласи давлат сиёсатининг энг устувор йўналишларидан бирига айланди. *"Ўзбекистон — 2030"* стратегияси тўғрисидаги ПФ-158-сон Фармонда[1] белгиланган устувор мақсадлар ва *"Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида"*ги Қонуни[2] ҳамда *"Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-*

[1] *Мирзиёев Ш.М.* "Касбий таълимда малакали кадрлар тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш ва халқаро таълим дастурларини жорий қилиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ 158-сон Фармони // https://lex.uz/docs/7166588

[2] Ўзбекистон Республикасининг "Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида"ги ЎРҚ-371-сон Қонуни // https://lex.uz/docs/2387357

тадбирлари тўғрисида”[1]ги Фармонида белгиланган вазифалар 2025 йилда *“ҳар бир маҳаллада ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш”*ни барча масъул идоралар учун марказий йўналиш сифатида белгилади. Бу эса *маҳалла — туман — вилоят* даражаларида аниқ жавобгарлик занжирини шакллантириш, жиноят содир этилган маҳаллалар бўйича чораклик манзилли чора-тадбирлар режаларини қабул қилиш, криминоген вазияти оғир ҳудудларда илмий-амалий ўрганишлар ўтказиб, асл сабаб-омилларни бартараф этиш каби вазифаларни тизимли бажаришни талаб қилади.

Шу ўринда, қўриқлаш хизмати — давлат, ўта муҳим ва бошқа тоифаланган объектлар, йирик бозорлар, транспорт ва ижтимоий инфратузилма пунктларида хавфсизликнинг *“биринчи чизиғи”* сифатида — барвақт профилактика, риск-идентификация, кириш-чиқишни ҳуқуқий тартибга солиш, мониторинг ва маълумот алмашинувини таъминлашда ҳал қилувчи ўринга эгадир. Мавзунинг долзарблиги шундаки, бугунги кунда қўриқланадиган объектлар ҳудудида профилактик фаолиятнинг ҳуқуқий асосларини таҳлил қилиш орқали *қўриқлаш хизматининг ваколат ва масъулият чегараларини аниқлаш, маҳалла даражасидаги барвақт профилактика билан амалда интеграцияланадиган механизмларни (манзилли режалаштириш, ҳисобдорлик ва индикаторлар) қонунчиликда мустаҳкамлаш, инсон ҳуқуқлари, мутаносиблик ва қонунийлик кафолатларини амалиётга татбиқ этиш, идоралараро ҳамкорлик ва рақамли маълумот алмашинувини нормалаштириш* ҳамда *жиноятчиликнинг содир этилишидан олдин хавф-хатарларни барвақт аниқлашга йўналтирилган рискга асосланган бошқарувни ҳуқуқий жиҳатдан таъминлаш имкони яратилади*. Натижада қўриқлаш хизматининг профилактик мандати умуммиллий ислоҳотлар мантиғига уйғунлашиб, жойларда криминоген вазиятни барқарорлаштириш, объектларда тартиб-назоратни кучайтириш ва аҳоли хавфсизлик ҳиссини оширишга қаратилган ҳуқуқий-институционал базани мустаҳкамлайди.

Шу ўринда, *бугунги кунда янги Ўзбекистон Қонунчилик маълумотлари миллий базасида айнан қўриқлаш бош бошқармаси фаолиятини ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солувчи нечта турдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар амалда ва улардан неча фоизи айнан жамоат тартибини таъминлаш даврида аниқланган ҳуқуқбузарликлар билан боғлиқ вазифаларни ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солмоқда?* деган ўринли савол юзага келади.

Олиб борилган илмий изланишлар ва амалдаги меъёрий базанинг тизимли таҳлили шуни кўрсатадики, ҳозирги кунда Миллий қонунчилик тизимида айнан Қўриқлаш бош бошқармаси (ҚББ) фаолиятини тартибга солишга дахлдор жами 45 та норматив-ҳуқуқий ҳужжат мавжуд. Ушбу ҳужжатлар мазмуни, ҳуқуқий кучи

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-27-сон Фармони // https://lex.uz/docs/5749291

ва амал қилиш доираси мезонлари асосида шартли равишда қуйидаги беш тоифага гуруҳланади:

биринчи тоифадаги ҳужжатларга *– базавий қонунлар ҳамда Президент фармони ёҳуд қарорлари;*

иккинчи тоифадаги ҳужжатларга *– Вазирлар Маҳкамаси қарорлари;*

учинчи тоифадаги ҳужжатларга *– идоралараро ва идоравий низомлар, йўриқномалар ва стандартлар;*

тўртинчи тоифадаги ҳужжатларга *– маълумотлар базалари, кадрлар тайёргарлиги ва рухсат-лицензиялашга оид ёрдамчи тартиблар;*

бешинчи тоифадаги ҳужжатларга *– маъмурий жавобгарлик ва процессуал тартибни белгилайдиган умумий кодекслар.*

Мазкур норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ўз навбатида жамоат тартибини таъминлаш даврида аниқланадиган ҳуқуқбузарликлар устидан таъсир чораларини, ҳуқуқий тартиб-назоратни, иш юритиш ва қарор қабул қилиш ваколатларини энг аввало ***биринчи, иккинчи*** ва ***учинчи тоифадаги ҳужжатлар*** тўғридан-тўғри белгилайди. *Масалан, "Миллий гвардия тўғрисида"*ги Қонун ҚББнинг жамоат хавфсизлиги, тартиб-интизом ва маъмурий ишлар юритишда иштирок этиш вазифаларини конституциявий-қонуний меъёрлар даражасида мустаҳкамлайди[1]. *"Қўриқлаш фаолияти тўғрисида"*ги Қонун эса давлат органлари ва ҚББнинг ваколатларини, объектлар рўйхатини тасдиқлаш ва шартнома-қўриқлаш моделидаги масъулиятни белгилайди[2].

Президент қарорлари жумладан, 2021 йил 20 февралдаги *"Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси қўриқлаш бош бошқармасининг фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида"*ги ПҚ-4997-сон қарори айнан ҚББнинг ташкилий-ҳуқуқий архитектурасини, тузилмавий бўлинмаларини ва уларнинг профилактик мандатини аниқлайди[3], 2025 йил 3 январдаги *"2025 йилда республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида"*ги ПҚ-1-сон[4] ҳамда 2025 йил 18 августдаги *"Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим қарорларига маҳаллаларда жиноятчиликнинг барвақт*

---

[1] *"Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси тўғрисида"*ги № 647-сон Қонуни, 18.11.2020; кучга кириш санаси: 20.05.2021. (Миллий гвардияга жамоат хавфсизлиги ва маъмурий ишлар юритишда иштирок этиш вазифалари юкланади). Lex.uz

[2] Ўзбекистон Республикасининг "Қўриқлаш фаолияти тўғрисида"ги ЎРҚ647-сон Қонуни // https://lex.uz/docs/6066682

[3] *Мирзиёев Ш.М.* "Ўзбекистон Республикаси миллий гвардияси қўриқлаш бош бошқармасининг фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қонуни // https://lex.uz/ru/docs/5300150

[4] *Мирзиёев Ш.М.* "2025 йилда республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида"ги Қарори // https://lex.uz/docs

*олдини олиш тизими натижадорлигини янада оширишга қаратилган ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”*ги ПҚ-253-сон[1] Қарорлар эса маҳалла даражасида барвақт профилактика ва ҳуқуқбузарликлар профилига мос таргетланган чора-тадбирлар тизимини белгилаб, ҚББнинг дастурий-операцион вазифаларига тўғридан-тўғри имплементация нуқталарини киритади. ***Иккинчи тоифадаги ҳужжатлар*** бўлса Вазирлар Маҳкамаси қарорларини ўзида акс этирган *“умуртқа устуни”* сифатида хизмат қилувчи ҳужжатлар бўлиб, мазкур ҳужжатлар мазмунига кўра маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишни/баённомани кўриб чиқишга *(маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги баённомаларни тузишга, иш қўзғашга)* ваколатли органлар классификатори[2]ни ўзида қамраб олган. Шунингдек, идоравий-ҳарбийлаштирилган қўриқлаш бўлинмаларига оид намунавий низом ва ҳамкорлик тартибини, шунингдек хабарлашув-алоқа алгоритмларини ўрнатишга хизмат қилади[3]. ***Бешинчи тоифадаги ҳужжатларда*** эса Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекс маъмурий иш юритишнинг умумий қоидаларини, компетенция ва процессуал кафолатларни белгилайди; охирги йиллардаги тузатишлар миллий гвардия органларининг муайян моддалар бўйича ишлар кўриш шунингдек, ҳужжатлаштириш ваколатларини кенгайтиргани билан аҳамиятлидир[4]. Шу фонда учинчи ва тўртинчи тоифадаги ҳужжатлар институционал қувватни таъминлайди. Бунда идоравий низомлар орқали ҳудудий-секторал мослашув, кадрлар тайёргарлиги, рақамлаштирилган ҳисоб-китоб ва рухсат-бериш жараёнлари ишлайди[5]. Демак, 45 та ҳужжатнинг тизимли таҳлили ҚББ учун *“қонун → сиёсий қарор → нормотворчилик деталлашуви → идоравий стандарт → процессуал кодекс”* занжирида яхлит ва иерархик изчиллик мавжудлигини, жамоат тартибини таъминлаш даврида аниқланадиган ҳуқуқбузарликлар бўйича ваколатлар эса айнан *биринчи, иккинчи* ва *бешинчи тоифалардаги нормаларда* бевосита ифода топганини тасдиқлайди.

---

[1] Мирзиёев Ш.М. “Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим қарорларига маҳаллаларда жиноятчиликнинг барвақт олдини олиш тизими натижадорлигини янада оширишга қаратилган ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги ПҚ-253-сон қарори // https://lex.uz/docs/7690026

[2] Маъмурий ҳуқуқбузарлик содир этган шахслар ва маъмурий ҳуқуқбузарлик йўли билан маънавий, жисмоний ёки мулкий зарар етказилган шахсларни марказлаштирилган ҳисобга олиш тартиби тўғрисидаги низомга 8-илова // https://lex.uz/docs/3723808

[3] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Идоравий ҳарбийлаштирилган қўриқлаш ҳамда идоравий қоровуллик бўлинмалари фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 630-сон Қарори // https://lex.uz/uz/docs/6266410 // Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишда давлат органлари ва ташкилотлари идоравий қоровуллик бўлинмаларининг фаолияти самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 598-сон Қарори // https://lex.uz/docs/6236977

[4] Ўзбекистон Республикасининг “Маъмурий жавобгарлик тўғрисида”ги кодекс (22.09.1994) — маъмурий иш юритишнинг умумий қоидалари ва процессуал кафолатлари // https://lex.uz/docs/97664

[5] Ўзбекистон Республикасининг *“Лицензиялаш, рухсат бериш ва хабардор қилиш тартиб-таомиллари тўғрисида”*ги Қонуни // https://lex.uz/docs/5511879

Ўтказилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар мониторинги шуни кўрсатадики, маъмурий ҳуқуқбузарликлар бўйича иш юритувида *(баённома тузиш, иш қўзғаш ва ишни кўриб чиқиш)* ваколатлар доираси бир қатор ҳужжатларда турлича ифодалангани сабабли ҳуқуқий аниқликка эҳтиёж мавжуд. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 3 майдаги 322-сон қарори билан тасдиқланган Низомга илова сифатида шаклланган *“ваколатли органлар классификатори”*да жами 46 та орган кўрсатилган бўлиб, улар орасида 380-код билан Миллий гвардия органлари (44-ўрин) ва 381-код билан алоҳида махсус субъект сифатида Қўриқлаш бош бошқармаси (ҚББ) (45-ўрин) қайд этилган. Бу маъмурий иш юритуви занжирида ҚББнинг субъект сифатида эътироф этилганини англатади[1].

Бироқ амалдаги Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг III-бўлими *(“Маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни кўриб чиқишга ваколати бўлган органлар”)* ҳамда XVIII-боби *(“Ишларнинг тааллуқлилиги”)* матнида ҚББ мустақил махсус субъект сифатида қайд этилмаган. Нормалар иерархияси нуқтаи назаридан (*lex superior* ва *lex specialis* мезонлари) паст даражадаги классификаторда субъект сифатида мавжуд тузилманинг Кодекс матнида акс этмаслиги ҳуқуқий аниқсизлик ва амалий қийинчиликлар келтириб чиқаради. Мазкур номуфофиқлик идора ходимлари томонидан тузилган процессуал ҳужжатларнинг ҳуқуқий кучини шубҳа остига қўйиш, ваколатдан чиқиш *(ultra vires)* хатари, далилларнинг йўл қўйилмаслиги, иш юритуви натижаларининг судда бекор қилиниши эҳтимоли ошади[2].

Амалий жиҳатдан мазкур бўшлиқ 2023 йил 28 август куни Миллий гвардия қўмондони ташаббуси билан қабул қилинган, техник қўриқлаш марказларининг тезкор ҳаракатланувчи гуруҳлари (ТҲГ) фаолиятини такомиллаштиришга доир буйруқ ижросида ҳам намоён бўлади. Жумладан, ТҲГ ҳодиса жойига етиб келган пайтда маъмурий процессуал таъсир чораларини қўллашнинг аниқ ҳуқуқий асос ва тартиб-қоидалари Кодекс даражасида белгилаб қўйилмагани sабабли профилактик ва тартиб-интизомий таъсирнинг самараси пасаяди, идоралараро ҳамкорликда *“ваколат қопламаси”*даги бўшлиқлар юзага келади[3].

---

[1] ***“Ваколатли органлар классификатори”*** **(8-илова) — 322-сон ВМ қарори.** Амалдаги таҳрирда “380 — Миллий гвардия органлари”, “381 — Қўриқлаш бош бошқармаси” кодлари киритилган *(2025 йил 21 апрелдаги 247-сон ВМ қарори таҳрири қайд этилган).*

[2] МЖтК 242-модда ва Учинчи бўлим сарлавҳаси. Учинчи бўлим (маъмурий ишларга ваколатли органлар), 242-модданинг 1 ва 4-бандларида судлар, болалар масалалари бўйича комиссиялар ҳамда “ички ишлар органлари…, давлат инспекцияси органлари … ва ушбу Кодекс билан ваколат берилган бошқа органлар” санаб ўтилади; ҚББ алоҳида субъект сифатида тилга олинмаган // МЖтК XVIII боб — “Ишларнинг тааллуқлилиги”. Боб сарлавҳаси ва 245-моддадан бошланган нормалар ишларни тааллуқлилиги тартибини белгилайди; ҚББ номма-ном кўрсатилмаган (бу ҳолат классификатордаги алоҳида субъект сифатидаги қайд билан ҳуқуқий диссонансни келтиради).

[3] Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Қўмондони Р.Джураевнинг 2023 йил 28 августдаги “Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Қўриқлаш бош бошқармаси техник

Юқоридаги маълумотлар мазмунидан келиб чиқиб, қиёсий-ҳуқуқий таҳлил шуни кўрсатадики, маъмурий иш юритуви занжирида ваколатлар аниқлиги, очиқлиги ва ҳисобдорлиги демократик полициянинг асосий талаблари сифатида эътироф этилади. ОЖТ/ОБСЕнинг *"Democratic Policing"* қўлланмаси полиция ваколатларини қонун билан аниқ белгилаш ва бу ваколатлар устидан жамоатчилик ҳамда институтционал назоратни таъминлашни ядровий принцип деб баён этади. Шунингдек, БМТ НТБ (UNODC)нинг полиция ҳисобдорлиги бўйича қўлланмаси эса ички-ташқи текширув механизмлари, процедуравий шаффофлик ва мансабдор шахслар рўйхатини тизимли юритишни асосий стандарт сифатида тавсия қилади[1].

Германия тажрибасида OWiG §36 маъмурий ҳуқуқбузарликлар бўйича иш юритишда *"ким"* қарор қабул қилишини федерал ёки ер (Land) даражасидаги меъёрлар орқали аниқ белгилайди. Норма *"субъект–ихтиёрлар–масъулият"* учлигида аниқлик яратиб, судолди босқичида юрисдикция коллизияларини минималлаштиради ва қарорларнинг барқарорлигини оширади[2].

Австрияда VStG §50 *"Organstrafverfügung"* орқали махсус тайёргарликка эга назорат органларига айрим ҳуқуқбузарликлар бўйича жойида (on-the-spot) жарима солиш ваколати берилади. Норма hafaqat ваколат доирасини, балки процессуал реквизитларни *(ҳуқуқбузарлик тавсифи, вақти-жойи, жарима миқдори, орган номи)* ҳам қатъий рўйхатлайди — бу эса тезкор профилактик таъсир билан бирга ҳуқуқий аниқликни кафолатлайди[3].

Россия Федерациясида КоАП РФ 28.3-моддаси протокол тузишга ваколатли мансабдорлар тоифасини тармоқлар кесимида батафсил санаб ўтади; ушбу рўйхат ваколатли федерал ижроия органлари томонидан тасдиқланади. Секторларга бўлинган, кўп босқичли делегация модели процедуравий масъулият нуқталарини ойдинлаштириб, статистик ҳисоб ва хизмат назоратини осонлаштиради[4].

Ҳорижий илмий-назарий адабиётларда ҳам ваколатларнинг аниқ ҳуқуқий типизацияси полицияни демократиклаштириш ва натижага йўналтирилган бошқарув учун шарт экани таъкидланади. *Дэвид Бэйли* полицияни демократиклаштиришда ҳуқуқий аниқлик ва ҳисобдорликни *"институционал архитектура"*нинг ўзаги деб кўрсатса, *Герман Голдстейннинг* "муаммога

қўриқлаш марказлари тезкор ҳаракатланувчи гуруҳларининг фаолиятини янада такомиллаштириш чора тадбирлари тўғрисида"ги 221-сон буйруғи

[1] Guidebook on Democratic Policing by the Senior Police Adviser to the OSCE Secretary General // https://www.osce.org/files/f/documents/5/3/23804

[2] Gesetz über Ordnungswidrigkeiten (OWiG) § 36 Sachliche Zuständigkeit der Verwaltungsbehörde // https://www.gesetze-im-internet.de/owig_1968/__36.html

[3] Bundesrecht konsolidiert: Verwaltungsstrafgesetz 1991 § 50, Fassung vom 27.06.2018 // https://www.ris.bka.gv.

[4] Code of Administrative Offences of the Russian Federation No. 195-FZ of December 30, 2001 (as amended up to Federal Law No. 446-FZ of December 29, 2017), Russian Federation // https://www.wipo.int/wipolex/en/legislation/details/17708

йўналтирилган полиция” (POP) концепцияси аниқ ваколат ва жараёнлар деталлашувини натижавийликни оширишнинг амалий йўли сифатида асослайди[1].

Юқоридаги таҳлиллардан келиб чиқиб, Ўзбекистон Республикаси МЖтКнинг *“Маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни кўриб чиқишга ваколати бўлган органлар (мансабдор шахслар)” деб номаланган* ***242-моддасини*** *қуйидаги янги таҳрирда баён этиш мақсадга мувофиқдир.*

1. *Маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишлар қонунда назарда тутилган ҳолларда судлар, шунингдек ушбу Кодексда белгиланган давлат органлари ва мансабдор шахслар томонидан кўриб чиқилади.*

2. *Ушбу Кодексда назарда тутилган ҳолларда, қуйидаги органлар ва мансабдор шахслар маъмурий ишларни кўриб чиқишга ҳақли:*

а) ички ишлар органлари — ушбу Кодексда белгиланган доирада;

b) давлат назорати (инспекция) органлари — уларнинг ваколат соҳалари доирасида;

с) божхона, солиқ ва бошқа ваколатли органлар — ушбу Кодексда белгиланган моддалар кесимида;

d) ***Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси органлари, шу жумладан Қўриқлаш бош бошқармаси — ушбу Кодекснинг 248[1]-моддасида назарда тутилган тартиб ва ҳажмда.***

3. *Миллий гвардия органлари томонидан маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни кўриб чиқишнинг тааллуқлилиги, шу жумладан* ***Қўриқлаш бош бошқармаси****га тааллуқли ҳолатлар, ушбу Кодекснинг XVIII-бобида назарда тутилган қоидаларга мувофиқ белгиланади.*

4. Қўриқлаш бош бошқармаси *қўриқланадиган объектлар ва уларга туташ ҳудудларда объект режими, хавфсизлик, кириш-чиқиш тартиби ҳамда жамоат тартибига дахлдор ҳуқуқбузарликлар бўйича маъмурий иш юритувини ушбу Кодексда белгиланган тартибда амалга оширади.*

5. *Миллий гвардия органлари номидан маъмурий ишларни кўриб чиқишга ва (ёки) баённома тузишга ҳақли мансабдор шахслар қуйидагилардан иборат:*

а) Миллий гвардия органларининг ушбу Кодексда белгиланадиган лавозимдор шахслари;

b) ***Қўриқлаш бош бошқармаси бошлиғи ва унинг ўринбосарлари; ҚББ ҳудудий бўлинмалари раҳбарлари; шунингдек ушбу Кодекс ва қонун ҳужжатларида назарда тутилган бошқа мансабдор шахслар.***

6. *Ушбу модда бўйича ваколатдор мансабдор шахсларнинг позицион рўйхати ва идентификацияси, шунингдек уларнинг процессуал ҳаракатларини амалга ошириш тартиби ушбу Кодексга мувофиқ қабул қилинадиган норматив-ҳуқуқий*

[1] *David H. Bayley* “Democratizing the Police Abroad: What to Do and How to Do It” // https://www.ojp.gov/pdffiles1/nij/188742.

ҳужжатларда белгилаб қўйилади; бунда қонуннинг устуворлиги ва процессуал кафолатлар таъминланади.

7. *Ушбу моддада назарда тутилган органлар ва мансабдор шахслар ўз ваколатларини ушбу Кодекс ва қонунларда белгиланган чеклардан чиқмаган ҳолда амалга оширади, шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларига риоя этилишини таъминлайди ҳамда қонунга мувофиқ ҳисобдор бўлади.*

Ушбу таклиф келажакда Қўриқлаш бош бошқармасини МЖтКнинг 242-моддаси мазмунига номма-ном интеграция қилиш натижасида кутиладиган ижобий ютуқлар қуйидагича кенгроқ илмий асосланади. Буларга:

Биринчидан, МЖтКнинг 242-моддаси матнига Қўриқлаш бош бошқармасини (ҚББ) номма-ном интеграция қилиш “умумий–махсус” нормалар иерархиясини *(242-модда → 248^1-модда → XVIII-боб)* ички уйғун тизимга келтиради; натижада **lex certa** (ҳуқуқий аниқлик) ҳамда **lex specialis derogat legi generali** тамойиллари амалда институционаллашади. Бу эса компетенциялар чегарасини ҳуқуқий техника мезонларига мувофиқ равшан белгилаб, идоралараро коллизияларни ва ишларни юбориш/ўтказишдаги транзакция харажатларини кескин қисқартиради.

Иккинчидан, процессуал иқтисодиёт ва **due process** кафолатлари кучаяди: тезкор (оператив) гуруҳларнинг ҳодиса жойида баённома тузиши, далилларни қайд этиши ва иш қўзғатиши қонун даражасида легитим асосга эга бўлади. Шу билан ўртача “чақирувдан иш қўзғатишгача” интервали қисқаради, протокол нуқсонлари ва судда бекор қилинган қарорлар улуши барқарор пасайиш трендига кириб, маъмурий адолатнинг барқарорлиги ошади.

Учинчидан, далиллар айланмаси сифати **chain of custody** *(далилларни сақлаш занжири)* стандартлари бўйича институционаллашади: стандартлашган шакллар, чек-листлар ва позицион ваколат рўйхатлари қўлланилиши орқали далилларнинг тегишлилик, ишончлилик ва йўл қўйилувчанлик мезонлари мустаҳкамланади; прецедент барқарорлиги ва судолди босқичдаги эпистемик сифат ошади.

Тўртинчидан, инсон ҳуқуқлари ҳимояси тизимида пропорционаллик, қонунийлик ва ҳисобдорлик тамойиллари амалда кучаяди. Ваколат чекларининг аниқ белгиланиши ортиқча ва номутаносиб таъсир чоралари рискларини профилактика қилади; шикоят–апелляция механизмларининг фаол ишлаши эса маъмурий юрисдикцияда шаффофлик ва ҳисобдорликни таъминлайди.

Бешинчидан, рақамли бошқарувда интероперабеллик ва **конкорданс** таъминланади: ВМҚ-322 классификаторидаги 380/381 кодлар билан *“Е-маъмурий иш”* ўртасидаги тегиш механизмлари барқарор ишлаб, маълумотлар алмашинувининг тезлиги ва аниқлиги ошади. Шу орқали реестрлар бирхиллиги сақланади, индикаторлар ҳисоботи ва мониторингнинг ишончлилиги юқори даражага кўтарилади.

Олтинчидан, кадрлар салоҳияти институционал стандартлар асосида ривожланади: ҚББ бошлиғи, ўринбосарлари ва ҳудудий бўлинмалар раҳбарлари учун мажбурий сертификация ва қисқа циклли процессуал тайёргарлик модуллари жорий этилган ҳолда компетенция-профиллар аниқ операционализация қилинади; натижада ҳуқуқни қўллаш амалиётида хатолар профилакцияси тизимли характер касб этади.

Еттинчидан, иқтисодий-маъмурий самарадорлик ошади: иш юритишнинг ўртача даври қисқаради, қайта кўриш ва бекор қилишлар улуши камаяди, хизмат харажатлари оптималлашади. Ресурсларни тақсимлашда “бир ойна”га яқинлашган жараёнлар харажат-самара нисбатини яхшилаб, маъмурий хизмат кўрсатиш тизимининг қиймат занжиридаги йўқотишлар (waste)ни қисқартиради.

Саккизинчидан, профилактика таъсири кучаяди: қўриқланадиган объектлар ва уларга туташ ҳудудларда майда ҳуқуқбузарликлар динамикаси пастга йўналган трендга ўтади, хавф-омиллар эрта аниқланади ва мутаносиб, ҳужжатлаштирилган чоралар қўлланилади. Бу, ўз навбатида, хавфни бошқариш матрицаларининг (risk matrices) амалда ишлашини таъминлайди.

Тўққизинчидан, ижтимоий капитал ва институционал ишонч индекси юксалади: ҳуқуқни қўллашда ягона тафсир, очиқлик ва ҳисобдорликнинг ортгани жамоат ишончини мустаҳкамлайди, идора-фуқаро муносабатларида легитимликни кучайтиради ва ҳуқуқ-тартибот субъектларининг социетал акцепциясини оширади.

Ўнинчидан, моделнинг модулли-масштабланувчан табиати туфайли тизим барқарор кенгаяди: меъёрий конструкция ва рақамли конкорданс бошқа ҳудуд ва объект тоифаларига тез татбиқ этилади, профилактикадан процессгача бўлган бутун циклда далилга асосланган (evidence-based) қарор қабул қилиш амалиёти институтционал нормага айланади. Шундай қилиб, таклиф этилаётган интеграция маъмурий юрисдикциянинг ҳуқуқий аниқлиги, процессуал самарадорлиги ва ҳуқуқий-информацион инфратузилмавий уйғунлигини бир вақтнинг ўзида оширадиган комплекс ислоҳот сифатида назарий-амалий рационалликка эга.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, МЖтКнинг 242-моддасига Қўриқлаш бош бошқармасини номма-ном интеграция қилиш “умумий–махсус” нормалар занжирини институтсионал жиҳатдан барқарорлаштириб, ваколат ва чекловлар аниқлигини (lex certa) таъминлайди, процессуал самарадорлик ҳамда далил-ашё айланмаси сифати ошишини кафоллайди, инсон ҳуқуқлари кафолатларини мустаҳкамлайди ва ВМҚ-322/Е-маъмурий иш билан рақамли конкордансни тўлиқ ишга туширган ҳолда жамоат ишончи ҳамда маъмурий адолат барқарорлигини юксалтиришга хизмат қилади.

№	Норма элементи	Аввалги ҳолат (амалдаги таҳрир)	Янгича таҳрир (лойиҳа)	Ўзгариш моҳияти	Кутиладиган амалий таъсир
1	Модданинг умумий конструкцияси	Умумий қоида: ишларни судлар ва ушбу Кодексда белгиланган давлат органлари/мансабдорлар кўриб чиқади. ҚББ номма-ном тилга олинмаган.	Умумий қоида сақланади, лекин **Миллий гвардия органлари, шу жумладан ҚББ** алоҳида бандда номма-ном кўрсатилди.	ҚББнинг субъект сифатида аниқ идентификацияси.	Ваколат юзасидан талқинлар қисқаради; ҳуқуқий аниқлик (lex certa) ошади.
2	Ваколатли органлар рўйхати (242-модда 2-қисм)	“Ички ишлар органлари…, давлат инспекциялари…, божхона, солиқ ва Кодексда ваколат берилган бошқа органлар” каби умумий саноқ.	2-қисмга янги банд (d) киритилди: “Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси органлари, шу жумладан Қўриқлаш бош бошқармаси — Кодекснинг 248^1-моддасида назарда тутилган тартиб ва ҳажмда.”	Умумий нормадан махсус нормага тўғридан-тўғри ҳавола.	Қонун қўллашда бир хиллик; судолди босқичда процессуал хатолар камаяди.
3	Тааллуқлиликка ҳавола	Тааллуқлилик масаласи XVIII-бобга юборилади, ҚББ махсус қайд этилмаган.	3-қисмда: ҚББга тааллуқли ҳолатлар XVIII-боб қоидаларига мувофиқ экани аниқ ёзилди.	ҚББ иштирокидаги ишларнинг юрисдикцияси равшанлашди.	Ишни “ўтказиш/юбориш”даги кечикишлар қисқаради.
4	ҚББнинг предмет соҳаси	Алоҳида тилга олинмаган.	4-қисм: **ҚББ — қўриқланадиган объектлар ва туташ**	Предмет-функционал доира аниқlandi.	Тезкор гуруҳлар ҳодиса жойида қонуний

№	Норма элементи	Аввалги ҳолат (амалдаги таҳрир)	Янгича таҳрир (лойиҳа)	Ўзгариш моҳияти	Кутиладиган амалий таъсир
			ҳудудларда объект режими, хавфсизлик, кириш-чиқиш тартиби ва жамоат тартибига дахлдор ҳуқуқбузарликлар бўйича иш юритади.		процессуал ҳаракат қила олади.
5	Мансабдорлар позицион рўйхати	Миллий гвардия доираси умумий тилда; ҚББ лавозимлари аниқ рўйхат билан очилмаган.	5-қисм: **ҚББ бошлиғи, ўринбосарлари, ҳудудий бўлинма раҳбарлари** ва қонунга мувофиқ бошқа мансабдорлар баённома/иш кўриб чиқишга ҳақли деб аниқ кўрсатилди.	Ваколатдор шахслар позицион тарзда белгиланди.	Протоколлар йўл қўйилувчанлиги ошади; “ултра вира” рисклари камаяди.
6	Қонун-ости ҳужжатлар билан уйғунлик	Аниқ механизм қайд этилмаган; амалда VМҚ-322 классификатори орқали.	6-қисм: позицион рўйхат ва процессуал тартиб **Кодексга мувофиқ қабул қилинадиган НҲҲ** билан белгиланиши муҳрланади.	Кодекс–НҲҲ вертикали мустаҳкамланди.	ВМҚ-322 (код 380/381) ва “Е-маъмурий иш” билан барқарор интеграция.

№	Норма элементи	Аввалги ҳолат (амалдаги таҳрир)	Янгича таҳрир (лойиҳа)	Ўзгариш моҳияти	Кутиладиган амалий таъсир
7	Инсон ҳуқуқлари ва чекловлар	Умумий қоида даражасида.	7-қисм: ваколат чеклари, инсон ҳуқуқлари кафолатлари ва ҳисобдорлик тўғрисида алоҳида қайд.	Процессуал кафолатлар аниқ баёни.	Нозўравон қўллаш, шикоят механизми самараси ошади.
8	Норматив техника (умумий → махсус)	Умумий норма устун, махсусга тўғридан-тўғри ҳавола кам.	Янги таҳрирда 242-моддадан **248^1**га тўғридан-тўғри ҳавола бор.	Норматив иерархиядаги “умумий–махсус” боғланиш мустаҳкамланди.	Ҳуқуқни қўллашда ягона тафсир.
9	Ахборот тизимларига таъсир	Бевосита тилга олинмаган.	Натижавий тарзда ВМҚ-322 ва Е-тизим билан уйғун ишлайди (позицион рўйхат, идентификаторлар).	Дастурий-техник мослашув осонроқ.	Статистика ва мониторинг сифатини оширади.
10	Коллизия ва такрорланишлар	ҚББга доир коллизия хавфи мавжуд.	Махсус нормалар киритилиб, коллизиялар профилакцияси таъминланди.	Коллизиялар камаяди.	Судда бекор қилинган қарорлар улуши пасаяди.

GIYOHVAND MODDALARNING PROFILAKTIKASI DOLZARB MASALA

G.A.Tashmamatova
Jamoat xavfsizligi universiteti 4-bosqich kursanti

Bugungi kunda xalqaro hamjamiyat, giyohvandlikka qarshi kurashishdagi barcha chora-tadbirlar orasida profilaktika (oldini olish) eng muhim o‘rinni egallashi lozimligini ta’kidlab, muammo yuzaga kelgach, uni bartaraf etishdan ko‘ra, uning oldini olish ancha samarali va ustuvor hisoblanadi.

1961-yilda qabul qilingan Giyohvandlik vositalari to‘g‘risidagi Yagona konventsiyaning 1972-yildagi Protokolining 38-moddasi va 1971 yildagi Psixotrop moddalar to‘g‘risidagi konventsiyaning 20-moddasiga muvofiq, a’zo davlatlar giyohvandlik vositalarini suiiste’mol qilishni oldini olish bo‘yicha profilaktika ishlarini olib borish, giyohvandlik vositalarini davolash bo‘yicha barcha zarur choralarni ko‘rishlari shartligi belgilangan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1988 yildagi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish” konvensiyasining 14-moddasida “Har bir Tomon o‘z hududida noqonuniy ravishda yetishtiriladigan ko‘knori va nasha o‘simliklari kabi tarkibida giyohvandlik yoki psixotrop moddalar bo‘lgan o‘simliklarni noqonuniy yetishtirishning oldini olish va ularni yo‘q qilish bo‘yicha tegishli choralarni ko‘radi” deb belgilangan.

Giyohvand moddalarga moyillik va ularning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurash bo‘yicha ko‘p yillik tajriba umumlashtirilishi natijasida BMT hujjatlarida ikki asosiy strategik yo‘nalish belgilab qo‘yilgan:

1. Giyohvand va psixoaktiv moddalarga noqonuniy talabni kamaytirish;

2. Giyohvand va psixoaktiv moddalarning noqonuniy taklifini va yetkazib berishni kamaytirish.

Bu ikkala yo‘nalish bir-biriga bog‘langan bo‘lib xalqaro va milliy darajada o‘zaro bog‘liq harakatlar tizimini ifodalaydi.

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti o‘z rezolyutsiyasida “Giyohvandlik moddalarni nazorat qilishning xalqaro strategiyasi”ni qabul qildi. Ushbu rezolyutsiyalar giyohvandlikka qarshi kurash strategiyasiga xalqaro milliy harakatlarni kiritishni nazarda tutadi, undan qator hukumatlar va xalqaro tashkilotlar foydalanadi. Ular orasida quyidagilarga alohida e’tibor qarati lozim:

- giyohvandlik vositalari ustidan nazorat tizimini takomillashtirish;

- qonuniy maqsadlarda giyohvandlik vositalariga bo‘lgan talab va ularni yetkazib berish o‘rtasidagi muvozanatga erishish;

- giyohvandlik vositalarini noqonuniy manbalardan yo‘q qilish;

- giyohvandlik vositalariga noqonuniy talabni kamaytirish;

- noqonuniy giyohvand moddalarga bo‘lgan talabni kamaytirish va qonuniy giyohvand moddalarni noto‘g‘ri ishlatish yoki noqonuniy ishlatishning oldini olish;

- narkomanni davolash, reabilitatsiya qilish va ijtimoiy reintegratsiya qilish.

Bugungi kunda xalqaro ҳamjamiyat tomonidan olib borilayotgan yuori darajadagi qarshi kurash va profilaktik ishlarga qaramay, giyoҳvandlik vositalari va psixotrob moddalarning noqonuniy tarqalishi soҳasida saqlanib qolayotgan mavjud muammolarga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqyu Jumladan:

yangi turdagi giyoҳvandlik moddalarning paydo bo‘lishi – hozirda har oy deyarli yangi sintetik (sun’iy) giyoҳvandlik modda chiqmoqda. Ular “energiya beruvchi vosita”, “tabiiy dori” yoki “vape aralashmasi” sifatida yashirin tarzda sotilmoqda. Bu moddalarning tarkibi tez-tez o‘zgarib turadi, shuning uchun ularni aniqlash va nazorat qilish qiyin bo‘lib qolmoqda;

chegaralarda nazorat sustligi – giyohvand moddalar asosan qo‘shni mamlakatlar orqali o‘tadi. Ba’zi chegaralarda texnik vositalar eski yoki yetarli emas, shu sababli narkotiklar yashirin yo‘llar bilan olib kirilmoqda;

yoshlar orasida giyohvandlikka qiziqish ortib bormoqda – o‘smirlar va talabalar orasida “vape”, “spays”, “mix” kabi moddalardan foydalanish holatlari ko‘paygan. Ko‘pchilik ularni zararli emas deb o‘ylaydi, ammo bu moddalar ham kuchli qaramlik keltirib chiqaradi;

davolanishdan keyin qayta giyohvandlikka berilish – reabilitatsiya (davolanish va tiklanish) markazlari yetarli emas, mavjudlari esa ko‘p hollarda faqat qisqa muddatli yordam beradi. Natijada ko‘pchilik bemorlar yana eski odatiga qaytib qoladi;

aholi orasida ma’lumot yetishmasligi – ko‘pchilik, ayniqsa yoshlar, narkotik moddalarning sog‘liqqa, oilaga va kelajakka qanday zarar yetkazishini to‘liq bilmaydi. Maktablarda, oliygohlarda va ommaviy axborot vositalarida bu haqda tushuntirish ishlari kam olib borilmoqda;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasida hamkorlik yetarli emasligi – narkotiklar bilan bog‘liq jinoyatlar ko‘pincha xalqaro xarakterga ega. Ammo turli davlatlar va idoralar o‘rtasida tezkor axborot almashinuvi sust. Shu sababli jinoyatchilarni vaqtida aniqlash va to‘xtatish qiyinlashmoqda.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurash muammolari bo‘yicha xalqaro hujjatlarning tahlili shundan dalolat beradiki, giyohvand moddalarga qarshi kurash bo‘yicha chora-tadbirlarni muvofiqlashtirishdagi asosiy yo‘nalishlar quyidagi vazifalarni hal etish bilan bog‘liq:

1. Eng muhim vazifalardan biri — davlatlar o‘rtasida samarali hamkorlik munosabatlarini o‘rnatish va keyinchalik ularni mintaqaviy darajada integratsiya qilishni nazarda tutuvchi siyosatni ishlab chiqishdir. Bu siyosatning asosiy maqsadi, Giyohvandlik vositalarni iste’mol qilishni kamaytirishga qaratilgan choralar bilan ularning tarqalishini cheklashga qaratilgan choralar o‘rtasida muvozanatni ta’minlashdir.

2. Ma’muriy nuqtai nazardan eng muhim vazifalardan biri — turli davlatlar vazirliklari va idoralari faoliyatini muvofiqlashtirish uchun maxsus tuzilmalarni yaratishdan iborat. Bu jarayon “gorizontal muvofiqlashtirish” deb ataladi. Shu bilan birga, davlat muassasalarining yuqori darajali boshqaruv organlari bilan hamkorlikda ish olib borishi, ya’ni “vertikal muvofiqlashtirish” esa alohida murakkablik va tashkiliy yondashuvni talab etadi.

3. Giyohvandlik moddalarga qarshi kurash strategiyalarini amalga oshiradigan davlat muassasalari uchun yana bir muhim vazifa — jamoatchilikni davlat siyosati ishlab chiqilishi va uni hayotga tatbiq etish jarayonlariga jalb etishdir. Bu borada aholi o‘z ixtiyori va jamoaviy tuzilmalar orqali faol ishtirok etishi zarur. Jamoatchilikning bevosita ishtirokini ta’minlash, qabul qilinadigan qarorlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

BMTga a’zo davlatlarning aksariyatining giyohvandlik vositalariga qarshi kurashish strategiyalarida o‘zaro uyg‘unlik mavjud. O‘zbekiston ham mazkur yo‘nalishdagi BMTning tamoyillarni to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi. Mamlakat BMTning ushbu sohadagi uchta asosiy konvensiyalariga qo‘shilgan:

1961 yildagi Yagona konvensiya, 1971 yildagi Psixotrop moddalar to‘g‘risidagi konvensiya, 1988 yildagi Narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish to‘g‘risidagi konvensiya[330].

Bu borada O‘zbekiston xalqaro tashabbuslardagi ishtirokini faollashtib, sohada muammoga ancha ilgariroq duch kelgan davlatlarning tajribasidan foydalanib kelmoqda.

Shuningdek, MDH doirasidagi davlatlar bilan ham giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurash bo‘yicha hamkorlik yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Hozirgi vaqtda a’zo davlatlarning barchasi giyohvandlik moddalar

[330] Международные Конвенции по защите прав человека и борьбе с преступностью: (Сб. междунар. документов)/Сост. Ю.С. Пулатов. – Т.: Шарк, 1995. - С. 302-338. – 448 с. – (Сравнительное правоведение. Вып. 1). https://lex.uz/docs/2676167.

iste’molini kamaytirishga asosiy e’tiborni qatargan, shu bilan birga, narkotik moddalarga mukkasidan ketgan shaxslarni davolash va reabilitatsiya qilishga qaratilayotgan chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda.

Bundan tashqari, yana bir xalqaro hujjat, “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konventsiya”ning 33-moddasida bolalarni giyohvandlik va giyohvandlikdan himoya qilish zarurligi ta’kidlangan. Xuddi shunday holat Yoshlar uchun Butunjahon Harakat Dasturining[331] bandlarida ham o‘z aksini topgan bo‘lib, unda yoshlar tashkilotlari va yoshlarni giyohvand moddalarga bo‘lgan talabni cheklashga qaratilgan tadbirlarga jalb etish takliflari ilgari surilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi qonuni normalaridan ko‘rinib turibdiki, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarning muomalasi va ularning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi giyohvandlik vositalariga qarshi kurashishga qaratilgan faoliyatni qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Giyohvandlik va giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishining oldini olish nima ekanligini ko‘rib chiqaylik?

Kompleks yondashuvga asoslangan faol profilaktika va reabilitatsiya konsepsiyasi mualliflari antinarkotik profilaktikani muayyan mazmun, bosqichma-bosqich rivojlanish va aniq yakuniy natijaga ega bo‘lgan, yagona davlat dasturi doirasida tashkil etiladigan, davlat va jamoat tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tizimi sifatida talqin qilinad.

Profilaktikani aynan bunday faoliyat tizimi sifatida tushunish, giyohvand moddalarni iste’mol qilish va ularning noqonuniy aylanishining oldini olishga qaratilgan umumdavlat profilaktika tizimi doirasida ta’lim muhitida olib boriladigan profilaktika faoliyatini alohida kichik tizim sifatida ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Mazkur kichik tizim esa o‘ziga xos maqsad va vazifalarga ega bo‘lib, u umumiy strategiyaning tarkibiy qismi sifatida xizmat qiladi.Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni suiiste’mol qilishning oldini olish bu ushbu moddalarning tarqalishi, ularni qo‘llashga olib keluvchi sabab va shart-sharoitlarni barvaqt aniqlash, ularni bartaraf etish va insonlarni, ayniqsa, yoshlarni giyohvandlikka moyillikdan himoya qilishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar majmuasidir.

Bunday profilaktika:

[331]BMT Bosh Assambleyasining 1995 yil 14 dekabrdagi 91-yalpi majlisi //https://documents.un.org/doc/resolution/gen/n96/771/45/img/n9677145.pdf.

ijtimoiy (oila, mahalla, ommaviy axborot vositalari orqali ta’sir o‘tkazish);

ma’rifiy (maktab va oliygohlarda ta’lim-tarbiya ishlari orqali tushuntirish);

tibbiy-psixologik (salomatlikni mustahkamlash, stressni yengish, qo‘llab-quvvatlash);

Uning maqsadi odamlarning, ayniqsa yoshlar va voyaga yetmaganlarning giyohvand moddalarga bo‘lgan qiziqishini bartaraf etish, ularni sog‘lom hayot tarziga yo‘naltirish va suiiste’mol oqibatlarini oldini olishdan iborat.

Huquqshunos olimlar jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish hamda profilaktikasi haqida so‘z yuritar ekan, bu tushunchalarni jinoyat va huquqbuzarliklarni keltirib chiqaradigan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish yoki ularning ta’sirini kamaytirishga qaratilgan davlat va jamoatchilik hamkorligida amalga oshiriladigan umumiy ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy, madaniy-tarbiyaviy va huquqiy chora-tadbirlar majmuasi sifatida talqin qiladilar.

Bu chora-tadbirlar jamiyatdagi jinoyatchilik darajasini kamaytirish, aholi o‘rtasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, sog‘lom ijtimoiy muhit yaratishga qaratilgan tizimli va barqaror faoliyatni o‘z ichiga oladi.

Jinoyatlarning profilaktikasi tushunchasi mazmunini aniqlashda ko‘plab huquqshunos olimlar uning mohiyatini ham keng, ham tor ma’nolarda talqin qiladilar.

Keng ma’noda profilaktika - bu jinoyatlarning sodir etilishining oldini olish, jamiyat a’zolarini huquqqa zid, jazoga tortiladigan qilmishlarni sodir etishdan saqlashdir. Bu ma’noda profilaktikaga huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati ham kiradi.

Tor ma’noda profilaktika - bu jinoyatlarni keltirib chiqaradigan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, o‘zining jamiyatga qarshi yo‘nalgan xulq-atvori bilan kelgusida huquqbuzarlik sodir etishi mumkin bo‘lgan shaxslarni aniqlab, ular bilan maqsadli profilaktik ishlar olib borish faoliyatini anglatadi[332].

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasi profilaktikasi - bu ushbu illatlarni keltirib chiqaradigan ijtimoiy, huquqiy va kriminogen omillarni bartaraf etishga, ularga moyillik belgilari mavjud bo‘lgan shaxslar bilan maqsadli ishlashga va jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan, davlat va jamoatchilik hamkorligida amalga oshiriladigan tizimli chora-tadbirlar majmuasidir.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasi butun dunyo hamjamiyati oldida turgan eng jiddiy tahdidlardan biridir. Ushbu muammo nafaqat

[332] UNODC rasmiy sayti: www.unodc.org

alohida shaxslar sog‘lig‘iga, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishiga, ijtimoiy xavfsizlikka va davlatlarning milliy xavfsizligiga ham katta zarar yetkazmoqda. Shu bois xalqaro tashkilotlar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, MDH va boshqa mintaqaviy tuzilmalar hamda alohida davlatlarning siyosiy va huquqiy tizimlari giyohvandlikka qarshi kurashda alohida e’tibor qaratmoqda. Xususan, profilaktika choralari barcha sohalarda ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Chunki muammo paydo bo‘lgach, uni bartaraf etish nihoyatda murakkab va katta xarajatlarni talab qiladi. Ammo uning oldini olish imkoniyatlari samarali qo‘llansa, ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Umumiy xulosa qilib aytganda, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashda profilaktika eng muhim va ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Profilaktika choralari faqat davlat siyosati darajasida emas, balki butun jamiyat miqyosida olib borilishi kerak. Xalqaro hamkorlik, milliy qonunchilikning takomillashuvi, jamoatchilik ishtiroki, ta’lim va tarbiya tizimidagi chora-tadbirlar, shuningdek, reabilitatsiya va ijtimoiy reintegratsiya dasturlari uyg‘un holda qo‘llanilgandagina samarali natijalarga erishish mumkin. Giyohvandlikka qarshi kurashning muvaffaqiyati, avvalo, uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning qanchalik samarali va tizimli tashkil etilishiga bog‘liqdir. Shu bois profilaktika masalasiga ustuvorlik berish nafaqat milliy xavfsizlikni ta’minlash, balki yosh avlodni sog‘lom va barkamol insonlar qilib tarbiyalash, jamiyat barqarorligini mustahkamlashning ham eng to‘g‘ri yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. – 1999-yil 19-avgust.
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5099-son Farmoni – “Narkotik moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 28-dekabrdagi 1067-son qarori – “Giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatchilikning oldini olish va nazoratni kuchaytirish to‘g‘risida”.
6. BMTning 1988-yil 20-dekabrdagi “Narkotik vositalar va psixotrop moddalar noqonuniy aylanishiga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Konvensiyasi.
7. BMTning 1961-yilgi “Narkotik moddalar to‘g‘risida yagona konvensiyasi” va unga 1972-yilgi tuzatishlar.
8. Karimov, A. “Giyohvandlikka qarshi kurashda profilaktika choralari va ularning samaradorligi.” – *Ijtimoiy fanlar jurnali*, 2022, №3, 45–52-betlar.

9. Abdurahmonova, N. “O‘smirlar o‘rtasida giyohvandlikning oldini olishda oilaning roli.” – *Huquq va jamiyat*, 2021, №5.

10. Hasanov, B. “Narkotik moddalarga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o‘rni.” – *Ichki ishlar akademiyasi axborotnomasi*, 2020, №2.

11. UNODC. *World Drug Report 2024*. – Vienna: United Nations Office on Drugs and Crime, 2024.

12. To‘rayev, S. “Profilaktika tizimini kuchaytirish orqali giyohvandlikka qarshi kurashni takomillashtirish yo‘llari.”

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI 3

Global tahdidlar sharoitida millat genofondini asrash: giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashishning dolzarb muammolari va samarali yechimlari 6

Rustambayev M.X. 6

Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисидаги қонунчиликни бузганлик учун юридик жавобгарлик асослари 11

Ширинов Джахонгир Джаббарович 11

Аҳоли саломатлиги ва миллат генофондини ҳимоя қилиш йўлида 21

Камалова Дилдора 21

Giyohvandlik: mohiyati, turlari va namoyon bo‘lish xususiyatlari hamda uni aniqlashning tashxis belgilari 24

Zulfiqarov Sh.X. 24

Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi profilaktikaning ahamiyati 30

Azimov Jobir Odilovich 30

Прекурсорларнинг ноқонуний муомаласига қарши курашишнинг ҳуқуқий чораларини такомиллаштириш 36

Хайдаров Мирсаид Мирджаббарович 36
Калбаева Бахыт Хожамберген кызы 36

Вояга етмаганларни гиёҳвандлик билан боғлиқ жиноятларни содир этишга жалб қилганлик учун жавобгарлик масалаларини такомиллаштириш 39

Ниёзова Саломат Сапаровна, ... 39

Ўзбекистон Республикасининг “Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида” ги қонуннинг янги таҳрири 47

Азизов И. 47
Темурова Ш. 47

Борьба с распространением наркотиков в Узбекистане 52

Юрий Пулатов, ... 52

Harbiy xizmatchilar o‘rtasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar tarqalishini taqiqlashning huquqiy asoslari va ahamiyati 56

Ashrapov B.B., ... 56
Nizametdinxodjayev U.R. 56

Shayxontohur tumanida sodir etilgan giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlar tahlili va ularni oldini olishning zamonaviy mexanizmlari 60

Nurmatov Mirg‘olib Mirzayevich 60
Rizoyev Feruz Furqat o‘g‘li 60

Narkotiklarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishni huquqiy va taktik jihatdan ta′minlash: muammolar va takliflar 65

Payziyev Abbos Muxammadovich 65

Гиёҳвандлик ва наркожиноятларга қарши курашишда илмий тадқиқотларнинг ўрни 71

Тўраев Илхомжон Эсанович 71

Божхона чегараси орқали ноқонуний олиб ўтилаётган кучли таъсир этувчи моддаларни аниқлаш муаммолари 79

Гайиров Фазлиддин Саттарович 79
Рахмонов Бекзод Исроилович 79

Гиёҳвандликка қарши курашиш тизимида хорижий ёндашувлар ва уларни ўзбекистон амалиётига татбиқ этиш имкониятлари 88

Махсадов Махсатулло Исматович 88
Кузиев Дилшод Ахрорович 88

Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний муомаласига қарши курашиш соҳасида коррупция: криминологик ва ҳуқуқий таҳлил 93

Нурмуҳаммедова Гўзалхон Баҳодировна 93

Ахборот маконида гиёҳванд моддалар тарғиботи тушунчаси 99

Х.Қ.Бексариев 99

Ёшлар ўртасида ҳуқуқбузарликларни келтириб чиқарувчи омиллар: детерминант ва риск факторларининг ўзаро боғлиқлиги 104

Хурсандов Алишер Суюнович 104

Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishni nazariy-huquqiy jihatlari 114

Qo‘shayev Nurali Maxmudovich 114
Payziyev Abbos Muxammadovich 114

Трансмиллий наркожиноятчилик ва жаҳон наркобозорининг замонавий тенденциялари: криминологик таҳлил 118

Норбутаев Эркин Хурозович 118

Исаев Сардор Алишерович 118

Оммавий тадбирлар жараёнида жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг ривожланиш тенденциялари 128

Юсупов Мухтар Бекчанович, ... 128

Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashishda raqamli texnologiyalarning o‘rni: “psixotrop” boti misolida 143

Kenjayev Jasur Omon o‘g‘li, ... 143

Giyohvandlikka qarshi kurashish – umummilliy burch 147

R.T.Mavlyanov 147
M.A.Kamilov 147

“Transmilliy narkojinoyatlar va ularga qarshi kurashish mexanizmlari” 151

Ishmuratov Ergash Imamovich 151
Jumayev Akmal G‘ulom o‘g‘li 151

Ўзбекистон Республикасида гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар ноқонуний айланишига қарши курашнинг замонавий ҳолати ва такомиллаштириш истиқболлари 158

А.А.Икрамов 158
А.А.Абдурасулов 158

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida giyohvandlikni oldini olish: xorijiy tadqiqotlar va profilaktik chora-tadbirlarni takomillashtirish yo‘llari 163

Rizoyev Feruz Furqat o‘g‘li 163
Bahromova Marg‘iyona Boburmirzo qizi 163

Giyohvandlikka qarshi kurashning zamonaviy huquqiy va ijtimoiy mexanizmlari 168

Ravshanov Ulugbek Maxmurbekovich 168
To‘lqinova Sevinch Komil qizi 168

The use of cryptocurrency in drug smuggling and the illegal drug trade 174

Musaev Djamaliddin Kamalovich 174

Giyohvandlik vositalari kontrabandasiga qarshi kurashni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish masalalari 179

Abzalov Miraziz Mirgiyazovich 179

Распространение наркопреступности в киберпространстве и эффективность её профилактики в условиях цифровизации 186

Абдужаппоров Шаҳбоз Музаффар ўғли 186

Yoshlar o‘rtasida giyohvandlik va narkomaniyaga qarshi kurashishda huquqiy targ‘ibotning ahamiyati 192

Rizoyev Feruz Furqat o‘g‘li 192
Jumayev Akmal G‘ulom o‘g‘li 192

Giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish chora-tadbirlari 197

Usenov Erkaboy Qo‘chqorboyevich 197
Ibragimov Sanjar Botirovich 197

Ёшлар ўртасида гиёҳванд ва психотроп моддаларни олдини олиш 204

Абдуллоев Хуршид Гуломович 204
Акромжонов Иқболжон Акромжон ўғли 204

Жамоат хавфсизлигини таъминлашда гиёҳвандлик профилактикасининг замонавий моделлари: “хавфсиз маҳалла” ва кибер-тергов амалиёти 209

Кузиев Дилшод Ахрорович, ... 209

Основные направления оперативно-розыскной профилактики экстремизма и терроризма 220

Закурлаев Абдумутал Каримович 220

Narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasida uchuvchisiz uchadigan apparatlarning o‘rni 225

Magrubov Mansur Mirkomilovich, ... 225

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda giyohvand moddalar yetishtirishning oldini olish asoslari 229

Baxtiyorov Faxriyor Akromjon o‘g‘li, ... 229

Innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalar davrida voyaga yetmagan shaxslar o‘rtasida huquqbuzarliklarni oldini olish profilaktikasi 233

Xakberdiyev Samandar Abdusaidovich, ... 233

Giyohvandlikka qarshi kurashish sohasida qonunchilik takomillashtirish 237

Usmonov Sh.Sh. 237
Komilov Akobir Bobir o‘g‘li, ... 237

Voyaga yetmaganlarni giyohvand moddalar va psixotrop vositalardan himoya qilishda profilaktik chora-tadbirlarning o‘rni va ahamiyati 243

Jo‘rayev Qobiljon Olimjonovich, ... 243
Sharapov Baxtiyor Muxtorxonovich 243

Гиёҳвандликка қарши кураш фонида ҳарбий хизматчиларнинг жиноий жавобгарлиги ва рағбатлантириш институти.....247

Зокиров Комолиддин Тўйсиевич.....247
Абдуллаев Абдугаффор Абдуллаевич.....247

Наркопреступность как социально-правовое явление и угроза общественной безопасности.....254

Хужамбердиев Фаррух Комилович, ...254

Ёшлар ҳуқуқбузарлигининг детерминацияси: ижтимоий, психологик ва ҳуқуқий омилларнинг ўзаро таъсирини комплекс таҳлил қилиш 259

Арипов Акмал Хусниддинович, ...259

Giyohvandlik: tibbiy –ijtimoiy muammo.....268

Q.A.Maxmudov.....268
M.X. Ismatullaeva 268

O‘zbekistonda fvv va milliy gvardiya organlari hamkorligi: institutsional asoslar va amaliyot tahlili.....272

Tleubaev Yerpolat Najimovich, ...272

Кибержиноятчилик профилактикасининг ҳуқуқий асосларини халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш масалалари 281

Марзажонов Шохрухбек Собиржонович, ...281

O‘zbekistonda kiber-narkojinoyatchilikka qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish 288

Qurbonov Anvar Jamol o‘g‘li 288

Yoshlar jinoyatchiligining profilaktikasida zamonaviy yondashuvlar va ularni qo‘llash muammolari.....292

Raxmatov Kamoljon Ximmat o‘g‘li,.....292

Миллий гвардия органларининг маъмурий фаолиятини тартибга солувчи ҳуқуқий нормалардаги муаммолар таҳлили ва уларни бартараф этиш масалалари.....298

Назаров Ғанишер Баҳодирович,.....298

Ички ишлар органлари ходимларининг жисмоний тайёргарлигини ривожлантириш ва назорат қилиш механизмлари.....312

Муҳамадов Улуғбек Умеджон ўғли,.....312

Патруль-пост хизмати фаолиятининг хорижий моделлари: ташкилий-ҳуқуқий таҳлил ва ўзбекистонда ислоҳотларни ривожлантириш истиқболлари 324

Туракулов Зоҳиджон Зокиржонович, ... 324

Хорижий давлатларда миллий гвардия типидаги тузилмаларда раҳбар кадрлар тайёрлаш тизими ва унинг ўзига хос жиҳатлари 337

Мурадуллаев Аббосбек Абдураҳмонович 337

Қўриқлаш хизмати фаолиятида қўриқланадиган объектларда ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишнинг ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш 351

Шокиров Фаррухбек Одилжон ўғли 351

Giyohvand moddalarning profilaktikasi dolzarb masala 363

G.A.Tashmamatova 363

GIYOHVANDLIK VA NARKOJINOYATLARGA QARSHI KURASHISH SOHASIGA OID MILLIY QONUNCHILIK BAZASINI TAKOMILLASHTIRISH

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI

2026-yil 31-mart

Muharrir: Murakayeva Z.I.
Texnik muharrir: Boboxonov S.R.

Bosishga ruxsat etildi: __.04.2026. y. Buyurtma: № ___. Format 60x90/16.
Times New Roman garniturasi bilan raqamli bosma usulida bosildi.
Hisob nashriyot t.: 21,64. Shartli b.t. 23,50. Adadi: _____ nusxa.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasi